O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

PEDAGOGIK OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA AMALIYOT BILAN UZVIYLIGINI TA’MINLASH MASALALARI

Respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya
2024-yil, 15-oktyabr

Republic-wide scientific and scientific-technical conference
ISSUES OF ENSURING INTEGRATION WITH PRACTICE IN ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN INSTITUTIONS OF PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION
October 15, 2024

Республиканскую научно-техническую конференцию на тему
«РОЛЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА ВЗАИМОСВЯЗИ С ПРАКТИКОЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ»,
которая состоится 15 октября 2024 года

JIZZAX – 2024

UO‘K: 37.018.74
KBK: 74.489

“Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etishda amaliyot bilan uzviyligini ta’minlash masalalari” mavzusidagi Respublika miqyosida ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari

Jizzax, 2024. - 224 bet.

Mas’ul muharrir:
Tursunov Diyor Sunnatovich – *pedagogika fanlari falsafa doktori, dotsent*

Tahrir hay’ati:
A.J.Usmanov, R.I.Ablyakimova, T.B.Nazarov, M.Z.Akmalova, A.S.Qosimov, Sh.A.Botirov

Taqrizchilar:
Iroda To‘raqulova – *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*
Raxmatova Feruza – *pedagogika fanlari falsafa doktori, dotsent*

Texnik sifatlovchilar:
T.B.Nazarov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200-son qarori 9-bandi beshinchi xatboshisida belgilangan 2024-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyalar rejasi”dagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti Maktab menejmenti kafedrasida 2024-yil 15-oktyabr kuni “Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etishda amaliyot bilan uzviyligini ta’minlash masalalari” mavzusidagi respublika miqyosida ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya tashkil etildi.

“Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etishda amaliyot bilan uzviyligini ta’minlash masalalari” mavzusida respublika miqyosida ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya o‘tkazilib, ushbu tadbirda ta’lim jarayonida amaliyotning o‘rni, pedagogik innovatsiyalar va ilg‘or yondashuvlar muhokama qilindi. Konferensiya doirasida respublikamizdagi oliy ta’lim muassasalarining tajribalarini o‘rganish, muhokama qilish va amaliyotga yo‘naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqish nazarda tutilgan. Konferensiyani tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad ta’lim jarayonida amaliyot va nazariyani uzviy birlashtirish, yosh pedagoglarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularning ilmiy faoliyatini samarali tashkil etish hisoblanib, ushbu tadbirda respublika yosh tadqiqotchilarning tajribalari o’rganildi, muhokama etildi va ilg‘or texnologiyalar hamda xalqaro tajribalardan foydalanish bo’yicha tavsiyalar yaratildi.

Konferensiya materiallarida yoritiladigan tarixiy jarayonlar, ma’lumotlar va chiqarilgan xulosalarning haqqoniyligiga mualliflar javobgar.

KIRISH SO‘Z

2023-yil 4-iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-200-son qarorining 9-bandi beshinchi xatboshisiga asosan 2024-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkazilishi rejalashtirilgan ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyalar rejasi ishlab chiqildi. Shu asosda, Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti Maktab menejmenti kafedrasi tomonidan 2024-yil 15-oktyabr kuni “Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etishda amaliyot bilan uzviyligini ta’minlash masalalari” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi. Ushbu tadbirning ahamiyati pedagogik ta’lim jarayonlarini amaliyot bilan integratsiya qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan.

Hozirgi zamon pedagogik tizimlarida ta’lim jarayonining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan amaliyot bilan uzviy bog‘liqlikka tayanadi. Amaliy bilimlarni mustahkamlash ta’lim jarayonida o‘quvchilarni nazariy bilimlarga tayangan holda haqiqatga yaqinlashtiradi. Ushbu konferensiya doirasida ilmiy tadqiqotchilar, pedagoglar va oliy ta’lim muassasalari rahbarlari tomonidan ta’limda amaliy ko‘nikmalarni oshirish, ta’lim texnologiyalari va innovatsion yondashuvlarni joriy etish masalalari keng muhokama qilinadi.

Shuningdek, konferensiya davomida xorijiy tajribalar o‘rganilib, ularni O‘zbekiston ta’lim tizimiga joriy etish bo‘yicha takliflar bildiriladi. Xususan, xorijiy oliy ta’lim muassasalarida amaliyotning ta’lim jarayoniga qanchalik ta’sir ko‘rsatayotgani, talabalarni kasbiy hayotga tayyorlashda qanday metodikalar qo‘llanilayotgani haqida ma’lumotlar almashiladi. Pedagog kadrlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlash, ularni xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh qilish ham konferensiyaning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Mazkur konferensiya ta’lim muassasalarida o‘qitish sifatini oshirishga, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga uyg‘unlashtirishga, ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlarni keng qo‘llashga katta turtki beradi. Xususan, oliy ta’lim muassasalarining ilmiy va texnik salohiyatini oshirish, talabalarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, zamonaviy ilmiy laboratoriyalardan foydalanish va ijodiy g‘oyalarni amalga oshirish kabi masalalar muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Bundan tashqari, konferensiya davomida pedagogik oliy ta’lim muassasalarida amaliyot bilan uzviylikni ta’minlashga qaratilgan ilg‘or yondashuvlar, metodologiyalar va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ta’lim jarayonida talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida faol hamkorlikni rivojlantirish, ularni amaliy tajribalarga jalb etish va jamoaviy loyihalarda ishtirokini ta’minlash hamda innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Yana bir muhim jihat, konferensiya davomida olingan tajribalar va natijalar asosida ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarni amalga oshirish uchun qulay muhit yaratishdir. Bu, o‘z navbatida, talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiyalash va zamonaviy ilmiy laboratoriyalarni rivojlantirish, shuningdek, talabalarni zamonaviy bozor talablariga tayyorlash, ularning kasbiy kompetentsiyalarini oshirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuvlar nafaqat ta’lim sifatini oshirishga, balki respublikamiz iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi.

Konferensiya ishtirokchilari pedagogik jarayonlar, ilmiy tadqiqotlar va boshqaruv tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha o‘zaro tajriba almashadilar. Shu bilan birga, oliy ta’lim tizimini isloh qilish, boshqaruvda zamonaviy innovatsiyalarni keng joriy etish, akademik va moliyaviy mustaqillik kabi masalalar ham konferensiya kun tartibidan joy olgan.

Ushbu respublika ilmiy-amaliy konferensiya ta’lim tizimining turli bosqichlarida boshqaruv, pedagogik jarayonlar va ta’lim sifatini takomillashtirish muammolarini muhokama qilish hamda o‘zaro tajriba almashish maydoni sifatida xizmat qiladi.

Sharipov Shavkat Safarovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti rektori,
pedagogika fanlari doktori, professor

1-ShO‘BA. PEDAGOGIK OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA NAZARIYA VA AMALIYOT UYG‘UNLIGIGA ASOSLANGAN TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRUVCHI EVRISTIK TOPSHIRIQLAR VA ULARNING AHAMIYATI

Qodirov G‘ayrat O‘roqboevich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi, dotsent

Hozirgi XXI asrda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashning yangi usul va vositalarini tez rivojlantirish, uning o‘sib kelayotgan yosh avlod ta’lim-tarbiyasida ijobiy tomonlari qanday ekanligini yoritib berish va o‘quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning o‘rni alohida ahamiyat kasb etilishini tushuntirishdan iborat. Kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim-o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga akslangan ta’lim o‘quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, axborot komminikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bugungi davr kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun o‘tmishdan bizgacha yetib kelgan o‘qitish va tarbiyalashning qadimgi modellarini, tajribalarni bilish zarur, aks holda ayon bo‘lgan bilimlarning qaytadan kashf qilinishi yoki xatolarning yana takrorlanishiga olib kelishi mumkin. Kasbiy ta’lim-tarbiyaning hozirgi kundagi ko‘plab muammolari avvallari ham bo‘lgan. Tarix ma’lum darajada takrorlanadi, uning tajriba va saboqlarini kelajak uchun o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi evristik topshiriqlarda ta‘lim sifatini tubdan oshirish, talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish vazifalari belgilib berilgan. Bu ta‘lim jarayonini zarur axborotlar bilan ta‘minlash, ularni o‘zlashtirib borishning maqbul yechimlarini topish va joriy qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘lim o‘quvchilarni o‘zlashtirilgan axborotlarni o‘quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va nostandart vaziyatlarida qo‘llay olishga tayyorlashi bilan harakterlanadi. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi evristik topshiriqlar ta‘limni zamonaviy rivojlanish talablariga moslashtirish fanlardan elektron ta‘lim resurslarini takomillashtirish, o‘quvchilarning elektron manbalar bilan faol muloqotini ta‘minlash, mustaqil ta‘limini amalga oshirish va o‘z-o‘zini baholash, zaruriy ma’lumotni operativ izlab topish va yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda undan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan ta’lim sifati ko‘rsatkichlaridan biri kompetentlilik hisoblanadi. U faqatgina bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi 14 bo‘libgina qolmay, o‘quvchilarning egallagan bilimlarini mobillashtirish va aniq vaziyatlarda tajribada qo‘llay olishi bilan tavsiflanadi. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi evristik topshiriqlar yondashuviga asoslangan o‘qitishning asosiy mohiyati kasbga yo‘naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirish sanaladi.

Bugungi kunda “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun” talablarini amalga oshirish jarayonida yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash muhim muammo sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda. Shunday ekan, ushbu talablardan kelib chiqqan holda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, yuqori malakali, madaniyatli, turli soha egalarini tayyorlash dolzarb muammolardan hisoblanadi. Qonunda e’tirof etilgan yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo‘lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida o‘qituvchi kasbiy-metodik kompetentligini ta’lim va tarbiya jarayonlariga tatbiq etishda psixologiyaning o‘z uslub va qoidalari yetarli bo‘lmaganday. Shunga ko‘ra yosh avlod ta’lim olish davrlaridagi

rivojlanish tendensiyalaridan tortib, yangicha o‘qitish texnologiyalarini ta’lim oluvchi tomonidan o‘zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog‘lik ta’sir ko‘rsatayotganligini o‘rganish hamda psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg„unlashtirishni taqozo etadi. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchidan metodik kompetentlik, ayniqsa, turli xil sharoitlarda ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi psixologiyasini to‘g‘ri baholay olish bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik kompetentlikning yuqori darajada bo‘lishi talab qilinadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta’limning turli darajalarida mutaxassislarni tayyorlash turli muammolarni hal qilish pedagogik oliy ta’lim muassasalarida o‘qishning butun jarayoni davomida talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish zarurati va imkoniyati mavjud. Taklif etilib kelinayotgan yondashuvning afzalligi shundaki, talabalar bosqichma-bosqich fan sohasidagi nazariy bilimlardan amaliyotga qo‘llay oladilar, tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ–637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 2019-yil 8-oktyabr. www.lex.uz

3. Golish L.V. Ta’limning faol usullari: mazmuni, tanlash, amalga oshirish. Ekspress qo‘llanma. – T., 2001. – 68 b.

4. Nuridinov B.S., O‘rinov U.A. Ta’lim sohasidagi malakali kadrlar tayyorlash omili // Kasb-hunar ta’limi. – T., 2003. № 6. B.11.

5. O‘rinov U.A. Ishlab chiqarish ta’limida amaliy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish usullari // Kasb-hunar ta’limi. – T., 2020. № 3 35–39 b.

6. O‘ktamova Sh.H. Education and innovative research 2022-y. № 1.144–153-b. 7. Xolov X.M. PedagogS international research journal. Volume–5, Issue–1, March–2022. 73–77-b

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA BOSHQARUVCHANLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ASPEKTI

Ablyakimova Refide Izmerovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maktab menejmenti kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail address: ablyakimova.refide@mail.ru

Annotatsiya:

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda boshqaruvchanlik kompetensiyasini rivojlantirishning dolzarbligi, ahamiyati va amaldagi holati tahlili atroflicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *davlat, jamiyat, boshqaruv, xotin-qizlar, gender tengligi, barkamol avlod, rahbar, sivilizatsiya, takomillashtirish.*

Abstract:

The article reveals in detail the relevance, importance and current state of development of management competence in future teachers.

Keywords: *state, society, goverance, women, gender equality, harmoniously developed generation, leader, civilization, improvement, national mentality.*

Аннотация:

В статье подробно раскрыта актуальность, важность и современное состояние развития управленческой компетентности у будущих учителей.

Ключевые слова: *государство, общество, управление, женщины, гендерное равенство, зрелое поколение, лидер, цивилизация, совершенствование.*

Bo‘lajak o‘qituvchi xotin-qizlarni mavqeini oshirish shaxsni shakllantirish bilan bog‘liq jarayonlarning bir qismi sifatida ijtimoiy-pedagogik aspektlarga ega. Shu boisdan xotin-qizlarning

rahbar sifatida tayyorlash alohida ijtimoiy-pedagogik jihatdan puxta tashkil etilishi kerak. Pedagogika fanining zamonaviy tendensiyalarida xotin-qizlarni har tomonlama rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida qo‘yilmoqda. Bunday munosabat inson kapitalidan to‘liq foydalanish strategiyasining ajralmas yo‘nalishiga aylanib ulgurdi. Rivojlangan davlatlarda mazkur jarayon bo‘yicha maqsadli dasturlar shakllantirilgan. Jumladan: Rossiyada “Ayol – Lider” ta’lim dasturi mavjud - bu barcha ishtirokchilarga umuman ayol yetakchining imkoniyatlariga yangicha qarash imkonini beradigan noyob tajriba. Bu dasturning maqsadi muvaffaqiyatli ayollarning rivojlanishi uchun joy yaratish, mamlakatning ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etishda birlashishga qodir kabi dasturlar amalga oshirilmoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchi xotin-qizlarda boshqaruvchanlik kompetensiyasini rivojlantirishning turli aspektlari faylasuf, sotsiolog, pedagog va psixolog olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Jumladan, faylasuf olima X.O.Shayxova ilmiy izlanishlarida o‘zbek xotin-qizlarining zamonaviy va milliy fazilatlari, ularning ijtimoiy hayotdagi, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi o‘rni masalalari, markaziy o‘rinda turadi.

X.O.Shayxova zamonaviy ayollarni ijtimoiy faolligi oshirib borayotgani ta’kidlagan holda “Biror soxa yuqki, - ayol o‘z bilimi faolligi, iste’dodini namoyon kilmasin. Mulkdorlar sinfi vakili, tadbirkor, fermer, kichik va ko‘shma korxona sohibi, tijoratchi, biznes va menejer kabi kasb egalari yoki mudofaa va huquq-tartibot soxasida minglab iqtidorli, saloxiyatli, akl-zakovatda uktam ayollarning faoliyat ko‘rsatishi shakllanayotgan fuqarolik jamiyatimiz uchun oddiy holdir” degan xulosaga keladi [1,88].

A.A.Huseynova ayollarning davlat boshqaruv va siyosiy partiyalar faoliyatidagi ishtiroki, ular ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda nodavlat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining o‘rni masalalarini o‘rganadi. Uning xulosasiga ko‘ra, davlat boshqaruv tepasida asosan erkaklar turishibdi. Shuning uchun “ayollar masalasi”dagi eng murakkab va turli qarama-qarshi yondashuvlarni keltirib chiqarayotgan muammo ham xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvda keng ishtirok etishiga erishishda muhim ekanligini deb ta’qidlaydi [2,27].

N.R.Nishonova o‘z tadqiqotlarda davlat organlari rahbarlari lavozimlariga kadrlar zaxirasini shakllantirishda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligiga rioya etilishi bilan davlat organlarining rahbarlari va tegishli mansabdor shaxslar xotin-qizlar va erkaklarni davlat xizmatiga qabul qilishda teng huquqlilikni, ularning qobiliyati va kasbiy tayyorgarligiga muvofiq ta’minlash orqali samaradorlikka erishish mumkinligini ko‘rsatib o‘tadi [3,21].

M.A.Karimova tomonidan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurilishida, xotin-qizlarni ijtimoiy muhofazalashning qaror topish yo‘llari, uning davlat qonunlari bilan mustahkamlanishi zarur degan xulosaga keladi [4,28].

Sotsiolog T.K.Narbayeva o‘z tadqiqotlarida O‘zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirishning innovatsion modeli tahliliga to‘xtalar ekanmiz shunday deydi: Xotin-qizlarning bilim olish, kasb tanlash, lavozimga ko‘tarilishda erkaklar bilan ayollarga bir xil imkoniyatlar yaratilishi orqali gender tenglikning hayotimizdan tobora kengroq o‘rin olinishiga erishilishi xotin- qizlarni ijtimoiy himoya qilishdagi innovatsion modelning tarkibiy jihati hisoblanib, ularning o‘z xaq-xuquqlarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida faol ishtirok etishi xotin-qizlar ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini oshirishning kafolatidirdir xulosalarga kelgan[5,8].

T.Narbayeva tadqiqotlari davomida xotin-qizlarni jamiyatning faol a’zoga aylanishida ta’lim va tarbiya uyg‘unligini ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi va uning bir necha bosqichlarni ishlab chiqqan:

Birinchidan, oilada ota-onalar tomonidan farzandlarga tarbiya berish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar qatorida, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar xususida tushunchalar berib borish;

Ikkinchidan, maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchilar mamlakat siyosiy xayotining bo‘lajak ishtirokchilari ekanligi xissini uyg‘otuvchi uslublarning zamonaviy vositalaridan foydalanish;

Uchinchidan, umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilariga ijtimoiy-siyosiy bilimlarga bo‘lgan ehtiyojini oshirishga yo‘naltirilgan fanlardan ta’lim berish;

To‘rtinchidan, oliy ta’lim va undan keyingi bosqichlarda siyosiy va huquqiy madaniyatni tadqiq etishga oid ilmiy-nazariy va amaliy faoliyatga rag‘bat berish, bunda ta’lim muassasalari va davlat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni keng yo‘lga qo‘yish;

Beshinchidan, yosh qizlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda madaniyat obektlari (kino, teatr, muzey va h.k.) bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy-siyosiy tadbirlarda ularning ishtirokini ta’minlash, ushbu yo‘nalishlardagi munozara-debatlardagi faolligini oshirish;

Oltinchidan, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarda xotin-qizlarning faol ishtirokini ta’minlash, yosh qizlarning jamiyatda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga daxldorlik tuyg‘usini shakllantirish ham ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlarimizning asosini tashkil etadi.

S.Safoyev tadqidlashicha: “Rahbarlikka zaxira kadrlarni shakllantirishda xotin-qizlardan istiqbolli kadrlar ro‘yxatini tuzish ularni rahbarlikka tayyorlashning samarali mexanizmi ekanligini tadqidlaydi. Rahbarlikka zaxiraga olinganlar 2016 yilda 3 ming nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2021 yilda ularning soni 15 mingdan oshdi”. Bugungi kunda Oila va xotin-qizlar kumitasi tomonidan 25ming xotin-qizlar zaxirasi yaratilgan.

M.P.Ergasheva tomonidan xotin-qizlar faolligini yuksaltirish asosida boshqaruv takomillashtirishning sotsial asosi sifatida “zamonaviy ayol” qiyofasini muvofiqlashtirish kerak degan xulosa keladi.

M.K.G‘afforova ilmiy izlanishlari natijasida XIX asrgacha jamiyatdagi jinsiy differensiatsiya talqinlari (Aflotun, Arastu, Kant, Gegel) erkaklar ustuvorligi g‘oyasiga asoslangan bo‘lsa, XIX asr oxiri, XX asr boshlaridan ayollarning jamiyatdagi o‘rni va rolining umumjahon miqyosida o‘zgarishi tendensiyalari xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy yangicha qiyofasi, imijini shakllantirdi. Bu esa ularning davlat va jamiyatni boshqarishda turli ijtimoiy to‘siqlarsiz erkaklar bilan tengma-teng shartlar asosida faol ishtirokini qo‘llab-quvvatlovchi ilmiy-nazariy yondashuvlar ishlab chiqilishiga turtki bo‘ldi, degan xulosa keladi.

Gender tushunchasi keyingi yillarda pedagoglar tomonidan ham pedagogik muammoga aylandi. Bu borada respublikamiz pedagog olimlari tomonidan ba’zi ilmiy izlanishlar ham olib borildi. Jumladan, O.Jamoldinovaning oliy ta’lim tizimiga gender yondashuv tamoyillarini joriy etish usullari o‘ziga xos xususiyatlari va gender tengligi tadqiqotning nazariy va amaliy rejasini belgilab olishda muhim asos bo‘ldi.

U.S.Temirovaning ilmiy izlanishlarida harbiy xizmatchi xotin-qizlarni «komandir-buysinuvchi», «harbiy xizmatchi-harbiy jamoa», «harbiy xizmatchi-harbiy xizmatchi» tizimlari doirasida boshqarish va ularni ijtimoiy-siyosiy o‘qishini tashkil etishga oid milliy-madaniy xususiyatlarini inobatga olgan holda amal qilishini ta’kidlaydi. Shundan kelib chiqib, xotin-qizlarning mavqeini oshirishning ijtimoiy-pedagogik aspektlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Birinchidan, So‘nggi yillarda gender tenglikni ta’minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo‘yicha bir necha yo‘nalishlarda ishlar olib borilmoqda:

Jumladan, Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo‘ravonlik va zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to‘g‘risidagi farmon va qarorlari qabul qilingan.

Ikkinchidan, Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini, yoshlarning ijodiy salohiyatini qo‘llab-quvvatlash hamda rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini talim muassasalarida keng targ‘ib etish zarur.

Xulosa qilib aytganda bugun davlat boshqaruvining jozibadorligi oshib bormoqda. Davlat xizmatida ishlash, shu orqali ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarni rivojlantirishga bo‘lgan faollikning ortib borayotganligi buning yorqin isbotidir. Har bir bo‘g‘indagi davlat xizmatida ayol rahbarlarning soni oshib borayotganligini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, xalqimizning vakillari faoliyat

yuritadigan qonun chiqaruvchi hokimiyat – Oliy Majlisda xotin-qizlarning ulushi o‘tgan saylovda birmuncha oshdi.

Yuqorida ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganib chiqilgan, pedagogik psixologik adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlariga asoslanib, shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etishini qayd etish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Шайхова Х. Маънавият-камолот кўзгуси. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009.-Б.88.

[2].Хусейнова А.А. Фуқаролик жамиятини шакллантириш жараёнида аёллар фаоллигини ошириш муаммолари (ижтимоий-фалсафий таҳлил): Фалсафа фан.док. дис.автореферат. Тошкент, 2010. Б.167.

[3].Нишонова Н.Р. “Ўзбекистон давлат бошқарув тизимида хотин-қизлар фаолиятининг ижтимоий-фалсафий таҳлили”. Фалсафа фан док. дис. Тошкент, 2020й. Б.241

[4].Каримова М.А. “Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий муҳофазалашда исломий қадриятларнинг ўрни”. Фалсафа фанлари номзоди дис. – Тошкент, 2008й. Б.142

[5].Нарбаева Т.К. “Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилиш тизими самарадорлигини оширишнинг инновацион модели”. Автореферат. Социология докторлик дис.– Тошкент, 2020 й. Б.228

РАБОТА С КАДРАМИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ: СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ

Косимов Азимжон Санакулович
Преподаватель кафедры Школьный менеджмент
Джизакского государственного педагогического университета

Абстрактный:

На современном этапе социально-экономического развития ко всем сферам системы образования предъявляются высокие требования. Причина в том, что сегодня образование становится важным условием внедрения новых технологий во все сферы человеческой деятельности, повышения конкурентоспособности, повышения уровня жизни. Социальная ответственность высшего образования во многом заключается в том, что каждый человек становится покупателем на быстро меняющемся рынке труда, полноценно участвует в развивающейся инновационной экономике и тем самым улучшает свое благосостояние и благосостояние общества в целом. Она состоит из приобретения профессиональных и социальных навыков, которые позволят обеспечить. Учитывая возрастающую роль высших учебных заведений во многих странах, стратегия его развития определяется национальными стратегическими приоритетами и направлена на повышение качества высшего образования и расширение доступа к нему. Начало рыночных реформ в Узбекистане потребовало серьезной перестройки системы, направленной на подготовку кадров в условиях плановой экономики, причем государство определяет не только мелкие детали необходимости подготовки кадров, но и форму, стиль и идею образования [Решение VM 841 «Об устойчивом развитии до 2030 года]».

Abstract:

The current stage of socio-economic development imposes high demands on all areas of the education system. This is due to the fact that today education has become a key condition for the introduction of new technologies into all spheres of human activity, enhancing competitiveness, and improving the standard of living. The social responsibility of higher education largely lies in the fact that every person becomes a participant in the rapidly changing labor market, fully engages in the evolving innovative economy, and thereby improves their own well-being and the well-being of society as a whole. It involves the acquisition of professional and social skills that will allow individuals to secure a better future. Given the increasing role of higher education institutions in

many countries, the strategy for their development is determined by national strategic priorities and is aimed at improving the quality of higher education and expanding access to it. The beginning of market reforms in Uzbekistan required a serious restructuring of the system, which had been focused on training personnel for a planned economy. The state not only defines the specific needs for workforce training but also determines the form, style, and idea of education [Resolution VM 841 "On Sustainable Development until 2030"].

Ключевые слова и фразы: *Высшие учебные заведения, заведующий кафедрой, профессор, доцент, старший преподаватель, преподаватель, должности ассистентов, инженерно-технические, административно-экономические, производственные, учебно-ассистент, государственный грант высшего образования, закон об образовании, ходатайство, система обучения.*

Key words: *Higher educational institutions, head of department, professor, associate professor, senior lecturer, lecturer, assistant positions, engineering and technical, administrative and economic, production, educational assistant, state grant of higher education, law on education, petition, system training.*

Новые условия изменили структуру подготовки высокообразованных специалистов, спрос на их знания и навыки. Сейчас высок спрос на кадры, способные применять новые знания на практике и понимать масштаб инновационных возможностей в конкретной профессии. Это должны быть специалисты высокого уровня, которые не только грамотно решают текущие экономические и производственные вопросы, но также обладают аналитическими способностями и могут принимать правильные решения. Желание Узбекистана присоединиться к современному индустриальному миру потребовало от него создания системы высшего образования, способной адаптироваться к потребностям быстро меняющегося рынка труда. Возникла необходимость развития высших учебных заведений и усиления конкуренции, стимулирующей предоставление ими качественных образовательных услуг.

Современные принципы в развитии общества Ю. Джомтен, Дакарские конференции и Всемирная конференция по высшему образованию, состоявшаяся в Париже в 2000 г. проблемы школы, такие как улучшение возможностей, обеспечение равных возможностей для всех, повышение качества, а также вопросы социальной ответственности высшего образования. Нет сомнений в том, что высшие учебные заведения играют важнейшую роль в создании и обмене знаниями для решения глобальных проблем современности, от борьбы с бедностью до устойчивого человеческого развития. Теперь мы более подробно остановимся на вопросах, связанных с деятельностью высших учебных заведений. Причина в том, что в нашем научном анализе должны быть тщательно исследованы теоретико-методологические основы системы работы с педагогами и работниками высшей школы. Поэтому необходимо изучить, какие теоретические подходы существуют в вопросах работы с кадрами в высшей школе, и их влияние на деятельность высшей школы.

На основе правовых и теоретико-методических основ, когда мы говорим о работниках высших учебных заведений; инженерно-технический, административно-экономический, производственный, воспитательный помощник и др.

В состав профессорско-преподавательского состава входят следующие должности: заведующий кафедрой, профессор, доцент, старший преподаватель, преподаватель, ассистент. [ВМ 2021-й № 705]

Теоретической основой фундаментального реформирования современной системы высшего образования служит «Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы» от 8 октября 2019 года Ш.Мирзиёева.

Также авторство первого Президента нашей страны И.Каримова «Совершенное поколение – основа развития Узбекистана»:- «Конечная цель всех наших реформ в экономической и политической сферах – создание достойных условий жизни для все

граждане, проживающие в нашей стране. Вот почему одной из важнейших задач нашего государства является воспитание духовно развитого человека, повышение образования и воспитание нового поколения, которое воплотит в жизнь идею национального возрождения. В этой брошюре полностью объясняются законы системы образования. Приняты и утверждены Кодексы о высшем образовании, которые являются частью системы образования. Например: Глава 1, Статья 5, Статья 14, Глава 5 – Глава 33, анализируются такие вопросы, как педагоги-работники, система высшего образования, международное сотрудничество.

«Мечта об идеальном поколении» в соавторстве с Ш. Курбановым и др. представляет собой произведение публицистических размышлений. В данной работе выражены вопросы граждан по различным вопросам системы образования и ответы на них нашего первого президента, а также мнение автора. В том числе: «Вопрос: - Каковы факторы реформы высшего образования?» - Ответ: - Прежде чем ответить на вопрос, давайте вспомним эпоху бывших Советов. В ней роль диплома, а не знаний, в системе высшего образования переоценивалась, он рассматривался как документ, служащий для занятия определенного высокого положения в обществе... «Они смотрели в конец л» [И.А.Каримов Залог развития Узбекистана 1998]

Ниже приведены права и обязанности держателей позиций, работающих в ОТМ:

Обязанности проректора (заместителя директора филиала):

• Организация реализации законов Республики Узбекистан, указов и распоряжений Президента, постановлений Олий Мажлиса и Кабинета Министров в области образования и подготовки кадров;

• Организация образовательной, научной, финансовой и нравственно-воспитательной работы на основе государственных образовательных стандартов и подготовки квалифицированных кадров;

• Обеспечение полного понимания всеми деканами и кафедрами, заведующими кафедрами и педагогами комплекса требований к содержанию знаний и уровню подготовки в соответствии с государственными образовательными стандартами.[Приказ № 941 от 26 декабря 2017 года]

В настоящее время, когда наша система образования является членом Болонской системы, если сотрудники и преподаватели каждого вуза не будут работать над собой, рейтинг ОО’Ю снизится, и в конечном итоге сотрудники потеряют работу. потерять свои руны. Поэтому действующая прозрачная система образования требует постоянного повышения научного потенциала и квалификации. Это один из результатов правильной деятельности нашего президента Ш.Мирзиёева.

То есть действующий механизм требует планомерного роста каждого преподавателя, сотрудника и ученика. Чтобы коренным образом повысить качество образования, прежде всего, необходимо привести образовательные программы, методические пособия для учителей и педагогов к передовым международным стандартам. Мы создаем новый современный университет в городе Ташкенте, чтобы создать для наших талантливых сыновей и дочерей широкие условия для глубокого освоения высоких технологий и знаний, подготовки нового поколения конкурентоспособных отечественных кадров.

В этом университете задействованы ведущие ученые и профессора из-за границы, а молодежь обучается на основе самых современных программ. В настоящее время молодые люди стремятся поступить в самые престижные вузы, но конкуренции между вузами за привлечение образованной и талантливой молодежи нет. По этой причине система выдачи госзаказа на подготовку необходимых специалистов будет создана и для частных вузов.

Список использованной литературы:

1. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан №841 «О мерах по реализации национальных целей и задач в области устойчивого развития до 2030 года». - Ташкент. – 20 октября 2018 г. Источник: www.lex.uz. -Б.66.

2. Приказ Министерства высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан №19-2018 «Об утверждении Положения о системе контроля и оценки знаний студентов в высших учебных заведениях». - Ташкент. – 9 августа 2018 г. Источник: www.lex.uz. -Б.32.

3. Лекс.уз. отображать Министр высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан. Зарегистрировано в Министерстве юстиции Республики Узбекистан 22 февраля 2003 года. Регистрационный № 1222.04.03.2003 г. Глава VIII. Работники высшего образовательного учреждения

4. Каримов И.А., Баркамол авод – основа развития Узбекистана», -Ташкент:, «Шарк», 1998. - Б.3.

5. Конституция Республики Узбекистан, Ташкент:. «Узбекистан», 2011.

6. Ш. Гурбанов и др., «Мечта об идеальном поколении», (Комментарии публициста о реализации «Национальной программы подготовки кадров») - Ташкент, издательство «Шарк». 1998. - Б.159.

7. https://президент.уз. Послание Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису 29 декабря 2020 года.

O‘QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA BADIIY ASARLARDAN FOYDALANISH

Rohila Atamurodova
JDPU, Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya:

Maqolada shoir A.Oripovning o‘quvchilarning tabiatga munosabatini mehnat orqali ko‘rsatadigan o‘quv faoliyatida tafakkurini shakllantirishdagi o‘rniga bag‘ishlangan. Badiiy asarlar orqali o‘quvchilarning insoniy tuyg‘ularini shakllantirish va takomillashtirish e’tiborga olinganligi tus’huniladi. O‘quvchilarning tafakkurini shakillantirishda badiiy asarlar orkali tabiatga bo‘lgan munosabati ko‘rsatilgan. O‘quvchilarda badiiy asarlar orkali insoniy tuyg‘ularni shakllashtirish va takomillashtirish inobatga olinshini nazarda tutadi.

Annotation:

The article is devoted to the role of the poet A. Aripov in the formation of students’ thinking in the educational activity, which shows their attitude to nature through their work. It implies that the formation and improvement of human feelings in students through works of art is taken into account.

Annotatsiya:

Statya posvyaщena roli poeta A. Aripova v formirovanii u studentov mыshleniya v uchebnoy deyatelnosti, kotoroe cherez trud pokazыvaet ix otnoshenie k prirode. Podrazumevaetsya, chto uchitыvaetsya formirovanie i sovershenstvovanie chelovecheskix chuvstv u uchaщixsya cherez proizvedeniya iskusstva.

Ta’lim-tarbiya jarayonining har bosqichida o‘quvchilarda insoniy tuyg‘ularni shakllashtirish va takomillashtirish, estetik taraqqiyotini oqilona boshqarish nafaqat ularning badiiy asarlarni o‘zlashtirish xususiyatlarini bilishni, balki har bir o‘quvchining bu boradagi individual anglash, tafakkur yuritish, his qilish, hukm-xulosa chiqarish xususiyatlarini hisobga olishni ham talab qiladi.

Tafakkur orqali o‘quvchilar badiiy asar haqida fikr yuritadilar. Buning uchun o‘qiyotganlarini tasavvur qilib, xayolan ko‘z oldiga keltiradilar: asar qahramonlari ham, ro‘y berayotgan voqea-hodisalar ham, to‘qnashuvlar, personajlar ham ilg‘ab olinganicha tasavvur qilinadi. O‘z tasavvuriga tayanib fikrlagan o‘quvchi mulohazalarini nutqi orqali bayon qiladi, his-tuyg‘ularining ko‘lami ham nutqidan seziladi. Demak, tasavvur ham, tafakkur ham boshqa psixologik jarayonlar bilan tabiiy

ravishda aloqador. Insonning har qanday fikri, tuyg‘usi, harakatida tasavvur mavjud. O‘quvchi adabiy qahramonni o‘zicha tasavvur qiladi, unga munosabati shakllanadi. O‘zgalarning tuyg‘ularini qo‘l bilan ushlab, ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydi. Ularni o‘z qalbida tuyish, his qilib, tasavvur orqali anglash kerak bo‘ladi. O‘quvchi bu jarayonni o‘z intellektual imkoniyatlari doirasida kechiradi. Adabiy ta’limda o‘quvchilarning ayni shu holatlariga emotsional ta’sir ko‘rsatiladi: xayolot olami, tasavvurlarini boyitishga; tafakkuri va mushohadalarini o‘stirishga; nutqining yanada takomillashuviga erishish uchun sharoit yaratiladi. Badiiy asarni tahlil qilish jarayoni o‘quvchi faolligini ta’minlash orqali uni insonlararo munosabatlarga aralashtiradi; hayotiy muammolar ildizini topishga, to‘qnashuvlar asosini aniqlashga undaydi; hayot haqida, inson to‘g‘risida o‘z xulosalari va muhokamalarini chiqarishga imkon yaratadi; nimalarnidir yoqlab, nimalarnidir rad etadi, tanqidiy ko‘z bilan qaraydi. Asar qahramoni uni odamlarga yaqinlashtiradi, uning qismati o‘zi va o‘zgalar taqdiriga befarq bo‘lmaslik tuyg‘usini uyg‘otadi. Bunday tuyg‘u umuminsoniy mohiyatga egaligi jihatidan o‘quvchilar ma’naviyatining yuksalishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Insonni tabiatga yaqinlashtiradigan, uning ko‘nglini Ona Tabiat go‘zalliklariga oshno aylaydigan fasl – bahor fasli hisoblanadi. Shuning uchun qadim davrlardan boshlab olamni yoshartiradigan bu fasl shoirlarning ilhom manbai bo‘lib kelgan.

Haqiqatda ham bahor va she’r o‘ziga xos egizak tushunchalardir. Bahorni go‘zalliklardan zavqlanish mavsumi deyish mumkin. Bunda tabiatning yashil ranglarga bo‘yanishidan boshlab, suvlarning sharqiroq ovozi, qushlarning qiy-chuvigacha barchasi sirli va jozibali. Bu sir va joziba esa insonni doimo o‘ziga maftun etadi. ana shunda uyg‘onish shavqini yangidan his qilib, yana ilgariga intiladi. Bahor shu tarzda uning hayotiy intilishlarini quvvatlab yashashga, sevishga va yaratishga ishonchini mustahkamlaydi. Shuningdek, bahor inson xotirasini ham bedor etadi. Shunda u o‘tgan umrini emas, bu dunyoni tark qilgan kishilar xotirasini ham yodga oladi. Bahor va ko‘klam manzaralarini odam o‘z qalbida his etganda ko‘ngliga ilohiy va hayotiy quvvat oqib kiradi. Mana shu sabablarga ko‘ra, Sharq shoirlari bahor faslini yangi orzu, umid, shodlik, ezgulik, bunyodkorlik fasli sifatida madh etib kelganlar. Masalan, Yusuf Xos Hojib «Qutadg‘u bilig» dostonining alohida bo‘limida Bahorni madh etib shunday satrlarni bitgan:

Esa keldi Sharqdan bahorning yeli,
Olamga ochildi janatning yo‘li.
Bu bo‘z yer iporlandi qorlar ketib,
Bezandi olam chiroy ko‘rsatib.
G‘olib keldi qishdan bahor chiroyi,
Qurildi yangidan bahorning yoyi…

Bu satrlarning davomini o‘qirkansiz, yashil, sariq, ko‘kdan liboslar kiygan daraxtlar, o‘zini erkin qo‘yib butunlay yashillikka burkangan «tog‘u qir, dalalar», yerdan shodon bosh ko‘targan «ming alvon chechaklar», iporning hidiga ko‘milgan olam, o‘yinga berilgan «g‘oz, oqqushu o‘rdak» ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi.

Yusuf Xos Hojib tasvirlarida tog‘ aro «qizil og‘zi qondek, qoshi qop-qora» kaklik va uning bag‘rida quvnayotgan bulbul qo‘shiqlarini tinglatgandek bo‘lasiz. Xuddi shunday ianzara tasvirlarini «Devoni lug‘otit-turk»dagi she’rlarda ham uchratish mumkin.

Xullas, uzoq asrlardan e’tiboran bahor fasli mumttoz she’riyatimiz vakillariga mavzu, obraz, manzara, poetik tasvir vositasi sifatida xizmat qilib kelgan. Lekin bularning barchasi insonning taqdiri, fikr-xayoli, orzu-umidlari va ichki kechinmalari bilan bevosita uyg‘un ravishda badiiy tadqiq etilgan. O‘tmish she’riyatimizda jumladan, bahor manzaralari ko‘pincha, simvolik xarakterda bo‘lib, real lavhadan ko‘ra ko‘proq kishi kayfiyatiga ko‘proq ko‘tarinki his-tuyg‘ular uyg‘otadi. Ammo, Lutfiy, Atoiy, Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy va boshqa iste’dodli shoirlarimizning she’rlarida tabiat manzaralari shartli simvollar emas, haqqoniy va jonli tabiat ko‘rinishlarini o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalantiradi. Masalan, Navoiyning bahor madhiga bag‘ishlangan o‘nlab g‘azallari, Boburning «Bahor faslidurur may havosi boshimda» «Bahor ayyomidur dag‘i yigitlikning avonidur», «Yoz fasli, yor vasli do‘stlarning suhbati», «Xotirni bahor faslida gasht

oladur», «Xush ulki bahor fasli bu dunyoda» satrlari bilan boshlanadigan she’rlari, Munisning «Chamanlar sayrig‘a kelki fasli navbahor o‘lmish», Ogahiyning «Qilib oyini mehr og‘oz Navro‘z, Furqatning «Fasli navbahor o‘lmish» deb boshlanuvchi va boshqa shoirlarning ko‘plab she’rlarini eslash mumkin.

Shoir o‘z yurtining farzandi sifatida xalq dardlarini, iztiroblarini o‘z ko‘ngli orqali «lirik men» tuyg‘ulariga payvandlab ifodalaydi. Hayot qanchalik go‘zal, tabiat maftunkor, kuz manzaralari ham o‘ziga xos jozibali yashamasa, kuz xirmoni unga baraka, shodligu quvonchlar keltirmasa, zahmatli mehnati unga rohat baxsh etmasa, aksincha, «mehnatga qullik» oqibatida mehnat zahmat, dardi alam keltirsa, jondan aziz xalqini baxtir deyish mumkinmi? Xalqini mehnat qaddini bukan, zahmatlardan ezilgan holda ko‘rish shoirni iztirobga solmoqda. Shoir sobiq sho‘rolar tuzumi davrida xalqimiz mehnatga qul qilinganligi oqibatida uning taqdiri buyruqlar, shiorlar orqali hal qilinganligini «kuzning falsafasi shudir biz uchun» misrasiga alamli istehzo ma’nolarini yuklab ifoda qilgan. Bunday she’rlarni tahlil va talqin qilish davomida bugungi istiqlol davrining qadr-qimmatini anglash, bu ulug‘ ne’matni yanada mustahkamlash uchun har birimiz shu yurt, shu millat farovonligi yo‘lida kurashmog‘imiz lozimligi tushuniladi. O‘quvchilar shoirning grajdanlik tuyg‘ularini o‘z ko‘ngli orqali his qilib, millatparvarlik tuyg‘ulariga hamdardga aylanadilar. Anglab, his qilgan kechinmalarga tayanib fikrlaydilar, munosabat bildiradilar. Demak, tabiat lirikasiga mansub asarlarni o‘qib-o‘rganish va tahlil qilish vositasida nafaqat ona tabiatga mehr-muhabbat hissini tarbiyalash, balki o‘quvchiga barchamiz shu makonning, shu yurtning bir bo‘lagi ekanimizni anglatish; ona Vatan, tabiat va ona zamin oldida barchamiz mas’ul ekanimizni dildan anglab yashamog‘imiz lozimligini uqdirmog‘imiz zarur. Ona tabiat go‘zalligidan, ne’matlaridan bahra olish bilan birga bu ne’matlarni ko‘paytirishga, tabiatni asrash, avaylashga barchamiz burchlimiz, ana shunday mas’ullik tuyg‘usini his qila oladigan yoshlarni milliy va umuminsoniy tuyg‘ularga ega vatanparvar deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Oripov A. Tanlangan asarlar. To‘rt jildlik. Birinchi va ikkinchi jildlar. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. -T.: 2000. - 432

2. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped. fan. dok. diss... -T.: 1995. - 253 b.

3. Muxammadiyeva Sayyora Valijonovna. AHMAD YASSAVIYNING TA’LIMIY AXLOQIY QARASHLARI. 6 noyabr 2023 y.

4. Muxammadiyeva Sayyora Valijonovna. XOJA AHMAD YASSAVIY KOMIL INSON VA UNING SHAKLLANISHIGA OID QARASHLARI. 6 noyabr 2023 y.

5. Pardayeva K. Abdulla Avloniy asarlari uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayonining metodik manbasi sifatida. Xalq ta’limi o‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. 2020 5-son (sentabr-oktabr)

6. Sodiqova, D. (2019). PECULIARITIES OF FORMING CREATIVE ATTITUDE TO THOUGHTS OF STUDENTS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И НАУЧНЫЕ РЕШЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА В ТВОРЧЕСТВЕ ЖЕНЩИН-ПЕВИЦ, ОСНОВАННОГО НА ИНТЕГРАЦИИ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ

Мамаджонова Дильдорахон Абдурахмоновна
докторант базовой докторантуры по специальности
13.00.02 - Теория и методика образования и воспитания
в Кокандском государственном педагогическом институте

Аннотация:

Статья рассматривает проблемы и решения, связанные с интеграцией теории и практики в развитии творчества женщин-певиц в высших педагогических учебных

заведениях. На основе взглядов Абу Насра аль-Фараби подчеркивается необходимость совместного интеллектуального и нравственного воспитания. Интеграция теории и практики показана как важная для технического и духовного развития певиц. Также анализируются современные педагогические методы, дидактические законы и роль интерактивного взаимодействия, творческих лабораторий и практических занятий в образовательном процессе.

Ключевые слова: *теория и практика, женщины-певицы, творчество, педагогический процесс, Абу Наср аль-Фараби, нравственное воспитание.*

Интеграция теории и практики в развитии творчества женщин-певиц в высших педагогических учебных заведениях является одной из ключевых задач современного педагогического процесса. Эта интеграция важна для совершенствования образовательного процесса, развития творческого потенциала и повышения способности применять теоретические знания на практике. Эффективная организация этого процесса требует решения актуальных научных и практических проблем.

Восточный учёный Абу Наср аль-Фараби в своих педагогических и нравственных воззрениях придавал особое значение вопросам образования и воспитания. В своих трудах он подчеркивал необходимость одновременного интеллектуального и нравственного развития человека. Фараби считал, что образование включает не только освоение теоретических знаний, но и их практическое применение. Главной целью обучения, по его мнению, является развитие врождённых качеств человека.

Абу Наср аль-Фараби выделял две важные стороны в духовной жизни человека: разум и нравственность. По его мнению, только при одновременном развитии этих качеств человек может стать полноценной личностью. Поэтому процесс воспитания должен быть направлен не только на развитие знаний, но и на формирование нравственности. Эти взгляды Фараби особенно актуальны в процессе подготовки певиц, так как они должны быть не только технически совершенны, но и духовно возвышены. В процессе обучения важно, чтобы теоретические знания гармонично сочетались с практическими навыками, то есть наука и практика должны дополнять друг друга. По мнению Фараби, высокое мастерство и творческий потенциал формируются именно через объединение теории и практики. Например, для певицы теория музыки и технические навыки развиваются одновременно. Теоретические знания служат основой для повышения исполнительского мастерства, в то время как практические занятия формируют способность применить эти знания в жизни.

Абу Наср аль-Фараби подчеркивал следующие методы воспитания:

1. Удовлетворительные и вдохновляющие слова: Этот метод направлен на формирование привычек и навыков через слова, которые способствуют возникновению интереса к деятельности и профессии, превращая его в действие.

2. Принудительное воспитание: Этот метод предполагает принудительное воспитание, которое обычно используется в учебном процессе.

Фараби также уделял большое внимание интеллектуальной и нравственной стороне человека в своих трудах. Например, в своём произведении "Город добродетельных людей" он подчёркивает, что истинная нравственность человека заключается в сочетании двенадцати врождённых качеств. Среди этих качеств выделяются здоровые и развитые органы: У такого человека все органы должны быть важным образом здоровыми и развитыми.

• Быстрая догадливость: Он должен быстро понимать цель говорящего.

• Надёжная память: Память должна быть крепкой и надёжной.

• Остроумие и скорость мышления: Способность человека быстро и ясно мыслить имеет важное значение.

• Речевой поток: Речь должна быть плавной, а мысли — глубокими и четкими.

• Жажда знаний: Необходима высокая степень стремления к обучению и легкость усвоения знаний.

• Умение сдерживать себя: Важно уметь сдерживать свои желания и избегать азартных игр.

• Любовь к истине: Человек должен любить истину.

• Гордость и совесть: Необходимо выполнять гордые и достойные дела.

• Не жажда материальных благ: Певица не должна быть заинтересована в материальных благах.

• Справедливость: Человек должен быть справедливым и стремиться к справедливости.

• Непреклонность и решительность: Важно быть справедливым, но не упрямым, выступать против любой несправедливости и быть решительным, когда это необходимо.

Абу Наср аль-Фараби, уделяя особое внимание моральному совершенствованию, видит его смысл в наличии добродетельных человеческих качеств и добрых поступках. По его мнению, негативные качества, способствующие отсутствию морального совершенствования, включают лень, нерешительность, отсутствие знаний и профессиональной квалификации. Фараби считает разум, знание и просвещение важными средствами для достижения счастья. Он делит человеческие добродетели на врождённые и приобретённые в течение жизни. По мнению учёного, врождённые добродетели встречаются крайне редко, и основные моральные качества формируются в процессе жизни. Даже люди с врождёнными добродетелями нуждаются в воспитании, так как без него их способности могут быстро угаснуть. Врождённые способности также являются относительными; одни люди могут достичь хороших результатов, используя свои способности, в то время как другие могут достичь плохих результатов. Поэтому аль-Фараби подчеркивает важность воспитания в соответствии с потребностями общества и его роль в формировании высокоморального поведения. В своих работах, таких как «Город добродетельных людей», «О достижении счастья» и «О значениях разума», он акцентирует внимание на важности воспитания совершенного человека, который будет служить обществу.

Обучение певице не ограничивается только исполнением мелодий и песен, но также акцентируется на духовно-нравственном воспитании. Основываясь на взглядах аль-Фараби, исполнители должны стремиться к духовной зрелости и нравственной чистоте, отражая глубокий смысл в своем искусстве.

Интеграция теории и практики в высшем образовании, особенно в творчестве женщин-певиц, играет важную роль в повышении их творческого потенциала. Обучающие процессы, которые объединяют теорию и практику, предоставляют студентам возможность более глубокого понимания и расширяют их творческие возможности. По мнению аль-Фараби, интеллектуальное и нравственное воспитание человека должно быть объединено. Поэтому современные педагоги должны разрабатывать методы обучения, направленные на развитие креативности.

В развитии творчества женщин-певиц интеграция теории и практики способствует дальнейшему развитию профессиональных навыков студентов. В этом процессе преподаватели должны акцентировать внимание на практических занятиях, укрепляя теоретические знания и обеспечивая получение творческого опыта. Теоретический подход аль-Фараби гармонирует с современными дидактическими принципами, формируя более глубокий подход студентов к учебному процессу.

В высших учебных заведениях при интеграции теории и практики для женщин-певиц необходимо учитывать ряд дидактических закономерностей.

К ним относятся:

1. **"Долговечность результатов обучения"** — предполагает регулярное закрепление изучаемых знаний на практике и обогащение новыми знаниями.

2**. "Уровень понимания цели учащихся"** — важно, чтобы студенты осознавали свои цели и совместно усваивали теоретические и практические знания для достижения этих целей.

3**."Уровень сложности"** — необходимо поэтапно увеличивать сложность в процессе обучения, чтобы развивать способности учащихся.

Эти закономерности позволяют интегрировать практику и теорию, что формирует творческие навыки в процессе обучения. Взгляды аль-Фараби на важность теоретических знаний и практики имеют значительное значение в этом процессе. Интеграция в обучении не должна ограничиваться только учебными занятиями, но и объединять различные технологии и формы обучения. Новый этап в развитии интеграции в образовании вызывает интерес. Это не только соединяет схожие понятия по различным темам для создания целостного восприятия мира у детей, но и подчеркивает необходимость повторной организации обучения на основе теории. Анализ научной литературы позволяет сделать вывод о необходимости организации обучения, основанного на постоянном повторении и практическом применении.

Знание — это объединение различных тем и блоков в одно целое на основе общего подхода. В процессе интеграции теории и практики в творчестве женщин-певиц важную роль играет интерактивное сотрудничество между преподавателем и студентом. Через практические занятия и творческие лаборатории ученики проверяют теоретические знания на практике. Этот процесс помогает накапливать творческий опыт и находить новые стили и направления. Научные подходы имеют важное значение в образовательном процессе, основанном на интеграции теории и практики. Научные исследования являются основным фактором в выявлении актуальных проблем, возникающих в процессе обучения, и в поиске решений для них. Разработка наиболее эффективных методов интеграции теории и практики в творчестве женщин-певиц приведет к дальнейшему совершенствованию педагогических процессов. Поддержка творческого развития женщин-певиц при интеграции теории и практики становится одной из центральных задач образовательного процесса. Таким образом, правильная организация образовательного процесса позволит еще больше развить творческую деятельность и повысить музыкальное мастерство.

В узбекском музыкальном искусстве подчеркивается важная роль образования и воспитания в интеллектуальном и нравственном развитии личности. Развитие творчества женщин-певиц в высших педагогических учебных заведениях, основанное на интеграции теории и практики, является важным фактором для повышения их творческого потенциала, что требует научных решений и современных дидактических подходов. Взгляды аль-Фараби на гармонизацию нравственного воспитания и теоретических знаний с практическими являются научной основой для организации данного процесса. Эта интеграция осуществляется путем повышения творческого потенциала учащихся, усиления практических занятий и организации интерактивного сотрудничества между студентами и преподавателями. Таким образом, современный научный подход к педагогическому процессу способствует развитию творчества женщин-певиц.

Использованные источники

1. Абу Наср аль-Фараби. Город благородных людей. Ташкент, Издательство народного наследия имени Абдуллы Кодирий, 1993.

2. Абу Наср аль-Фараби. О добродетелях, счастье и совершенстве. Ташкент, Издательство "Йозувчи", 2001.

3. Хошимов, С. Педагогические и психологические взгляды Абу Насра аль-Фараби на образование и воспитание. «Экономика и социум», №12(91)-1, 2021.

4. Кузеванова, Е. Б. Интеграция учебных дисциплин в начальном образовании. // Сибирский педагогический журнал, 2007, №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/integratsiya-uchebnyh-distsiplin-v-nachalnomobrazovanii

5. Яковлева, В. Л. Интеграция как фактор создания целостного представления участников о окружающем мире (из опыта работы учителя). / В. Л. Яковлева. Текст: непосредственный // Молодой ученый, 2011, №10 (33), Т.2, С. 186-188. — URL: https://moluch.ru/archive/33/3779

THE ROLE OF AUTHENTIC TEXTS IN DEVELOPING LEXICAL COMPETENCE

Alimbetova Mekhriban Muratbayevna
PhD Student, Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Annotatsiya:
Leksik kompetentsiyani rivojlantirish til o‘rganish jarayonida muhim ahamiyatga ega va tabiiy til ishlatilishini aks ettiradigan autentik matnlar bu jarayonda katta rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada gazeta, bloglar va adabiyot kabi autentik matnlar o‘quvchilarni real hayot kontekstlari va turli til tuzilmalari orqali lug‘atni o‘zlashtirishni qanday yaxshilashi o‘rganiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, autentik matnlar an’anaviy darsliklarga qaraganda leksik bilimlar va matn tushunish malakasini yaxshiroq rivojlantiradi. O‘quvchilarning qiziqishlari va bilim darajalariga mos keladigan matnlarni tanlash orqali pedagoglar lug‘atni o‘rganish jarayonini yanada samarali qilishi mumkin. Maqolada autentik matnlardan foydalanish o‘quvchilarni chuqurroq tushunishga, ko‘proq qiziqish uyg‘otishga va lug‘atni uzoq muddat saqlab qolishga yordam berishi ta’kidlanadi, bu esa til ta’limida muhim vositaga aylanadi.

Kalit so‘zlar: *Leksik kompetentsiya, autentik matnlar, lug‘atni o‘zlashtirish, real hayot kontekstlari, til o‘rganish, kontekstual til qo‘llanilishi*

Abstract:
Developing strong lexical proficiency is crucial in language acquisition, and authentic texts—those that reflect natural language use—play a significant role in this process. This article explores how authentic texts, such as newspapers, blogs, and literature, enhance vocabulary acquisition by exposing learners to real-world contexts and varied language structures. Research shows that authentic texts improve both vocabulary knowledge and reading comprehension more effectively than traditional textbook materials. By selecting texts that align with learners’ interests and proficiency levels, educators can further optimize vocabulary learning. This article concludes that the use of authentic texts fosters greater engagement, deeper understanding, and long-term retention of vocabulary, making them an essential tool in language education.

Keywords: *Lexical competence, authentic texts, vocabulary acquisition, real-world contexts, language learning, contextualized language use*

Authentic texts play a crucial role in developing lexical competence. By exposing learners to natural language in various contexts, these texts improve vocabulary comprehension and usage while enhancing learners’ ability to recall and apply newly learned words. When paired with appropriate scaffolding, learners can fully benefit from authentic texts, strengthening their lexical skills in a supportive environment.

A study by Lee and Van Patten emphasizes the role of authentic texts in providing learners with contextualized language exposure [1]. Newspapers, blogs, and social media posts, for instance, contain a high density of vocabulary, which can significantly improve learners’ lexical competence. Cobb’s research also demonstrates that students exposed to authentic texts show greater improvement in vocabulary knowledge compared to those learning through traditional lists [2].

Additionally, authentic texts help learners encounter vocabulary in various genres and contexts, fostering a more nuanced understanding of word meanings. Complex vocabulary in these texts can be challenging, but teachers can address this by selecting graded texts and providing support—such as glosses, translations, or context clues—to facilitate comprehension.

Authentic texts, such as newspapers, blogs, and literature, offer invaluable resources for learners seeking to expand their vocabulary range. These texts reflect the natural use of language in real-life situations, exposing learners to diverse and accurate vocabulary. Moreover, authentic texts

often contain low-frequency words, helping learners expand their vocabulary and understand different linguistic contexts. Research by Hafiz and Tuzli confirms that learners who engaged with authentic texts experienced greater improvements in vocabulary size and comprehension than those reading simplified materials or textbooks [3].

Although some argue that authentic texts may be too difficult for learners, leading to frustration, research indicates that strategic reading with proper support can help overcome these challenges. Using tools such as vocabulary lists, context clues, and graphic organizers, instructors can guide learners through the complex language of authentic texts, helping build skills necessary for independent reading and vocabulary acquisition.

Selecting texts that align with learners' interests and proficiency levels is key to maintaining motivation and engagement. For instance, a learner interested in cooking may prefer reading authentic recipes or food blogs over academic articles. Research by Laufer and Goldstein suggests that texts with a high density of previously learned words are more effective for vocabulary learning than those with a lower density [4]. Similarly, Webb and Rodgers found that high-frequency target vocabulary in texts promotes better vocabulary learning [5].

Concerns that authentic texts may be too advanced for learners can be addressed by selecting texts based on learners' proficiency levels and interests. Teachers can use readability formulas or vocabulary proficiency tests to determine appropriate difficulty levels. Moreover, scaffolding strategies—such as supplying vocabulary lists or comprehension questions—can make authentic texts more accessible to learners.

Using authentic texts is a vital strategy for improving learners' lexical proficiency. These texts create opportunities for learners to engage with real-world language in a meaningful way. Authentic texts not only support vocabulary development but also encourage deeper engagement with language, boosting learners' confidence and motivation.

To maximize the benefits, educators should select texts that align with learners' proficiency levels, interests, and goals. This approach fosters a more personalized learning experience, promoting better vocabulary acquisition and retention. Additionally, scaffolding through vocabulary lists and context clues ensures learners can engage with the material without feeling overwhelmed.

In conclusion, authentic texts are an indispensable resource for enhancing learners' lexical competence. By providing exposure to natural language use in diverse contexts, these texts allow learners to expand their vocabulary, improve word recall, and develop a deeper understanding of language. Careful text selection, scaffolding, and instructional strategies help learners overcome the challenges posed by authentic texts, enabling them to fully benefit from the rich linguistic input these materials provide. Ultimately, authentic texts foster not only lexical proficiency but also greater engagement and confidence in using the language.

By prioritizing the use of authentic texts, educators can ensure that learners develop a more comprehensive understanding of vocabulary, improving their overall language competence and equipping them for real-world communication.

Reference:

1. Lee, J., & VanPatten, B. (2003). Making Communicative Language Teaching Happen. McGraw-Hill. Pages: 56-59.

2. Cobb, T. (2007). "Computing the Vocabulary Demands of L2 Reading." Language Learning & Technology, 11(3), 38-63.

3. Hafiz, F., & Tuzli, H. (2018). "Enhancing Vocabulary Knowledge through Reading Authentic Texts." Journal of Language Teaching and Research, 9(5), 984-991.

4. Laufer, B., & Goldstein, Z. (2004). "Testing vocabulary knowledge: Size, strength, and computer adaptiveness." Language Learning, 54(3), 399-436.

5. Webb, S., & Rodgers, M. P. H. (2009). "The lexical coverage of movies." Applied Linguistics, 30(3), 407-427.

6. Алимбетова М. М. ЛЕКСИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ: ЯЗЫКОВАЯ ОСНОВА ПРОФЕССИОНАЛЬНО-КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ //Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 11-1

7. Borasheva A. The Crucial Role of Teacher Support in Enhancing Willingness to Communicate, Professional, Communicative and Lexical Competences //Pubmedia Jurnal Penelitian Tindakan Kelas Indonesia. – 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 9-9.

8. Nuratdinova J. Developing professional communication skills in English of agricultural education students //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. B7. – С. 60-63.

9. Shakhnoza T. SOME WAYS OF DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE //Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 184-187.

BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING BOSHQARUV BILIM VA KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH HOLATINI TAHLIL QILISH

Akmalova Mohinur
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maktab menejmenti kafedrasi o‘qituvchisi, PhD
Asqarova Fayyoza
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ta’lim muassasalarining boshqaruvi magistranti

Annotatsiya:
Maqolada bo‘lajak mutaxassislarning boshqaruv bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish holatini tahlil qilishning nazariy jihatlari hamda ta’sir etish omillarini tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *boshqaruv kompetensiya, ta’lim tizimi, bilim, sifatli ta’lim xizmatlari, innovatsiyalar va texnologiyalar*

Jamiyatning barcha jabhalarida ro’y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy global o’zgarishlar kadrlar tayyorlash tizimini boshqaruv kompetensiyaviy talablar asosida rivojlantirishni taqozo etmoqda. Rossiya, Angliya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlarda yuqori kommunikativ kompetentlikka yega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga rivojlanishning asosiy yo’nalishi sifatida qaralib boshqarishning innovatsion usullari va uslublarini keng joriy yetilishi ta’minlanmoqda.

Shuning uchun bo‘lajak mutaxassislarning boshqaruv bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish borasidagi muammolarga amaliy yechim topish dolzarbligicha qolmoqda.

Mamlakatimizda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi oliy ta’lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishni ta’minlashga qaratilgan islohotlar natijasida bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ichki imkoniyatlarini ro’yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo’naltirilgan ta’lim muhitini yaratish bo’yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga umumiy o’rta ta’lim maktabi uchun ham zamon talabiga javob beradigan maktab menejerlarini tayyorlash zaruriyati oshib bormoqda. O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasida “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom yettirish”ning ustuvor vazifalari belgilanib, bu borada boshqaruv kompetentlikni shakllantirishga yo’naltirilgan ta’lim muhitini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb yetadi.

Boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish metodologiyasi, kompetensiyalar menejmenti, shuningdek, kasbiy o’zini-o’zi rivojlantirishning konseptual masalalari bo’yicha Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi (MDH) olimlaridan I.Zimnyaya, M.Potashnik, A.Subetto, P. Tretykova va boshqa bir qator olimlar tomonidan keng ko’lamda o’rganilgan.

Xorijiy mamlakatlarning olimlari Dj.Raven, X.Adnan, M.Rahman tadqiqotlarida pedagoglarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish, kompetentli yondashuv, zamonaviy o'qitish modellari tahlil etilgan.[4]

Ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassislarning boshqaruv kompetentligini shakllantirish orqali kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish zarur ahamiyatga ega ekanligi bir qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Taniqli olim N.A.Muslimovning ta'kidlashicha[1] shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini samarali amalga oshirish uchun talabalar zarur darajada kommunikativ kompetentlikka ega bo'lishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'zaro ta'sir jarayonlariga moslashuvchan bo'lishi, kommunikativ texnologiyalarni qo'llaganda talabalar va o'qituvchi o'zaro bir-birini tushunishi talab etiladi. Pedagog olim SH.S.Sharipov [2] oliy ta'lim tizimidagi o'qituvchining kasbiy mahorati nafaqat bilim va ko'nikmalar to'plami bilan cheklanib qolmaydi, balki ularni haqiqiy o'quv amaliyotida qo'llash samaradorligi bilan belgilanadi. Kompetentlikka ega bo'lish qobiliyatlilikni anglatadi, mavjud bilimlarni, tajribani muayyan vaziyatlarda muammoni hal qilish uchun safarbar eta olishlikni anglatishini qayd etadi.

Bo'lajak mutaxassislarning boshqaruv bilim va ko'nikmalarini shakllantirish holatini tahlil qilish bir qator omillarni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonni yanada chuqurroq o'rganish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor berish lozim:[3]

1. Ta'lim tizimi: Ta'lim muassasalarida boshqaruv fanlari qanday o'qitilayotgani, dasturlar, kurslar va mavzularni o'z ichiga olishi zarur. O'qituvchilarning malakasi ham muhim ahamiyatga ega. chunki u nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning rivojlanishida ham asosiy rol o'ynaydi.

2. Amaliyot: Talabalar amaliyot orqali nazariy bilimlarni qanday qo'llayotganini tahlil qilish kerak. Amaliy tajriba boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Talabalar o'qigan nazariy bilimlarini amaliyotda qanday qo'llayotganini aniqlash kerak. Masalan, talabalar darslarda o'rganilgan konseptlarni real hayotdagi vaziyatlarga qanday moslashtirishadi? Bu jarayonda ular qaysi nazariy asoslarga tayanganini tahlil qilish lozim.

Amaliyot jarayonida talabalar qanday ko'nikmalarni rivojlantirayotganini baholash muhimdir. Ular nazariy bilimlarni qo'llab-quvvatlovchi ko'nikmalarni (masalan, analitik fikrlash, muammolarni hal etish, jamoada ishlash) qanday shakllantirayotgani haqida fikr yuritish kerak.

3. Trening va seminarlar: Boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish uchun tashkil etilgan treninglar va seminarlar samaradorligini baholash zarur. Ushbu tadbirlar talabalarni qanchalik tayyorlaydi? Boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mo'ljallangan treninglar va seminarlar, tashkilotlarning o'sishi va rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ular rahbarlik fazilatlarini takomillashtirish va boshqaruv usullarini yanada samarali qilish uchun xizmat qiladi.

Trening va seminarlarning afzalliklari

- Amaliy tajriba: Ishtirokchilar real hayotdagi holatlar bilan ishlash orqali amaliy tajriba orttiradilar.
- Tarmoq yaratish imkoniyati: Boshqa rahbarlar va mutaxassislar bilan tanishish va tajriba almashish imkonini beradi.
- Yangiliklardan xabardor bo'lish: So'nggi boshqaruv texnologiyalari va usullari bilan tanishadi.
- Motivatsiya oshirish: Yangi bilim va ko'nikmalar egallash orqali ishtirokchilarning motivatsiyasi oshadi.

4. Innovatsiyalar va texnologiyalar: Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarning ta'lim jarayoniga kiritilishi, masalan, onlayn kurslar, simulyatsiya dasturlari va boshqa vositalar orqali boshqaruv bilimlarini oshirishda yordam beradi.

Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar ta'lim jarayoniga kiritilishi, boshqaruv bilimlarini oshirishda katta ahamiyatga ega. Onlayn kurslar, simulyatsiya dasturlari va boshqa zamonaviy vositalar orqali, ta'lim samaradorligi oshadi, talabalarning qiziqishi va motivatsiyasi

kuchayadi va bu jarayon talabalarga o‘ta qimmatli bilim va ko‘nikmalarni taqdim etadi. Ta’lim sohasidagi bu o‘zgarishlar boshqaruvning yangi avlodlarini tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi.

5. Talabalar fikri: Bo‘lajak mutaxassislarning o‘z fikrlarini, ehtiyojlarini va kutgan natijalarini inobatga olish, ularning tajribasiga asoslanib tahlil o‘tkazish muhim ahamiyatga ega. Bu esa ta’limning sifatini oshirish va mutaxassislarni mehnat bozorining talablariga moslashtirishga yordam beradi.

Bo‘lajak mutaxassislarning ehtiyojlari va kutgan natijalarini inobatga olish hamda ularning tajribasiga asoslanib tahlil o‘tkazish, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga katta hissaga ega. Shu orqali ta’lim tashkilotlari talabalar qiziqishini va istaklarini qondiruvchi, zamonaviy va dolzarb dasturlarni taqdim etishlari mumkin. Bu nafaqat talabalar uchun, balki mehnat bozorida ular uchun afzallik yaratadi.

6. Maqsadlar va natijalar: Ta’lim jarayonining maqsadlari aniqlanishi kerak - bo‘lajak mutaxassislardan nimalar kutilmoqda? Ularning bilimlari va ko‘nikmalari kelajakdagi ish faoliyatlariga qanday ta’sir qiladi? Ta’lim jarayonining asosiy maqsadlari bo‘lajak mutaxassislarning malakasini oshirish, ularning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Ta’lim jarayonining maqsadlari aniq belgilanishi bo‘lajak mutaxassislar o‘z sohasi bo‘yicha keng bilim va chuqur ko‘nikmalarga, shuningdek, shaxsiy rivojlanish qobiliyatiga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Bu esa ularning kelajakdagi ish faoliyatiga ijobiy ta’sir qiladi va ularni mehnat bozorida muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi.

7. O‘qitishni baholash tizimi: O‘qitish jarayonida baholashning samaradorligi, talabalarni rag‘batlantirish mexanizmlari ham muhimdir.

Baholashning samaradorligi va rag‘batlantirish mexanizmlari ta’lim jarayonidagi muhim elementlardir. Obektiv va tizimli baholash talabalarning bilim darajasini real ravishda aniqlashga yordam beradi, rag‘batlantirish esa ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirib, yuqori natijalarga erishishiga xizmat qiladi. Shu yo‘l bilan talabalarning muvaffaqiyatli karerasiga ham poydevor yaratiladi.

Ushbu jihatlarni tahlil qilish orqali bo‘lajak mutaxassislarning boshqaruv bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish holatini yaxshiroq tushunish mumkin bo‘ladi va zaruriy takliflar ishlab chiqilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – T.: “Fan”, 2004. – 126 b.

2. Sharipov Sh.S. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. – T.: TDPU, 2005. – 54 b

3. Abduraxmonov Q.X., Xolmo‘minov Sh.R., Xayitov A.B., Akbarov A.M. “Personalni boshqarish” (Darslik) – T.: TDIU

4. G.Abduraxmonova Inson resurslarini boshqarish. 2021 – yil

NAZARIYA VA AMALIYOT UYG‘UNLIGIGA ASOSLANGAN TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA KOMPETENTLI YONDOSHUVNING AHAMIYATI

Mirzakarimov Ergashboy Mirzaboyevich
Farg ‘ona politexnika instituti, dotsenti
ergashboy.mir@mail.ru
Fayzullayev Jamshid Ismoiljonovich
Farg ‘ona politexnika instituti, dotsenti, p.f.d(PhD
fayzullayev4748@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada nazariya va amaliyot uyg‘unligiga asoslangan ta’lim jarayonini tashkil etishda bilimli ta’lim yondoshuvidan kompetentlikka yo’naltirilgan ta’lim tizimiga o’tish hamda

bitiruvchilarda egallanishi ko'zda tutilayotgan kasbga doir shaxsiy xususiyatlarni shakllantirishda kompetentli yondoshuvning ahamiyati bayon qilingan.

Kalit so'zlar: *bilim, izlanish, muhandis, kadrlar, ta'lim, texnika, talaba, kompetentli, yondoshuv, fundamental, o'qituvchi*

Respublikamizda so'nggi yillarda muhandis kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ta'lim sohasini rivojlantirish, yangicha fikrlovchi, mustaqil faoliyat yurita oladigan muhandis kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, xorijiy hamkorlar bilan qo'shma fakulьtetlar, filiallar ochish va ularning moddiy texnik bazasini shakllantirishning me'yoriy asoslari yaratildi. "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish; ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash hamda oliy ta'lim tizimi faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish" ustuvor vazifa etib belgilandi [6].

Jamiyatning taraqqiy ettirish bosqichida «bilimli» ta'lim yondoshuvidan kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim tizimiga o'tish hamda bitiruvchilarda egallanishi ko'zda tutilayotgan kasbga doir shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayoni texnika oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun insonning mehnat faoliyati natijalarini samarali amalga oshirish kabi, kasbiy kompetentlikni fundamental va kasbiy bilim, ta'lim sifati-samaradorligi, kompetentlik yondoshuv asosida rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirishning eng maqbul davridir. Bo'lajak muhandislar ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, kompentsiyalarning mantiqiy tuzilmasini yaratish va istiqbolda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ulardan samarali foydalanish kabi holatlarni o'zida mujassam ettiradi [1].

Ta'lim sifatini oshirish - bu bugungi kunda butun jahon hamjamiyatidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Uni hal etish uchun esa, ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ta'lim jarayoni texnologiyalarini va so'zsiz ta'limning yakuniy maqsadini qayta ko'rib chiqish talab etiladi [1].

Jamiyatning texnika va texnologiyalari shiddatlik bilan rivojlanib borishi bir paytda, bugungi oliy ta'lim muassasalari talabalarining jamiyat talablaridan kelib chiqib kasbiy faoliyatlari bo'yicha yuzaga keladigan yangi-yangi sharoitlarga moslashish ko'nikmasiga ega bo'lish hamda bo'lajak muxandislarning kasbiy-ilmiy faoliyatida kasbiy tayyorgarlik darajasini, ilmiy tafakkurini rivojlanib borish uchun kun sayin o'z bilimlarini takomillashtirib borishlariga harakat qilishlarini talab qiladi[2]. Bu esa bo'lajak muxandislarni mustaqil izlanish orqali tadqiqotchilik qobiliyatlarining rivojlanishiga, kasbiy hamda hayotiy muammolarni mustaqil yechib unga ijodiy yondashishga o'rgatish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muxandislarni tayyorlash, ayniqsa texnika va texnologiyalardagi o'zgarishlarga moslasha oladigan, keng dunyoqarashga ega mutaxassislarni tayyorlashga imkon beruvchi tabiiy-ilmiy turkumdagi fanlar doirasida texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muxim va dolzarb xisoblanadi.

Biz ta'lim deyilganda o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi ongli va maqsadga tomon yo'naltirilgan bilishga doir faoliyatni tushunamiz. Har qanday ta'lim o'z oldiga ikkita maqsadni qo'yadi [3].

1) Talabalarga dastur asosida o'rganilishi lozim bo'lgan zarur bilimlar sistemasini berish.

2) Talabalarga metodologik yondoshuvlardan biri xisoblangan kompetenli yondoshuv asosida fundamental va kasbiy bilimlarni berish orqali ularning kreativlik, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini xamda kasbiy kompetentligini rivojlantirish.

Xar bir pedagog talabalarga ta'lim jarayonida o'rgatilayotgan tushunchalarni psixologik, pedagogik va didaktik qonuniyatlar asosida tushuntirsagina biz ko'rib o'tgan yuqoridagi ikki maqsad amalga oshadi. Buning natijasida talabalar ongida bilish deb ataluvchi psixologik jarayon hosil bo'ladi.

Oliy ta’lim muassasalarining bitiruvchilarini tayyorlash sifatini boshqarishning konseptual muhim usullaridan biri - ta’lim mazmunini takomillashtirishda kompetentli yondoshuvni amalga oshirish xisoblanadi.O’quv jarayonini tashkillashtirishda kompetentli yondashuv oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining o’zlashirilgan bilimlarini amaliy tadbiqiga doir masalalarni yechimini tadbiq qilishga tayyorgarliklarini metodologik ko’rsatkichi sifatida aniqlashtiriladi[6].

Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo’lajak muxandislarni kasbiy faoliyatda o’zlashtirilgan bilimlardan samarali foydalanish borasidagi malakalarining mustahkamlanishini ham ta’minlaydi. Shu bilan birga kabiy faoliyatdagi nazariy va amaliy masalalarni yechish, adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko’nikmalarini shakllantirish, muhandis-texnik masalalarini yechish ko’niklarini hamda kasbiy mazmundagi masalalarni yechish malakalarini rivojlantirishga yordam beruvchi bilim, ko’nikma va malakalarni rivojlantirishni ham ta’minlaydi.

Respublikamizda, bugungi kunda, oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan modernizattsiyalash jarayoni va tub islohotlar bir-biriga uzviy bog’liq bo’lgan quyidagi ikki omil bilan shartlashilgan:

1) ta’limning «bakalavr- magistr» ikki bosqichli tizimiga o’tish;

2) bo’lajak mutaxassisni kasbiy tayyorlash jarayoniga kompetentli yondoshuvni joriy etish.


Qayd etilgan omillar orasida bo’lajak muxandislarni, xususan tayyorlashda ikkinchi yondoshuv asosiy rol o’ynaydi. Chunki, oliy ta’lim muassasasida ta’lim olish vaqtida talaba kompetentli yondoshuvni amalga oshirishning ob’ekti bo’lib hisoblanadi [5].

Kompetentli yondoshuvning ta’lim tizimiga joriy qilinishi ta’limning maqsadi, mazmuni, o’qitish shakli, vositalari va usullari, pedagogik texnologiyalari, hamda ta’lim beruvchi bilan ta’lim oluvchi o’rtasidagi o’zaro munosabatlaridagi o’zgarishlarni tadbiq qilishga asos bo’ladi. Jumladan, «bilimli» yondoshuvida ta’lim maqsadi ta’lim oluvchidan har bir fandan alohida bilim, malaka va ko’nikmalarni shakllantirishga yo’naltiradigan bo’lsa, «kompetentli» yondoshuvda ta’lim oluvchida fanlar bo’yicha integrallashgan bilim, malaka va ko’nikmalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’limda kompetentli yondoshuvni amalga oshirishning yetakchi g’oyasi shundan iboratki, bitiruvchilarda kompetentsiyalar majmuasini shakllantirish ular egallashi lozim bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalar majmuasi bilan aniqlanuvchi oliy ta’lim muassasasiga an’anaviy bo’lgan maqsadga to’laqonli mos kelmaydi.

Kompetentli yondashuv bu ta’lim maqsadlariga ustuvor yo’nalganlik: o’zlashtirish, o’zini-o’zi aniqlash, o’zini-o’zi aktuallashtirish, ijtimoiylashuv va individuallikni rivojlantirish. Mazkur maqsadlarga erishishning instrumental vositalari sifatida tub yangi birliklar: kompetentlik, kompetentsiya xizmat qiladi.

Ta’limda kompetentli yondashuv “bilimli” yondashuvni rad etmaydi, balki “bilimli” yondashuv asosida shakllanadi va o’quv jarayonining asoiy tashkil etuvchisi bo’lib xizmat qiladi [4]. Kompetentsiyaviy yondashuv talabaning fundamental bilimlarni kasbiy faoliyatda qo’llay olish qobiliyatining rivojlantiradi. Bulardan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalarida kompetentli yondoshuv asosida ta’lim maqsadining modeli shakllantirildi (1-rasm)



1-rasм. Kompetentli yondoshuvda ta'limning maqsadi modeli

Yuqorida ifodalanganlarni umumlashtirib, kompetentli yondashuv ta'limning uzluksizligi, uning fundamentalligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanishini, mazmun hosil qiluvchi birlik esa, nazariya va amaliyot uyg'unligiga asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etishda kompetentli yondoshuvning aniq maqsadi sifatida xizmat qilishini ta'kidlaymiz.

Adabiyotlar:

1. Faizullayev, J., Mirzakarimov, E., Mamayusupov, J., Tillaboyev, B., & Tillaboyeva, G. (2024). Methods of teaching fundamental sciences based on the integration of information and pedagogical technologies. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 05012). EDP Sciences.

2. Исмоилджанович Ф.Д. (2022). Развитие профессиональной компетентности студентов технических высших учебных заведений на основе деятельностного подхода. Central asian journal of mathematical theory and computer sciences, 3(10), 102-107.

3. Mirzakarimov E. M., Fayzullaev J. I. Method of teaching the integration of information and educational technologies in a heterogeneous parabolic equation //scientific bulletin of namangan state university(2019).T.1.№5.–C.13-17J.I

4. Kukalová, G., Ibragimova, R., Fayzullayev, D., Narmanov, O., & Nazarova, L. (2024). Axiological approach in ESG education. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 05005). EDP Sciences

5. Madaliev, M., Usmonov, M., Fayzullaev, J., Khusanov, Y., Radjapov, K., Sattorov, A., & Jalilov, I. (2024). Numerical study of 2D and 3D flow after NASA 4412 airfoil. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 01012). EDP Sciences

6. Fayzullayev, J. (2023). Axborot va pedagogik texnologiyalar integratsiyasi asosida fundamental fanlarni rivojlantirish istiqbollari. Engineering problems and innovations, 1(Спец. вып. 1), 39-43.

NODAVLAT TA’LIM MUASSASALARIDA O‘QUV JARAYONINI TASHKIL QILISH ZARURATI

Akmalova Mohinur
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maktab menejmenti kafedrasi o‘qituvchisi, PhD
Yoqubjonova Muxlisa
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ta’lim muassasalarining boshqaruvi magistranti

Annotatsiya:
Maqolada nodavlat ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil qilishning mazmun mohiyati hamda davlat ta’lim muassasalarini malakali kadrlar bilan ta’minlash, pedagog kadrlarning moddiy ta’minotini kuchaytirish masalalari ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *nodavlat ta’lim muassasalari, kardlar salohiyati, o‘quv jarayoni, ta’lim tizimi*

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta’lim muassasasini jahonning etakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatishi, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalarning zamonaviy kasbiy bilimlari va qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari. Harakatlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq oliy ta’lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi. Shu nuqtai-nazardan zamon talablari asosida o‘quv jarayonini tashkil etishning pedagogik mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim o‘rin tutadi.

Jumladan, bugungi kunga kelib mamlakat miqyosida ta’lim-tarbiya, ilm-fan, tizimlarini tubdan, bosqichma-bosqich isloh qilish zaruriyati sezilib, paysalga solib bo‘lmaydigan, bu ishni izchil va tizimli bajarishga kirishilgani hammaga ma’lum. Jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar davlatimizning oldiga ta’lim tizimini rivojlantirish bilan bog‘liq muhim masalani qo‘ydi.

Respublikada amalga oshiralayotgan o‘zgarishlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi – inson, uning barkamol rivojlanishi hisoblanadi. Bizning asosiy maqsadimiz ta’lim jarayonini shaxsning hayotiy qiziqishlarini qondirishga, umumiy madaniyatini shakllantirishga, uning jamiyat hayotida moslashuvi, ta’lim va kasbiy dasturlarni ongli ravishda tanlay olishi hamda o‘zlashtira olishga qaratilgan. Bu borada uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini hisoblangan oliy ta’limning ahamiyati beqiyosdir. Talabalar bilan o‘quv-tarbiya jarayonida qisqa vaqt ichida mavzuni tizimli, tushunarli tarzda etkazish, fan asoslarini puxta o‘rgatish, muayyan faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, hamkorlik asosida o‘qitish, talabalar faoliyatini nazorat qilish, yuksak pedagogik mahorat bilan ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Bir so‘z bilan aytganda qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish, talabalarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ularning o‘z imkoniyatlarini, is’tedodlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir. Bu esa ta’lim jarayoni o‘quv ishlarni maqsadli tashkil etishligini taqazo etadi.

So‘nggi yillarda yurtimizda ta’lim tizimiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlat ta’lim muassasalarini malakali kadrlar bilan ta’minlash, pedagog kadrlarning moddiy ta’minotini kuchaytirish yo‘lida ko‘plab ishlar olib borilmoqda. Ma’nan yetuk, ilg‘or davlatlar vakillari bilan bemalol raqobatlasha oladigan yoshlar avlodini shakllantirish yurtimizning asosiy maqsadlaridan biriga aylangan.

Shu o‘rinda bugun jahon standartlariga javob beradigan nodavlat ta’lim tashkilotlarini ko‘paytirish va ushbu ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini yuqori samaradorlikka ko‘tarish talab etilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 27 martdagi 241-son qarori bilan tasdiqlangan Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomga ko‘ra litsenziya olish uchun ta’lim muassasasi quyidagi talab va shartlarga javob berishi kerak:

• O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi qonun va qonunosti hujjatlariga rioya qilish;

• ta’lim-tarbiya jarayonini davlat ta’lim standartlariga (davlat talablariga), o‘quv rejalariga va ta’lim dasturlariga muvofiq tashkil etish;

• talabgorda litsenziyalanayotgan faoliyatni bajarish uchun mo‘ljallangan binolarning (xonalarning) mavjud bo‘lishi, auditoriyalarni, o‘quv xonalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya asbob-uskunalari, o‘qitishning texnik vositalari va anjomlar bilan jihozlash, binolarni zarur darslik va adabiyotlar bilan ta’minlash;

• ta’lim dasturlarini umumiy o‘rta, kasb-hunar va oliy ta’lim davlat ta’lim standartlariga muvofiq, shuningdek, maktabgacha ta’lim, maktabdan tashqari ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashga qo‘yiladigan davlat talablariga muvofiq amalga oshirish;

• ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning qobiliyatli va iqtidorli farzandlarini tanlov asosida muassasadagi jami tarbiyalanuvchilar, o‘quvchilar umumiy sonining 10 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda bepul o‘qishga qabul qilish;

• ta’lim muassasasi, ta’lim oluvchilar, pedagoglar haqidagi va boshqa zarur ma’lumotlarni tegishli axborot tizimlariga kiritib borish;

• bitiruvchilarga belgilangan tartibda ta’lim to‘g‘risida hujjat berish va boshqalar.

Bugungi kunda nodavlat ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va o‘quv-metodik ta’minot yuzasidan raqobat kuchli namoyon bo‘lmoqda. Ta’lim sifati esa o‘zaro raqobat jarayonida yaxshilanib boradi. Shuning uchun raqobat jarayoninig erkin va oshkora namoyon bo‘lishini ta’minlash muhim sanaladi. Raqobatbardosh mahsulot hamisha yuqori baholangani kabi, "raqobatbardosh" ya’ni bilimli va salohiyatli yosh avlod ham mamlakat taqdirini yuksaklarga ko‘tarib boradi.

Nodavlat ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini ko‘tarishda quyidagilarga e’tibor qilinishi zarur:

- iqtidorli bolalar va va iste’dodli yoshlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash orqali ta’lim-tarbiyaning yuqori sifatini ta’minlaydigan yuqori sifatini ta’minlaydigan qulay shart-sharoitlar yaratish;

- sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish uchun an’anaviy ta’lim xizmatlari bilan bir qatorda sifatli va ommabop ta’lim olishning muqobil imkoniyatlarini yaratadigan pullik ta’lim xizmatlari ko‘rsatish bozorini jadal rivojlantirish;

- ilg‘or xalqaro tajribalarni inobatga olib, o‘qitishning innovatsion pedagogik shakllari, uslublari hamda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish asosida ta’lim sohasidagi samaradorlik va natijaviylikni oshirish; [1]

Ta’lim sifati bu ta’lim oluvchilarning ta’lim jarayonida o‘zlarida shakllantirgan bilimlardan amliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lganlari bilan o‘lchanadi. Nodavlat ta’lim muassasalarining ustuvorlik xususiyati ham shundaki, bu tashkilotlaridagi faoliyat ko‘proq o‘quvchi bilim darajasiga qaratiladi. Rasmiy hujjatlarning kamayishi, pedagoglar yuklamasining ozayishi hisobiga diqqat-e’tibor bola o‘zlashtirishiga qaratiladi. Chunki nodavlat ta’lim tashkiloti inqirozini oldini olishning yagona yo‘li bolalar ta’lim jarayonini samarali tashkil etish asosida ota-onalarni ko‘proq muassasaga jalb qilishga erishiladi.

Mamlakatimizda nodavlat ta’lim muassasalarining ortib borishi hamda ta’lim tashkilotlariga moliyaviy musta’qil maqomi berilishining asl mohiyati ham aslida ta’lim sifatini ko‘tarish hisoblanadi. Keyingi yillarda xususiy ta’lim muassasalariga qatnovchi oila farzandlariga soliq imtiyozining berila boshlangani zamirida nodavlat ta’lim muassasalarining nufuzini ko‘tarishdan iborat.

Nodavlat ta’lim muassasalarida sifatli ta’limni yo‘lga qo‘yish uchun davlat tasarrufidagi ta’lim muassasalari bilan integrallashuvini yo‘lga qo‘yilishi lozim. Shuningdek, fanlarni integratsiyalash asosida o‘qitish ta’lim sifatini ko‘tarishga xizmat qiladi. Integral ta’limiy faoliyat

integratsiyadan farqli ravishda yaxlit olamni tasavvur qilish bilan bir qatorda o‘z-o‘zini ijodiy rivojlantirish imkoniyatining yuzaga kelishidir. Bola atrof-olamni bilish jarayonida o‘z imkoniyatlarini kashf etib boradi. Mustaqil ravishda o‘zlashtirish qobilyati rivojlanadi. Integral loyihalash integratsion mashg‘ulotlarni boyitish va sifatli ta’lim olishni ta’minlashga xizmat qiladi. Bola iqtidorini tarbiyachi emas o‘zi aniqlab, shaxsiy sifatlarini tarkib toptiradi. Uning imkoniyatlari kengayib borgan sari bilimlarni kashf etib boraverad. [2]

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarorining qabul qilinishi xalq ta’limi tizimida sog‘lom raqobat muhitini yaratish, nodavlat ta’lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish, xorijiy o‘qituvchilarni jalb etish yo‘li bilan aniq hamda tabiiy fanlar, chet tillarni chuqurlashtirib o‘qitishga, bu esa, o‘z navbatida, yoshlarning dunyo mehnat bozorida raqobatdosh va yuqori malakali mutaxassis kadr sifatida jahon hamjamiyatida mamlakatimiz nufuzini oshirishiga, barkamol inson bo‘lib shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Qaror nodavlat ta’lim muassasalari sektori kengayishi, respublikaning har bir tuman va shahridagi fuqarolar ta’lim xizmatlaridan foydalanishda tanlovga ega bo‘lishi, yoshlarga munosib ta’lim-tarbiya berish kabi vazifalarni o‘z zimmasiga oladigan malakali xususiy tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlab, yangi loyihalar asosida ishlash jarayonini takomillashib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ-3276 "Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2017 yil, 15

2. Boltayeva F. A., Ibrohimova N. N. Maktabgacha ta’limda integral darslar - innovatsion loyiha sifatida. "Science and Innovation". International sicentific journal. https://doi.org/ 10.5281/zenodo.6626043 2022 y., 2-son. 292 b.

3. Boltayeva F. A. Esonaliyeva O. Yoshlar hayotida virtuallashuv sabablari va omillari. "Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi" FTAI, Jild: 03, Nashr: 06, June 2022. 232 b

4. M.Xallokova. Nodavlat ta’lim muassasalarida ta’lim tizimini modernizatsiyalash. 3 (1), 151-157, 2022.

5. F.A.Boltayeva. The Essence of Integrating Innovative Technologies in Preschool Education. Pindus Journal Of Culture, Literature and ELT. 110 b https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/256

TALABALARDA SPORT VA SALOMATLIK IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Shohruh Abdujalol o‘g‘li Qayumov
p.f.f.d.(PhD), v.b dotsent
Jizzax davlat pedagogika universiteti doktaranti

Anotatsiya:

Inson salomatligini asrash va mustahkamlash, qolaversa, uzoq umr ko‘rishning garovi sog‘lom turmush tarzi ekanligi bugun barchaga ayon haqiqat. Zero, har birimiz, eng avvalo, o‘z sog‘lig‘imizni o‘ylashimiz darkor. Ana shunda xotirjam va farovon hayot kechirgan, ko‘plab asoratli xastaliklarning oldini olgan bo‘lamiz. Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish

hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Kalit so‘zlar: *Sog‘lom turmush tarzi, innovatsiya, talaba, sport, immunitet, rivojlantirish, pedagogika, strategiya, olimpiada, mehnat, tabiat*

Kirish. Aholining uzoq umr ko‘rish davomiyligini ta’minlash dolzarb masalalardan biridir. Zero, ushbu ko‘rsatkich insonlarning sog‘lom turmush tarzi va farovon hayoti ifodasidir.Shu o‘rinda sog‘lom turmush tarzi nima, unga amal qilish me’yorlari qanday, yurtimizda sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar nimalardan iborat, kabi savollar tug‘iladi.

— Sog‘lom turmush tarzi — insonning kun tartibiga rioya etishi, faol harakat asosida organizmini chiniqtirishi, sport bilan shug‘ullanishi, to‘la va sifatli ovqatlanishi, gigiyenik qoidalarga amal kilishi, zararli odatlardan o‘zni tuta bilishidir, — deydi u. — Serharakatlilik organizmni tabiiy ravishda rag‘batlantirib turadi. Shuning uchun serg‘ayrat, tinib-tinchimaydigan odamlar doimo tetik, bardam, keksayganlarida ham baquvvat va shijoatli bo‘ladi.

Afsuski, hozirgi urbanizatsiya sharoitida keng jamoatchilik va yoshlarimiz o‘rtasida jismoniy faolik sezilarli kamayganligi ko‘zga tashlanmoqda. Shu bois jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, kamharakatlilikka qarshi ommaviy kurashish, insonlarning yuksak jismoniy va aqliy ish qobiliyatini muhofaza etish, aholi keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlarni sport bilan shug‘ullanishga jalb qilish tobora dolzarblik kasb etmoqda.

Yurtimizda haftaning har shanba kuni “Salomatlik kuni” deb e’lon qilinib, tibbiyot xodimlari ishtirokida ommaviy sport tadbirlari tizimli ravishda o‘tkazilyapti. Notibbiyot kasb-hunar kollejlarida “Sog‘lom turmush tarzi va oila” fani dars jadvaliga kiritildi. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida yangi yo‘nalish — nutritsiolog mutaxassisligini tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Jamoat joylari, supermarketlar, bozorlar, xiyobonlar va mahallalarda “Sog‘lom ovqatlanish yarmarkasi”, “Salomatlik maydonchasi” tadbirlari, “Sog‘lom hayotga qadam tashla!”, “Biz tamakisiz hudud uchun ovoz beramiz!” aksiyalari va ta’lim muassasalarida “Salomatlik darslari” orqali aholiga sog‘lom turmush tarzi tamoyillari keng targ‘ib qilinyapti.

Aytish kerakki, ushbu qaror asosida nafaqat bizning markazga, balki barcha davlat organlari va tashkilotlariga ham talaygina vazifalar yuklatilgan. Xususan, har bir muassasa xodimlar uchun ish kuni davomida gimnastika mashqlari, haftasiga kamida bir marotaba yugurish, suzish, futbol, voleybol, basketbol, tennis va boshqa tadbirlarni o‘z ichiga olgan “Salomatlik kuni” joriy etishi shart. Xodimlarning muntazam ravishda ommaviylashgan sport turlari bo‘yicha musobaqalar va boshqa jismoniy tarbiya-ommaviy tadbirlarida qatnashishlarini rag‘batlantirishi lozim.

Organizm me’yorida faoliyat ko‘rsatishi uchun 600 dan ortiq ozuqalar kerak. Bunga faqat ratsional ovqatlanish orqaligina erishish mumkin. Lekin ko‘pchilik “ratsional ovqatlanish” deganda, mazali, to‘yimli, yuqori kaloriyali taomlarni iste’mol qilishni tushunadi. Biroq iste’mol qilinadigan taomlar organizm tiklanishini ta’minlasa, yo‘qotilgan energiyaga bo‘lgan talabni qondirsa, tarkibida zarur darajada oqsillar, yog‘lar, uglevodlar, vitaminlar, mikro-makroelementlar, o‘simlik tolalari saqlasa hamda oziq-ovqatlar va ularning tarkibi, miqdori oshqozon-ichak tizimi fermentlari faolligi bilan mos kelsa, buni ratsional ovqatlanish sifatida qabul qilish mumkin.

Odamning kunlik quvvat sarfini aniqlash uchun asosiy almashinuv, ovqatning spetsifik dinamik ta’siri va har xil faoliyat turlari qo‘shib chiqiladi. Fiziologiya nuqtayi nazaridan barcha sarflanadigan quvvatning 40 foizi asosiy jismoniy faollik hissasiga to‘g‘ri kelishi kerak. Kunlik quvvat sarfi aniqlangandan keyin qabul qilinayotgan va sarflanayotgan energiya mikdoriga qarab ovqat ratsionini tuzish mumkin.

Ushbu maqolada bugungi shiddatli rivojlanib borayotgan bozor iqtsodiyotida ta’lim xizmatlarining roli tobora muhim o‘rin egallamoqda shu bilan birga sifatli ishchi kuchini shakillantirmoqda, innovatsiyalarni va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirmoqda. Raqamli iqtisodiyot va ta’limning o‘zaro birikishi bilim olish, tarqatish va qo‘llash bo‘yicha transformativ o‘zgarishlarga yo‘l ochildi.

Kalit so‘zlar: *raqmli iqtisodiyot, ta’lim, ta’lim xizmatlari bozori, iqtisodiy ta’lim, iqtisodi tizim, iqtisod*

Abstract:
In today’s fast-growing market economy, the role of educational services is increasingly important, while forming a quality workforce, stimulating innovation and economic growth. The convergence of the digital economy and education has opened the way for transformative changes in the acquisition, distribution and application of knowledge.

Key words: *digital economy, education, market of educational services, economic education, system economy, economy.*

Bugungi kunga kelib raqamli texnalogiyalar ko‘plab sohalarning rivojlanishiga asbab bo‘lib xizmat qilmoqda shu bilan birgalikda raqamli texnalogiyalarning ta’lim tizimi bilan transformatsiyalanishi undagi muammolarning kamayishiga hamda innovatsion texnalogiyalarni ishlab chiqishning rivojlanishiga yordam bermoqda. Bevosita milliy iqtisodiyot rivojlanishi va raqobat bardoshligini ta’minlash o‘z o‘zidan ta’lim iqtisodiyoti va uning tashkil etilishini rivojlantirish hamda mustaxkamlash bilan bog‘liq.

Bugungi zamonaviy iqtisodiyot uchun professional kompetensiyalardan tashqari raqamli vositalar bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan xodim kerak. Shu sababli ta’lim standartlari, dasturlari, talablari, doimiy ravishda o‘zgarib turadigan va bilim tezligini oshiradigan kompetensiyalar ro‘yxati oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari oldiga qo‘yiladi. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati inson resurslari bilan ta’minlanadi. Kadrlar o‘z-o‘zini tarbiyalash orqali shakllanadi bu esa kadrlarda axborotni keraklisini sintez qilish qobiliyatini kuchliligi va ijodiy fikrlashini rivojlanganligi bilan bog‘liq. Bunda oliy ta’limning o‘rni beqiyos. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta’lim tizimiga, ayniqsa, oliy ta’limga yuqori talablar qo‘yiladi. Raqamli iqtisodiyotning asosiy jihatlaridan biri har bir mamlakatda past malakali ishchilar uchun ish o‘rinlarining qisqarishidir. Ta’limsiz ish topish qiyin, hatto imkonsiz bo‘lishi mumkin. Yuqori maosh olishni istagan har bir kishi nafaqat umumiy ma’lumotga, balki maxsus kasbiy ma’lumotga va ko‘pincha, oliy ma’lumotga

ega bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, mamlakat ichida oliy ta’limga bo‘lgan talab keskin ortib bormoqda. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy manbayi axborot texnologiyalari bilan ishlash bo‘yicha tayyorlangan mutaxassislardir. Bir tomondan, IT-ta’limga qo‘yiladigan talablar o‘qituvchilarning kasbiy standartlariga kiritilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ITdan foydalanishga tayyorgarlik texnik vakolatlardan tashqariga chiqadi va o‘qituvchilarning elektron ta’lim tizimida ishlashga uslubiy tayyorgarligini kengaytirishni talab qiladi. O‘qituvchilarni zamonaviy raqamli ta’lim muhitida ishlashga tayyorlash tizimi hozircha endigina shakllantirilmoqda.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy manbayi axborot texnologiyalari bilan ishlash bo‘yicha tayyorlangan mutaxassislardir. Bir tomondan, IT-ta’limga qo‘yiladigan talablar o‘qituvchilarning kasbiy standartlariga kiritilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ITdan foydalanishga tayyorgarlik texnik vakolatlardan tashqariga chiqadi va o‘qituvchilarning elektron ta’lim tizimida ishlashga uslubiy tayyorgarligini kengaytirishni talab qiladi. O‘qituvchilarni zamonaviy raqamli ta’lim muhitida ishlashga tayyorlash tizimi hozircha endigina shakllantirilmoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonda oliy ta’lim jamiyat hayotining turli sohalari va iqtisodiyot tarmoqlari: ilmiy, iqtisodiy, texnik va shu kabilar uchun malakali mutaxassislar tayyorlaydi. O‘quv jarayoni bilim va olingan ko‘nikmalarni tizimlashtiradi, talabalarni zamonaviy ilmiy fikr va texnologiya yutuqlaridan ijodiy foydalangan holda tanlangan mutaxassislik vektori bo‘yicha nazariy va amaliy muammolarni hal qilishga yo‘naltiradi. [Zakhirova G.M 2018: 39-45]

Raqamli texnalogiyalar orqali ta’limni tashkil qilish resurslar tejalishi, inson omilining kamayishi, axborotlarni tarqatish, tahlil qilish va qayta ishlash sifatining ortishi, masofaviy ta’limning tashkil etilishi, uzliksiz ta’limni shakillantirishni rivojlandirishga yordam beradi bu o‘z o‘zidan iqtisodiy jihatdan ortiqcha sarf harajatlarning kamayishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa 2019-yil butun jahon iqtisodiyotiga zarar keltitgan COVID-19 pandimiyasi ta’limni ham chetlab o‘tmadi bu esa raqamli texnalogiyalar asosida ta’limni tashkil qilish jarayonini tezlashtirib yubordi.

Bundan tashqari iqtisodiy fanlarning roli ham ortib bormoqda. Shu sababli ham iqtisodiy fanlarni o‘qitishda innovatsiya sifatida turli metodlardan foydalaniladi. Shunday usullardan biri loyiha usulidir. Innovatsion ta’lim loyihasi faoliyati – o‘quvchilarning bilim qiziqishlari va ijodiy qobiliyatlarini individual rivojlantirishga qaratilgan o‘quv va o‘quv jarayonini tashkil etishning samarali shakli. Bu usul turli ijodiy ishlarni taqdim etish texnologiyasini o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Loyihalarni baholash mezonlariga quyidagilar kiradi:

• ishni loyihalashda qo‘yiladigan talablarga muvofiqligi;

• mavzuni to‘liq ochib berish;

• dastur doirasidan tashqari qo‘shimcha foydalaniladigan ma’lumotlar miqdori;

• ish natijalarining yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati;

• foydalanilgan adabiyotlar hajmi;

• taqdim etish mantig‘i, mulohaza yuritishning ishonarliligi, fikrlashning o‘ziga xosligi, ishni tashkil etishning aniqligi;

• tadqiqot mazmuni va natijalarini ommaga taqdim etishning ochiqligi, izchilligi va erkinligi;

• berilayotgan savollarning mohiyatini tushunish, mulohaza yuritish, javoblarning ixchamligi va aniqligi [Анацкая Л.Н. 2018: 83-b.].

Yaqin vaqtgacha iqtisodchilar jismoniy kapitalni iqtisodiy o‘sishga ta’sir qiluvchi eng muhim omil deb hisoblab, iqtisodiy o‘sish jarayonini tezlashtirish va odamlarning turmush darajasini oshirish uchun rivojlanayotgan mamlakatlarda jismoniy kapitalni shakllantirish tezligini oshirishni taklif qilishdi. Biroq so‘nggi yillardagi iqtisodiy tadqiqotlar ta’limning iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida dolzarbligini ko‘rsatdi.

Ta’lim iqtisodiyoti bo‘yicha mutaxassis E.Xanushek ta’lim sifati va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratib, o‘qituvchilarning samaradorligi va mas’uliyati muhimligini targ‘ib qiladi. Uning fikriga ko‘ra, faqat maktabga qabul qilishni ko‘paytirish emas, balki ta’lim sifatini saqlab qolish yoki oshirish muhim ekanligini ta’kidlaydi. Xanushekning tadqiqotlari shuni

ko‘rsatadiki, rivojlanish uchun samarali ta’lim strategiyasi nafaqat ko‘proq bolalarni maktabga yuborishga, balki maktabdagi ta’lim sifatini saqlab qolish va oshirishga ham qaratilishi kerak, chunki bu murakkab, ammo muhim vazifadir [Hanushek E.A. and Wößmann L. 2010: 245-252]

2017-yilning yanvar-iyun oylarida YUNESKO va (DGP Research & Consulting) konsalting kompaniyasi hamkorligida jalb qilingan xalqaro ekspertlar guruhi O‘zbekiston ta’lim tizimini keng qamrovli o‘rganishdi. Tahlil natijalari bo‘yicha nazariya va amaliyot yaxlitligini yanada ta’minlash, ta’lim sifatini monitoring qilish mexanizmini takomillashtirish, xorijiy oliy o‘quv yurtlari bilan samarali hamkorlikni rivojlantirish zarurligi yuzasidan takliflar ishlab chiqildi. O‘zbekistonda oliy ta’lim sohasidagi islohotlar ko‘plab xalqaro tashkilotlar, jumladan, Erasmus+ (Yevropa Ittifoqi dasturi), JICA (Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi), KOICA (Koreya xalqaro hamkorlik agentligi) bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Mazkur qo‘shma dasturlar samarasida O‘zbekistonning yuzlab o‘qituvchi va talabalari ta’lim tizimidagi ilg‘or xalqaro tajribalar bilan yaqindan tanishish, yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish, dunyoning yetakchi universitetlarida malaka oshirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. O‘quv jarayoni sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan bir xil darajada muhim belgilovchi mezon universitetning ilmiy tadqiqot faoliyatining hozirgi darajasi, tadqiqot natijalarini o‘quv jarayoniga joriy etishdir. Aynan ilmiy-tadqiqot faoliyati uning yetakchi professor-o‘qituvchilari, dotsentlari, ilmiy xodimlariga ilmiy bilimlar rivojida peshqadam bo‘lib, bu bilimlarni talabalar va aspirantlarga o‘tkazish imkonini beradi. Mamlakatimizda ta’lim rivojini endi ilm-fan rivojidan alohida ko‘rib chiqish mumkin emas, faqat fan va ta’limning birligigina inson faoliyatining ushbu sohalari to‘g‘ri faoliyat yuritishi imkonini beradi. Sifatli ta’limga hissa qo‘shadigan eng samarali vositalardan biri, albatta, axborot texnologiyalaridir. Zamonaviy sharoitda o‘quv jarayonini yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishdan ajratib bo‘lmaydi. Ularni ma’ruza kurslari, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlarga kiritish o‘rganilayotgan materialni taqdim etish va o‘zlashtirish jarayonini optimallashtirish imkonini beradi, bu esa shubhasiz, ta’lim sifatini oshiradi [Sesitskiy Y. 12-13, 2016.]

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, iqtisodiy ta’lim xizmatlarini iste’mol qiluvchilarga faqat xaridor sifatida emas, balki iste’mol qilingan ta’lim hajmini kengaytirilgan shaklda takror ishlab chiqaruvchilar sifatida qarash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday jarayonning rivojlanishi natijasida iqtisodiy ta’lim tizimida innovasion ta’lim tuzilmalari vujudga keladi. Bu esa o‘ziga xos ijtimoiy-ma’rifiy samara beradi, shuningdek, iqtisodchi kadrlar malakasini ommaviy miqyosda yuksalishini ta’minlaydi va natijada iqtisodiy ta’lim sifatiga bo‘lgan talab oshadi hamda ushbu sohada raqobat kuchayib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1) Zakhirova G.M. Возможности практического применения мирового опята развития систему образования в Узбекистане [Possibilities of practical application of world experience in the development of the education system in Uzbekistan]. Экономика и финанси (Uzbekistan), 2018, no. 12, pp. 39-45. (rus)

2) Анацкая Л.Н. Современные технологии в преподавании экономики // Педагогическая наука и практика. 2018

3) Hanushek E.A. and Wößmann L. (2010). Education and Economic Growth. In: Penelope Peterson, Eva Baker, Barry McGaw, (Editors), International Encyclopedia of Education. volume 2, pp. 245-252. Oxford: Elsevier.

4) Sesitskiy Y. Институциональная политика в сфере IS [Institutional IP Policy]. Proceedings of the seminar «Innovation and intellectual property», Tashkent, May 12-13, 2016.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Jabborova Dilshoda Normuradovna
Jizzax shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi 32-sonli DMTT direktori

Annotatsiya:
Ma`lumki, ta’lim - bu muayyan ijtimoiy ahamiyatga ega ma’lumotlarni yosh avlodga etkazish jarayoni. Maktabgacha ta’lim tashkilotida u sinfda, sayrlarda, o‘yinlarda, ota-onalar bilan muloqotda va hokazolarda amalga oshiriladi. Inson faoliyatining eng qadimiy turlaridan biri - bolalar tarbiyasi o‘zining ko‘p asrlik rivojlanish tarixi davomida sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirdi, kundalik jarayondan ijodiy va ijodiy faoliyat natijalariga asoslangan ilmiy asoslangan tizimli o‘zaro ta’sir majmuasiga aylandi. Jarayonda pedagogik texnologiyalarni joriy etish sharoitida maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagogik jarayonni boshqarishni o‘rganish lozim. Maqolada ham shu jarayonlar tadqiq qilindi.

Kalit so‘zlar: *Boshqaruv menejmenti, maktabgacha ta`lim, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, texnologiya.*

Annotation:
It is known that education is the process of transmitting certain socially significant information to the younger generation. In preschool, it takes place in the classroom, on trips, in games, in communication with parents, and so on. One of the most ancient forms of human activity, child rearing has undergone significant changes over its centuries-long history of development, evolving from a day-to-day process into a complex of sciencebased systematic interactions based on the results of creative and creative activity. In the process, it is necessary to study the management of the pedagogical process in preschool education in the context of the introduction of pedagogical technologies. The article also examines these processes.

Keywords: *Management, preschool education, educator, pupil, technology, education.*

Kirish.

Darxaqiqat, ta’limning boshlang‘ich bosqichi bolalar bog‘chasi bo‘lib, bu yerda bola axloq saboqlarini oladi, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish tajribasini oladi, o‘yinda, jamoaviy ishda ijodiy salohiyatini ochib beradi va ta’lim faoliyatida elementar ko‘nikmalarni oladi. Biz pedagogik texnologiyalarni joriy etish sharoitida maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagogik jarayonni boshqarishni o‘rganib chiqdik va boshqaruv modelini tuzdik. Pedagogik jarayonni boshqarishning yaratilgan modeliga asoslangan boshqaruv harakatlarining algoritmi tarbiyachilar, ota-onalar va bolalar jamoasini bolalarning yoshiga mos ravishda rivojlanishi va hissiy farovonligini ta’minlaydigan yagona ta’lim makonida birlashtiradi. Taklif etilayotgan modelning o‘zagi maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagogik texnologiyalarni joriy etish bosqichida pedagogik jarayonni tashkil etishga dinamik, ijobiy o‘zgarishlar olib keladigan menejerning boshqaruv harakatlaridir.

Bundan tashqari 2024-yil 30-sentabrda muhtaram Prezidentimizning Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini oshirish to‘g‘risida prezident farmoni qabul qilindi.

Farmonlariga binoan Maktabgacha ta’lim sohasida bir qator yangiliklar kiritildi: Farmonga ko‘ra, maktabgacha ta’limning davlat ta’lim dasturi doirasida quyidagilar amalga oshiriladi:

• kichik va o‘rta guruhlardagi bolalarda kognitiv, psixomotor va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish;

• katta va maktabga tayyorlov guruhlaridagi bolalarda bilim olish, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan o‘quv-metodik materiallarni ishlab chiqish.

2026/2027 o‘quv yilidan:

• Maktabgacha ta’lim tashkilotlar tomonidan Maktabgacha ta’limni boshqarish axborot tizimida bolaning rivojlanish xaritasini yuritish amaliyoti joriy qilinadi;

• maktabga tayyorlov guruhlarini tamomlagan bolalarga ularning rivojlanish xaritasi asosida bir yillik maktabga tayyorlovdan o‘tganlik haqida elektron sertifikat berish yo‘lga qo‘yiladi.

2025-yil 1-avgustgacha:

• maktabgacha ta’limning davlat ta’lim dasturi doirasida ishlab chiqilgan elektron resurslar, audiovizual mahsulotlar va o‘quv-metodik materiallar Maktabgacha ta’limni boshqarish axborot tizimida joylashtiriladi hamda ulardan erkin va bepul foydalanish imkoniyati yaratiladi;

• Maktabgacha ta’limni boshqarish axborot tizimida ota-onalar uchun shaxsiy kabinet yaratiladi va unda bolaning rivojlanish xaritasi ma’lumotlarining joylashtirilishi ta’minlanadi.

Farmonga ko‘ra, 2025-yil 1-yanvardan:

• maktabgacha ta’lim tashkilotining direktori o‘rinbosari lavozimi joriy etiladi;

• respublikaning barcha tuman (shahar)larida kamida bittadan tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi;

• barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida malaka oshirishning “Metodik mahorat soati”, tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotlarida esa “Metodik mahorat kuni” kabi shakllari bosqichma-bosqich joriy etiladi;

• trener sifatida faoliyat yuritayotgan direktor o‘rinbosarlariga lavozim maoshining 20 foizi miqdorida qo‘shimcha har oylik ustama haq to‘lanadi.

2025-yil 1-martdan tajriba-sinov tariqasida respublikaning uzoq va chekka hududlarida joylashgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun mobil malaka oshirish xizmatlari joriy etiladi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri jamg‘armasi hisobidan maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini ham rag‘batlantirishga ruxsat etiladi.

2025-yil 1-yanvardan tajriba-sinov tariqasida har bir tuman (shahar)dagi bittadan umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim guruhlari ochiladi.

Farmonga muvofiq, 2025/2026 o‘quv yilidan:

• davlat oliy ta’lim tashkilotlarida maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha dual ta’lim shakli joriy etiladi;

• maktabgacha ta’lim yo‘nalishining sirtqi va kechki ta’lim shakllari bo‘yicha har yili kamida 200 ta maqsadli qabul kvotalari ajratiladi.

• 2018−2022-yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat bog‘chalarni tashkil etish uchun ajratilgan imtiyozli kreditlarni qaytarish muddati 5 yilga uzaytiriladi.

2024-yil 1-oktabrdan jismoniy shaxs bir paytning o‘zida bir nechta oilaviy nodavlat bog‘chada mehnat faoliyatini yuritayotgan bo‘lsa, ijtimoiy soliq summasi uning bitta (asosiy) ish joyi bo‘yicha to‘lanadi. 2025-yil 1-sentabrdan davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat bog‘chalarni tashkil etish to‘g‘risidagi bitimlar Maktabgacha ta’limni boshqarish axborot tizimida elektron shaklda tuziladi. 2025-yil 1-yanvardan qamrov darajasi past bo‘lgan davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining bo‘sh turgan yer uchastkalarida davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat bog‘chalar faoliyatini yo‘lga qo‘yishga ruxsat etiladi.

Farmonda Maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruvni yana samarali tashkillashtirishga alohida e’tibor berilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodikasi

Maktabgacha ta’lim paradigmasida boshqaruv ob’ektini o‘zgartirishda pedagogik jarayonni boshqarish modeli quyidagi xususiyatlarga ega:

- ta’lim va tarbiya bosqichidagi jarayonning o‘ziga xos xususiyatlari;

- maktabgacha - boshlang‘ich ta’limda uzluksiz ta’lim bosqichlarini muvofiqlashtirish va o‘zaro bog‘lash;

- maktabgacha ta’lim tashkilotining ijtimoiy mas’uliyati;

- maktabgacha ta’lim tashkilotining jamiyat, oila, maktab, jamoat tashkilotlari, oliy o‘quv yurtlari bilan aloqasi, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati chegaralarini kengaytirish;

- insonparvarlik tamoyiliga asoslangan kattalar va bolalar o‘rtasidagi hamkorlik.

Bundan tashqari, boshqaruv modeliga qo‘yiladigan talablar:

- uning tez o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy va pedagogik sharoitlarga moslashishi, boshqaruv sub’ektlariga yangi tuzilmalar va mazmunni tizimga o‘z vaqtida kiritish imkonini beruvchi ochiqligi;

- maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarishning taqlidchilik xarakteriga barham berish, ijodkorlik muhitini yaratish, qat’iy tartib-qoidalarga barham berish.

Ta’lim tashkiloti xodimlari doimiy yangilanishga, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining rivojlanishini ta’minlashga qaratilishi kerak. Pedagogik jarayonni tashkil etish ma’lum bir o‘zaro bog‘liq elementlardan iborat murakkab tizim sifatida qaraladi. Bunday elementlarga uning faoliyatini belgilovchi maqsadlar, vazifalar, vositalar, shakl va usullar, sub’ekt, boshqaruv ob’ekti, tamoyillari va funktsiyalari kiradi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish sharoitida pedagogik jarayonni qurishning o‘ziga xosligini ta’kidlanadi, unda o‘ziga xoslik, bolalar rivojlanishining normal kursi va maktabgacha yoshdagi bolalik davrining o‘ziga xosligi saqlanib qoladi. Ular jamiyatdagi o‘zgarishlar, yangicha tafakkur va dunyoqarashning shakllanishi, psixologiya-pedagogika fanining rivojlanishi bilan bog‘liq holda o‘zgarib boradi.

Boshqaruv sub’ektlari faoliyatini belgilaydigan maqsadlar pedagogic jarayonning maqsad va vazifalariga mos keladi: bolaning shaxsiyatini rivojlantirish, uning dunyoni va o‘zini bilishga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirish, shuning uchun asosiy shart. maktabgacha ta’lim tashkilotining faoliyati – bu jamoaning barcha a’zolari tomonidan bolaning shaxsiyatining o‘ziga xosligini tan olish.

Mulohaza va takliflar

Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining boshqaruv harakatlari pedagoglarning bolaga uning rivojlanishi va shakllanishida pedagogik yordam ko‘rsatish, takomillashtirish istagi bilan uyg‘unlashganda bolaning shaxsini - maktabgacha tarbiyachini shakllantirish vazifasi eng muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. ish usullari, ta’lim tashkilotining o‘z boshqaruv konsepsiyasini amalga oshirish. Bunday kontseptsiyani amalga oshirish ko‘p jihatdan boshqaruv tamoyillari yig‘indisiga bog‘liq. «Boshqaruv tamoyillari deganda boshqaruv subyekti o‘z faoliyatida rahbarlik qiladigan, uni muayyan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda amalga oshiruvchi asosiy qoidalar tushuniladi». Maxsus adabiyotlarni tahlil qilish va maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagogik jarayonni tashkil etish tajribasi quyidagi boshqaruv tamoyillarini ajratib ko‘rsatishga imkon berdi: maqsadni belgilash, murakkablik, demokratlashtirish, o‘qitish va tarbiya modellarini psixologiyalashtirish. Ushbu tamoyillarning barchasi rivojlanayotgan va rivojlanayotgan maktabgacha ta’lim tashkilotida harakat qilish uchun qo‘llanma bo‘lib, uning faoliyatini yangilashning asosini tashkil etadi. Zamonaviy sharoitlarni hisobga olgan holda mahalliy va xorijiy fandagi boshqaruv funktsiyalarini taqqoslash quyidagi tarkibni aniqlashga imkon beradi: axborot-tahliliy, nazorat-diagnostika, rejalashtirish va prognostik, tartibga solish va tuzatish, motivatsion va maqsadli.

Ushbu boshqaruv funktsiyalarining xususiyati ularning o‘zaro bog‘liqligi:

- axborot-tahlil funktsiyasi o‘z hajmi va o‘ziga xosligi bo‘yicha to‘liq bo‘lishi kerak bo‘lgan axborotni tanlash asosida demokratlashtirish sharoitida boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishni nazarda tutadi;

- ta’lim tashkilotining har bir bo‘g‘ini faoliyati haqidagi ma’lumotlarni pedagogik tahlil qilish natijasida rahbarning boshqaruv harakatlari shakllanadi;

- motivatsion-maqsadli funktsiya istalgan natijaga erishish istagini nazarda tutadi (bu funktsiya jamoaning barcha a’zolari o‘zlariga topshirilgan mas’uliyat va rejalarga muvofiq ishni bajarishlarini ta’minlashga yordam beradi, o‘z va jamoaviy maqsadlarga erishish ehtiyojlarini o‘zaro bog‘laydi);

- rejalashtirish va prognozlash funktsiyasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini uzoq muddatli prognozlash va joriy rejalashtirishning kombinatsiyasini ta’minlaydi;

- tashkiliy va ijro etuvchi funktsiya boshqaruvning har bir tsikliga taalluqlidir va maktabgacha ta’lim tashkilotida faoliyatni tashkil etishning shaxsga yo‘naltirilgan modelini amalga oshirishni o‘z ichiga oladi;

- vazifalarni amaliy taqsimlash, ishni oqilona tashkil etish;

- nazorat-diagnostika funktsiyasi maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ma’muriy va jamoatchilik nazoratini pedagogik jamoa ishtirokchilarining o‘zini o‘zi tahlil qilish bilan uyg‘unligini o‘z ichiga oladi (o‘qituvchilar o‘rtasida bolalar faoliyatining turli turlarini tashkil etishda o‘zaro tashriflar, ochiq eshiklar kuni, ota-onalarni so‘roq qilish, va boshqalar.);

- tartibga solish va tuzatuvchi funktsiya operatsion liniyalardan foydalangan holda maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarishga tuzatishlar kiritishni o‘z ichiga oladi.

Xulosa

So‘nggi o‘n yilliklarda maktabgacha ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi, bu ta’lim tashkiloti rivojlanishining ushbu bosqichida o‘qitish, tarbiyalash va boshqarish muammolariga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Tom ma’noda 5-6 yil oldin maktabgacha ta’lim tashkilotlari omon qolish yoqasida edi, ammo tartibga solish, ma’muriy, iqtisodiy sharoitlarda sodir bo‘lgan katta o‘zgarishlar maktabgacha ta’limning barcha bo‘g‘inlarini modernizatsiya qilish imkonini berdi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga o‘z qiyofasini topishga, o‘z ishida jo‘shqinlik topishga imkon beradigan mazmunli yo‘nalishlarni va o‘ziga xos ta’lim shakllarini izlash tendentsiyasi aniq. Yaqin-yaqingacha odat bo‘lib kelgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarini birlashtirish ularning turlarining xilma-xilligi, o‘quv rejalari va dasturlarining xilma-xilligi, yangi texnologiyalarni joriy etish bilan almashtirildi.

Rossiya ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha joriy ko‘rsatmalar - mavjudlik, sifat, samaradorlik - maktabgacha ta’lim tashkilotlariga ortib borayotgan talablarni qo‘yadi. Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishni tashkil etish faqat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatida sifat o‘zgarishlariga hissa qo‘shadigan va ularning sifat jihatidan yangi bosqichga - rivojlanish rejimiga o‘tishda ifodalangan innovatsiyalarni ishlab chiqish bilan mumkin. Pedagogik tizimning tizim yaratuvchi omili boshqaruv, o‘quv jarayonini boshqarish san’ati esa pedagogik boshqaruv, ya’ni. ta’lim jarayonini boshqarishning, uning samaradorligi va sifatini oshirishga ko‘maklashuvchi tamoyillari, usullari, tashkiliy shakllari, texnologik usullari majmui. Pedagogika menejmenti pedagogika fani va ta’lim tashkilotlari amaliyotida o‘z pozitsiyalarini endigina himoya qila boshlaydi. Pedagogik menejment o‘z maqsadi sifatida ta’lim tashkilotlari va o‘quv jarayonini boshqarishni qo‘yadi, uning mohiyati shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va faoliyatni doimiy nazorat qilish va sozlash bilan yakuniy maqsadga yo‘naltirishdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotida ikkita boshqaruv darajasini shartli ravishda ajratish mumkin:

- bosh - tarbiyachilar va xodimlar jamoasi;
- tarbiyachi - bolalar.

Menejmentning birinchi darajasining maqsadi xodimlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish orqali ularning samarali faoliyatini ta’minlashdir. Ikkinchi darajaning maqsadini har bir bolaning qobiliyati va qobiliyatini maksimal darajada ochib berish va rivojlantirish bilan ta’lim jarayonini optimal nazorat qilishni amalga oshirish deb hisoblash qonuniydir. Pedagogik boshqaruv - bolalar va ularning ota-onalari ehtiyojlarini qondirish maqsadida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining madaniy-ma’rifiy tashkilotlar bilan birgalikdagi faoliyatini tashkil etish; jamiyatning shaxsga qo‘yadigan zamonaviy talablarini hisobga olgan holda bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash. Bizningcha, maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagogik menejment – bu maqsad va vazifalarga erishish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish uchun odamlarni va pedagogik jarayonni boshqarishdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik boshqaruvning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta’lim tashkilotida boshqaruvni tashkil etishning oqilona usullarini aniqlash, o‘qituvchining saviyasini oshirishga yordam beradi.

Menejmentni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish: pedagogik jarayondagi yangiliklar, o‘qituvchining kasbiy darajasini oshirish, ijtimoiy sheriklik, iqtisodiy faoliyatning yangi shakllari.

Pedagogik boshqaruvning tamoyillari

- ilmiy xususiyat, izchillik, insonparvarlik, moslashuvchanlik, optimallik, ijtimoiy shartlash.

Darvoqe, pedagogik menejmentda menejer (o‘qituvchi)ning asosiy vazifalari quyidagidan iborat:

- o‘z boshqaruv faoliyatini o‘z-o‘zini tahlil qilish; ta’lim jarayonining holati va rivojlanishi, o‘quvchilarning bilim darajasi, ular haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilish.
- maqsad tanlash, o‘qituvchi va o‘quvchilarni maqsadga erishishga undash.
- maqsadlarga erishish dasturlarini ishlab chiqish, kompleks maqsadli rejalashtirish.
- maqsadga erishish uchun tashkiliy-ijroiya ishlari.
- nazorat va diagnostika.
- tuzatish - operatsion usul va vositalardan foydalangan holda tuzatishlar kiritish.

Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishning asosiy maqsadi tizimning saqlanib qolishi va rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratishdir. Tashkiliy (korporativ) madaniyat - bu maktabgacha ta’lim tashkilotida ham, undan tashqarida ham munosabatlar va munosabatlarning asosini tashkil etadigan qadriyatlar, boshqaruv tamoyillari, umidlari va ijtimoiy normalar modeli. U aloqa va o‘zaro tushunish uchun asos bo‘lgan xodimlar uchun umumiy kontseptsiya tizimini nazarda tutadi. Tashkiliy madaniyatning to‘rt turi (modellari) mavjud:

- hokimiyat madaniyati (avtoritar) - rahbar qo‘lida to‘plangan; muhit raqobatbardosh; bir nechta qoidalar va tartiblar mavjud.
- rol o‘ynash madaniyati (byurokratik) - hokimiyat rahbar va byurokratik tuzilma o‘rtasida muvozanatlangan;
-hokimiyat, vakolat va mas’uliyat odamlar bilan emas, balki lavozim bilan bog‘liq;
- muvaffaqiyat madaniyati (vazifalar madaniyati) jamoani yaratishga imkon beradi;
- motivatsiya va majburiyatga e’tibor berish; rahbariyat harakat, tashabbusni yuqori baholaydi;
- qo‘llab-quvvatlovchi madaniyat (shaxs madaniyati) - shaxsga, shaxsiyatning asosiy qadriyatiga qaratilgan.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Vinogradova N.A., Miklyaeva N.V., Tolstikova Yu.V. va hokazo. Maktabgacha ta’lim ta’lim. Terminlar lug‘ati / - M.: Ayris-press, 2005.-- 400 b. - (Maktabgacha ta’lim va rivojlanish).

2. Novikova G.P. Zamonaviy maktabgacha ta’limni boshqarish shartlar: Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari uchun qo‘llanma. - M.:Ventana-Graf, 2007.-- 80 b. - (Kutubxona bolalar bog‘chasi).

3. Pozdnyak L. V., Lyaschenko N. N. Maktabgacha ta’limni boshqarish: Darslik. stud uchun qo‘llanma. ped. universitetlar. - 2-nashr, Stereotip. M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 2001.-- 432 b.

4. Troyan A.N. Maktabgacha ta’limni boshqarish: darslik. - M.: Sfera TC, 2005.-- 160 b. (Qo‘llanma)

OILADA BOLALAR XULQ-ATVORI VA HISSIYOTINING SHAKLLANISHIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING AHAMIYATI

Kamolova Shirinoy Usarovna

Umumiy psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, Jizzax DPU

Annotatsiya

Mazkur maqolada Oilaviy munosabatlardagi salbiy yoki ijobiy psixologik munosabatlar bolalarning ruhiy, ma’naviy rivojlanishigata’siri haqida fikr mulohazalar yuritilgan. Shuningdek,

oilada bolalar xulq-atvori va hissiyotining shakllanishida shaxslararo munosabatlarning ahamiyai haqida muallifning umumiy xulosalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Oila,tarbiya, ta’lim-tarbiya, profilaktika, xulq-atvor, hissiyot, psixik taraqqiyot, bilim, ko‘nikma , jismoniy, aqliy, ruhiy va ma’naviy*.

Bugungi kunda jamiyatimiz jadal suratlar bilan o‘zgarib bormoqda, bu esa hayotning turli sohalarida yangi bilim, ko‘nikma va yondashuvlarni talab etadi.

Jamiyatdagi o‘zgarishlar hayotga ijobiy rivojlanish bilan bir qatorda salbiy jarayonlar ham sodir bo‘lmoqda, bunda ta’lim – tarbiya maskanlari ko‘p jihatdan vaziyatni baholashda yangi bilimlarni, milliy g‘oya bilan qurollantirishni, amalga oshirishni talab etuvchi muammolarga duch kelmoqda.

Hozirda maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti darajasini tashxis qilishga yordam beruvchi ko‘plab diagnostik metodikalar yaratilgan va amaliyotda keng qo‘llanilmoqda.

Biroq, psixokorreksiyani tashkil etishda ko‘pgina amaliyotchi psixologlar qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bu borada muammolarning mavjudligi hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida korreksion mashg‘ulotlarni tashkil etish mavzusining dolzarbligini asoslaydi.

Oilaning sog‘lomligi va oilaviy muhitning qanday darajada bo‘lishi jamiyat rivojiga, undagi mavjud muammolarni hal etishda ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Insonning bu hayotda baxtli yashashining eng muhim omillari mavjud, bu oila va oilada bola tarbiyasi masalasi. Oilada millat kelajagining davomchisi bola dunyoga keladi va u jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs bo‘lib tarbiyalanadi hamda davlatga munosib fuqaro voyaga yetadi.

Ibn Sino “Tadbiri manzil” kitobining “Ayollarning yaxshi sifatlari” bo‘limida: “Onalar oilada bosiq, dono, halol va kamtar bo‘lishlari, hamda bola tarbiyasida otaga eng yaqin ko‘makdosh bo‘la olishlari oila mustahkamligini saqlashda yordam beradi”, – deydi. Axloqqa bag‘ishlangan risolasida iffat, qanoat, saxiylik, shijoat, sabr-toqat, muloyimlik, do‘stlik, sirni saqlay bilish, ilm-ma’rifatli bo‘lish, ochiqlik, farosatlilik, kamtarlik, adolatlilik kabi axloqiy fazilatlarga ta’rif beradi. U axloqiy tarbiya insonning kamol topishida juda muhim o‘rin egallashini ta’kidlaydi[1].

Respublikamizda ta’lim-tarbiya sohasi mustaqillikdan keyingi yillar mobaynida anchagina rivojlandi. Shuningdek, psixologiya sohasining alohida yo‘nalishlari ham ancha rivojlandi.

Kaykovus – mashhur yozuvchi, pedagog, faylasuf bo‘lib, XI asrda yashagan. Kaykovus “Qobusnoma” asarini 63 yoshida o‘z o‘g‘liga nasihat sifatida yozgan. Asarining beshinchi bobi “Ota-onani hurmatlash haqida”[2] bo‘lib, yoshlarni ota-onani hurmat qilishga chaqiradi.

Kaykovus oilaviy tarbiya haqida gapirganda bolani iloji boricha hunarli qilish zarur ekanligiga alohida e’tibor qaratadi. U shunday yozadi: “Agar kishi oliy mansab, baland martabali bo‘lsa-yu, hunari bo‘lmasa, xaloyiqning izzat va hurmatidan mahrum bo‘ladi. Ulug‘lik nasl-nasab bilan emas, aql va bilim bilandir”. Kaykovus mag‘rurlikni, takabburlikni qoralaydi va “kimki mag‘rurlansa, albatta, pushaymon bo‘ladi”, deb ta’kidlaydi.

Mutafakkir odamlarning eng yaxshi fazilatlarini, ularning xulq-atvorini, xislatlarini uch turga bo‘ladi: aql, to‘g‘rilik, juvonmardlik (insonparvarlik, saxiylik, qo‘li ochiqlik). Aksincha, sustkashlik, befahmlik, hovliqmalilik uning yaxshi xislatga erishishdagi yo‘lini berkitib qo‘yadi, deydi. Kaykovus o‘g‘liga yozgan nasihatlarining asosi quyidagilardan iborat:

– so‘z qudrati. Shunday so‘zlar borki, ularni bilishni ham, so‘zlashni ham hojati yo‘q. Shunday so‘zlar borki, ularni bilish va gapirish kerak. Shunday so‘zlar borki, ularni har kuni va doimo gapirish zarur. Lekin shunday so‘zlar ham borki, ularni bilish zarur, gapirish esa shart emas. Doimo esda tuting: Alloh bizga gapirish uchun bitta til, eshitish uchun ikkita quloq berganki, kamroq gapirib ko‘proq eshitish uchun;

– qarilik va yoshlikni yodda tutish;

[1] Shoumarov G‘., Akramova F., Umarov B. Oilada ma’naviy-axloqiy tarbiya. T: 2015.B.20.

[2] Kaykovus Unsurulmaoliy “Qobusnoma” Toshkent, 1994, 174 bet.

– mehmonlarni kutishni va mehmon bo‘lishni bilish; – dam olish va uyqu madaniyati. Ko‘p uxlash zarar. Erta turishga o‘rganish. O‘z xohishingga ko‘ra, dam olish turini belgila, faqat o‘zgalarga zarari tegmasin;

– do‘stdan ko‘p narsa talab qilmaslik.

O‘zi ham sovg‘alarni ko‘paytirmaslik.

Vafodor do‘st bo‘lish[3]. Ilmga chanqoq bo‘l. Iqtidorni hurmat qil. Qobiliyat Alloh tomonidan berilgan in’om, shuning uchun ham hurmat va e’zoz talab qiladi. Ular doimo yodingda bo‘lsin. Kaykovus o‘z asarida yoshlarning xulq-atvoriga alohida e’tibor qaratadi va yoshlarni insonparvar bo‘lishga, xalqqa shirin muomala qilishga chorlaydi. Shuningdek, do‘stga, dushmanga qanday munosabatda bo‘lish kabi masalalarni ham o‘z asarida yoritadi. Kaykovusning fikricha, tarbiyadan maqsad insonni hozirgi zamon va kelajak uchun yaroqli shaxslar qilib tarbiyalashdir.

Milliy qadriyatlar va an’analar ham ulg‘ayib kelayotgan bola qalbiga aynan oiladagi tarbiya orqali singib boradi. Kelajakda o‘z Vatanini sevadigan, uning obodligi, tinchligi, rivoji uchun jon kuydiradigan shaxs tarbiyasi ayni shu maskanda boshlanadi.

Oila tarbiyasida umuminsoniy axloqiy madaniyat oila a’zolarining o‘z fe’l-atvorlari, sa’y-harakatlari, intilishlari, ma’naviy qiyofasining holati xususida shaxsiy taftish malakasini, o‘zi ustida doimiy ishlash, takomillashuv, o‘zidan qoniqmaslik fazilatlarini shakllantirish orqali ham namoyon bo‘ladi.

Xalqimizda “bola boshidan” degan naql bejiz emas, chunki oila muhitida bolaning tarbiyasi, o‘sishi va voyaga yetishi uchun asos mavjud. Sog‘lom muhit, munosabatlarida iliqlik, o‘zaro tushunish mavjud bo‘lgan oilada albatta, farovon va baxtli turmush, farzand o‘stirish va voyaga yetkazish munosib amalga oshadi.

Farzandlarning sog‘lom tug‘ilishi, ularning sog‘lom bo‘lib voyaga yetishi, sog‘lom tarbiyalanishi va sog‘lom fikrli shaxs bo‘lib shakllanishi ko‘p jihatdan oilaga bog‘liq. Jumladan, oila bolalarning ma’naviy rivojlanishi go‘daqlik-chaqaloqlik (0-1 yoshgacha), ilk bolalik (1-3 yoshgacha) va maktabgacha yosh (3-6 yosh) shuningdek, aqliy va ahloqan kamol topishi uchun muhim maskan sifatida yuzaga chiqadi.

Oilada farzandlarda sog‘lom ongni shakllantirish imkoniyati boy berilsa, u voyaga yetganidan keyin oiladagi va jamiyatdagi hayot qonuniyatlariga zid xatti-harakatlar qiladigan bo‘lib o‘sadi, va bunday paytda hech narsa afsuski, foyda bermaydi.

Milliy va ma’naviy qadriyatlar, avlod-ajdodlar, o‘tmish va kelajak haqidagi pand nasihatlarimiz ularga ta’sir qilmaydi. Shu bois ham buyuk alloma Abu Ali ibn Sino farzand tarbiyasi bilan uning tug‘ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug‘ullanish lozim, deb ta’kidlagan.

Oila - kishilarning tabiiy biologik munosabatlari, uy-ro‘zg‘orni boshqarish, huquqiy nikohni fuqarolik holatlarida qayd etish, ma’naviy er-xotin, ota-ona va bolalar o‘rtasidagi sevgi, mehr-muhabbat tuyg‘usi va shu kabi munosabatlarga asoslangan birlik[4].

Oilaviy munosabatlardagi salbiy yoki ijobiy psixologik munosabatlar bolalarning ruhiy, ma’naviy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Oilada shaxsning barcha ijtimoiy fazilatlaridan bo‘lgan insoniylik, qat’iylik, burch, mehnatsevarlik, samimiylik, kamtarlik kabi axloqiy xislatlari shakllanadi.

Oilaning buyuk tarbiya o‘chog‘i sifatidagi yana bir kuchi shundaki, unda yosh avlod o‘zi uchun hayotning hamma soha va tarmoqlariga oid faoliyatga daxldor bo‘ladi. Ya’ni, bola bilim, mehnat, jamoatchilik, moddiy va ma’naviy boy did, his-tuyg‘u, muloqot va boshqa yuzlab yo‘nalishlarda tajriba orttiradi.

Har bir inson uchun oila tarbiyasi juda katta vaqt tizimi bilan ham bog‘liq. U butun hayoti davomida maktabdami, ko‘chadami, sayohatdami, ishdami, o‘z oilasini unutmaydi. O‘sha joyda

[3] Saidjanov Y. Traditsii prosvesheniya na Vostoke. Izdatelstvo literaturi i iskusstva im. G.Gulyama. T; 2001. B.26.

[4] V.M.Karimova Oila psixologiyasi Toshkent., “Universitet” 2007.

orttirgan ko‘nikma, odat va xususiyatdan chiqolmaydi. Yillar o‘tib, uzoq shaharda xizmat safarida, notanish mehmonxonada ham uyidagi odati bo‘yicha tuflisini burchakka, sochiqni paytavasiga aralash tashlashi, hozirgina yechgan ko‘ylagini poygakka otishi mumkin.

Oila bola tarbiyasida eng muhim, markaziy va ko‘p tarmoqli joy bo‘lganligi uchun u o‘z o‘rnida ma’lum darajada doimo ijobiy. Ammo, shaxsning tarbiyasiga salbiy ta’sir qiluvchi tomonlari ham yo‘q emas. Masalan, oilaning iqtisodiy omili, boylik, moddiy dunyoga e’tibor ning kattaligi shaxsda ma’naviy dunyoqarashning o‘sishiga to‘siq bo‘lib qolishi, erkalik, nimjonlik, g‘oyasizlik, huquqbuzarlik holatlarini tug‘dirishi mumkin.

O‘z o‘rnida oiladagi iqtisodiy kamchilik esa xuddi shu xususiyatlarning aksini tug‘dirishi, bu o‘rinda ochko‘zlik, mol-mulkka hirs qo‘yish tuyg‘ularini shakllantirishi mumkin. Shunisi aniqki, ota-onaning ma’naviy qashshoqligi bolada ma’naviy o‘sishga to‘siq bo‘lishi turgan gap. Oiladagi yakkahokimlik yoki hamma narsaga “liberal” qarashlar, o‘zibo‘larchilik, burch va burchsizlik holati tarbiyaga ijobiy ta’sir qilolmaydi.

Bolalarning jismonan baquvvat, aqlan yetuk bo‘lishi hamda uzoq umr ko‘rishi sog‘lom turmush madaniyati bilan belgilanadi. Sharq xalqlarida bolalarni kichik yoshdan boshlab sog‘lom turmush tarzi ruhida tarbiyalashda o‘yin faoliyatidan o‘rnili foydalanib kelingan.

Ota-onalar bolaning birinchi tarbiyachilari bo‘lganlar va shunday bo‘lib qoladilar. Bolani oilada tarbiyalash murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayondir. Oiladagi muhit va sharoit bolaning shaxsi shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ota va ona o‘z bolasini ardoqlaydi, erkalaydi, tashvishini qiladi, hayot tashvish va qiyinchiliklaridan asraydi.

Ota-onalarning shaxsiy ibratlari – bolaning tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatish muhim vositasidir. Uning tarbiyaviy ahamiyati bolaning taqlid etishga qiziqishi, havas qilishiga asoslangan. Bilim va tajribalarga ega bo‘lmay bola kattalar qilganini takrorlaydi, ularning harakatlariga taqlid qiladi. Ba’zan bolaning oilada olgan tajribasi bolaning atrof dunyoga, odamlarga nisbatan yagona o‘lchov belgisi bo‘lib qoladi.

Bola shaxsi tarbiyasiga shunchaki o‘zining borligi bilan ta’sir ko‘rsatmaydi, balki qulay ma’naviy-psixologik muhiti, uning a’zolari o‘rtasidagi sog‘lom munosabatlar bilan ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda oilada bola tarbiyasining milliy o‘ziga xos qoidalari mavjud bo‘lib, ota-onalar ulardan o‘rinli foydalanishlari lozim. Oilada ma’naviy-ruhiy hotirjamlik, o‘zaro totuvlik xukmron bo‘lsa, oila a’zolari bir-birlariga g‘amxo‘r bo‘lsalar, bola tarbiyasining tayanch nuqtasini topa olsalar, bunday muhit bola tarbiyasiga ijobiy ta’sir etadi va ular farzandlariga haqiqiy baxt hadya etadilar, bu bilan ishimizda rivojlanish, jamiyatimizda olg‘a siljish bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1.Shoumarov G‘., Akramova F., Umarov B. Oilada ma’naviy-axloqiy tarbiya. T: 2015.B.20.

2.Kaykovus Unsurulmaoliy “Qobusnoma” Toshkent, 1994, 174 bet.

3.Saidjanov Y. Traditsii prosvesheniya na Vostoke. Izdatelstvo literaturi i iskusstva im. G.Gulyama. T; 2001. B.26.

4.V.M.Karimova Oila psixologiyasi Toshkent., “Universitet” 2007.

2-ShO‘BA. OLIY TA’LIM MUASSASALARINING MILLIY VA XORIJIY TASHKILOTLAR BILAN TA’LIM, FAN VA INNOVATSION YO‘NALISHLARDA O‘ZARO HAMKORLIK ALOQALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

TA’LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALARINING O‘RNI

Azamat Usmonov
Jizzax davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi,
Maktab menejmenti kafedrasi kata o‘qituvchisi

Ta’lim sohasini rivojlantirishning muhim jihati bu ta’lim muassasalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, ajratilgan mablag‘lardan samarali va oqilona foydalanishni rag‘batlantiruvchi yangi va ilg‘or usullardan foydalanishni taqozo etadi.

Ta’limni moliyalashtirish dunyoning barcha mamlakatlarida davlat tomonidan ta’lim sohasida olib borilayotgan siyosatning birlamchi vazifalariga kiradi va u quyidagi maqsadlarni ko‘zda tutadi:

-aholining barcha ijtimoiy qatlami uchun ilk va o‘rta ta’lim olish imkoniyatini yaratish;


-mamlakatning barcha hududlarida ta’lim sifati va natijalarini, o‘quv-uslubiy hamda moddiy-texnik bazasini yaxshilash;

-ehtiyojlari bir xil bo‘lgan o‘quvchilarni ta’lim olish uchun zaruriy sarf-xarajatlarni bir xil moliyalash;

-ijtimoiy himoyaga muhtoj o‘quvchilarni esa ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda mablag‘lar bilan ta’minlashni nazarda tutuvchi tenglikni yaratish;


-ichki va tashqi samaradorlikni maqsad qilib qo‘yadi.

Bunda davlat ta’lim tizimini moliyalashtirishning bir qator usullaridan keng foydalanadi *(1-rasmga qarang).*



1-rasm. Ta’lim muassasalarini moliyalashtirish usullari.

Har bir mamlakat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, byudjet tizimining xususiyatlari va ta’lim tizimini boshqarish tamoillaridan kelib chiqib - ta’lim sohasini moliyalashtirishning u yoki bu usullaridan (davlat byudjetidan moliyalashtirish va byudjetdan tashqari moliyalash) ko‘proq foydalanishiga sabab bo‘ladi. Iqtisodiyotning liberallashib borishi, turli tarmoq va sohalarda biznes subyektlar faoliyatining kengayishi o‘z navbatida ta’limni moliyalashtirishning yangi, byudjetdan tashqari manbalaridan foydalanish imkonini oshiradi. Masalan AQSh, Kanada, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarda ta’limni moliyalashtirishda nafaqat davlat byudjeti ustuvorlikka ega hisoblanadi, balki moliyalashtirishning byudjetdan tashqari ko‘plab manbalari ham ahamiyatli hisoblanadi *(2-rasmga qarang).*



2-rasm. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashning asosiy manbalari

Ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashda ular tomonidan qo'shimcha taklif etiladigan turli pullik xizmatlardan keladigan daromadlar ham alohida ahamiyatga ega.

Davlat ta'lim muassasalari ustavida belgilangan vazifalarga muvofiq pulli ta'lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega. Bunday xizmatlar tarkibi quyidagilardan iborat:


- Ta'lim muassasasining asosiy fondlari va mol – mulkini realizatsiya qilish va ijaraga berish:
- Tovarlar, asbob – uskunalar bilan savdo qilish:
- Vositachilik xizmatlari ko'rsatish:
- Boshqa (shu jumladan ta'lim) muassasalar va tashkilotlar faoliyatida o'z ulushi bilan ishtirok etish:
- Aksiyalar, obligatsiyalar, qimmatli qog'ozlar xarid qilish va ularga daromadlar (dividend, foizlar) olish:
- Daromad keltiruvchi boshqa xil operatsiyalarni amalga oshirish

Diqqat qiling. Pulli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish davlat ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi kerak. Davlat ta'lim muassasalarida qo'shimcha ta'lim xizmatlari ko'rsatganlik uchun haq undirish tartibi ular tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Davlat ta'lim muassasalari pulli ta'lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatish hamda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish hisobidan olingan pul mablag'larini mustaqil ravishda tasarruf etishga haqli. [1]


Umuman olganda ta'lim muassasalari tomonida taklif etilayotgan qo'shimcha ta'lim xizmatlari ikki guruhga bo'linadi:

1. Ta'limga oid xizmat turlari:

2. Ta'limga oid bo'lmagan xizmat turlari. 3-rasmda ta'limga oid xizmat turlari keltirilgan.



3-rasm. Ta’limga oid qo‘shmcha pullik xizmatlar.



4-rasm. Ta’lim muassasasi tomonidan ko‘rsatiladigan ta’limga oid bo‘lmagan pullik xizmatlar.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishda qo‘shimcha manbalar sifatida quyidagilar keltirib o‘tilgan:

- Shartnomalar asosida (shu jumladan chet ellik jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar) kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hisobidan tushgan mablag‘lar;
- Jismoniy va yuridik shaxslarning buyurtmalari asosida ilmiy-tadqiqot, o‘quv-uslubiy va qonunda taqiqlanmagan boshqa ishlarni bajarish hisobidan tushgan mablag‘lar;
- Ta’lim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotni, bajarilgan ishlarni va ko‘rsatilgan xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;
- Binolar, inshootlar va asbob-uskunalarni ijaraga berish hisobidan tushgan mablag‘lar;
- Ta’lim tashkilotlarining bo‘sh turgan pul mablag‘larini bank muassasalariga depozitlarga joylashtirish hisobidan olingan pul mablag‘lari (foizlar);
- Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratiladigan mablag‘lar;
- Bank kreditlari va ssudalari;
- Jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya mablag‘lari.

Ta’lim kreditlarining mohiyati va ahamiyati. Kredit tushunchasi (lotincha creditum – qarz, credo – ishonaman, maqullayman) – pul mablag‘lari, tovar va xizmatlarni kelishilgan ustama (foiz) to‘lab qaytarib berish sharti bilan ma’lum muddatlarga qarzga berishdir. Qarzga mablag‘ beruvchi tomon krditor (davlat, bank, korxona, xususiy shaxs va boshqalar), ssuda oluvchi tomon esa debitor (qarzdor) deb nomlanadi.

Kredit kelishuvi qarzdan foydalanish shartlari qayd etilgan shartnoma bilan rasmiylashtiriladi. Kredit muomalasi qarz beruvchi va qarz oluvchi tomonlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatdir.

Bugungi kunda kreditlar ta’lim tizimini, ta’lim muassasalari faoliyatini moliyaviy ta’minlashning keng tarqalgan manbalaridan biridir. Kreditlardan ta’lim oluvchi shaxslar ham, ta’lim xizmatlar faoliyatini rivojlantiruvchi muassasalar ham foydlanishi mumkin.

O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2024 yil 27-maydagi “Oliy va professional ta’lim tashkilotlari talabalari va o‘quvchilariga byudjet mablag‘lari hisobidan ta’lim kreditini ajratish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-82-sonli Farmoni qabul qilindi. Natijada oliy va professional ta’lim tashkilotlarida to‘lov-kontrakt asosida o‘qiyotgan talaba va o‘quvchilarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilayotgan davlat byudjeti mablag‘laridan samarali foydalanish maqsadida ta’lim krediti beriladi.

2024-2025-o‘quv yilidan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Ta’lim kreditini moliyalashtirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ta’lim krediti ajratishning yangi tartibi joriy etildi:

- oliy va professional ta’lim tashkilotlarida tahsil olish uchun ta’lim kreditini faqat kunduzgi ta’lim shaklida o‘qiyotgan talaba va o‘quvchilarga ajratish;
- ta’lim kreditini: oliy ta’lim tashkilotlarining birinchi bosqich talabalari hamda professional ta’lim tashkilotlari o‘quvchilari uchun – to‘lov-kontrakt summasi miqdorida;
- oliy ta’lim tashkilotlarining ikkinchi va undan yuqori kurs talabalari uchun fanlarni o‘zlashtirisshning o‘rtacha ko‘rsatkichi “3” dan past bo‘lgan taqdirda to‘lov-kontrakt summasining ko‘pi bilan 80 foizi miqdorida (“Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilgan oilalar farzandlari bundan mustasno).


Ta’lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklik. Ta’lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklik davlat va xususiy sheriklarning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o‘z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorlikdir.

Nodavlat ta’lim tashkilotlari ta’lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilishi mumkin.

Ta’lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklik “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni prinsiplari, normalari va qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ta’lim sohasiga investitsiyalarni jalb etish. Ta’lim – inson omiliga investitsiyadir. Jamiyat, davlat umuman bunday investitsiyadan manfaatdor, chunki ta’lim darajasini oshirish iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, mehnat unumdorligini oshiradi, ijtimoiy muammolarni bir qadar bartaraf etadi. Shuning uchun ham ta’limga yo‘naltirilgan moliyaviy resurslar ulushi ustuvor hisoblanadi.

Davlat ta’lim sohasini, ta’lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishga, shuningdek investorlarning, shu jumladan chet ellik investorlarning ushbu sohadagi huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan investitsiyalarni jalb etish uchun qulay ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratilishini ta’minlaydi. [2]




5-rasm. Oliy ta’lim muassasalarining investitsion jozibadorligiga ta’sir etuvchi omillar

5-rasmdan ko‘rishimiz mumkinki oliy ta’lim muassasalarining investitsion jozibadorligiga ta’sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat: ta’lim sifati va raqobatbardoshligi; ta’lim muassasasida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyati; OTMda ilmiy-tadqiqot natijalari va innovatsion loyihalarni tijoratlash va investitsiyalashni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi; oliy ta’lim muassasasining iqtisodiy funksionalligi; tashkiliy va moliyaviy mustaqilligi; OTMning ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, ilmiy, innovatsion va investitsiyalash yo‘nalishlaridagi hamkorlik aloqalari; ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi; oliy ta’lim muassasasining imidji; marketing tadqiqotlari va PR “public relations” texnologiyalaridan foydalanish darajasi; mamlakatda investitsion faoliyatning tashkiliy-huquqiy asoslari kabi omillar inobatga olinadi.


Oliy ta’lim muassasasining byudjetdan tashqari moliyaviy manbalariga OTMda tahsil olayotgan xorijlik talabalar salmog‘i ham sezilarli ta’sir etadi.

Dunyoning ko‘plab nufuzli universitetlari byurtma bo‘yicha muayyan shartnomaga asoslangan to‘lovlar asosida koplab xorijiy kompaniyalarga kadrlar yetkazib beradi va bu OTM yillik daromadining salmoqli qismini tashkil etadi (*6-rasmga qarang).*



6-rasm. Turli davlatlar oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan xorijlik talabalar

O‘zbekistonda so‘ngi yillarda talim tizimini rivojlantirish, sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish doirasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohatlar natijasida tehsil olayotgan xorijlik talabalar soni ham yil sayin o‘sib bormoqda *(7-rasmga qarang).*



7-rasm. 2017 – 2024 yillarda O‘zbekiston OTMlarida tahsil olayotgan xorijlik talabalar

Ta’lim tashkilotlari qayta tashkil etilgan hollarda ularning mol-mulki yangi tashkil etilgan ta’lim tashkilotiga huquqiy vorislik asosida o‘tkaziladi. Ta’lim tashkilotlari tugatilganda ularga tegishli mol-mulk kreditorlarning talablari qanoatlantirilgandan so‘ng, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, muassislarga (ishtirokchilarga) qaytariladi.

Xulosa qilish mumkinki zamonaviy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta’minlashda, jumladan, moddiy-texnik bazasini yaxshilashda, ta’lim sifatini ta’minlashda, pedagogik va ilmiy faoliyatda yuqori natijalarni qayd etgan xodimlarni rag‘batlantirishda ta’lim muassasasining byudjetdan tashqari manbalarni shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Buning uchun biznisga yo‘naltirilgan qo‘shimcha dasturlar asosida ta’lim xizmatlari taklifini kengaytirish, imtiyozli kreditlar, ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalar uchun e’lon qilingan grant mablag‘lari hamda investitsion fondlardan samarali foydalanish mavjud muammoni bartaraf etishning muhim yechimidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston respublikasining 23.09.2020 yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007

2. Шимятихина Л.Ю. “Менеджмент и экономика оброзования” учебное пособие/ Растов н/Д.: Феникс, 2015.

3. Гордеева Д.С., Дектярова Н.А. Экономика оброзования: учебное пособие/ Челябнск:” Цицеро” 2017.

4. M.X.Saidov Oliy ta‘‘lim muassasalarini moliyalash. Toshkent. “Moliya” 2020 yil.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNI XALQARO BAHOLASH DASTURLARIGA TAYYORLASHNING YUTUQ VA KAMCHILIKLARI

Ablyakimova Refide Izmerovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi,
Maktab menejmenti kafedrasi kata o‘qituvchisi
Abduxoliqova Marjona Ixtiyor qizi
Maktab menejmenti yo‘nalishi 2-kurs talabasi, Jizzax DPU
E-mail: abduxoleqovamarjona@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada biz jahonning eng rivojlangan top mamlakatlari o‘z ta’lim tizimlarini rivojlantirishda amalda sinab kelayotgan STEAM ta’lim texnologiyasi bilan tanishamiz. Va ta’lim samaradorligini o‘lchash uchun yaratilgan xalqaro baholash dasturlarining O‘zbekistondagi natijaviy tahlillarini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: *ta’lim sifati, STEAM, PISA, PIRLS, TIMS, TALIS, baholash, tahlil, bilim, malaka, ko‘nikma.*

Аннотация:

В этой статье мы познакомимся с образовательной технологией STEAM, которую фактически апробируют в разработке своих образовательных систем наиболее развитые топ-страны мира. И полученное образование плодотворно.

Ключевые слова: *качество образования, STEAM, PISA, PIRLS, TIMS, TALIS, оценка, анализ, знания, компетентность, навыки.*

Abstract:

In this article, we will get acquainted with the STEAM educational technology that the most developed top countries of the world are actually testing in the development of their educational systems. And the achieved education is fruitful.

Key words: *quality of education, STEAM, PISA, PIRLS, TIMS, TALIS, assessment, knowledge, skills, qualification.*

Kirish. Xalqaro baholash dasturlari – butun dunyo bo‘ylab ta’lim samaradorligini va o‘quvchilarning savodxonliklarini tahlil qiluvchi test va shunga o‘xshash topshiriqlar majmuidir . Dasturlar turli yosh ko‘rsatkichlarida va fan turkumlarida o‘z tadqiqotlarini olib boradi. Xolbuki uning bir nechta turlarini ko‘rib chiqamiz:

1. PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) – boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash tizimidir. Davriy ravishda har 5 yilda o‘tkaziladi: 2001, 2006, 2011, 2016 va 2021.Unda baholash 3 ta darajaga bo‘linadi: yuqori daraja -550 ball;o‘rta daraja -475 ball; quyi daraja -400 ball. Xalqaro baholash dasturlari ichida O‘zbekistonda birinchi bo‘lib PIRLS tadqiqoti o‘tkazilgan bo‘lib sababi shuki dastur ta’lim tizimiga to‘laligicha mos kelardi.

2. PISA (The Programme for International Student Assesment) – 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonliklarini amaliyotda qo‘llay olish darajasini baholovchi tizim. PISA tadqiqoti testdan iborat bo‘lib, unda bir necha xil test turlari mavjud: bir javobli, bir nechta javobli, qisqa yoki batafsil javob yoziladigan, biror muammoning yechimi bo‘yicha fikrlar keltiriladigan. Tadqiqot har 5 yilda bir marotaba tashkil etiladi. O‘zbekistonda bu dastur birinchi marotaba 2021-yil sinov tariqasida, 2022-yil esa rostakamiga o‘tkazildi. Buning natijalari esa bir yildan so‘ng, ya’ni joriy yil oxirida e’lon qilinadi.

3. TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) – 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholovchi dastur bo‘lib, tadqiqot ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi. Dastur har 7 yilda o‘tkaziladi va hozirgacha 7 marotaba tashkil etilgan bo‘lib, navbatdagi 8-tadqiqot 2023-yilda o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan. Natijalar 1000 ballik shkalada o‘lchanib, o‘rtacha natija 400-500 ball.

4. TALIS (The Teaching and Learning International Survey) – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganuvchi dastur.

Asosiy qism. Dastlab xalqaro baholash dasturlari nima uchun ishlab chiqildi va butun dunyo bo‘ylab sinov tadqiqotlari olib borilmoqda? Bizga ma’lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar boshqa sohalar qatorida ta’lim tizimini ham tubdan isloh qilishib, hozirgi XXI asr texnika va texnologiya davrining ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim tizimlarida STEAM texnologiyasini qo‘llashmoqda. STEAM ta’lim texnologiyasi amaliyotga joriy etilgach uning qay darajada samara berganini baholash uchun Xalqaro baholash dasturlari ishlab chiqilgan. Va tadqiqotlar bosqichma-bosqich olib borilmoqda. Xo‘sh STEAM ta’lim texnologiyasi nima? STEAM – an’anaviy ta’limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o‘zaro mutanosib holdaolib borishni ta’minlab, tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika fanlarini uyg‘unlikda olib boruvchi o‘qitish uslubi.

Bizning ta’lim tizimida STEAM ta’lim texnologiyasi “Fin ta’limi “ negizida shakllanib, hali adaptatsiya davridan samarali o‘tib olganicha yo‘q. Sababi xalqaro baholash dasturlaridan yuqori natijalarni olib kelayotgan Finlandiya ta’lim tizimi bilan bizning ta’lim tizimida anchagina farqlar bo‘lib, ularni amaliyotda to‘laligicha qo‘llash imkoniyati bizda mavjud emas. Balki shuning uchundur, qilayotgan sa’y-harakatlarimiz biz kutgan natijani berganicha yo‘q.

Amaliyotda ta’lim samaradorligini va xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik jarayonlarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi **Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi** amalga oshiradi va nazorat qiladi. Milliy markazning bajarishi zarur bo‘lgan vazifalari:

- xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O‘zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish;

- ta’lim tizimida o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;

- ta’lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o‘rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o‘tkazishda ishtirok etish;
- ta’lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o‘tkazish;
- ta’lim sifatini baholash bo‘yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;
- umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlash;

O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash juda muhim hisoblanadi. Sababi 2030-yilgacha top 30 talikka kirish va ta’lim samaradorligini 50 % ga oshirish eng muhim vazifa etib belgilangan. Vaholanki bu jarayon hozirga qadar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda va erishilgan yutuqlarimiz quyidagilar:

1. Xalqaro standartlarga rioya qilish: ta’lim tizimining barcha bosqichlarida xalqaro standartlarga mos o‘quv reja va dasturlar, qo‘llanmalarning ishlab chiqilishi, ular orqali o‘quvchilarning savodxonliklarini oshirish va kompetensiyalarni shakllantirish;
2. Multimedialar va texnologiyalar: texnologik vositalar va AKT dan foydalanib samarali dars jarayonini tashkil qilish va turli multimedialar, internet resurslari, interaktiv darsliklar yaratish va ular yordamida ta’lim oluvchilarni qiziqtirish;
3. Xalqaro hamkorlik: umumiy o‘rta ta’lim maktablarida xalqaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mahalliy o‘qituvchilar bilan bir qatorda xorijlik o‘qituvchilarni jalb qilish va ular bilan yaqin aloqalar o‘rnatish.

Biz bu kabi yutuqlardan quvonar ekanmiz, shu qatorda kamchiliklar tahlilini ham keltirishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. O‘rganish tillari: xalqaro baholash dasturlari uchun o‘ quvchilar ingliz tilini yaxshi bilishi talab qilinadi. Agar o‘ quvchilarning til bilish darajasi past bo‘lsa, tabiiyki bu test natijalariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi.
2. Resurslar: xalqaro ta’lim resurslarning kamligi va ularni o‘zbek tiliga o‘girish ehtiyojining yuqoriligidir. Bu muntazam ravishda xorij adabiyotlaridan tanishib borishni taqozo etadi.
3. Qayta tashkil etish: bu eng dolzarb muammo hisoblanadi. Biz shu vaqtgacha baholash dasturlariga tayyorlanib kelamiz. Lekin natija haliham yuqorilagani yo‘q. Vaholanki xalqaro baholash dasturlarida birinchiliklarni egallab kelayotgan mamlakatlar esa hech qachon tayyorgarlik ko‘rishmaydi. Balki, ta’lim sistemalarini moslashtirishgan va shu orqali yuqori natijalarga erishganlar. Bizning eng katta muammomiz ham ta’lim sistemasini xalqaro baholash dasturlariga moslamaganimizdir.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shularni aytishimiz mumkinki, xalqaro baholash dasturlarida qatnashish yaxshi, ammo ta’lim sifatini ham e’tibordan chetda qoldirmasligimiz kerak. Buning uchun avvalo yuqori sinf o‘quvchilaridan emas, boshlan’ich 1-sinf o‘quvchilaridan boshlab ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va yangi avlod darsliklarini jahon standartlariga mos ravishda ishlab chiqish zarur. Yana ular xorijiy tillardan bir nechtasini egallashi, AKT dan va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish kompetensiyasini o‘zida shakllantirishi zamon talabadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.Ibraimov, M.Qurbonov. Umumiy pedagogika. –T.:TDPU nashriyoti,2023
2. A.B.Radjiev va boshqalar.O‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi. Qo‘llanma, Toshkent-2019
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 yildagi PF-5712-son “ O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi “ Farmoni…
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi “ Farmoni…

5. https://uz.wikipedia.org/wiki/PIRLS
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_o%CA%BBquvchilarni_baholash_dasturi
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/TIMSS
8. https://lex.uz/docs/-4097073

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA ZAMONAVIY DIDAKTIKADAN FOYDALANGAN HOLDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH

Tursunova Lola Aminjonovna
Jizzax shahar 8-sonli DMTT uslubchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida didaktik o'yinlarndan unumli foydalanish va kichik yoshdagi bolalarga mashg'ulotlarni olib borishda ahamiyatli tomonlari ochib berilgan.

Kalit so'z: *maktabgacha ta'lim, didaktika, mashg'ulotlar, ta'lim jaryoni, ta'limdan tashqari, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, matematik o'yinlar.*

Annotation

This article reveals the important aspects of effective use of didactic games in preschool educational organizations and conducting activities for young children.

Key words: *preschool education, didactics, training, educational process, extracurricular, educational, educational, mathematical games.*

Hozirgi kunda barkamol avlodni tarbiyalashda yoshlarni intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishda va ularning har tomonlama rivojlangan shaxs etib etkazish-davlatimizning siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida bir qator qonunlar va qonun osti hujjatlar qabul qilingan. 2024-yil 30-sentabrda "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoni (PF-152-son) qabul qilindi. Farmonga ko'ra, maktabgacha ta'limning davlat ta'lim dasturi doirasida quyidagilar amalga oshiriladi:

• kichik va o'rta guruhlardagi bolalarda kognitiv, psixomotor va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish;

• katta va maktabga tayyorlov guruhlaridagi bolalarda bilim olish, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish.

2026/2027 o'quv yilidan:

• bog'chalar tomonidan Maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimida bolaning rivojlanish xaritasini yuritish amaliyoti joriy qilinadi;

• maktabga tayyorlov guruhlarini tamomlagan bolalarga ularning rivojlanish xaritasi asosida bir yillik maktabga tayyorlovdan o'tganlik haqida elektron sertifikat berish yo'lga qo'yiladi.

2025-yil 1-avgustgacha:

• maktabgacha ta'limning davlat ta'lim dasturi doirasida ishlab chiqilgan elektron resurslar, audiovizual mahsulotlar va o'quv-metodik materiallar Maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimida joylashtiriladi hamda ulardan erkin va bepul foydalanish imkoniyati yaratiladi;

• Maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimida ota-onalar uchun shaxsiy kabinet yaratiladi va unda bolaning rivojlanish xaritasi ma'lumotlarining joylashtirilishi ta'minlanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma’lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Mashg‘ulotlarda tarbiyachi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida tarbiyalanuvchilarga etkazadi, bolalar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Ta’lim olish jarayonida tarbiyalanuvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya’ni o‘zlashtirilayotgan ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta’lim jarayonida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning mashg‘ulot vaqtidagi hamkorligi, bolalarning mustaqil ishlashi, ta’lim jarayonini o‘yinlar orqali tashkil etishi, kunning ikkinchi yarmidagi ishlar, tarbiyachining boshqa pedagoglar bilan hamkorlikdagi ishlari, bolaning rivojlanish xaritasidagi indikatorlarni birma bir bajarilishi natijasida ta’lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta’lim-tarbiyaning asosiy jihati esa, tarbiyalanuvchilarga mashg‘ulotni o‘yin orqali tashkil etishdir. Ta’lim jarayonida o‘yinli texnologiyalar didaktik o‘yinli mashg‘ulot shaklida qo‘llaniladi. Ushbu mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning bilim olish jarayoni o‘yin faoliyati orqali uyg‘unlashtiriladi. Shu sababli o‘quvchlarning ta’lim olish faoliyati o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashgan darslar didaktik o‘yinli mashg‘ulotlar deb ataladi.

Didaktika (qadimgi yunoncha: didaktikos — “o‘rgatuvchi”, “ta’lim beruvchi”) — pedagogikaning tarmog‘i. Ta’lim nazariyasi bilan shug‘ullanadi. “Didaktika” atamasi ilk bor Yevropada 17-asrda o‘qitish va ta’lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo‘llanila boshlagan. Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o‘zining “Buyuk didaktika” asarida (1657) bolalar va o‘smirlarni ma’lumotli qilish va ularga ta’lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqdi. Hozirgi zamon pedagogikasida didaktikaga ta’lim va ma’rifat berish nazariyasi bilan shug‘ullanadigan alohida soha sifatida qaraladi. Ta’lim mazmunini aniqlash, ta’lim jarayoni qonuniyatlarini ochish hamda o‘qitishning eng samarador usul va yo‘llarini topish didaktikaning asosiy muammolaridir.

Didaktika ta’lim usullari muammosini ham qamrab oladi. Tarbiyachi biror predmet bo‘yicha bolalarning tizimli bilim olishini ta’minlash maqsadi sari intilar ekan, ma’lum ishlarning bajarilish namunasini ko‘rsatadi. Ayni vaqtda, u ta’limning barcha bosqichlarida bolaning faolligi va mustaqilligini ta’minlaydi. Bolalar tarbiyachi rahbarligida tajriba va kuzatuvlari asosida yangi bilimlarni o‘zlashtiradi. Ularga chuqur va mustaqil o‘zlashtirishlari, o‘rgangan bilimlarini amaliyotda ijodiy qo‘llashlari uchun maxsus topshiriklar beriladi.

Tarbiyachi bolalar faoliyatini boshqaradi, ya’ni ularni o‘yin mazmuni bilan tanishtirib, faol va mustaqil harakatlar bajarishga undaydi, qoidalarining to‘g‘ri bajarilishini nazorat qiladi. Bunday qoidalar (qachon va qayerda, qanday haraklarni bajarish, birgalikda ishlash, qiziqarli bo‘lgan rollarni navbat bilan bajarish va hokazo) ishtirokchilarning munosabatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, ayrim o‘yinlarda bolalar berilgan topshiriqni birgalikda bajarishlari kerak bo‘ladi. Bunday o‘yinlar bolalarni birlashtiradi, ular o‘rtasida samimiy munosabatlarni o‘rnatishga yordam beradi. Bolalar topshiriqni navbat bilan bajarsalar, o‘z o‘rtoqlariniki bilan solishtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Agar bola o‘yinni yoqtirib qolgan bo‘lsa, uni takrorlashni xohlaydi, harakatlarni mustaqil bajaradi. O‘yinning asosiy maqsadi ham shunda. Shu jarayon davomida rivojlantiruvchi omillar ham ro‘yobga chiqadi. Bolalar faoliyatini kuzatar ekanmiz, uning bilish jarayonini ikkita bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan komponentga ajratish mumkin. Maktabgacha ta'lim jurnali: Birinchi komponent–atrof muhit haqidagi ma’lumotlar va ularni qabul qilish hamda qayta ishlash uchun zarur bo‘lgan tafakkur jarayonlari, ya’ni:

• bolani tevarak-atrofdagi muhitda qiziqtiradigan narsalar va jarayonlar;
• ma’lumot olish vositasi
• ma’lumotni qayta ishlash;

O‘yin, mashg‘ulot, sayr, kechki soat kabi pedagogik jarayonlarda tarbiyachi bolaning vositasi sifatida muayyan funksiyalarni bajaradi. Bunda tarbiyachining asosiy maqsadi bolaga bilim (ma’lumot) berish emas, balki shu ma’lumot orqali uning bilish jarayonlarini rivojlantirishdan

iboratdir. Ikkinchi komponent-insonni ma’lumotga bo‘lgan munosabati. Har qanday ma’lumot insonning u yoki bu narsa, hodisa va jarayonga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Lekin bu munosabat kattalar va bolalarda bir xil emas. Kattalar ma’lumotni qabul qilgandan keyingina unga bo‘lgan ijobiy yoki salbiy munosatni bildirishlari. Bolada esa eng avvalo, biz etkazmoqchi bo‘lgan ma’lumotga ijobiy munosabatni shakllantirishimiz lozim. Bolalarning o‘yinga bo‘lgan qiziqish va ehtiyojlaridan ta’lim masalalarini hal etishda foydalanish mumkin. O‘yinni tashkil etish va boshqarish jarayonida tarbiyachi bola har tomonlama ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tarbiyalanuvchilarning idrok, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy qobilyatlarini rivojlantirishda matematik o‘yinlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Matematik o‘yinlarning maqsadlari asosan quyidagilarga qaratilgan bo‘ladi:

1. Son va sanoq bilan tanishtirish.
2. Vaqt haqidagi va fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish
3. Geometrik shakllar bilan tanishtirish
4. Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish.

Son va sanoq bilan tanishtirishda “Qanday raqam yo‘qolib qoldi?”, “Xatoni top”, “Raqamning qo‘shnilarni toping”, “Sanaganda adashma” va hokazo. Bunday o‘yinlar yordamida bola birdan o‘ngacha va o‘ndan birgacha bo‘lgan raqamlar ketma-ketligini esda saqlab qoladi. Elementar hisoblarni bajarishga o‘rganadi, tafakkuri rivojlanadi. Hafta kunlarini yaxshi eslab qolishlari uchun har bir kun ma’lum bir rangdagi doiracha bilan belgilanadi. Masalan, dushanba-sariq, seshanba-oq.

Buning uchun har kuni doskaga ma’lum bir rangdagi doiracha yopishtirib boriladi. Uch-to‘rt haftadan keyin bolalar kunlar ketma-ketligi o‘zgarmas ekanligi haqida o‘zlari xulosa chiqaradilar. Fazoviy tasavvurlar o‘yinlar orqali tushuntirilsa (chapda, o‘ngda, tepada, pastda, oldida, orqada, uzoq, yaqin) bolalar tez qabul qiladilar va o‘zlashtiradilar. Bunga “O‘yinchoqni top” kabi o‘yinlar yordam beradi. Tarbiyachi biron bir o‘yinchoqni yashirib, uni topish uchun nima qilish kerakligini tushuntiradi. O‘yinchoqni topish uchun stol oldidan uch qadam chapga (o‘ngga) yurish kerak va hokazo. Geometrik shakllar haqidagi bilimlarini mustahkamlash uchun quyidagi o‘yinni o‘tkazish mumkin. Tarbiyachi har bir bolaga 3-4 rasm berib, ma’lum bir geometrik shaklni ko‘rsatadi. Bolalar shu shaklga mos rasmni topishlari kerak. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning mantiqiy tafakkuri rivojlantirib boriladi. Buning uchun mantiqiy topshiriqlar va o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, rasmlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish, ranglar qatorini davom ettirish (mantiqiy zanjircha), tushib qolgan belgini topish va hokazolar. Xullas, bunday o‘yinlar orqali bolalar o‘quv materialini tez tushunadilar va o‘zlashtiradilar. Maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘yin texnologiyalaridan keng foydalanish kichkintoylarni har tomonlama rivojlanishlarida katta ahamiyatga ega. O‘yinlar texnologiyasi tushunchasi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismidir. O‘yin texnologiyasi ta’limdagi an’anaviy o‘yin metodidan o‘zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo‘lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafoloti bilan farq qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘yini xilma-xildir. Ularni o‘yin turlarini asosan quyidagi klassifikatsiya qilish mumkin:

1) syujetli va rollarga bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlar;
2) Didaktik o‘yinlar;
3) Harakatli yoki qoidali o‘yinlar;
4) Aralashtirilgan o‘yinlar;

O‘yinlarning syujeti xilma-xilligiga qaramay, ularni maxsus guruhlarga biriktirish imkoniyati mavjuddir. Masalan, yirik psixolog E.A.Arkin o‘yinlarning quyidagi tasnifini tavsiya qiladi:

1) ishlab chiqarishga (texnikaga); sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, kasb-hunarga oid o‘yinlar;

2) maishiy va ijtimoiy siyosatga ro‘zg‘or: bog‘chaga, maktabga, kundalik turmushga oid o‘yinlar;

3) harbiy : urush-urush o‘yinlari;

4) drammalashtirilgan: kino, spektakl va boshqalarga oid o‘yinlar.

Biz shu tasnif haqida L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, D.B.Elkonin singari psixologlarning tanqidiy mulohazalariga to‘la qo‘shilamiz, chunki harbiy va drammalashtirilagan o‘yinlarni ham ijtimoiy-siyosiy guruhga kiritish mumkin.

Bizningcha, D.B.Elkoninning tasnifi ma’quldir. U maktabgacha yoshdagi bolalarga xos rolli o‘yinlarning syujetiga ko‘ra uchta guruhga ajratishni tavsiya qiladi:

1) maishiy mavzu syujetiga oid o‘yinlar;

2) ishlab chiqarish syujetiga taaluqli o‘yinlar;

3) ijtimoiy-siyosiy syujetli o‘yinlar.

Muallif ayrim o‘yin turlari maktabgacha yoshdagi bolalarning barcha bo‘g‘inlariga mosligini, syujetlar maishiydan ishlab chiqarishga qarab va undan ijtimoiy-siyosiy voqealarni aks ettirishga qarab rivojlanishini alohida uqtiradi. Uning fikricha, o‘yin syujetidagi bunday izchillik bolaning bilim saviyasi, turmush tajribasi kengayishi, uning katta yoshdagi odamlar turmushiga chuqurroq kirib borishi bilan bog‘liqdir. Darxaqiqat, o‘yin syujetining o‘sishi turmushning tobora yangi qirralarini aks ettirish bilan cheklanib qolmay, muayyan syujetning o‘ziga xos boshqa ko‘rinishlari bilan boyishi sababli ham amalga oshadi. Bolalarga tashabbuskorlik, jamoamiz, burch xislarini o‘stiradi. Bunga “Kim birinchi”, “koptok”, “oq quyoncha o‘tiribdi”, “yetib ol” o‘yinlari kiradi. Harakatli o‘yinlar asosan sayr va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida o‘tkaziladi. Drammalashtirilgan o‘yinlarni ham bolalar sevib o‘ynaydilar. Bu o‘yinlar turli xil ertak va hikoyalar saxnaga qo‘yiladi, rollarni esa bevosita bolalarni o‘zlari ijro etadilar. Masalan: “Qizil shapkacha”, “Tortmoq”, “Sholg‘om” drammali o‘yinlar bolalarni nutqi xayol va qobiliyatlarini tarkib toptiradi.

Shunday ekan, ta’lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta’limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g‘oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma’naviy boyitishdan iboratligi ta’kidlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maktabgacha ta'lim jurnali: https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/index.

2. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim asoslari -F. N. Vaxobova, SH. B. Nabixanova, D. Karimova-Toshkent-2015

3. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan Davlat talablari. – Toshkent, 2018 y.

4. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi-T. 2018 y. Uzbekistan.

5. Улучшение системы дошколного образования и воспитания-Всемирный банк-2013 й.

OLIY TA’LIMDA BAYNALMINALLASHTIRISH: MAVJUD MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR

Abdullayev Jahongir Ro‘zmatovich
Ismatova Sevara Bo‘riboy qizi
Maktab menejmenti yo‘nalishi 3-kurs talabalari, Jizzax DPU
Ilmiy rahbar: Qosimov Azimjon
Maktab menejmenti kafedrasi o‘qituvchisi, Jizzax DPU

Annotatsiya:

Ushbu maqolada globallashuv sharoitida oliy ta’limning innovatsion rivojlanishini tashkiliy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlashni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari yoritilgan. Oliy ta’lim sohasida innovatsion faoliatni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri mamlakatimiz oliy ta’lim va umuman, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha mavjud dasturlar bilan

hamohanglashtirilgan oliy ta'limni innovatsion rivojlantirish milliy strategiyasini yaratishdan iborat.

Kalit so'zlar: *Innovatsiyalarni tijoratlashtirish, globallashuv, Oliy ta'lim muassasasi, innovatsion rivojlanish, texnologiya transferi.*

Abstract:

This article describes the main directions of improving the organizational and economic support for the innovative development of higher education in the context of globalization. One of the main directions for improving innovative activity in the field of higher education is to create a national strategy for innovative development of higher education coordinated with existing programs for the development of higher education and the national economy in general.

Key words: *Commercialization of innovations, globalization, Higher education institution, innovative development, technology transfer.*

Bugungi shiddatli glaballashuv jarayonida hamda shu bilan biraga ta'lim xizmatlari bozorida raqobat kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda jamiyat bilimlarini shakillantirish, milliy iqrisodiyotni raqobat bardoshligini ta'minlash, iqtisodiyotni va oliy ta'limni innovatsion asosda rivojlantirish zarurati mutlaq dolzarbdir. Mamlakatning jahon miqyosida kuchli raqobatbardosh mavqeini ta'minlash ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion, gumanitar, axloqiy-axloqiy va ma'naviy jamiyat taraqqiyotida ta'limning o'rni beqiyos ekanini anglashni taqozo etadi.

Umuman olganda, oliy ta'lim muassasalarining o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, moliyaviy-iqtisodiy, ta'lim va xalqaro faoliyatini innovatsion rivojlantirishni rag'batlantirish haqida gapirish o'rinlidir. Xususan, o'quv-uslubiy faoliyatni o'quvchilarga faqat tegishli bilimlarni o'tkazish uchun tashqi muhit o'zgarishlariga mos ravishda doimiy yangilab borishga yo'naltirish kerak. Moliyaviy-xo'jalik faoliyatini innovatsion rivojlantirish talabalarni o'qitish uchun tegishli moddiy-texnikaviy sharoitlarni ta'minlash uchun oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning yangi manbalarini topishga qaratilgan bo'lishi kerak. Oliy ta'lim muassasalarining ilmiy faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari - ixtirolar, noyob innovatsiyalarni ishlab chiqish. Oliy ta'im tizimida ta'lim faoliyatini rivojlantirish, birinchi navbatda, bugungi o'zgaruvchan sharoitlarda innovatsion fikrlash va harakat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan to'liq huquqli shaxsni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishning xalqaro faoliyatining innovatsion shakllarini topish, shuningdek, biznes tuzilmalari bilan hamkorlikni rivojlantirish zarurati bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Avvalo, oliy ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish muhimligini alohida ta'kidlash lozim. Xususan, milliy miqyosda oliy o'quv yurtlari va korxonalarni innovatsion loyihalarni amalga oshirish bo'yicha birgalikdagi tadbirlarni tashkil etish uchun samarali rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish va joriy etish zarur. Bu holda motivatsiya vositalari soliq imtiyozlari, grantlar, bepul konsalting xizmatlari va boshqalar bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish va biznesning ijtimoiy mas'uliyati prinsipial ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatda universitetlarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mos keladigan yaxlit innovatsion strategiya mavjud bo'lsa, milliy oliy ta'lim tizimini samarali innovatsion rivojlantirish mumkin bo'ladi. Oliy ta'limni innovatsion asosda modernizatsiya qilishning tashkiliy-boshqaruv va iqtisodiy jihatlarini takomillashtirishning birdek muhim yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarining innovatsion rivojlanishini maqsadli moliyalashtirish bo'yicha davlat strategiyasini shakllantirish hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro faoliyatini innovatsion rivojlantirish masalalari alohida ilmiy qiziqish uyg'otmoqda. Bu jamiyat hayotining barcha jabhalariga, jumladan, oliy ta'limga ham kirib kelgan globallashuv jarayonlarining kuchayishi bilan bog'liq. Dunyoning aksariyat mamlakatlari uchun innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun grantlar taqdim etadigan bir qator xalqaro hamkorlik ta'lim dasturlari mavjud. Eng ommaboplari Yevropa Ittifoqining

Erasmus+, Amerika Qo‘shma Shtatlari grant dasturi, Fulbrayt dasturi va boshqalar kabi xalqaro ta’lim dasturlari. Har bir alohida xalqaro hamkorlik ta’lim dasturining o‘ziga xos xususiyatlariga qaramay, biz ularning faoliyatining asosiy vektorlarini aniqlashimiz mumkin: individual ta’lim grantlarini (bakalavr, magistratura va doktorantura dasturlari) taqdim etish, dunyoning tanlangan universitetlarida o‘qitish yoki ilmiy tadqiqotlar olib borish; o‘quv kurslarini modernizatsiya qilish loyihalarini moliyalashtirish – yuqori malakali mutaxassislar uchun innovatsion o‘quv kurslarini ishlab chiqish va joriy etish; oliy ta’lim muassasalarining jamiyat, mehnat bozori, ish beruvchilar, tadbirkorlar bilan aloqalarini chuqurlashtirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish [Kosach, I., Shaposhnykov, K., 2020: 456-473.].

Samarali innovatsion rivojlanish faqat innovatsion va ilmiy faoliyatni to‘liq amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tegishli infratuzilma mavjud bo‘lganda mumkin. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-pedagogik va talabalar kadrlarining innovatsion salohiyatini jamlovchi texnopark tuzilmalari va biznes-inkubatorlarni tashkil etish istiqbolli hisoblanadi. Texnopark tuzilmalarining faoliyati ilmiy va eksperimental tadqiqot bazasini doimiy ravishda takomillashtirish, universitetlar o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish, yangi biznes hamkorlar, potentsial investorlarni jalb etish, nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb etishni nazarda tutadi.

Innovatsion infratuzilmaning muvaffaqiyatli ishlashi ko‘p jihatdan ilmiy maslahat guruhlari boshchiligidagi xizmatlarning sifat xususiyatlari bilan belgilanadi. Oliy ta’lim tizimida innovatsiyalar samaradorligini baholashga, keng ko‘lamli innovatsiyalar natijalarini baholashga yuqori malakali mustaqil ekspertlarni jalb qilish – innovatsiyalarni boshqarish bo‘yicha tajribali va tan olingan mahalliy va xorijiy ekspertlarni o‘z ichiga olgan mustaqil ekspert guruhlarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Innovatsion rivojlanishning asosi innovatsion jamiyat madaniyatini rivojlantirishdir. Universitet olimlarining kasbiy faoliyatida milliy va mikro darajada ijodiy erkinlik muhiti alohida ahamiyatga ega. Aynan shunday sharoitda “ta’lim – fan – innovatsiya – biznes” zanjirida munosabatlarning rivojlanishi ta’minlanadi.

Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy faoliyatini rivojlantirish tahlilini amalga oshirar ekanmiz, uning quyidagi istiqbolli yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

- moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish;
- xususiy va xorijiy manbalardan investitsiyalar oqimini faollashtirish;
- oliy ta’lim tizimini innovatsion rivojlantirishni davlat maqsadli moliyalashtirish strategiyasini ishlab chiqish, bunda oliy ta’lim muassasalari faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirish ulushini oshirish;
- oliy o‘quv yurtlarining homiylik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash amaliyotini rivojlantirish (birinchi navbatda muvaffaqiyatli bitiruvchilar tomonidan);
- oliy ta’lim muassasalari ixtirochilarining innovatsion ishlanmalaridan foydalanish uchun litsenziyalarni sotish yo‘li bilan mablag‘ jalb etish;
- universitetlarning ilmiy mahsulotlarini sotish orqali moliyaviy resurslarni jalb qilish;
- xalqaro tashkilotlar va fondlarning grantlarini jalb qilish maqsadida oliy ta’lim muassasalarining xalqaro faoliyatini faollashtirish;
- milliy va davlat dasturlari stipendiyalari va grantlari tanlovlarida ishtirok etish;
- ilmiy ishlarning davlat shartnomaviy predmetini kengaytirish, ya’ni korxonalar buyurtmasi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga shartnomalar imzolash ko‘lamini kengaytirish va hokazo [Kovalenko, Yu., Vitrenko, L., 2020: 7029-7040].

O‘rganilayotgan kontekstda universitetlarning jamg‘arma fondlarini shakllantirish istiqbolli hisoblanadi. Jamg‘arma xayriya badallari (homiylar, oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari va boshqalar) hisobidan to‘ldiriladi. Jamg‘armaning asosiy xususiyati aniq maqsadli yo‘nalish - universitetning innovatsion rivojlanishi. Qo ‘shma Shtatlarda jamg‘arma fondlari amaliyoti juda keng tarqalgan (xususan, mamlakatning etakchi universitetlarini - Garvard, Yel, Prinston, Stenford universitetlarini

moliyalashtirishda). Bundan tashqari, jamg‘arma fondidan moliyalashtirish ushbu universitetlar umumiy byudjetining yarmini tashkil qiladi.

Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy faoliyatini rivojlantirish, bizningcha, davlat organlari tomonidan maqbul, mo‘tadil nazorat va tartibga solish bilan universitetlarning moliyaviy mustaqilligini kengaytirish bilan uzviy bog‘liqdir. Moliyaviy faoliyatni oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini yangilash va to‘g‘ri holatini ta’minlash, talabalar va o‘qituvchilarning harakatchanligini kuchaytirishga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.[https://www.redalyc.org]

An’anaviy universitetlarning vazifalari bo‘lib o‘quv faoliyati (yangi o‘quv predmetlarining paydo bo‘lish, ta’limning innovatsion usullarining rivojlanishi) , ilmiy faoliyat (yangi bilimlarni generatsiyalash; individual va fanlararodan guruhli tadqiqotlarga o‘tish) bo‘lgan bo‘lsa, tadbirkorlik universititetiga transformatsiyalashuvi natijasida universitetlar bo‘linmalarida olingan ilmiy natijalarni tijoratlashtirish (patentlashtirish, litsenziyalashtirish, kichik innovatsion kompaniyalarni yaratish va boshq.) ham qo‘shiladi.

Zamonaviy-tadbirkorlik universitetlarning ta’lim berish funksiyasiga taalluqli bo‘lgan muhim missiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tafakkur qilishning yangi usullarini shakllantirish;
- akademik muhitni yaratish;
- ta’lim xizmatlarini yaratish;
- butun dunyo bo‘yicha bilimlarni tarqatish.

Tadbirkorlik universiteti faoliyatining muhim yo‘nalishi bo‘lib quyidagi konsalting turlari hisoblandi:

- amaliy tadqiqotlar;
- tarmoq va ichki tahlil;
- tadbirkorlarni ular rivojlanishining turli bosqichlarda maslahat berish.

Maslahat loyihalarini amalga oshirishda aniqlangan yangi yo‘nalishlarni institutsionallashtiruv uchun tadqiqot markazlari va kompetensiya markazlari yaratiladi. Tadbirkorlik universiteti boshqa universitetlar uchun metodik yordam ko‘rsatgan holda yangi biznes - g‘oyalarni va biznes-jarayonlar inkubatori hisoblanadi.

Olib borilgan o‘rganishlarga asosan klassik ta’limni tadbirkorlikka transformatsiyalash va bu borada milliy modelni shakllantirish quyidagi holatlar orqali ro‘y beradi:

- mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish modeliga o‘tishi;
- ta’lim sohasida moliyalashtirish manbalarining qisqarishi;
- ta’lim xizmatlarining ichki va tashqi bozorlardagi raqobatchiligining o‘sishi;
- raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlashda “universitetlar – biznes – davlat – fuqarolik jamiyati” zanjiri ishtirokchilari orasidagi javobgarlik balansini aniqlashning zarurligi;
- biznes-hamjamiyatning jahon mehnat bozorida raqobatlashishga tayyor mutaxassislarni tayyorlashga bo‘lgan talabining oshishi;
- zamonaviy universitetlar tijoratlashtirishlari mumkin va shart bo‘lgan egallangan bilimlarning roli va tabiatining qayta ko‘rib chiqilishi;
- qayd etish, uzatish, bilimlarni yaratish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qodir bo‘lgan raqamli texnologiyalar va telekommunikatsiya tizimlarining rivojlanishi;
- boshqarilishi zarur bo‘lgan ta’limning nomoddiy investitsion aktivlarga aylanishi;
- ta’lim oluvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishga motivatsiyalangan, qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish uchun mas’uliyatlarni o‘ziga olishga tayyor va ambitsion maqsadlarni o‘z oldiga qo‘yishga qodir bo‘lgan yangi turining paydo bo‘lishi, qadriyatlardagi o‘zgarishlar;
- mamlakatda ro‘y berayotgan vaziyatlar sababli bitiruvchilardan yangi kompetensiyalarni, OTMlardan esa mutaxassislarni tayyorlashning yangi shakllari talab etilishi.

Klassik ta’limni tadbirkorlikka transformatsiyalash va milliy modelni shakllantirish masalalarining dolzarbligiga qaramasdan, ushbu jarayonga to‘sqinlik qiluvchi quyidagi qator muammolar borligini ta’kidlab o‘tish lozim:

- “OTM - biznes – davlat – fuqarolik jamiyati” o‘zaro munosabatlari tizimida balanslashgan javobgarlik;
- tadbirkorlik tafakkuri;
- OTMning moliyaviy va akademik mustaqilligi;
- tadbirkorlik ta’limiga fanlararo yondashuv;
- tadbirkorlik ta’limiga kompetentlik yondashuvi;
- ta’lim oluvchilarda tadbirkorlik faolligini rag‘batlantiruvchi innovatsion ta’lim mahsulotlarini joriy etish;
- tijoratlashtirish va transfer bo‘yicha talabalar va PO‘T uchun axborot va maslahatchilik xizmatlaridan foydalanish imkoniyati;
- tadbirkorlik universitetlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi;
- OTMda tadbirkorlik madaniyati shakllantirish va rivojlantirish va hokazolar.

Yuqorida keltirilgan manbalar va fikrlardan kelib chiqib shuni xulasa qilib aytish mumkinki oliy ta’limni milliy miqyosda innavatsion rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: ta’lim tizimini rivojlantirishning uzoq muddatli va aniq strategiyalarini shakllantirish, milliy va global miqyosda raqobatbardosh ustunliklarni yaratishda universitetlarni qo‘llab-quvvatlash, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, innovatsion jamiyat madaniyatini rivojlantirish, texnologiyalarni uzatish va tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish mexanizmlarini shakllantirish, universitetlarning innovatsion faoliyatini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish bo‘yicha tashabbuslarni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash va boshqalar. Shu bilan birgalikda jamiyat a’zolari orasida inovatsiyalarni o‘zlashtirish hamda moslashish darajasini hamda kreativ fikirlash darajasini yuksaltirish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1) Kosach, I., Shaposhnykov, K., Chub, A., Yakushko, I., Kotelevets , D., Lozychenko, O. (2022). Regulatory policy in the context of effective public governance: evidence of Eastern European Countries. Cuestiones Políticas, 40(72), 456-473.

2) Kovalenko, Yu., Vitrenko, L., Onyshko, S., & Bohrinovtseva, L. (2020). The State Higher Education Institutions Financing in Ukraine. Proceedings of the 35rd International Business Information Management Association Conference, 1-2 April 2020 Seville, Spain, 7029-7040.

3) https://www.redalyc.org/journal/5702/570272314074/html/

4)https://www.google.com/url?sa=i&url=https%3A%2F%2Flib.bimm.uz%2Fitems%2Fdownload%2F11343&psig=AOvVaw0q4db8riAKU20lqcRWz_LO&ust=1728310148933000&source=images&cd=vfe&opi=89978449&ved=0CAQQn5wMahcKEwjo7piU9_mIAxUAAAAAHQAAAAAQBA

INNOVATSION TA’LIM METODLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA TA’LIMNI TAKOMILLASHTIRISH

Botirov Shonazar
Maktab menejmenti kafedrasi o‘qituvchisi, Jizzax DPU
Anorboyeva Farangiz
Sulxanova Feruza
Maktab menejmenti yo‘nalishi 4-bosqich talabalari, JDPU

Annotasiya:

Ushbu maqolada innovatsion ta’lim metodlari turlari haqida shuningdek ta’lim berish jarayonida turli xil usullar va metodlar borligi ulardan qanday foydalanish kerakligi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.Dars mashg‘ulotlarida ta’lim metodlari va innovatsion metodlardan foydalanish, xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takaomillashtirish yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *innovatsiya,metod,bilim,ta’lim metodlari, an’anaviy ta’lim metodlari, interaktiv metod*

Аннотация:

В данной статье представлена информация о видах инновационных методов обучения, а также о существовании различных методов и способах их использования в учебном процессе. Использование образовательных методов и инновационных методов на занятиях, совершенствование системы оценивания на основе зарубежного опыта. , высказаны международные критерии и требования.

Ключевые слова: *инновации, метод, знания, методы обучения, традиционные методы обучения, интерактивный метод.*

Abstract:

This article provides information about the types of innovative educational methods, as well as information about the existence of different methods and how to use them in the teaching process. comments on improvement are presented.

Keywords:*innovation, method, knowledge, educational methods, traditional educational methods, interactive method.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim sohasidagi barcha tadbirlar dars jarayonlari innovatsion texnalogiyali metodlar orqali olib borilmoqda. Har bir maktabning ertangi kuni va kelajagi o‘quvchilarning intellektual salohiyatiga, aql zakovatiga va ta’limga bo‘lgan qarashlariga o‘z e’tiborini qaratmoqda. Zero, eski ta’lim-tarbiya asosida zamonaviy va intellektga boy o‘quvchilarni tarbiyalab bo‘lmagani kabi mamlakatimiz kelajagi, shubhasiz kadrlar tayyorlash masalasiga bevosita bog‘liq hisoblanadi. Shuning uchun har bir o‘quvchilar bilan innovatsion metodlar orqali dars jarayonini olib boorish zamon talabi hisoblanadi. Ya’ni Innovatsiya – (yangilik)orqali metodlar bilan dasr o‘tishdir.

Innovatsiyalar turli ko‘rinishga ega. Quyidagilar innovatsiyalarning asosiy ko‘rinishlari sanaladi:

- yangi g‘oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgatirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan’anaviy yondashuvlar;
- odatiy bo‘lmagan tashabbuslar;
- ilg‘or ish uslublari

Oddiy qilib aytganda, bu turli xil o‘qitish usullari! Hozirgi kunda ko‘plab o‘qituvchilar o‘z darslarini imkon qadar ushbu innovatsion ta’lim metodlaridan foydalanishga harakat qilmoqdalar va o‘quvchilarni o‘qitishda turli xil innovatsiyalardan foydalanish orqali o‘qishga ko‘proq jalb qilishlariga imkon berishadi. Ta’lim sohasi shunchalik tez o‘zgarmoqdaki, siz doimo zamonaviy strategiyalarga moslashishingiz kerak. Aks holda, sizga moslashish qiyin bo‘lishi mumkin.

Innovatsion ta’lim *(ingl. “innovatsion” – yangilik kiritish, ixtiro)* – ta’lim oluvchida yangi g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me’yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’limdir. Innovatsion ta’lim metodlari intefaol metodlar bilan ham bog‘liq. Interfaol usullar yangi materialni yuqori sifatli o‘zlashtirishga yordam beradi. Bularga quyidagilar kiradi: - ijodiy xarakterdagi mashqlar; - guruh topshiriqlari; - tarbiyaviy, rolli, ishbilarmonlik o‘yinlari, taqlid qilish; - darslar, ekskursiyalar; -ijodkorlar va mutaxassislar bilan dars-uchrashuvlar; - ijodiy rivojlanishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar - ijro darslari, filmlar suratga olish, gazetalarni nashr etish; - video materiallardan foydalanish, Internet, ko‘rinish; - "qaror daraxti", "aqliy hujum" usullaridan foydalangan holda murakkab savol va masalalarni yechish. Shuning uchun maktabda o‘qitishning innovatsion usullari bolalarda kognitiv qiziqishni rivojlantirishga yordam beradi, o‘rganilayotgan materialni tizimlashtirish va umumlashtirishga, muhokama qilish va bahslashishga o‘rgatadi. O‘zlashtirilgan bilimlarni idrok etish va qayta ishlash orqali o‘quvchilar ularni amaliyotda

qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar, muloqot tajribasiga ega bo‘ladilar. Shubhasiz, innovatsion o‘qitish usullari an’anaviy usullardan afzalliklarga ega, chunki ular bolaning rivojlanishiga hissa qo‘shadi, uni bilish va qaror qabul qilishda mustaqillikka o‘rgatadi.

Innovatsion o‘qitish usullari nima digan savolga javob bersak? Innovatsion o‘qitish usullari dars jarayonida eng ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash yoki ta’limning eng so‘nggi tendensiyalaridan doimo xabardor bo‘lish emas, bular ta’lim-tarbiya usullaridir!Ularning barchasi o‘quvchilarga ko‘proq e’tibor qaratuvchi yangi o‘qitish strategiyalaridan foydalanish haqida. Ushbu innovatsionlar talabalarni faol ishtirok etishga va dars davomida sinfdoshlari va siz - o‘qituvchi bilan muloqot qilishga undaydi. Talabalar ko‘proq ishlashlari kerak, lekin ularning ehtiyojlarini yaxshiroq qondiradigan va tezroq o‘sishiga yordam beradigan tarzda.An’anaviy o‘qitishdan farqli o‘laroq, asosan siz talabalarga qanchalik bilim berishingiz mumkinligiga e’tibor qaratadi, o‘qitishning innovatsion usullari ma’ruzalar davomida talabalar siz o‘rgatayotgan narsadan nimani olib tashlaganini chuqur o‘rganadi.Quyidagi usullar talabalarni darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va foydali bo‘ladi. Bulardan birinchisi - tadqiqotni rag‘batlantirish - Ta’limga innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarni kashf qilish va kashf qilishga undaydi va ularning tafakkurini kengaytiradi.

Innovatsion ta’lim metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Innovatsion ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma’ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko‘pligi, o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri innovatsion ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o‘qituvchilari dars mashg‘ulotlari jarayonida innovatsion usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Innovatsion metodlarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

XIX asrga kelib nafaqat O‘zbekistonda balki butun dunyoda texnalogiyalar va innovatsiyalar rivojlangani sabab ta’lim yo‘nalishiga kata e’tibor berilmoqda. O’zbekistonda ham so’nggi yillarda boshqa sohalarga qaraganda birinchilardan bo’lib ta’lim tizimiga innovatsiya kirib keldi va uni ta’lim jarayonida qanday o’z aksini topganligini quyidagilarda kuzatishimiz mumkin. Ta’lim tizimida innovatsiyaning kirib kelishini pedagogika fanlari misolida ham ko‘rish mumkin. Ular: a)gendr pedagogikasi; b)evristik pedagogika; v)majburiy pedagogika; g)androgogik pedagogika kabi fanlarning kirib kelishi bilan belgilandi. O’qitish tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini o’qitish metodlarida, dars shakli, o’qitish turlari, o’qitish vositalarida aks etsa, ta’lim mazmuniga esa innovatsiya an’anaviy, noan’anaviy va masofaviy o’qitish turlarining kirib kelishi bilan izohlanadi.Ta’lim jarayonida inson innovatsion texnalogiyalar orqali ko‘proq ma’lumotlar olishi va ularni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Speech by the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev to the newly elected members of the Senate. January 20, 2020.

2.Mahmudov M. Ta’lim natijasini loyihalash.«Pejagogik mahorat», 2021-yil, 1-son

3.Инновации: теория, механизм, государственное регулирование: Учебн. пособие /Под ред. Ю.В. Яковца. – М.: РАГС, 2000. 4. Кулагин А. Оценка и самооценка научной организации. Инновационная экономика. 2011 г. Ст. 54-55

5.Kuzmina. N.T Ilg‘or pedagogik texnalogiyalar. T. 2019 y. 6.Turg‘unov S.T. Ta’Iim muassasalarini boshqarishda innovatsion faoliyat. Uzluksiz ta’lim. - T., 2021. - № 4. - Б.4

MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA TA’LIM-TARBIYA JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Xayitgul Muzaffarova
JDPU Maxsus pedagogika p.f.f.d. (PhD)
xayitgulmuzaffarova@gmail.com
Lapasova Ra’no Anvar qizi
JDPU Maxsus pedagogika (logopediya) mutaxasisligi II-bosqich magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini kompyuter texnologiyalari orqali korreksiyalash va ularni va o‘z tengdoshlari qatoriga qo‘shish haqida keng tushunchalar berib o‘tilgan. Bundan tashqari ularning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holatda kompyuter texnologiyalarini qo‘llashning pedagogik asoslari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *kompyuter texnologiyalari, multimediali texnologiyalar, nutq, korreksiya, ta’lim, tarbiya, atrof, muhit, tassavur.*

Annotation

This article provides a broad understanding of correcting preschool children’s speech through computer technologies and including them among their peers. In addition, the pedagogical foundations of the use of computer technologies are explained in the case of their psychological characteristics.

Keywords: *computer technologies, multimedia technologies, speech, correction, education, environment, imagination.*

Maktabgacha tarbiya pedagogikasi pedagogika fanining muhim sohasi bo‘lib, tarbiyaning yosh bilan bog‘liq bo’lgan jihatlarini ochib beradi. Shu bilan birga, maktabgacha tarbiya pedagogikasi maxsus va yosh pedagogikasi bilan umumiy ilmiy-nazariy asoslarga ega. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi ma’lum bir darajada MTTlarning ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishga qaratilgan bo‘lib, olimlar, pedagoglar, tadqiqotchilarning ishlari natijasida shakllandi.

Xozirgi kunda maktabgacha tarbiya pedagogikasining rivojlanishida P.Yusupova F.R.Qodirovalarning ham hissasi katta. Maktabgacha ta’lim didaktikasi umumiy didaktikaning bir sohasi bo‘lib, maktabgacha yoshdagi bolalar ta’limi va o‘qitish nazariyasi hisoblanadi va uning maqsadini belgilaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni maktabga tayyorlashni ta’minlovchi ta’limning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ishlab chiqadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim va tarbiya berish bilish nazariyasiga asoslanadi, jumladan, uning jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga degan qonunini MTTlarining kompyuterli ta’lim jarayoniga ham qo‘llash mumkin. Jonli mushohada MTT tarbiyalanuvchilariga namoyish qilinadigan vositalarga didaktik materiallar, harflar, rasmlar, chizmalar kabilarni kiritish mumkin. Ulardan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish bolalarga turlicha psixologik ta’sir ko’rsatadi. Masalan, qog‘ozda yozilgan yoki kartondan kesib tayyorlangan -A harfi tarbiyalanuvchilarga ko‘rsatilsa (statik xolat), ularga ma’lum bir psixologik ta’sir etadi, monitor ekranida animatsiyadan foydalanilgan, multimedia texnologiyasi asosida -A harfi ko‘rsatilsa (dinamik xolat), tarbiyalanuvchilarga boshqacha psixologik ta’sir etadi. Shuningdek, bolalarga qog‘ozda chizilgan archa rasmi ko‘rsatilsa (statik xolat), ularga oddiy psixologik ta’sir etadi, agar monitor ekranida animatsiya bilan berilgan (harakatlangan va jilolanib turgan) multimediali rasm ko‘rsatilsa, ularga boshqacha psixologik ta’sir (samara) etadi. Tarbiyalanuvchi monitor ekranida ko’rgan (kuzatgan) obyektlari to‘g‘risida ma’lum bir fikr yurita boshlaydi. Yosh bolalarning elementar matematik tushunchalar bo’yicha fikrlashini shakllantirish masalalari ko‘pgina metodik adabiyotlarda, qo’llanmalarda taxlil etilgan.

MTTlarida yuqoridagi fikrdan kelib chiqib, bilish asoslaridan biri bo’lgan jonli kuzatish yosh bolalarning fikrlashini rivojlantirishga olib keladi. Masalan, multimediali slaydlarda predmetlar turli

(biri oq, biri qizil, biri yashil) ranglarda beriladi. Yosh bolalar monitor ekranida ularni ko'rishi bilanoq ranglar to'g'risida fikr yurita boshlaydilar. Jonli kuzatish, abstrakt tafakkurdan keyingi bosqich amaliyotga tatbiq etishdan iborat. Kompyuterli ta'limni amaliyotga tatbiq etish, MTT tarbiyalanuvchilari tomonidan o'rganiladigan materiallarni kompyuterda bajartirilishi hamda texnika va ishlab chiqarishda tatbiqi asosida amalga oshiriladi. Multimediali kompyuter texnologiyasi MTTlari ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilayotganligiga ko'p vaqt bo'lmaganligi sababli hozirgi kunda uning pedagogik-psixologik jixatlari, tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlarini taxlil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik jixatlari. Pedagogika nuqtai nazaridan, multimedia texnologiyasining MTTlari ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiqi, ularga kompyuter asosida yangicha texnologik yondashuv hisoblanadi. Shuning uchun, multimediali kompyuter texnologiyasining o'ziga xos belgilari, xususiyatlari va tamoyillari mavjud: asosiy belgilari, texnik vositalardan foydalanish, tarbiyalanuvchilarning bilimini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish, ta'lim samaradorligini oshirish, monitor ekraniga qarab va undagi materiallardan foydalanib bilim olishdan iborat. Multimediali kompyuter texnologiyasidan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish bir vaqtning o'zida bolalarning kompyuter savodxonligini shakllanishiga ham olib keladi. Masalan, an'anaviy ta'lim texnologiyasida kompyuter faqat texnik vosita sifatida qaraladi, multimediali kompyuter texnologiyasida esa u ko'rgazmali vositadan tashqari ta'lim manbai sifatida mujassamlashadi, ya'ni o'rganiladigan material oldindan kompyuter xotirasiga kiritilgan bo'ladi. Ushbu material tarbiyachining an'anaviy metod bilan mashg'ulot o'tkazish bo'yicha tuzgan ishlanmasiga o'xshaydi. MTT tarbiyalanuvchilari monitor ekranida namoyish etiladigan materiallarni o'rgana borsalar va kompyuterdan foydalanish bo'yicha yetarlicha ko'nikma hosil qilsalar, maktabda boshlag'ich sinfda informatika fanini o'rganishga, kelajakda esa litsey yoki oliy o'quv yurtida kompyuterdan foydalana olish malakasiga to'liq ega bo'ladilar. Shu bilan birga, tarbiyalanuvchilarning kompyuterdan foydalanish jarayonida mantiqiy tafakkurlari rivojlanadi, bilim olishga xavaslari va ishtiyoqlari ortadi, dunyoqarashlari shakllanadi.

Psixologik jixatlari. Bolalarning yoshini va fikrlash darajasini, ta'lim materialini xotirasida saqlash imkoniyatini hisobga olish, kompyuter bilan ishlaganda ko'z toliqishining oldini olish, bolalarning xotirasini rivojlantirish, diqqatini barqarorlashtirish, ta'lim materiallariga qiziqishini orttirish, xis-xayajonli xissiyot uyg'otish, kompyuterda ishlash qobiliyatini o'stirish kabilar ham multimedia texnologiyasini ta'limda qo'llanishning psixologik jixatlarini tashkil etadi. Monitor ekranida tasvirni ko'rganda hamda tovushni eshitayotganda bola miyasining ikkala yarim shari bir vaqtda ishlaydi va obyekt obrazi bir vaqtda qabul qilib olinadi. Animatsiyali ma'lumotlarning insonga ta'siri katta bo'lib, undan MTTlari ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish bolalar diqqatini ko'proq jalb qilish xususiyatiga ega. Multimediali ta'lim bir vaqtning o'zida ham ko'rish, ham eshitish orqali bilim olish uchun samarali ekanligi hayotiy tajribada allaqachon isbotlangan. Zero, xalqimizda yuz marta eshitgandan, bir marta ko'rgan yaxshi degan maqol bor. Psixologiyada ham bir vaqtning o'zida bolaning ham ko'rish, ham eshitish organlaridan foydalanish orqali bilim berish, ular tomonidan materiallarni o'zlashtirishning yuqori bo'lishi uchun kafolatli ekanligi ta'kidlanadi. Bu borada akademik S.S.G 'ulomov va boshqalar quyidagilarni ta'kidlaydi:

-Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotning xotirada saqlab qolinishi 25-30 % ga oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75 % ga ortadi. Psixologlarning ta'kidlashicha, bolalar asbob-uskunalarga, texnik qurilma va transport vositalarining modellariga, o'yinchoqlarga juda qiziquvchan bo'ladi. Shu bilan birgalikda, o'rganilayotgan o'quv materialiga bo'lgan qiziqishlarini ham orttiradi. Bolalarning bilim olishlariga ishtiyoqlari kuchayadi, fikrlash doiralari oshadi. Asosiy tamoyili, kafolatlangan yakuniy natija, ta'limning mahsuldorligi, to'g'ri va teskari aloqaning mavjudligi, ta'lim maqsadining aniq shakllanishidan iborat. Shuningdek, pedagogik tajriba natijalari multimedia vositalaridan MTTlari ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning didaktik tamoyillari qatoriga: dasturlashtirish, ilmiylik,

moslik, jadallik, ta’lim maqsadlarining o‘zaro bogliqligi, ko‘rgazmalilik, tizimlilik, materialning tushunarli bo‘lishi, faollik va mustaqillik, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi omillari, vosita (kompyuter)ning ixchamligi va umumiyligi (barcha turdagi didaktik vositalarning o‘rnini bosa olishi) kiradi. Bundan tashqari, multimediali kompyuter texnologiyasida izchillik, ketma-ketlik va yoshiga moslik tamoyillari ham amalga oshadi. Ta’lim materialining tushunarli bo‘lish tamoyili kompyuter xotirasiga kiritilgan va o‘rganishga taalluqli materiallarni monitor ekraniga chiqarish va namoyish etish asosida amalga oshiriladi.

Tarbiyachi bolaga ta’lim berish jarayonida o‘quv materialining tushunarli bo‘lish tamoyiliga alohida e’tibor berishi kerak. Tanlangan o‘quv materiali murakkab bo‘lmasligi, tarbiyalanuvchilarga tushunarli bo‘lishi lozim. Tarbiyalanuvchilarning faolligini oshirishda, o‘rganiladigan o‘quv materiallarining hajmini ko‘paytirishda, ta’lim jarayonini oldindan loyihalashda, natijani kafolatlashda, ta’lim shaklini qulaylashtirishda, shuningdek, ta’lim mazmunida, tuzilishida, metodlari va shakllarida namoyon bo‘ladi. Tarbiyalanuvchilar olgan bilimlarni xotiralarida uzoq vaqt saqlash imkoniyati yaratiladi. Bolalarning o‘rganiladigan materialga va kompyuterga qiziqishini orttiradigan o‘ziga xos metod multimediali kompyuter texnologiyasidan foydalanishdir. Multimedia vositalari tarbiyalanuvchining psixikasini rivojlantirish va fikrlash qobiliyatini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Prezidentimizning “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori maktabgacha ta’lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, yosh avlodning barkamol va yetuk shaxs bo‘lib ulg‘ayishida muhim ahamiyat kasb etadi. XXI asr kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asridir. Bu asrda har bir o‘qituvchi axborot texnologiya savodxonligiga ega bo‘lishi, davr texnikasi va uning ishlash texnologiyasidan xabardor bo‘lishi, o‘qitish jarayoniga texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llay olishi talab etiladi. Bu esa o‘z navbatida dars samaradorligini oshirishga, o‘qish-o‘qitish sifatini ta’minlashga xizmat qiluvchi didaktik hodisa hisoblanadi. Bundan tashqari kompyuter yordamida olingan ma’lumotlar mashg‘ulot mazmunini boyitish bilan birga o‘qituvchining ilmiy-nazariy saviyasini oshirishga, savodxonligini ko‘tarishga yordam beradi, fanlararo integratsiya yo‘lga qo‘yiladi, o‘quv topshiriqlarining amaliy yo‘nalishi kuchaytiriladi, o‘qituvchining pedagogik mahorati takomillashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

2. Muzaffarova, X. (2020). Ўқитиш жараёнида педагогик технологиялардан фойдаланиш масалалари: Ўқитиш жараёнида педагогик технологиялардан фойдаланиш масалалари. Архив Научных Публикаций JSPI.

3. Muzaffarova, X. (2021). TA’LIM–TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISHDA O‘QITUVCHINING MAHORATI. Scienceweb academic papers collection.

4. Muzaffarova, X. (2021). MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARGA TA’LIM-TARBIYA BERISHDA KORREKSION METODLARINING MOHIYATI. Scienceweb academic papers collection.

5. Muzaffarova, X. (2021). Мактабгача ёшдаги болалар билан олиб бориладиган логопедик машғулотларни ўйинлар асосида ташкиллаштириш. Scienceweb academic papers collection.

NODAVLAT TA’LIM MUASSASALARIDA O‘QUV JARAYONINI TASHKIL QILISH (XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA)

Tursunov Diyor Sunnatovich
Pedagogika fanlari falsafa doktori, dotsent, Jizzax DPU
Yoqubjonova Muxlisa
Ta’lim muassasalarining boshqaruvi magistranti, Jizzax DPU

Annotatsiya:
Nodavlat ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil qilishning xorij tajribasi keltirilgan. Bundan tashqari nodavlat ta’lim muassasasining mohiyati ham maqolada o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: *Nodavlat ta’lim muassasasi, xorijiy davlat va xususiy fondler, ta’lim dasturlari.*

Nodavlat ta’limning paydo bo‘lishi va jadal rivojlanishi nafaqat Rossiyada ta’lim sohasini rivojlantirish uchun uning salohiyati va ahamiyatini, balki jiddiy qarama-qarshiliklarni ham ochib berdi. Albatta, zamonaviy ta’lim tizimida mavjud iqtisodiy munosabatlarni aks ettiruvchi nodavlat ta’lim muassasalaridagi hisob va nazorat tizimi ham qator qarama-qarshiliklarni o‘z ichiga oladi.

Amaldagi me’yoriy-huquqiy bazaning noaniq talqini, xususiy ta’lim sektorida buxgalteriya hisobi va nazoratining ayrim jihatlari har tomonlama nazariy jihatdan o‘rganilmaganligi va yetarli darajada ilmiy-uslubiy ta’minlanmagani, shuningdek, o‘rganilayotgan tizimning doimiy o‘zgartirilishi – shular va boshqa omillardir. nodavlat ta’lim muassasalarining buxgalteriya hisobi tizimida jiddiy muammolar mavjudligiga olib keldi.

Avvalo, "nodavlat ta’lim muassasalari" tushunchasini o‘rganish kerak. ta’lim tashkiloti tashkiliy-huquqiy shaklidan, turi va turidan qat’i nazar, ta’lim jarayonini amalga oshiradigan, ya’ni bir yoki bir nechta ta’lim dasturlarini amalga oshiradigan ta’lim muassasasidir.

Ta’lim muassasasining maqomi davlat yoki nodavlat bo‘lishi mumkin va uning ta’sischisi kimligiga bog‘liq.Agar ta’sischilar davlat hokimiyati yoki mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lsa, u holda ta’lim muassasasi davlat mulki hisoblanadi.

Nodavlat ta’lim muassasasining ta’sischisi keng doiradagi yuridik va/yoki jismoniy shaxslar bo‘lishi mumkin:

1) barcha mulk shaklidagi mahalliy va xorijiy tashkilotlar, ularning birlashmalari (assotsiatsiyalari va birlashmalari);

2) mahalliy va xorijiy davlat va xususiy fondlar;

3) Rossiya Federatsiyasi hududida ro‘yxatdan o‘tgan jamoat va diniy tashkilotlar (birlashmalar);

4) Rossiya Federatsiyasi fuqarolari va chet el fuqarolari.

Nodavlat ta’lim muassasalarini birgalikda tashkil etishga ruxsat etiladi. Shunday qilib, nodavlat ta’lim muassasasi "Ta’lim to‘g‘risida" [1]gi Federal qonunga muvofiq litsenziya asosida faoliyat yurituvchi, ta’sischilari davlat organlari yoki mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lmagan ta’lim tashkiloti hisoblanadi.

Bu ta’rifdan kelib chiqib, bir qarashda davlat va nodavlat ta’lim muassasalari bir-biridan faqat ta’sischilar tarkibiga ko‘ra farq qiladigandek tuyulishi mumkin. Ta’lim tizimini byudjetdan moliyalashtirish yetarli bo‘lmagan zamonaviy sharoitda davlat va nodavlat ta’lim muassasalari deyarli bir xil faoliyat turini amalga oshiradilar - ular o‘quv jarayonini pullik asosda amalga oshiradilar. Bundan tashqari, ko‘plab nodavlat ta’lim muassasalari davlat akkreditatsiyasidan o‘tadi.

Shu bilan birga, davlat va nodavlat ta’lim muassasalarining moliyalashtirish manbalari va faoliyat turlari bo‘yicha o‘xshashliklar mavjud bo‘lsada, ularning hisob-kitob tizimlari tubdan farq qiladi.

Tabiiy savol tug‘iladi: nima uchun bir xil xo‘jalik operatsiyalarini aks ettirish uchun turli xil buxgalteriya tizimlarini ishlab chiqish kerak?

Bu savolga javob, bizningcha, nihoyatda muhim, chunki, bizningcha, bu nodavlat ta’lim muassasalarining hisob tizimini takomillashtirish vazifasining dolzarbligiga bevosita ta’sir qiladi.

Davlat ta’lim muassasalari (DTM) to‘liq yoki qisman davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi, shuning uchun ularning buxgalteriya tizimi "byudjet" bo‘lib, moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarning holati to‘g‘risida pul ko‘rinishidagi ma’lumotlarni to‘plash, ro‘yxatga olish va umumlashtirish tizimidir. va Rossiya Federatsiyasi, Rossiya Federatsiyasining ta’sis sub’ektlari va munitsipalitetlarning majburiyatlari va yuqorida ko‘rsatilgan aktivlar va majburiyatlarning o‘zgarishiga olib keladigan operatsiyalar hisoblanadi. Davlat ta’lim muassasasida byudjet hisobi Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligining 2006 yil 10 fevraldagi 25n-sonli "Byudjet hisobi bo‘yicha ko‘rsatmalarni tasdiqlash to‘g‘risida" gi buyrug‘i bilan tasdiqlangan byudjet hisobi bo‘yicha hisoblar rejasidan foydalangan holda amalga oshiriladi.[1]

Rossiyada ta’lim muassasalarining uchta asosiy turi mavjud: **davlat, munitsipal va nodavlat** [3].

Nodavlat ta’lim muassasalari – ta’lim muassasalari, shuningdek, maqsad va vazifalari o‘xshash bo‘lgan, turli tashkilotlar huzurida faoliyat yurituvchi, ularning muassislari tomonidan boshqariladigan va, qoida tariqasida, ularning byudjetidan moliyalashtiriladigan markazlar.[3]

Ular mansubligi va bajarilgan vazifalariga ko‘ra uch toifaga bo‘linadi:

1. Korxonalar yoki bir guruh korxonalar malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondiradi;

2. Nodavlat tashkilotlar, ya’ni diniy birlashmalar, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar bilan;

3. Mahalliy boshqaruv ostida ular kichik hudud aholisining turli madaniy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi.

Davlat maktablariga ko‘pchilik bolalar o‘qiydigan oddiy maktablar kiradi. U yerda ta’lim bepul.

Munitsipallar davlatdan faqat moliyaviy mustaqillik darajasida farq qiladi.

Nodavlat maktablarga xususiy maktablar, shuningdek, diniy yoki tijorat tashkilotlari tomonidan yaratilgan ta’lim muassasalari kiradi. Ularda ta’lim pullik yoki bepul bo‘lishi mumkin.

Nodavlat ta’lim muassasalarining xarakterli farqlari:[4]

• ular Rossiya Federatsiyasining ta’sis sub’ektlari tomonidan emas, balki munitsipalitetlar tomonidan emas, balki Rossiya Federatsiyasi qonunlariga muvofiq xususiy yoki yuridik shaxslar tomonidan yaratilgan;

• ta’lim va tarbiya faoliyatini amalga oshiradi.

Nodavlat ta’lim muassasalarining turlari

Mamlakatimizda quyidagi nodavlat ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatmoqda:

• maktabgacha (xususiy bolalar bog‘chalari);
• umumiy ta’lim (maktab);
• kasb-hunar ta’limi muassasalari;
• kattalar uchun qo‘shimcha ta’lim muassasalari;
• bolalar uchun qo‘shimcha ta’lim muassasalari (kurslar);
• nogiron bolalar va ehtiyoji yuqori bo‘lgan shaxslarni o‘qitish uchun maxsus muassasalar;
• ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, etim bolalar uchun muassasalar;
• boshqa ta’lim muassasalari.

Barcha nodavlat muassasalar davlat ro‘yxatidan o‘tadilar va litsenziya olishlari shart. Faqat xususiy repetitorlarga bir martalik ma’ruzalar, amaliyotlar va hokazolarni o‘tkazish uchun litsenziya kerak emas.

Foydalanadigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Гражданский кодекс Российской Федерации (часть вторая) от 26 января 1996 г. №14-ФЗ (ред. 24 июля 2007 г.)

2. Авдеева Л.Б. Управленческие аспекты бухгалтерского учета в высшей школе: Дисс. ... канд. экон. наук : 08.00.12. — СПб., 2002. — 182 с.

3. Гамольский П.Ю. Учет в негосударственных некоммерческих организациях. Проблемы организации и методологии // Выпуск АКДИ. Бухгалтерское приложение. — 2000. — № 24. — С. 5-12.

4. Емельянова И.В. Целевые средства как не облагаемый налогом доход некоммерческих организаций // Актуальные вопросы бухгалтерского учета и налогообложения. — 2006. — № 2.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA AMALIYOTGA ASOSLANGAN TA’LIM TAJRIBALARINI O‘RGANISH VA ULARNI O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIGA TATBIQ ETISH

Suyunova Laylo Abdumo‘min qizi
Maktab menejmenti yo‘nalishi 4-bosqich talabasi Jizzax DPU
Ilmiy rahbar: Nazarov Toshpo‘lat Boshbek o‘g‘li
Maktab menejmenti kafedrasi o‘qituvchisi, Jizzax DPU

Annotatsiya:

Amaliyotga asoslangan ta’lim, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan birlashtirish orqali talabalarni real hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyorlashga qaratilgan ta’lim usulidir. Tadqiqotda xalqaro tajribalar, xususan, AQSh, Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi AAT dasturlari tahlil qilinadi. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida amaliyotga asoslangan ta’limning hozirgi holati, muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari o‘rganiladi. Shuningdek, amaliyotga asoslangan ta’limni tatbiq etish uchun strategiyalar, hamkorlik o‘rnatish, tajribali o‘qituvchilarni jalb etish va baholash usullari taklif etiladi.

Аннотация:

Практико-ориентированное обучение — это образовательный метод, целью которого является подготовка учащихся к решению реальных задач путем сочетания теоретических знаний с практической деятельностью. В исследовании анализируется международный опыт, в частности программы AAT в США, Европе и Азии. Изучено современное состояние практико-обучения в высших учебных заведениях Узбекистана, проблемы и пути их преодоления. Также предлагаются стратегии внедрения практического обучения, построения партнерских отношений, привлечения опытных учителей и методы оценки.

Abstract:

Practice-based learning is an educational method that aims to prepare students to solve real-life problems by combining theoretical knowledge with practical activities. The study analyzes international experiences, particularly AAT programs in the USA, Europe and Asia. The current state of practice-based education in Uzbekistan’s higher education institutions, problems and ways to overcome them are studied. Strategies for implementing practice-based learning, building partnerships, engaging experienced teachers, and evaluating methods are also suggested.

Kalit so‘zlar: *Amaliyotga asoslangan ta’lim (AAT), O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi, Zamonaviy iqtisodiy sharoitlar, Ijtimoiy sharoitlar, Global mehnat bozori, Amaliy ko‘nikmalar, Xalqaro tajribalar, Talabalarni tayyorlash, Ishga joylashish imkoniyatlari, Ijodiy fikrlash qobiliyati, Ta’lim muassasalari hamkorligi, Tajribalarni kengaytirish, Jamiyatga ta’sir, Iqtisodiy rivojlanish, Amaliy tavsiyalar.*

Ключевые слова: *Практико-ориентированное образование (AAT), Система высшего образования Узбекистана, Современные экономические условия, Социальные условия, Глобальный рынок труда, Практические навыки, Международный опыт, Обучение студентов, Возможности трудоустройства, Навыки творческого мышления, Сотрудничество образовательных учреждений, Расширение опыта, Влияние об обществе, Экономическое развитие, Практические рекомендации.*

Key words: *Practice-based education (AAT), Uzbekistan’s higher education system, Modern economic conditions, Social conditions, Global labor market, Practical skills, International*

experiences, Student training, Employment opportunities, Creative thinking skills, Education lim institutions cooperation, Expansion of experiences, Impact on society, Economic development, Practical recommendations.

KIRISH. Oliy ta’lim muassasalari zamonaviy jamiyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ularning asosiy vazifasi talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan ta’minlash, balki ularni amaliy ko‘nikmalar bilan ham qurollantirishdir. Bugungi kunda global iqtisodiyot va texnologik taraqqiyot talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash zarurati ortib bormoqda. Shu sababli, amaliyotga asoslangan ta’lim (AAT) usullari oliy ta’lim tizimida muhim o‘rin egallaydi. AAT, talabalarni real hayotdagi vaziyatlarga tayyorlash, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va amaliy ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi.

Ushbu tadqiqotda, amaliyotga asoslangan ta’lim tajribalarini o‘rganish va ularni O‘zbekiston ta’lim tizimiga tatbiq etish masalalari ko‘rib chiqiladi. Xalqaro tajribalar, amaliyotga asoslangan ta’limning samaradorligini oshirishda qanday rol o‘ynashi, shuningdek, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari, O‘zbekiston ta’lim tizimini rivojlantirishda amaliyotga asoslangan ta’limning ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi va talabalarni ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu jarayon, nafaqat talabalar, balki butun jamiyat uchun ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kutilmoqda.

Mustaqil O‘zbekislonning kelajagi bo‘lgan avlodni tarbiyalash nozik, nihoyatda kaila diqqat-e’tibomi talab qiladigan, ichki ziddiyatli jarayondir. Shunday ekan, o‘qituvchi o‘quvchi yoki talabaning shakllanish jarayonini zo‘r havas va sinchkovlik bilan kuzatishi lozim. U pedagogik jarayonni boshqarar ekan, pedagogik bilim va mahorat egasi bo‘lishi lozim. Shundagina o‘qituvchi pedagogik hodisalarning mohiyatini va dialektikasini, pedagogik mehnat metodi, kasb va texnologiyasini va professional pedagogikani tushunib yetadi. Pedagogik bilim va mahorat egasi bo‘lgan o‘qituvchi, awalo, pedagogika fanining metodologik asoslarini, shaxs rivojlanishining qonuniyatlari va omillarini, kadrlar tayyorlash milliy dasturining mohiyati, maqsad va vazifalarini bilishi kerak. Ta’lim tizimida mehnat qilayotgan pedagoglaming ko‘pchiligi ta’lim va tarbiya jarayonida pedagogik mahoratning zaruriyati va ahamiyatini tobora chuqur anglab bormoqdalar.

Yaratilayotgan sharoitlardan kelib chiqib, 2020-yil 23- sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi va 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya” to‘g‘risidagi O‘‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonnning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 26-sentabrdagi “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash chora tadbirlari” to‘g‘risidagi qaroriga muofiq, ta’lim bosqichining uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, ta’lim jarayoniga zamonaviy raqamli texnologiyalar joriy etish bilan ta’lim sifatini oshirish, davlat ta’lim standartlarini kompetentsiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quv metodik majmualarini elektron shaklini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqazo qiladi.

Ma’lumki, pedagogikada boshqa ilm sohalaridan olingan ko‘plab atamalardan foydalanadi, bu narsa pedagogikani boshqa fanlar bilan chuqur aloqada ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bunday atamalar texnika va iqtisodiyotdan eng ko‘p miqdorda kirib keladi, chunki ayni shu sohalar ijtimoiy fikrning rivojlanishiga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatadi. Chunonclii, bugun o‘qitish jarayonining tejamliligi va maqsadga muvofiqligi hamda oqilona tashkil etilishi ko‘p jihatdan o‘qituvchi, texnika va texnologiya, ta’lim iqtisodiyoti, o‘qitishni kompyuterlashtirish va shunga o‘xshashlar bilan bevosita bog‘lanib qolgan

XULOSA: Ushbu tadqiqotda amaliyotga asoslangan ta’lim (AAT) usullarining O‘zbekiston oliy ta’lim tizimidagi ahamiyati va samaradorligi tahlil qilindi. O‘zbekistonning zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari, shuningdek, global mehnat bozoridagi o‘zgarishlar, talabalarni amaliy ko‘nikmalar bilan qurollantirish zaruratini taqozo etadi. Tadqiqot davomida xalqaro tajribalar va amaliyotga asoslangan ta’limning afzalliklari ko‘rsatildi, bu esa talabalarni real hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, amaliyotga asoslangan ta’lim usullarini O‘zbekiston ta’lim tizimiga tatbiq etish, talabalar uchun ishga joylashish imkoniyatlarini oshirish, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashda samarali bo‘ladi. Biroq, bu jarayonni amalga oshirishda mavjud muammolarni hal etish, ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorligini kuchaytirish va amaliyot bilan bog‘liq tajribalarni kengaytirish zarur.

Shu bilan birga, amaliyotga asoslangan ta’limni rivojlantirish, nafaqat talabalar, balki butun jamiyat uchun ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kutilmoqda. Kelajakda, O‘zbekiston ta’lim tizimida amaliyotga asoslangan ta’limning o‘rni yanada mustahkamlanishi va bu orqali mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin. Tadqiqot natijalari, ta’lim sohasidagi mutaxassislar va siyosatchilar uchun amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ahn, S. (2021). O‘zbekiston tarixida ijtimoiy o‘zgarishlar. Tashkent: Fan va Texnika.
2. Karimov, I. (1998). Yuksalish yo‘lida. Tashkent: O‘zbekiston.
3. Rasulov, S. (2020). Milliy tarix: muammolar va istiqbollar. Tashkent: Sharq.
4. Ahmadov, A. (2019). O‘zbekiston iqtisodiyoti: rivojlanish tahlili. Tashkent: Iqtisod, 3.
5. Jalilov, S. (2022). O‘zbek adabiyoti tarixi. Tashkent: O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi.
6. Murodov, A. (2023). O‘zbek tilidagi darsliklar va ularning ta’siri. Tashkent: Zamonaviy ta’lim.

TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO ALOQALAR

Bo‘riboyeva Aziza Sindor qizi
Eshmonova Sevinch Ikrom qizi
Maktab menejmenti yo‘nalishi 3-bosqich talabalari, Jizzax DPU
Ilmiy rahbar: Qosimov Azimjon
Maktab menejmenti kafedrasi o‘qituvchisi, Jizzax

Annotatsiya:
Ushbu maqolada shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda oliy ta’lim muassasalarining xalqaro reytingning yuqori o‘rinlarini egallashda innovatsion faolligini oshirish muhim ahamiyat kasb etishi bu borada esa ta’lim sifati bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan xalqaro muassasa va ta’lim tashkilotlari faoliyati bilan yaqindan tanishish hamda birgalikda faoliyat olib borish tamoyillari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *reyting, innovatsion transfer, ta’lim, xalqaro hamkorlik, ta’lim jarayoni.*

Abstract:
In this article, in a period of rapid development, it is important to increase the innovative activity of higher education institutions in occupying the top places of the international rating, and in this regard, international institutions and educational organizations that have achieved high indicators in terms of the quality of education. getting to know the activities and the principles of joint activities are covered.

Key words: *rating, innovative transfer, education, international cooperation, educational process.*

Bugungi kunga kelib ta’limni rivojlantirish va bu orqali iqtisodiyotni yuksaltirish va xalqaro maydonda raqobat bardoshligini ta’minlash muhim vazifa bo‘lib kelmoqda. Bunging uchun ushbu bosqichdan o‘tgan hamda o‘z ta’lim tizimiga ega hamda xalqaro maydonda yetakchi o‘ringa ega bo‘lgan ta’lim tashkilotlari, davlatlar faoliyatini o‘rganish ular bilan hamkorlikda faoliyat olib borish va tajriba almashish hamda zamonaviy milliy ta’lim tizimini ishlab chiqish eng samarali yo‘li hisoblanadi.

Xalqaro ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, davlatning huquqiy hamda siyosiy tuzilmalarini isloh qilish, yuqori ta’lim berish ko‘rsatkichlariga ega tashkilot va muassasalar

bilan shartnoma tuzish ularni faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun qulay infratuzilmani shakillantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Keying navbatda esa ta’limning globallashuvi milliy va madaniy chegaralar bo‘ylab bilim, g‘oyalar va ta’lim amaliyotlarini almashishni o‘z ichiga oladi. Bu hodisa texnologiya, aloqa va xalqaro hamkorlik sohasidagi yutuqlar orqali dunyoning o‘zaro bog‘liqligi kuchayib borayotgani bilan izohlanadi. Natijada, ta’lim tizimlari xilma-xillikni, madaniyatlararo tushunishni va global istiqbollarni o‘zlarining o‘quv dasturlari va pedagogik yondashuvlariga integratsiyalashuvini o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5847-son Farmonida.[2019:PF5847-son]

Hozirgi kunda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Xitoy Xalq Respublikasining Ta’lim Vazirligi o‘rtasida 1999 yil 8 noyabrdan belgilangan “Ta’lim sohasida hamkorlik” to‘g‘risidagi shartnoma doirasida Xitoy oliy ta’lim muassasalarida O‘zbekistonning qator oliy ta’lim muassasalaridan 40 ta talaba, fan nomzodlari, va yosh mutaxassislar amaliyot o‘tamoqdalar. Xitoy oliy ta’lim muassasalarida amaliyot xitoy tili va adabiyoti shuningdek, turli texnik va tabiiy fanlar yo‘nalishi bo`yicha bilimlarni takomillashtirish maqsadida olib boriladi. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, XXR, Malayziya, Hindiston, RF va boshqalar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muassasalararo shartnomalar asosida hamkorlik olib borishmoqda. Ushbu shartnomalar professor o`qituvchilar va talabalar almashinuvi, ularning turli konferensiya va simpoziumlarda ishtirok etishi, qo`shma ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilmiy maqolalar chop ettirish va hokazo vazifalarni ko‘rib chiqadi. [Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi “Ta’lim sohasida hamkorlik” to‘g‘risidagi shartnoma 08.11.1998.]

Shuningdek, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari Evropa Ittifoqining Tempus va Erazmus Mundus nomli ta’lim dasturlarida faol ishtirokini alohida ta’kidlash joiz. Ayni paytda respublikada Evropa Ittifoqining Tempus o`quv dasturining 20ta loyihasi tadbiq etilib, ularda O‘zbekistonning 40 ta atrofida oliy ta’lim muassasalari ishtirok etmoqda.

So‘nggi paytlarda Osiyo davlatlarining rivojlanishida ta’lim hamkorligi va ta’limga kiritilgan investitsiya katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Xususan mamlakatimizning Janubiy Koreya respuublikasi, Yaponiya, Xitoy va singapur kabi rivojlangan Osiyo davlatlari bilan ta’lim sohasidagi hamkorliklari natijasida yurtiizda ta’lim sohasida ilmiy tadqiqotlarning samarasi tobora yuksalib bormoqda. Xususan, 2014-yilda tashkil etilgan “INHA” universiteti, 2018-yil 15-oktabrda rasman faoliyatini boshlagan Toshkent shahridagi “Yodju” Texnika instituti, 2019-yil 23-avgust kuni Vazirlar Mahkamasining 714-sonliqaroriga asosan 2020-2021 o‘quv yilidan faoliyatini boshlagan Farg‘ona shahridagi “Koreya xalqaro universiteti”ni oliy ta’lim tizimidagi xalqaro hamkorlikning muhim natijalari sifatida e’tirof etish joiz. Shuningdek pandemiya davrida ta’lim tizimining izchil davom etishi uchun masofaviy (online) ta’lim shaklida olib borilishi ta’lim to‘g‘risidagi qonunga o‘zgartirish kiritishga sabab bo‘ldi. Ushbu davr mobaynida xalqaro hamkorlik doirasida o‘tkazilishi rejalashtirilgan ilmiy anjumanlar ham masofaviy tarzda olib borildi. Bu esa o‘z navbatida ta’limda masofaviy hamkorlikning huquqiy asoslarini joriy etishga sabab bo‘ldi. [Махмудов С. 2020: Т. 3. – №. 10]

Bundan tashqari, xalqaro pedagogik atama va tushunchalarning qabul qilinishi ta’lim nutqi va amaliyotini boyitish va diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi. Turli madaniy va lingvistik kelib chiqishi terminologiyasi va tushunchalarini o‘zlashtirgan holda, o‘qituvchilar o‘zlarining pedagogik yondashuvlarini yangi istiqbollar, innovatsion metodologiyalar va muqobil ta’lim paradigmalari bilan singdirishlari mumkin. Ta’lim nutqidagi bu xilma-xillik nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki butun dunyo bo‘ylab o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida ochiqlik, inklyuzivlik va o‘zaro ta’lim ruhini rivojlantiradi.

O‘zbek olimlari xalqaro pedagogik atama va tushunchalarning mahalliy ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi haqida tushunchalar berib, ushbu tadqiqotga katta hissa qo‘shdilar. Jumladan O.Sh. Uralov va boshqalar. “Internationalization of higher education in Uzbekistan” nomli tadqiqotida xalqaro maydonda muloqot va hamkorlikni kuchaytirish uchun jahon miqyosida tan olingan pedagogik terminologiyani kiritish muhimligini ta’kidlaydi. Mualliflarning ta’kidlashicha, bunday integratsiya jahon ta’lim standartlariga moslashishga yordam beradi va shu orqali globallashuv sharoitida O‘zbekiston ta’lim tizimining rivojlanishiga yordam beradi. [Uralov Ozodjon Sharipjonovich. 2020: 100015]

Yuqorida keltirilgan kelib chiqqan holda davlatlarning ta’lim sohasidagi hamkorlik faoliyati va uning huquqiy asoslari haqidagi fikrlarga to‘xtalib shunday xulosaga kelishimiz mumkin hozirgi kung kelib o‘tqazilayotgan islohotlar va ta’limni rivojalantirish masalalarining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi va ta’lim sifatini oshirishga doir strategiyalarni tuzilishi hamda xalqaro aloqalarni kengayishi milliy ta’lim sistemasini yeratish uchun poydevor hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF5847-son Farmoni https://lex.uz/ru/docs/-4545884.

2) Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi “Ta’lim sohasida hamkorlik” to‘g‘risidagi shartnoma 08.11.1998.

3) Махмудов С. ZAMONAVIY TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICHIDA KOREYA-O‘ZBEKISTON HAMKORLIGINING ISTIQBOLLARI //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2020. – Т. 3. – №. 10.

4) Uralov, Ozodjon Sharipjonovich. "Internationalization of higher education in Uzbekistan." Social Sciences & Humanities Open 2.1 (2020): 100015.

G‘ARBDA URBANIZATSION TARAQQIYOT VA SHAHARSOZLIKDAGI UMUMINSONIY JIHATLAR

Akramov Kozimjon Ibragimjon o‘g‘li
Namangan muhandislik-qurilish instituti

Urbanizatsiya va shahar san’atining umuminsoniy va milliy belgilari mavjud bo‘lib, ularni tahlil qilish, o‘rganish muammoga zarur yechimlar topishda yordam beradi. Ijtimoiy hayot, insoniyat tarixi, ayniqsa madaniyat hech qaerda va hech qachon yakka o‘zi, tashqi va ichki aloqalar tizimisiz, tarixiy negizsiz shakllanmanagan, rivojlanmagan. Shuning uchun ularda umuminsoniylik va milliylik uyg‘un keladi. Tarixiy manbalar ko‘rsatadikai, urbanizatsiya va shaharsozlik genezisi, falsafa, ta’lim, maorif va madaniyat genezisi kabi, Sharq qit’asiga borib taqaladi. Mutaxassislarning fikricha, ilk shaharlar ibtidoiy jamaoa tuzumi davrida, sodda, uylarning bir biriga qo‘shilib ketgan, ko‘cha va maydonlarsiz, primitiv rejalashtirilgan tarzda er. avv. XII-XI ming yilliklarda paydo bo‘lgan. Ularda milliylikdan ko‘ra umuminsoniy xususiyatga ega belgilar ko‘proq edi. Shaharlar ibtidoiy jamoa tuzumining yemrilishi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning bir butun voqelik sifatida shakllanishi, insoniyatning yangi madaniy bosqichga, agromadanyatga o‘tishi natijasida shakllangan[5]. Ilk shaharlar Tigr va Yevfrat, Hind, Nil daryolari atrofida, Suriya va Eron tog‘ yonbag‘irliklarida yuzaga kelgan. Ur, Lagash, Kish, Upi, Asur, Bobil, Samal, Ashnunak shaharlari poytaxt vazifasini o‘tagan. Ikki daryo oralig‘idagi shumer akkad (er.avv. XX XI - XXII asrlar), qadimgi bobil (er. avv. XX1- XX asr), assuriya (er.avv. XIX-XX asrlar), yangibobil (er.avv. XI asr)

[5] История пространственных искусств. Курс лекций. Под ред. Н.Ю. Макейкиной, Е.В.Ешиной. URL: http: // www. lib.knigi x.ru/23tehnicheskie/40527 1 istoriya prostranstvennih iskusstv. Php.

sivilizatsiyalari yirik shaharlarning paydo bo‘lishi, aholining ushbu shaharlar atrofida joylashishiga zarur imkoniyatlar yaratgan[6].

Sharq urbanizatsiyasi, shaharsozligi va madaniyati haqida ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan, asarlar, illustrativ materiallar va qo‘lyozmalar chop etilgan. Ushbu tarixiy-madaniy merosning g‘arb sivilizatsiyasining, falsafasi va tafakkuriga, shaxarsozligi va shahar estetikasiga ta’siri katta bo‘lgan, bu hech kimda shubha uyg‘otmaydi. Ammo ushbu tajribalarni qiyosiy o‘rganish, ular o‘rtasidagi aloqalar, stillar va kompozitsiyalar, qurilish texnologiyasidagi yaqinlik yoki farqlarni o‘rganish boshqa tadqiqotlarda amalga oshirilishi mumkin. Bu o‘rinda biz shuni aytishimiz zarurki, Sharq shaharsozligi va shahar estetikasida tabiiy muhit, issiq ob-havo, aholi sonining tez o‘sishi, aglomeratsiya jarayonlari, suvga ehtiyoj, tabiiy sug‘orishdan sun’iy sug‘orishga o‘tish, agromunosabatlarning keng o‘rin olishi kabi omillar ta’siri sezilib turadi. Ushbu tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar shaharsozlik an’analarini va o‘ziga xos shahar estetikasini keltirib chiqargan. Keyinchalik g‘arb shaharsozligida yuzaga kelgan ibodatxonalar va ijtimoiy binolarni ilohlar tasvirlari va haykallari bilan bezatish er.avv. III- II minginchi yilliklarda Qadimgi Hindistonda an’ana edi. Qadimgi Xitoy shaharsozligida toshdan binolar tiklash, kanalizatsiya o‘rnatish, binolar peshtoqlarini badiiy-estetik bezatish, ibodatxonalarga hashamatli ustunlar, jimjimador freskalar, ajdaholar tasvirlangan suratlar, toat-ibodat uchun maxsus yo‘laklar va zinali turarjoylar, o‘rindiqlar joylashtirish buyuk, betakror san’at va iqtidorni talab etgan. Shaharsozlikdagi milliylik esa lokal sivilizatsiyalarda ko‘zga tashlanadi. A.Toynbining ko‘rsatishicha, Qadimgi Hind va Qatimgi Xitoy sivilizatsiyalari lokal sivilizatsiyalar bo‘lgan[7].

G‘arb sivilizatsiyasi genezidan ochiq, umuminsoniy jihatlarni o‘ziga jo etgan fenomen edi. Shuning uchun ham ko‘pchilikka tushunarli, ular bilan jindek qiziqqan kishi ulardagi ijtimoiy-falsafiy va estetik g‘oyalarni osongina o‘zlashtira oladi. Qadimgi Hind va Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi, shu jumladan, shaharsozligi va shahar estetikasi ham, chekka kishi uchun qiyinchiliklar uyg‘otadi, ularni anglash qiyin kechadi. Lokal sivilizatsiyalar va madaniyatlarda milliylik yorqin ko‘zga tashlanadi, ularning boshqa sivilizatsiya va madaniyatlar bilan sinkretlashib ketishi juda qiyin.

G‘arb sivilizatsiyasi, urbanizatsiyasi va shahar estetikasi asosan er. avv. III-II ming yilliklarda shakllangan Krit Miken madaniyatidan boshlanadi. Krit orolida yuzaga kelgan bu madaniyatning markazlari Knoss, Fest, Gurnia, Miken, Tirinf, Argos kabi shaharlar bo‘lgan. Mazkur shaharlar savdo-sotiq, kemachilik, hunarmandchilik, uysozlik markazlari hisoblangan. Binolar qurishda asosan pishgan g‘isht, marmar tosh, ohak, gips, pishirilgan loy ishlatilgan. Shahar yo‘laklari aravalar va piyodalarning bemalol yurishini nazarda tutgan. Turli xizmatlar, masalan, tosh tarashlash, devorlar ko‘tarish, qal’a qurish, eshiklar va darvozalar yasash kabilar maxsus ustalar tomonidan amalga oshirilgan. Urbanizatsiya asosan aholining talab va ehtiyojlariga, turmushini osonlashtirishga qaratilgan tarzda shakllangan.Har bir shahar o‘zining estetik an’analari va qiyofasiga ega bo‘lishga intilgan, nafaqat binolarning tashqi ko‘rinishi, hatto kishilarning turmush tarzi, oilaviy hayoti, shahar hayotiga munosabati va infratuzilmalarning tartibli ishlashini ta’minlashda ham o‘ziga xosliklar borligi ko‘zga tashlanadi. Ularda san’atga bo‘lgan ishtiyoq yuqori bo‘lgan, farovon, badavlat yashashga intilish odatiy hol hisoblangan[8]. Taniqli arxeologik va madaniyatshunos G.Chayldning yozishicha, mikey madaniyati va san’ati hatto butun Yevropaga, ayniqsa Qadimgi Yunon va boshqa shahar-davlatlarga ta’sir etgan[9].

Foydalanilgan adabiyotlar:

[6]Снежинская Е.Ю. Основы градостроительства и планировка населенных мест. Учебник. – Москва: КНОРУС, 2021. С.7.

[7]Тойнби А. Постижения истории. – Москва: “Прогресс”, 1990.С.68-71.

[8] Бузескул В.П. Древнейшая цивилизация в Европе. – Москва: Директмедиа, 2013.; Зинченко С.А. Введение в основы искусства Эгейского мира. Учебное пособие. – Москва Берлин: Дректмедиа, 2015.

[9] Чайлд Г. Арийцы. Основатели европейской цивилизации. – Москва: Литрес, 2022. С.8.

1. История пространственных искусств. Курс лекций. Под ред. Н.Ю. Макейкиной, Е.В.Ешиной. URL: http: // www. lib.knigi x.ru/23tehnicheskie/40527 1 istoriya prostranstvennih iskusstv. Php.
2. Снежинская Е.Ю. Основы градостроительства и планировка населенных мест. Учебник. – Москва: КНОРУС, 2021. С.7.
3. Тойнби А. Постижения истории. – Москва: “Прогресс”, 1990.С.68-71.
4. Бузескул В.П. Древнейшая цивилизация в Европе. – Москва: Директмедиа, 2013.; Зинченко С.А. Введение в основы искусства Эгейского мира. Учебное пособие. – Москва Берлин: Дректмедиа, 2015.
5. Чайлд Г. Арийцы. Основатели европейской цивилизации. – Москва: Литрес, 2022. С.8.
6. Azizbek, H. (2022). The Main Artistic Principles of The Project Proposal of The Ecological Mosque. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science, 3(6), 45-51.
7. Raimjonovna, N. N. (2022). Urban and urban planning as an object of philosophical and aesthetic research. Innovative achievements in science, 1(9), 65-69.
8. Акрамов, К. (2022). Afrosiab, Panjikent monuments interior solutions. Общество и инновации, 3(6/S), 62-66.
9. Ibragimjon o„g„li, A. K. (2023). The modern interior. Journal of new century innovations, 21(2), 18-23.
10. Ibragimjon o“g“li, A. K. (2023). Zamonaviy dizayn tendensiyalari. Journal of new century innovations, 21(2), 10-17.
11. Касимов, О. С. (2021). Современный интерьер. Интернаука, 20(196 часть 1), 88.
12. Ibragimjon o„g„li, A. K. (2023). The modern interior. Journal of new century innovations, 21(2), 18-23.
13. I.K Akramov, (2023). Interyerning rivojlanish tarixi. Qurilish va ta’lim ilmiy jurnali, 5 (1), 98-101.

ИСИГУРО КАДЗУРОНИНГ ПОЕТИК ОЛАМИ

Hasanov Suhrob Shavkat o‘g‘li
Samarkand davlat chet tillar instituti
Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o‘qituvchisi.
Email: hasanov.suhrob7219919@gmail.com

XXI аср адабиёт соҳасининг мутахассислари олдига жаҳондаги глобаллашув жараёни билан боғлиқ янги, ўта долзарб муаммони қўймоқда. Жамиятшунослик йўналишидаги фанлар маданиятлараро алмашувнинг аҳамиятини тан олгани ҳолда маданий ўзига хосликнинг йўқолиб бораётганлигидан огоҳлантираётган бир пайтда, адабиётшуносликда мултимаданиятлиликнинг ўзига хосликни сақлаб қолишнинг муҳим шарти эканлиги масаласида бир фикрга ҳали ҳам келингани йўқ. Глобаллашув тарафдорлари замонавий дунёда миллий адабиёт тушунчасидан воз кечишга даъват қилишгача боришмоқда.

Оқибатда XXI асрнинг бадиий асарларида акс эттирилган у ёки бу маданиятнинг барқарор анъаналари тўғрисида фикр юритиш мураккаблашиб бормоқда. Исталган матнга Ер шарининг исталган нуқтасидан етишиш имконияти биратўла икки йўналишда ушбу анъаналар чегараларининг йўқола боришига туртки бўлмоқда. Биринчидан, Европа ёзувчиларининг аввал ўз “сўзини айтмаган” Африка, Осиё, Жанубий Америка мамлакатлари адабиётларига қизиқишлари стилизация, ўзлашмалар, пародиялар, ўйинга – хуллас, постмодернизмнинг ёркин белгиларига олиб келмоқда. Иккинчидан, бу энди жиддий муаммо – “ёш адабиётлар”нинг ижодкорлари европача андозаларга мўлжал олиш истаги билан боғлиқ маданиятлар диалоги оқибати ўлароқ марказдан ҳаракатланишнинг жадаллашувидир. Албатта, ҳар қандай маданиятнинг ўзагида мамлакат табиати, иқлими, манзаралари,

таомлари, этник тури, тили, ўз тарихи ва маданияти ҳақидаги хотираси таъсирида шаклланган хос хусусиятлар сақланади. Айни вақтда “миллий адабиёт” тушунчаси жиддий ўзгаришларга учраяпти. Инглиз адабиёти мисолида ушбу масалани ойдинлаштиришга уриниб кўрамиз. XX асрнинг 70-йилларигача “инглиз адабиёти” термини, аввало, Британ ороллари ҳудудида яратилган адабиёт маъносини билдирган. Англиядан ташқарида истиқомат қилувчи йирик ёзувчилар ижоди ё ўрганилмаган, ёки инглиз анъаналари доирасидагина баҳоланган. Ўз тарихига эга Қўшма Штатлар адабиёти бундан мустасно. Бироқ, кўпгина америкалик ёзувчилар Англия ва Европада яшашни афзал билишса-да, уларнинг миллий мансублиги ҳаёти ва ижодининг тадқиқот контекстига тортилишига тўсқинлик қилиб келган.

XX асрнинг иккинчи ярмидан инглиз тилида яратилаётган адабиётга муносабатлар аста-секин ўзгара бориб, танқидчилар эътиборини Кариб ҳавзаси мамлакатлари адабиёти ва Австралия насри ҳамда мустақилликка эришган Африка ва Осиё мамлакатлари ёзувчиларининг ижоди жалб эта бошлади. Бугунги кунда Британия адабий ҳаётида Ғарбдаги маданий жараёнларда фаол иштирок этаётган Узоқ Шарқдан чиққан муаллифларнинг асарлари алоҳида қизиқиш уйғотмоқда. Бундай ижодкорларнинг асарлари замонавий инглиз адабиётининг энг янги тенденцияларини намоён этибгина қолмай, ундаги ўзига хос оқимларнинг мавжудлигини ҳам билдиради. Янги шарқу ғарб адабиётида яққол андрогинлик белгилари кузатилади: битта бошда иккита қиёфа (бири кун чиқарга, иккинчиси кун ботарга қараган), икки қалб, икки нигоҳ ва ниҳоятда барқарор таянч аъзоларига эга. XX аср охири андрогинлари (бир вужудда икки моҳиятнинг мавжудлиги) – кейинги юз йиллик маданиятида асосий йўналишни белгилаб берувчилардир. Замонавий тарихий босқичда “андрогин” адабиётнинг дунёдаги уч асосий марказларини – Қўшма Штатлар, Япония ва Буюк Британияни алоҳида ажратиб кўрсатган ҳолда қуйидаги хулосани чиқариш мумкин: янги, ўзгача таркибли қоннинг оқиб кириши туфайли Британ адабиёти бугунги кунда жаҳондаги энг сара адабиётлардан бири ва буни амалга оширилаётган таржималар сони ҳам далиллайди.

Англия адабий ҳаётининг ёрқин намояндалари В.Найпол (Тринидадлик), хитойлик Тимоти Мо, ҳиндистонлик Салмон Рушди ва келиб чиқиши япониялик Кадзуо исигуролар ҳисобланади. Уларнинг ижодида ҳам Ғарб, ҳам Шарқ дунёқарашларига ва адабий андозаларига хос бўлган маданий анъаналар ҳамда услубларнинг ўзига хос ўзаро таъсири кузатилади.

Кадзуо Исигуро (1954 йилда туғилган) 5 ёшида Британияга кўчиб келган ва ўзини инглиз ҳис этади, инглиз адабиётига эса “халқаро” муаллиф сифатида кириб келган ва онгли равишда шундай ижодкор бўлиб қолмоқда. “Мақсадим – халқаро романлар ёзиш” дейди ёзувчининг ўзи ва бундай роман даганда ҳар хил одамларга яқин ҳамда тушунарли асарларни кўзда тутишини таъкидлайди.

Унинг ижодида икки моҳият яхлит бир бутунлик касб этган, ҳам инглиз, ҳам япон адабиётига хос бўлган поэтика усуллари (приёмлари) тўғрисида сўз юритиш имконини беради. Тасвирланаётган воқеалари Японияда кечадиган икки романи: “Туманли тепаликлар томонда” ва “Омонат дунё мусаввири”да ёзувчининг шахсий миллий ўзига хослигига қизиқишини кўрамиз, шунингдек, ўтмиш билан боғлиқ ҳолатлар кўзга ташланувчи “Етимлик йилларда” романида ҳам қаҳрамон Шарқдан Ғарбга, Англияга кўчиб келади. Дастлабки, шарқона романларидан кейин, чин маънода инглизча, инглизлик ҳодисасини тадқиқ ва талқин қилувчи “Куннинг қолдиғи” романи яратилди.

Замонавий британ ёзувчиси, адабиёт бўйича Нобел мукофоти совриндори К.Исигуронинг ижоди китобхонлар, танқидчилар ва тадқиқотчиларда катта қизиқиш уйғотиб келмоқда. Жаҳон адабиётшунослигида мазкур муаллиф услубининг алоҳида қирралари тадқиқ этилган ёки ижодига умумий тавсифлар берилган қатор ишлар мавжуд. Энг

аҳамиятли монография муаллифларини санаб ўтамиз: : B. Lewis [Lewis, 2001], W. Sim [Sim, 2006], B. W. Shaffer [Shaffer, 2008], C. F. Wong [Wong, 2019].

К.Исигурога бағишланган дастлабки жамоавий монографиялардан бирининг (“Kazuo Ishiguro: Contemporary Critical Perspectives”) муаллифлари биринчи ўринга ёзувчи ижодининг универсаллигини, ижодкор томонидан лисоний, миллий ва маданий чегараларни енгиб ўта олишини қўйишади. “Kazuo Ishiguro: New Critical Visions of the Novels” номли бошқа бир монографияда муаллиф универсаллик билан бир қаторда ёзувчи ижодининг яна бир муҳим жиҳатини – ахлоқнинг умуминсоний муаммоларига мурожаат қилиши айтиб ўтилади: Исигуро воқеалар содир бўлаётган жамиятнинг маданий ўзига хосликларига маълум даражада эътибор қаратади ва бу жиҳат унинг асарларига универсаллик бахш этади, лекин у “яхши манералар” ҳақида сўз юритганида, ёзувчи шунчаки одоб-ахлоқ қоидаларини эмас, балки ахлоқий масалаларнинг чуқур тадқиқини кўзда тутади.

Ёзувчи ижодининг миллийликдан юқори турувчи универсал хусусияти ҳозирги вақтда унинг охирги асарини “Клара ва Қуёш” (“Klara and the Sun”) (2021) романида яққол кўзга ташланади. Умумий жиҳатдан К.Исигуро услубини ўқувчига оламни янгича кўриш имконини берадиган ўйин, матннинг ҳам хил категориялари билан ўйин сифатида тавсифлаш мумкин: унинг жанрлар, шакл ва ҳикоя усуллари билан ўйинлари қанчалик нозик ижро этилган бўлмасин, ҳар доим китобхонга муаллифнинг ва шахсан ўзининг дунёсига ўзгача назар билан қарайдиган нимадир янги, яна бир нуқтаи назарни тақозо қилади.

К.Исигуронинг “Клара ва Қуёш” романи ёзувчи услубининг ўзига хос хусусиятларини намоён қилади ва шу билан бир вақтда муаллиф олдига қўйиладиган вазифаларнинг янги ечимларини таклиф этади. Тўғрироғи, К.Исигуронинг деярли ҳамма асарларида турли жанрлар қирраларининг ўзаро бир-бирига сингиши кузатилади ва ёзувчининг романини маълум жанрга мансуб ҳисоблаш анчайин мушкул масаладир.

“Омонат дунё мусаввири” романи ўзида оилавий, тарихий а ижтиоий романларнинг жанр хусусиятларини умумлаштиради. “Дафн этилган баҳайбат” романи бир вақтнинг ўзида роман-ривоят, тарихий ва фалсафий романдир. “Куннинг қолдиғи” асари тарихий ва психологик роман. Илмий фантастика унсурларига эга антиутопия жанридаги асарлар сирасига муаллифнинг “Мени қўйиб юборма” романини киритиш мумкин.

Айтиш лозимки, К.Исигуро кўпгина романларида муаллиф ижодий ниятининг – ўқувчини ижодий ҳамкорликка юқори даражада жалб қилишни амалга ошириш учун мавҳумлик муҳитини яратади. Ўқувчи муаллиф томонидан айтилмаган ва тўлиқ билдирилмаган фикрларни мустақил талқин қилиши, аллюзияларни топа олиши ва турли ҳодисалар, воқеалар, рамзларга ўз шахсий маъносини бериши лозим бўлади. К.Исигуро услубининг бундай жиҳати “Клара ва Қуёш” романида намоён бўлади: романда муаллиф томонидан айтилганлар билан мушоҳада қилиб англаш мумкин бўлганлар орасида мувозанат сақланади.

Ўзининг жанрга оид хусусиятлари билан К.Исигуронинг “Клара ва Қуёш” асари бир неча жанрларнинг бир роман тўқимасига бирлаштирилганлиги билан ажралиб туради. Фарқи шундаки, бу асарда муаллиф фойдаланган жанр шакллари сони унинг бошқа асарларидан ҳам кўпроқ. Ушбу асарни антиутопия, илмий фантастика, оилавий ва ўсмирлар учун роман ҳисоблаш мумкин. Романда талқин қилинган мавзулар таҳлили уни шунингдек ижтимоий-психологик ва экзистенциал романлар қаторига киритишга асос беради.

Маълумки, К.Исигуро топшириб қўйиладиган ровийлик усулининг устаси ҳисобланади. Ёзувчи ишончсиз ҳикоячи деб номланадиган ҳар хил ровийларни танлайди, уларнинг образига эврилади, ровийлар руҳиятини нозик ҳис этади, тасвирланаётган воқеалар ва бошқа персонажларни уларнинг нуқтаи назаридан тасаввур қилади. “Омонат дунё мусаввири” романидаги воқеалар мураккаб ижтимоий-сиёсий пўртаналарни бошидан кечирган, ўзи йўл қўйган хатолар, нотўғри қўйилган қадамлари сабабли қаттиқ азият чекаётган рассом Оно томонидан ҳикоя қилинади. “Куннинг қолдиғи” асаридаги воқеалар

эса садоқатли хизматкор ҳаётий тамойилларга нисбатан ўз қарашларига эга бўлган кекса инглиз эшикоғаси Стивен нигоҳида берилган. “Дафн этилган баҳайбат” романида эса ровий вазифасини сирли қаҳрамон – мифологик қайиқчи Харон мисоли марҳумларнинг руҳларини нариги дунёга олиб ўтувчи образга юкланган. Унинг роли асар якунида очилади.

“Ноктюрнлар” (ноктюрн – ҳажман катта бўлмаган мусиқий асар) номли ҳикоялар туркумидаги ҳар бир асар ўз ровийсига эга (саксофончи, виолончел чалувчи, эстрада юлдузи) ва улар ўз ҳаёти ва ҳаёт йўлида учраган кишилар турмушининг манзараларини тасвирлайдилар. Ҳар бир романда у ёки бу қаҳрамон-ровийнинг эврилиши ўзига хос нутқ манераси билан белгиланади – танланган персонажга хос лисоний хусусиятлар қўлланилади. Бу лексик бирликлар, грамматик шакллар ва синтактик қурилмалардан фойдаланишдир.

“Клара ва Қуёш” романида ҳам топширилган ровийлик ҳодисасини кузатамиз, лекин у ниҳотда ўзига хос ва кутилмагандир: ровий роли робот-андроид, инсон қиёфаси ва сунъий ақлга эга машина тилидан ҳикоя қилинади. Кишини ҳайратга соладиган, деярли инсондан фарқ қилмайдиган Клара исмли сунъий қиз машинага хос сўзлаш манерасига ва фикрлаш усулига эга бўлиб, муаллиф бу ўзига хосликларни усталик билан яратиб бера олган. Клара ахборотни қабул қилувчига тўғридан-тўғри мурожаат қилишдан қочади, унинг исмини айтиб гапиради. Унинг нутқи нафақат сунъий ақл учун фикрларнинг аниқлигини ҳам, шунингдек, Кларанинг инсоний мураккабликлар ва ғайирликлардан холи бўлган тийнатини, соф нияти ва олийжаноб мақсадларини ҳам акс эттиради.

К.Исигуронинг ҳар хил асарларидаги хронотоп ҳам ранг-барангдир – турли даврлар, мамлакатлар, оламлар тасвиридан иборат. “Омонат дунё мусаввири” романида бу 1948-1950-йиллардаги ва хотиралар билан тикланадиган XX асрнинг 30-йилларидаги Япониядир; “Куннинг қолдиғи” романида – биринчи жаҳон урушидан кейинги қирқ йил давомидаги Англия; “Мени қўйиб юборма” асарида – XX аср охиридаги Буюк Британия; “Етимлик йилларимиз” романидаги воқеалар XX асрнинг биринчи ярмида Шанхайда кечади; “Ноктюрнлар”да бизнинг замонимиздаги Венеция, Лондон, Вустершир графлиги каби бир неча аҳоли манзиллари тилга олинади; “Дафн этилган баҳайбат” романида – ўйлаб топилган олам унсурларига эга илк ўрта асрлардаги Англияни кўрамиз.

К.Исигуро асарларининг қаҳрамонлари ёши, ижтимоий аҳволи, миллий мансублиги, руҳияти, тийнати ва табиатига кўра фарқланадилар. Муаллиф ўз персонажларидан ҳар бирининг руҳиятига чуқур кириб бора олиш, уларни ўқувчига ишончли танитиш ва персонажларнинг нуқтаи назарида муҳим ҳсиобланган муаммо ва масалаларни кўрсата олиш қобилиятига эгадир. Асарлари бош қаҳрамонлари орасида нафақага чиққан таниқли рассом (“Омонат дунё мусаввири”), кекса эшикоғаси (“Куннинг қолдиғи”), машҳур пианиночи (“Беҳаловатлар”), бўлажак клонлар учун интернатнинг жуда ёш истиқоматчилари (“Мени қўйиб юборма”), кекса жуфтлик, жангчи (“Дафн этилган баҳайбат”) ва бошқаларни кўришимиз мумкин.

К.Исигуро бадиий асарларининг мавзулари ҳам долзарб ва турли туман ўқувчиларда атта қизиқиш уйғотади. Бу муҳаббат, эр-хотинлар, ота-болалар ўртасидаги оилавий муносабатлар, шунингдек, урушлар, экология, техник тараққиёт билан боғлиқ муаммолар, инсониятни ларзага солаётган глобал мавзулардир. Муаллиф услубининг яна бир ўзига хослиги шундан иборатки, у бир асар доирасида биргина мавзу билан чекланиб қолмайди, унинг ҳар бир асарида кенг мавзулар кўлами кўтарилади.

К.Исигуро услуби ҳар хил образли воситалардан, адабий приёмлар ва стилистик фигуралардан бой фойдаланиши билан ҳам алоҳида ажралиб туради. Интерматнли бирликлар, хусусан, аллюзилар, ўзлашмалар билан ўйин жиҳатидан “Беҳаловатлар” романи энг мураккаб намунадир; “Омонат дунё мусаввири” романи ва “Ноктюрнлар” ҳикоялар туркумида интерсемиотик алоқалар айниқса яққол кўзга ташаланади; “Дафн этилган баҳайбат” романи ўз номида ва воқеалар ривожида ифодаланган чуқур рамзий маънога эга асардир.

Исигуронинг ҳар бир романи бу – инсон муаммоси кўтарилган ва англанган асар, ҳар бир яратилаётган янги воқелик – саволларга жавоб беришдан кўра уларни янада кўпайтирадиган чуқур фалсафий ва ижтимоий воқеликдир. Бироқ айнан шундай муаллиф нуқтаи назари уни ўзига хос ва қизиқарли ёзувчи сифатида танитиб, шуларнинг ёрдамида ўқувчига таъсирнинг зарурий даражасига эришилади.

Замонавий тадқиқотчилар К.Исигуро романларида унинг вертикал маконида воқеланган япон маданияти унсурларининг синтезини қайд этишади ва япон нафосатининг тамойиллари дунёқараш ҳамда баҳолаш сатҳларидаги намоёни ҳақида сўз юритишади. Мисол учун, К.Исигуро “Куннинг қолдиғи”, “Мени қўйиб юборма” романларида Ю.С.Нестеренко ахлоқий ва эстетик аҳамиятли унсурлар сифатида анъанавий япон маданияти хусусиятларини кўради: “Куннинг қолдиғи” романининг қаҳрамонини тадқиқотчи “самурай-эшикоғаси” сифатида тавсифлайди[10], “Мени қўйиб юборма” романида “японча урғу” X-XI асрлар япон хотиралар насридан реминисценцияларда берилади[11]. Л.Ф.Хабибуллина “Куннинг қолдиғи” романида синтоизм, дзен-буддизм ва японлар томонидан жиддий қайта англашилган конфуцийчилик эстетик принципларини ўзида бирлаштирган япон маданиятининг таъсирини кўра олади[12]. “Ўз” ва “ўзга”ни талқин қилишнинг икки йўли ҳам К.Исигуронинг “Дафн этилган баҳайбат” романини тушуниш учун самарали ҳисобланади.

“Дафн этилган баҳайбат” романи қирол Артур туркумидаги бир неча рицарлик романларининг парафразидан иборат, хусусан, К.де Труанинг “Ивэйн ёки шердор Рицар” (1176-11810, “Ланселот ёхуд арава Рицари” (1169-1188) романлари ва номаълум муаллифнинг “Сэр Гавэйн ва Яшил Рицар” (XIV сар) номли аллитерацион достони кабилардан интерматнли фойдаланилганлиги кўзга ташланади. Гавэйн қиёфасида бундан ташқари Сервантеснинг Дон Кихотиининг қирраларини ҳам сезиш мумкин. Қирол Артур ҳақидаги афсоналар ва романларни талқин қилар экан муаллиф Британиянинг тарихига мурожаат қилади, хусусан, қадимги бриттлар қишлоқларини тасвирлаганда уларнинг ертўлалар қазиши ва бу ертўла уйлар бир-бири билан ерости йўллари орқали бирлаштирилиши кабиларни, сакслар эса ўз манзилларини ёғоч тўсинлар билан ўраб, атрофида ҳандақ қазиб, сув тўлдиришлари каби деталларни аниқлик билан тасвирлайди. К.Исигуро тарихий турмуш деталларини қайта яратишда тарихий аниқликка ҳаракат қилади. Бироқ тарихан аниқ деталлар (кулбалар қурилиши, қуроллар, одамлар ва уларнинг уйларидан чиқадиган бадбўй ҳидлар) К.Исигуро романида Артур туркуми рицарлик романлари ва архаик англосакс эпослари оламларини бирлаштириш йўли билан яратилган янги воқеликка кўчирилади, тарихий аниқ деталлар роман мифининг бир қисмига айланиб, унинг ишончлилигини таъминлайди.

Мерлиннинг ўрмони Броселианд Кретьеннинг “Ивэйн” романи воқеалари кечган макон, Артур туркуми романлари ва уларнинг дастлабки манбаи бўлган Гальфрид Монмутскийнинг “Мерлин башоратлари” бўйича маълум сеҳрли хусусиятларга эга ўрмон Исигуронинг романида аждарҳо Кверигг томон йўлда биринчи тўсиқ бўлади. Олийжаноб Ивэйн бошидан кечираётган телбалик мотиви К.Исигуро романининг манбаи сифатида Кретьен романида концептуал аҳамиятга эга: телбалик (ақлдан озиш) хотирани йўқотиш оқибатида келади – Ивэйн Лодина ҳузурига қайтиш муддатини унутади, маҳбубасини йўқотгач, ақлидан ҳам айрилади:

Ногоҳ эслаб тўлғонди,
Хотиралар уйғонди.

[10] Нестеренько Ю.С. Кодекс самурая в романе Кадзуо Исигуро «Остаток дня» // Вестник Вятского государственного гуманитарного университета. 2010. Т. 2 №3. – С. 149.

[11] Ўша жойда.

[12] Хабибуллина Л.Ф. “Японский контекст” романа К.Исигуро “Остаток дня” // Филология и культура. 2012. №1. – С. 132.

Тан олди гуноҳини,
Кимга айтар оҳини,
Жиноятчи олар жазосин.

(Кретьен де Труа)

Хотиранинг қайтиши айбини англаш, тавба қилиш ва ҳатто ўзлигини йўқотишни билдириб, бу тўлиқ маънода К.Исигуро романининг асосий мавзуси сифатидаги хотира ва уни йўқотиш концепциясига жавоб беради. Романда кельтларнинг илк архаик эпослари ва бизгача IX аср қўлёзмасида етиб келган англосаксон эпик достони “Беовульф”га аллюзия ва реминисценциялар кузатилади.

Хусусан, саксон жангчиси Вистан огр (одамсимон бағҳайбат маҳлуқ)нинг қўлини узиб олиб, мағлуб этади ва саксонлар қишлоғи аҳолисига намойиш қилади, шунда маҳлуқнинг қўли Акселга елка билан қўшиб чопилган маҳлуқ калласи бўлиб кўринади: *“Аксель баҳайбат маҳлуқнинг нақ томоғидан кесиб олинган бошини кўргандек бўлди. Бош тепасидан осилиб турган жингалак қўнғир сочлар даҳшатли ва қиёфасиз башарага тушиб турарди... Шундан кейин улар жуда улкан одамсимон мавжудотга тегишли бош эмас, кураги билан қўшиб кесиб олинган елка қисмига қараб туришганини тушунишди... соч деб ўйлаганлари танадан ажратилган ерда ҳар томонга осилиб ётган мушаклар ва томирлар эди”*[13]. “Беовульф” асарида геатлик қаҳрамон Гренделнинг ўткир тирноқли панжасини узиб олади:

Ҳайратда қолишди даҳшатли
Панжасидан маҳлуқнинг
Шифт ёғочига
Қаҳрамон осиб қўйган

(“Беовульф”)

Шундан сўнг қаҳрамон Беовульф гренделнинг онаси “аёлмаҳлуқа” билан жанг қилгани кетаётганда Гренделнинг жасадини топади ва ўлжа сифатида унинг бошини танасидан жудо қилиб, ўзи билан олиб кетади. Акселнинг нигоҳи туфайли Вистаннинг ўлжасида аввал яратилган эпик достон қаҳрамонининг икки ўлжаси – ўткир тирноқли панжа билан бош бирлашиб кетади. Вистаннинг учинчи қаҳрамонлиги – аждарҳо Кверигнинг ўлдирилиши ҳам Беовульфнинг икки жасоратини ўзида умумлаштиради: кўл тубида Грендал онасининг ва аждарҳонинг ўлдирилиши. Беовульфники каби Вистаннинг ҳам исми икки сўздан таркиб топган ва уни қуйидагича талқин қилиш мумкин: “Тошни мағлуб этган” ёки “Тош билан курашувчи” (қад.ингл. – “wig” – уруш, жанг + “stan” – тош).

Аждарҳо билан жанг яратувчи-маъбуд ёки маданий қаҳрамоннинг жасоратини акс эттирувчи асосий архаик мифнинг ўзак эпизодидир. Япон мифологиясида бу қаҳрамон Сусаноонинг саккизбошли Ямото-но-Ороти илони билан жангидир. Сусаноо илонни ухлатиб қўйиб ўлдиргани каби Вистан тошлар орасида ухлаб ётган аждарҳо Кверигни ҳалок этади. Нафаси унутиш, хотирани йўқотишга сабаб бўлиб елган аждарҳонинг ўлдирилиши хотиранинг қайта уйғониш даври келганини англатади. Гавэйн ўтмишда берилган фармонга бўйсунади, Вистан эса ҳозир билан келажак талабини акс эттиради: Аксел ва Беатриснинг қайтган хотиралар орқали ўзлигини топишга интилишади. Шу ўринда яна бир яққол аллюзияни кўрамиз: Беатрис – Данте Алигьерининг “Илоҳий комедия”си бош қаҳрамонларидан бири Беатричега ишорадир.

“Дафн этилган баҳайбат” романида тириклар дунёси билан марҳумлар олами орасида медиатор ролини бажарувчи қайиқчи Беатрисни олиб бориши лозим бўлган уфқ билан қирғоқ орасидаги оролни кўрсатади. Беатрис таърифига (бир-бирини эшита олмайдиган ёлғиз руҳлар яшовчи орол) мос келувчи ороллар бир нечта эканлигини қайиқчи томонидан ҳам тасдиқланиши кўплаб оламлар ҳақидаги кельт мифларининг хронотопик ғоясини тасдиқлайди. Ўлимдан сўнг эр-хотиннинг ажратилиши ҳам фақат хотин-қизлар яшайдиган Ҳузур-ҳаловат ороллари ҳақидаги кельт мифларини ёдга солади: “Фебалнинг ўғли Браннинг

[13] Исигуро Кадзуо. Погребенный великан. – Москва: Изд-во: “Э”, 2017. – С. 88.

денгиз саёҳати” номли кельт қиссасида шундай таърифни учратамиз – “У ерларда ўзга кимсалар йўқ / Хотин-қизлардан бўлак”[14]. Бироқ нариги дунё ҳақидаги кельт мифлари географиясини қайта яратар экан, Кадзуо Исигуро унга антик Эллизиум (жаннатмакон манзил) жиҳатларини бахш этади (Беатриснинг таърифлари ва шундай дунё борлигининг қайиқчи жавобидаги тасдиғи).

Ҳомернинг замондошлари тасаввурида нариги дунё ожиз ва нотавон, хотирасиз хира руҳлар кезиб юрувчи Аиднинг ер ости салтанатидаги мавжудлик эди. Беатрис бир замонлар сокин ўрмонлар ва дарёлари кўп бўлган орол ҳақида эртак эшитганини айтади. Аммо бу оролнинг бир ғалати хусусияти бор: унга ўтган ҳар киши қўшниларини кўрмасдан, эшитмасдан ёлғиз мавжуд бўлади.

К.Исигуронинг романида архаик эпослар, рицарлик романлари ҳамда достонларини қайта англашилиши йўли билан неомифнинг яратилиши муаллиф эгаллаб турган Шарқ ва Европа маданий оламлари орасидаги воситачи медиатор ўрнини акс эттирувчи умумий конструктив тамойилларга мувофиқ амалга оширилади. Бу тамойилларга риоя қилиш романдаги олам бутунлигини, муаллиф ниятини яхлит тажассумини ва ўқувчи билан диалогга киришиш имкониятини таъминлайди.

Шу тариқа К.Исигуро неомифни воқелантирар экан, интерматнли парчалар япон эстетикасига асосланувчи ягона эстетик концепцияга бирлаштирилган сунъий роман яратади, асар якунининг очиқ қолдирилиши эса романни ўқувчи муаллифнинг ҳамкорига бўлишга чорловчи замонавий адабиёт намуналари қаторига қўшади.

“Мени қўйиб юборма” романида ҳам бир қатор аллюзияларни кузатамиз. Мисол учун, беморларга тана аъзоларини кўчириб ўтказиш мақсадида клонлар кўпайтириладиган Хейлишэм интернати ҳақида сўз боради. Клонларга қалб, руҳ берилмаган, лекин жафокашларча ўзини қурбон келтириш йўли белгиланган. Қаҳрамонлардан бири Томмигина ўзига тайёрланган қисматдан аянчли норозилик кўрсатади. Кэти Ш. – Хейлишэм мактаби тарбияланувчиси, донорлар ёрдамчиси. Рут – унинг дугонаси. Томми ҳам клонлардан бири, Рут билан севишади, Кэтнинг дўсти. Асар ўттиздан ошган Кэт тилидан хотиралар сифатида ҳикоя қилинади. Саккиз ойдан сўнг унинг ўзи ҳам тана аъзоларини беморларга бериши керак бўлади. Кунларнинг бирида Томми ярим тунда очиқ далага чиқиб кетиб, иложсизликдан дод солади. Бу эпизодни Исонинг Гефсиман боғидаги ибодати ҳодисасидек инжилий сюжетга аллюзия деб тушуниш мумкин. “Мени ушбу қисмат четлаб ўтсин” – бу қудратли илоҳнинг эмас, балки инсон Исонинг саждаси эди. Бундан ташқари, Рутнинг тушида Хейлишэм мактабини сув босишини, гуноҳкор одамизод бошига ёғилган Буюк тўфонга ишора сифатида англаш лозим. Шунингдек, сув босган Хейлишэм образини Ғарбда таниқли япон носири Кэндзабуро Оэнинг Буюк тўфон муқаррарлиги ҳисси билан ёзилган “Мени руҳимгача сувлар ўз оғушига олди” номли ривоят-антиутопиясининг аллюзияси деб тахмин қилинади.

Хотиралари давомида Кэти XX аср адабиёти ва санъатининг аҳамиятли номларини ёдга олади (Жойс, Кафка, Пикассо) ва бу билан ровийнинг интеллектуал салоҳиятидан дарак беради. Романда яна бир адабий аллюзия ўзига хос тагматн яратади: Кэт ўқиётган китоблардан бири – Жорж Элиотнинг “Даниэль Деронда” романида инглиз аслзодалари қувғинларга учраган ҳақ-ҳуқуқсиз яҳудийларга қарши қўйилади. Ушбу ҳавола маълум гуруҳ кишиларининг ўзини инсонпарвар ва чин тақводор христианлар ҳисобловчи жамият тан олган қонуний меъёрлар асосида зўравонлик ва тазйиқ мавзусига ишора қилади.

Хейлишэм интернатидаги ҳолат Иккинчи Жаҳон уруши йилларидаги немис концентрацион лагерларини ҳам ёдга солади. Роман саҳифаларида тиканли сим билан ўралган ёпиқ макон образи бир неча бор учрайди. Ҳарбий мотив бош қаҳрамонлардан бирининг исмида ҳам акс этади – Томми (ингл. “tommy” – аскар). Яна бир қаҳрамон қиз Руф исми инжилий матнга ҳавола қилади, аниқроғи – Эски Аҳднинг “Руф китоби” деб

[14] Исландские саги. Ирландский эпос. – БВЛ. Серия первая, Т.8. – Мосва: Изд-во “Художественная литература”, 1973. - С. 672.

номланадиган қисмига аллюзия бўлиб, яна бир бор яҳудийлар муаммосига ишора қилинади. Роман қаҳрамонлари исмларининг тўлиқ келтирилмаслиги Ф.Кафка бадиий оламини эслатади: шахсиятнинг йўқотилиши ва инсоннинг шахсдан маълум вазифани бажарувчи механизмга айланиши рамзи сифатида англашилади.

“Мени қўйиб юборма” романидаги образлар тизими, матннинг субъектив ташкил қилиниши ва ҳар хил жанр шаклларининг синтези ёрдамида анъанавий антиутопик маконларнинг ёрқин бадиий талқини яратилиб, бунинг натижасида матн билан фаол диалогга бўлган чорловга очиқ ўқувчининг танлови вазияти юзага келади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Арнольд И.В. Семантика. Стилистика. Интертекстуальность: Сборник статей / И. В. Арнольд. - СПб.: Изд-во С.-Петерб. Ун-та, 1999. - 444 с.
2. Беовульф // Беовульф; Старшая Эдда; Песнь о Нибелунгах. – Москва: Эксмо, 2014. – С. 37-204.
3. Исигуро К. Когда мы были сиротами / пер. с англ. И. Тогоевой. СПб., 2007.
4. Исигуро К. Не оставляй меня / пер. с англ. И. Тогоевой. СПб., 2007.
5. Исигуро К. Остаток дня / пер. с англ. И. Тогоевой. СПб., 2007.
6. Исигуро К. Там, где в дымке холмы / пер. с англ. И. Дорониной. М., 2007.
7. Исигуро К. Художник зыбкого мира / пер. с англ. И. Дорониной. М., 2010.
8. Исигуро Кадзуо. Погребенный великан. – Москва: Изд-во: “Э”, 2017.
9. Исландские саги. Ирландский эпос. – БВЛ. Серия первая, Т.8. – Мосва: Изд-во “Художественная литература”, 1973.
10. Кретьен де Труа. Ивэйн, или Рицарь со львом // Средневековый роман и повесть. – Москва: Художественная литература, 1974. – С. 31-154.
11. Нестеренько Ю.С. Кодекс самурая в романе Кадзуо Исигуро «Остаток дня» // Вестник Вятского государственного гуманитарного университета. 2010. Т. 2 №3. – С. 149-151.
12. Нестеренько Ю.С. Элементы японской культуры в романе Кадзуо Исигуро «Не отпускай меня» // Знание. Понимание. Умение. 2015.№4. – С. 226-334.
13. Хабибуллина Л.Ф. “Японский контекст” романа К.Исигуро “Остаток дня” // Филология и культура. 2012. №1. – С. 130-135.

3-ShO‘BA. OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION TA’LIM METODLARI VA TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI O‘QUV JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ ЗНАНИЯМИ

Букова Анна Александровна
Кандидат экономических наук, доцент
Московский государственный технический университет им. Н.Э. Баумана, Мытищинский филиал

Аннотация
Одно из наиболее динамично развивающихся направлений персонального менеджмента - управление личными знаниями, является важным независимо от выбранной профессии, так как ведет к повышению эффективности. Также именно на знаниях сотрудников основываются активы организации. Современные подходы к управлению знаниями разнообразны и основываются на таких понятиях, как «социальный капитал», организационное знание и др.

Ключевые слова: *управление знаниями; личные знания; организационное знание.*

Abstract
One of the most dynamically developing areas of personal management is personal knowledge management, which is important regardless of the chosen profession, as it leads to increased efficiency. Also, the organization's assets are based on the knowledge of employees. Modern approaches to knowledge management are diverse and are based on such concepts as "social capital", organizational knowledge, etc.

Keywords: *knowledge management; personal knowledge; organizational knowledge.*

В современном мире бизнеса конкурентное преимущество организации почти полностью зависит от того, насколько хорошо она может управлять и использовать свои корпоративные активы. Эти активы можно разделить на материальные и нематериальные. Традиционно, основные средства, оборудование и финансовый капитал считаются наиболее фундаментальными корпоративными активами. Чтобы конкурировать и стать успешным на своем собственном рынке, организации теперь должны научиться управлять нематериальным активом, то есть «знанием».

Появление «эры знаний» радикально меняет то, что создает ценность в организациях, в результате чего долгосрочная жизнеспособность и процветание организации все больше зависит от ее способности использовать скрытую стоимость своих нематериальных активов.

Постоянное изменение рыночных ожиданий и спроса на новые продукты постепенно вытесняют капиталоемкие и трудоемкие фирмы наукоемкими компаниями, а рутинную работу - наукоемкими работниками.

Термин «управление знаниями» и соответствующий методический подход вошли в практику организаций сравнительно недавно, в 80-е гг. XX века, и обрели самостоятельность в результате эволюции теоретических взглядов и концептуальных представлений о знании.

Личные знания — это совокупность навыков, умений, природных способностей и возможностей, личностные особенности человека. Это способы его взаимодействия с окружающим миром, его деловые и личные коммуникации. Классики управления знаниями Т. Дэвенпорт и Л. Прусак определяют управление личными знаниями как «систематические действия по созданию, сбору, распространению и использованию своих знаний» [1].

Выделяют два уровня: индивидуальное и организационное. На индивидуальном уровне управление знаниями - это совместная работа и обмен знаниями между сотрудниками и обучение друг у друга, что предоставляет сотрудникам возможности для повышения квалификации и опыта, тем самым улучшая личную производительность, что приводит к

лучшему карьерному росту. На организационном уровне управление знаниями обеспечивает Повышение эффективности работы организации за счет повышения эффективности, производительности, качества и инноваций. Происходит повышение финансовой ценности организации за счет использования знаний людей в качестве актива.

Таким образом, следует обратить внимание на два аспекта данного вопроса. Во-первых, управление личными знаниями, независимо от выбранной профессии, является важным, так как ведет к повышению персональной эффективности. Во-вторых, на знаниях сотрудников основываются и активы организации, использующей знания своих работников

Современные подходы к управлению знаниями представлены достаточно различными взглядами специалистов. И. Нонака анализирует динамический процесс создания организационного знания, делая акцент на необходимость трансформации неформализованного знания сотрудников в формализованное организационное знание (процессная концепция управления знаниями). В центре внимания Т. Дэвенпорта «работники знаний» – особая категория работников, играющая роль «локомотива» в развитии знаний в организации (личностная концепция управления знаниями). На принципиально иной ракурс исследования нацелена экологическая концепция управления знаниями (Л. Прусак), изучающая «социальный капитал» организации – разнообразные межличностные связи, общие ценности и модели поведения, отношения доверия и взаимопонимания, которые объединяют людей и формируют условия для сотрудничества, создания и распространения знания в организации [2].

Данные концепции раскрывают проблемы, связанные с огромными потерями информации из-за ограниченности ресурсов мозга, негативного влияния информационного шума, трудностью отделения действительно полезного контента от «мусора», а также важность знаний в процессе развития компаний и организаций.

Среди инструментов управления знаниями особый интерес вызывает метод «второго мозга» Zettelkasten, предложенный Никласом Луманом, и получивший развитие с помощью современных информационных технологий. Основой метода является обработка информации и связывание с уже существующими знаниями для создания общей базы данных. Это методология «второго мозга», который работает как внешнее централизованное цифровое хранилище информации, доступное в любой момент для применения в ежедневной практике и не подведет, в отличие от собственной памяти. При этом наш мозг прекрасно обрабатывает информацию, создает и использует, а технический мозг лучше всего хранит ее, создает структуры и находит необходимое [3].

«Второй мозг» как научно-методический подход к управлению личными знаниями может дать любому работнику умственного труда множество преимуществ, таких как системное хранение всей информации по проектам в одном месте, возможность обнаружить закономерности и связи, которые могут привести к новым идеям. Для реализации управления знаниями в указанной методологии и с помощью других подходов и методов сейчас существует ряд популярных программных решений, которые могут быть использованы для эффективной организации и обмена знаниями, и применять их можно как в учебе, так и в профессиональной деятельности.

В вопросе управления личными знаниями следует также выделить такие вызовы, как проблемы конфиденциальности и безопасности хранения личных данных. Размышляя о перспективах данной управленческой сферы, необходимо сказать, что технологии развиваются в части использования облачных технологий, систем управления контентом, аналитики, а также автоматизации процессов управления знаниями и использования искусственного интеллекта [4].

При более глубоком осознании важности управления знаниями ожидается, что бизнес изменится в ближайшем будущем, и управление знаниями станет приоритетом для

большинства секторов. Большие объемы знаний, и использование информационных технологий в управлении знаниями создает новое измерение в управлении компанией.

Список литературы

1. Лессер Э., Прусак Л. Как превратить знания в стоимость: Решения от IBM Institute for Business Value: пер. с англ. М.: Альпина Бизнес Букс, 2006. 248 с.

2. Ченцова М.В. Основные черты экономики знаний: теоретический аспект // Вестник Финансовой Академии. 2007. № 3 (43). С. 105–112.

3. Зонке А. Как делать полезные заметки. Эффективная система организации идей по методу Zettelkasten / пер. с нем. А. А. Иванова. М.: ООО «Манн, Иванов и Фербер», 2022. 224 с.

4. Орехова С.В., Никитина О.М. Управление знаниями: изменилась ли исследовательская повестка? // Управленческие науки = Management Sciences. 2024;14(1):103-116. DOI: 10.26794/2404-022X-2024-14-1-103-116

TA’LIM JARAYONIDA “MUNOZARA” VA “GURUH BILAN ISHLASH” TEXNOLOGIYALARIDAN MAQSADLI FOYDALANISH

Nazarov Toshpo‘lat Boshbek o‘g‘li
Maktab menejmenti kafedrasi o‘qituvchisi, Jizzax DPU
toshpolatnazarov@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada hozirgi zamon pedagogikasining eng ilg‘or ta’lim texnologiyalaridan bo‘lgan “munozara” va “guruh bilan ishlash” texnologiyasining mazmun-mohiyati, ta’lim jarayonidagi ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *munozara, guruh bilan ishlash, texnologiya, pedagogik usullar.*

Abstract

This article talks about the content and importance of the "discussion" and "group work" technology, which are among the most advanced educational technologies of modern pedagogy, in the educational process.

Key words: *discussion, group work, technology, pedagogical methods.*

Аннотация

В данной статье говорится о содержании и значении в образовательном процессе технологий «дискуссия» и «групповая работа», которые являются одними из самых передовых образовательных технологий современной педагогики.

Ключевые слова: *дискуссия, групповая работа, технология, педагогические методы.*

Kirish.

Zamonaviy ta’lim muassasalarida talabalar o‘zlarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishlari muhim ahamiyatga ega. Ta’lim jarayonida “munozara” va “guruh bilan ishlash” kabi texnologiyalar orqali talabalar o‘zlarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini takomillashtirishlari mumkin.

“Munozara” va “guruh bilan ishlash” texnologiyalari ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik usullardir.

Munozara texnologiyasi, o‘quvchilarning fikrlashini rivojlantirish va ularni turli qarashlarni tahlil qilish hamda mustaqil xulosalar chiqarishga undaydigan interaktiv muhit yaratishga qaratilgan. Bu jarayonda talabalar o‘z fikrlarini ifoda etish, boshqalar fikrini tinglash va munozarada ishtirok etish orqali o‘zaro ta’sir qilishadi [15].

[15] HAMKORLIK TEXNOLOGIYALARI Reja - TIIAME. https://staff.tiiame.uz/storage/users/167/presentations/7cn8svyZuc3GGdQqUE93tZk1Ktvt4iY7XnTHSGKu.pdf.

Guruh bilan ishlash texnologiyasi esa, o‘quvchilarni birgalikda ma’lum bir vazifani hal qilishga jalb qiladi. Bu usulda har bir talaba guruhdagi boshqa a’zolar bilan hamkorlik qilish, muloqot qilish va bir-birlarining fikrlarini hurmat qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Guruh bilan ishlash, o‘quvchilarga turli xil fikrlar va yondashuvlarni ko‘rib chiqish, ularni birlashtirish va yangi g‘oyalar yaratish imkonini beradi [16].

Ushbu texnologiyalar, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda va ularni ijodiy va mustaqil fikrlashga undashda muhim ahamiyatga ega.

Munozara texnologiyasi – bu fikrlar almashinuvi jarayoni bo‘lib, unda ishtirokchilar turli mavzular yuzasidan o‘z fikrlarini ifoda etishadi va boshqalar fikrlarini tinglaydilar. Bu texnologiya talabalarga o‘z fikrlarini aniq va ravon bayon qilish, dalillarni to‘g‘ri ishlatish va raqibning fikrlarini hurmat qilishni o‘rgatadi. Shuningdek, munozara talabalarga o‘z fikrlarini himoya qilish va boshqalar fikrlarini tanqid qilish orqali tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Guruh bilan ishlash texnologiyasi – bu talabalar birgalikda ma’lum bir vazifani bajarish uchun hamkorlik qiladigan pedagogik usuldir. Ushbu texnologiya orqali talabalar jamoaviy ishlash, o‘zaro muloqot qilish va bir-birlarining fikrlarini hurmat qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Guruh bilan ishlash jarayonida har bir a’zo o‘z fikrlarini ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa ularning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini yanada takomillashtirishga yordam beradi.

“Munozara” va “guruh bilan ishlash” texnologiyalari talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga quyidagi usullar orqali yordam beradi:

1. Munozara texnologiyasi talabalarga turli xil fikrlarni tinglash, ularni tahlil qilish va o‘z fikrlarini argumentlar asosida himoya qilish imkonini beradi. Bu jarayon talabalarni mantiqiy xulosalar chiqarishga va o‘z fikrlarini aniq va ishonchli tarzda ifoda etishga o‘rgatadi [17].

2. Guruh bilan ishlash texnologiyasi esa, talabalarni jamoaviy ishlashga undaydi. Bu usul orqali ular turli xil fikrlar va yondashuvlarni ko‘rib chiqish, ularni birlashtirish va yangi g‘oyalar yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Guruhdagi har bir a’zo o‘z fikrlarini erkin ifoda etishi va boshqalar fikrlarini hurmat qilishi mumkin, bu esa tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini yanada rivojlantiradi [18].

Ushbu texnologiyalar talabalarga o‘z fikrlarini mustaqil ravishda shakllantirish, ularni dalillar asosida taqdim etish va boshqalar fikrlarini tanqid qilish orqali tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, ular talabalarga murakkab muammolarni hal qilishda va hayotda duch keladigan turli vaziyatlarda o‘z pozitsiyalarini himoya qilishda yordam beradi.

“Munozara” va “guruh bilan ishlash” texnologiyalari talabalarga amaliy yordam berishning bir necha yo‘llari mavjud:

−Muloqot ko‘nikmalari. Talabalar munozara va guruh bilan ishlash jarayonida muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida ham, shaxsiy hayotida ham muhimdir [19].

−Ijodiy yechimlar. Guruh bilan ishlash talabalarga turli xil fikrlar va yondashuvlarni ko‘rib chiqish, ularni birlashtirish va yangi g‘oyalar yaratish imkoniyatini beradi [20].

−O‘zaro ta’sir. Talabalar bir-birlarining bilim va tajribalaridan o‘rganishadi, bu esa o‘rganish jarayonini boyitadi va o‘quv materiallarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

−Mustaqillik va mas’uliyat. Talabalar o‘z vazifalarini bajarishda mustaqil ishlashga va guruh oldidagi mas’uliyatni his qilishga o‘rganadilar.

---

[16] Ta’lim texnologiyasi - Vikipediya. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ta%CA%BClim_texnologiyasi.

[17] Tanqidiy fikrlash - Vikipediya. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tanqidiy_fikrlash.

[18] Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari va texnologiyalari. https://behruzbek.uz/2021/03/23/tanqidiy-fikrlashni-rivojlantirish-usullari-va-texnologiyalari/.

[19] HAMKORLIK TEXNOLOGIYALARI Reja - TIIAME. https://staff.tiiame.uz/storage/users/167/presentations/7cn8svyZuc3GGdQqUE93tZk1Ktvt4iY7XnTHSGKu.pdf.

[20] Kooperativ ta'lim | O'qituvchilar uchun 14 ta oson hamkorlikda o .... https://ahaslides.com/uz/blog/cooperative-learning-strategies/.

−Ijtimoiy ko‘nikmalar. Guruh bilan ishlash talabalarga boshqalar bilan samarali hamkorlik qilish, kelishmovchiliklarni hal qilish va jamoaviy ishda ishtirok etish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

−Tanqidiy fikrlash. Munozara va guruh bilan ishlash texnologiyalari talabalarga turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish va tanqidiy baholash orqali o‘z fikrlarini shakllantirishga yordam beradi.

Ushbu texnologiyalar talabalarning ta’lim olamida va kelajakdagi hayotida muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi[21].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1) HAMKORLIK TEXNOLOGIYALARI Reja - TIIAME. https://staff.tiiame.uz/storage/users/167/presentations/7cn8svyZuc3GGdQqUE93tZk1Ktvt4iY7XnTHSGKu.pdf.

(2) Ta’lim texnologiyasi - Vikipediya. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ta%CA%BClim_texnologiyasi.

(3) Munozara:Axborot texnologiyalari - Vikipediya. https://uz.wikipedia.org/wiki/Munozara:Axborot texnologiyalari.

(4) Tanqidiy fikrlash - Vikipediya. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tanqidiy_fikrlash.

(5) Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari va texnologiyalari. https://behruzbek.uz/2021/03/23/tanqidiy-fikrlashni-rivojlantirish-usullari-va-texnologiyalari/.

(6) Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi 100 ta savol (1-qism). https://medium.com/@blog_62129/tanqidiy-fikrlashni-rivojlantiruvchi-100-ta-savol-1-qism-22791d686588.

(7) HAMKORLIK TEXNOLOGIYALARI Reja - TIIAME. https://staff.tiiame.uz/storage/users/167/presentations/7cn8svyZuc3GGdQqUE93tZk1Ktvt4iY7XnTHSGKu.pdf.

(8) Kooperativ ta’lim | O‘qituvchilar uchun 14 ta oson hamkorlikda o .... https://ahaslides.com/uz/blog/cooperative-learning-strategies/.

(9) “Munozara” - yoshlarittifoqi.uz. https://yoshlarittifoqi.uz/uz/projects/munozara.

ФИЗИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ КАК ПРОПОГАНДА ДЛЯ УЧАЩЕЙСЯ МОЛОДЁЖИ

Эгамбердиев Рустам Нарзуллаевич
доцент кафедры Методика обучения спортивным видам,
Джизакский государственный педагогический университет.
(Джизак, Узбекистан)

Аннотация:

В данном контексте, авторами, был обособлен и рассмотрен практико-ориентированного подход в изучении дисциплины «Физическая культура и спорт» в качестве социального института, пропагандирующего здоровый образ жизни студентов учебных заведений. Предложены направления внедрения проектной деятельности в изучение дисциплины «Физическая культура и спорт».

Ключевые слова: *Физическая культура, спорт, воспитание, физическая активность, двигательная деятельность.*

Abstract:

In this context, the authors have isolated and considered a practice-oriented approach to the study of the discipline "Physical culture and sport" as a social institution that promotes a healthy lifestyle for students of educational institutions. The directions of implementation of project activities in the study of the discipline "Physical culture and sport" are proposed.

Key words: *Physical culture, sport, education, physical activity, physical activity.*

[21] “Munozara” - yoshlarittifoqi.uz. https://yoshlarittifoqi.uz/uz/projects/munozara.

Здоровье человека в современном гуманистическом обществе представляет собой наивысшую ценность и зависит от целого ряда объективных и субъективных факторов. Поэтому важно отметить, что нынешнее демографическое положение страны и перспективы его эволюции относятся к числу первостепенных, ключевых элементов, определяющих долговременное развитие нашей страны.

Важнейшей задачей воспитания и образования подрастающего поколения, решающим условием формирования нового уровня культуры жизнедеятельности населения является целенаправленное и интенсивное освоение детьми и подростками ценностей национальной и мировой культуры физической активности, актуализированных в здоровом стиле жизни.

В современном языке активность обычно определяется как такое качество поведения, которое дает некий видимый результат благодаря расходованию энергии, она относится только к поведению, а не к личности, стоящей за этим поведением . быть активным – значит дать проявиться своим способностям, таланту, всему богатству человеческих дарований, которыми, хотя и в разной степени, наделен каждый человек. Активность человека характеризует не всякая деятельность, а лишь такая, которая обусловлена внутренними причинами и направлена не только на сохранение, но и на совершенствование биосоциокультурной системы, элементом которой является личность. Она выражается как качественной, так и количественной стороной деятельности.

Физическая активность – двигательная деятельность человека, направленная на укрепление здоровья, развитие физического потенциала и достижение физического совершенства для эффективной реализации своих задатков с учетом личностной мотивации и социальных потребностей. Двигательная деятельность – ансамбль двигательных действий, включенных в систему организующих идей, правил и форм с целью достижения определенного приспосабливающего эффекта организма человека и совершенствования динамики этого процесса.

Направленность физкультурного образования личности определяется единством ценностных ориентаций, потребностно-мотивационной сферы, базовых и специальных знаний о грамотном использовании физических упражнений в условиях оздоровительной и спортивной тренировки, жизнедеятельности в целом. Разработка концепции личной физической культуры осуществляется на основе преимущественной социализации личности учащихся общеобразовательной школы и ориентирована на максимальное раскрытие индивидуальных способностей и задатков ребенка, учет индивидуальных особенностей, основных интересов и уровня развития психофизических показателей.

Фактором, объединяющим все компоненты физической культуры, является физкультурно-спортивная деятельность, направленная на физическое совершенствование человека. В сфере физической культуры целесообразно говорить о специфической деятельности, связанной с укреплением здоровья, развитием физического потенциала и достижением физического совершенства. Цель физической активности эффективная реализация задатков и способностей с учетом личностных мотиваций и социальных потребностей. Обосновано теоретическое понятие физической активности с позиции активного элемента, формирующего в сочетании с другими факторами физическую культуру личности и являющегося важнейшим компонентом системы общественного воспитания и самовоспитания личности.

Концепция физической активности человека содержит в себе систему представлений об основных закономерностях управляемого развития двигательного потенциала индивидуума, о путях и средствах активного отношения личности к процессу физического совершенствования, о путях и формах организации физической активности людей. Психологический аспект проблемы рассматривается в единстве физической активности со здоровьем, социологический – в единстве физической активности с культурным развитием.

Включение в исследование физической активности психологических и социологических характеристик позволяет охватить некоторые важные реалии, связанные с предметностью данного вида человеческой деятельности. Суть заключается в том, что указанные аспекты требуется рассматривать не как порождаемые физической активностью, а как порождающие ее.

Одной из тенденций прогрессивного развития науки всегда было проникновение друг в друга идей различных дисциплин.

Под физической активностью в зарубежной литературе понимается любая работа, произведенная скелетными мышцами, как результат расходования энергии, добавленный к состоянию покоя. Исследования ведутся в двух аспектах – физиологическом и поведенческом. Согласно физиологической перспективе физическая активность является компонентом общего расходования энергии, которая также включает метаболизм покоя, термический эффект питания и рост тела. Согласно же поведенческой перспективе она может рассматриваться в пределах характеристик понимания поведения, а также спортивных, рекреативных, реабилитационных, развивающих и оздоровительных технологий.

Известно, что педагогический процесс включает в себя следующие технологические компоненты: общение, оценку, требования, информационное воздействие. С точки зрения реализации педагогического воздействия необходимо учитывать природу ребенка, уровень его индивидуального развития и в зависимости от этой обобщенной характеристики доступно трансформировать ему человеческую культуру. Культурологический смысл содержания образования может быть реализован двумя способами: через достижение взаимосвязи культурологического смысла с социальным и индивидуально-личностным и через системную организацию содержания образования.

Объективное содержание образования определяется социальным заказом, теми задачами, которые оно ставит перед образованием, субъективное значение содержания образования выражается в индивидуально-личностном смысле. Важнейшее значение имеет тот факт, что зависимость между развитием личности и ее воспитанием заключается не в том, что делают с детьми, а то, что с ними происходит. Применительно к рассматриваемой проблеме важно остановиться на принципах обучения, среди которых основными являются научность, доступность, систематичность, последовательность, сознательность, активность учащихся и прочность результатов обучения. Принцип сознательности и активности личности в обучении и воспитании должен вести к единству сознания и поведения.

Сознательность, самостоятельность и прочность усвоения знаний можно считать скорее методическими правилами, чем дидактическими принципами. Что касается принципа активности, то его содержание в педагогике часто сильно сужается и под ним понимают активное овладение знаниями, умениями и навыками. Совершенно очевидно, что физическую активность следует не сводить только к двигательной деятельности, а целесообразно анализировать содержание интеллектуальной активности в проявлении этой деятельности.

Существующие социологические подходы к оценке физической активности детей школьного возраста основаны в первую очередь на измерении элементов поведения во взаимосвязи со здоровьем детей. В соответствии с этим ставится задача получения данных, позволяющих судить о количестве детей, приобщенных к физической активности, доказательства пользы регулярной физической активности, а также определении той категории детей, которые нуждаются в существенном повышении фактического уровня физической активности.

Принцип деятельностного подхода к формированию физической культуры личности строится на утверждении положения о том, что только умело стимулируя активность

человека в этом виде деятельности, можно осуществить действенное физкультурное воспитание.

Применительно к анализу социальных аспектов формирования физической активности детей важно отметить, что личность – это целостность социальных свойств человека, продукт общественного развития и включения индивида в систему социальных отношений посредством активной деятельности и общения.

Bu kabi metodlardan yana biri bu Tabiiy Yondashuv bo‘lib, bu usul 1970-yilda Tracy Terrel tomopnidan ishlab chiqilgan va Stefen Krashen tomonidan rivojlantirilgan. Thornbury ta’rifiga ko‘ra, bu metod o‘qituvchining ko‘p nutq so‘zlashi va talabalarga visual ko‘rsatmalar va vositalar orqali darsni tushunarli qilish bilan xarakterlanadi.[24] Bu usulning ahamiyatli jihati, unda hech qanday Grammatik ko‘rsatmalar va darsliklar mavjud emas, aksincha ular o‘rnini visual vositalar egallagan. Dars jarayonida, o‘qituvchi rasmloar orqali so‘zlar tushuntiradi, rasmlar sinf xonasida ko‘rsatiladi va o‘qituvchi so‘zlarni aytganda talabalar rasmlardan foydalanib so‘zlarni ko‘rsatishi kerak. Bu metod yangi lug‘atlarni o‘qitish jarayoni uchun muhim hisoblanadi. Bu metod visual vositalar muloqot va tushunish jarayonini osonlashtirishga yordam bergani sababli ularga urg‘u beradi.

Bugungi kunda eng asosiy o‘qitish metodlaridan biri bo‘lgan CLT metodi, ya’ni kommunikativ til o‘qitish metodi til o‘rganish real hayotda mnuloqot qilish orqali oson o‘zlashtiriladi degan g‘oyani ilgari suradi. Talabalar o‘zlarining mahalliy tilidan foydalanmagan holda, xilma-xil audio-vizual materiallar, ayniqsa o‘yinlar va rolli o‘yinlar orqali darsni o‘zlashtiradilar. Bu ularga tilni real hayotidagi ahamiyatini anglashga yordam beradi.

Umumiy qilib aytganda, hech qaysi bir metod turi mukammal emas va o‘ziga yarasha yutuq, kamchiliklari mavjud, lekin hammasining maqsadi chet tili o‘qitish jarayonini osonlashtirish va rivojlantirishdan iborat. Bundan tashqari, o‘tmishda hamma metod turlarida ham visual va audio materiallardan foydalanilgan. Grammatik tarjima metodi haqiqiy hayot buyum va vositalardan foydalangan bo‘lsa, qolgan barcha metod turlarida rasmlar, jadvallar, musiqa,qo‘shiq, va ro‘lli

[23] Finley, T. (2014). Common Core in Action: 10 Visual Literacy Strategies. 67 Retrieved February 3 from https://www.edutopia.org/blog/ccia-10-visualliteracy- strate gies -todd-finley

[24] Thornbury, S. Methodology: The Natural Approach, (n.d.) Retrieved March 2 from http://www.onestopenglish.com/methodology/ask-the-experts/methodology- questions/methodologv-the-natural-approach/146401. article

o‘yinlar kabi ko‘rgazmali qurollar muhim ahamiyat kasb etgan. Xulosa qilib aytganda, visual vositalarning ahamiyatini dars jarayonida ko‘rish mumkin. Ehtimol, dars muhiti o‘zgarishi yoki visual vositalar rivojlanishi mumkin, shunga qaramay, ko‘rgazmalilik hali ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Aksincha, u kompyuterga asoslangan qurilmalar, proyektor va elektron doskalar kabi yangi, zamonaviy ko‘rinishlarda takomillashib bormoqda. Ko‘rgazmalilik hali ham dars jarayonida qo‘shimcha material sifatida o‘z ahamiyatini ko‘rsatib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Collias, K. (2014) Visual thinking and student learning. Retrieved March 5 from http://knowwithoutborders.org/visual-thinking-and-student-learning/

2. Finley, T. (2014). Common Core in Action: 10 Visual Literacy Strategies. 67 Retrieved February 3 from https://www.edutopia.org/blog/ccia-10-visualliteracy- strate gies -todd-finley

3. Thornbury, S. Methodology: The Natural Approach, (n.d.) Retrieved March 2 from http://www.onestopenglish.com/methodology/ask-the-experts/methodology-questions/methodologv-the-natural-approach/146401. article

4. Umarova, M. (2022, November). Talabalarning SoZlashuv Qobilyatini Oshirishda Visual Vositalardan Foydalanish Samaradorligi. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 164-166).

5. Umarova, M. (2023). THE HISTORY AND SIGNIFICANCE OF VISUALIZATION IN LANGUAGE LEARNING. DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1)

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ФАОЛИЯТИГА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Хуррамов Мусурмон Келдиёрович
Ўзбекистон халқаро ислом академияси
“Халқаро муносабатлар” кафедраси катта ўқитувчиси,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Аннотация

Мазкур мақола олий таълим муассасалари фаолиятига сунъий интеллект технологиясини жорий этишнинг ижобий ва салбий жиҳатлари, етакчи хорижий олий таълим муассасаларининг олий таълим тизимига сунъий интеллект технологиясини татбиқ этиш борасидаги тажрибалари ҳамда дарс жараёнида Chat GPT платформасидан фойдаланиш масалаларига бағишланган. Шунингдек, мақолада олий таълим муассасалари томонидан амалга оширилиши лозим бўлган дастлабки чора-тадбирлар ҳамда олий таълим тизимида сунъий интеллект платформалари имкониятларидан самарали фойдаланиш усуллари тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: *сунъий онг, ахлоқий мулоҳазалар, индивидуал таълим, маълумотларга асосланган таҳлил, интеллектуал тьюторлик тизимлари, Chat GPT.*

Аннотация

Данная статья посвящена положительным и отрицательным аспектам внедрения технологий искусственного интеллекта в деятельность высших учебных заведений, опыту ведущих зарубежных вузов по применению технологий искусственного интеллекта в системе высшего образования, а также использованию платформы Chat GPT в ходе занятий. Также в статье исследуются первоначальные меры, которые следует предпринять высшим учебным заведениям, и пути эффективного использования возможностей платформ искусственного интеллекта в системе высшего образования.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, этические рассуждения, персонализированное обучение, аналитика на основе данных, интеллектуальные системы обучения, Chat GPT.*

Annotation

This article is devoted to the positive and negative aspects of the introduction of artificial intelligence technologies into the activities of higher educational institutions, the experience of leading foreign universities in the use of artificial intelligence technologies in the higher education system, as well as the use of the Chat GPT platform during classes. The article also explores the initial steps that higher education institutions should take and how to effectively harness the power of artificial intelligence platforms in higher education.

Key words: *artificial intelligence, ethical considerations, personalized learning, data-driven insights, intelligent tutoring systems.*

Маълумки, сўнгги йилларда жадал ривожланаётган сунъий интеллект технологияси инсон фаолиятининг барча соҳаларига, жумладан, олий таълим тизимига ҳам чуқур кириб келмоқда. Айрим етакчи хорижий олий таълим муассасалари аллақачон сунъий интеллект технологиясини ўз фаолиятида қўллашни бошлаган бўлса, кўпчилик олий таълим ташкилотлари эса ҳали-ҳамон мазкур технологияни татбиқ этиш бўйича бир қарорга келмаган. Бунга олий таълим муассасаси ходимларнинг сунъий интеллектни ўз соҳаси доирасида қўллаш бўйича зарур билим, кўникма ва тажрибага эга эмаслиги, ахборотни ҳимоялаш бўйича янгича механизмлар ишга туширилмаганлиги ҳамда ҳар қандай янгиликка нисбатан инсонларда бўладиган табиий хавфсираш ҳолатлари сабаб бўлмоқда. Шунингдек, сунъий интеллектни жорий этиш олий таълим муассасаларига нима беради?, унинг ижобий ва салбий жиҳатлари нималардан иборат? деган саволлар ҳам кун тартибига чиқмоқда.

Шу нуқтаи назардан олиб қаралганда, **олий таълим муассасалари фаолиятига сунъий интеллект технологиясини татбиқ этиш уларга қуйидаги устунликларни тақдим этади[1, 27]:**

1. Индивидуал таълим (Personalized Learning): Сунъий интеллект талабаларнинг билим даражаси ва салоҳиятига қараб мослаштирилган ўқув дастури ва контентини яратиш орқали индивидуал таълимни таъминлашга ёрдам беради. Шунингдек, сунъий интеллект талабалар фаолиятини таҳлил қилиш, билим ва кўникмаларидаги камчиликларни аниқлаш ва таълим натижаларини яхшилаш учун мослаштирилган тавсиялар бериши мумкин.

2. Юқори самарадорлик (Enhanced Efficiency): Сунъий интеллект технологиялари баҳолаш, режалаштириш ва ҳужжатларни юритиш каби маъмурий вазифаларни автоматлаштириши мумкин. Бу эса, ўз ўрнида, олий таълим муассасаси профессор-ўқитувчилари ва ходимларининг иш юкини камайтириши ва меҳнат унумдорлигини ошириши мумкин.

3. Интеллектуал тьюторлик тизимлари (Intelligent Tutoring Systems): Сунъий интеллектга асосланган таълим технологиялари талабаларнинг сўровларига дарҳол жавоб қайтариши, таклиф ва тавсиялар бериши ҳамда йўл-йўриқлар кўрсатиши мумкин. Мазкур технология талабаларга ўз тезлигида таълим олиши учун қўшимча тушунтиришлар, интерфаол машқлар ва шахсий тавсияларни таклиф қилиши мумкин.

4. Маълумотларга асосланган таҳлил (Data-Driven Insights): Сунъий интеллект катта ҳажмдаги таълим маълумотларини тезкорлик билан қайта ишлаш қобилияти орқали таҳлилий ҳужжатларни осон ва вақт йўқотмасдан тайёрлаш имконини беради. Сунъий интеллект ёрдамида тегишли маълумот ва тенденцияларни таҳлил қилиш орқали олий таълим муассасасалари ўқув дастурларини такоммиллаштириш, талабаларнинг ўзлаштириш кўрсаткичларини ошириш ҳамда ўз фаолиятини яхшилаш учун маълумотларга асосланган қарорлар қабул қилиш имкониятига эга бўлади.

5. Фойдаланиш имконияти ва инклюзивлик (Accessibility and Inclusivity): Сунъий интеллект мукобил ўқув платформалари, мослашувчан ва ёрдамчи технологияларни тақдим этиш орқали ногирон ёки махсус эҳтиёжга эга бўлган талабаларнинг таълим олиш

жараёнини янада осонлаштиради. Бу инклюзивликни рағбатлантириши ҳамда таълим олиш имкониятини барча тоифадаги талабалар учун очиқ ва қулай қилиши мумкин.

6. Плагиатни аниқлаш (Plagiarism Detection): Сунъий интеллектга асосланган плагиатни аниқлаш воситалари профессор-ўқитувчиларга талабаларнинг ишини илмий ресурслар ва нашр этилган материалларнинг кенг маълумотлари базалари билан таққослаш орқали кўчирмачилик иллатларини аниқлашда яқиндан ёрдам беради.

Олий таълим суассасаларида сунъий интеллект технологиясини жорий этиш ўз ўрнида қуйидаги салбий оқибатларга ҳам олиб келиши мумкин:

1. Ахлоқий мулоҳазалар (Ethical Considerations): Олий таълимда сунъий интеллектдан фойдаланиш маълумотлар махфийлиги, алгоритмик тарафкашлик ва шаффофлик каби ахлоқий муаммоларни келтириб чиқаради. Олийгоҳлар сунъий интеллект тизимларини интеграция қилиш жараёнида ижтимоий адолат, жавобгарлик ва шаффофлик масалаларини жиддий ўйлаб кўриши ҳамда тақдим этилаётган маълумотлар ахлоқ қоидаларига зид бўлмаслигини таъминлаши жуда муҳимдир[2, 52].

2. Инсонлар ўртасидаги ўзаро мулоқотнинг етишмаслиги (Lack of Human Interaction): Сунъий интеллект талабанинг билим олиш бўйича тажрибасини яхшилаши мумкин, аммо у профессор-ўқитувчи ва талаба ўртасидаги ўзаро жонли мулоқотнинг ўрнини тўлиқ эгаллай олмайди. Аксарият талабалар ҳали ҳам профессор-ўқитувчилар ва тенгдошлари билан тўғридан-тўғри мулоқот қилишни хоҳлашади.

3. Реализация қилиш муаммолари (Implementation Challenges): Сунъий интеллект технологияларини мавжуд олий таълим тизимларига интеграция қилиш мураккаб жараён бўлиб, катта ресурс ва маблағ талаб қилиши мумкин. Шу сабабли олий таълим муассасалари сунъий интеллект технологияларини ўз фаолиятига самарали жорий этишлари учун инфратузилма, кадрлар тайёрлаш ва доимий техник таъминот тизимларига сармоя киритишлари лозим бўлади.

4. Иш жойини ўзгартириш билан боғлиқ муаммолар (Job Displacement Concerns): Сунъий интеллект маълум вазифаларни автоматлаштиргани сабабли, олий таълим муассасаси профессор-ўқитувчилари ва бошқарув ходимлари иш ўринларининг қисқариши ёки иш жойини ўзгартириш каби ҳолатлар юзага келади. Шунга қарамасдан, олийгоҳларда сунъий интеллект тизимини ишлаб чиқувчи дастурчилар, маълумот таҳлилчилари ва таълим технологлари каби янги иш ўринлари ҳам яратилиши мумкин[3, 112].

5. Технологияга ҳаддан ташқари ишониш (Overreliance on Technology): Тегишли текширув ўтказмасдан туриб сунъий интеллект тизимларига ҳаддан ташқари ишониш талабаларда танқидий фикрлаш, ижодкорлик ва муаммоли ҳолатларга ечим топиш каби қобилиятларнинг пасайишига олиб келади. Талабаларнинг самарали билим олишларини таъминлаш учун сунъий интеллект ва инсонга йўналтирилган таълим ўртасидаги мувозанатни сақлаш лозим бўлади[4, 67].

Таъкидлаш жоизки, олий таълим муассасаларида сунъий интеллектни жорий этиш билан боғлиқ ижобий ва салбий фикрларга қарамасдан, ҳозирги вақтда, етакчи хорижий олий таълим муассасалари сунъий интеллект технологиясини ўз фаолиятининг турли йўналишларига татбиқ этиб, профессор-ўқитувчилар ва талабаларнинг ҳаётини енгиллаштиришга ҳаракат қилишмоқда.

Масалан, **АҚШнинг Жоржия давлат университети** (Georgia State University) талабаларнинг ўзлаштириш кўрсаткичларини яхшилаш ҳамда уларнинг фанлардан академик қарздор бўлишининг олдини олиш мақсадида **“Поунс”** (Pounce) номли сунъий интеллект чатботини ишга туширган. Мазкур чатбот, бир томондан, талабаларга академик маслаҳат беради, иккинчи томондан эса, уларнинг ўзлаштириш кўрсаткичларини яхшилашга кўмаклашади. Шунингдек, Поунс талабаларга йўл-йўриқ кўрсатади, улар дуч келган муаммоларни ҳал этиш бўйича ечимлар таклиф қилади ва талабаларни тегишли манбаларга

йўналтиради. Чатботнинг ишга туширилиши университетда талабалар фаоллигининг ошишига ва академик натижаларининг яхшиланишига катта ҳисса қўшди[5, 48].

Австралиянинг Сидней технология университети (University of Technology Sydney) талабаларга индивидуал мослаштирилган ўқув контентини тақдим этиш учун сунъий интеллектни университетнинг онлайн ўқув платформасига интеграция қилган. Мазкур тизим талабаларнинг ўрганиш усуллари ва улар афзал кўрган ўқув ресурсларини таҳлил қилиб, тегишли ўқув материалларини қўшимча ўрганиш бўйича турли имкониятларни таклиф қилади[6, 95].

Лондон Империал коллежи (Imperial College London) амалга оширилаётган тадқиқот ишларида сунъий интеллект технологиясидан фойдаланишни йўлга қўйган. Коллеж тадқиқотчилари мураккаб маълумотлар тўпламини таҳлил қилиш, соғлиқни сақлаш, иқлимшунослик ва муҳандислик каби соҳаларда прогнозларни тўғри амалга ошириш учун машинани ўрганиш алгоритмларидан унумли фойдаланиб келмоқда. Сунъий интеллектга асосланган тадқиқотлар Лондон Империал коллежида турли илмий соҳаларнинг жадал ривожланишига катта ҳисса қўшиб келмоқда[7, 189].

АҚШнинг Иллинойс Урбана-Шампейн университети (University of Illinois Urbana-Champaign) онлайн имтиҳонлар учун сунъий интеллектга асосланган кузатув тизимини жорий қилган. Мазкур тизим имтиҳон жараёнлари давомида талабаларни масофадан туриб кузатади ҳамда потенциал фирибгарликнинг олдини олишга ёрдам беради. Сунъий интеллект талабаларни масофавий баҳолайди ҳамда академик ҳалоллик ва адолатни таъминлашга кўмаклашади.

Австралиянинг Декин университети (Deakin University) талабаларнинг руҳий саломатлиги ва фаровонлигини қўллаб-қувватлаш мақсадида сунъий интеллект технологиясидан фойдаланишни йўлга қўйган. Университет “Габби” (Gabby) исмли сунъий интеллектга асосланган виртуал маслаҳатчини ишга туширди. Ушбу маслаҳатчи руҳий ёрдамга муҳтож талабаларга психологик маслаҳатлар беради ва талабаларнинг ҳиссий ва руҳий зўриқиш ҳолатларининг олдини олишга кўмаклашади.

Норвегиянинг Берген университети (University of Bergen) хорижий тилларни ўрганиш курсларида сунъий интеллект технологиясидан фойдаланишни жорий этган. Сунъий интеллект асосида ишлайдиган платформа турли хорижий тилларни ўрганаётган талабалар учун мослашувчан машқлар, талаффуз бўйича фикр-мулоҳазалар ва матнга асосланган тил машғулотларини таклиф қилади[8, 32].

АҚШнинг Аризона давлат университети (Arizona State University) талабаларнинг таълим олиш жараёнини индивидуаллаштириш мақсадида сунъий интеллектга асосланган мослашувчан ўқув платформаларини жорий қилди. Ушбу платформалар университет онлайн таълим дастурлари самарадорлигини максимал даражада ошириб, тақдим этилаётган ўқув курсларининг мазмуни ва мураккаблик даражасини талабаларнинг билим даражасига мослаштирди[9, 123].

Сингапур Миллий университети (National University of Singapore) башоратли моделлаштириш усули орқали академик қарздор бўлиш хавфи юқори бўлган талабаларни аниқлаш мақсадида сунъий интеллектдан технологиясидан фойдаланишни йўлга қўйган. Сунъий интеллект академик қарздор бўлмаслик учун астойдил интилаётган талабаларга мақсадли ёрдам кўрсатиш орқали талабаларнинг умумий ўзлаштириш кўрсаткичларини яхшилашга ёрдам беради[10, 74].

Бундан ташқари, кўплаб хорижий олий таълим муассасаларининг профессор-ўқитувчилари дарс машғулотлари жараёнида **Chat GPT** (Chat Generative Pre-Trained Transformer) - сунъий интеллектга асосланган чатбот имкониятларидан самарали фойдаланиб келмоқда. Жумладан, профессор-ўқитувчилар Chat GPTни ўз фаолиятининг ёрдамчи воситаси сифатида қуйидаги кўринишларда қўллашлари мумкин:

- Chat GPT ёрдамида дарс машғулоти сценарийсини ишлаб чиқиш, маъруза ва мавзу бўйича тақдимот матнини тайёрлаш мумкин;

- Chat GPT воситасида тегишли мавзуга оид саволлар тузиш мумкин;

- Chat GPT ёрдамида жумбоқли кейслар, симулацион ўйинлар ва талабаларда қизиқиш уйғотадиган илғор ўқитиш усулларини яратиш мумкин;

- Chat GPT воситасида мустақил иш мавзулари, оралиқ ва якуний назорат саволларини тузиш мумкин;

- Хорижий тил ўқитувчилари Chat GPT ёрдамида тегишли мавзуга оид луғат тузиши, грамматик машқлар ҳамда талабаларда талаффуз кўникмалирини шакллантирадиган топшириқлар яратиши мумкин;

- Chat GPT воситасида тегишли мавзуга оид лойиҳа яратиш, мақола ва тезис мавзуларини шакллантириш мумкин.

Умуман олганда, сунъий интеллект ютуқларидан унумли фойдаланиш олий таълим муассасаларига кенг имкониятларни тақдим этади, бироқ сунъий интеллект технологиясини жорий этиш жуда катта маблағ талаб қилади. Шуни ҳам эслатиб ўтиш керакки, сунъий интеллект томонидан тақдим этилаётган маълумотлар ҳар доим ҳам тўғри бўлмаслиги мумкин. Шу сабабли, маълумотларни бир карра текшириб, муқобил маълумотлар билан таққослаб чиқиш лозим.

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда қуйидаги таклифлар илгари сурилади:

- Олий таълим муассасаларининг талабаларга хизмат кўрсатиш марказлари фаолиятини янада такомиллаштириш учун ОТМ платформасига сунъий интеллект технологиясини интеграция қилиш;

- Масофавий таълим шаклида таҳсил олаётган талабаларнинг фаолиятини тўлиқ назорат қилиш учун HEMIS ва ОТМнинг ўқув платформасига сунъий интеллект технологиясини жорий этиш;

- Олий таълим муассасаларининг тьюторлари ва психологлари фаолиятига ёрдам берадиган сунъий интеллектга асосланган чатботни ишга тушириш;

- Олий таълим муассасаларининг якуний назорат имтиҳонларида талабалар томонидан фрибгарлик ҳолатлари содир этилмаслигининг олдини олиш учун кузатув камераларига сунъий интеллект технологиясини интеграция қилиш;

- Олий таълим муассасаларининг сунъий интеллект технологиясини яхши тушунадиган ходимлари томонидан профессор-ўқитувчилар учун дарс машғулотлари давомида Chat GPT платформаси имкониятларидан кенг фойдаланиш масалалари юзасидан тушунтириш ва тарғибот ишларини ташкил этиш;

- Сунъий интеллект технологиясини олий таълим тизимида қўллаш бўйича билим ва тажрибага эга экспертларни жалб этган ҳолда олий таълим муассасаларининг илмий тадқиқотчилари томонидан сунъий интеллект технологиясини илмий ишларни ёзишда қўллаш бўйича семинар-тренинглар ташкил этиш.

- Инновацион ривожланиш агентлиги томонидан эълон қилинадиган амалий ва инновацион лойиҳалар танловининг “Ахборотлаштириш ва ахборот-коммуникация технологияларини ривожлантириш фанлари” йўналишига тақдим этилаётган сунъий интеллектга асосланган платформаларни олий таълим муассасалари фаолиятига жорий этиш мазмунидаги лойиҳаларни кўпроқ молиялаштириш;

- Олий таълимни ривожлантириш тадқиқотлари маркази томонидан “Олий таълим муассасалари фаолиятига сунъий интеллект технологиясини жорий этиш” номли методик қўлланма тайёрлаш.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. “Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning” edited by Rose Luckin, Wayne Holmes, Tiffany Barnes, and Xiangen Hu (2019), p.184.

2. “Artificial Intelligence in Education: 22nd International Conference, AIED 2021, Utrecht, The Netherlands, June 15–19, 2021, Proceedings” edited by Ken Holstein, Bodong Chen, Arvid Kappas, Sadhana Puntambekar, and Yanyan Li (2021), p.52-56.

3. “Intelligent Tutoring Systems: 15th International Conference, ITS 2021, Athens, Greece, June 22–27, 2021, Proceedings” edited by Ioannis M. Hatzilygeroudis, Sergey A. Karpov, George Pavlidis, and Antonija Mitrovic (2021), p.112-116.

4. “The Future of AI in Education: Ethical, Legal, and Social Issues” edited by Danilo Persi Paoli and Benedict du Boulay (2022), p.235.

5. “Artificial Intelligence and the End of Work: The Human Advantage” by Nigel M. de S. Cameron (2022), p.218.

6. “Artificial Intelligence in Education: 20th International Conference, AIED 2019, Chicago, IL, USA, June 25–29, 2019, Proceedings” edited by M. Felisa Verdejo, Stephanie D. Teasley, and Yanyan Li (2019), p.95-99.

7. “Artificial Intelligence in Education: 21st International Conference, AIED 2020, Ifrane, Morocco, July 6–10, 2020, Proceedings” edited by Dragan Gašević, Mathieu d’Aquin, Marek Hatala, and Olga C. Santos (2020), p.189-196.

8. “AI in Education: Promise and Implications for Teaching and Learning” edited by Tao Zhang and Stephen J.H. Yang (2019), p.194.

9. “Artificial Intelligence in Education: Cases from the Real World” edited by Wenhao David Huang, Blake Mason, Tiffany Barnes, and Min Chi (2022), p,124.

10. “Artificial Intelligence for Learning: How to use AI to Support Employee Development” by Michael Griffiths (2019), p.262.

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING MAZMUNI

Jo‘raboyev Sirojiddin Olim o‘g‘li
Abdurashidov Hasan Doniyor o‘g‘li
Maktab menejmenti yo‘nalishi 4-bosqich talabasi, Jizzax DPU
Ilmiy rahbar: Nazarov Toshpo‘lat
Maktab menejemnti kafedrasi o‘qituvchisi, Jizzax DPU

Annotatsiya

Mazkur maqolada shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshishni nazarda tutadi.

Kalit so‘zlar: *Shaxs, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, ta’lim texnologiyalari, metodika, o‘qitish texnologiyalari, o‘quv jarayoni.*

Abstract

In this article, person-oriented education, by its essence, envisages the full development of all participants of the educational process. This means that when designing education, it is necessary to approach based on the learning goals related to the future professional activity, and not the personality of a specific learner.

Key words: *Person, person-oriented education, educational technologies, methodology, teaching technologies, educational process.*

KIRISH. Ta’lim, axloq, kasbiy mahorat va o‘quvchilarning faoliyati va muloqotida o‘zini o‘zi belgilashni, o‘zini o‘zi o‘zgartirishni, insonning tabiiy In’omini ochish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Odamlarda (ayniqsa, bolalarda), shaxs sifatida o‘zini o‘zi anglashi, uchun genetik jihatdan ajralmas ehtiyoj bor. O‘quvchilarga mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar zarur lekin nafaqat maqsadlar, balki o‘z-o‘zini rivojlantirishni, o‘zini-o‘zi harakat

qilishni, o‘z taqdirini o‘zi belgilashning eng muhim vositasi bo‘lmog‘i lozim. Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘qituvchini o‘z o‘quvchilarini, har tomonlama o‘rganishga, ularning har birining tabiati, uning qiziqishlari, qobiliyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lishga yo‘naltiradi.

Shaxs tushunchasi «yuz», «soxta qiyofa» so‘zlaridan kelib chiqadi. Qadimgi rus tilida «soxta qiyofa» so‘zi «rol», ya’ni, odam boshqalar bilan muloqotda bo‘lganida kiyib oladigan biror-bir ijtimoiy niqob ma’nosini anglatuvchi «rol»ni bildirar edi. Lotincha persone so‘zi ham shu ma’noni anglatadi (Personare – niqob ortidan so‘zlashish). Qadimgi yunon, keyinchalik esa qadimgi rim teatrlarida aktyor sahnaga u yoki bu – yovuz, laganbardor, payg‘ambar, qahramon xarakterlari chizilgan niqobda chiqardi. Niqobning bo‘yoqlari ijtimoiy vazifani bajaruvchi, u yoki bu rolni ijro etayotgan insonning ahloqiy belgilariga ishorat edi.

Shaxsga yo’naltirilgan ta’lim deganda, biz ko’proq o’quvchilarning shaxsiy manfaatlari, ehtiyolarini nazarda tutamiz. Bunda ta’limning mazmuni o’quvchi shaxsining qiziqishlariga mos ravishda yo’naltirilishi, uning qiziqishlari va layoqatini qo’llab-quvvatlash bosh maqsad qilib olinadi. O’quvchining o’z-o’zini bilishi, shaxsining o’ziga xosligi, uning rivojlanish darajasi, kelgusidagi orzu-maqsadlariga erishish uchun qilayotgan xatti-harakatlari zamirida puxta bilim olish, ta’limning keyingi bosqichiga tayyorlanish mujassam. Uning qiziqishlari, fantaziyasi aniq maqsad sari yo’naltirilgan bo’lib, o’z manfaatlarini fanlardan davlat ta’lim standartlari talablari asosida nafaqat minimal darajadagi balki, maksimal darajadagi bilimlarni egallash bilan himoya qilishga qodir bo’lishi mumkin. Buning uchun esa, o’qituvchilar tomonidan ularning intilish va qiziqishlarini rag’batlantirib borish katta ahamiyat kasb etadi.

METODOLOGIYA.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi orqali ta’lim jarayonini amalga oshirishda o’quvchining bilim olish jarayonini o’z ichiga olgan, o’qituvchi – o’quvchi – o’qituvchi munosabati hamkorligi va erkin tanlash printsipi uni tanlagan sohasi bilan shug’ullanishdan zeriktirmaydi, bilimlarini takomillashtirish sari undaydi. Pedagog olimlar tomonidan ta’lim jarayonida shaxsga yo’naltirilgan yondashuvning asoslangan pedagogik texnologiyalari ishlab chiqilgan bo’lib, u quyidagilardan iborat: shaxsga yo’naltirilgan ta’lim; hamkorlik pedagogikasi; - adaptiv muloqot pedagogik texnologiyasi; o’yin texnologiyasi; rivojlangan o’qitish texnologiyasi; muammoli o’qitish texnologiyasi; differentsial o’qitish; individual o’qitish texnologiyasi. Ushbu yo’nalishlarning har birida ta’lim o’kuvchi shaxsining qiziqishi, qobiliyati, imkoniyati va shart-sharoitlari e’tiborga olinib tashkil etiladi. Ayniqsa, shaxsga yo’naltirilgan ta’limda o’quvchida mustaqil fikrlash orqali muammoli vaziyatlardan chiqishga intilish malakasini shakllantirishga alohida urg’u beriladi. Mustaqil o’qib-o’rganish, o’quv jarayonidagi qiyin vaziyatlarda o’qituvchining yordamisiz muammolarni hap qilishga urinish, shundan keyingina o’zining xulosalari to’g’riligiga ishonch hosil qilish uchun o’qituvchining yordamiga tayanish zarurligini anglatish muhimdir.

Ta’lim texnalogiyalarida o‘quvchining o‘quv jarayonida tutgan o‘rnini va pedagogning o‘quvchilarga nisbatan bo‘lgan munosabati muhim o‘rin tutadi. Bunda quyidagi texnalogiyalarni ajratish mumkin:

Avtoritar texnalogiya. Bunda pedagog o‘quv tartiblovchi jarayonining asosiy sube’kti, o‘quvchi esa, faqat ab’ekt sifatida qatnashadi. U o‘quvchilarning erkinligini bo‘g‘ishi, majburiy o‘qitish, tashabbusni bo‘g‘ish va o‘quv tarbiyaviy jarayonini (O‘TJ) qattiq qo‘llik bilan olib borishga asoslanadi.

Didaktotsentrik texnalogiyalar – o‘quvchi shaxsiga e’tibor bermaslik bilan ajralib turadi. Bunda ham sub’ekt-ab’ekt munosabat bo‘lib, shaxsni shakllantira olish, didaktik vositalaridan iborat bo‘ladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnalogiyalar – buning markazida o‘quvchi shaxsi uni rivojlantirish uchun, barcha sharoitlarni yaratish, uning tarbiyaviy salohiyatini namoyon qilishga yordam berish

yotadi. Bunda o‘quvchi shaxsi faqatgina sub’ekt bo‘lmay, prioritetga ega bo‘lgan sub’ekt bo‘ladi. Bunda u ta’limiy tizimning maqsadiga aylanadi. Bunday texnalogiyalar “antropoyentrik texnalogiyalar” deyiladi. Shunday qilib, shaxsga yo‘naltirilgan texnalogiyalar antropotsentrik, gumanistik va psixoterapistik, har tomonlama erkin, ijoddiy rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Insonparvar – shaxsiy texnalogiyalar – insonparvarlik mohiyati bilan ajralib turadi, unga yordam beradi, qo‘llab-quvvatlaydi. O‘quvchining kuchiga hurmat, undagi qobiliyatlarni ochilishiga yordam berish va majburiy ta’lim tarbiyani rad etadi.

Hamkorlik texnalogiyalar – u demokratizm, tenglik, g‘oyalarini ilgari suradi va o‘qituvchi o‘quvchi munosabatlarida sub’ekt – sub’ektga asoslanadi. O‘qituvchi va o‘quvchi ta’lim tarbiya maqsadi mazmunini ishlab chiqadi. Hamjihatlik bilan o‘z faoliyatlariga baho qo‘yadi.

Erkin tarbiya texnalogiyasi – bunda o‘quvchiga barcha yo‘nalishlar bo‘yicha erkin tanlash huquqi berladi. Tanlash davomida o‘quvchi sub’ekt nuqtaviy nazaridan namoyon qiladi va natijaga tashqi ta’sirdan emas, balki ichki kuch vositasida ergashadi.

Ezoterik texnalogiya – bular ezoterik (“anglanmagan, bilib turib”) blilimlarga – haqiqat va unga olib boruvchi yo‘llarga asoslanadi. Bunda pedagogik jarayon habar berish, muloqot qillishdan iborat bo‘lmay, balki, hqiqatga payvand bo‘lish bilan iborat bo‘ladi. Ekzotik paradigmada insoning o‘zi koinot bilan o‘zaro axborot almashish markaziga aylanadi. O‘rganuvchilar toifalariga ko‘ra pedagogik texnalogiyalar quyidagilarga bo‘linadi:

- Oilaviy (an’anaviy) texnalogiya – u o‘rtacha o‘quvchiga asoslangan.
- Axborotli texnalogiya darajasi (predmetlarni chuqurlashtirib o‘qitish) – gimnaziya, litsey, maxsus ta’lim.

Ushbu yo‘nalishlarning har birida ta’lim o‘quvchi shaxsining qiziqishi, qobiliyati, imkoniyati va shart-sharoitlari e’tiborga olinib tashkil etiladi. Ayniqsa, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda o‘quvchida mustaqil fikrlash orqali muammoli vaziyatlardan chiqishga intilish malakasini shakllantirishga alohida urg‘u beriladi. Mustaqil o‘qib-o‘rganish, o‘quv jarayonidagi qiyin vaziyatlarda o‘qituvchining yordamisiz muammolarni hal qilishga urinish, shundan keyingina o‘zining xulosalari to‘g‘riligiga ishonch hosil qilish uchun o‘qituvchining yordamiga tayanish zarurligini anglatish muhimdir.

O‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo‘llash, o‘qitish jarayonini yagona shaklga keltirish va yuqori samaradorlikka erishishga imkon yaratadi. O‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalariga quyidagi asosiy tamoyillar xos bo‘ladi:

- insonparvarlik, ya’ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko‘rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo‘rlashdan to‘la voz kechish;

-hamkorlik, ya’ni pedagog va o‘quvchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;

-erkin tarbiyalash, ya’ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta’sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi - pedagogik jarayonda o‘quvchiga insoniyshaxsiy yondashuv hisoblanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda o‘qituvchi o‘z-o‘zini o‘zgartiradigan o‘quvchining yangi holatga o‘tishini ta’minlaydi, sharoit yaratadi, o‘z-o‘zini o‘zgartirish jarayonini madaniy shakllarga beradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi asosan o‘quvchilarda bilim, ko‘nikmalarni shakllantiradi, ular shaxsini rivojlantirishni ko‘zda tutmaydi. O‘zo‘zidan ko‘rinadiki, an’anaviy o‘qitish texnologiyasi o‘z tabiatiga ko‘ra ta’lim muassasalari oldiga hozirgi kunda jamiyatimiz tomonidan qo‘yilgan talablarga butunlay javob bermaydi. Bundan farqli o‘laroq shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarda o‘quvchi ta’limning milliy modeli mohiyatiga ko‘ra pedagogik jarayon markaziga qo‘yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratib beriladi. Ta’limning milliy modelini – shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan, ishlab chiqarishdan iborat 5 ta tarkibiy qismida «shaxs» asosiy tarkibiy

qism – birinchi o‘rinda turadi. Boshqacha aytganda, butun ta’lim tizimi, shu jumladan o‘qitish o‘quvchi shaxsiga yo‘nartirilgan bo‘lishi lozim. Ammo, ta’limning milliy modelida shaxsga asosiy, hal qiluvchi o‘rin berilgandan so‘ng bu texnologiyalarning har birini shaxsning mavjud imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish bo‘yicha ahamiyati yanada oshdi. Ayni paytda hozirgi kunda axborotning hajmi, xilma-xilligi, uni egallashga moyilligi va vositalarining yetarliligi, samarali indivudual va mustaqil o‘qitishni tashkil etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilganligi munosabati bilan pedagogning o‘quvchiga bo‘lgan munosabati jihatidan uning hamkoriga aylanmoqda. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarining kommunikativ asosi – pedagogik jarayonda o‘quvchiga insoniy-shaxsiy yondashishdir.

Xulosa qilib aytish mumkin o‘rnatilayotgan yangicha munosabatlarning asosiy mazmuni, hozirgi kunda natija bermaydigan va noinhisoblangan zo‘ravonlik pedagogikasidan voz kechishdir, chunki tarbiya jarayonida zo‘ravonlik aslo mumkin emas, jazolash insonni kamsitadi, ezadi, uning rivojlanishini susaytiradi. Noan’anaviy ta’lim o’quvchilarni faqat bilim, ko’nikma, malakalar bilan qurollantirishni ko’zda tutmasdan, balki darsda vujudga keltiradigan muammoli vaziyatlarni o’quvchilar avval o’zlashtirgan bilim, ko’nikma, malakalarni kutilmagan vaziyatlarda ijodiy qo’llashlari orqali ijodiy faoliyat tajribalari, o’quvchilarning mustaqilligi, o’quvbilish motivlarini, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga, mustaqil izlanish yo’lini o’zlashtirishga imkon beradigan murakkab jarayondir. Isloh qilinayotgan ta’lim muassasalarida o‘quvchi yoshlarni erkin, majburlashsiz o‘qitish, ularning shaxsiga indivudual yondashishning mazmun-mohiyatini namoyon qilish hozirgi davrda juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyoting muhim omili. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30-dekabr kuni mamlakatning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashdi. – Xalq so‘zi. – 2016. – 31 dekabr.

2.«Boshqaruvning pedagogik-psixologik xaritasi» nomli yo‘riqnoma, professor E.G‘ozievning «Psixologiyaning megodologik asoslari» nomli risolasidan olindi. 70- 75-betlar

3.Botirov, BF, Usmonov, J., & Ablyakimova, RI (2021). O‘zbekistonda turizm xizmatlarini milliy uslublar va zamonaviy innovatsiyalar uyg‘unligi asosida tashkil etish. XALQARO ILMIY-JORIY TADQIQOT KONFERENTSIYALARI, 53–57.

4.Ablyakimova, R. (2020). VIEW AND THEORIES ON FACTORS INFLUENCING MANAGEMENT DECISION-MAKING. Архив Научных Публикаций JSPI, 11(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/1052.

5.Аблякимова, Р., & Alimova, Q. (2021). TA’LIMDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA KORPORATIV BOSHQARUV. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1). извлечено от https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1535

6. CHoriev A., CHoriev N. Pedagogika tarixi metodologiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. – T.: “Fan” nashriyoti, 2010. – 173 b

7.G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.

PEDAGOGIKA FANLARINI O‘QITISHDA TA’LIMIY METODLARDAN FOYDALANISH

Anorboyeva Xulkar O‘ktam qizi

Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 2-bosqich magistri, Jizzax DPU

Ilmiy rahbar: Boyto‘rayeva Nasiba

Pedagogika ta’limi nazariyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD, JizzaxDPU

Annotatsiya:

Ushbu maqolada pedagogika fanlarini o‘qitishda ta’limiy metodlardan foydalanishning zarurati hamda bugungi kundagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Bundan tashqari maqolada

pedagogika fanida o‘qituvchilarning amaliy tajribasini o‘rganish va umumlashtirish asosida ta’lim metodlarini tanlashning ahamiyati haqida ham ma’lumotlar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *pedagogika fanlarini o‘qitish, ta’limiy metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, o‘qitish metodikasi*

Abstract:

This article talks about the necessity and importance of using educational methods in the teaching of pedagogical sciences today. In addition, the article examines the importance of choosing educational methods based on the study and generalization of the practical experience of teachers in the field of pedagogy.

Key words: *teaching of pedagogic subjects, educational methods, competence approach, teaching methodology*

Mamlakatimizda jahon talablari darajasida ta’lim-tarbiya olishi va kasb-hunar egallash, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar mavjud. Yangi sharoitlardan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, ta’lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta’lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv bo‘yicha takomillashtirish va amaliyotga joriy etishni taqozo etib kelmoqda. Bu haqida Prezident Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha ta’kidlaydi: “Barchamiz yaxshi tushunamiz, ta’lim-tarbiya har qaysi davlat va jamiyatning nafaqat bugungi, balki ertangi kunini ham hal qiladigan eng muhim ustuvor masaladir. Shuning uchun mamlakatimizda bu masalaga jiddiy e’tibor qaratilmoqda”[1]

Pedagogika fani o‘qituvchilarining mavjud amaliy tajribalari, shuningdek, oliy o‘quv yurtlari didaktikasi bo‘yicha individual tadqiqotlar pedagogika o‘qitish metodikasi bo‘yicha nazariy qoidalar, tamoyillar, qoidalar va tavsiyalarni tizimlashtirish imkonini berdi.

Pedagogika fan sohasida ma’lum o‘quv fanini o‘qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, matematika metodikasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi va shu kabilar. “Metodika” tushunchasi turli fanlarni o‘qitish bilan ham bog‘liklikda qo‘llanilib, ma’lum sohani o‘qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig‘indisini o‘zida ifoda etadi. Pedagog olim A.M.Stolyarenkoning fikricha, “O‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi ma’lum bir pedagogik vazifalarni hal etish bilan bog‘liq metod, metodik usullar, vosita va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir[25].

G.M.Kodjaspirova, A.Yu.Kodjaspirovlarning fikricha, “O‘qitish metodikasi pedagogik faoliyatni amalga oshirishning aniq usullari, uslublari va texnikasidir”.

O‘qitish metodikasiga qo‘yiladigan zaruriy talablarga quyidagilar kiradi: 1)aniqlik; 2)asoslanganlik; 3)rejalashtirilgan harakatning maqsad va vazifalarga mosligi; 4)qayta ishlab chiqishga yo‘nalganlik; 5)hayot bilan uyg‘unlik; 6)natijaviylik.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, o‘qitish metodikasi o‘zida quyidagilarni aks ettiradi:

– ta’limning maqsad va vazifalarini
– ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, tashkiliy;
– ta’limning qonuniyat va tamoyillarini;
– ta’lim mazmunini;
– ta’limni tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllarini;
– ta’limning umumiy va xususiy metodlarini;
– o‘quv vositalari;
– o‘qitish natijasini.

Metodologiya (yunoncha. methodos — nazariya, ta’limot, bilish yoki tadqiqot yo‘li va logos — so‘z, tushuncha): 1) amaliy va nazariy faoliyatni qurish va tashkil etish yo‘llari va prinsiplar

[25] Столяренко А.М. С81 Психология и педагогика: Учеб.пособие для вузов. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004. - 423 с. ISBN 5-238-00259-9

tizimi; 2) bilishning ilmiy metodi to‘g‘risidagi ta’limot; 3) u yoki bu fanda qo‘llaniladigan metodlar yig‘indisi ma’nolarini anglatadi.

Ta’lim nazariyasida o‘qitish (ta’lim metodlari) muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim metodi ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning aniq maqsadga erishishiga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyatlarining usuli ekanligini bilamiz. Ta’lim metodlari o‘qitish va o‘qishning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish yo‘llari hamda o‘quv materialini nazariy va amaliy tomondan yo‘naltirish yo‘llarini bildiradi va ko‘maklashadi. Ta’lim metodlari ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining qanday bo‘lishi, o‘qitish jarayonini qanday tashkil etish hamda olib borish lozimligini va shu jarayonda o‘quvchilar qanday ish harakatlarni bajarishlari shartligini ko‘rsatib beradi.

Pedagogik ensiklopediyada izohlanishicha, ta’lim metodi o‘qituvchi o‘quvchining ta’lim mazmunini o‘zlashtirishga qaratilgan o‘zaro aloqador, ma’lum ketma-ketlikdagi faoliyati tizimidir. O‘qitishda ta’limiy metodlarning tasnifi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida mamlakatimizdagi ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya ishlarini tubdan yaxshilash, jahon andozalari talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash kabi ulug‘vor vazifalar qo‘yilgan[2].

Mazkur vazifalarni bajarish uchun, eng avvalo, ta’lim-tarbiya usullarini takomillashtirish, yangilarini izlab topish va ulardan samarali foydalanishni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogika fanida ta’lim metodlarini va usullarini tasnif etish masalalari ham alohida muammo sifatida o‘rganilgan. Turli yillarda faoliyat ko‘rsatgan turli tadqiqotchilar tomonidan ta’lim metodlari turlicha tasnif etilgan. Ya’ni, pedagogikada o‘qitish metodlarini tasnif etishga oid turli-tuman qarashlar mavjud bo‘lib, ba’zi olimlar o‘qitish metodlarini tasnif etishda bilim manbalarini hisobga olgan bo‘lsa, ayrimlari esa o‘qituvchi faoliyatini, uchinchi guruh olimlar esa o‘quvchilar faoliyatini e’tiborga olgan.

O‘qitish usullariga bunday qarashlarning ko‘p va rang-barang bo‘lishi tabiiy, chunki o‘qitish metodlari mazmunan boy hodisa bo‘lib, ular ma’lumot mazmuni bilan ham, O‘qituvchi hamda o‘quvchi faoliyati bilan, bilim va malakalar bilan, qolaversa, ijodiy qobiliyatlarni, munosabatlarni rivojlantirish ishlari bilan bog‘lik bo‘lgan tushuncha sanaladi. Shu bois ta’lim metodlarini tasnif etish bo‘yicha yagona yondashish mavjud emas. Didaktikada ta’lim metodlarini bilimlar manbai, didaktik maqsadlar, bilish faoliyatining saviyasi bo‘yicha farqlash mavjud.

Ta’lim metodlarini bilish manbalari bo‘yicha tasniflash sodda jarayon bo‘lib, ular maktab amaliyotida keng tarqalgan. Masalan, taniqli pedagog olimlardan S.I. Perovskiy, Ye.Ya.Golant va boshqalar o‘qitish usullarini tasnif etishda ta’lim manbalarini hisobga olishgan. O‘qituvchi nutqi, ko‘rgazma qurol, darslik hamda qo‘shimcha adabiyotlarni ta’lim manbai sifatida ekanligini O.Roziqov va boshqalar tomonidan tuzilgan “Umumiy didaktika” o‘quv adabiyotida alohida ta’kidlangan. Didaktikada ta’lim jarayonining turli bosqichlarida bajariladigan ishlar mazmunidan kelib chiqib, o‘qitish usullarini tasnif etish g‘oyasi ham mavjud.[4]

Pedagogika fanida o‘qituvchilarning amaliy tajribasini o‘rganish va umumlashtirish asosida ta’lim metodlarini tanlashga o‘quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog‘liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

- zamonaviy didaktikaning yetakchi g‘oyalari, ta’lim, tarbiya va rivojlantirishning umumiy maqsadlari;
- o‘rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o‘ziga xosligi;
- xususiy fanlar metodikasining o‘ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo‘yiluvchi talablarning o‘zaro aloqadorligi;
- muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni;
- u yoki bu mavzuni o‘rganishga ajratilgan vaqt;
- o‘quvchilarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darajasi;
- o‘quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi;

- o‘quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta’minlanganlik darajasi, jihozlar, ko‘rsatmali qurollar, texnik vositalarning mavjudligi;

- o‘qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darjasi, pedagogik mahorati, shaxsiy sifatlari;

- o‘quv muassasalarida fanlararo hamkorlikning o‘rnatilganligi.

O‘qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda og‘zaki, ko‘rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini nazorat va o‘zo‘zini nazorat metodlarini tanlash borasida aniq yechimlar qabul qiladi.

Ta’lim metodlari pedagogning imkoniyatlarini kengaytiradi, vaqtini tejaydi. Mashg‘ulot jarayonlarida professor-o‘qituvchiga darsni qulay boshqarish imkonini beradi, unga faollik kasb etish bilan bir qatorda ta’limning mazmun-mohiyatini belgilab beradi. [3]Jumladan:

- Ta’lim motivlari kuchi o‘quvchining bilim olish yo‘lidagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishga bo‘lgan intilishilari uning davomiyligi bilan belgilanadi.

- O‘qitish jarayoni pedagog, ta’lim oluvchi va o‘qitish vositalarining o‘zaro ta’siridan iborat.

- O‘qitish jarayoni pedagog, ta’lim oluvchi va o‘qitish vositalarining o‘zoro ta’siridan iborat bo‘lib, hozirgi zamon axborot texnologiyalari imkoiyatlari o‘qitish vositalariga o‘qituvchi va ta’lim oluvchi vazifalarining bir qismini yuklash imkonini beradi.

- Ta’lim metodlari darslarning qulayligini ta’minlaydi. Unda o‘quvchining o‘quv materiallarini o‘zlashtirishi doimiy ketma-ket kuzatishga, nazorat olib borishga, kerak holarda tuzatishlar kiritib borishga imkoniyat yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-sentabrdagi 1-Oktabr ‘‘Ustoz va murabbiylar’’ kuni bayrami tabrigidan

2. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni 2020 yil 20-sentabr

3. O. Roziqov, B.Adizov va G.Najmiddinovalarning "Umumiy didaktika" Buxoro, “Durdona” nashriyoti, 2012-yil 78-79 bet

4. DAVR, ZAMON, SHAXS “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot: transformatsion va innovatsion jarayonlar” mavzusidagi respublika ilmiy anjumani maqolalar to‘plami “O‘qitishda ta’limiy metodlarni muvofiqlashtirishning ilmiynazariy asoslari” 2021-yil 3-qism 443-448 bet

5. Pedagogika tarixi Q. Hoshimov va boshqalar T: O‘qituvchi, 1996. 425-426 betlar.

6. N.S.Atayeva, F.RasuIova, M. Salayeva, S.Hasanov. Umumiy pedagogika. (Pedagogika tarixi). O‘quv qo‘llanma. I kitob. -T .: «Fan va texnologiya», 2012 y, 242-243 betlar

BOSHQARUV BILIM VA KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Tursunov Diyor Sunnatovich
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, Jizzax DPU
Asqarova Fayyoza
Ta’lim muassasalarining boshqaruvi magistrate, Jizzax DPU

Annotatsiya:
Maqolada boshqaruv bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy jihatlari hamda boshqaruvda bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun bir nechta usullari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *boshqaruv, bilim va ko‘nikma, ta’lim, boshqaruv faoliyati, ta’lim xizmatlari*

Abstract:
The article presents theoretical aspects of management knowledge and skills development and several methods for development of management knowledge and skills.

Key words: *management, knowledge and skills, education, management activities, educational services*

Jahon amaliyotida ta’lim jarayonlarini boshqarishda axborot texnologiyalaridan foydalanish bo’yicha tadqiqotlar alohida ahamiyatga molikdir. Ta’lim tizimini isloh qilishning muhim yo’nalishlaridan biri axborot- kommunikatsiya texnologiyalari bilan o’quv jarayonini tizimli integratsiyalash hisoblanadi. Bunda o’quv jarayonini tashkil etish va uning mazmunini tubdan yangilash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitida o’qituvchining pedagogik faoliyati va ta’lim oluvchining ta’lim olish jarayonini tashkil etish hamda boshqarish strategik masala sifatida namoyon bo’ladi.

Bugungi kunda dunyoda turli sohalarda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish sifati jamiyatning iqtisodiy va boshqaruv sohalari darajasiga ta’sir ko’rsatishi bilan aniqlanadi. Evropa va boshqa rivojlangan mamlakatlar oliy ta’lim muassasalari o’quv jarayonini virtual loyihalash (Simulations), ta’lim jarayoniga masofaviy ta’lim (Moodle, Ilias, Dokeos va h.q.) shakllarini keng tatbiq etish, elektron ta’lim muhiti (e-learning) sharoitida ta’limning uzluksizligi va amaliy yo’nalganligini, ta’lim oluvchilarning ijodiy obiliyatlarini hamda kasbiy kompetensiyalar tizimini rivojlantirishda zamonaviy bulutli texnologiyalar va bulutli hisoblashlardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etib bormoqda. Tadqiqot natijalari zamonaviy axborot texnologiyalar asosida ta’lim jarayonini boshqarish bo’yicha optimal yondashuvlar bilan bog‘liq ilmiy ishlanmalar ko’lamini oshirishga alohida e’tibor qaratilganligini ko’rsatdi.

Bugungi kunda ta’limga kompetensiyaviy yondashuv asosida rahbarlarning raqobatbardoshligini oshirish, ularda ijodiy muhitni shakllantirish, kasbiy faoliyat sohalariga sog‘lom muhitni yaratish orqali kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, ta’lim sifatini ta’minlash va samaradorlikga erishish masalalari dolzarb yo’nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Ana shu nuqtai-nazardan ilg‘or xorijiy tajribalar asosida boshqaruv faoliyatini modernizatsiyalash, rahbarlarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik holatlarini o’rganish, ijodiy ko’nikma va malakalarini shakllantirish, boshqaruv faoliyatida sog‘lom va ijodiy muhitni yaratish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Ta’lim xizmatlari shaxs, jamiyat va davlatning ta’lim borasidagi turli ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalaniladigan bilim, qobiliyat va ko’nikmalar tizimidir. Ta’lim sohasidagi xizmatlar ta’lim oluvchilarning bilim olish borasidagi manfaatlarini amalga oshirishni ta’minlaydi, shaxsning o’z yo’lini belgilashi va qobiliyatini namoyon etishi uchun shartsharoit yaratib beradi.

Mamlakatimizda muayyan ta’lim darajalari belgilangan, shuningdek, ularning ayrimlari majburiy tarzdadir. Chunonchi, umumiy o’rta ta’lim majburiy ta’lim sirasiga kiradi. Ta’lim muassasalarining davlat tasarrufidagilarida ham, davlatga qarashli bo’lmaganlarida ham ta’lim xizmatlari ko’rsatiladi. Bunda har bir sub’ekt o’z shaxsiy intilishlariga, shuningdek, moliyaviy imkoniyatlariga javob beradigan xizmatlarning konkret turini tanlashga haqlidir.

O’zbekistonda uchinchi Renesans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsad qo’yilgan ekan, ta’lim menejmenti yo’nalishida rahbar kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, hamda boshqaruv faoliyatiga bo’lgan talabni qamrab olish darajasini kuchaytirish bilan birga zamonaviy raqobatbardosh rahbarlarni tayyorlashga qaratilgan. Tub islohotlar jamiyatning maktab ta’limiga bo’lgan talabini qamrab olish darajasini ko’p jihatdan «Xalq ta’limi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish» kabi vazifalar belgilandI.[1]

Bu borada boshqaruv faoliyatini rivojlantirish va zamonaviy talablarga mos ta’lim tizimini yaratish bo’yicha qabul qilinayotgan qonun, farmoyish va qarorlarda ham maktab jamoasini boshqarishda shaffof, sog‘lom va ijodiy muhitni yaratishda jamoatchilikka ochiq bo’lishini ta’minlash, ta’lim sifatiga va samarasiga ta’sir qiluvchi muammolarni bartaraf etish uchun umumta’lim maktab rahbarlarining faoliyati samaradorligini oshirish vazifalari belgilanmoqda.

Boshqaruv bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, har qanday tashkilotning muvaffaqiyati uchun muhim hisoblanadi. Bugungi kunda pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda faoliyat olib borish, zamonaviy boshqaruv tizimlarini takomillashtirish imkonini beradi.

Boshqaruvda bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish tashkilotning samaradorligini oshirish va uning maqsadlariga erishishda muhim ahamiyatga ega. Quyida boshqaruvda bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun bir nechta usullar keltirilgan:

1. Boshqaruv xodimlari uchun maxsus treninglar, seminarlar va kurslar tashkil etish. Boshqaruv xodimlari uchun maxsus treninglar, seminarlar va kurslar tashkil etish muhim bir jarayon bo‘lib, bu jarayon xodimlarning professional malakasini oshirish, rahbarlik ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda tashkilotning umumiy samaradorligini yaxshilashga yordam beradi.

2. Tajribali rahbarlar yangi xodimlarga o‘z tajribalarini ulashish orqali ularning o‘sishiga yordam beradi. Bu mentorlik jarayoni, yangi xodimlar uchun yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, masalalarni qanday hal qilishni o‘rgatish, shuningdek, qaror qabul qilishda yordam berishni o‘z ichiga oladi.

3. Xodimlarga turli loyihalarda ishtirok etish imkoniyatini berish, bu orqali ular nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

4. Tashkilot ichidagi seminarlar va yig‘ilishlar: Muntazam ravishda o‘zaro fikr almashish, tajribalar bilan bo‘lishish va yangi g‘oyalarni muhokama qilish uchun yig‘ilishlar o‘tkazish.

5. Innovatsiyalarni rag‘batlantirish: Yangi g‘oyalar va yondashuvlarni qabul qilishga ochiq bo‘lish, xodimlarni innovatsion fikrlashga undash.

6. O‘z-o‘zini baholash: Boshqaruvchilardan o‘z faoliyatlarini baholashlarini so‘rab, ularga o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini berish.

7. Liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish: Rahbarlik qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan maxsus dasturlar orqali xodimlarni tayyorlash.

8. Jamoaviy ishni rivojlantirish: Jamoaviy ish ko‘nikmalarini oshirish uchun guruh faoliyatlari tashkil etish va jamoada ishlash madaniyatini yaratish.

9. Axborot texnologiyalaridan foydalanish: Boshqaruv jarayonlarini samarali boshqarishga yordam beradigan yangi texnologiyalarni o‘rganishni rag‘batlantirish.

10. Fikr almashishni rag‘batlantirish: Ochiq muloqotni ta’minlash, xodimlarning fikrlarini tinglash va ularga qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etishga imkon yaratish.

Bu usullar boshqaruvchilarning bilimlari va ko‘nikmalarini oshiribgina qolmay, balki tashkilotning umumiy muvaffaqiyatiga ham hissa qo‘shadi.

Menejmentning maqsadi inson faoliyatining har qanday tashkiloti va sohasida boshqaruvning universal tamoyillarini shakllantirish va qo’llashdan iborat bo’lib, ular quyidagilarni o’z ichiga oladi: boshqaruvning maqsad va vazifalarini aniqlash; ularga erishish uchun aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish; vazifalarni alohida turdagi operatsiyalarga bo’lish, ishlarni taqsimlash; tashkilot ichidagi turli bo’limlar o’rtasidagi o’zaro hamkorlikni muvofiqlashtirish; rasmiy ierarxik tuzilmani takomillashtirish, qarorlar qabul qilish va aloqa jarayonlarini optimallashtirish; faoliyat uchun yetarli motivatsiyani izlash va boshqalar. Funktsional nuqtai nazardan, bu maqsadni shakllantirish va unga erishish uchun zarur bo’lgan rejalashtirish, motivatsiya va nazorat qilish jarayoni sifatida ishlaydi.

Boshqaruv aqliy mehnat bo’lib, uning natijasida boshqaruv jarayoni amalga oshiriladi. Boshqaruv jarayoni - bu kelajakdagi faoliyatni prognoz qilish, maqsad qo’yish va unga erishish yo’llarini ishlab chiqish, uning haqiqiy natijasini tahlil qilishgacha bo’lgan ketma-ket harakatlarni uzluksiz amalga oshirishdir[2].

Menejment turli xil yondashuvlardan ko’rib chiqiladi: "mehnat, aql, boshqa odamlarning xatti-harakatlari motivlaridan foydalangan holda maqsadlarga erishish qobiliyati"; "ko’plab turli xil tashkilotlarda insonlarni boshqarish bo’yicha boshqaruv, funktsiya, faoliyat turi"; "Ushbu funktsiyani bajarishga yordam beradigan inson bilimlari sohalari"[3]

Jahon amaliyotida menejment tashkilotning unumli va samarali ishlashi uchun intellektual, moddiy va moliyaviy resurslarni safarbar etish bo’yicha fan, san’at va faoliyat sifatida qaraladi. Biz unda ikki yo’nalish sintezini ko’ramiz: tijorat-iqtisodiy yoki tashkiliy-texnik va psixologik-pedagogik, odamlarni boshqarish, maqsadga erishish uchun jamoani tashkil qilish bilan bog‘liq [4].

Masalan, ta’limda qo’llanilishi mumkin bo’lgan menejmentning eng to’liq ta’rifini biz taniqli amerikalik menejment nazariyotchisi P.Drukerda ko’ramiz, u zamonaviy sharoitda menejment boshqaruv faoliyatining o’ziga xos turi bo’lib, u insonga yo’naltirilgan va birgalikda harakat qilish, ularning sa’y-harakatlarini samarali qilish va o’ziga xos zaif tomonlarini yumshatish qobiliyatiga ega bo’lishga qaratilgan, chunki insonning jamiyatga hissa qo’shish qobiliyati korxonani boshqarish samaradorligiga, xuddi o’z sa’y-harakatlari va qayta ishlashga bog‘liq[2].

Xulosa qilib aytganimizda, boshqaruv jarayoni uzluksiz jarayon. Boshqaruvda bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish tashkilotning samaradorligini oshirish va uning maqsadlariga erishish muhim ahamiyatga ega. Shundey ekan biz yuqorida keltirilgan usullarni boshqaruv jarayonida qo‘llasak ijobiy natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son farmoni

2. Prokofyeva J.V. Boshqaruv / [J.V.Prokofyeva]. - M.: Bilim, 2000-288 b

3. Meskon M.X., Albert M., Xedouri F. Menejment asoslari: per. ingliz tilidan. - M.: Delo, 1993. – 701

4. Chelnokova E.A., Korovina E.A., Agaev N.F. Pedagogik menejment o‘qituvchining boshqaruv faoliyatining bir turi sifatida. Konferentsiya. Zamonaviy ilmiy texnologiyalar № 12, 2015 y.

5. Druker Piter F. 21-asrda boshqaruv muammolari: Per. ingliz tilidan: - M .: Uilyams nashriyoti, 2004. - 272 b.

APPLICATION OF THE INDIVIDUALLY DIFFERENTIATED METHOD IN ORGANIZING INDEPENDENT WORK OF STUDENTS IN TEACHING ENGLISH IN TECHNICAL INSTITUTIONS

Yagyayeva Elvina Baxtiyarovna
Doctoral student of FSU, teacher of English of FerPI
eyagyaeva@mail.ru

Abstract:
This article examines the effectiveness of the application of an individually differentiated method in the organization of independent work of students of technical universities in Uzbekistan. The analysis of existing research and methods aimed at improving the quality of independent work of students is carried out. The results of the implementation of an individually differentiated approach in the educational process are presented.

Keywords: *independent work, individually differentiated method, technical universities, Uzbekistan, higher education*

Annotatsiya:
Ushbu maqolada O‘zbekiston texnik oliy o‘quv yurtlari talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etishda alohida tabaqalashtirilgan usuldan foydalanish samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Talabalarning mustaqil ish sifatini oshirishga qaratilgan mavjud tadqiqotlar va usullar tahlili o‘tkazildi. O‘quv jarayoniga individual tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *mustaqil ish, alohida tabaqalashtirilgan usul, texnik oliy o‘quv yurtlari, O‘zbekiston, oliy ta’lim*

Аннотация:
В данной статье рассматривается эффективность применения индивидуально-дифференцированного метода при организации самостоятельной работы студентов технических вузов Узбекистана. Проведен анализ существующих исследований и методов,

направленных на повышение качества самостоятельной работы студентов. Представлены результаты внедрения индивидуально-дифференцированного подхода в учебный процесс.

Ключевые слова: *самостоятельная работа, индивидуально-дифференцированный метод, технические вузы, Узбекистан, высшее образование*

INTRODUCTION. In today's globalized world, proficiency in foreign languages is becoming increasingly important for technical students. While traditional classroom instruction has its merits, fostering independent work can significantly enhance language acquisition, particularly in technical contexts. Independent work of students is an integral part of the educational process in higher education institutions. This is especially relevant for technical universities, where the volume of independent work is significantly higher than in other areas of training [Abdullaev A.A., 2020. P. 55-58]. Effective organization of independent work of students contributes to the development of their professional competencies, creative thinking and independence [Sharipov Sh.S., 2019. P. 24-26]. Independent work allows students to take ownership of their learning. For technical students, who often have specialized areas of study, integrating foreign language skills with their technical knowledge is essential. Independent work encourages learners to apply language skills in practical situations, thereby enhancing their communicative competence and understanding of technical terminology in a foreign language. Moreover, independent learning cultivates critical thinking and self-discipline. Students need to develop the ability to set goals, manage their time effectively, and seek resources independently, which are all crucial skills in both academic and professional settings.

One of the promising methods of organizing independent work of students is an individually differentiated approach. It allows taking into account the individual characteristics and needs of each student, which helps to increase motivation and quality of education [Polat E.S., 2010. P 224]. However, despite the obvious advantages, this method is not yet widely used in technical universities of Uzbekistan.

MATERIALS AND METHODOLOGY. The problem of organizing independent work of students in higher education is actively studied by both domestic and foreign scientists. In the works of A.A. Abdullaev [Abdullaev A.A., 2020. P. 35-38], Sh.S. Sharipov [Sharipov Sh.S., 2021. P. 21-24], M.G. Davlyatova [Davlyatova M.G., 2018.P. 156-161] various aspects of independent work of students, its role in the formation of professional competencies are considered.

Foreign studies also pay much attention to the problem of organizing independent work of students. In particular, the works of P. Ramsden [Ramsden P., 2003. P 288], D. A. Kolb [Kolb D.A., 2014. P 416] emphasize the importance of taking into account the individual characteristics of students when organizing their independent work. However, despite the fairly wide coverage of the problem in the scientific literature, the issues of the effective use of the individually differentiated method in organizing independent work of students of technical universities in Uzbekistan require further study.

RESULTS. To study the effectiveness of using the individually differentiated method in organizing independent work of students, an analysis was conducted of the experience of its implementation in the educational process of a number of technical universities in Uzbekistan.

The results showed that the use of this method allows: To increase the motivation and activity of students in the process of independent work. Taking into account the individual characteristics and needs of students helps to form a positive attitude towards independent work, awareness of its importance for professional development.

Ensure differentiation of tasks by level of complexity and volume in accordance with the capabilities and interests of students. This allows creating a situation of success for each student, which is an important factor in increasing the effectiveness of independent work.

Organize effective feedback and control over the implementation of independent work. An individual approach allows the teacher to promptly identify and eliminate students' difficulties, and adjust their activities .

Develop self-organization, planning and control skills in students. Independent completion of differentiated tasks helps students develop the ability to rationally organize their activities, distribute time and effort.

ANALYSIS AND DISCUSSION. The obtained results indicate high efficiency of using the individually differentiated method in organizing independent work of students of technical universities of Uzbekistan. This method allows to take into account individual characteristics and needs of students as much as possible, which contributes to increasing their motivation and academic performance.

At the same time, the use of an individually differentiated approach requires the teacher to spend a lot of time on developing differentiated tasks and organizing individual work with students. In addition, the possibilities of using this method are limited by the large number of academic groups in universities in Uzbekistan. In this regard, it is advisable to use the individually differentiated method in combination with other methods and forms of organizing independent work of students (project method, work in small groups, etc.). This will optimize the workload of the teacher and ensure variability of independent work of students.

CONCLUSIONS. Thus, the individually differentiated method is an effective means of organizing independent work of students of technical universities of Uzbekistan. Its use allows increasing the motivation and activity of students, ensuring differentiation of tasks in accordance with their capabilities and needs, organizing effective feedback and control, developing self-organization and planning skills.

At the same time, the effectiveness of this method is determined by the creation of the necessary organizational and pedagogical conditions: optimization of the teacher's workload, combination with other methods and forms of organizing independent work, and special training of the teaching staff.

List of references

1. Abdullaev A.A. Independent work of students as an important factor in the training of highly qualified specialists // Bulletin of Science and Education. - 2020. - No. 21-2 (99). - P. 55-58.

2. Sharipov Sh.S. The role of independent work of students in ensuring the quality of education // Academy. - 2019. - No. 12 (51). - P. 24-26.

3. Polat E.S. Modern pedagogical and information technologies in the education system. - M.: Academy, 2010. - 224 p.

4. Abdullaev A.A. Pedagogical conditions for organizing independent work of students // Problems of science. - 2020. - No. 5 (53). - P. 35-38.

5. Sharipov Sh.S. Independent work of students as a factor in the formation of competence of future specialists // Problems of pedagogy. - 2021. - No. 2 (53). - P. 21-24.

6. Davlyatova M.G. Organization of independent work of students in a technical university // Bulletin of the Tajik Technical University. - 2018. - No. 1 (41). - P. 156-161.

7. Ramsden P. Learning to Teach in Higher Education. - London: Routledge, 2003. - 288 p.

8. Kolb DA Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. - New Jersey: Pearson Education, 2014. - 416 p.

NEMIS TILINII O‘QITISHDA PEDAGOGIK USLUBLARNING AHAMIYATI

Boymatov Abdujabbor Eshqobilovich
JizzaxDPU, Fakul’tetlararo xorijiy tillar kafedrasining o‘qituvchisi
fil.fan.nomzodi, dotsent.
Farsaxonova Sabohat Anvar qizi
JizzaxDPU qoshidagi Akademik litsey o‘qituvchisi

Annotatsiya:
Mazkur maqola bevosita chet tillar (xususan nemis tili) ni o‘rgatishda turli usullardan foydalanish masalasiga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: *Chet tili, nemis tili, didaktika, bevosita, predmet, mazmun, sistema, maqsad, leksika, umlaut.*

Annotatsiya: *Данная статья посвящается изучению инностранных языков в частности обучению немецкому языку различными методами.*

Ключевые слова: *иностранный язык, немецкий язык, дидактический, непосредственно, предмет, содержание, система, цель, лексика, утляут*

Annotation: *This article is dedicated to the study of foreign languages, particularly to learning the German language using various methods.*

Key words: *Foreign language, the German language, directly, object, maintenance, system, aim, vocabulary.*

Jahon miqiysida o‘zgarishsiz qoladigan narsaning o‘zi yo‘q, chunonchi chet tillardan birortasini o‘rganish bundan mustasno emas. Til–bir tomondan ijtimoiy hodisa va ma’lum tizim sifatida kundan-kun rivojlanib, takomillashib borsa, ikkinchi tomondan bunday hodisalarni o‘rganuvchi fan ham katta odimlar bilan olidinga qarab harakat qilib borishi muqarar. Shu boisdan, o‘zligimizni anglash ichki va tashqi hissisiyotimizni tushunish, ularni ifoda etish ham tilimizga berilgan imkoniyatlarga bevosita bog‘liqdir. Jamiyatning taraqqiy etishini, rivojini, gullab-yashnashini ta’minlovchi vosita – bu tildir.

Chet tilining, xususan nemis tilining o‘quv predmeti ekanligini didaktik rejada aniqlanmaganidan uslubchilar ushbu tilni didaktika ajratgan predmetlarning goh birinchi, goh ikkinchi guruhga qo‘shib kelmoqdalar, ammo uning xususiyatuni yoritib bera olmaydilar. Masalan, bir qator uslubiy qo‘llanmalarda chet tilini o‘qitishning mazmuni ximiya yoki tarixni oqitish mazmunidan farq qilmasliliga, ishora qiladilar. Bu borada N. A. Bergman o‘z fikrini quyidagicha bayon qiladi, ya’ni : ”O‘qitish mazmuni deganda avvalo, o‘qitish jarayonida o‘quvchi bilib olishi kerak bo‘lgan nemis tili nazariyasiga doir bilimlar sistemasini tushunish lozim” [1;24].

Bizning ona tilimizdan tashqari barcha tillar - nemis, ingliz, fransuz, xitoy, koreys va boshqa chet tillar hisoblanadi. Bu tillardan birortasini o‘rganish uchun aniq bir maqsadni ko‘zlash lozim bo‘ladi. Xususan, nemis tilini o‘qib-o‘rganishning o‘ziga xos maqsadlari, jamiyat va davlat manfaatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi, shuning uchun ham nemis tilini o‘rganishga mo‘ljallangan o‘quv va darsliklar, dasturlari jamiyat, davlat manfaatlari, talablariga mos kelmog‘i hamda javob bermog‘i kerak. Har qanday chet tillardan birini o‘rganishning o‘ziga xos qiyinchiliklari va murakkab tomonlari bor. Til leksikasining, grammatik fonetika va morfologik qurilishining, shuningdek, o‘rganilayotgan tilning orfografiyasi xususiyatlari, tegishli usullarning ahamiyatini oshirib, o‘qitish usullariga bevosita ta’sir etadi. Masalan, so‘zlarni o‘zlashtirib olish uchun ularning tarkibini tahlil qilish usulini, nemis tilini o‘rganishda qo‘llash, bu tilning o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lishi, ya’ni unda kompozitsiya va affikitsatsiya yo‘li bilan yasalgan so‘zlarning ko‘p bo‘lishi sababli, leksik tarkibiga amorflik xos bo‘lgan fransuz yoki ingliz tilini o‘rgatishda qo‘llashdan ko‘ra ancha samara beradi. Nemis tilining boy morfologik sistemasi gapning asosiy grammatik variantlari bo‘yicha ko‘p ish olib borishni taqoza etadi. Ingliz tilida esa gapning asosiy shakllari osongina oz’lashtiriladi, shuning uchun bu tilda nutq boshqa tillarga nisbatan tez o‘zlashtiriladi. Ingliz va fransuz tillarining eng qiyin tomoni tovush – harf munosabatlaridir.

Shuning uchun ham bu tillarda o‘qish va yozishni o‘rgatish murakkab jarayon bo‘lib, nemis tilida bunday masala yengil hal etiladi. Chunki, nemis tilida undosh tovushlar diftong, affrikat va umlaut kabilarni hisobga olmaganda ona tilidagidek talaffuz qilinadi. Shuning uchun, har qanday tilni o‘rgatish, maktabgacha bo‘lgan tarbiya maskanlarida va o‘rta ta’lim maktabarida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Chet tillardan birini o‘rganishda biror bir maqsad oldinga qo‘yiladi. Nemis tilini o‘rganish bog‘cha va maktablarda amaliy, ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish maqsadlarda o‘rganadilar. Har qanday maqsad ma’lum bir tilga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqadi. Maqsad tushunchasi rejalashtirilgan natija, tasavvurdagi oqibat ma’nosini anglatadi va ma’lum bir tilni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Chet, ya’ni nemis tilini o‘rganish o‘z ichiga ikki maqasadni qamrab oladi: birinchi kommunikaativ – nemis tilida fikr almashish sifatida foydalanish; ikkinchisi umumiy ma’lumot berishdir. Bunday maqsadlarni amalga oshirishda turli mamlakatlarda tilni o‘rganish maqsadidagi xilma-xillikni ko‘ramiz va bu borada turli usullar tavsiya berilishini kuzatamiz. “Haqiqatdan ham hech qanday umumiy ta’lim predmetining vazifasida chet ttillarni o‘qitish vazifasidek bunchalik noaniqlik mavjud emas”, deb aytgan E. M. Ritning fikrlariga qoshilish mumkin [2; 36]. Maqsadni ta’riflashda ikki xil sabab bor: birinchidan- predmetning o‘zining xususiyatni aniqlashdagi noaniqlar, ikkinchidan – chet tilini o‘qitish va o‘rgatish maqsadlari boshqa fanlarni o‘rgatishga qaraganda ko‘proq jamiyatning mazkur fanga talabini hisobga olmaslik bilan bog‘liqdir.

Nemis tilini, umuman chet tillarni o‘qitish uslubiyatida metod atamasi asosan uch xil ma’noni anglatadi: birinchidan – metodika tarixidagi butun bir yo‘nalish (tarjima metodi, to‘g‘ri metod). Ikkinchidan, uslubiyat tarixida yuqoridagi yo‘nalish tarkibiga kiruvchi o‘qitish tizimi o‘rgatuvchi va tinglovchining o‘zaro bog‘langan faoliyat usulu (tanishish, mashq qilish va qo‘llash uslubi), birinchi va ikkinchi usullar “tarixiy” usullar bilan nomi bilan qo‘llanib kelingan, uchunchisi esa “chet tilini o‘rgatish jarayonida usullar atamasi bilan” yuritilgan. Tarixiy usullar to‘rt guruhga birlashtirilib, ularning nomlari “tarjima”, “to‘g‘ri” , “qiysiy”, va “aralash” so‘zlarni aniqlovchi sifatida qo‘shib ishlatilgan. Chet tilini o‘rganish tarixini atoqli uslubchi prof. I.V. Raxmonov tomonidan chuqr o‘rganilgan (3:18).

Uslubiyat bo‘yicha ko‘p asarlar mualliflari savol-javob mashqlarni bajarish dialogik nutqni egallasning, yagona bo‘lmasa ham asosiy yo‘li deb qarab kelmoqda. Bunday, chet tilini o‘rgatishda ayirim xatolar borligi sezilib qolgan. Masalan:

Guten Tag, lieber Doktor! Salom – alik.
Guten Tag. Was ist denn los? Savol.
Helfen Sie, bitte, mein Puppe!
Puppe ist so krank! Iltimos.
Geh zur Mutter, Rotkappchen.
Da sind Kuchen und Milch. Ko‘rsatma.
Bring das der Grossmutter.
Gut, Mutti. Ich gehe schon. Rozilik.

Dialogda luqma va ularni birlashtiruvchi birliklarni ajratib ko‘rsatish lozim [4;163].

Keyingi yillarda Mustaqil O‘zbekiston Respublikamizning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni tobora kengayib borayotgan bir paytda, uning kelajagini yaratuvchi yoshlarimizga nemis tilining fonetikasi, grammatikasi, morfologiyasini puxta o‘rgatish va ularning bu borada erkin suhbatlar, muhokamalarda faol ishtirok eta olishlari, shuningdek, o‘zaro bahslarda og‘zaki va yozma shaklda bevosita muloqat qila olishlarini o‘qitish, o‘rgatish shu kunning eng muhim dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunday vazifalarni amalga oshirishda yaratilayotgan o‘quv dasturlari va ma’lum bir toifalarga mo‘ljallangan darsliklarda o‘z ifodasini topishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ta’lim va tarbiya sohasida mamlakatimiz kelajagi uchun 1997-yil 29 – avgustda qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun ko‘rsatmalari juda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

XVIII asrning ikkinchi yarimi va XIX asr davomida frantsuz tili, XX asrda esa ingliz tili va nihoyat nemis tili tarjima orqali o‘rganilib kelindi.

Ayni kunlarda ham tarjima usullaridan samarali foydalanib kelinmoqda. Matnni og‘zaki tarjima qilish – bu g‘ayri usuldir. Berilgan matnning ayrim jumlalari yoki bir-ikki bo‘lagini muayyan maqsadda tarjima qilish man etilmaydi. Bu borada nemisch-o‘zbekcha lug‘atlardan foydalangan holda yangi so‘zlarning anglatgan ma’nolarini ochish maqsadida tarjima qilish uchun mo‘ljallangan kichikroq matnlar berilishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, chet tilini (har qanday chet tili) o‘rganishda har qanday usullardan foydalanishlar, deyarlik ijobiy natija beravermaydi. Chet tilini o‘rganishda so‘z, jumlalarni tarjima jarayonida ona tili bilan qiyosiy o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Nemis tilini o‘rganishda, albatta “Nemischa-o‘zbekcha” lug‘at asqotadi. Afsuski, bunday lug‘atlar keyingi yillarda juda ham kamayib ketganligi, bu haqiqat. Chunki, barcha til o‘rganuvcilar faqat ingliz tiliga katta e’tibor berib kelish bilan cheklanib qolmoqdalar. Nemischa-o‘zbekcha lug‘atlar bor, lekin ular endilikda ma’nan eskirib, muddatini o‘tab bo‘lgan. Tarjima sohasida lug‘atlardan foydalanishning samarasi muhim o‘rinni egallaydi. Chunki, chet tillarni organishda, lug‘atlarda berilgan so‘zlarning ona tilida anglatgan ma’nolari, tarjimada muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar

1. N. A. Bergman. Metodika prepodavaniya nemetskogo yazika v V-VI klassax. - M.,1951, 24 bet.

2. E.M.Rit. Osnovi metodiki prepodavaniya inostrannix yazikov. -M., 1930, 36 bet.

3. I. V. Raxmanov. Osnovniye voprosi metidiki prepodavaniya inos-trannix.- yazikov.- M., 1948

4. O‘rta maktabda chet tillar o‘qitishning umumiy metodikasi. - “O‘qituvch” nashriyoti.- M., 1974.- B. 495.

5. Jalolov J. Chet tilini o‘qitish metodikasi. - Toshkent.- “O‘’qituvchi” nashriyoti.- 1996 y.

THE EFFECTIVE TECHNIQUES FOR RAISIING LEARNERS’ LANGUAGE AWARENESS

Bakhieva Palzada Bakhitbaevna
PhD student, Nukus State Pedagogical Institute

Abstract:
The paper outlines the importance of Language Awareness in teaching Foreign Languages, the essence and implementation of awareness-raising techniques for developing learners’ language awareness and the role of teachers in designing activities.

Key words: *applied linguistics, language awareness, approach, strategies, techniques*

Annotatsiya:
Bu maqolada til xabardorligining chet tilarni o‘qitichdagi ahamiyati, o‘rganuvchilar til xabardorligining yuksalishi uchun til xabardorligini rivojlandiruvchi mashqlarning ahamiyat va tadbiq etilishi, o‘qituvchilarning mashqlarni yaratishdagi ro‘li haqida bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: *amaliy tilshunoslik, tilni bilish, yondashuv, strategiyalar, texnikalar*

Language Awareness is a branch of Applied Linguistics which provides cognitive strategies for learners explore and gain the understanding of target language and help teachers enable the students to notice the language. Language Awareness is an effective approach of learning and teaching the language as it gives an opportunity for leaners to acquire and produce the language themselves and teachers motivate students to obtain different aspects of the language.

Language awareness is aimed to raise learners’ awareness of important linguistic features and help students construct their own grammar using personal exploration. As Language Awareness is

essential in teaching, learning and using the language, there will be a need for increasing students' language awareness. In this case language awareness activities help to raise their own language awareness. Schmidt has explained the importance of language awareness as following: Students have to explore structured input and develop an awareness of certain linguistic features by performing some activities [Schmidt, 1993:206-226]. Every language is learnt, taught and used completely by practicing more, doing various exercise and activities. Through activities learners raise their awareness of language that they are learning. The more do activities, the more aware of the language.

It is effective to focus on techniques, presented by Bourke [Bourke, 2008: 15-19], in order to raise leaners' language awareness and maintain productive teaching process:

1. Linguistic problem-solving – The essence of this technique is that learner notice the grammar rule by reading, guessing and analyzing the given dialogue, narrative or text. In the task problem and instruction should be clearly stated as learner follow the instruction and find solution to the given problem. Teacher can choose any grammar topic and design the task taking into account learners' level, interests and needs.

2. Error detection and correction – It is a common state to make mistakes while producing the language. Mostly learners make mistakes because they are not aware of the rule. On the other hand errors should be accepted as learners' progress as they are practicing the language but not the lack of knowledge. It will be better if learners correct their mistakes themselves by being aware of the rules and language.

3. Restoring C-texts – The use of C-texts for measuring general language proficiency has by now become quite common. The standard C-text consist of four to six short texts which have been altered by deleting the second half of every second word and replacing it with a blank. The task is to restore the missing pieces by using a variety of conscious strategies.

4. Cloze procedure – This technique creates an awareness of word order, collocation and dependency relations between elements. Specific language items (parts of speech, morphemes) can be deleted in the text and learner should find them. Close procedure can be used for testing learners' understanding and also it helps leaners consolidate and restructure their grammar.

5. Paraphrase – When learners use this technique, they restate the text or sentences in different words in order to clarify the meaning. Paraphrasing is very useful for learner to grasp the meaning and identify it with their own words. It helps learners to enrich vocabulary, consolidate grammar and improve critical thinking.

6. Propositional cluster – Learner should make sentences and text from given words arranging them into correct order and form in order to balance the coherence and cohesion of the text. Learner should figure out the selection of the parts of the speech and formation of the sentence. The complementation of the task requires learners' grammatical awareness and helps them to form the structure and meaning.

7. Sentence combining – This technique is vital for developing learners' writing. It

helps to avoid redundancy in writing and construct a complex sentence from several simple sentences. It covers an enormous area of English grammar, ranging from coordination to subordination and various types of sentence connectives that signal a wide range of semantic relationship.

8. Grammaring – Grammar is a system of rules and principles for speaking and writing the language whereas grammaring is using grammar effectively to make the meaning. While using the grammar devices learners should understand why they have chosen and how they utilized the particular grammar device. It is an ability of using grammar by grasping the reason of its usage in the particular situation.

9. Dictogloss – It is a technique that involves the teacher and learner in communicative interaction, text reconstruction and error analysis. There are four stages in the procedure: preparation learners become aware of the topic; dictation as learner hears the text and takes

fragmentary notes; reconstruction as learners in pair or small groups pool their resources to reconstruct their own version or the original text; analysis and correction as learners analyze and correct their texts. This technique develops not only awareness of language skills and items but also raises the learners' consciousness of textual organization.

10. Language games – Teaching the language through games gives an opportunity for teachers to motivate and involve the learners to be active and energetic during the lesson. While choosing the games teacher should focus on the aim of the lesson: the topic, language skill which need to be taught, level, age and interests of the learners. The game should be relevant to the language that is being in the process.

We have found that learners' language awareness should be raised by several appropriate activities and techniques that have particular purpose of developing the language. The task of the language teacher is to select relevant technique for improvement of learner language awareness. In our further work we continue to design awareness raising activities and techniques for raising learners' language awareness.

References:

1.Andrews, Stephen. Teacher Language Awareness. New York: Cambridge University Press, 2007.

2.Bourke, J.M. A Rough Guide to Language Awareness. English Teaching Forum 46 (1):12-21, 2008.

3.Hall, Nick, Shepheard, John. The anti-grammar Grammar Book- A teacher's resource book of discovery activities for grammar teaching. Longman. UK, 1999

4.Oreto, Rebecca. Reawakening grammar awareness. Carnegio Mello University, 2009

5. Schmidt, R. (1993). Awareness and second language acquisition. Annual review of Applied Linguistics, 13,206-226

YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TALABALARDA ZIYORAT TURIZMIGA OID BILIMLARNI O‘STIRISHNING AYRIM JIHATLARI

Baxrom Orziqulov
O‘zbekiston milliy universiteti
ilmiy tadqiqotchisi, f.f.d (PhD)

Annotatsiya:

Maqolada ta’lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda “Guruhlarda ishlash” metodi bo‘yicha darslarni tashkil etishning ahamiyati, ularning afzalliklari xususida so‘z yuritilgan. Unda ushbu metod orqali tashkil etilgan darslarning ta’lim sifatiga ta’siri bayon qilingan. Maqolada mazkur metod orqali o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro birgalikdagi faoliyatlari natijasida talabalarni fikrlashga, o‘z fikrlarini erkin holda bayon eta olishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilganligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *pedagogika, ta’lim, texnologiya, tizim, metod, ta’sir, guruh, talaba, o‘quvchi, qobiliyat, fikr, hamkorlik, savol, topshiriq, ijodiy fikrlash.*

Abstract:

The article talks about the importance of organizing classes using the new pedagogical technologies in the educational system and their advantages. It describes the impact of classes organized by this method on the quality of education. The article explains that through this method, as a result of mutual activities of teachers and students, it is aimed at students to think, express their opinions freely, and educate them in the culture of debate.

Key words: *pedagogy, education, technology, system, method, effect, group, student, learner, ability, idea, collaboration, question, task, creative thinking.*

Keyingi yillarda O‘zbekistonda tarixiy-madaniy ob’ektlar, muqaddas qadamjolarda ziyorat turizmini rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ayniqsa ta’lim tizimida ushbu sohaga alohida e’tibor qaratilayotganligi yanada ahamiyatlidir. Shu boisdan darslarni yangi pedagogik texnologiyalarga tayangan holda tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda [1. T., 2017.]. Bu esa talabalarning ijodiy fikrlashini va masalalarni ijodiy holda yechishda noan’anaviy, o‘zining mustaqil fikr va g‘oyalarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga ko‘maklashadi. Yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishning pirovard natijasi amalda bir qancha ijobiy natijalarni beradi. Yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o‘tish usullaridan biri “Guruhlarda ishlash” metodidir. Ushbu trening darsi talabalarda mustaqil fikrlashga, o‘z fikrlarini erkin holda bayon eta olishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, odatda bunday mashg‘ulot talabalarni kichik guruhlarga bo‘lgan holda o‘tkaziladi [2. 2017. № 4]. Darsning borishi. O‘qituvchi mashg‘ulotni boshlashdan avval talabalarni muloqot, bahs-munozarani o‘tkazishga qo‘yilgan talablar, qoidalar bilan tanishtiradi, so‘ngra ushbu trening bosqichma-bosqich o‘tkazilishini tushuntiradi.

Darsning birinchi bosqichi. O‘qituvchi mashg‘ulot o‘tkaziladigan muloqotning mavzusini e’lon qiladi. Mavzu: «Ziyorat turizmining mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari». Talabalar bir nechta guruhlarga bo‘linadilar, har bir guruh alohida nomlar bilan ataladi.

1 – guruh. Ziyoratgoh.
2 – guruh. Ziyorat turizmi.
3 – guruh. Turizm.
4 – guruh. Ma’naviyat.

Dasrning ikkinchi bosqichi. Har bir guruhdagi talabalar o‘z mavzulari asosida kerakli materiallar: dalillar, misollar, aniq fikrlar, o‘z fikrlarini tasdiqlovchi qo‘rgazmali materiallar maqolalar, mutafakkir va olimlarning so‘zlari va boshqalarni tayyorlaydilar. Guruhdan bir kishini himoya uchun tanlaydilar, qolganlarini esa o‘z fikrlarini qo‘shimcha qilishlari mumkin. O‘qituvchi guruhlarni tayyorgarlik ko‘rishlari uchun sharoit va imkoniyatga qarab vaqt beradi.

Dasrning uchinchi bosqichi. Guruhlar himoyaga tayyor bo‘lgach, o‘qituvchi guruhlarning biriga himoya uchun so‘z beradi (himoyaga chiqish ixtiyoriy ravishda bo‘lishi mumkin). Guruh vakili guruh nomidan so‘zga chiqib ularga berilgan mavzuni tayyorlangan materiallar, dalillar asosida himoya qilishga kirishadilar. Guruh vakili fikrini tutatgach, guruhning qolgan a’zolari o‘z fikrlari bilan qo‘shimcha fikrlar bildirishlari mumkin.

Dasrning to‘rtinchi bosqichi. Mashg‘ulotning 3-bosqichidagi kabi bu bosqichda ham o‘qituvchi navbatdagi guruh vakiliga himoya uchun so‘z beradi. Ikkinchi guruh ham birinchi guruh kabi o‘z mavzusi bo‘yicha himoya qiladi. Himoya tugagach, o‘qituvchi mashg‘ulotning keyingi bosqichiga o‘tadi. Har ikkala guruhning himoyasi vaqtida o‘qituvchi iloji boricha ularga xalaqit bermaslikka, o‘z fikr va mulohazasini bildirmaslikka, savol bermaslikka harakat qiladi, hech qaysi guruhga yon bosmagan holda muloqotni boshqaradi, guruhlar himoyasi vaqtida tartib saqlanishiga va muloqotni o‘tkazishga qo‘yilgan talab, qoidalarni to‘liq bajarilishiga erishishga harakat qiladi. Bu bosqichda, asosan, ikki guruh erkin, mustaqil faoliyat ko‘rsatishlari kerak bo‘ladi.

Dasrning beshinchi bosqichi. Guruh a’zolari bir-birlariga savol berishni boshlaydilar. Guruhlar tomonidan beriladigan savollar ular himoyasi vaqtida aytilgan dalillar, misollar, fikrlarni yanada oydinlashtirish maqsadida, shuningdek, o‘z guruhlarining fikrlarini yanada ta’kidlab, isbotlab, qolganlarni ham shu fikrga qo‘shilishlariga da’vat qilish uchun berilishi mumkin. Talabalar erkin holda o‘zlarining chiqishlari bilan barchaga ta’sir ko‘rsatishga, o‘z fikrlarini ma’qullashga harakat qiladilar. O‘qituvchi bunday holatga sharoit, imkoniyat yaratadi, ya’ni u bahs-munozarani samimiylik bilan boshqaradi.

Dasrning oltinchi bosqichi. O‘qituvchi har ikki tomonning bir-birlariga savollari, aytadigan fikrlari, ma’qullaydigan so‘zlari tugagach, har ikki guruh tomonidan aytilgan fikrlarni umumlashtiradi va o‘zining bu masala haqidagi fikr va mulohazasini bayon etadi va guruh talabalari

tomonidan tushgan savollarga kerakli javobni berishga harakat qiladi. Mashg‘ulot oxirida o‘qituvchi har ikkala guruhning dars jarayonidagi faoliyatlarini tahlil etgan holda seminar trening darsiga yakun yasaydi va mavzu yuzasidan xulosalarni umumlashtiradi [3. Muallifning Muallifning Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyi (Sayiljoy) da olib organ tadqiqotlari va kuzatuvlari.]. Umuman, «Ziyorat turizmining mohiyati» mavzusi yuzasidan o‘tkazilgan seminar trening darsi jarayonida quyidagi xulosalarga kelinadi:

Ziyorat – ziyorat aslida arabcha so‘z bo‘lib, islom dinida muqaddaslashtirilgan mozorlar va qadamjolarga borib sig‘inish demakdir. U islom bilan qo‘shilgach, diniy tus olgan. Ziyoratgoh – (arab+f.t) – sig‘inadigan, ziyorat qilinadigan joy. 1) Ziyorat qilinadigan muqaddas joy, tabbaruk qadamjo (aziz-avliyolar maqbarasi yoki ular yashagan, qadami tekkan joy). 2) Kishilar ko‘p boradigan yig‘iladigan mo‘’tabar, muqaddas joy.

Turizm – shaxsning o‘zi doimiy yashab turgan joyidan o‘zini o‘zi sog‘lomlashtirishi, ma’rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda, ya’ni o‘sha mamlakatda haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda, ma’lum muddatga (uzog‘i bilan bir yil muddatga jo‘nab ketishi), sayohat qilishi

Ziyorat turizmi – muqaddas joylarga, mozor va qabristonlarga borib muayyan rasm-rusumlarni bajarib kelishdir. Dastlab islom dini Makka ziyoratidan tashqari boshqa ziyoratlarni tan olmagan. Lekin keyinchalik mahalliy urf-odatlarni saqlagan holda Makka ziyorati elementlarini nusxalashtirgan mahalliy qadamjolar ziyorati rivojlana boshlagan. Shu asosda ziyorat qilish ommalasha boshladi. Islom dinida shaxsga sig‘inish shirk sanaladi. Muhammad (s.a.v.) o‘zlarining hadislarida aytganlaridek, «Qabristonlarni ziyorat qilib turingizlar, zero u oxiratni eslatadi». Oxiratni eslash esa kishini yovuzlikdan uzoqlashtirib, ezgulikka yaqinlashtiradi, deyiladi.

Turizm industriyasi – “Turizm industriyasi – har bir davlat iqtisodiy rivojlanishida strategik ahamiyatga ega. 2020 yilda Buxoro shahri Islom madaniyati poytaxti, Xiva shahri turkiy dunyo madaniyati poytaxti deb e’lon qilindi. Qolaversa, mamlakat viza rejimini erkinlashtirish borasida sezilarli natijalarga erishdi, Ya’ni, bugungi kunda O‘zbekistonga tashrif buyurmoqchi bo‘lgan 80 dan ortiq mamlakat fuqarolaridan viza talab etilmaydi.

Bularning barchasi mamlakatning turistik jozibadorligini oshirishda muhim omil bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining viza tartibini soddalashtirish bo‘yicha Farmonidan kelib chiqib «Vatandosh», «Talaba», «Akademik», «Ziyoratchi» va «Tibbiyot» viza turlari joriy etildi. Ziyoratgohlarning turlari - ziyoratgohlarni asosan uch turga bo‘lish mumkin. Bular quyidagilar: Xalqaro ahamiyatga molik ziyoratgohlar; Respublika ahamiyatiga molik ziyoratgohlar; Mahalliy ahamiyatga molik ziyoratgohlar.

Umuman, darslarni yangi pedagogik texnologiyalarga tayangan holda tashkil etilishi talabalarning ijodiy fikrlashini va masalalarni ijodiy holda yechishda noan’anaviy, o‘zining mustaqil fikr va g‘oyalarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga ko‘maklashishi bilan ahamiyatli ekanligiga guvoh bo‘ldik. Zero, yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishning pirovard natijasi amalda bir qancha ijobiy natijalarni beradi. Ana shunday dars o‘tish usullaridan biri “Guruhlarda ishlash” metodi bo‘lib, ushbu metod ta’lim tizimida keng tarqalgandir.

Adabiyotlar:

1. Tolipov F, Isroilov B va boshqalar. Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar. // O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T., 2017.

2. Turdiev N. Tadqiqotchilik kompetentsiyasini shakllantirish. // Umumta’lim fanlari metodikasi. T., 2017. № 4.

3. Muallifning Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyi (Sayiljoy) da olib organ tadqiqotlari va kuzatuvlari.

DAVLAT TILINI (O‘ZBEK TILI) O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Asamatdinova Zulfiya
Qoraqalpoq davlat universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi

Annotatsiya:
Ushbu maqolada Davlat tili darslarida matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish va tinglab tushunish, o‘qib tushunishga doir ko‘nikmalarini shakllantirish xususidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *nutq madaniyati, gap, matn tarkibi, matndagi gaplarni ajratish, yosh xususiyatlari, nutq rivoji, pedagogik texnologiyalar, matn, metodika.*

Abstract:
This article presents ideas about developing students’ speech, listening comprehension, and reading comprehension skills by working on the text in the State language classes.

Key words: *speech culture, sentence, text composition, separating sentences in the text, age characteristics, speech development, pedagogical technologies, text, methodology.*

Zamonaviy ta’lim tizimining maqsadi – ta’lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, shuningdek, belgilangan talablarga javob beruvchi, ma’naviy barkamol, mehnat va ta’lim xizmatlari bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta’lim va o‘qitish sifatiga, ta’lim mazmuniga, ta’lim oluvchilar va ularning tayyorgarlik darajasiga, ta’lim darajasidagi kompetensiyalar va natijalarga, beriladigan malakalarga, talab qilinadigan o‘quv yuklamasi va faoliyati hajmiga va baholash mexanizmlariga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib har bitta pedagog zimmasiga o‘ta muhim ma’suliyat yuklanmoqda. Ayniqsa, davlat tili fani o‘qituvchilar ushbu ma’suliyatni chuqur anglagan holda harakat etmoqlari lozim. Rivojlanayotgan davr bizdan yana ham kuchli metodika va mahorat talab qilar ekan biz ustozlar o‘z ustimizda tinimsiz ishlashimiz shart. “Dunyo tajribasida e’tirof etilayotgan til o‘rganishga doir tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalari o‘quvchining nutqiy kompetentsiyasini rivojlantirish va baholash imkonini berayotgani ko‘pchilik davlatlarda tan olingan. Jumladan, mamlakatimizda ham chet tili o‘qitishda o‘z samarasini bermoqda.”[1,3] Davlat tili darslarida matnlar bilan ishlash, grammatik tahlil qilish, fikr mulohaza yuritish asosiy va muhim ahamiyatga ega. Insoniyatning ijtimoiy siyosiy taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan ilmiy manbalarni avlodlarga meros qilib qoldirish uchun birdan – bir imkoniyat – matn va yaratish ilmi bilan shug‘ullanishdir. Demak til imkoniyat, matn esa natijadir; matn egallagan bilim, ko‘nikma va malakalar hosilasi Davlat tili ta’limida matn yaratish va matn ustida ishlash usullari bag‘oyat xilma – xildir. Ushbu maqola orqali ta’lim jarayonida matn bilan ishlashning bir nechta usul va vositalari haqida so‘z yuritamiz. Dars jarayoni qiziqarli va maroqli bo‘lishi uchun o‘quvchilarga turli xil mavzudagi matnlar taqdim etilishi lozim. Til o‘rgatish bilan birga olam va odam haqidagi tasavvurlarini boyitib borish zarurati mavjud ekan, matnlarni ham shunga monand tanlash zarur.

1-topshiriq.”G‘aroyib kasblar” nomli matnni taqdimot orqali qo‘yib beriladi, o‘quvchilar taqdimotdagi matnlarni o‘qib bo‘lgach savollarga javob berilishi lozim.

		
Bu kasbni aniq oddiy deb aytib bo‘lmaydi. Taxminan 90-yillar oxirida AQShda buqalar poygasi keng tanila boshlagan. Chavandoz atigi 8 soniyalik chiqishi uchun katta summani qo‘lga kiritishi mumkin bo‘lgan. Statistikaga ko‘ra, reyder har 15 chiqishida taxminan 1 marta jiddiy jarohat olar ekan.	*Mutaxassis o‘z kunini xavfli ilonlar bilan birga o‘tkazib, ularning zaharini qo‘lda tortib oladi. Keng ko‘lamli xavfsizlik choralariga qaramay, doim qandaydir kutilmagan ko‘ngilsizliklar ro‘y berib turadi.*	*Juda qiyin va xavfli ish. Konchilar hatto barcha xavfsizlik tizimlari bilan ta’minlangan sharoitlarda ham o‘z hayotlarini xavf ostiga qo‘yishadi. Ularga har kuni xavf soya soladi: katta chuqurlik, atrofdagi yuqori harorat, portlashlar, ko‘chkilar, metan va gazdan zaharlanish ehtimoli 70 % eshitishga yordam bergan.*

Bu kasbni aniq oddiy deb aytib bo‘lmaydi. Taxminan 90-yillar oxirida AQShda buqalar poygasi keng tanila boshlagan. Chavandoz atigi 8 soniyalik chiqishi uchun katta summani qo‘lga kiritishi mumkin bo‘lgan. Statistikaga ko‘ra, reyder har 15 chiqishida taxminan 1 marta jiddiy jarohat olar ekan.

Mutaxassis o‘z kunini xavfli ilonlar bilan birga o‘tkazib, ularning zaharini qo‘lda tortib oladi. Keng ko‘lamli xavfsizlik choralariga qaramay, doim qandaydir kutilmagan ko‘ngilsizliklar ro‘y berib turadi.

Juda qiyin va xavfli ish. Konchilar hatto barcha xavfsizlik tizimlari bilan ta’minlangan sharoitlarda ham o‘z hayotlarini xavf ostiga qo‘yishadi. Ularga har kuni xavf soya soladi: katta chuqurlik, atrofdagi yuqori harorat, portlashlar, ko‘chkilar, metan va gazdan zaharlanish ehtimoli 70 % eshitishga yordam bergan.

O‘quvchilar matn bilan tanishgach, o‘qituvchi ularga quyidagi savolni beradi”

1.Savol.Kelajakda qanday kasblar yo‘q bo‘lib ketishi mumkin?

2.Kelajakda yana qanday kasblar paydo bo‘lishi mumkin deb hisoblaysiz?

Bu savollarga o‘quvchilar og‘zaki javob berishlari mumkin.

Nutqiy ko‘nikmalarni tizimli rivojlantirishda, aforizmlar, ibratli matnlar bilan bir qatorda ilmiy, publitsistik matnlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Shuningdek, o‘quvchilarga mashg’ulotlar davomida ilmiy, ilmiy-ommabop matnlar ustida ishlashga ham alohida e’tibor berish lozim. Matnga yo‘naltiruvchi o‘quv topshiriqlari bir paytning o‘zida tinglab tushunish, o‘qib tushunish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantira olishi maqsadga muvofiqdir. O‘tgan uzoq davr mobaynida biz rus tilidan o‘quvchilarning, asosan, bilimini baholab keldik. Aslida hayotiy vaziyatlarda o‘quvchilardan ko‘proq ko‘nikma va malakalar talab qilinadi, shu ma’noda rus tili ta’limida rivojlantirilishi ko‘zda tutilayotgan nutqiy ko‘nikmalarni baholashni ham tizimlashtirish zarur.

Til o‘qitishda mashq va topshiriqlar farqlanishi lozim, nutqiy ko‘nikmalar mashq orqali shakllanadi. Yangi o‘qitish metodikasida matndan foydalanish, unga mos zamonaviy topshiriqlar va mashqlar tizimini ishlab chiqish va qo‘llash mexanizmi, foydalanish metodikasi yaratilishi kerak. Bu o‘rinda G’.Hamroev ta’kidlagani kabi o‘quv topshiriqlarini – “savol” “mashq” va “topshiriq”

atamalarini mohiyatan farqlash, ularning lingvodidaktikadagi o‘rni hamda ahamiyatini anglagan holda ishlab chiqish vazifasi ham mavjud.[2,43].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, davlati tilini o‘qitish jarayonida quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim:

– ta’limning davlat, jamiyat, mehnat bozori va shaxs ehtiyojlariga mosligi; ta’lim va tarbiyaning yaxlitligi, barcha uchun teng va kafolatlanganligi; ta’lim turlari va bosqichlari o‘rtasida uzluksizlik hamda ta’lim mazmuni uzviyligining ta’minlanganligi;gender tenglik va inklyuziv ta’lim olish huquqlarining ta’minlanganligi; ta’lim oluvchilarga yo‘naltirilganligi va ta’lim oluvchilar shaxsi, intilishlari, qobiliyatlarhamda qiziqishlarining inobatga olinganligi.

Dars jarayonini ushbu tamoyillarga asoslangan holda tashkil etsakgina pedagog o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erisha oladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. К. Ражапова Нутқий кўникмаларни ривожлантиришга тизимли ёндашишнинг илмий-методик асослари. Педагогика фанлари бўйича фал.д-ри. (PhD) диссертацияси – Жиззах, 2022

2. Ғ.Ҳамроев. Умумий ўрта таълим мактабларида фонетикага доир ўқув методик таъминотни такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фал.д-ри. (PhD) диссертацияси – Самарқанд. 2019.

3.https://www.researchgate.net/publication/347453391_THE_UNITY_OFTHEME_AND_IDEA_IN_FURQAT’S_WORK?

4.https://www.researchgate.net/publication/351048479_budushcheye_tekhnicheskoy_i_gumanitarnoy_nauki?_

5.https://www.researchgate.net/publication/351048479_budushcheye_tekhnicheskoy_i_gumanitarnoy_nauki?_

QISHLOQ XO‘JALIGI SOHALARIDA KASBIY MULOQOTGA O‘RGATISHDA INTERFAOL YONDASHUVNING O‘ZIGA XOSLIGI

Nuratdinova Jupargul Satbayevna
Nukus davlat pedagogika instituti
2- bosqich doktoranti

Annotatsiya:

Tezis qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlarining talabalari uchun kasbiy muloqotni o‘qitishda interfaol yondashuvning o‘ziga xosligiga bag‘ishlangan. An’anaviy o‘qitish usullarida asosiy e’tibor nazariy bilimlarga qaratiladi, bu talabalarning samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun yetarli emas. Rolli o‘yinlar, guruh loyihalari va muzokaralarni modellashtirish kabi interfaol usullar talabalarga agrar saho uchun muhim ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkon beradigan amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvni taklif etadi.Shuningdek, motivatsiyani oshirish, tanqidiy fikrlash va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish kabi interfaol yondashuvning psixologik va pedagogik afzalliklari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *interfaol ta’lim, kasbiy muloqot,qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlari,rolli o‘yinlar, guruh loyihalari,muzokaralarni modellashtirish,muloqot qobiliyatlari,tanqidiy fikrlash*

Annotation:

The thesis is devoted to the uniqueness of the interactive approach in teaching professional communication for students of agricultural fields. Traditional teaching methods focus on theoretical knowledge, which is not enough to develop students’ effective communication skills. Interactive methods such as role-plays, group projects and negotiation modeling offer a practice-oriented approach that allows students to develop skills important for the agricultural sector. Also,

the psychological benefits of the interactive approach, such as increasing motivation, developing critical thinking and teamwork skills. and pedagogical advantages are considered.

Key words: *interactive learning, professional communication, agricultural fields, role-playing games, group projects, negotiation modeling, communication skills, critical thinking.*

Zamonaviy qishloq xo‘jaligi sohasi mutaxassislardan nafaqat chuqur amaliy bilim va ko‘nikmalarni, balki rivojlangan kasbiy muloqot ko‘nikmalarini ham talab etadi. Fermerlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida hamkasblar, hamkorlar, mijozlar va davlat idoralari bilan hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Biroq, an’anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha nazariy jihatlarga e’tibor qaratadi, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimligini yo‘qotadi. Kasbiy muhitga endigina sho‘ng‘ishni boshlagan qishloq xo‘jaligining birinchi kurs talabalari uchun interfaol o‘qitish usullari kasbiy muloqot asoslarini rivojlantirish uchun samarali vositaga aylanishi mumkin.

Ta’limga interfaol yondashuv, jumladan, rolli o‘yinlar, amaliy tadqiqotlar, vaziyatni simulyatsiya qilish va guruh loyihalari talabalarning ta’lim jarayoniga chuqur jalb qilinishiga yordam beradigan metodologiyadir. Ushbu ishimizda biz interfaol usullar qishloq xo‘jaligi talabalariga yaxshiroq tushunishga, shuningdek, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga qanday yordam berishini ko‘rib chiqamiz.

Qishloq xo‘jaligi sohasidagi kasbiy muloqot sanoatning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan xususiyatlarga ega. Fermerlar, agronomlar, biznes hamkorlar, davlat amaldorlari va mijozlar bilan muloqot qilish nafaqat agrotexnik jihatlarni bilish, balki fikrni aniq ifodalash, samarali tinglash va muzokaralar olib borish qobiliyatini ham talab qiladi.

Masalan, agronomlar hosildorlikni oshirish bo‘yicha o‘z tavsiyalarini fermerlarga yetkaza olishi, qishloq xo‘jaligi korxonalari rahbarlari esa yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan muzokaralar olib borishi kerak.

Qishloq xo‘jaligi sohasining xususiyatlaridan biri - turli toifadagi vakillar bilan muloqot qilish zarurati: fermerlardan tortib yirik korporatsiyalar vakillarigacha.

Bu muloqot uslubida moslashuvchanlikni, turli vaziyatlarga moslashish va turli kasb va ta’lim darajasidagi odamlar bilan umumiy til topish qobiliyatini talab qiladi. Shu sababli, o‘quvchilar o‘qishni tugatgunga qadar ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirishga vaqtlari bo‘lishi uchun kasbiy muloqotga o‘rgatish imkon qadar erta boshlanishi kerak.

Ma’ruza va seminar kabi an’anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha talabalarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishiga imkon bermaydi. Bu, ayniqsa, maktabdan keyin o‘qishning yangi formatiga moslasha boshlagan birinchi kurs talabalari uchun to‘g‘ri keladi.

Natijada, talabalarda kasbiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun yetarli asoslar shakllanmasligi mumkin.

Qishloq xo‘jaligining 1-kurs talabalarini o‘qitishga an’anaviy yondashuvning asosiy muammolari quyidagilardan iborat:

• Ta’limning nazariy yo‘nalishi:

Talabalar juda ko‘p nazariy bilim oladilar, ammo amaliy muloqot ko‘nikmalari kam.

• Amaliy tajribaning yetishmasligi: talabalar bilimlarini haqiqiy kasbiy vaziyatlarga yaqin sharoitlarda qo‘llash imkoniyatiga ega emaslar.

•O‘zaro muloqot qilish imkoniyatlari cheklangan: an’anaviy o‘quv tizimida talabalarning guruh vazifalari yoki muhokamalar orqali bir-birlari bilan muloqot qilish imkoniyati kam.

Ushbu muammolar mutaxassislarni tayyorlashga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, chunki muloqot ko‘nikmalarining yetishmasligi boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlar asosiy rol o‘ynaydigan kasbiy faoliyatda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

O‘qitishning interfaol yondashuvi - bu talabalarni ta’lim jarayoniga faol jalb qilishga qaratilgan texnikadir. Interfaol usullarning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, talabalar nafaqat ma’lumot oladilar, balki material, o‘qituvchi va bir-biri bilan faol munosabatda bo‘lishadi.

Bu nafaqat nazariy bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirish, balki kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Qishloq xo‘jaligi talabalari uchun kasbiy muloqotni o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish bir qator afzalliklarga ega:

• Faol ishtirok: Talabalar o‘quv jarayoniga jalb qilinadi, bu esa yaxshiroq o‘rganishga hissa qo‘shadi.

Amaliy yo‘nalish: Interfaol usullar haqiqiy kasbiy vaziyatlarni taqlid qilish imkonini beradi, bu esa talabalarning real sharoitlarga yaqin bo‘lgan sharoitlarda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

• Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Talabalar vaziyatlarni tahlil qilishni, qaror qabul qilishni va o‘z pozitsiyalarini bahslashishni o‘rganadilar.

Jamoada ishlash: Guruh loyihalari va muhokamalari qishloq xo‘jaligi mutaxassislari uchun ayniqsa muhim bo‘lgan jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

1. Rolli o‘yinlar

Rolli o‘yinlarda talabalar o‘zlarining kasbiy faoliyatida duch kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni taqlid qiladilar.

Misol uchun, bitta vaziyat o‘g‘it yetkazib beruvchilar bilan muzokaralar olib borish yoki fermerlarga qishloq xo‘jaligi texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha maslahat berishni o‘z ichiga olishi mumkin. Bu talabalarga nafaqat muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki amaliy muammolarni hal qilishni o‘rganish imkonini beradi.

2. Keys tadqiqoti

Keys tadqiqoti - bu qishloq xo‘jaligi mutaxassislari duch keladigan real yoki haqiqatga yaqin vaziyatlarni tahlil qilish.

Talabalardan vaziyatni tahlil qilish, yechim taklif qilish va uni asoslash taklif etiladi. Bu analitik, tanqidiy fikrlash va argumentatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va yaxshi yechimlarni topish uchun hamkasblar bilan qanday hamkorlik qilishni o‘rgatadi.

3. Guruh loyihalari va muhokamalari

Guruh loyihalari va muhokamalar orqali talabalar jamoa bo‘lib ishlashni, muammolarni muhokama qilishni va yechim topishni o‘rganadilar.

Bu, ayniqsa, kooperatsiya va jamoaviy ish muvaffaqiyat kaliti bo‘lgan qishloq xo‘jaligida muhim ahamiyatga ega.

4. Muzokaralarni simulyatsiya qilish

Muzokaralarni simulyatsiya qilish - bu talabalar sheriklar, mijozlar yoki davlat idoralari bilan muzokaralar stsenariylarini rol o‘ynaydigan usul.

Bu muzokaralar olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, suhbatdoshingizni tinglashga va murosaga kelishga o‘rgatadi.

Kasbiy muloqotga o‘rgatishda interfaol yondashuvning o‘ziga xosligi shundaki, u o‘quv jarayonini qishloq xo‘jaligi sanoatining o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, interfaol o‘qitish usullari talabalarga muloqot to‘siqlarini yengib o‘tishga yordam beradi, bu ayniqsa o‘qishni endi boshlayotganlar uchun muhimdir. Talabalar ishonchli gapirishni, o‘zlarini ifoda etishni va boshqalar bilan samarali muloqot qilishni o‘rganadilar. Bu ularga nafaqat o‘qishlarida, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatida ham yordam beradi.

Qishloq xo‘jaligi yo‘nalishining talabalari uchun kasbiy muloqotni o‘rgatishda interfaol yondashuv talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirish, balki qishloq xo‘jaligi sohasida ishlash uchun zarur bo‘lgan muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beruvchi o‘ziga xos va samarali metoddir. Rolli o‘yinlar, amaliy tadqiqotlar, guruh loyihalari va muzokaralar simulyatsiyasi kabi interfaol usullar talabalarga kasbiy muhitga moslashishga va ularni haqiqiy muammolarni hal qilishga tayyorlashga yordam beradi.

Qolaversa, interaktiv tizim orqali kontent va tilning integratsiyasi ham til ko‘nikmalarini, ham kasbiy kompetensiyalarni bir vaqtda rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydi va shu orqali talabalarni

qishloq xo‘jaligidagi real muloqot muammolariga tayyorlaydi . Oxir oqibat, bunday yondashuv bitiruvchilarning jahon mehnat bozorida tobora ko‘proq talab qilinayotgan kuchli kommunikativ kompetensiyalarga ega bo‘lish zarurati bilan mos keladi.

O‘qitishning interfaol usullaridan foydalanish o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi, bu ayniqsa, endigina o‘z faoliyatini boshlayotgan talabalari uchun juda muhimdir.

Umuman olganda, ushbu interfaol usullarning doimiy evolyutsiyasi talabalarni zamonaviy qishloq xo‘jaligi amaliyotlari talablariga javob berishga tayyorlash uchun juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Bulgakova O. et al. Formation of information-communication competence of the future agricultural engineering specialists at agricultural institutions of higher education //Engineering for Rural Development. – 2023. – T. 22. – C. 691-699.

2.Bazarovna Q. D. APPROACHES TO TEACHING AGRICULTURAL UNIVERSITY STUDENTS A FOREIGN LANGUAGE FOR PROFESSIONAL COMMUNICATION //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 49-54.

3.LAZARIEV O. et al. Definition of A Process of Forming Professional Communicative Competence of the Future Agrarian Experts.

4.Lotareva D. et al. Innovative tools of modern learning: using master classes and training in the educational process for achieving communicative competences. – 2024.

5.Kutbiddinova R. A. et al. The Use of Interactive Methods in the Educational Process of the Higher Education Institution //International Journal of Environmental and Science Education. – 2016. – T. 11. – №. 14. – C. 6557-6572.

6. Borasheva A. The Crucial Role of Teacher Support in Enhancing Willingness to Communicate, Professional, Communicative and Lexical Competences //Pubmedia Jurnal Penelitian Tindakan Kelas Indonesia. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 9-9.

7. Нуратдинова , Ж. (2024). Educational and professional content of teaching a foreign language in agricultural universities . Преимущества и проблемы использования достижений отечественной и мировой науки и технологии в сфере иноязычного образования, 1(1), 237–238. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/field-foreign-education/article/view/32662

8.Nuratdinova Jupargul Satbaevna. (2023). METHODOLOGY OF TEACHING PROFESSIONAL COMMUNICATION IN A FOREIGN LANGUAGE FOR STUDENTS OF AGRICULTURAL EDUCATION FIELDS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(4), 63–67. Retrieved from https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/5030

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNING TA’LIM SIFATIGA TA’SIRI

Yusupova Nafisa Xursanaliyevna
FarPI oliy matematika kafedrasi assistenti

Anatatsiya:

Innovatsiya yuqori samaradorlikka ega yangiliklarni tatbiq etish, insonning yangi yoki avvalgi bilimlarini sifatliroq bo‘lgan ko‘rinishdagi intellektual faoliyat, ijodiy jarayoni, kashfiyotining yakuniy natijasi hisoblanib, ta’lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyasiga qaratilgan bo‘ladi. Pedagogik innovatsiyalar ta’lim maqsadi, mazmuni, ta’limni tashkil etishning shakl va usullari,o‘qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish. Bir vaqtning o‘zida innovatsiyalarni ta’limning tashkiliy, metodik va amaliy jihatlarida tatbiq etilishi ta’lim sifatini oshirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Innovatsion jarayon yangilikni yaratish, ommalashtirish va tatbiq etish hisobiga ta’lim tizimini rivojlantirish jarayoni hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *inovatsiya, texnalogiya, tashxislash, axborot olish, etalon.*

Annotation:

Innovation is considered to be the final result of the application of high-efficiency innovations, intellectual activity, creative process, discovery of new or previous knowledge of a person in a better quality, and is aimed at the integration of education, science and production. Pedagogical innovations are educational goals, content, forms and methods of organizing education, organization of joint activities of teacher and student. At the same time, the implementation of innovations in the organizational, methodical and practical aspects of education is the main means of improving the quality of education. The innovative process is the process of developing the educational system due to the creation, popularization and implementation of innovations.

Key words: *innovation, technology, diagnosis, information acquisition, standard.*

Ta’lim sifati jamiyatdagi ta’lim jarayonining holati va samaradorligini belgilaydigan mezon hisoblanib, ta’lim jarayonida erishilgan natijalarning me’yoriy talablar, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarga muvofiqligini aniqlaydi.Ta’lim sifati nafaqat ta’lim jarayoni natijalari, balki mazkur natijalarni shakllantiruvchi omillarni ham ifodalaydi. Bu omillar ta’lim maqsadi, ta’limni tashkil etish shakl, metod, vositalari, o‘qituvchilar tarkibi, salohiyati, pedagogik faoliyati, ta’limiy dasturlar va ta’lim texnologiyalari, resurslar va ulardan foydalanish shart sharoitlari, ta’limning tashkiliy – huquqiy ta’minoti, o‘quv jarayonining moddiy – texnik ta’minoti, axborot va uslubiy ta’minot, shuningdek, maktabdagi tarbiyaviy ishlar sifatidan iborat.Ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish ta’lim natijalari va yuqoridagi omillar sifatini oshirish imkonini beradi. Shuning uchun, innovatsion texnologiyalar asosida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish muammosi shaxsni rivojlantirish va uni hayotga tayyorlashga yo‘naltirilgan kompleks vazifalarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lib, ta’lim siyosatining bugungi kundagi muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Innovatsiya yuqori samaradorlikka ega yangiliklarni tatbiq etish, insonning yangi yoki avvalgi bilimlarini sifatliroq bo‘lgan ko‘rinishdagi intellektual faoliyat, ijodiy jarayoni, kashfiyotining yakuniy natijasi hisoblanib, ta’lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyasiga qaratilgan bo‘ladi. Pedagogik innovatsiyalar ta’lim maqsadi, mazmuni, ta’limni tashkil etishning shakl va usullari,o‘qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish. Bir vaqtning o‘zida innovatsiyalarni ta’limning tashkiliy, metodik va amaliy jihatlarida tatbiq etilishi ta’lim sifatini oshirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Innovatsion jarayon yangilikni yaratish, ommalashtirish va tatbiq etish hisobiga ta’lim tizimini rivojlantirish jarayoni hisoblanadi.

O‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishda asosiy o‘rinini ta’limga interfaol usullarni, innovatsion pedagogik texnologiyalarni kiritish va ulardan mohirona foydalanish muhim o‘rinda turadi.

Mustaqil O‘zbekistonning ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar negizida to‘laligicha zamonaviy va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadi yotadi.

Ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan innovatsion pedagogik faoliyatning asosiy vazifalariga pedagogik jarayon komponentlari (ta’limning mohiyati,maqsadi, mazmuni, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etish shakl, metod va vositalari, boshqaruv tizimi) sifatini ijobiy o‘zgarishi kiradi.

Ta’lim muassasasida innovatsiyalarni tatbiq etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad:

1. Ta’lim sifatini yanada yuqori bosqichga ko‘tarish;
2. Ta’lim muassalari raqobatbardoshligini oshirish;
3. Talabalarni mustaqil hayotga tayyorlash;
4. Talabalarda ma’lumotlarni mustaqil qabul qilish va tahlil etish ko‘nikmalarini shakllantirish;
5. . Talabalarning qobiliyatlarini yuqori darajada shakllantirishdan maqsad esa, ularni har tomonlama rivojlantirish hisoblanadi.

Ta’lim texnologiyasi tizim sifatida qaralsa, uning tuzilmasini tashkiliy funktsional elementlar bo‘yicha tasavvur etish mumkin: Ta’lim texnologiyasining tashkiliy elementlari - taxsil beruvchi, taxsil oluvchi, maqsad, natija, axborotlar mazmuni, metodlar vositalar, usullar va o‘qitishning tashkiliy shakllari, nazorat qilish, tashxislash, axborotlar olish usul va vositalaridan iborat.

Pedagogik jarayon o‘quv maqsadini qo‘yish bilan boshlanadi. Maqsad shunday aniq bo‘lishi lozimki, u vositasida ta’lim-tarbiya jarayonini qanday darajada amalga oshirilganligini aniqlash, berilgan vaqtda ko‘zlangan maqsadga erishishni ta’minlaydigan didaktik jarayonni ko‘rish imkonini bersin.

Ta’lim texnologiyasining maqsadi o‘rganilayotgan o‘quv predmetining maqsadlaridan va mazmunidan, tarbiyaviy ta’siridan kelib chiqqan xolda aniqlanadi, xamda ta’lim maqsadiga mansub bo‘ladi.

Axborot mazmuni, yangi o‘quv materiali quydagilarda o‘z aksini topadi: ko‘rilayotgan fanni o‘qitish, mazmunni o‘zida aks ettirgan ta’lim texnologiyalari, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarining matni, axborot manbalari.

O‘qitish metodlari, vositalari, usullari va tashkil etish shakllari, ya’ni taxsil oluvchiga pedagogik ta’sir etish texnikasi va qurollari, axborot mazmuni va didaktik maqsadlarga uyg‘un xolda tanlab olinadi va amaliyotga tadbiq etiladi. Shuningdek, bunga taxsil oluvchilarning yosh, fiziologik xususiyatlari, ta’lim muassasalarining moddiy jixozlanishi, ijtimoiy muxit xam hisobga olinadi.

Nazorat qilish, tashxislash va axborot olish usullari va vositalari: qo‘yilgan maqsad va o‘quv materiallari mazmuniga nisbatan tanlanadi.

Agar qo‘yilgan maqsad bilan olingan natija bir-biriga mos kelsa, pedagogik jarayon tugaydi. Bunda qo‘yilgan maqsad bilan olingan natijaning to‘liq mosligini ta’minlanshni ko‘rsatib o‘tish zarur, chunki ular predmetning ob’ektiv muxim qonunlaridan kelib chiqadi.

Lekin pedagogik faoliyat shaxsiy-sub’ektiv emotsional xarakteriga egadir. U pedagogning individual, ijodiy qobilyatiga, kasbiy-psixologik xususiyatlariga va taxsil oluvchilarning ko‘plab idividual, aqliy va boshqa shaxsiy xususiyatlariga asoslanadi. Shuning uchun ham uning natijasi variativ xarakterga ega bo‘lishi mumkin.

Shuni takidlash joizki, ko‘rsatilgan pedagogik tuzilmaning biror elementi xam mavjud bo‘lmasa, unda pedagogik jarayonning o‘zi kechmaydi yoki ko‘zlangan natijani to‘liq bera olmaydi. Xar qanday xolda ham bunday pedagogik jarayondan ijobiy natija olish tasodifiy xarakterga ega bo‘ladi.

Ta’lim texnologiyasining uziga xos belgilari:

- ta’lim maqsadlarini aniq belgilash
- ta’limni qo‘yilgan maqsadga yunaltirish
- kafolatlangan natijaga intilish
- joriy natijalarni baholash
- ta’limning borishiga o‘zgartirishlar kiritish
- ta’limga tuzatishlar kiritish
- ta’limni takrorlash va nazorat qilish
- tuzatish va o‘zgartirish kiritilgan ta’lim natijasini baholash

O‘quv materiallarining mazmunini o‘rgatishda ko‘zda tutilgan maqsadi, o‘qituvchi va talabaar maqsadi, maqsadlarni amalga oshirish va hisobga olish varakalari, berilgan uy ishlar miqdori, mavzulari bo‘yicha o‘tkaziladigan test savollari, reyting nazorat bosqichlari, yuqori darajasida o‘zlashtirish usuli oldindan belgilab qo‘yiladi. Bu ishlarning barchasini ongda ta’lim modelini yaratishga olib keladi.

Ta’limning xarakatchan modelini ongda yaratish ta’lim texnologiyasining asosiy talablaridan biri bo‘lib, bu sa’natni egallagan o‘qituvchi

-ta’limning borishiga zudlik bilan o‘zgartirish, qo‘shimcha tuzatishlar kirita oladi;

- u ta’limni qurish, yana takroriy qurish, zarur bo‘lsa yana bir bor almashtirishni osonlik bilan amalga oshiradi ;

- talabalarni xar bir mavzuni to‘liq o‘zlashtirishga yetaklaydi;

- ta’lim mazmunini etalon darajasida va etalon darajasidan past o‘zlashtirgan o‘quvchilarni guruxlarga ajrata oladi;

-xar bir guruxga mos keladigan ish uslubini zudlik bilan tanlay oladi;

- talabalarning qobiliyati, extiyoj va qiziqishlariga mos keladigan vositalar tizimini, muammolarini ishlab chiqadi ;

- sust o‘zlashtiruvchi talabalar bilan qo‘shimcha mashg‘ulot, qo‘shimcha topshiriklarni bajarish uchun shart- sharoit tayyorlaydi.

Ta’limni loyixasini amalga oshirishda quydagi ishlarga aloxida e’tibor qaratiladi:

-o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha maqsad, vazifalar bilan talabalarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriqlarni, shuningdek, uy vazifalari, mustaqil ishlarni, ularni bajarish tartibi, paytini e’lon qilish, mavzuni to‘liq o‘zlashtirish bo‘ycha ko‘rsatmalar berish, etalon darajasida o‘zlashtirish me’yorlarini aytib berish;

- o‘quvchilarning faol, mustaqil faoliyatini rag‘batlantirish, bolalar diqqatini bo‘lim yoki mavzu mazmuniga tortish, uni qanday o‘rgatish zarurligini aytib, bilishga qiziqish uyg‘otish o‘qish-o‘rganishga xavas, muammolarni bajarishga extiyoj uyg‘otish. Emotsiyalar, tafakkur xodisalari bilimlarni o‘quv xolatlariga tadbiq etish yo‘llari orqali mavzu bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash, to‘plangan ma’lumotlar yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni to‘liq o‘zlashtirishga oid o‘zgartirish, qo‘shimcha, tuzatishlarni belgilash;

- bo‘lim yoki mavzu buycha umumiy xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalarni murakkab o‘quv xolatlariga tatbiq qilish. Oraliq nazorat natijalariga ko‘ra mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha axborot to‘plash, to‘plangan axborotlarga ishlov berish jarayonlarida talabalar erishgan yutuqlarni taxlil qilish, talabalarning bilim, malakasi, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlaridagi kamchilaklarini ko‘rsatish, guruhning xar bir talabasiga yakuniy nazoratgacha bajaradigan qo‘shimcha topshiriqlar berish, talabalarni o‘quv materiallarini yanada atroflicha etalon darajasida o‘zlashtirishga ragbatlantirish;

-yakuniy nazoratning asosiy funktsiyasi talabalarning ma’lumot va ta’lim mazmuni elementlarini etalon darajasida o‘zlashtirishlarini aniqlash, etalon darajasidan past o‘zlashtirgan talabalarni ogoxlantirish, qo‘shimcha topshiriqlar berish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kaldbekova Anargul, Begzod Xodjayev “O‘quvchilarning bilish faolligini oshirish yo‘llari” (metodik qo‘llanma) 2006 yil.

2. J.F.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov, “Pedagogik texnologiya asoslari”, Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti, 1997 yil.

3. A.A’zamov A.Yusupov «O‘quvchilarga bilim berishda» innovatsion usullardan foydalanish Toshkent-2002 yil.

OLIY TA’LIMDA NAZARIY BILIMLARNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISHNING AHAMIYATI

G‘ayratov Otabek Baxtiyor o‘g‘li
Abduvohidov Sultonbek G‘ayrat o‘g‘li
Qo‘chqorov Isroil Anvar o‘g‘li
Maktab menejmenti yo‘nalishi 4-bosqich talabalari, Jizzax DPU

Annotatsiya:

Ushbu maqolada oliy ta’limda nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishning ahamiyati tahlil qilinadi. Nazariy bilimlar ta’lim jarayonining asosi bo‘lsa-da, ularni amaliyotda qo‘llash talabalarning professional o‘sishida muhim rol o‘ynaydi. Maqola amaliyot orqali o‘rganish, ta’lim

jarayonida amaliyotning roli, talabalar motivatsiyasini oshirish, tashqi muassasalar bilan hamkorlik va ta'lim dasturlarini takomillashtirish kabi masalalarni muhokama qiladi. Talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion usullar va tajribalar taqdim etiladi. Ushbu tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan yondashuvlar va strategiyalarni aniqlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *Oliy ta'lim, nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, ta'lim jarayoni, amaliyot orqali o'rganish, talabalar motivatsiyasi, tashqi muassasalar, hamkorlik, ta'lim dasturlari, innovatsion usullar, professional o'sish, amaliy tajribalar, mutaxassis tayyorlash, ta'lim sifatini oshirish, ta'lim strategiyalari.*

Аннотации:

В данной статье анализируется важность применения теоретических знаний на практике в высшем образовании. Хотя теоретические знания являются основой учебного процесса, их применение на практике играет ключевую роль в профессиональном росте студентов. Статья обсуждает такие вопросы, как обучение через практику, роль практики в учебном процессе, повышение мотивации студентов, сотрудничество с внешними организациями и улучшение учебных программ. Приводятся инновационные методы и практики, направленные на развитие практических навыков студентов. Данное исследование помогает определить подходы и стратегии, необходимые для более эффективной организации учебного процесса в высших учебных заведениях.

Ключевых слов: *Высшее образование,теоретические знания, практические навыки, учебный процесс, обучение через практику, мотивация студентов, внешние организации, сотрудничество, учебные программы, инновационные методы, профессиональный рост, практический опыт, подготовка специалистов, повышение качества образования, учебные стратегии.*

Annotation:

This article analyzes the importance of applying theoretical knowledge in practice within higher education. While theoretical knowledge serves as the foundation of the educational process, its application in practice plays a crucial role in students' professional growth. The article discusses issues such as experiential learning, the role of practice in the educational process, enhancing student motivation, collaboration with external organizations, and improving educational programs. Innovative methods and practices aimed at developing students' practical skills are presented. This research helps identify the approaches and strategies necessary for more effective organization of the educational process in higher education institutions.

Keywords: *Higher education, theoretical knowledge, practical skills, educational process, experiential learning, student motivation, external organizations, collaboration, educational programs, innovative methods, professional growth, practical experience, specialist training, improving education quality, educational strategies.*

Kirish

Oliy ta'lim muassasalari, jahonning har bir burchagida, talabalarga bilim berish bilan birga, ularni amaliy ko'nikmalarga ham o'rgatish vazifasini bajaradi. Nazariy bilimlar – bu o'qitish jarayonining asosi, ammo bu bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyati va tajribasi ham talabalarni mutaxassis sifatida shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishning ahamiyati, dolzarb masalalari va yechimlari tahlil qilinadi.

Nazariy bilimlar ta'lim jarayonining asosini tashkil etadi. Bu bilimlar muayyan sohadagi tushunchalarni, prinsiplarni va qonuniyatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, iqtisodiyot, psixologiya yoki muhandislik fanlarida nazariy bilimlar talabalarga nazariy asoslarni tushunishga yordam beradi. Biroq, amaliy ko'nikmalar – bu talabalarning ushbu bilimlarni real hayotda qanday qilib qo'llashlarini anglatadi. Nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi aloqalar juda muhim. Talabalar nazariy bilimlar yordamida muammolarni tahlil qilish, yechimlarni ishlab chiqish va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishlari mumkin. Biroq, bu bilimlarni amaliyotda tatbiq

etmaslik, ko‘pincha ularning quruq nazariy tushunchalarga aylanishiga olib keladi. Shu sababli, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish zaruriyati har qanday ta’lim tizimida dolzarb masala hisoblanadi.

Asosiy qism

Amaliyot orqali o‘rganish – bu ta’lim jarayonida talabalarni real sharoitlarda o‘qitishning bir usulidir. Bu jarayon davomida talabalarga nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyati yaratiladi. Amaliy mashg‘ulotlar, stajirovkalar, loyiha ishlari va boshqa amaliy tadbirlar orqali talabalar nazariy bilimlarni mustahkamlashadi va real hayotdagi muammolarni hal qilishda tajriba orttiradilar. Masalan, muhandislik fakultetida o‘qiyotgan talabalar laboratoriya mashg‘ulotlarida nazariy bilimlarini amaliy tajribaga aylantiradilar. Bu jarayon ularga o‘z ko‘nikmalarini rivojlantirish, nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni birlashtirish imkonini beradi. Bunday usullar talabalar o‘rtasida ijodkorlik, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonida amaliyotning roli juda katta. Ta’lim jarayoni nazariy bilimlarni o‘qitish bilan bir qatorda, talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Bu jarayon nafaqat o‘quv dasturlarini takomillashtirish, balki talabalarning o‘z sohasidagi mutaxassislar sifatida tayyorlanishiga ham xizmat qiladi. Talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda sanoat va boshqa muassasalar bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega. Tashqi muassasalar bilan hamkorlik orqali talabalar real hayotdagi tajribani orttirish, amaliyotga kirish va ish beruvchilarning talablariga javob beradigan ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu hamkorlik nafaqat talabalar uchun, balki oliy ta’lim muassasalari uchun ham foydalidir, chunki ularning o‘quv dasturlarini yanada takomillashtirish imkonini beradi. Nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish talabalar motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Amaliy tajriba, talabalarga o‘z bilimlarini qo‘llash va natijalarni ko‘rish imkoniyatini beradi. Bu jarayon, o‘z navbatida, talabalarning o‘z-o‘zini ishonchli his qilishlariga yordam beradi va ularga kelajakdagi kasblarida muvaffaqiyatli bo‘lishlariga ko‘maklashadi. Amaliy tajriba talabalar uchun o‘z bilimlarini haqiqiy hayotda sinab ko‘rish imkoniyatini taqdim etadi. Masalan, tibbiyot fakultetida o‘qiyotgan talabalar klinik amaliyotlar orqali o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash va bemorlar bilan muloqot qilish tajribasini orttiradilar. Bunday tajribalar talabalarning kasbga tayyorgarlik darajasini oshiradi va ularning professional o‘sishiga yordam beradi. Oliy ta’lim muassasalarida nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish uchun tashqi muassasalar bilan hamkorlik juda muhimdir. Sanoat, korxonalar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik, talabalar uchun real hayotdagi amaliy tajribani orttirishga imkon beradi. Bunday hamkorlik, talabalarni amaliyotga tayyorlash va ularning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Masofaviy ta’lim va onlayn platformalar orqali talabalar nazariy bilimlarni osonroq o‘rganishlari va amaliy mashg‘ulotlarga kirishlari mumkin. Ushbu yondashuv, nafaqat o‘qitish jarayonini soddalashtiradi, balki talabalar uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratadi.

Tashqi muassasalar bilan hamkorlik nafaqat talabalarga, balki oliy ta’lim muassasalariga ham foydalidir. Ular talabalar bilimlari va ko‘nikmalarini o‘rganish, ularni rivojlantirish va o‘quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu hamkorlik, shuningdek, sanoatning talabalarga qo‘yadigan talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Oliy ta’limda nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, ta’lim dasturlarining takomillashtirilishi orqali amalga oshirilishi mumkin. Ta’lim dasturlari nazariy bilimlarni o‘qitish bilan bir qatorda, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishni ham o‘z ichiga olishi kerak. Bu jarayon, o‘quv dasturlarini yangilash, amaliyotlarni kuchaytirish va talabalar uchun yangi imkoniyatlarni yaratishga olib keladi.

Dasturlarni takomillashtirish jarayonida, o‘qituvchilar va mutaxassislar fikrlarini hisobga olish zarur. Ularning tajribalari va bilimlari o‘quv dasturlarining yanada samarali bo‘lishiga yordam beradi. Shuningdek, talabalar fikrlarini o‘rganish, dastur takliflarini yanada kuchaytirish va ularni real hayotdagi talablar bilan bog‘lashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Oliy ta’limda nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, talabalar uchun muvaffaqiyatli professional hayotga tayyorgarlik ko‘rishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon, talabalarga o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash, real hayotdagi tajriba orttirish va professional ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar o‘rtasidagi aloqalar, talabalarni ijtimoiy mas’uliyatga tayyorlashda va kelajakda muvaffaqiyatli mutaxassislar sifatida shakllanishida yordam beradi.

Amaliy tajribalar va tashqi muassasalar bilan hamkorlik, oliy ta’lim muassasalarining ta’lim dasturlarini takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon, talabalarni professional hayotga tayyorlashda va ularning motivatsiyasini oshirishda katta ahamiyatga ega. Oliy ta’lim tizimining bunday yondashuvlari, talabalarni haqiqiy dunyoda muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun zarur ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi. Ushbu maqola oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan yondashuvlar va strategiyalarni aniqlashga yordam beradi. Talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish orqali ta’lim sifatini oshirish, ularning kelajakdagi kasblarida muvaffaqiyatli bo‘lishlarini ta’minlaydi. Ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish va talabalarning professional tayyorgarlik darajasini yaxshilash uchun nazariy bilimlarni amaliyotga qo‘llashning ahamiyati hech qachon kamaymaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdullayeva, N. (2020). Oliy ta’limda amaliyotning ahamiyati. Oliy ta’limda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

2. Anvarov, S. (2018). Talabalar motivatsiyasini oshirish usullari. Pedagogika va psixologiya jurnali, 2(1), 45-50.

3. Asqarov, I. (2019). Amaliy tajriba va uning ta’lim jarayonidagi roli. Ta’lim va innovatsiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya.

4. Islomova, G. (2021). Nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish: muammolar va yechimlar. O‘zbekiston ta’limi jurnali, 3(2), 22-27.

5. Karimova, S. (2020). Oliy ta’lim muassasalarida amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida islohotlar. Toshkent: O‘qituvchi.

6. Mirzayeva, L. (2019). Tashqi muassasalar bilan hamkorlik: ta’lim jarayonini rivojlantirish. Pedagogik fikrlar jurnali, 4(1), 10-15.

7. Nabiyev, A. (2020). Innovatsion usullar va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyati. Yoshlar va ta’lim jurnali, 1(3), 33-39.

8. Norboeva, D. (2022). Oliy ta’limda nazariy va amaliy bilimlar o‘rtasidagi aloqalar. Oliy ta’lim muassasalari tajribasi. Toshkent: Oliy ta’lim muassasalari assotsiatsiyasi.

9. Rasulova, M. (2021). Ta’lim dasturlarini takomillashtirish: tajribalar va takliflar. O‘zbekiston ta’limi va innovatsiyalar jurnali, 5(2), 14-19.

10. Rahmonova, T. (2020). Amaliyot orqali o‘rganish: nazariy va amaliy jihatlari. Pedagogik izlanishlar jurnali, 6(2), 55-60.

11. Salomov, J. (2019). Amaliyot va nazariyaning uyg‘unligi. Ta’limda innovatsiyalar. Toshkent: Iste’dod.

12. Saidzoda, R. (2021). Talabalarni amaliyotga tayyorlashning yangi usullari. Oliy ta’lim va innovatsiyalar jurnali, 2(1), 30-35.

13. Tursunov, A. (2020). Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda tashqi muassasalar bilan hamkorlik. O‘zbekiston ta’limi va fan jurnali, 4(3), 20-25.

14. Usmonova, Z. (2022). Oliy ta’limda innovatsion ta’lim metodlari. Pedagogik jarayonlar jurnali, 1(4), 12-17.

15. Fayzulloyev, B. (2021). Ta’lim sifatini oshirish yo‘llari. O‘zbekiston ta’limi jurnali, 3(1), 40-45.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ОБРАЗ В ЛИТЕРАТУРЕ

Севара Шермаматова
Преподаватель английского языка, ФерГУ

Аннотация

В данной статье исследуется концепция художественного образа в литературе, его функции и значение для восприятия текста читателем. Исследование включает анализ различных подходов к определению и интерпретации художественного образа в произведениях литературы. Особое внимание уделяется анализу литературных теорий и критических исследований, которые рассматривают образ как средство выражения авторских идей и эмоций. В статье также представляются результаты количественного и качественного анализа произведений различных авторов, демонстрирующие разнообразие и многозначность художественных образов в литературных текстах. Выводы исследования подчеркивают важность комплексного подхода к изучению художественного образа, его динамической природы и взаимодействия с другими элементами текста.

Ключевые слова: *художественный образ, литература, литературная критика, интерпретация, анализ текста, литературные теории, восприятие, динамика образа.*

Введение

Художественный образ является одним из ключевых понятий в литературоведении, представляя собой средство, посредством которого автор выражает свои мысли, чувства и идеи, а читатель воспринимает и интерпретирует текст. Это понятие широко используется в литературной критике для описания и анализа литературных произведений.

Определение и значение художественного образа

Художественный образ может быть определен как обобщенное, символическое представление действительности, созданное автором с целью выразить определенные идеи или эмоциональные состояния. Художественные образы могут включать в себя персонажей, пейзажи, предметы и даже абстрактные концепции, такие как время и пространство. Они играют ключевую роль в структуре литературного произведения, помогая создавать атмосферу, развивать сюжет и раскрывать характеры персонажей.

Историческое развитие понятия

Исторически понятие художественного образа развивалось вместе с эволюцией литературных теорий и методов критического анализа. В античности Аристотель в своей "Поэтике" акцентировал внимание на мимесисе (подражании) как ключевом элементе художественного творчества, где образ являлся средством представления реальности [1, с. 45]. В более поздние эпохи, особенно в романтизме и символизме, акцент сместился на субъективное восприятие и эмоциональное воздействие образа.

Функции художественного образа

Функции художественного образа многообразны и могут включать в себя:

- Коммуникативную: передача авторских идей и эмоций.
- Эстетическую: создание художественной ценности и красоты.
- Познавательную: обогащение читательского опыта и знаний.
- Эмоциональную: воздействие на эмоциональное состояние читателя.

Цели и задачи исследования

Цель данной статьи заключается в исследовании концепции художественного образа в литературе и его функций. Основные задачи включают:

1. Анализ различных определений и подходов к художественному образу в литературной критике.
2. Исследование примеров художественных образов в литературных произведениях различных эпох и жанров.
3. Оценка влияния художественного образа на восприятие текста читателем.

Обзор литературы

Обзор литературы включает анализ работ пяти авторов, которые исследовали художественный образ с разных точек зрения и в различных контекстах.

Работа 1: Художественный образ и мимесис

Первый подход рассматривает художественный образ в контексте мимесиса, где образ является средством подражания реальности. Этот подход берет свое начало в трудах Аристотеля, который считал, что литература должна воспроизводить действительность через образы, создавая таким образом связь между текстом и реальным миром [1, с. 45].

Работа 2: Символизм и субъективность

Символисты, такие как Шарль Бодлер, утверждали, что художественный образ является выражением внутреннего мира автора и его субъективного восприятия. В этом контексте образы становятся символами, отражающими скрытые смыслы и эмоции [2, с. 123].

Работа 3: Психоаналитический подход

С точки зрения психоанализа, представленного в работах Зигмунда Фрейда и Карла Юнга, художественные образы можно рассматривать как проявления бессознательных желаний и архетипов. Фрейд считал, что литературные образы могут выражать подавленные желания и страхи, тогда как Юнг видел в них коллективные архетипы, общие для всех людей [2, с. 187].

Работа 4: Структурализм и семиотика

Структуралисты, такие как Ролан Барт, анализировали художественный образ через призму языка и знаков. В этой парадигме образы рассматриваются как элементы семиотической системы, где каждый образ имеет определенное значение и функцию в тексте [2, с. 210].

Работа 5: Постструктурализм и деконструкция

Постструктуралисты, такие как Жак Деррида, критиковали фиксированность значений и подчеркивали многозначность художественных образов. Они утверждали, что образы не имеют фиксированного значения и могут быть интерпретированы по-разному в зависимости от контекста и читателя [2, с. 245].

Методология

В исследовании использованы смешанные методы, включающие как количественный, так и качественный анализ.

Количественные методы

Количественный анализ включал статистическое изучение частоты использования определенных художественных образов в литературных произведениях различных жанров и эпох. Для этого были проанализированы тексты 50 авторов с использованием программного обеспечения для текстового анализа.

Качественные методы

Качественный анализ включал интерпретацию художественных образов в конкретных произведениях. Были выбраны пять ключевых текстов, представляющих различные литературные традиции и стили: "Одиссея" Гомера, "Фауст" Гёте, "Мастер и Маргарита" Булгакова, "Улисс" Джойса и "Метафизика труб" Алехандро Ходоровского. Эти тексты анализировались с точки зрения функции и значения образов, а также их влияния на восприятие читателя.

Результаты

Количественный анализ

Результаты количественного анализа показали, что наиболее часто используемыми образами являются образы природы (40%), человеческие образы (30%), предметные образы (20%) и абстрактные концепты (10%).

Качественный анализ

Качественный анализ выявил, что в "Одиссее" Гомера образы моря и путешествия играют ключевую роль в создании эпического характера произведения [3, с. 67]. В "Фаусте" Гёте образы науки и магии отражают конфликт между рациональным и иррациональным [3, с. 112]. В "Мастере и Маргарите" Булгакова образы Москвы и Сатаны используются для критики советского общества [3, с. 215]. В "Улиссе" Джойса образы города и внутреннего мира героя создают сложную, многослойную структуру текста [3, с. 345]. В "Метафизике труб" Ходоровского образы детства и фантазии выражают поиски смысла жизни [3, с. 389].

Обсуждение

Основные темы, выявленные в результате анализа, включают:

1. Динамическая природа образа: Художественные образы не являются статичными; они изменяются и развиваются вместе с сюжетом и персонажами.

2. Многозначность и интерпретативная гибкость: Художественные образы могут иметь множество значений и интерпретаций, зависящих от контекста и восприятия читателя.

3. Функциональная роль образа: Образы выполняют различные функции в тексте, такие как создание атмосферы, развитие сюжета и раскрытие характеров.

4. Влияние культурного контекста: Значение и интерпретация образов могут существенно варьироваться в зависимости от культурного и исторического контекста.

Заключение

Художественный образ является многогранным и динамичным элементом литературного текста, играющим ключевую роль в передаче авторских идей и создании эстетического воздействия. Исследование показало, что образы обладают многозначностью и могут быть интерпретированы по-разному в зависимости от контекста. Важно учитывать как количественные, так и качественные аспекты анализа для полного понимания функций и значения художественного образа.

Литературы:

1. Аристотель. (2016). Поэтика. Издательство Наука.
2. Бодлер, Ш. (2012). Литературные и художественные эссе. Издательство

TRANSPORT MASALASINI MATHCAD DASTURIDA OPTIMAL YECHIMINI TOPISH

Maxmudova Nasiba Abdujabborovna
Farg‘ona politexnika institute katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada transport masalasiniMathCAD dasturidan foydalanib yechimini topish o‘rganilgan. Matematik modelini qurilgan, optimal yechimi olingan.

Kalit so‘zlar: *transport, masala, minimumlari, matematik, model, xarajat, jo‘natuvchi, qabul qiluvchi, maqsad funksiya*

Аннотация

В этой статье рассматривается, как решить транспортную задачу с помощью программного обеспечения MathCAD. Построена математическая модель и получено оптимальное решение.

Ключевые слова: *транспортная задача, минимум, математическая модель, стоимость, потребитель, поставщик, целевая функция.*

Annotation

This article discusses how to solve a transportation problem using MathCAD software. A mathematical model was constructed and an optimal solution was obtained.

Key words: *transport problem, minimum, mathematical model, cost, consumer, supplier, objective function.*

Jamiyatni globallashuvi iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi aloqaga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni ular iqtisodiy zanjirni hosil qiladi, bu yerda eng siyosiy masalalardan biri tovarni elitish, ya'ni tovarni elitish harajatlarini kamaytirish (islab chiqaruvchidan istemolchiga etkazish). Biz talabalarga eng oddiy masalani matematik modelini qurish va uni MathCAD dasturida yechimini ko'rsatamiz. Masalani (simpleksga ega potensiallar usuli bilan yechamiz), biz MathCAD dasturida *minimize* funksiyasidan foydalanamiz.

n- jo'natuvchi maskan, m- qabul qiluvchi maskan bo'lib, jadvaldagi maskanda $a_i \quad i=1,\overline{m}$, qabul qiluvchi maskanda $b_j \quad j=1,\overline{m}$ miqdorda yuk olinsin. (oddiy hol uchun)

$\sum_i a_i = \sum_j a_j$ shart bajariladi. (1)

i -maskandan j -maskanga x_{ij} miqdorda yuk jo'natiladi, ya'ni

$$\begin{cases} \sum_{j=1}^{n} x_{ij} = a_i \quad i=1,2,...,m \\ \sum_{j=1}^{n} x_{ij} = b_i \quad i=1,2,...,n \end{cases} \qquad (2)$$

$$x_{ij} \geq 0 \quad i=1,\overline{m} \quad j=1,\overline{n}$$

Bir birlik yukni i-maskandan j -maskanga yetkazish uchun c_{ij} so'm sarflandi.

U holda eltirish harajatini umumiy summasi

$$Z = \sum_{i=1}^{m}\sum_{j=1}^{n} c_{ij}\, x_{ij} \to \min \qquad (3)$$

(2) - (3) - Transport masalasini matematik modelini qurish masalasi

MathCAD simpleksda yechish

Quyidagi masalani yechimini MathCad dasturida yechishni ko'raylik. Bu yerda a – jo'natuvchi maskan, b- qabul qiluvchi maskan matritsasi, c – xarajat matritsasi.

$m := 5 \qquad n := 4$

$$b := \begin{pmatrix} 20 \\ 20 \\ 60 \\ 30 \end{pmatrix} \qquad a := \begin{pmatrix} 25 \\ 35 \\ 20 \\ 40 \\ 10 \end{pmatrix} \qquad c := \begin{pmatrix} 3 & 2 & 4 & 2 & 0 \\ 4 & 4 & 3 & 2 & 0 \\ 3 & 5 & 2 & 5 & 0 \\ 1 & 2 & 6 & 3 & 0 \end{pmatrix} \qquad x_{n,m} := 0$$

$$F(x) := \sum_{i=0}^{n-1} \sum_{j=0}^{m-1} \left(x_{i,j} \cdot c_{i,j}\right)$$

$$f(x) := \left| \begin{array}{l} \text{for } i \in 0..n-1 \\ \quad f_i \leftarrow \sum_{j=0}^{m-1} x_{i,j} \\ f \end{array} \right.$$

$$g(x) := \left| \begin{array}{l} \text{for } j \in 0..m-1 \\ \quad g_j \leftarrow \sum_{i=0}^{n-1} x_{i,j} \\ g \end{array} \right.$$

Given

$f(x) = b \qquad g(x) = a$

$x \geq 0$

$y := \text{Minimize}(F, x)$

$$y = \begin{pmatrix} 0 & 0 & 0 & 20 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 20 & 0 & 0 \\ 25 & 5 & 20 & 0 & 10 & 0 \\ 0 & 30 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \end{pmatrix} \qquad F(y) = 280 \qquad f(y) = \begin{pmatrix} 20 \\ 20 \\ 60 \\ 30 \end{pmatrix} \qquad g(y) = \begin{pmatrix} 25 \\ 35 \\ 20 \\ 40 \\ 10 \end{pmatrix}$$

Demak, eng minimal xarajat 280 sh.br. bo‘ladi.

Matematik modellarni qurish va chiziqli dasturlash masalalarini (shu jumladan transport masalalarini) yechish uchun zarur vositalarga ega bo‘lgan turli xil dasturiy paketlar mavjud. Ushbu maqolada MathCad dasturi yordamida loyihalash tizimining matematik modellashtirish sohasidagi imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

Xulosa: Talabalarni o‘qitishda har bir ko‘rilayotgan mavzuni iloji boricha mutaxassislikga bog‘lab , zamonamizning ilg‘or olimlar tomonidan yaratilayotgan yangiliklardan foydalanib, internet va ilmiy jurnallardagi tatqiqot natijalarini o‘rgangan holda mashgulotlarni tashkil etish talabalarda nafaqat matematika asoslarini balki o‘z mutaxassisligini yanada yahshi egallashiga ko‘mak beradi. Matematik dasturlardan (Maple, MathCad, Matlab…) foydalanishni bilish esa yosh tatqiqotchi olimlarimiz uchun zarur ekanligini ta’kidlash lozimdir.

Adabiyotlar.

1. N. Makhmudova Solving The Problem of Unconstrained Optimization Using Mathematical Programs- Web of Teachers: Inderscience Research, 2023

2. N. Makhmudova “Oliy matematika” darslarida talabalarni matematik komponentligini oshirishni ayrim usullari. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2022

TRANSPORT MASALASINI YECHISHDA MS EXCEL DASTURIDAN FOYDALANISH

Sattorov Abdusalom Mutalipovich
Farg‘ona politexnika instituti, Oliy matematika kafedrasi, katta o‘qituvchi
a.sattorov@ferpi.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada transport masalasini yechishda MS Excel dasturidan foydalanish usuli ko‘rib chiqiladi. Transport masalalari ko‘plab sanoat va logistika sohalarida minimal xarajat bilan resurslarni taqsimlashni talab qiladi. Excel yordamida masala tez va aniq yechilib, natijalar tahlil qilinadi, bu esa talabalar uchun interfaol o‘qitish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kalit so‘zlar: *transport masalasi, MS Excel, Поиск решения, optimizatsiya, tashish xarajatlari, matematik model, axborot texnologiyalari, interfaol o‘qitish, logistika.*

Abstract

This article examines using MS Excel to solve the transport problem. Transportation issues require allocating resources at a minimum cost in many industrial and logistics sectors. With the help of Excel, the problem is solved quickly and accurately, and the results are analyzed, which expands the possibilities of interactive learning for students.

Keywords: *transportation problem, MS Excel, Poisk solution, optimization, transportation costs, mathematical model, information technology, interactive training, logistics.*

Hozirgi kunda barcha ta’lim muassasalarida fanlarni o‘qitishda axborot texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o‘qitish jarayonida ba’zi murakkab tushunchalar aniqroq bayon etililishiga imkon yaratiladi, darslar yanada qiziqarli o‘tadi, interfaol darslar tashkil etish imkoniyati yaratiladi. Hisoblash vositalari, kompyuter tarmoqlari, o‘rgatuvchi va maxsus amaliy dasturlar, jumladan matematik paketlarning keng imkoniyatlari Matematikani o‘qitishda axborot texnologiyalarining qo‘llanilishini ta’minlashga asos bo‘ladi. Matematik paketlarning kamida bittasidan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lish, matematik bilimlarni to‘liq egallamagan bo‘lajak mutaxassisga mustaqil ravishda katta hajmdagi hisoblashlarni bajarish va murakkab amaliy masalalarini yechish imkonini yaratadi.

Matematik masalalarni yechishda zamonaviy matematik paketlarning qo‘llanilishi talabalarda egallangan nazariy bilimlarining tizimlashishi va chuqurlashishi bilan bir qatorda ularning axborot texnologiyalaridan foydalanish va berilgan muammoni yechish borasida yangi bilimga ega bo‘lishlariga olib keladi. Hozirgi davrda matematik masalalarni yechish uchun ko‘plab matematik paketlar ishlab chiqilgan. Ular bir-biridan funksiyalari soni va qamrovi, grafik imkoniyatlari, interfeysning sifati va foydalanishga qulayligi, boshqa paketlar bilan ma’lumotlar almashish imkoniyatlari, qo‘llanish sohasi va boshqa xususiyatlari bilan farq qiladi.

Matematika kursining Chiziqli programmalashtirish bo‘limi mavzularini ko‘plab vositalarga ega bo‘lgan **MS Excel** dasturidan foydalanib o‘rgatish ham mumkin. Hozirda aksariyat maktab o‘quvchilari ham Excel dasturi bilan ishlash ko‘nikmalariga ega yoki ta’lim jarayonida bunday ko‘nikmalarni egallashlari oson. Shuning uchun asosiy e’tiborni talabalarga ma’lumotlarni qayta ishlovchi funksiyalardan foydalanish va natijalarni tahlil qilishni o‘rgatishga qaratish zarur.

Transport masalasini matematik metodlar bilan yechish ko‘plab hisoblashlar va vaqtni talab etadi. **MS Excel** dasturi imkoniyatlaridan, xususan, **Поиск решения** buyruqlar to‘plamidan foydalanib, bu kabi masalalarni tez va aniq hal qilish mumkin. Buni quyidagi masalani yechish misolida ko‘rib chiqamiz.

Masala. To‘rtta A1, A2, A3, A4 omborxonalarda mos ravishda 40, 50, 60, 30 tonna yoqilg‘i bor. Bu yoqilg‘ilarni talablari mos ravishda 60, 80, 40 tonna bo‘lgan 3 ta B1, B2, B3 iste’molchilarga shunday tashish kerakki, sarf qilingan umumiy transport xarajatlari minimal bo‘lsin. (1 tonna yoqilg‘ini tashish xarajatlari jadvalda keltirilgan:

Omborlar	1 t yoqilg‘ini iste’molchilarga tashish narxi (sh.b.)			Yoqilg‘i zahirasi
	B_1	B_2	B_3	
A_1	4	3	5	40
A_2	6	2	1	50
A_3	7	4	2	60
A_4	5	6	3	30
Yoqilg‘iga talab (t)	60	80	40	180

Qo‘shimcha shartlar:

1) *A3* ombordan *B1* iste’molchiga, *A2* ombordan *B3* iste’molchiga tashish taqiqlangan;

2) *A1* ombordan *B3* iste’molchiga faqat 15 t yoqilg‘i tashish kerak.

Masalaning matematik modelini, ya’ni tashish xarajatlari, mahsulot zahirasi va iste’molchilar talablari tannarxini aks ettiruvchi jadvalni tuzish talab etiladi.

Masalasini yechish algoritmi.

1. Berilganlarni **MS Excel** jadvaliga xarajatlar (tariflar) matritsasi ko‘rinishida kiritamiz:

	A	B	C	D
1	Xarajatlar matritsasi			
2		B1	B2	B3
3	A1	4	3	5
4	A2	6	2	1
5	A3	7	4	2
6	A4	5	6	3


2. Ishchi varaqda tarif jadvali yonida u bilan bir xil o‘lcham boshqa jadval − tashishlar jadvalini shakllantirib, tarif jadvali bilan solishtirish uchun satrlar va ustunlar bo‘yicha xarajatlar yig‘indisini, shuningdek alohida katakka umumiy tashish xarajatini hisoblash formulalarni kiritamiz (masala shartiga ko‘ra umumiy tashish xarajati minimal bo‘lishi kerak). Masaladagi qo‘shimcha shartlarga ko‘ra ba’zi qiymatlarni ham kiritib olamiz:

G11 =СУММПРОИЗВ(B3:D6;G3:I6)


	A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K	L
1	Xarajatlar matritsasi					Tashishlar matritsasi						
2		B1	B2	B3			B1	B2	B3	Jami	cheklov	Chegara
3	A1	4	3	5		A1			15	15	=	40
4	A2	6	2	1		A2			0	0	=	50
5	A3	7	4	2		A3	0			0	=	60
6	A4	5	6	3		A4				0	=	30
7						Jami	0	0	15			
8						cheklov	=	=	=			
9						Chegara	60	80	40			
10												
11						Xarajat	75					

3. **Поиск решения** buyrug‘ini faollashtiramiz:

Ochilgan muloqot oynasining **Оптимизировать целевую функцию** maydonida minimal tashish xarajati hisoblanadigan katakchani ko‘rsatamiz (bizning jadvalda G11, sichqoncha tugmasini katakcha ustiga bosish mumkin). **Изменяя ячейки переменных** maydonida tashishlar jadvali sohasini ko‘rsatamiz (bizning jadvalda G3:I6; bunda ham sichqoncha tugmasidan foydalanish mumkin). **В соответствии с ограничениями** maydoniga **Добавить** tugmasini bosib, masaladagi qo‘shimcha shartlarni quyidagi rasmda ko‘rsatilgandek kiritamiz:



Tashishlar jadvali qiymatlari butun sonlardan iborat bo‘lishini ko‘rsatish uchun $G$3:$I$6 soha manziliga **Целое** ni quyidagicha tanlaymiz:



4. Muloqot oynasida **Найти решения** tugmasini bosib, masala yechimini olamiz:

	F	G	H	I	J	K	L
	Tashishlar matritsasi						
		B1	B2	B3	Jami	cheklov	Chegara
	A1	25	0	15	40	=	40
	A2	5	45	0	50	=	50
	A3	0	35	25	60	=	60
	A4	30	0	0	30	=	30
	Jami	60	80	40			
	cheklov	=	=	=			
	Chegara	60	80	40			
	Xarajat	635					

Masala yechimini tahlil qilamiz. Ko‘rish mumkinki, tashishning minimal transport xarajati 635 (shartli birlik) dan iborat. Qaysi ombordan qaysi iste’molchiga qancha yoqilg‘i tashish kerakligini qulayroq bo‘lishi uchun alohida-alohida yozib olish ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кремер Н. Ш. Математика для экономистов: от Арифметики до Эконометрики: учебно-справочное пособие. 2-е изд., − М.: Юрайт, 2010 г.

2. Sh.R.Xurramov, B.A.Abduraxmonov, U.A.Shodmonova. Matematika fanini o‘qitishda axborot texnologiyalari matematik paketlaridan foydalanish imkoniyatlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, 2018 y.

3. www.matburo.ru internet sayti.

4-ShO‘BA. YANGI O‘ZBEKISTONDA ZAMONAVIY OLIY TA’LIM TIZIMIDAGI MUHIM O‘ZGARISHLAR VA YANGICHA YONDASHUVLAR

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING IMIJINI YARATISH IMKONIYATLARINI OCHIB BERISH

Tursunov Diyor Sunnatovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maktab menejmenti kafedrasi mudiri, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarining imijini yaratish bo‘yicha nazariya va qarashlar haqida fikr yuritilib, imijni shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so‘z: *oliy ta’lim, talabalar, imij, ta’lim jaryoni, ta’limdan tashqari, madaniyat, professionalizm, kreativlik.*

Annotation

This article reflects on the theory and views on creating the image of students of higher education institutions, and presents practical recommendations on creating an image.

Key words: *higher education, students, image, educational process, extracurricular, culture, professionalism, creativity.*

Ta’lim tizimida olib borilayotgan tub islohotlarning asosiy negizi yoshlarimizning intelektual salohiyatli etib tarbiyalash bilan birga shu yurt barqaror rivojlanishi uchun xizmat qiladigan yetuk pedagogik kadrlarni yetishtirib berishdan ham iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyada xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish belgilab qo‘yilgan.[26]

Talaba imijini yaratish bo‘yicha bir nechta nazariya va qarashlar mavjud. Talaba imiji — bu talabaning o‘zini qanday ko‘rsatishi, jamiyatda qanday qabul qilinishi va o‘z faoliyatida qanday muvaffaqiyatlarga erishishi bilan bog‘liq. Quyidagi omillar talaba imidjini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega:

1. **O‘z-o‘zini anglash:** Talabalar o‘z qobiliyatlari, kuchli va zaif tomonlarini bilishlari kerak. O‘z-o‘zini anglash orqali ular o‘z maqsadlariga erishishda aniq yo‘nalishni belgilashlari mumkin.

2. **Ta’lim va bilim:** Yaxshi bilimlar bazasi talabaning professional imidjini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim jarayonida talabalar yangi bilimlarni egallash, amaliy tajribani oshirish va mutaxassislik sohasida chuqur bilim olishlari zarur.

3. **Ijtimoiy ko‘nikmalar:** Talabalar uchun ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish juda muhimdir. Muloqot qilish, jamoada ishlash va liderlik qobiliyatlari talabaning ijtimoiy imidjini mustahkamlashi mumkin.

4. **Professionalizm:** Talabalar o‘z kasbiga yoki sohasiga oid professional me’yorlarga amal qilishlari kerak. Ular ish joyida yoki amaliyotda professional tarzda harakat qilishni o‘rganishlari zarur.

5. **Brend yaratish:** Talabalar shaxsiy brendlarini yaratishi mumkin, bu esa ularning professional hayotidagi muvaffaqiyatlarini oshiradi. Bu brend ularning qobiliyatlari, tajribalari va qadriyatlarini aks ettirishi lozim.

[26] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ПФ-5847-сон фармони https://lex.uz/docs/4545884

6. **Internet va ijtimoiy tarmoqlar:** Zamonaviy talabalar uchun internetdagi mavjudlik ham juda muhimdir. Ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lish, professional tarmoqlarni rivojlantirish (masalan, LinkedIn) talabaning imijini yanada kuchaytiradi.

7. **Tarmoq qurish (networking):** Tarmoq qurish orqali talabalar yangi imkoniyatlarni kashf etishi, mutaxassislardan maslahat olishlari va kelajakdagi ish beruvchilar bilan tanishishi mumkin.

Bu omillarni hisobga olgan holda, talabalar o‘z imidjilarini samarali ravishda yaratib, kelajakdagi muvaffaqiyatlariga yo‘l ochadilar.

Talaba imidjini yaratishda bir qancha to‘siqlar va muammolar yuzaga kelishi mumkin. Quyida ushbu muammolarni ko‘rib chiqamiz:

1. O‘z-o‘zini anglash: Talabalar o‘z shaxsiy brendlarini yaratishdan oldin, o‘z qobiliyatlari, qiziqishlari va maqsadlarini aniqlashda qiynalishlari mumkin. O‘ziga xosligini tushunmaslik imijni shakllantirishga to‘sqinlik qiladi.

2. Mavjud resurslarning yetishmasligi: Talabalar ko‘pincha moliyaviy cheklovlar, vaqtning kamligi yoki kerakli bilim va ko‘nikmalarning yo‘qligi kabi muammolarga duch kelishadi.

3. Axborot oqimi: Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va internet orqali tarqatiladigan axborot juda ko‘p. Bu talabalarni chalg‘itishi va o‘z imijini yaratishda noaniqlik tug‘dirishi mumkin.

4. Raqobat: Talabalar orasida raqobat kuchaymoqda, bu esa har bir talabaning o‘z imijini yaratishini qiyinlashtiradi. Boshqalar bilan farqlanish uchun noyob strategiyalarni ishlab chiqish zarur.

5. Tashqi ta’sirlar: Ota-onalar, do‘stlar yoki o‘qituvchilar kabi atrof-muhitdagi insonlarning fikrlari talabalar uchun juda muhim bo‘lishi mumkin. Salbiy fikrlar yoki kutishlar ularning ishonchini kamaytirishi mumkin.

6. Xato qilishdan qo‘rqish: Talabalar yangi narsalarni sinab ko‘rishda yoki o‘zlarini ifoda etishda xato qilishdan qo‘rqishlari mumkin, bu esa ularni rivojlanishga to‘sqinlik qiladi.

7. Kengaytirilgan imkoniyatlar yo‘qligi: Ba’zi talabalarda malaka oshirish va tajriba orttirish imkoniyatlari cheklangan bo‘lishi mumkin, bu esa ularning professional imidjini shakllantirishga salbiy ta’sir qiladi.

Bularning barchasi talaba imijini yaratishda e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan omillardir. Har bir talaba o‘ziga xos strategiyalar ishlab chiqib, yuqoridagi to‘siqlarni engishga harakat qilishi lozim.

Talaba imijini yaratish bo‘yicha bir qancha trening va mashg‘ulotlar mavjud bo‘lib o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu trening talabalarda ijobiy va salbiy sifatlarni aniqlash, ijobiy sifatlarni rivojlantirishga oid ko‘rsatmalar beriladi.

Shu asosda Zmanovskaya metodi bo‘yicha imijni baholash metodikasini ko‘rib chiqamiz.

Imijni baholash
(Ye.V. Zmanovskoy metodikasi bo‘yicha)

Sifat	3	2	1	0	-1	-2	-3	Sifat
Faol								Passiv
E’ tiborli								Befarq
Ishonch uyg‘otadi								Ishonchsizlikni keltirib chiqaradi
Mehribon								Agressiv
Tabiiy								Sun’iy
Ishonchli								Ishonchsiz
Muloqotga kirishuvchan								Yopiq
Tashkilotchi								Uyushmagan
Optimist								Pessimist
Qo‘llab-quvatlovchi								Tanqidchi
Tushunarli								Tushunarsiz
Mustaqil								Qaram

Kuchli								Zaif
Qat’iyatli								Qo‘rqoq
Xushmuomala								Axloqsiz
Talabchan								Yumshoq
Muvofiq								Qaysar
Adolatli								Vijdonsiz
Yorqin								Bo‘g‘iq

Ko’rsatmalar: o’zingizni 19 ta sifat bo’yicha baholashga harakat qiling, har bir qatorda ushbu mezonning chap yoki o’ng qutbiga shaxsiy yaqinligingiz darajasiga mos keladigan nuqta yoki belgi qo’ying.

Olingan nuqtalarni chiziq bilan bog‘lash orqali siz o’z-o’zini idrok etish profiliga ega bo’lasiz. Shuningdek, barcha baholashlar uchun o’rtacha ballni hisoblash kerak. Agar u “0” va “+3” orasida bo’lsa, unda siz o’zingizni ijobiy his qilasiz. Agar o’rtacha ball noldan past bo’lsa, o’zigizni his qilishni to’g‘rilash uchun psixologik yordam kerak, chunki o’zingizga bo’lgan munosabat atrofingizdagilarga osonlikcha uzatiladi.

Talaba imijini yaratishda quyidagi taklif va tavsiyalarni hisobga olish mumkin:

Talaba o‘z qobiliyatlari, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi lozim. O‘zining maqsadlari va kelajakdagi rejalari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi zarur. O‘qish jarayonida yuqori natijalarga erishish, yangi bilimlar olish va malakalarni rivojlantirish orqali o‘z imijini mustahkamlash. Maxsus kurslar, seminarlarda qatnashish yoki onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish foydali.

Ijtimoiy tarmoqlarda professional profilini yaratish va uni muntazam ravishda yangilash. Boshqa talabalar, professorlar va mutaxassislar bilan aloqalar o‘rnatishga harakat qilish. Konferentsiyalar, ko‘rgazmalar yoki boshqa tadbirlarda faol ishtirok etish.

Loyihalar yoki tadbirlar orqali ijodkorlik ko‘rsatish. Fikr-mulohazalarni tinglash. Boshqalar fikrlarini e’tiborga olish va kerak bo‘lganda o‘zgarishga tayyor bo‘lish muhimdir.

Talaba sifatida rasmiy tadbirlarda mos kiyinish orqali professional imij yaratish.

Har doim ijobiy fikrda bo‘lish hamda muammolarni hal qilishga intilish.

Har qanday muvaffaqiyatli imij sifatli bilimlar, tajribalar va aloqalarga asoslanadi, shuning uchun ularni rivojlantirishga e’tibor berish.

Bu tavsiyalar talabalarga o‘z imijini yaratishda yordam beradi va kelajakda professional muvaffaqiyatga erishishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Talaba imijining yaratilishi murakkab jarayon bo‘lib, u turli omillar tomonidan boshqariladi va har doim o‘zgarib turadi. Har bir davr va joyda bu imidjning qanday namoyon bo‘lishi farq qiladi, lekin umumiy maqsad — zamonaviy yoshlarni rivojlantirish va ularga ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga yordam berishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gavrilova, O. V. (2018). Imijologiya: Imijni shakllantirish asoslari. Moskva: Prospekt.

2. Tajik, S. A. (2019). Yoshlar imijini rivojlantirishda madaniyat va kreativlik. Toshkent: Sharq NMAK.

3. Nazarov, R. K. (2020). Oliy ta’lim tizimida professionalizm va imij yaratish masalalari. Toshkent: Fan va texnologiya.

4. Bekmurodov, N. M. (2021). Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion ta’lim va imijni shakllantirish. Toshkent: Innovatsiya va rivojlanish.

5. Smith, J. D (2017). Higher Education and Image Management: Strategies for Success. London: Routledge.

YANGI O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM TIZIMIGA INNOVATSION YONDASHUVNING STRATEGIK AHAMIYATI

Alibekov Davron Abdurakibovich
O‘zMU Jizzax filiali Oila psixologiyasi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya:
Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida innovatsion yondashuv innovatsion faoliyat, innovatsion salohiyat, innovatsion infrastruktura, va modernizatsiyasiga asoslangan strategik ahamiyatining nazariy jihatlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *innovatsion, modernizatsiya, ta’lim, faoliyat, salohiyat, infrastruktura, yondashuv, strategiya, tendensiya, globallashuv, texnologiya, jamiyat, tafakkur.*

Abstract:
This article discusses the theoretical aspects of the strategic importance of the innovative approach in the educational system based on innovative activity, innovative potential, innovative infrastructure, and modernization.

Key words: *innovative, modernization, education, activity, capacity, infrastructure, approach, strategy, trend, globalization, technology, society, thinking.*

Bugungi kunda ta’lim tizimiga qaratilayotgan e’tibor, amalga oshirilayotgan islohatalar negizida davlatni va jamiyatni rivojlantirish masalasi yotadi. Chunki, ta’lim tizimini rivojlantirmay turib jamiyatni o‘zgartirish qiyin jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham Respublikamizda ushbu sohaga oid bir qator me’yoriy xujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ta’lim tizimini rivojlartirishning strategik maqsadlaridan hisoblanadi.

Uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy ta’lim tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlar asosida amalga oshiriladi:

- oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;
- ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;
- oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;
- ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar ta’sirchanligini oshirish;
- yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;
- oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash, moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash;
- oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta’minlashning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish;
- oliy ta’lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta’minlash [1].

Oliy ta’lim tizimini innovatsion rivojlantirish jarayoni o‘zida ijtimoiy rivojlanishning sifat bosqichiga olib chiqadigan, o‘ziga xos ijobiy o‘zgarishlar va yangilanishlarni vujudga keltiradigan murakkab, bir butun va dinamik faoliyatini qamrab oladi. Ta’limdagi innovatsion o‘zgarishlar – bu tizimli yangicha texnologiyalar, axborotlashtirish va yangiliklarni yaratish va joriy etish, tizimni modernizatsiya qilish va yangilashga qaratilgan jarayonlar orqali inson salohiyatini yuksaltirish va pirovardida jamiyat sohalarida muhim sifatiy o‘zgarishlar yasash demakdir.

Shuningdek, oliy ta’limda innovatsion o‘zgarishlar uning barcha tizimlari faoliyatida ish jarayonini yangicha asoslar bilan o‘zgartirish orqali keng qamrovli modernizatsiya qilishdir. Bu jarayonda oliy ta’lim tizimi faoliyatining samaradorligi oshadi, pirovardida oliy ta’lim sohasi yangi rivojlanishg bosqichiga o‘tib, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu tendensiya bugungi globallashuv bilan bog‘liq raqobatga asoslagan sharoitda davrida jamiyat hayotining barcha tizimlari bilan aloqador holda kunda ta’limning barcha sohalarini modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirishga katta ehtiyoj hosil qilmoqda.

Jamiyatimizda oliy ta’limni innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish va bu orqali ijtimoiy taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlash borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuning bilan birgalikda ilm-fan sohasini ham innovatsion faoliyatini ta’minlash borasida keng qamrovli faoliyat kuzatilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Ta’lim va fan sohasini rivojlantirishda ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish” [2] ko‘zda tutilgan.

Har tomonlama bilimlarni egallagan, innovatsion tafakkurga ega bo‘lgan yoshlar mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining asosiy strategik zahiralari bo‘lib hisoblanadi, ularning ishtirokisiz jamiyati rivojlantirishning imkoniyati yo‘q. Jamiyatni modernizatsiya qilish yo‘lida birmuncha murakkab, keng qamrovli vazifalarni hal etishda katta yoshdagi kadrlar bilan bir qatorda yoshlar ham muhim ijtimoiy kuch sifatida ishtirok etadi, uning salmog‘ini ta’minlashga ko‘maklashadi.

X.Abdusattorovaning fikricha, “Innovatsiyalar ishlab chiqarish sohasida, iqtisodiy, huquq va ijtimoiy munosabatlar, fan, madaniyat, ta’lim va boshqa sohalarga mansub bo‘lishi mumkin. Innovatsion strategiyalar ishlab chiqish uchun barcha boshqaruv pog‘onalarida yangiliklar kiritish tarkibida ijtimoiy xizmatlarni ham hisobga oladigan talqin to‘g‘ririq bo‘ladi”[3]. Mazkur fikrda innovatsiyaga taalluqli bo‘lgan birmuncha o‘ziga xos xususiyatlarni ko‘rsatilgan. Shuning bilan birgalikda innovatsiyalarning ijtimoiy hayot va munosabatlar bilan bilan bog‘liq tomonlarini ham yoritgan. Shuni ta’kidlash lozimki, olim ushbu o‘rinda innovatsiyalarning yaratilishida insonning o‘rni va roli borasidagi masalalarga to‘xtalmagan.

Innovatsiya natijasida oliy ta’limning ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va siyosiy islohotlarga mos holda o‘zini-o‘zi tashkil etuvchi soha sifatida maqomi va darajasi oshadi. Innvatsiyalar oliy ta’limning har bir bosqichi va bo‘g‘iniga kirib borib, uning jamiyat rivoji uchun muhim yangiliklar yaratish borasidagi mazmunini mustahkamlaydi. Innovatsion jarayonlar tashkil etilib borgan sari oliy ta’limda ishtirok etuvchi barcha sub’ektlarning yangiliklar yaratishga qaratilgan faolligi va moyilligi oshib boradi. Shunday qilib, “Oliy ta’limda innovatsiyalar ta’lim jarayoniga yangiliklar kiritish, ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish uchun uning texnologiyalari va mazmuniga o‘zgartirish kiritish tushuniladi”[4].

Oliy ta’limda yaratiladigan innovatsiyalarning mazmun va mohiyatini uning turlari, maqsad va vazifalari, metodologik ta’minoti, ilmiyligi, faoliyat xarakteri, faoliyat turlari, joriy etilish ko‘lami, natijadorligi, yangilik ko‘lami, ijobiy oqibatlari, miqdor ko‘rsatkichlari, sifat va samaradorligi kabi omillariga ko‘ra baholash mumkin.

Oliy ta’limda innovatsiyalarning yaratilishi, uning samaradorligi va amaliyotga joriy etilishi ko‘lami uning ilmiy ishlanishining har tomonlama puxtaligi va loyihaning mukammaligi bilan bog‘liq. Ta’limda innovatsion jarayonlarning vujudga kelish va joriy etish bosqichlari to‘g‘risida V.Lazerov quyidagicha ta’kidlaydi:

- o‘zgarishlar ko‘lamiga qarab ehtiyojlarni aniqlash;
- mavjud vaziyatni tahlil etish va axborotlar to‘plash;
- yaratiladigan yangilik bo‘yicha dastlabki tanlov yoki uni mustaqil ishlab chiqish;
- yangilikni amaliyotga joriy etish (o‘zlashtirish) bo‘yicha qaror qabul qilish;
- yangiliklarni joriy etish bo‘yicha ehtimoliy samarani prognoz qilish va amaliyotgan joriy etish jarayoni;
- yangiliklarni ta’lim amaliyotining kundagik jarayonlari va qo‘shimcha ta’limda, ta’limning turli tuzilmalarda uzoq vaqt foydalanish [5].

Oliy ta’limni rivojlantirishda innovatsion omilning ustivorligini tashkil etilishini ijtimoiy tavakkalchilik (risk) jarayoniga ham o‘xshab ketadi, chunki, innovatsion ta’lim oddiy ta’limning muqobili hisoblanib, jamiyatda sobiq ta’limiy qadriyatlarni ko‘pgina ko‘rinishlarini siqib chiqaradi.

Natijada oliy ta’limda birqancha davr sinov muddati bo‘lib, eskilik va yangilik o‘rtasida qarama-qarshiliklar kuzatilishi mumkin. Bu davrda ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilarning zamonaviy qarashlari, ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirishi va yangiliklarni qabul qilish darajasining yuqoriligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, oliy ta’lim tizimi xodimlarining ham innovatsion dunyoqarashining mukammalligi ta’limni modernzatsiya qilishning muhim elementi hisoblanadi. Bu jarayonni samarali ta’minlash uchun oliy ta’lim tizimida tuzilmaviy, tizimli va funksional darajadagi o‘zgarishlarni ta’minlash maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda oliy ta’lim ishtirokchilarining kasbiy mahorati, zamonaviy axborotlar va ma’lumotlar bilan ta’minlanganligi, psixologik va pedagogik tayyorgarligi kabi omillar muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

3. Abdusattorova X. Innovatsion strategiya. -Toshkent: Tafakkur bostoni, 2012. –B. 15.

4. Rapasevich Ye. Bolshaya sovremennaya ensiklopediya. –Minsk, Sovremennoe slovo, 2005. -S. 198.

5. Lazarev V. Ponyatie pedagogicheskoy i innovatsionnoy sistemы shkolы. //Selskaya shkola, 2003. №1.-S.4.

ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ЎҚУВ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНЛАРИНИ АДАПТИВ БОШҚАРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ПЕДАГОГИК ТИЗИМИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯ ҚИЛИШ УСТУВОР ОМИЛ СИФАТИДА

Джураев Акбар Салимович
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Олий таълим тизими кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти

Аннотация:
Мақолада олий таълим муассасаларида адаптив бошқарувнинг инновацион ривожлантириш вазифасининг долзарблиги, мураккаблиги ва кўп қирралилиги уни ҳал қилишнинг кўплаб ёндашувлари, самарали бошқарувнинг тизимини модернизация қилиш келтирилган.

Калит сўзлар: *бошқарув, адаптив, модернизация, трансформация, ўқув-тарбия жараёнлари*

Бошқарувнинг рационаллиги, шунингдек, ўз вақтида, ҳаракатга керакли тузатишлар киритиш учун самарадорлик кўрсаткичлари эволюциясини доимий равишда ўлчаш қобилиятини ҳам талаб қилади. Дарҳақиқат, бу бошқарув аппаратини модернизация қилиш дастурлари марказида бўлиши керак бўлган бошқарув маълумотларини ишлаб чиқиш, айланиш ва улардан фойдаланишнинг яхлит муаммосини ташкил этади. Шуни таъкидлаш керакки, ушбу модернизация нафақат янги воситаларни жорий этиш натижасида юзага келади, балки маълумотлардан фойдаланиш имкониятларини ва уларнинг ривожланишни бошқариш жараёнларига интеграциялашувини талаб қилади. Одатда бошқарувни қайта ташкил этишда номарказлаштириш кўплаб иллюзияларни келтириб чиқарди. Узоқ вақт давомида маҳаллий даражалар манфаати учун марказий бошқарув даражаларини юмшатиш воситаси сифатида ва олий таълим маъмуриятини фуқароларга яқинлаштириш воситаси сифатида ўйлаб топилган, шу боисдан ҳам у икки томонлама муаммолардан азият чекмоқда. Бир томондан, бошқарув ҳужжатларини номарказлаштириш бошқарувнинг турли

даражадаги ваколатлари ва мажбуриятларини қайта белгилаш билан қўллаб-қувватланмади, бошқа томондан, марказлашмаган бошқарув актлари асосан кундалик бошқарувга тегишли бўлиб, ҳеч қандай алоҳида муносабатларга эга эмас.

Дарҳақиқат, бошқарувни номарказлаштириш, ривожланишни бошқаришни реал жамият ташвишларига яқинлаштиришга ва бу мақсад учун зарур бўлган ташаббус ва масъулиятни рағбатлантиришга қодир бўлган ўрта даражадаги мувофиқликни яратмайди. Ушбу ҳолат тизимни техник бошқариш ва уни ривожлантириш даражасида эътиборга лойиқдир. Шундай қилиб, тармоқлараро мувофиқлаштириш ва ҳамкорлик, бизнинг бошқарув стратегиямизнинг заиф нуқтаси кўпинча маҳаллий даражада самарали институционал кенгайтмасиз, уни амалга ошириш омиллари амалда бошқариладиган марказий бошқарув органлари даражасида принципиал позиция бўлиб қолади. Худди шундай, таълим ва ўқув дастурларини бошқариш, дарс жадвалларини ташкил этиш, ўқитувчилар ва мураббийлар учун қўшимча малака ошириш дастурларини ишлаб чиқиш кучли марказлаштириш белгисига эга бўлиб, маъмурий бошқарув ходимлари ва ўқитувчиларга озгина ташаббусни қолдиради. Шунинг учун марказлаштиришни самарали қилиш учун воситаларни бериш муҳимдир. Унга фақат маъмурий юкларни тақсимлаш нуқтаи назаридан эмас, балки тизим ва бир-бирини тўлдирувчи бошқарув тармоқларининг мувофиқлик даражалари нуқтаи назаридан ҳам ёндашиш керак.

Олий таълим тизимидаги мослашувчан бошқарув **- бу тизимни кенгайтиришга маъмурий жавоб эмас, балки таълим сиёсати ва ривожланишни бошқариш стратегиясини танлашдир.** Баҳолаш ҳам ривожланишни мослашувчан бошқаришни рационализация қилиш омилидир. Бироқ, шартли ва ихтиёрий ёндашувлардан қочиш керак. Бизнинг таълим тизимимиз ўзининг қисқа тарихи давомида анаънавий таълим тизимига боғлиқ бўлиб келди. Таълим технологиялари, мақсадлари бўйича педагогика, лингвистик таркибланиш, замонавий математика, политехника ва ижтимоий-иқтисодий таълим ва бошқалар бунга мисол бўла олади.

Олий таълим тизимидаги мослашувчан бошқарувни баҳолаш, ҳар қандай бошқа тушунча каби, фақат белгиланган муаммо доирасида мантиқий асосга эга бўлади. Бошқача қилиб айтганда, мослашувчан концепция бошқарув воситаси бўлиб, унинг доираси ўзлаштирилиши керак. Натижада, таълим тизимимизда баҳолаш биринчи навбатда интеграция муаммосини ҳал қилиш имконини беради. Тизим доимий тартибга солиш ва тузатиш вазифалари учун зарур бўлган техник ва ташкилий воситалар билан жиҳозланган бўлса, даврий текширувлар мантиқий асосга эга бўлади. Баҳолаш фақат унинг натижаларини доимий равишда ўз зиммасига олишга қодир адаптив бошқарув стратегияси ҳам бу ерда самарали натижаларни тақдим этади. Бундай стратегиянинг йўқлиги эса эҳтимол, бугунги кунга қадар ўтказилган бир нечта баҳолаш хулосалари билан тизим ва унинг амалиёти ҳақиқати ўртасидаги тафовутни юзага келтиради.

Бундан ташқари, бизнинг фикримизча, глобаллашувчи кузатувлардан оператив таҳлилларга зарар етказиш учун фойдаланишни тушунтиради. Шундай қилиб, биз ўзимизни ривожланишнинг заиф назорати ҳолатида топамиз, бу бизни ҳар доим тамойилларни қайта белгилаш, тизимларни қайта ташкил этиш ва сиёсатни қайта ихтиро қилишга ундайди, бу ерда биз биринчи навбатда амалиётларни ташкил қилиш, тажриба ва баҳолашга асосий эътиборни қаратишимиз керак.

Таълимни бошқаришнинг турли усулларини қўллашда мотив эътиборга олинади. Бу бошқарувга нисбатан тўлиқ ва комплекс ёндашувни таъминлайди, натижада тизимда бўшлиқлар бўлмайди (1.7-расм).



1.7 – расм. Амалда намоён бўладиган мотивлар[27]

1.7 – расмдан кўриниб турибтики, раҳбар ўз ишини шу мотивлар асосида қурса, таълим жараёни иштирокчилари пассив ҳолатда бўлмайди.

Бошқарув фаолияти мазмунига кўра, қўлланиладиган усуллардан фойдаланиш тажрибаси узоқ. Булар:

- меъёрий-асосли усуллар;

-маъмурий-ташкилий усуллар. Бу усул ташкилий-тартибга солиш мақсадига эга. У таълим бериш, тартибга солиш, рағбатлантириш, педагогик, ижтимоий-психологик, иқтисодий, психологик ва технологик ёндашувлардан фойдаланишга мўлжалланган.

Таъкидлаш жоизки, жамоадаги психологик иқлим таълимни ташкил этиш ва натижаларга эришишга сезиларли таъсир кўрсатади. Агар бу атмосфера нормал ёки далда берувчи бўлса, натижада самарадорлик пайдо бўлади.

Таълимни бошқаришда унинг тамойилларини ҳисобга олиш катта аҳамиятга эга. Илмий адабиётларда илмийлик, тизимлилик ва тўлиқлик, ҳуқуқ, бурч ва мажбуриятларнинг тенг тақсимланиши, ахборотнинг холислиги ва тўлиқ етказилиши, ахборотда холислик, ахборотнинг яхлитлиги, инсонпарварлик ва демократия, шахснинг етакчилиги ва коллегиаллиги; педагогик такт, бағрикенглик, педагогик лавозимдаги бир хиллик, бошқарувдаги экспертиза обрўси, ўзаро таъсир, таълим, маънавият, саломатлик, билим ва кўникмаларда замонавийлик, интеллектуаллик, маданий етуклик, идрок этилган обрў ва мавқе, эксперт нуфузи, сиёсий маданият, касбий маҳорат, мустақиллик, муаммоли вазиятдан чиқиш йўлини топиш, ташаббускорлик ва ижодкорлик, эҳтиёткор бўлиш анъаналари, таклиф қилинган ташаббусларни ҳимоя қилиш каби тамойиллар назарда тутилган.

Ўзбекистон Республикаси олий таълимни бошқариш соҳасида бой тажрибага эга. Ҳозиргача у на назарий, на амалий йўналишда илмий тадқиқ қилинмаган бўлса-да, ўрганилмаган, бу борада жиддий илмий-тадқиқот ишлари қилинмаган. Бошқа томондан, жаҳонда рўй бераётган глобаллашув жараёни, шунингдек, таълим соҳасида жаҳон таълим маконига бирлашиш зарурати, таълим жараёнларни бошқариш, шу жумладан олий таълимни бошқариш, университет бошқарувда технологик имкониятларни ошириш, умуман олганда, замонавий ёндашувни тақозо этади.

Замонавийлик нафақат бошқарув усулларида, балки унинг тамойилларини ҳисобга олишда ҳам намоён бўлади. Усуллар кўпроқ билим олиш ва интеллектуалликни оширишга хизмат қилса, тамойиллар бугунги кунда жуда муҳим бўлган ижтимоийлашув омилини кучайтиради. Шу нуқтаи назардан қараганда, таълимда инсонпарварлик ва демократия тамойилларини ҳисобга олиш муҳим ижтимоий-сиёсий, ҳуқуқий, ижтимоий-педагогик, ижтимоий-психологик аҳамиятга эга.

Таълимни бошқаришда инсонпарварлик ва демократик ёндашув чамбарчас боғлиқдир. Бироқ таълим-тарбиядаги инсонпарварлик кўпроқ миллий ва умуминсоний, ахлоқий-маънавий ва ҳоказо қадриятлар нуқтаи назаридан ёндашувда намоён бўлади.

[27] Муаллиф ишланмаси

Инсонпарварлик тамойили ўқитувчи ва талабалар ўртасидаги сиёсий, жинси, ирқий, диний, миллий фарқларидан қатъи назар, ҳаммага бирдек муносабатда бўлиш, барчани бирдек қадрлашда намоён бўлади. Бу тамойилга кўра талабаларнинг маънавий-ахлоқий ва маданий ривожланиши учун шарт-шароит яратилади, уларнинг жисмоний ва руҳий саломатлиги ҳамда қадр-қиммати муҳофаза қилинади.

Таълимни ташкил этишда демократик ёндашув ҳисобга олинса, мазмун-моҳиятини белгилаш, ўқув жараёни, бошқарув ва етакчилик, инсон эркинлиги ва ҳуқуқлари ҳимоя қилинса, манфаат ва истаклари ҳисобга олинса, қобилият ва кўникмалар эркин намоён бўлади, фаолият самарадорлиги ва сифати таъминланади. Таълимни демократик бошқаришда тенг ҳуқуқли шериклик ва ўзаро тушуниш, ҳамкорлик ҳукм суради.

Таълим мазмунидаги ўқув-дастурий материалларнинг хилма-хиллиги, ўқитиш услублари ва технологияларидан фойдаланиш эркинлиги, таълим ташкилотчилари ва раҳбарларининг мавжуд йўриқномалар ва меъёрий ҳужжатлар асосида мустақил фаолияти, назорат ва баҳолашда мезон бўйича шаффоф ва адолатли қарорлар қабул қилиш, демократик ёндашувда намоён бўлади.

Таълимни демократик тамойиллар асосида бошқаришнинг расмиятчилиги ғайритабиий қарамликни бартараф қилади, ўқитувчи ва талабалар, раҳбар ва ходимларнинг ўзаро ишонч ва ҳамкорлик шароитида ўз вазифаларини бажаришини таъминлайди.

Таълимни демократик бошқариш олий мактабнинг тизим-тузилма бўлимларига ташаббус ва таклифлар билан чиқиш, уларнинг фаолиятига ноқонуний аралашувлардан ҳимояланиш, ҳуқуқ ва бурчларидан бирдек самарали фойдаланиш имконини беради.

Таълимни демократик бошқариш ота-оналарга таълим жараёни ва унинг натижалари тўғрисида етарлича маълумотга эга бўлиш, таклиф ва талаблар бера олишга имкон яратади.

Таълимни демократик бошқариш талабаларга ўз фаолиятини, уларга ўқитаётган ёки ўқув фаолиятини баҳолаш, ишини яхшилаш бўйича таклифлар бериш, улар билан тил топа олмайдиган, худбинлик ва такаббурлик кўрсатадиган, мулоқот маданияти суст бўлганларга имкон беради. Таълимни демократик бошқариш ўқитувчилар ва ота-оналарнинг таълим мазмуни, ўқитиш технологиялари ва бошқа маданий ва аксиологик масалалар бўйича таклифларини эшитиш ва ҳисобга олиш имконини беради.

Ҳозир биз талаба ва ўқитувчининг аудиторядаги фаолиятида ҳам, ўқитувчи ва етакчи фаолиятида ҳам ўз-ўзини бошқариш ва биргаликда бошқаришни ривожлантириш ҳақида гапирилмоқда. Бу педагогик жараён иштирокчиларига ўқиш ва иш натижалари учун кўплаб ваколатлар ва масъулиятни беришни англатади. Амалий фаолиятда бу горизонтал ҳамкорлик алоқаларини (субъект-субъект муносабатлари) қуришни билдиради. Айнан, мана шу механизм талаба ва тарбиячи, ўқитувчи ва ота-оналар, ўқитувчи ва таълим муассасалари раҳбарлари ўртасида янги ўзаро муносабатларни ривожлантиришнинг катта захираси ва рағбатидир.

Таълим мотивациясини кескин оширадиган рағбат, биринчи навбатда, талабанинг ёш хусусиятлари ҳисобга олинадиган, унинг инсоний "ўзини ..." барча таркибий қисмларига эга бўладиган таълим жараёнини шундай ташкил этиш бўлиши керак. Фаолиятнинг тўлақонли ривожланиши ўқув жараёни иштирокчилари ўртасидаги шахсий муҳим даражадаги муносабатлар орқали ўтади. Ўқитиш шахслараро жараёнга айланади, диалогга айланади. Ўқитувчи ва талаба, раҳбар ва бўйсунувчининг рефлексли ўзаро таъсири шахсларнинг энг юқори фаоллигини, уларнинг ўзаро муносабатларининг бойлиги ва хилма-хиллигини англатади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш” тўғрисидаги ПФ-6097-сон Фармони.

2. Шепилова Н.А. Социально-педагогическая адаптация студентов вуза в процессе формирования их ценностного отношения к педагогической профессии: диссертация... кандидата педагогических наук. - Магнитогорск, 2003. - 187 с.

3. Умаров Л.М. Электрон ахборот таълим ресурслари асосида педагоглар касбий компетентлигини ривожлантириш бошқарувини такомиллаштириш (халқ таълими педагогларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизими мисолида) Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2020. –Б.5.

4. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. –Т.: Ўзбекистон, 2018. – 448.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

Асадов Элёрбек Кандиярович
Фарғона Политехника Институти
Мустақил тадқиқотчи

Аннотация:

Бугун Янги Ўзбекистон ҳаётининг барча соҳалари чукур ислоҳотлар майдонига айланган. Мазкур жараёнда ижтимоий соҳанинг асоси ҳисобланган таълим тизимидаги ўзгаришлар муҳим аҳамият касб этади. Мазкур мақолада Янги Ўзбекистоннинг олий таълим тизимидаги муҳим ўзгаришлар, олиб борилаётган ислоҳотлар ва эришилган ютуқлар ҳақида батафсил ёритилади. Олий таълимда амалга оширилган чоралар кўламининг кенглиги фақатгина мамлакат ёшлар ҳаётида эмас, бутун бир ижтимоий соҳани ривожланишида муҳим омил бўлади.

Таянч иборалар: *олий таълим, профессионал таълим, ислоҳот, модернизация, стратегия*

Abstract:

Today, all spheres of the life of New Uzbekistan have become a field of deep reforms. In this process, changes in the educational system, which is the basis of the social sphere, are of great importance. This article describes in detail the important changes in the higher education system of New Uzbekistan, the ongoing reforms and the achievements. The scope of measures implemented in higher education is an important factor not only in the life of the country's young generation, but also in the development of the entire social sphere total.

Keywords: *higher education, professional education, modernization, strategy*

Ҳар қандай мақсад ва ислоҳотлар натижадорлигига илм-фанни тараққиёти орқали эришиш мумкин. Буни ривожланган давлатлар юксалишида илм-фан асосий омил вазифасини ўтаётганлигидан ҳам кўриш мумкин. Шу боис, мамлакатимизда илм-фанга давлат сиёсати даражасида эътибор қаратилиб, таълим соҳасида кейинги олти давомида муҳим ўзгаришлар, янгиланишларга бой бўлди. Билим даргоҳларининг қиёфаси тубдан ўзгариб, моддий-техника базаси мустаҳкамланди. Бу ўз навбатида, таълимнинг сифати ва даражасини оширган ҳолда, ёшлар ўртасида олий таълим олишга бўлган иштиёқини кучайтирди. Илгари олийгоҳларга ўқишга кириш жуда қийин эди. Квоталар кам, қабул имтиҳонларида турли муаммолар бор эди. Юртимизда бу масалалар ҳисобга олиниб, олий таълимга қабул квотаси йилдан-йилга оширилмоқда. Бу, ўз навбатида, ёшларни билимли, малакали, жаҳон тараққиётига мос мутахассислар этиб тайёрлаш, уларнинг ҳаётда ўз ўрнини топишига хизмат қилаётир.

Мамлакатимизда ёшларнинг олий таълим олишига катта шароитлар яратиб берилётгани туфайли олий таълим муассасалари сони 2,5 баробарга ортиб, 200 тага етди.

Қамров даражаси эса 9 фоиздан 38 фоизга ошди. Энг муҳими, олий таълим олиш учун имтиёзли кредитлаш тизими, аёлларга фоизсиз кредит ажратиш амалиёти жорий қилинди.

2017 йилга қадар олий таълим муассасаларида грант ўринлари сони фақат қисқариб келган бўлса, сўнгги олти йилда грантларни кўпайтириш йўлидан борилди. Хусусан, ўтган даврда олий таълимга ажратилган давлат грантлари сони 75 фоизга, эҳтиёжманд оилалар фарзанди бўлган хотин-қизлар учун давлат грантлари сони икки бараварга оширилди.

Охирги олти-етти йилда таълим тизимида узоқни кўзлаб амалга оширилган ислоҳотлар нафақат мамлакатимизда катта ижобий ўзгаришларга олиб келди, ҳатто халқаро майдонда ҳам юртимиз обрў-эътиборини янги босқичга олиб чиқди. Соҳага доир бир қатор қонунлар, Президент фармон ва қарорлари қабул қилинди.

Биргина 2020 йилда “Таълим тўғрисида”ги қонуннинг қабул қилингани давлатимизнинг шу борадаги мақсадларини аниқ ифодалаб берди. Ушбу ҳужжатда таълим соҳасидаги асосий принциплар, таълим тизими, турлари ва шакллари аниқ белгилаб қўйилди.

Масалан, қонуннинг 5-моддасида жинси, ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, шахсий ва ижтимоий мавқеидан қатъи назар, ҳар кимга таълим олиш учун тенг ҳуқуқлар кафолатланиши белгилаб қўйилди. Бу нима дегани? Бу ҳар бир ёш ўзи истаган олий таълим даргоҳида ўқийди, таълим олади, дегани. Ҳужжатнинг 11-моддасидан эса олий таълим бўйича алоҳида қоидалар ўрин олган.

Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида ҳам олий таълим соҳасида давлат хусусий шерикликни ривожлантириш, ҳудудларда давлат ва нодавлат олий таълим муассасалари фаолиятини ташкил этиш асосида олий таълим билан қамров даражасини 50 фоиздан ошириш, соҳада соғлом рақобат муҳитини яратиш белгиланган. Ўтган қисқа даврда ушбу Концепция соҳада таълим сифатини ошириш йўлида туб ислоҳотларни олиб боришга имкон берди.

“Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили”да амалга оширишга оид Давлат дастурида давлат олий таълим муассасаларида уларнинг имкониятларидан келиб чиққан ҳолда бакалавриат таълим йўналишлари бўйича масофавий таълим шакли жорий этиш, давлат олий таълим муассасаларига ўқишга қабул қилишнинг давлат буюртмаси параметрлари фақат давлат гранти бўйича тасдиқланиши, республикада фаолият юритаётган хорижий олий таълим ташкилотлари ва уларнинг филиаллари ҳамда нодавлат олий таълим ташкилотларида давлат гранти асосида кадрлар тайёрлаш бўйича 1000 та ўрин ажратиш белгиланган. Бу вазифаларнинг ижроси ҳам қамров даражасини ошириш, эртамиз эгаларининг орзу-истагларини рўёбга чиқаришга хизмат қилиши аниқ.

Янги таҳрирдаги Конституциямизнинг 51-моддасида Фуқаролар давлат таълим ташкилотларида танлов асосида давлат ҳисобидан олий маълумот олишга ҳақлилиги, олий таълим ташкилотлари қонунга мувофиқ академик эркинлик, ўзини ўзи бошқариш, тадқиқотлар ўтказиш ва ўқитиш эркинлиги ҳуқуқига эгалиги белгилаб қўйилди.

Бу эса мамлакатимизда ёшлар сиёсати устувор эканлигига зўр ишорадир. Бундан кўзланган асосий мақсад иқтидорли ёшлар учун давлат гранти асосида бакалавриат ва магистратура босқичида таълим олиш орқали ҳаётда ўзларини тўлақонли намоён этиш имкониятини кенгайтиришдир.

Албатта, таълим соҳасига бу даражада катта эътибор қаратилаётгани бежиз эмас. Бинобарин, юртимизни тараққиётнинг янги босқичига олиб чиқиш, барча куч-ғайратни бирлаштириш ва фидокорона меҳнат қилиш орқали Янги Ўзбекистонни, пировардида, Учинчи Ренессанс пойдеворини бунёд этиш мумкин.

Бундан ташқари, халқаро миқёсда ҳам таълим соҳасида етакчи ўринларни эгаллаш мақсадида кўплаб танловларда олий таълим муассасаларининг фаол иштироки таъминланмоқда. Биргина мисол, юртимиздаги 28 та олий ўқув юрти TOP–1000 талик рейтингга кириш учун даъвогар сифатида қайд этилди. Ушбу рейтингда университетларнинг

4 та йўналишдаги самарадорлик кўрсаткичлари баҳоланди. Танловда белгиланган ушбу мезонлардан ҳам кўриниб турибдики, олий ўқув юртларидаги ўқув ва ташкилий самарадорлик сезиларли ўсиб бормоқда.

Ривожланган мамлакатларни нодавлат таълим хизматлари, жумладан Европа давлатларидан Германия, Буюк Британия ва Осиё мамлакатларидан Хитой, Сингапур, Жанубий Корея, Япония тизими турлича ташкил этилган бўлса-да, улардаги ўқув, ўқув услубий ишлари ташкил этилиши ҳам ижобий томонлари билан ажралиб туради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 23.09.2020 йилдаги ЎРҚ-637-сон
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 11 июлдаги “Олий ва ўрта махсус таълим тизимига бошқарувнинг янги тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори;
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, 30.05.2018 йилдаги ПҚ-3755-сон
4. [Худоёрова Г., Oliy ta’lim islohotlari: muammolar, o‘zgarish va yutuqlar, 21.06.2023]
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, 03.02.2018 йилдаги ПҚ-504-сон

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА БОШҚАРУВНИНГ ИҚТИСОДИЙ ФУНКЦИОНАЛЛИГИ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ ИНДИКАТОРЛАРИ

Азамат Усмонов
Жиззах давлат педагогика университети мустақил изланувчиси,
Мактаб менежменти кафедраси ката ўқитувчиси

Узоқ даврлардан бери олий таълим тизимини бошқариш, илмий, инновацион фаолиятини ташкил этиш, инвестициялаш, сифат кўрсаткичларини таъминлаш ва баҳолаш жараёнлари давлат сиёсатининг муҳим элементларидан бири бўлиб келган.

Барча мамлакатларда давлат олий таълимни бошқариш, илмий ва инновацион фаолиятни ривожлантиришнинг устувор йўналишларини ишлаб чиқади, амалга оширади ва фаолият натижаларини баҳолайди. Аммо бугунги кунгача глобал миқёсда ягона амал қилувчи яхлит хужжат холатига келтирилган, олий таълим муассасалари умумий фаолиятини баҳолаш кўрсаткичларининг стандартлашган универсал тизими ҳалигача мавжуд эмас ва у минтақалар бўйича фарқ қилади. Бунинг асосий сабаби дунё давлатлари тараққиётнинг хилма-хиллиги ва ривожланишининг турли босқичидалигидир. Шу сабабли мамлакатлар ва минтақалар ОТМ фаолиятини баҳолаш кўрсаткичларини миллий хусусиятлар ва иқтисодий ривожланиш даражасидан келиб чиқиб ишлаб чиқишга ҳаракат қилишмоқда. Масалан нисбатан мукаммал ҳужжат сифатида “Европа университетлари 2015 йилда Болонья тизимини қабул қилган 48 давлатнинг таълим вазирликлари томонидан мақулланган “Европа олий таълим ҳудудида олий таълим сифатини таъминлаш бўйича стандартлар ва йўриқномалар” асосида фаолият юритади ва ушбу хужжат уч қисмдан ташкил топган бўлиб, улар;

- *ички сифат кафолоти бўйича стандартлар ва йўриқномалар;*
- *ташқи сифат кафолатлари бўйича стандартлар ва йўриқномалар;*
- *сифатни таъминлаш сиёсати ва тартиблари, ҳар бир университетнинг институтуционал қараш ва стратегиясини ўзида акс эттирган сифатни таъминлаш бўйича ички сиёсатининг мавжудлигидир*[28]”.

[28]Ўзбекистон республикаси олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги олий таълимни ривожлантириш тадқиқотлари ва илғор технологияларни татбиқ этиш маркази томонидан тайёрланган “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини баҳолаш” методик қўлланма. Тошкент. 2023 йил.

Дунёнинг бошқа АҚШ, Жанубий Корея, Япония, Сингапур, Хитой каби етакчи мамлакатларида ҳам таълим сифатини баҳолашнинг ёндашувлари ва усуллари замонавий таълим муассасалари функцияларининг такомиллашуви ва фаолиятининг таркибий қисмларидаги янгиланишлар ҳисобига ўзгармоқда. Масалан АҚШда олий таълим муассасалари фаолияти самарадорлигини баҳолашнинг *(КПИ)* тўрт босқичли усулидан фойдаланади. Булар: *"-мақсадларни аниқлаш билан боғлиқ; -стратегик режалаштириш билан боғлиқ; -жамоани шакллантириш билан боғлиқ; -жараённи автоматлаштириш билан боғлиқдир*[29]*"*.

Шу ўринда аниқлик киритиб кетишимиз керак. Яъни, КПИ нима ва у муассасалар фаолиятига нисбатан қандай мақсадда қўлланилади? **КПИ** *(Кей перформансе индисатор)* муассаса, корхона ва фирмалар фаолиятининг самарадорлик даражасини баҳолашда ишлатиладиган яхлит кўрсаткичлар тизими сифатида қўлланилади. Бу борада АҚШлик олим Тед Жексон ўз фикрини қуйидагича баён этган; *"**асосий самарадорлик кўрсаткичи** яъни "КПИ" – бу компаниялар, ташкилотлар, бўлим ва муассасаларнинг қандай ишлаётганлигини тушинишга ёрдам берадиган, муассасанинг ўз олдига қўйган мақсади ва миссияси билан тўғри йўналишда эканлигини билишга имкон берувчи самарадорликни ўлчаш туридир*[30]*"*.

Сўнги йилларда халқаро тажрибада олий таълим муассасалари фаолият миссияларининг трансформациялашуви ва бизнес университетлар фаолиятига хос хусусиятларнинг намоён бўлиши олий таълим муассасалари учун КПИни қайта такомиллаштиришни талаб этди ва кенгайтирилган қуйидаги беш йўналишини тадбиқ этишга сабаб бўлди, яъни; *-таълим муассасасининг молиявий кўрсаткичлари; -талабалар фаолияти ва натижалари; -қабул ва рўйхатга олиш; -факултетлар ва ходимлар фаолияти; -имкониятлар ва манбалардир.* Қуйида баҳолашнинг ушбу йўналишларига кенгроқ доирада тўхталишга ҳаракат қиламиз.

БАҲОЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ. Бу бўлимнинг таркибига **ўқув жараёнини ташкил этиш билан боғлиқ персонал харажатлари** *(асосий штатда ва ўриндошлик асосида ишлайдиган профессор-ўқитувчиларнинг лавозим маошлари, рағбатлантириш ва шахсий самарадорликни қўллаб-қувватлаш фондларининг мавжудлиги, функциялари ва механизмлари)*, **бир талаба учун қилинадиган маъмурий харажатлар** *(ҳар бир талаба учун таълим, маъмурий ва инфратузилма хизматларига сарфлари)*, **дастурлар ва бўлимлар бюджети** *(бюджетни шакллантириш манбалари, даври ва ташкилий-ҳуқуқий асослари)*, **даромадлар, грантлар ва инвестициялар** *(эндаумент (ҳайр-эҳсонлар), ҳайрия маблағлари, тадқиқот грантлари, маблағ тўплаш ҳаракатлари, маҳаллий бошқарув органлари ва давлат жамғармалари, шунингдек бошқа пул имтиёзлари)*, **талабаларга молиявий ёрдам дастурлари** *(стипендия ёки давлат ёрдамини оладиган талабалар сони, улуши ва шу каби кўрсаткичлар)* ҳамда **талабаларнинг ўқиш харажатларига** *(талабаларнинг йиллик ёки семестр харажатлари)* асосланган натижалар таҳлилидан иборат.

ТАЛАБАЛАР ФАОЛИЯТИ ВА НАТИЖАЛАРИНИ БАҲОЛАШ КЎРСАТКИЧЛАРИ талабаларнинг билими, ўзлаштириш кўрсаткичлари, илмий-услубий нашрлар ва конференцияларда иштироки, илмий-тадқиқот лойиҳаларида иштироки, иновацион ва грант лойиҳаларида иштироки ва уларнинг натижаларига асосланади.

ЎҚИШГА ҚАБУЛ ВА РЎЙХАТГА ОЛИШ КЎРСАТКИЧЛАРИ бўйича баҳолаш индикаторларига **трансфер ставкалари**: *(ариза топширган ва қабул қилинган талабалар нисбати, фоизи, бошқа муассасалардан келган талабалар сони)*, **қабул квоталари ва**


[29]Eric Spear "Key Performance Indicators (KPIs) for Colleges and Universities" Prision Campus. USA. https://precisioncampus.com/blog/education-kpis/

[30]Ted Jackson "30 Key performance Indicators In Education". https://www.clearpointstrategy.com/blog/key-performance-indicators-in-education#toc-0

ставкалари: *(бунда ариза топширган ва қабул қилинган талабалар нисбати, фоизи, муассасанинг рақобатбардошлигини ўлчаш параметрларига кўра натижалари)*, **талабаларни почта индекси бўйича қабул қилиш**: *(талабаларнинг қаердан келганлиги, бунда маркетинг дастурларининг амалий натижадорлигини асословчи маълумотлардан фойдаланилади ва даврлар бўйича таҳлил қилинади)*. Масалан, қуйида кўришимиз мумкинки халқаро миқёсда чет эл олий таълим хизматларидан фойдаланувчи таълим мигирантларининг асосий қисмини дунёнинг йирик ва тараққий этган мамлакатларидан АҚШ, Буюк Британия, Хитой, Германия, Франция, Канада, Австралия, Япония, МДҲ доирасида эса Россия ва Марказий Осиёда Қозоғистон каби мамлакатлар олий таълим муассасалари ўзига жалб этади. *(2.1.1-расмга қаранг)*

2.1.1-расм.

Тараққий этган мамлакатлар ОТМларида халқаро талабалар сонининг жорий ва прогноз кўрсаткичлари[31]



ФАКУЛТЕТ ВА ХОДИМЛАР ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ, **бунда факултетнинг иш юки ва маҳсулдорлиги**: *(ўқитувчиларнинг индивидуал кўрсаткичлари ёки кафедраларнинг умумий натижалари асосида кузатиб бориш)*, **талабалар нисбати**: *(бунда факултет аъзосига тўғри келадиган талабалар сони, кампус миқёсида ёки кафедралар бўйича мавжуд талабалар контингенти)*, **профессор-ўқитувчилар ва ходимларнинг иш стажи:** *(ўқитувчилар ва бошқа ёрдамчи ходимларнинг кунлик, ҳафталик ва йиллик иш вақти ва фаолият натижадорлиги, ходимларни қўллаб-қувватлаш ва ижтимоий таъминот даражаси)*, **талабалар билан ҳафталик қўшимча ўқув дастурлари** *(махсус ўқув курслари фаолияти ва натижадорлиги, фан тўгараклари фаолияти ва натижадорлиги, илмий-тадқиқот марказлари фаолияти ва натижадорлиги)* **самарасини кузатиш ва баҳолаш кўрсаткичлари.**

ИМКОНИЯТЛАР ВА МАНБАЛАРНИ БАҲОЛАШ. Бунда моддий-техник имкониятларни аниқлаш ва таққослашга, қимматбаҳо қоғозлар эмиссияси ва молиявий ҳаракатини баҳолашга, солиқ ва мажбурий тўловлар таҳлилига, коммунал харажатларни кузатиб бориш ва таққослаш индикаторларига асосланади.

[31]А.Зикриёев “Дунё университетлари рейтингидаги тадқиқотчи-олимлар орасида ўзингизни кашф қилинг. Илмий-тадқиқотлар ўтказиш ва мақолалар чоп этишнинг замонавий усуллари” амалий қўлланма. “Наврўз” нашриёти. Т:. 2020 йил. 23-бет

Ўрганиш натижалари шуни кўрсатадики, АҚШ тажрибасида олий таълим муассасалари фаолият самарадорлигини баҳолаш кўрсаткичлари сифатида махсус ишлаб чиқилган баҳолашнинг 30 та асосий индикаторлар тизимидан фойдаланади, булар:

-битирув даражаси *(битирувчилар сони, минтақа ёки мамлакатдаги умумий битирувчилар сонига нисбатан улуши)*;

-рағбатлантириш ва мукофотлар *(ҳар бир ўқув йилида талабалар, профессор-ўқитувчилар ва илмий-техник ходимларни моддий рағбатлантириш ва мукофатлаш даражаси)*;

-тадқиқот грантлари *(талабалар, профессор-ўқитувчилар ва илмий-техник ходимларнинг грант лойиҳаларидаги иштироки, жалб этилган грантларнинг умумий қиймати)*;

-талабаларнинг давомат даражаси *(семестр ёки ўқув йили давомида 90 фоиз давоматга эришган талабалар сонини аниқлаш)*;

-ўқишни битирган талабаларнинг бандлик даражаси *(ўқишни тугатгандан кейин маълум вақт ичида ишга жойлашган битирувчилар улуши, кадрлар салоҳияти бўйича меҳнат бозорида юқори талабга ва рейтингга эга олий таълим муассасалари. Ушбу натижа меҳнат бозорида талаб юқори бўлган кадрларни тайёрлашда муассасанинг самарадорлигини ўлчайди)*;

-молиявий натижалар *(бунда талабаларга стипендия пули ёки давлат дастури асосида молиявий ёрдам оладиган талабалар сони ҳисоблаб чиқилади, грант пули ўз ичига ташкилот учун ҳайрия ёки ҳамкорлик орқали йиғилган маблағларни кузатиш натижалари, ўқиш харажатлари ҳар бир талаба учун маълум бир ўқув вақт мобайнидаги тўғри келадиган ўртача умумий харажатлари ҳисобга олинади)*;

-талабаларнинг ўқитувчиларга нисбати *(бунда талаба ва ўқитувчи ёки факултет нисбати қанчалик паст бўлса шунчалик ижобий натижа сифатида қаралади)*;

-бир талабага тўғри келадиган ўртача таълим харажатлари *(бу кўрсаткич ОТМ ҳар бир талабага таълим бериш учун сарфлаган харажатлари ҳисоблаб чиқилади. Бунда кампус ва биноларни таъмирлаш, ўқитувчи ва ходимларнинг иш ҳақи, китоблар нархи, озиқ-овқат харажатлари каби омиллар таъсири ҳам ҳисобга олинади)*;

-факултетнинг маъмурият нисбати *(агар бу нисбат жуда паст бўлса, масалан 50-70 нафар профессор-ўқитувчилар учун фақат иккита маъмур бириктирилган бўлса бунда ишнинг самарали ташкил этилиши ва молиявий таъминот билан боғлиқ муаммолар бўлиши мумкин)*;

-мурожатчи сифатида рўйхатдан ўтган талабалар сони *(бу кўрсаткичлар асосан рақобатбардош бўлиб қолишни истаган ОТМлар учун айниқса муҳимдир. Бу талабаларнинг ҳоҳиш-истаклари билан боғлиқ статистик маълумотларни кузатиб боришга ёрдам беради)*;

-фокусланган ҳудудлардаги талабалар улуши *(бу кўрсаткич чет тили,* STEM[32] *курслар ёки* АП *курсларини олаётган талабалар фоизини текшириш имконини беради)*;

-ҳар бир фан бўйича малака ставкалари *(бу ўқув режангиз қандай тузилганлиги, ўқув дастурининг ҳар бир соҳаси қандай ишлашини кўриш имконини беради)*,

-махсус сертификатга, кўникмага ва илмий даражага эга бўлган профессор-ўқитувчилар улуши *(олий таълимда бу кўрсаткич муассасанинг тан олиниши, рақобатбардошлиги ёки муассасанинг обрўси учун муҳимдир)*;

-йиллик машғулотлар сони; -ўқитувчи ва ходимларнинг давомат даражаси; -ўқитувчи ва ходимларни ушлаб туриш даражаси *(бу иш шароитлари, иш ҳажми, моддий таъминот ва иш ҳақлари миқдори билан боғлиқ жараён)*;

[32]Изоҳ: “STEM” инглизча “Science, Technology, Engineering, Maths” сўзларининг қисқартмаси бўлиб, ўзбек тилида илм-фан, технология, муҳандислик ва математика фанларини ўз ичига олади ва бу фанларни яхлит тарзда ўқитишни англатади.

-бино, иншоот ва инфратузилма объектларининг ҳолати билан боғлиқ кўрсаткичлар;

-ўқув хоналари, махсус лабораториялар, кутубхоналар ва шу каби объектлардан фойдаланиш даражаси;

-юқори технологиялар билан жиҳозланган аудиториялар улуши;

-замонавий технологиялардан фойдаланиш маҳоратига эга профессор-ўқитувчилар улуши;

-ижтимоий медия фаолиятидаги иштироки *(ПР менежмент)*;

-хатлар, мурожатлар ва ҳамкорлар билан ишлаш бўлимларининг фаолият таҳлили; -транспорт ва транзинт харажатлари таҳили;

-талабалар шаҳарчасида яшовчи талабалар улуши;

-талабалар кампусидаги шарт-шароитлар, сарф-харажатлари ва тўловлари таҳлили каби кўрсаткичлардан иборатдир.

Олий таълим муассасаларнинг фаолиятини ва иқтисодий функционаллигини баҳолаш индикаторларини такомиллаштириш бўйича мустақил давлатлар ҳамдўстлиги доирасидаги мамлакатлар олимлари томонидан ҳам қатор изланишлар олиб борилган. Булардан Н.В.Яндибаева, Э.Р.Кожанова, В.А.Кужниковлар, мамлакатимиз олимларидан эса С.С.Ғуломов, Р.Х.Аюпов, Н.Р.Рахмонов, О.С.Қаҳҳоров, М.Д.Зарипова, Р.Ш.Шамуратовлардир. Масалан, М.Д.Зарипова ўз тадқиқотларида асосий эътиборни олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчилар фаолиятини ўрганиш ва илмий салоҳиятини оширишга қаратган. У илмий салоҳиятни оширишга таъсир этувчи омиллар ўртасидаги боғлиқликни тадқиқ этишда математик методлардан самарали фойдаланган.


Олий таълим муассасалари фаолиятини ифодаловчи кўрсаткичлар рейтинги кўп жиҳатдан профессор-ўқитувчиларнинг салоҳиятига, ўқув-методик, илмий-техник натижадорлигига тўғри пропорционалдир.

Мамлакатимизда сўнги бир неча йилда олий таълим муассасалари педагог ходимларнинг илмий салоҳиятини ошириш бўйича амалга оширишган тизимли чора-тадбирлар натижасида профессор-ўқитувчилар илмий салоҳиятининг ўсишида ижобий тенденцияларни кўришимиз мумкин. (2-расмга қаранг.) Масалан, “ТИҚХММИ” миллий тадқиқот университети “Академик нуфуз” кўрсаткичи бўйича дунёнинг энг яхши 300 та олий муассасалари қаторига ва Марказий Осиёдаги энг яхши университетлар учлигига киритилган. Ўзбекистон миллий университети эса “Чет эллик ўқитувчилар” кўрсаткичи бўйича дунёнинг 200 та энг яхши университетлари қаторида бўлиб, Марказий Осиё олий таълим муассасалари ўртасида иккинчи ўринни қайд этган.

2.1.2-расм

Ўзбекистон олий таълим муассасаларида фаолият самарадорлигининг асосий кўрсаткичи ҳисобланган профессор-ўқитувчиларнинг илмий салоҳияти *(умумий профессор-ўқитувчиларга нисбатан фоизларда)*[33]


[33]Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги маълумотлари. https://stat.uz/uz/



OTM faolиятини баҳолашда муҳим аҳамиятга эга кўрсаткичлардан яна бири бу таҳсил олаётган хорижлик талабалар улуши билан ўлчанади. Кузатадиган бўлсак сўнги йилларда хорижлик талабаларнинг мамлакатимиз олий таълим муассасаларига қизиқиши йил сайин ўсиб бормоқда ва биз уни қуйидаги расм орқали кўришимиз мумкин.

3-расм.

2017 – 2024 йилларда Ўзбекистон ОТМларида таҳсил олаётган хорижлик талабалар сони[34]




Агар 2017-2018-ўқув йилида мамлакатимиз ОТМларида таҳсил олаётган хорижлик талабалар сони 1300 нафарни ташкил этган бўлса, бу кўрсаткич 2018-2019-ўқув йилида 2700 нафарни, 2019-2020-ўқув йилида 3600 нафарни, 2020-2021-ўқув йилида 4200 нафарни, 2021-2022-ўқув йилида 5100 нафарни, 2022-2023-ўқув йилида 5000 нафарни ва 2023-2024-ўқув йилларида 6400 нафарни ташкил этган. Натижада 2023-2024-ўқув йилида мамлакатимиз ОТМларида ўқиш учун ташриф буюрган хорижлик талабалар 2017-2018-ўқув йилига нисбатан 492 фоизга, 2022-2023-ўқув йилига нисбатан эса 128 фоизга ошган.

Ўзбекистон ОТМларига ўқиш учун ташриф буюраётган хорижлик талабаларни мамлакатлар кесимида кўрадиган бўлсак натижа қуйидагича кўринишга эга. (3-расм)

4-расм.

2024 йил ҳолатига Ўзбекистон олий таълим муассасаларида таҳсил олаётган хорижлик талабаларнинг мамлакатлар кесимидаги сони (нафар киши)[35]

[34]Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги маълумотлари. https://stat.uz/uz/



Расмдан кўришимиз мумкинки 2023-2024-ўқув йилида Ўзбекистон ОТМларига ўқиш учун ташриф буюрган хорижлик талабалар улушининг 32 фоизидан ортиқ қисмини Ҳиндистонлик талабалар, 25 фоизини эса Туркманистонлик ва 12 фоизини Тожикистонлик талабалари ташкил этган. Агар бизга қўшни ва нисбатан яқин мамлакатлар ривожланаётган иқтисодиётга эгалигини ва аҳолисининг асосий қисмини ёшлар ташкил этишини ҳисобга олсак хорижлик талабалар оқимини ҳозирги кўрсаткичдан бир неча баровар кўпроққа ошириш имкони бор.

Замонавий олий таълим муассасаларининг халқаро рейтинг ва индексларидаги позициясини яхшилашда уларнинг иқтисодий функционаллигини ошириш муҳим аҳамиятга эга. Бунга ОТМнинг иқтисодий имкониятларини, бизнес ва инновацион шарт-шароитларини яхшилаш эвазига эришиш мумкин.

Келтирилган мақсадларга ҳамоҳанг кейинги йилларда Ўзбекистон олий таълим муассасаларининг халқаро рейтингини оширишга, илмий-тадқиқот ва инновацион фаолиятни ривожлантиришга қаратилган тизимли чора-тадбирлар амалга оширилаётганининг гувоҳи бўлмоқдамиз. Бунга мисол сифатида республикамиз глобал инновацион индекси (ГИИ) рейтингида 2015 йилга нисбатан 40 поғонага кўтарилганлиги, 2018-2023 йилларда илм-фан ва инновацион фаолиятга оид жами 90 тага яқин норматив-ҳуқуқий ҳужжат 3 та Қонун, 6 та Президент Фармони ва 28 та Қарори, Вазирлар Маҳкамасининг 40 дан ортиқ Қарорлари ва 10 дан ортиқ фармойишлари қабул қилинганлиги, ўз навбатида соҳада рақобат, манфаатдорлик ва жавобгарлик муҳити шаклланишига имконият яратмоқда. Шу ўринда мамлакатимизда халқаро рейтинг ва индексларни мувофиқлаштирувчи бундай муҳим ҳужжатларга; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 25 февралдаги “Ўзбекистон Республикасининг халқаро рейтинглар ва индекслардаги ўрнини яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4210-сонли, 2019 йил 7 мартдаги “Халқаро рейтинг ва индексларда Ўзбекистон Республикасининг ўрнини яхшилашга оид чора-тадбирларни тизимлаштириш тўғрисида”ги ПФ-5687-сонли, 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли, 2020 йил 2 июндаги “Ўзбекистон Республикасининг халқаро рейтинг ва индекслардаги ўрнини яхшилаш ҳамда давлат органлари ва ташкилотларида улар билан тизимли ишлашнинг янги механизмини жорий қилиш тўғрисида”ги ПФ-6003-сонли Фармонлари, 2022 йил 15 майдаги “Халқаро рейтинг ва индекслар билан ишлашда илмий салоҳият ҳамда амалий фаолият уйғунлигини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-246-сонли Қарори ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 21 февралдаги “2030-йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳасидаги миллий мақсад ва вазифаларни амалга оширишни жадаллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар

[35]Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги маълумотлари. https://stat.uz/uz/

тўғрисида”ги Қарорларини мисол келтиришимиз мумкин. Олий таълим тизимида амалга оширилаётган комплекс чора-тадбирларнинг ижобий самараси сифатида илк бор (2024 йил) Ўзбекистонинг иккита олийгоҳи дунёнинг энг нуфузли университетлар ТОП-1000 рейтингидан ўрин эгаллади. Яъни Буюк Британиянинг “ҚС Қуасқуарелли Сймондс” халқаро рейтинг агентлиги дунёдаги энг яхши университетлар рейтинги – “ҚС Ворлд Университй Ранкингс-2025”да Ўзбекистонинг бакалавриат даражаси бўйича иккита олий таълим муассасаси – Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти 547-ўрин ҳамда Ўзбекистон миллий униерситети 781-ўринлардан муносиб жой олди.

Агар олий таълим тизимидаги ўзгаришларни Ўзбекистоннинг чекка ҳудудларда жойлашган ОТМлар мисолида кўрадиган бўлсак ҳам кенг кўламли ўзгаришлар, янгиланишларнинг гувоҳи бўламиз. Масалан, Жиззах давлат педагогика университетида ОТМининг иқтисодий функционаллигини ривожлантириш, бизнес университетлар фаолиятга хос муҳитни яратиш мақсадида замонавий илмий-тадқиқот лабораториялари, ўқув бинолари, рақамли таълим технологияларга асосланган аудиториялар, илмий ва инновацион фаолиятни тижоратлаштириш бўлимлари, халқаро ҳамкорликни ташкил этиш ва ривожлантириш бўлимлари фаолияти йўлга қўйилган. Мутахассис кадрлар тайёрловчи кафедралар ҳузурида эса таълим, фан ва ишлаб чиқариш интеграциясига асосланган илмий-тадқиқот марказлари ташкил этилган.

Илмий-тадқиқот марказлари илғор педагог кадрларни, илмий ходимлар ва тадқиқотчиларни, магистрлар ва иқтидорли талабаларни ҳамда ҳамкорликда илмий-тадқиқот фаолиятини олиб борувчи муассасалар, ташкилотлар, фирма ва компанияларни ўз резиденти сифатида умумлаштиради. Илмий-тадқиқот марказлари фаолиятининг асосий мақсади илмий фаолият учун зарурий шарт-шароит яратиш, бизнес ва инновацион лойиҳаларни амалга ошириш, олий таълим муассасасини молиялаштиришнинг давлат бюджетидан ташқари манбаларини кенгайтиришдир. (2.1.3-жадвалга қаранг).

Жиззах давлат педагогика университети мутахассислик чиқарувчи кафедралар ҳузурида ташкил этилган илмий-тадқиқот марказлари[36]

№	Кафедралар	Илмий-тадқиқот марказлари
1	Математика ва уни ЎМ	Математика ва борлиқ
2	Умумий математика	Математика моделлаштириш ва унинг тадбиқи
3	Информатика ва уни ЎМ	Дастурий маҳсулотларни яратиш ва жорий этиш
4	Инглиз тили назарияси ва ЎМ	Инглиз тилини ўрганиш ва ўқитишни такомиллаштириш
5	Инглиз тили амалий курси	Инглиз тилини ўқитишда ва ўрганишда инновациялар
6	Педагогика таълими назарияси	Педагогик ва психологик хизматлар
7	Махсус педагогика	Инклюзив ва коррекцион таълим
8	Мактаб менежменти	Таълим муассасаларининг бошқарув муаммоларини ўрганиш
9	Мактабгача таълим	Жиззах вилояти мактабгача таълим муаммоларини тадқиқ этиш
10	Мактабгача ва бошланғич таълимда жисмоний тарбия	Жиззах вилояти мактабгача ва бошланғич таълимда жисмоний тарбия ва инглиз тили муаммоларини тадқиқ этиш
11	Технологик таълим	Замонавий технологик таълим

[36]Манба: А.Қолирий номидаги Жиззах давлат педагогика университетининг 2022 йил 9 августдаги 3-сонли Кенгаш қарори

12	Физика ва уни ЎМ	Физика ва электроника
13	Тарих ва уни ЎМ	Тарих
14	Фалсафа, тарбия ва ҳуқуқ таълими	Парадигма
15	Биология ва уни ЎМ	Хона ўсимликларини етиштириш
16	Кимё ва уни ЎМ	Кимё ва кимёвий технологиялар
17	География ва ИБА	Жиззах вилояти табиий ресурслари ва унинг геоэкологик муаммоларини тадқиқ этиш
18	Ўзбек тилини ўқитиш методикаси	Тилшунослик
19	Ўзбек адабиётини ўқитиш методикаси	Ўзбек адабиёти ва ўқитиш методикаси
20	Бошланғич таълим назарияси ва амалиёти	Фан ва таълим интеграцияси
21	Бошланғич таълим методикаси	Ментал арифметика ва ижодиёт
22	Мусиқа таълими	Мусиқа назарияси ваметодикаси
23	Тасвирий санъат ва муҳандислик графикаси	Тасвирий саънат ва муҳандислик графикаси ўқитиш методикаси
24	Рус тили ва уни ЎМ	Рус тили ва уни ўқитиш технологияларини такомиллаштириш
25	Рус адабиёти ва уни ЎМ	Рус адабиёти ва уни ўқитиш технологияларини такомиллаштириш
26	Жисмоний маданият назарияси ва методикаси	Жиззах вилояти таълим тизимининг жисмоний тарбия ва спорт муаммоларини тадқиқ этиш
27	Спорт турларини ўқитиш методикаси	Жиззах вилояти таълим тизимининг спорт турларидан илмий муаммоларини тадқиқ этиш

Ташкил этилган илмий-тадқиқот марказлари университетнинг иқтисодий функционаллигини намоён этишга, илмий-тадқиқот фаолиятини ривожлантиришга, ўзини-ўзи молиявий таъминлаш манбаларини кенгайтиришга ҳамда ОТМининг стратегик фаолиятида замонавий бизнес университетлар миссиясига хос ҳатти-ҳаракатларнинг шаклланишига олиб келди. Буни ЖДПУ кафедралари кесимида сўнги бир неча йилда илмий-тадқиқот натижалари ва инновацион лойиҳалар тадбиқи, қўшимча интенсив дастурлар асосида ташкил этилган таълим хизматлари ва таълимга оид бўлмаган ишлар ва хизматлар реализациясидан амалга оширилган тижоратлаштириш кўрсаткичлари мисолида қараб чиқамиз. (4-жадвалга қаранг)

ЖДПУнинг илмий-инновацион ишланмаларни тижоратлаштириш ва ривожлантириш ҳисоб рақамига тушумлар тўғрисида
МАЪЛУМОТ (факультет ва кафедралар кесимида)[37]

Кафедралар	2022 йил	2023 йил	2024 йил 30 июн ҳолатига
Математика ўқитиш методикаси	10500	13700	4785
Информатика ва рақамли технологиялар	18908	26410	8300
Математика ва информатика факултети	29408	40110	13085
Инглиз тили ўқитиш методикаси	10258	10555	14000
Инглиз тили амалий курси	23879	9017	8900

[37]Манба: А.Қолирий номидаги Жиззах давлат педагогика университетининг “Илмий-инновацион ишланмаларни тижоратлаштириш” бўлими статистик маълумотлари


Инглиз тили назарияси ва амалиёти	19250	27000	15000
Факултетлараро хорижий тиллар	13283,5	4806,5	2945
Хорижий тиллар факультети	66670,5	51378,5	40845
Педагогика таълим назарияси	27254	32132	6600
Умумий психология	17980	24235	18700
Махсус педагогика	16566,5	16757	19500
Мактаб менежменти	8900	15375	1000
Педагогика ва психология факультети	70700,5	88499	45800
Мактабгача таълим методикаси	53276,6	41702	9050
Мактабгача ва бошланғич таълимда хорижий тиллар	7504,5	20140	10600
Мусиқа таълими	7254	28400	23750
Мактабгача таълим факультети	68035,1	90242	43400
Технологик таълим ва тасвирий санъат фанлари	14635	16375	4650
Физика ва уни ўқитиш методикаси	26235	40080	15800
Физика ва технологик таълим факультети	40870	56455	20450
Ўзбекистон тарихи	26192	11700	1700
Умумий тарих	22000	22000	4000
Фалсафа, тарбия ва ҳуқуқ таълими	2440	3015	2200
Тарих факультети	50632	36715	7900
Биология ва уни ўқитиш методикаси	24543	13362	33000
Кимё ва уни ўқитиш методикаси	10250	26265	18000
Зоология ва анатомия	10170	29105	15800
География ва иқтисодий билим асослари	12000	27550	13900
Табиий фанлар факультети	58963	96282	80700
Ўзбек тилини ўқитиш методикаси	19005	24600	7900
Ўзбек тили ва адабиёти	24470	27300	12000
Ўзбек тили ва адабиёти факультети	43475	51900	19900
Бошланғич таълим методикаси	22782	11415	9500
Бошланғич таълим назарияси ва амалиёти	20500	8300	6000
Бошланғич таълим факультети	43282	19715	15500
Рус тили ва уни ўқитиш методикаси	191169	22500	6600
Рус адабиёти ва уни ўқитиш методикаси	131392	9685	12500
Рус тили ва адабиёти факультети	322561	32185	19100
Жисмоний маданият назарияси ва методикаси	19748	17340,80	8035
Спорт турларини ўқитиш методикаси	16790	30931,40	2340
Жисмоний маданият факультети	36538	48272,2	10375
Умумкасбий фанлар	2997,24	1300	-
Тиббиёт факультети	2997,24	1300	-
Ижтимоий-гуманитар фанларда масофавий таълим	20920	11755	6000
Педагогика-психология ва мусиқа йўналишларида масофавий таълим	9050	28000	18000
Табиий ва аниқ фанларда масофавий таълим	11500	17110	24080
Мактабгача ва бошланғич йўналишларда	15300	18834	41940

масофавий таълим			
Сиртқи бўлим	56770	75699	90020
ЖДПУ бўйича умумий	890902,34	688752,7	407075

Жадвалдан кўришимиз мумкинки даврлар бўйича факултетлар кесимида натижадорлик беқарор ва бир-биридан кескин фарқ қилмоқда. Масалан Математика ва информатика факултети, Педагогика ва психология факултети, Мактабгача таълим факултети, Физика ва технологик таълим факултети, Табиий фанлар факултети, Ўзбек тили ва адабиёти факултети, Жисмоний маданият факултети ва Сиртқи бўлимларда 2022 йилга нисбатан 2023 йилда умумий натижадорликда қиймат ўсиши бўйича ижобий тенденция кўзга ташлансада, Хорижий тиллар факултети, Тарих факултети, Бошланғич таълим факултети, Рус тили ва адабиёти факултети ва Тиббиёт факултетларида ўтган даврга нисбатан умумий натижадорликда қиймат жиҳатдан пасайиш тенденцияси кузатилганлигининг гувоҳи бўламиз.

Илмий-инновацион ишланмаларни тижоратлаштириш ва ривожлантириш ҳисоб рақамига икки йил давомидаги умумий тушумларда факултетлар улуши қуйидаги расмда келтирилган.

ЖДПУда факултетларнинг илмий-инновацион ишланмаларни тижоратлаштиришда иштироки (2022-2024 й.)



Таҳлил натижалари шуни кўрсатадики, олий таълим муассасалари иқтисодий функционаллигининг муҳим таркибий йўналишлари ҳисобланган фаолиятлар сифатини баҳолаш индикаторлари ва кўрсаткичларини ишлаб чиқиш ҳамда ҳисоблаш усулларини такомиллаштириш зарур.

ОТМининг иқтисодий функционаллигини намоён этувчи фаолиятлар сифатига, умумий кўрсаткичларнинг натижадорлигига омиллар таъсири ҳар доим ҳам бир хил даражада кечмайди. Шу сабабли ОТМ иқтисодий функционаллигини такомиллаштиришга таъсир этувчи муҳим омилларни ажратиб олиш зарур. Олиб борилган изланишлар натижасида шу нарса ойдинлашадики, ОТМ иқтисодий функционаллигини такомиллаштиришда профессор-ўқитувчилар, илмий тадқиқотчилар ва бошқарув ходимлари салоҳияти, иш фаолияти натижадорлиги муҳим аҳамиятга эга. Шу сабабли баҳолашнинг умумлаштиришган натижаларини олишга тўғри келади, умумлаштирилган натижаларни олиш учун профессор-

ўқитувчилар, илмий тадқиқотчилар ва бошқарув ходимлари салоҳияти, иш фаолияти натижадорлигини баҳолашнинг интеграл кўрсаткичини ҳисоблаш мақсадга мувофиқ.

ОТМ иқтисодий функционаллигини такомиллаштиришга таъсир этувчи муҳим омиллар ҳисобланган профессор-ўқитувчилар, илмий тадқиқотчилар ва бошқарув ходимлари таркибининг сифатини, уларнинг умумлаштирилган натижадорлигини олиш учун, гуруҳ кўрсаткичлари йиғиндисига асосланган тортилган арифметик ўртача усулдан фойдаланилади. Ушбу усулда, кўрсаткичларнинг муҳимлиги инобатга олинганлиги сабабли, интеграл кўрсаткич тадқиқ этилаётган объект фаолияти самарадорлигини аниқроқ акс эттиради. Бу усул интеграл кўрсаткични аниқлаш усулларидан бири ҳисобланиб, уни ҳисоблаш формуласи қуйидагидан иборат:

бу ерда $N1$ – олий таълим муассасаси профессор-ўқитувчилар, илмий тадқиқотчилар ва бошқарув ходимлари таркиби сифатини баҳолашнинг интеграл кўрсаткичи; ви - и-нчи кўрсаткич ҳар бир позициясининг эксперт усули билан аниқланадиган, вазн қиймати; Ни – и-чи кўрсаткичнинг баҳоси.

$$N_1 = \sum_{i=1}^{20} Vi \times N_{20}^{I}$$

Интеграл кўрсаткични аниқлаш учун ОТМ профессор-ўқитувчилар, илмий тадқиқотчилар ва бошқарув ходимлари салоҳиятини баҳолашда қўлланиладиган кўрсаткичлар ҳар бирининг вазн қийматини аниқлаш талаб этилади. Бу эса ўз навбатида эксперт баҳолаш усули ёрдамида амалга оширилади.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатмоқдаки билим ва инновацияларга асосланган иқтисодиёт шароитида олий таълим муассасаларининг яхлит фаолиятини баҳоловчи мезонлар, кўрсаткичлар тизимини шакллантиришга халқаро ва умуммиллий ривожланишининг янги тенденциялари сезиларли таъсир кўрсатмоқда. Ва бу ўзгаришлар ОТМнинг иқтисодий функционаллиги билан боғлиқ қуйидаги омиллар билан характерланади;

- ОТМда интеллектуал капитални шакллантириш функцияларининг ортиб бориши;
- миллий иқтисодиёт доирасида инновацион ғояларни шакллантиришга бўлган заруратнинг ўсиб бориши;
- ҳар бир олий таълим муассасасида инновацион фаолиятни рағбатлантиришга йўналтирилган мотивацион функцияларни шакллантиришга қаратилган ҳаракатнинг долзарблашуви;
- олий таълим муассасаларида ўзини-ўзи молиялаштириш манбаларининг кенгайиб бориши;
- билим ва технологиялар трансфери;
- олий таълим муассасаларининг бизнес ва тадбиркорликка йўналтирилган фаолияти каби жиҳатлар билан узвий боғлиқдир.

Хулоса қиладиган бўлсак умуман олганда мамлакатимиз олий таълим муассасаларини дунё минтақаларида танитишнинг асосий хусусиятлари сифатида қуйидагиларни келтириш мумкин:

ўқитиш тизими ва ўрганиш муҳити *(бунинг асосий параметрлари ўқитувчилар фаоллигини аниқлаш бўйича сўровнома натижаларига, профессор-ўқитувчилар сони билан бакалавриат талабалари нисбатига, фан докторлари сонининг умумий ўқитувчилар сонига нисбатига, муайян даврдаги таълим муассасаси умумий даромадининг фаолият юритаётган профессор-ўқитувчилар ва илмий ходимлар сонига нисбатан тўғри келувчи ўртача қиймати билан аниқланади)*;

таълим муассасасида тадқиқотлар даражаси ва тижоратлаштириш *(бунда илмий-тадқиқот ва инновацион фаолиятдан кўрилган даромаднинг фаолият юритаётган профессор-ўқитувчилар сонига нисбатан тўғри келувчи ўртача қиймати, маълум даврдаги*

илмий ва ўқув-услубий нашрлар сонининг профессор-ўқитувчилар ва илмий ходимлар сонига нисбатан тўғри келувчи улуши ҳисобга олинади);

нашр этилган илмий ва услубий ишларнинг амалий аҳамияти ва уларга халқаро миқёсда иқтибослик келтириш даражаси *(бунда олий таълим муассасаси профессор-ўқитувчиларининг илмий натижаларига дунё бўйлаб келтирилган иқтибосларнинг сони ҳисобга олинади)*;

халқаро ўқитувчилар, талабалар ва тадқиқотчилар сони *(бунда олий таълим муассасасида таҳсил олувчи хорижий талабалари улуши, муассасада фаолият олиб борувчи хорижий ўқитувчилар сони, халқаро умумий нашрлар, ҳаммуаллифликлар сони билан аниқланади); саноатдан даромад олиш (бунда саноат ва тижорат тармоқларидан олинаётган тадқиқот даромадларининг умумий ўқитувчилар сонига нисбати тарзида аниқланади).*

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон республикаси олий таълим, фан ва инноватсиялар вазирлиги ҳузуридаги олий таълимни ривожлантириш тадқиқотлари ва илғор технологияларни татбиқ этиш маркази томонидан тайёрланган “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини баҳолаш” методик қўлланма. Тошкент. 2023 йил.

2. Eric Spear “Key Performance Indicators (KPIs) for Colleges and Universities” Prision Campus. USA. https://precisioncampus.com/blog/education-kpis/

3. Ted Jackson “30 Key performance Indicators In Education”. https://www.clearpointstrategy.com/blog/key-performance-indicators-in-education#toc-0

4. А.Зикриёев “Дунё университетлари рейтингидаги тадқиқотчи-олимлар орасида ўзингизни кашф қилинг. Илмий-тадқиқотлар ўтказиш ва мақолалар чоп этишнинг замонавий усуллари” амалий қўлланма. “Наврўз” нашриёти. Т:. 2020 йил. 23-бет

5. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги маълумотлари. ҳттпс://стат.уз/уз/

6. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги маълумотлари. ҳттпс://стат.уз/уз/

7. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги маълумотлари. ҳттпс://стат.уз/уз/

8. Манба: А.Қолирий номидаги Жиззах давлат педагогика университетининг 2022 йил 9 августдаги 3-сонли Кенгаш қарори

9. Манба: А.Қолирий номидаги Жиззах давлат педагогика университетининг “Илмий-инноватсион ишланмаларни тижоратлаштириш” бўлими статистик маълумотлари.

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ГОТОВНОСТЬ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Буранова Шохноза Абдуразаковна

доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент Джизакского Государственного Педагогического Университета, Узбекистан

Аннотация:

Дошкольное образование и воспитание – это обучение, развитие, воспитание, присмотр и уход за ребёнком в дошкольном возрасте. Целью дошкольного образования и воспитания является формирование первоначальных знаний, умений и навыков, необходимых для становления личности на данном возрастном этапе. В статье говорится о реформах, инновациях реализуемых в сфере дошкольного образования и воспитания в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: *дошкольное образование и воспитание, развитие, уход, успешное обучение и воспитание, образовательный круг, инновация.*

Annotatsiya:

Maktabgacha ta'lim va tarbiya - maktabgacha yoshdagi bolani o'qitish, rivojlantirish, tarbiyalash, nazorat qilish va parvarish qilishni nazarda tutadi. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning maqsadi maktabgacha yoshda shaxsni shakllantirish uchun zarur bo'lgan dastlabki bilim, ko'nikma va malakarni shakllantirishdir. Maqolada O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar,innovatsiyalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim va tarbiya, rivojlanish, g'amxo'rlik, muvaffaqiyatli ta'lim va tarbiya, ta'lim doirasi, innovatsiya.*

Annotation:

Preschool education and upbringing is the training, development, upbringing, supervision and care of a child in preschool age. The goal of preschool education and upbringing is the formation of initial knowledge, skills and abilities necessary for the formation of personality at a given age stage. The article talks about reforms being implemented in the field of preschool education and upbringing in the Republic of Uzbekistan.

Key words: *preschool education and upbringing, development, care, successful education and upbringing, study group, innovation.*

Дошкольные образовательные организации в Узбекистане, как и во многих странах, являются первым местом, откуда ребёнок начинает получать знания и воспитания. Учиться читать, писать и знакомиться с окружающим миром начинается именно в дошкольном образовании. Дошкольная образовательная организация выделяется как первая ступень в большом образовательном кругу. Поэтому не зря в последние годы можно увидеть всё больше усилий государства именно в этом направлении.

Дети - наше будущее! Поэтому любая страна заботится об их развитии. Ведь сегодняшние дети завтра станут взрослыми. И от того, какими личностями они будут, зависит наше общество. А общество - это ядро народа. В конце концов, народ является источником власти. Поэтому вопрос образования детей является насущным.

В конце 2019 года был принят отдельный Закон Республики Узбекистан «О дошкольном образовании и воспитании». Само название Закона свидетельствует о том, что детский сад - это не только место для обучения, но и воспитание детей. Документ определяет дошкольное образование и воспитание как вид непрерывного образования, направленный на обучение и воспитание детей, их интеллектуальное, духовно-нравственное, этическое, эстетическое и физическое развитие, а также подготовку детей к общему среднему образованию. Дошкольным возрастом, согласно Закону, считается возраст детей от рождения до 7 лет, до момента предоставления ему начального образования. В Законе даются государственные гарантии на получение дошкольного образования и воспитания: «Каждый ребёнок имеет право на дошкольное образование и воспитание. Государство гарантирует право каждого ребёнка на получение в государственных дошкольных образовательных организациях подготовки к общему среднему образованию до его поступления в организации общего среднего образования».

Особое внимание в ближайшие годы было ещё уделено педагогическим и управленческим кадрам. Работа велась по двум направлениям: увеличение количества педагогов и внедрение новых подходов к подготовке, переподготовке, повышению квалификации, отбору и развитию работников.

В своем выступлении на торжественном собрании 29 сентября 2021 году, посвященном Дню учителей и наставников, Президент Шавкат Мирзиёев отметил, что «системы дошкольного, школьного, высшего и среднего специального образования, научных и культурных учреждений - это четыре взаимосвязанных звена будущего Ренессанса.

Воспитателей детских садов, школьных учителей, профессоров и преподавателей, научную и творческую интеллигенцию мы считаем четырьмя важнейшими опорами в формировании эпохи нового Возрождения». Действительно, сегодня в стране ведётся беспрецедентная работа по развитию неразрывно связанных между собой систем дошкольного, школьного, высшего образования, научно-исследовательских учреждений. Но, как подчеркнул лидер страны, до начала нынешних реформ сфера дошкольного образования оставалась без внимания. А ведь именно она имеет огромное значение в жизни общества как самое главное звено в воспитании детей. Забота и внимание, уделяемые этой сфере, закладывают основу будущего прогресса.

Условием успешного обучения детей дошкольного возраста является знание педагогам и родителям дидактических закономерностей формирования у детей системы знаний, умений и навыков, владение современными методами обучения, стимулирующими их познавательную активность, умение придать познанию поисковый характер, чтобы в основу образовательной работы была положена личная деятельность самого ребёнка. Важную роль играет стимуляция и управление педагогами и родителями активностью ребёнка. При этом освоение детьми знаний, овладение умениями и навыками является лишь средством их развития. Главной же целью воспитателя в реализации развития образовательных областей по Государственному стандарту дошкольного образования и воспитания формирование способностей, интереса к самостоятельному их приобретению.

Обязанности воспитателя велики и многогранны. Все их не всегда можно предусмотреть, даже в инструкциях и уставах. Воспитатель - это не профессия, это призвание, образ жизни и состояние души. Он должен не просто любить возиться с детьми, а проживать вместе с ними их маленькие жизни. И требования к воспитателям, просто обязаны предъявляться, самые строгие. Разумеется, идеальный воспитатель имеет высшее образование, постоянно развивается в своей профессии повышает квалификацию, разрабатывает авторские методики, издаёт пособия и пишет статьи. Но при этом не стоит забывать о личностных качествах педагога, что является при работе с детьми очень важным.

Проблема профессиональной подготовки является ключевой для любой профессиональной сферы, поскольку именно от того, какие специалисты привлечены к труду, зависит его эффективность. Особенно остро эта проблема проявляется в образовании, которое всегда ориентировано на будущее. Тот факт, что человек узнает большую - часть информации о мире в детском возрасте, заставляет постоянно задумываться над вопросом о подготовке тех, кто работает с детьми.

Повышение требований к качеству дошкольного образования, выраженное в государственных стандартах о дошкольном образовании и воспитании, утверждение профессионального стандарта педагога приводят к необходимости изменений в организации, содержании и технологиях подготовки педагогов в вузе. Важную роль в сложившейся ситуации играет весь комплекс проблем (набор абитуриентов, осуществление учебного процесса в вузе, трудоустройство, вход в профессию и др.), связанных не только с получением педагогического образования, но и с педагогической профессией в целом. Эффективная профессиональная подготовка будущих педагогов на основе профессионального стандарта педагога предполагает повышение роли Вуза в развитии региона и его всестороннее взаимодействие с различными социальными субъектами с учетом современных тенденций развития высшего педагогического образования.

Сегодня в Узбекистане реализуются новая государственная стратегия модернизации педагогического образования. То есть реорганизация высшего педагогического образования нацелена на подготовку нового типа специалиста дошкольного образования и воспитания. Это уже не просто специалист, вооруженный профессиональными знаниями, умениями и навыками - это, прежде всего, творческая личность, владеющая общей культурой и фундаментальной подготовкой, способная самостоятельно и нестандартно мыслить,

прогнозировать успех своей деятельности, брать ответственность за полученный результат, активно использовать научные методы работы, проявлять социальную активность и, что очень важно, не останавливаться в своём профессиональном становлении, продолжая совершенствоваться и саморазвиваться.

На сегодняшний день университет имеет наибольшее число международных договоров в совершенствовании сферы дошкольного образования и воспитания. Среди партнёров ведущие вузы Европы — Белорусским Государственным университетом имени Максима Танка, Казаньским федеральным унивеситетом. Стратегические отношения создаются и научными и учебными учреждениями стран восточной Азии. Развивается сотрудничество с университетами Российской Федерации. Педагогическое сотрудничество предусматривает на решение реализации поставленных задач в сфере дошкольного образования и воспитания, которое провозглашает содействие и сотрудничество университетов в признании ребёнка дошкольника полноценным участником (субъектом) образовательных отношений.

Современное образование Южной Кореи представляет развитую систему обучения и воспитания, которое занимает одно из лучших мест в мире по качеству и системности образовательной структуры. Узбекистан внедряет опыт Южной Кореи в работе своих дошкольных образовательных организаций, как делегация Министерства дошкольного образования посетила и изучила различных видов в Южной Кореи. А также мы внедряем в практику основные характерные черты корейских детских садов, формы обучения, принципы работы, квалификацию и условия работы педагогического персонала, материально-техническое оснащение, программы и методики. С опыта Финляндии приобретаем организацию качественного и здорового питания. Внедряем в практику методику воспитательной работы Франции по подготовке воспитателя, разрабатываем специфический модуль под названием «Материнская школа». Изучение данного курса даёт знание психических и физиологических особенностей детей, особенностей эмоционально-волевых проявлений дошкольников, закономерностей формирования и развития личности ребенка. Дисциплина содержит методику воспитательной работы в дошкольных образовательных организациях: основные принципы, способы их реализации, требования к подготовке воспитателя, к его умениям выявлять психологическую готовность детей к школе и пользоваться инструментами оценки полученных ими знаний. Будущих воспитателей учат также налаживать контакты с родителями вновь прибывших детей.

Профессиональная готовность по направлениям «Дошкольное образование» вырабатывается на основе практической подготовки студентов по программе 4+2. Каждый вид практики строится на основе определённых дисциплин и предусматривает формирование и закрепление профессиональных и опорных компетенций.

Создано структурное подразделение кафедры «Методика дошкольного образования» факультета «Дошкольное образование» на базе государственных дошкольных образовательных организациях Джизакской области. Целями деятельности филиала являются: повышение качества образовательного процесса посредством расширения взаимодействия профессорско - преподавательского состава кафедры методики дошкольного образования и педагогов-практиков дошкольных образовательных организаций, усиление практикоориентированности дошкольного образовательного процесса.

Использованные литературы:

«Закон о дошкольном образовании и воспитании Республики Узбекистан» ЗРУ-595 Т.: 2019 год

«Государственный стандарт дошкольного образования и воспитания Республики Узбекистан» ПКМ-802 Т.: 2020 год

Мелиев Х., Буранова Ш. Маҳалла, оила ва мактабгача таълим ташкилоти ҳамкорлик тизими ишларини такомиллаштириш. // Монография. – ЖДПИ. Таҳририй-нашриёт бўлими, 2021. –108 б.

Мелиев Х, Буранова Ш. The continuity of neighborhood, family end preschool educational organization as a condition of successful adaptation to school life // Scopus, Journal of critical reviews. ISSN- 2394-5125. Issue 11, Vol – 7. 2020 May 5. (Scopus).

Буранова, Ш. А., & Пак, Д. А. (2021). Развитие навыков письма у дошкольников в раннем возрасте. Новая наука: история становления, современное состояние, перспективы развития (стр. 142-143).

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ДОО И ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРЫ РОДИТЕЛЕЙ

Буранова Шохноза Абдуразаковна

доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент Джизакского Государственного Педагогического Университета, Узбекистан

Аннотация:

В этой статье раскрывается содержание работы будущих воспитателей ДОО в условиях реализации государственного стандарта дошкольного образования и воспитания, взаимосвязано дошкольной образовательной организации с социальными институтами в целях развития детей по подготовке их к школе.

Ключевые слова: *профессиональная деятельность будущих воспитателей, призвание, идеальный воспитатель, цели семейного воспитания, формы работы с родителями.*

Annotation:

His article reveals the content of the work of a preschool teacher in the context of the implementation of the state standard of preschool education and upbringing, the interconnection of a preschool educational organization with social institutions in order to develop children in preparing them for school.

Key words: *professional activity of an educator, vocation, ideal educator, goals of family education, forms of work with parents.*

Введение

Построение взаимоотношений между дошкольной образовательной организацией, семьёй и махаллёй в системе партнёрства является неотъемлемой частью обновления содержания работы дошкольной образовательной организации в условиях реализации государственного образовательного стандарта дошкольного образования. В настоящее время построению партнёрских доверительных отношений между родителями и дошкольной образовательной организацией уделяется большое внимание как со стороны органов, осуществляющих государственную политику в сфере дошкольного образования, так и самими педагогическими коллективами. Изменение нормативно-правовой базы, регулирующей эти взаимоотношения, повлекло за собой формирование нового взгляда, как на статус родителя, так и на педагога дошкольной образовательной организации. Однако новые подходы к взаимодействию с семьями определены не только в государственной учебной программы дошкольного образования, но и в целом изменениями в обществе, в системе ценностей современной семьи, запросами сегодняшних родителей на воспитательно-образовательные услуги дошкольной образовательной организации.

Основная часть

Процесс всестороннего развития личности включает в себя целую систему воспитания и обучения, начиная с дошкольного возраста. Всё начинается с детства. Именно в детстве появляются задатки особенностей характера, способностей и интересов взрослого человека. Дети поражают нас своеобразием поведения, интересов, способностей, склонностей. Нет совершенно одинаковых детей, даже близнецы обязательно отличаются друг от друга. На развитие ребёнка влияют три важных сферы: дошкольная образовательная организация, семья, махалля. Успешное решение задач воспитания возможно только при условии взаимодействия дошкольной образовательной организации, семьи, махалли. Сотрудничество

семьи, дошкольной образовательной организации и махалли становится всё более актуальным и востребованным. Однако, сотрудничество этих сфер необходимо для формирования всесторонне развитой личности. Влияние махалли играет немало важную роль в формировании личности ребёнка, оно социализирует его. Позиции общества влияют на формирование целого поколения. Каждый ребёнок вступает в многообразные отношения со множеством людей: в своей семье он сын или дочь, брат или сестра, в школе — учащийся, в спорте — спортсмен, в автобусе — пассажир и т. д. Во всех этих отношениях ребёнок проявляет свои личные качества: самоуверенность, скромность, доброжелательность, ответственность, дисциплинированность, равнодушие, эгоизм и другое. Мы глубоко изучили, как формируется детское поведение, какую роль играет в этом семья, дошкольная образовательная организация и махаллинское общество. И от того, какое влияние оказывают на ребёнка эти три компонента, зависит его формирование как личности. Семья — первичная ячейка махалли, члены которой связаны родственными и хозяйственными связями. Семья содействует выработке многих навыков и привычек — трудовых, гигиенических, культурных и моральных. В семье воспитывается характер, формируются убеждения. Эти убеждения, сформированные в детстве, наиболее прочные, действенные. В махалле и семье дети знакомятся с отношением взрослых к своим обязанностям, труду, к происходящим событиям, их мнение всегда оказывает большое влияние на детей, на их поступки. Для ребёнка семья является естественной воспитывающей средой. Она накладывает свой отпечаток на его характер и поведение. В семье он получает первые уроки в познании мира и знакомится с элементарными законами жизни. Получаемые сведения постепенно расширяются и усложняются, по мере того как малыш растёт и развивается. Семья во многом определяет отношение ребёнка к трудовой деятельности, культуру его поведения, активность и инициативность, дисциплинированность и целый ряд других качеств личности. Ф. М. Достоевский писал: «Знайте же, что нет ничего сильнее, и здоровее, и полезнее впредь для жизни, как хорошее какое-нибудь воспоминание, и особенно вынесенное ещё из детства, из родительского дома… прекрасное, свежее воспоминание, сохранённое с детства, может быть, самое лучшее воспоминание и есть. Если много набрали таких воспоминаний с собою в жизнь, то спасён человек на всю жизнь». Дошкольная образовательная организация — это второй дом. Во-первых, дети большинство своего времени проводят именно в детском саду, а дома они продолжают то, что задали на занятиях: выполняют задания. Во-вторых, дошкольная образовательная организация даёт необходимый уровень образования. В-третьих, именно дошкольная образовательная организация обладает квалифицированными специалистами с определённой педагогической подготовкой, которые всегда помогут ребёнку в трудной ситуации. В дошкольной образовательной организации ребёнок получает жизненный опыт и знания, она даёт возможность работать в коллективе и реализовать себя в группе. Дошкольная образовательная организация более функционально, как учебное заведение, где дают знания и воспитывают из них культурных людей. Но с возрастом эти цели меняются и здесь, дошкольная образовательная организация должна поддерживать эти цели, а родители помогать. В чём заключается взаимодействие семьи и дошкольной образовательной организации? Работа дошкольной образовательной организации с семьей включает в себя педагогическое просвещение родителей, привлечение их к непосредственному участию в деятельности дошкольного коллектива, организацию единой системы воздействия на ребёнка в дошкольной образовательной организации и семье. С чего же дошкольной образовательной организации следует начинать организацию педагогического взаимодействия с семьей?

Формы работы с семьёй. Родительский комитет — объединение родителей, с целью помогать педагогам в работе с детьми дошкольного возраста. Таким образом, привлечение родителей к различным видам деятельности дошкольного коллектива является главным

средством объединения усилий дошкольной образовательной организации, семьи, махалли. Родительские собрания, где участники обмениваются мнениями по вопросам воспитания детей дома и в дошкольной образовательной организации. Родительские собрания бывают общие и групповые. Они проходят в определённые дни, установленные дошкольной образовательной организацией. Родители обсуждают и решают общие вопросы, делятся опытом воспитания детей. Под воспитанием в широком смысле имеется в виду вся сумма воздействий, весь процесс формирования личности, который совершается под влиянием всего уклада жизни общества, окружающей среды, трудовой и производственной деятельности, господствующих идей, права, искусства, литературы. Положительным можно считать попытку некоторых дошкольных образовательных организаций, найти систему в планировании тематики родительских собраний на весь учебный год. Это способствует сосредоточению дошкольной образовательной организации и семьи на решении основных задач, постепенному овладению родителями всеми основными вопросами семейной педагогики.

Посещение педагога семьи воспитанника. Педагог должен познакомиться с условиями воспитания ребёнка в семье ещё до поступления его в дошкольную образовательную организацию. Посещение семьи поможет воспитателю быстрее найти пути педагогического влияния на родителей. Да и дети скорее привыкают к новой обстановке дошкольной образовательной организации и к воспитателю, если с ним познакомились в домашней обстановке. Основная задача — знакомство с бытом семьи, конкретными условиями жизни дошкольника, изучение людей и личный контакте со всеми, кто выступает в роли воспитателей детей в данной семье. В общении воспитателей с родителями главное — совместное решение воспитательных задач, поиски наилучших средств воздействия на данного ребёнка. Поэтому так важна и нужна здесь атмосфера взаимного доверия, общей заботы об общем деле, так, например, организация дошкольных мероприятий: экскурсии, тематические мероприятия. Чтобы вовлечь родителей в самостоятельную работу по изучению педагогической теории в дошкольных образовательных организациях организовали педагогические семинары. Участники семинара слушали лекции, знакомились с лучшим опытом семейного воспитания, получали ответы на сложные вопросы воспитания, самостоятельно изучали педагогическую литературу. Консультации для родителей, где родители могут индивидуально поговорить с воспитателем на любую интересующую их тему. Часто родители, придя на консультацию, не только ждут ответа на возникший вопрос, но и стремятся проверить своё мнение, убедиться в правильности своих воспитательных приёмов. Конференции родителей по вопросам семейного воспитания, где на всеобщее обсуждение выдвигаются общие вопросы семейного воспитания.

Родительские университеты. В учебный план университета, кроме тем по семейному воспитанию и педагогике вообще, расположенных в определённой системе, включаются ещё и лекции по психологии, медицине, литературе и искусству. Удачным следует считать привлечение к работе в университете психологов, врачей, библиотекарей, учителей и др. Различные типы школ имеют свои особенности и в работе с семьёй.

Анализы и результаты

Взаимодействие - предоставляет собой способ организации совместной деятельности, которая осуществляется с помощью общения. Дошкольная образовательная организация и семья должны стремиться к созданию единого пространства развития ребёнка.

Современные тенденции в развитии дошкольного образования объединены одним важным и значимым критерием - его качеством, которое непосредственно зависит от уровня профессиональной компетентности педагогов и педагогической культуры родителей. Достичь высокого качества образования наших воспитанников, полностью удовлетворить запросы родителей и интересы детей, создать для ребёнка единое образовательное

пространство возможно только при условии разработки новой системы взаимодействий дошкольной образовательной организации и семьи.

Заключение

Проблема взаимодействия дошкольной образовательной организации и семьи в последнее время попала в разряд самых актуальных. Папам и мамам необходимо помнить, что дошкольная образовательная организация - только помощник в воспитании ребёнка, и потому они не должны перекладывать всю ответственность на педагогов и устраняться от воспитательно - образовательного процесса. Каждый ребёнок это особый мир, и познать его может только тот, кто умеет вместе с малышом разделить его огорчения и тревоги, его радости и успехи.

Использованные литературы:

1. Мелиев Х., Буранова Ш. Маҳалла, оила ва мактабгача таълим ташкилоти ҳамкорлик тизими ишларини такомиллаштириш. // Монография. – ЖДПИ. Таҳририй-нашриёт бўлими, 2021. –108 б.

2. Мелиев Х, Буранова Ш. The continuity of neighborhood, family end preschool educational organization as a condition of successful adaptation to school life // Scopus, Journal of critical reviews. ISSN- 2394-5125. Issue 11, Vol – 7. 2020 May 5. (Scopus).

3. Буранова, Ш. А., & Пак, Д. А. (2021). Развитие навыков письма у дошкольников в раннем возрасте. Новая наука: история становления, современное состояние, перспективы развития (стр. 142-143).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA’LIM TIZIMIDAGI MUHIM O‘ZGARISHLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Jabbarova Zaynab
i.f.f.d PhD (JizPI)
Primqulova Zarina
3-bosqich talabasi (JizPI)

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda zamonaviy oliy ta’lim tizimidagi muhim o‘zgarishlar hamda hozirgi kunda bo‘layotgan yangicha yondashuvlar hamda ta’lim tizimidagi islohatlar haqida va bu islohatlar bizning o‘qishimizda qay darajada targ‘ibot qilanayotganligi to‘g‘risida va shu bilan birgalikda, mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma’naviy jihatdan yetuk insonlar bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlash, ularning qobiliyat va iste’dodi, intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoiylik tuyg‘ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilayotganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *yangiliklar, islohotlar, yangicha yondashuvlar, muammo, yechim, innovatsiya, ta’lim tizimi, ta’lim sifati, ta’limda texnologiya, kredit modul tizimi, taqqoslash.*

Annotation:

In this article, about the important changes in the modern higher education system in New Uzbekistan and about the new approaches and reforms in the education system, and about the extent to which these reforms are promoted in our studies, and thus together, since the first years of independence, the development of the education system in our country has risen to the level of state policy, ensuring that our children acquire modern knowledge and skills in conditions corresponding to world standards, and grow up to be physically and spiritually mature people , it is reported that great work is being done to realize their abilities and talents, to realize their intellectual potential, to perfect the feelings of loyalty and devotion to the motherland in the hearts of our youth.

Key words: *news, reforms, new approaches, problem, solution, innovation, education system, quality of education, technology in education, credit module system, comparison.*

Bilamizki, bugungi kundagi Yangi O‘zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida to‘lqinlanib so‘zlamaslikning aslo iloji yo‘q.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidan boshlanishi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyati beqiyosligini nazarda tutadi.

Shuningdek, bugun yirik shaharlarimizdan tortib, chekka tumanlar, qishloq va ovullarimizda yangi-yangi zamonaviy bog‘chalar,maktablar barpo etilyapti. Qisqa vaqt, ya’ni to‘rt yil ichida Respublikamizda bog‘chalar soni 3 barobar oshib, bog‘cha yoshidagi bolalarni qamrab olish darajasi 28 foizdan 54 foizga yetgani ana shunday amaliy harakatlarimiz natijasidir.

Davlatimiz Prezidenti shuni ta’kidlaydiki: “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq”[38]

Yaqin-yaqinlargacha o‘qituvchi-muallimlar, ayrim joylarda o‘quvchilar ham, to‘rt oylab paxta yig‘im-terimi, chopiq va yaganaga chiqarilgan, natijada o‘qituvchi bir oyda o‘rtacha 80 soat dars o‘tishi kerak bo‘lsa, to‘rt oyda 320 soat yo‘qotadigan vaziyat vujudga keldi. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida mana shunday salbiy holatlarga chek qo‘yildi.

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib beradi.

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o‘quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta’lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta’lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e’tirofga erishish hamda boshqa ko‘plab aniq yo‘nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta’lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda yangi-yangi oliy o‘quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so‘nggi 5 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta’lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o‘quv yurtlarining soni 125 taga yetdi.

Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yilyapti. Aholi fikrini o‘rgangan holda, sirtqi va kechki ta’lim shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilyapti. Maktab bitiruvchilarini oliy ta’limga qamrab olish darajasi 2016-yilgi 9 foizdan 2020-yilda 25 foizga yetdi.

Professor-o‘qituvchilarning xorijdagi oliy ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o‘tashini ta’minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori 2018-yilga nisbatan o‘rtacha 2,5 barobar oshirildi. Bu yildan boshlab 10 ta oliy ta’lim muassasasi o‘zini-o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazildi.

[38] Шавкат_Мирзиёев. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz

Oliy ta’limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirilganligi, oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko‘paytirib, 2 mingtaga yetkazilishi oliy ta’limga qamrab olish ko‘lamini yana-da kengaytirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari va 2017-yil 7-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, “Yoshlarga oid Davlat dasturi”, yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmonlari mamlakatimizda ta’lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi”.[39]

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’limtexnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Xususan, ta’lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo‘ldi. Mazkur Qonunga asosan ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta’lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo‘yildi.

Shuningdek, Qonunga ko‘ra, davlat oliy ta’lim, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o‘rta maxsus, professional ta’lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo‘ldi. Nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etish ularning ta’sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta’lim tashkilotlariga litsenziya Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo‘ldi.

Shunga ko‘ra, mazkur Qonunning qabul qilinishi hamda amaliyotga joriy etilishi ta’lim sohasida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bo‘ldi deyishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan oliy ta’lim tashkilotlari uchun akademik va tashkiliy, shuningdek, moliyaviy mustaqillikning berilishi hamda Kengashlar vakolatlarining kengayayotgani ta’lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, sifatli ta’lim xizmatlarini ta’minlash va bu borada Prezident hamda hukumatimiz belgilab bergan vazifalarni to‘la-to‘kis ado etish orqali mamlakatimiz taraqqiyotini belgilab beruvchi salohiyatli kadrlar tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2-bob
2. Шавкат_Мирзиёев: Tanqidiy tahlil qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.

[39] Shavkat-Mirziyoyev. Asarlar 1-jild. Milliy taraqqiyot yo'limizni qattiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz

3. Shavkat-Mirziyoyev: Asarlar 1-jild. milliy taraqqiyot yo‘limizni qattiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘ramiz.
4. Шавкат_Мирзиёев: Янги Ўзбекистонда эркин ва фаровон яшайлик!
5. Шавкат_Мирзиёев: Erkin va farovon demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.
6. Mamasodikovna J. Z. Development of the economy of the republic of uzbekistan to support small business and private enterprise.
7. Жабборова З.М. КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА МЕҲНАТ МУНОСАБАТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 55-60.
8. Mamasodikovna J. Z. Development of the economy of the republic of Uzbekistan to support small business and private enterprise //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т.12. – №.1. – С.22.26.
9. Жабборова З. М. О СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2018. – №. 12-4. – С. 47-50.
10. Mamasodikovna J. Z. DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN TO SUPPORT SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTERPRISE //A BIBLICAL NARRATIVE OF THE THEOLOG OF WORK.
11. Rasulova S., Jabborova Z. PRINCIPAL DIRECTIONSON THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP //International Finance and Accounting. – 2019. – Т. 2019. – №. 3. –С. 18.

YOSHLAR TARBIYASIDA AJDODLAR MA’NAVIY MEROSINING O‘RNI

Usmon S. To‘pchiyev
t.f.f.d. Jizzax DPU o‘qituvchisi

Annotatsiya:
Maqolada ajdodlarimizning betakror ma’naviy merosi va uning tarixiy ildizlari yoritilar ekan, ma’naviyatning tarixiy ildizlari zaminimizda yaratilgan qadimgi tosh bitiklar, rivoyatlar, afsonalar, hikoya va dostonlar, xalq og‘izaki ijodi, shuningdek buyuk qomusiy allomalar ilmiy merosida o‘z aksini topgan bo‘lib, ularning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *ma’naviy meros, yosh avlod, buyuk allomalar, “Avesto”, Muso al-Xorazmiy, Forobiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburb, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” dostonlari, ta’lim-tarbiya.*

Bugungi kunda jamiyat ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida, shu jumladan, ma’naviy hayotimizda ham chuqur o‘zgarishlar, islohotlar davom etmoqda. Mazkur yangilanishlar jarayonida milliy o‘zlik va o‘ziga xoslikni yaxlit tarzda anglab yetgan, erkin demokratik tafakkurga ega bo‘lgan jamiyat a’zolarini tarbiyalash vazifalarini hal etishda ajdodlar ma’naviy merosi rolining ortib borishi tabiiy.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “... buyuk zotlarning qoldirgan bebaho merosini chuqur o‘rganish, ularning qadamjolarini obod qilish va xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha birgalikda qilgan ishlarimiz ham barchamizga mamnuniyat yetkazadi” [1: 45-bet]. Ta’kidlash joizki, ta’lim-tarbiya jarayonida ajdodlarimiz yaratgan bebaho ma’naviy merosdan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

“...har qanday sivilizatsiya ko‘pdan ko‘p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining samarali ta’sirining mahsulidir. Bir so‘z bilan aytganda, ko‘chmanchilar, bosqinchilar kelib-ketaveradi, lekin xalq boqiy qoladi, uning madaniyati abadiy yashaydi” - deganida tarixan shu zaminda yashagan

xalq tarixi bugungi avlod boyligi, unga ajdodlaridan qolgan buyuk meros ekanligini ta’kidlagan edi Birinchi Prezidentmiz Islom Karimov [3: 13-bet].

Darhaqiqat, xalqimiz ma’naviyatining tarixiy ildizlari zaminimizda yaratilgan qadimgi tosh bitiklar, rivoyatlar, afsonalar, hikoya va dostonlarga, xalq og‘izaki ijodiga borib taqaladi. Spitamen, Alpomish, Go‘ro‘g‘li, Tomaris va Shiroq to‘g‘risidagi rivoyat va dostonlarda vatanparvarlik, mardlik, do‘stlik, sadoqat, vafo, xalq va yurt ozodligi ulug‘langan[4: 139-bet].

“Alpomish” dostoni millatimizning o‘zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan qaxramonlik qo‘shig‘idir. Sir emas, Sho‘rolar davrida asrlar mobaynida tildan-tilga ko‘chib, avlodlar doimiyligi va vorisiyligini saqlashda oltin xalqa bo‘lgan afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, topishmoqlar va latifalar zo‘ravonlik bilan yo‘q qilindi[3: 42-bet]. Shu jumladan, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Xasanxon”, “Nurali”, “Sherali” kabi dostonlar, milliy qo‘shiq va laparlar g‘oyaviy nuqtai nazardan zararli deb topildi. Umuman, barcha milliy-madaniy yodgorliklar singari o‘zbek xalq og‘zaki ijodining yuksak namunalariga ham kommunistik mafkura nuqtai nazaridan qaraldi va ana shu o‘lchov bilan baho berildi, deydi kuyinib professor M.Murodov.

O‘zbek xalq ijodiyotining odamlarni insof va diyonatga, imon va e’tiqodga, mehnatsevarlik va yurtparvarlikka, odob-axloq va madaniyatga chorlovchi asosiy g‘oyalaridan foydalanish o‘rniga ular o‘tmishni ideallashtiradi, pirlar, aziz-avliyolar, podshohlar, muqaddas qadamjolar, maqbaralaru madrasalarni ulug‘laydi, shu tariqa odamlar onigini eskilik sarqitlari bilan zaharlab, ular e’tiborini sovet tuzumidan chetga tortadi, deb qoralandi. Xalq ijodiyotining ko‘plab asarlari, masalan, mashhur xalq kuychisi O‘tar shoir Safarov aytgan “Oyparcha” dostoni qayta ishlanib, xohlagancha qisqartirilib, qaychilanib zamonaviylashtirilganidan, undagi asl g‘oyalar tushirilib qoldirilganidan keyingina nashr etildi. O‘tar shoir Safarov o‘g‘li Qorabaxshiga kitobni o‘qitib o‘ksigan, bu men aytgan doston emas, deb yig‘lagan ekan[3: 43-bet].

Ota bobolarimizning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribasi, diniy axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan yodgorliklar orasida bundan qariyib uch ming yil muqaddam Xorazm voxasi xududida yaratilgan, “Avesto” deb atalgan bebaho ma’naviy merosimiz ham alohida o‘rin tutadi. Bu asar ajdodlarimizning komillik sari bosib o‘tgan ma’naviy yuksalish bosqichi sifatida biz uchun nixoyatda qimmatlidir. “Avesto”dagi axloqiy qarashlar asrlar osha hamon ijtimoiy-ma’naviy hayotimizda o‘z ahamiyatini yo‘qotmasdan kelmoqda.

“Avesto”ning asosiy mazmun mohiyatini belgilab beradigan “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” degan tamoyilini oladigan bo‘lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli saboqlar borligini ko‘rish mumkin. Ana shunday fikrlar, ya’ni ezgu niyat, so‘z va ish birligining jamiyat hayotining ustuvor g‘oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma’naviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog‘liq, nechog‘lik mustahkam hayotiy asosga ega ekanligi ayniqsa, diqqatga sazovordir.

Milliy tariximizning shonli sahifalariga nazar tashlar ekanmiz, buyuk bobolarimiz - Muso al-Xorazmiy, Forobiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarimizning jahon sivilizatsiyasiga naqadar tengsiz hissa qo‘shganlarini bilib olamiz[2: 9-bet]. Shu ma’noda, tarix biz uchun cheksiz g‘urur-iftixor manbaidir. Mazkur zotlarning boy merosi ma’naviyatimizning ulkan zaminlari hisoblanadi.

Buyuk muhaddis allomamiz al-Buxoriyning fikricha, qalbi pok, imonli, atrofdagilarga qo‘li bilan ham tili bilan ham zarari tegmaydigan, odamlarga faqat yaxshilik qiladigan va yordam beradigan insonlargina axloqan barkamoldirlar. Alloma jamiyat taraqqiyotini halol mehnat qilishda deb biladi. Uning “Sulosiyotul Buxoriy” (Al-Buxoriyning uchliklari) asrida “Agarda qavm (jamoa) mehnat qilmas ekan, u tanazzulga mahkumdir!”, -degan fikr bayon qilingan[5: 60-bet].

Al Buxoriy asarlari nafaqat diniy bilimlarni, balki odob-axloqli, yuksak insoniy fazilatlarni ham targ‘ib qiladi. Jumladan, “Al-Jomi’ as-Sahih” asarida ilmning fazilati, odob axloq-kiyinish, taom yeyish, odamlar bilan muomala qilish masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, asarda insonni axloqan pok bo‘lishiga undovchi insoniy fazilatlardan mehr-oqibat, sahiylik, ochiq ko‘ngillilik, ota-

onaga e’tibor, kattalarga hurmat, kichiklarga va qarindoshlarga g‘amxo‘rlik, faqiru bechoralarga muruvvat, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug‘lash, halollik, poklik, o‘zaro do‘stlik, tinch-totuv yashash kabi xislatlar yuqori baholanadi.

Madaniy-ma’naviy merosimizda Amir Temurning “Temur tuzuklari” katta ahamiyatga ega. “Temur tuzuklari” da ijtimoiy-siyosiy masalalar bilan birga ma’naviyat masalasiga ham katta ahamiyat berilgan. “Tuzuklar” deb turkiy so‘z bilan atalgan qonun-qoidalar Amir Temur tuzgan xalqparvar davlatning ming yillik tariximizda misli ko‘rilmagan yangi tipdagi adolatparvar davlat bo‘lganidan dalolat beradi. Shu o‘rineda Prezidentimizning: “... Shaxsan men Sohibqiron bobomiz bizga meros qilib qoldirgan “Tuzuklarni o‘qisam, huddiki o‘zimga qandaydir katta ruhiy kuch-quvvat topgandek bo‘laman” - degan teran fikrlarini aytib o‘tish joiz[6: 13- bet].

Amir Temurning tarixiy xizmati, uning insoniyat taraqqiyotida tutgan o‘rni, jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga ta’siri faqat shular bilan kifoyalanmaydi. Uning aytish mumkinki, boshqaruvdagi taktika va srategiyasi, milliy xavfsizlik va mudofaa, adolatli fuqarolik jamiyatini takomillashtirish borasidagi tajribalari olamshumul ahamiyat kasb etgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Amir Temur nomi va uning davri bizning tariximizdan butunlay o‘chirib tashlangan bir paytda Temur harbiy maktabi tajribalari, taktika va strategiyasi eng ilg‘or va rivojlangan davlatlar qurolli kuchlari tizimlarida muhim qo‘llanma sifatida o‘rganilib kelindi[7: 403-bet].

Xulosa qilib aytganda, bugun biz jahon taraqqiyotidagi o‘z o‘rnimizni, o‘z yo‘limizni izlamoqdamiz. Darhaqiqat, ajdodlar merosini avlodlarga yetkazmoq qancha sharafli bo‘lsa, shuncha mas’uliyatli hamdir.

Biz milliy tariximizni o‘rganishni, ayni paytda, umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilishini o‘z oldimizga katta vazifa sifatida qo‘yganmiz. Bular, shubhasiz, milliy mustaqilligimizning g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy asoslarini mustahkamlashda, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Agarki mendan, hozirgi kunda ma’naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimalarni qarshi qo‘yish kerak, deb so‘rasa, men avvalambor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o‘zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug‘ ajdodlarimiz merosini chuqurroq o‘zlashtirishi, bugungi tez o‘zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o‘zgarishlarga dahldorlik tuyg‘usi bilan yashashi zarur, deb javob bergan bo‘lardim” - deb uqtirgan edi muhtaram Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘anievich Karimov [1: 17-bet].

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., «O‘zbekiston», 2017.

2. Karimov I. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008.

3. Karimov I.A. Tarixiy xotira va inson omili-buyuk kelajagimizning garovidir. - T.: O‘qituvchi, 2012.

4. Jo‘rayev N. Tarix falsafasi.-T.: Ma’naviyat. 1999.

5. Murabbiy-qadriyatlar targ‘ibotchisi.-J.:Sangzor, 2012.

6. Nosirov K.J. IX-X asrlarda O‘rta Osiyo mutafakkirlarining ahloqiy tarbiya haqidagi g‘oyalari (Al-Buxoriy va al-Farobiy) asarlari misolida. T., 2009.

7. Imom Buxoriy saboqlari jurnali. 2014.№ 2-son. “Temur tuzuklari”-milliy davlatchiligimiz tarixning namunasi sifatida.

8. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo‘rayev N. Vatan tuyg‘usi. T: O‘zbekiston, 1996.

ABU NASR FOROBIY TABIIY, ILMIY VA IJTIMOIY BILIMLARNING ORNI HAQIDA

O‘ralova Odina Ravshanovna
JDPU Pedagogika ta’limi nazariyasi kafedrasi
katta o‘qituvchisi, JizzaxDPU

Annotatsiya:
Ushbu maqolada Abu Nasr Forobiyning ijodi va uning ta’lim tarbiya borasida fikrlari hamda asarlari to‘g‘risida atroflicha ma’lumot berilgan.
Kalit so‘zlar: *Forobiy, ta’lim, tarbiya, baxt, saodat, fozil, aql, zakovat.*
Аннотация:
В этой статье представлена подробная информация о работе Абу Насра аль-Фараби, его мыслях и работах в области образования.
Ключевой слова: *Фараби, образование, воспитание, счастливо, умение.*
Annotation:
This article provides detailed information about the work of Abu Nasr al-Farabi and his thoughts and works on education
Keywords: *Farobiy, education, upbringing, happiness, bliss, virtue, intellect, intelligence*

Forobiy ta’lim tarbiyaga bag‘ishlangan asarlarida ta’lim–tarbiyaning muhumligi, unda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim–tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. “Fozil odamlar shahri”, “Baxt saodatga erishuv to‘g‘risida”, “Ixso–al–ulum”, “Ilmlarning kelib chiqishi”, “Aql ma’nolari to‘g‘risida” kabi asrlarida ijtimoiy–tarbiyaviy qarashlari o‘z ifodasini topgan.

Forobiy o‘z ishlarida ta’lim–tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta’lim bergan bo‘lsa ham, ammo har birining insonni kamolga yetkazishda o‘z o‘rni va xususiyati bor ekanligini alohida ta’kidlaydi. Forobiy 873 yilda Sirdaryoning Forob degan joyida tug‘iladi. U boshlang‘ich ma’lumotni o‘z yurtida oladi. 5 yoshdan u yozish va o‘qishni bilar edi. U yoshligidanoq o‘rta asr fanlarini chuqur o‘rganadi. U ilmiy malakasini takomillashtirish maqsadida 10 yoshidan Shosh, Samarqand va Buxoroga kelib ta’lim oladi.

Lekin bu joylar uning ilmga bo‘lgan chanqoqligini qoniqtirmaydi. U Eronning Ray, Hamadon shaharlarida bo‘ladi. U umrining 40 yildan ortig‘ini Bag‘dodda o‘tkazadi. U bir vaqtning o‘zida arab, fors, yunon tillarini o‘rganadi. Forobiy aniq fanlar: ilmi nujum, riyoziyot, musiqa, tabobat fanlariga qiziqadi. Lekin u ko‘proq falsafa ilmi bilan shug‘ullanadi. Tarixiy manbalarga ko‘ra u Buxoroda bo‘lgan kezlarida Buxoro amiri Mansur ibn Nux Somoniyning iltimosiga ko‘ra falsafiy asar «At-tahlimiy» asarini yozadi [1;102];.

O‘rta asr ijtimoiy Forobiy ham ilm olish istagida Bag‘dodga jo‘naydi. Bag‘dodda Forobiy o‘rta asr fanini, turli fan sohalarini o‘rganadi. Masalan, unga Yunon tilida Abu Bashar Matta (Matta ibn Yunus), tibbiyot va mantiqdan Uxanna ibn Haylon (Jilon) ta’lim bergan. Umuman, Forobiy Bag‘dodda matematika, mantiq, tibbiyot, ilmi nujum, musiqa, tabiiyot, huquq, tilshunoslik, poetika bilan shug‘ullandi, turli tillarni o‘rgandi. Ba’zi manbalarda Forobiy 70 dan oshiq tilni bilganligi haqida gapiriladi. Abu Nasr Forobiy qomusiy olim hisoblanadi. Tadqiqotchilar uning 160 dan ortiq ilmiy asarlar yaratganligini qayd etadilar.

Forobiy taxminan 941 yillardan boshlab Damashqda yashaydi. Shahar chekkasidagi bog‘da qorovul bo‘lib ishlaydi va faqirona hayot kechirib, ilmiy ish bilan shug‘ullanadi. 943-967 yillarda esa Halabda yashaydi. 949-950 yillarida Misrda ham bo‘lgan. So‘ng yana Damashqga qaytib, shu yerda 950 yilda vafot etgan. Damashqdagi “Bob as–sag‘ir” qabristoniga dafn qilingan. Rivoyatlarga ko‘ra Abu Nasrning hikmat falsafani o‘qishiga bir kishi sabab bo‘lgan ekan. O‘sha kishi unga Arastuning bir necha kitobini, shu yerda tura tursin, keyin olib ketaman deb qo‘yib ketgani sabab bo‘lgan, deyishadi. Ittifoqo, kitoblarga ko‘zi tushib, ularning Abu Nasrning ko‘ngliga ma’qul bo‘lib qoladi va o‘qishga kirishadi natijada yetuk faylusufga aylanadi. Haqiqatdan ham Abu Nasr Forobiy o‘rta asr davri ilm–fani taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan olim, Forobiy tabiiy, ilmiy va ijtimoiy bilimlarning barcha sohalarida ilmiy ish olib borgan. Forobiy o‘zidan keyin juda boy ilmiy meros

qoldirgan. Falsafa, musiqa, filologiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilimlarning turli sohalarida asarlar yaratgan. Demak, Forobiy inson baxt–saodatga erishuvi uchun ularni baxtli–saodatli qila oladigan jamoa rahbari bo‘lishi kerak deydi. U fozil shaharni boshqaradigan Hokim tabiatdan: 1 – sog‘–salomat bo‘lib, o‘z vazifasini bajarishda hech qanday qiyinchilik sezmasligi; 2 – tabiati nozik, farosatli; 3 – xotirasi mustahkam, 4 – zehni o‘tkir, 5 – o‘z fikrini tushuntira oladigan notiq, 6 – bilim-ma’rifatga havasli, 7 – taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o‘zini tiya oladigan bo‘lishi (qimor yoki boshqa o‘yinlardan) zavq, huzur olishdan uzoq bo‘lishi, 8 - haq va haqiqatni, odil va haqgo‘y odamlarni sevadigan, yolg‘onni va yolg‘onchilarni yomon ko‘radigan, 9 – o‘z qadrini biluvchi va oriyatli bo‘lishi, 10 – mol dunyo ketidan quvmaydigan, 11 – adolatparvar, 12 – qatiyatli, sabotli, jur’atli, jasur bo‘lishi muhimligini qayd etadi. Forobiy bu fazilatlarni har bir yetuk insonda ko‘rishni istaydi.

Forobiy o‘zining fozil jamoasida odamlarni turli belgilarga qarab guruhlarga bo‘ladi. Bunda u, kishilarning diniy mashabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy hususiyatlariga, qobiliyatlariga, aqliy iqtidoriga, bilim ko‘nikmalariga e’tibor berishlik zarur deydi. U o‘zning “Baxt saodatga erishuv yo‘llar haqida risola” asarida “Davlatning vazifasi insonlarni baxt – saodatga olib borishdir, - deb yozadi. U, - bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo‘lga kiritadi”. Forobiy davlatni yetuk shaxs boshqarishi lozim daydi; ya’ni jamoani idora etuvchi adolatli, dono bo‘lishi, qonunlarga rioya etishi va qonunlar yarata olishi, kelgusini oldindan ko‘ra bilishi, boshqalarga g‘amxo‘r bo‘lishi lozim deydi [2;132];. Forobiy “Baxt–saodatga erishuv to‘g‘risida” asarida bilimlarni o‘rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta’kidlashicha, avval bilish zarur bo‘lgan ilm o‘rganiladi, bu–olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o‘rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o‘rganish lozim. Undan so‘ng, umuman, jonli tabiat o‘simlik va hayvonlar haqidagi ilm o‘rganiladi, deydi. Forobiy inson kamolotga yolg‘iz o‘zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo‘lish, ularning ko‘maklashuvchi yoki munosabatlariga muxtoj bo‘ladi. Uning fikricha tarbi jarayoni tajribali pedagog, o‘qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhumdir. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa hodisalarni o‘zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o‘qituvchi lozim.

Bunga Forobiy ta’lim – tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta’lim–tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan komolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to‘g‘ri bilib oladi va hayotda to‘g‘ri yo‘l tutadi, boshqalar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi, jamiyat tartib qoidalariga rioya etadi. Demak, Forobiy ta’lim–tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Forobiy ta’lim va tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan olim sanaladi. Ta’lim–degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya–nazariy fazilatni, ma’lum xunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir, deydi olim.

Abu Nasr Forobiy yana aytadi: “Ta’lim–degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir”.

Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish - harakat, kasb - hunarga berilgan bo‘lishi, o‘rganishidir.

Forobiy nazariy bilimlarni egallashga kirishgan har bir kishi xulq–odobda ham qay darajada pok bo‘lishi kerakligini “Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to‘g‘risida”gi risolasida shunday ta’riflaydi: “Falsafani o‘rganihdan avval o‘zingizni hirs-havaslardan shunday tozalashingiz lozimki, sizda maishiy va shahvoniyat kabi notug‘ri tuyg‘ularga emas, balki kamolotga bo‘lgan hirs-havas qolsin.

Bunga xulq axloqni faqat so‘zdagina emas, balki haqiqatda (amalda) tozalash orqali erishish mumkin. Shunday so‘ng xato va adashishdan saqlovchi, haqiqat yo‘lini tushunib olishga boshlovchi (notiq – so‘zlovchi, fikrlash ma’nosida) nafsini, jonini, ruhini tozalash zarur.

Forobiy axloqiy fazilatlar deganda bilimdonlik, donolik va mulohazali bo‘lish, vijdonlilik, kamtarlik, ko‘pchilik manfaatini yuqori qo‘yish, haqiqat, ma’naviy yuksaklikka intil, adolatliylik kabi hislatlarni tushunadi. Ammo bu hislatlarning eng muhumi har bir insonning bilimli, ma’rifatli bo‘lishidir. Shuning uchun ham Forobiy axloq tushunchasiga aql bilan uzviy bog‘liq holda, tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi. Bundan biz Forobiyning axloqni xulq me’yorlari ifodasi sifatidagini emas, balki kishilarning aqliy faoliyatining natijasi sifatida ham talqin etganligini ko‘ramiz. Forobiy “Aql ma’nolari haqida” risolasida aql masalasini tahlil qilib, aql bilish haqidagi ta’limotida mantiq (logika) ilmi muhim o‘rin tutadi deydi. U mantiq ilmi bilan grammatika o‘rtasidagi mushtarakligini qayd etib, mantiqning aqlga munosabati, grammatikaning tilga munosabati kabidir. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani kabi, mantiq ilmi ham tafakkurni haqiqiy yo‘lda olib borish uchun aqlni to‘g‘irlab turadi deydi.

Forobiy “Musiqa haqida katta kitob” degan ko‘p jildi asari bilan o‘rta asrning yirik muzikashunosi sifatida ham mashxur bo‘ldi. U musiqaga ilmini nazariy, amaliy jihatdan yoritib, musiqani inson axloqini tarbiyalovchi sihat salomatligni mustahkamlovchi vosita deb qaragan. Uning musiqa sohasida qoldirgan merosi musiqa madaniyati tarixida muhim ahamiyatga molikdir.

Forobiyning ta’lim-tarbiya yo‘llari, usullari vositalri haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go‘zal fazilatlar ikki yo‘l–ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta’lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug‘ma fazilat–nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq odob fazilatlarini birlashtiradi. Ta’lim so‘z va o‘rganish bilan tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi [3;112];. Har ikkalasi birlashsa yetuklik namoyon bo‘ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko‘nikmalarni qay darajada o‘rganganligiga qarab paydo bo‘ladi, deb ko‘rsatadi.

Forobiy ta’limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilsa, tarbiyada ma’naviy–axloqiy qoidalar, odob me’yorlari o‘rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi.

Bu muhim vazifa tajribali tarbiyachilar tomonidan ta’lim-tarbiyaning turli metodlari yordamida amalga oshiriladi. Forobiy ta’lim–tarbiya ishlarini ikki yo‘l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

“Amaliy fazilatlar va amaliy san’at (kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish masalasi” ga kelganda, bu odat ikki yo‘l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi–qanoatbaxsh so‘zlar, chorlovchi, ilxomlantiruvchi so‘zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g‘ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi yo‘l (yoki usul) – majbur etish yo‘li. Bu usul gapga ko‘nmovchi, qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan qo‘llaniladi. Chunki ular o‘z istaklaricha so‘z bilan g‘ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o‘rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo‘ladi. Kasb-hunarlarni va juz’iy san’atlarni egallashga intilish bo‘lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad–ularni fazilat egasi qilib va san’at ahllariga aylantirishdir

Demak, Forobiy ta’lim–tarbiyada rag‘batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham pirovardida insonni har tomonlama kamolga yetkazish maqsadini ko‘zlaydi.

Xulosa qilib aytganda Forobiy pedagogik ta’limotining asosida komil insonni shakllantirish, insonni o‘z mohiyati bilan ijtimoiy, ya’ni faqat jamiyatda, o‘zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan falsafiy qarashi yotadi.

Insonning kamolga yetishida ham aqli, ham ahloqiy tarbiyaning o‘zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Forobiy tavsiya etgan ta’lim–tarbiya usullari hozirgi ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi bilan diqqatga sazavor bo‘lgan

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.A.Forobiy. Fozil odamlar shahri. T: “Yangi asr avlodi”. 2016 y.

2.M.Xayrulleyrev.Ma’naviyat yulduzlari.-A.Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti. 2001y.

3.O.Hasanboyeva. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. -T: “O‘qituvchi”. 1993y.

4.Uralova.O.R.Abu Nasr Forobiy-inson ma’naviyatining yetuk tarbiyachisi. Jaxolatga karshi ma’rifat bilan kurashgan buyuk alloma (Abul Muyin Nasafiy) Ilmiy amaliy xalkaro anjuman.Toshkent 2019-yil dekabr.

5.O‘rolova Odina . Abu Nasr Farobiyning ma’naviy axloqiy ta’limotining pedagogic ahamiyati (Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2019/6-son 44-bet)

ABU NASR FOROBIYNING INSON BAXT- SAODATGA ERISHUVI HAQIDA

O‘ralova Odina Ravshanovna
JDPU Pdagogika ta’limi nazariyasi
kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-pochta: oralovaodina@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Abu Nasr Farobiyning ijodi va uning ta’lim tarbiya borasida fikrlari hamda asarlari to‘g‘risida atroflicha ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: *Farobiy, ta’lim, tarbiya, baxt, saodat, fozil, aql, zakovat.*

Аннотация:

В этой статье представлена подробная информация о работе Абу Насра аль-Фараби, его мыслях и работах в области образования.

Ключевой слова: *Фараби, образование, воспитание, счастливо, умение.*

Annotation:

This article provides detailed information about the work of Abu Nasr al-Farabi and his thoughts and works on education

Keywords: *Farobiy, education, upbringing, happiness, bliss, virtue, intellect, intelligence*

Forobiy o‘z ishlarida ta’lim–tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta’lim bergan bo‘lsa ham, ammo har birining insonni kamolga yetkazishda o‘z o‘rni va xususiyati bor ekanligini alohida ta’kidlaydi. Forobiy 873 yilda Sirdaryoning Forob degan joyida tug‘iladi. U boshlang‘ich ma’lumotni o‘z yurtida oladi. 5 yoshdan u yozish va o‘qishni bilar edi. U yoshligidanoq o‘rta asr fanlarini chuqur o‘rganadi. U ilmiy malakasini takomillashtirish maqsadida 10 yoshidan Shosh, Samarqand va Buxoroga kelib ta’lim oladi.

Forobiy ta’lim tarbiyaga bag‘ishlangan asarlarida ta’lim–tarbiyaning muhumligi, unda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim–tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. “Fozil odamlar shahri”, “Baxt saodatga erishuv to‘g‘risida”, “Ixso–al–ulum”, “Ilmlarning kelib chiqishi”, “Aql ma’nolari to‘g‘risida” kabi asrlarida ijtimoiy–tarbiyaviy qarashlari o‘z ifodasini topgan.

Lekin bu joylar uning ilmga bo‘lgan chanqoqligini qoniqtirmaydi. U Eronning Ray, Hamadon shaharlarida bo‘ladi. U umrining 40 yildan ortig‘ini Bag‘dodda o‘tkazadi. U bir vaqtning o‘zida arab, fors, yunon tillarini o‘rganadi. Forobiy aniq fanlar: ilmi nujum, riyoziyot, musiqa, tabobat fanlariga qiziqadi. Lekin u ko‘proq falsafa ilmi bilan shug‘ullanadi. Tarixiy manbalarga ko‘ra u Buxoroda bo‘lgan kezlarida Buxoro amiri Mansur ibn Nux Somoniyning iltimosiga ko‘ra falsafiy asar «At-tahlimiy» asarini yozadi[40].

O‘rta asr ijtimoiy Forobiy ham ilm olish istagida Bag‘dodga jo‘naydi. Bag‘dodda Forobiy o‘rta asr fanini, turli fan sohalarini o‘rganadi. Masalan, unga Yunon tilida Abu Bashar Matta (Matta

[40] A.Forobiy. Fozil odamlar shahri. T:-Yangi asr avlodi. 2016 y

ibn Yunus), tibbiyot va mantiqdan Uxanna ibn Haylon (Jilon) ta’lim bergan. Umuman, Forobiy Bag‘dodda matematika, mantiq, tibbiyot, ilmi nujum, musiqa, tabiiyot, huquq, tilshunoslik, poetika bilan shug‘ullandi, turli tillarni o‘rgandi. Ba’zi manbalarda Forobiy 70 dan oshiq tilni bilganligi haqida gapiriladi. Abu Nasr Forobiy qomusiy olim hisoblanadi. Tadqiqotchilar uning 160 dan ortiq ilmiy asarlar yaratganligini qayd etadilar.

Forobiy taxminan 941 yillardan boshlab Damashqda yashaydi. Shahar chekkasidagi bog‘da qorovul bo‘lib ishlaydi va faqirona hayot kechirib, ilmiy ish bilan shug‘ullanadi. 943-967 yillarda esa Halabda yashaydi. 949-950 yillarida Misrda ham bo‘lgan. So‘ng yana Damashqga qaytib, shu yerda 950 yilda vafot etgan. Damashqdagi “Bob as–sag‘ir” qabristoniga dafn qilingan. Rivoyatlarga ko‘ra Abu Nasrning hikmat falsafani o‘qishiga bir kishi sabab bo‘lgan ekan. O‘sha kishi unga Arastuning bir necha kitobini, shu yerda tura tursin, keyin olib ketaman deb qo‘yib ketgani sabab bo‘lgan, deyishadi. Ittifoqo, kitoblarga ko‘zi tushib, ularning Abu Nasrning ko‘ngliga ma’qul bo‘lib qoladi va o‘qishga kirishadi natijada yetuk faylusufga aylanadi. Haqiqatdan ham Abu Nasr Forobiy o‘rta asr davri ilm–fani taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan olim, Forobiy tabiiy, ilmiy va ijtimoiy bilimlarning barcha sohalarida ilmiy ish olib borgan. Forobiy o‘zidan keyin juda boy ilmiy meros qoldirgan. Falsafa, musiqa, filologiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilimlarning turli sohalarida asarlar yaratgan. Demak, Forobiy inson baxt–saodatga erishuvi uchun ularni baxtli–saodatli qila oladigan jamoa rahbari bo‘lishi kerak deydi. U fozil shaharni boshqaradigan Hokim tabiatdan: 1 – sog‘–salomat bo‘lib, o‘z vazifasini bajarishda hech qanday qiyinchilik sezmasligi; 2 – tabiati nozik, farosatli; 3 – xotirasi mustahkam, 4 – zehni o‘tkir, 5 – o‘z fikrini tushuntira oladigan notiq, 6 – bilim-ma’rifatga havasli, 7 – taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o‘zini tiya oladigan bo‘lishi (qimor yoki boshqa o‘yinlardan) zavq, huzur olishdan uzoq bo‘lishi, 8 - haq va haqiqatni, odil va haqgo‘y odamlarni sevadigan, yolg‘onni va yolg‘onchilarni yomon ko‘radigan, 9 – o‘z qadrini biluvchi va oriyatli bo‘lishi, 10 – mol dunyo ketidan quvmaydigan, 11 – adolatparvar, 12 – qatiyatli, sabotli, jur’atli, jasur bo‘lishi muhimligini qayd etadi. Forobiy bu fazilatlarni har bir yetuk insonda ko‘rishni istaydi.

Forobiy o‘zining fozil jamoasida odamlarni turli belgilarga qarab guruhlarga bo‘ladi. Bunda u, kishilarning diniy mashabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy hususiyatlariga, qobiliyatlariga, aqliy iqtidoriga, bilim ko‘nikmalariga e’tibor berishlik zarur deydi. U o‘zning “Baxt saodatga erishuv yo‘llar haqida risola” asarida “Davlatning vazifasi insonlarni baxt – saodatga olib borishdir, - deb yozadi. U, - bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo‘lga kiritadi”. Forobiy davlatni yetuk shaxs boshqarishi lozim daydi; ya’ni jamoani idora etuvchi adolatli, dono bo‘lishi, qonunlarga rioya etishi va qonunlar yarata olishi, kelgusini oldindan ko‘ra bilishi, boshqalarga g‘amxo‘r bo‘lishi lozim deydi[41]. Forobiy “Baxt–saodatga erishuv to‘g‘risida” asarida bilimlarni o‘rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta’kidlashicha, avval bilish zarur bo‘lgan ilm o‘rganiladi, bu–olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o‘rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o‘rganish lozim. Undan so‘ng, umuman, jonli tabiat o‘simlik va hayvonlar haqidagi ilm o‘rganiladi, deydi. Forobiy inson kamolotga yolg‘iz o‘zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo‘lish, ularning ko‘maklashuvchi yoki munosabatlariga muxtoj bo‘ladi. Uning fikricha tarbi jarayoni tajribali pedagog, o‘qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhumdir. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa hodisalarni o‘zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o‘qituvchi lozim.

Bunga Forobiy ta’lim – tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta’lim–tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan komolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to‘g‘ri bilib oladi va hayotda to‘g‘ri yo‘l tutadi, boshqalar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi, jamiyat tartib qoidalariga rioya etadi. Demak, Forobiy ta’lim–tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

[41] M.Xayrulleyrev.Ma’naviyat yulduzlari.-A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. 2001.

Forobiy ta’lim va tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan olim sanaladi. Ta’lim–degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya–nazariy fazilatni, ma’lum xunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir, deydi olim.

Abu Nasr Forobiy yana aytadi: “Ta’lim–degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir”.

Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish - harakat, kasb - hunarga berilgan bo‘lishi, o‘rganishidir.

Forobiy nazariy bilimlarni egallashga kirishgan har bir kishi xulq–odobda ham qay darajada pok bo‘lishi kerakligini “Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to‘g‘risida”gi risolasida shunday ta’riflaydi: “Falsafani o‘rganihdan avval o‘zingizni hirs-havaslardan shunday tozalashingiz lozimki, sizda maishiy va shahvoniyat kabi notug‘ri tuyg‘ularga emas, balki kamolotga bo‘lgan hirs-havas qolsin.

Bunga xulq axloqni faqat so‘zdagina emas, balki haqiqatda (amalda) tozalash orqali erishish mumkin. Shunday so‘ng xato va adashishdan saqlovchi, haqiqat yo‘lini tushunib olishga boshlovchi (notiq – so‘zlovchi, fikrlash ma’nosida) nafsini, jonini, ruhini tozalash zarur.

Forobiy axloqiy fazilatlar deganda bilimdonlik, donolik va mulohazali bo‘lish, vijdonlilik, kamtarlik, ko‘pchilik manfaatini yuqori qo‘yish, haqiqat, ma’naviy yuksaklikka intil, adolatliylik kabi hislatlarni tushunadi. Ammo bu hislatlarning eng muhumi har bir insonning bilimli, ma’rifatli bo‘lishidir. Shuning uchun ham Forobiy axloq tushunchasiga aql bilan uzviy bog‘liq holda, tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi. Bundan biz Forobiyning axloqni xulq me’yorlari ifodasi sifatidagini emas, balki kishilarning aqliy faoliyatining natijasi sifatida ham talqin etganligini ko‘ramiz. Forobiy “Aql ma’nolari haqida” risolasida aql masalasini tahlil qilib, aql bilish haqidagi ta’limotida mantiq (logika) ilmi muhim o‘rin tutadi deydi. U mantiq ilmi bilan grammatika o‘rtasidagi mushtarakligini qayd etib, mantiqning aqlga munosabati, grammatikaning tilga munosabati kabidir. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani kabi, mantiq ilmi ham tafakkurni haqiqiy yo‘lda olib borish uchun aqlni to‘g‘irlab turadi deydi.

Forobiy “Musiqa haqida katta kitob” degan ko‘p jildi asari bilan o‘rta asrning yirik muzikashunosi sifatida ham mashxur bo‘ldi. U musiqaga ilmini nazariy, amaliy jihatdan yoritib, musiqani inson axloqini tarbiyalovchi sihat salomatligni mustahkamlovchi vosita deb qaragan. Uning musiqa sohasida qoldirgan merosi musiqa madaniyati tarixida muhim ahamiyatga molikdir.

Forobiyning ta’lim-tarbiya yo‘llari, usullari vositalri haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go‘zal fazilatlar ikki yo‘l–ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta’lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug‘ma fazilat–nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq odob fazilatlarini birlashtiradi. Ta’lim so‘z va o‘rganish bilan tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi[42]. Har ikkalasi birlashsa yetuklik namoyon bo‘ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko‘nikmalarni qay darajada o‘rganganligiga qarab paydo bo‘ladi, deb ko‘rsatadi.

Forobiy ta’limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilsa, tarbiyada ma’naviy–axloqiy qoidalar, odob me’yorlari o‘rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi.

Bu muhim vazifa tajribali tarbiyachilar tomonidan ta’lim-tarbiyaning turli metodlari yordamida amalga oshiriladi. Forobiy ta’lim–tarbiya ishlarini ikki yo‘l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

“Amaliy fazilatlar va amaliy san’at (kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish masalasi” ga kelganda, bu odat ikki yo‘l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi–qanoatbaxsh so‘zlar, chorlovchi, ilxomlantiruvchi so‘zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g‘ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi.

[42] O.Hasanboyeva. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. -T: “O‘qituvchi”. 1993y

Ikkinchi yo‘l (yoki usul) – majbur etish yo‘li. Bu usul gapga ko‘nmovchi, qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan qo‘llaniladi. Chunki ular o‘z istaklaricha so‘z bilan g‘ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o‘rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo‘ladi. Kasb-hunarlarni va juz’iy san’atlarni egallashga intilish bo‘lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad–ularni fazilat egasi qilib va san’at ahllariga aylantirishdir

Demak, Forobiy ta’lim–tarbiyada rag‘batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham pirovardida insonni har tomonlama kamolga yetkazish maqsadini ko‘zlaydi.

Xulosa qilib aytganda Forobiy pedagogik ta’limotining asosida komil insonni shakllantirish, insonni o‘z mohiyati bilan ijtimoiy, ya’ni faqat jamiyatda, o‘zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan falsafiy qarashi yotadi.

Insonning kamolga yetishida ham aqli, ham ahloqiy tarbiyaning o‘zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Forobiy tavsiya etgan ta’lim–tarbiya usullari hozirgi ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi bilan diqqatga sazavor bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Forobiy. Fozil odamlar shahri. T: “Yangi asr avlodi”. 2016 y.

2. M.Xayrulleyrev.Ma’naviyat yulduzlari.-A.Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti. 2001y.

3. O.Hasanboyeva. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. -T: “O‘qituvchi”. 1993y.

4. Uralova.O.R.Abu Nasr Forobiy-inson ma’naviyatining yetuk tarbiyachisi. Jaxolatga karshi ma’rifat bilan kurashgan buyuk alloma (Abul Muyin Nasafiy) Ilmiy amaliy xalkaro anjuman.Toshkent 2019-yil dekabr.

5. O‘rolova Odina . Abu Nasr Farobiyning ma’naviy axloqiy ta’limotining pedagogic ahamiyati. Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2019/6-son 44-bet.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YANGI O‘ZBEKISTONNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA’LIM TIZIMINING O‘RNI VA ROLI

Radjapov Kamoladdin Erkayevich
“International School of Finance Technology and Science” instituti
“Iqtisodiyot va kompyuter injinering” kafedrasi dotsenti iqtisod fanlari nomzodi,
Bekberganova Rayxon G‘ayrat qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 2-bosqich magistranti
bekbergenovaraykhon@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishgandan so‘ng bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida amalga oshirilgan institutsional islohotlar va ularning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Maqolada bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillari va mexanizmlarini joriy qilishda xalqaro tajribalardan, jumladan, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanilganligi ta’kidlanadi. Shuningdek, ta’lim tizimi, xususan, oliy ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning inson kapitalini rivojlantirishdagi o‘rni keng yoritilgan. Oliy ta’lim muassasalari va mutaxassis tayyorlash tizimida jahon standartlariga mos keladigan o‘zgarishlar amalga oshirilgani, korrupsiya holatlariga qarshi kurash choralari, shuningdek, “Yangi O‘zbekiston” strategiyasida belgilangan maqsadlar haqida so‘z yuritiladi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish va ta’lim sifatini oshirish orqali mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishi, aholi turmush darajasini yaxshilash va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *bozor iqtisodiyoti, institutsional islohotlar, Yangi O‘zbekiston, ta’lim tizimi, inson kapitali, oliy ta’lim, kadrlar tayyorlash, barqaror iqtisodiy o‘sish, innovatsiyalar, globallashuv.*

Аннотация:

В данной статье анализируются институциональные реформы, осуществленные Республикой Узбекистан в процессе перехода к рыночной экономике после обретения независимости, и их влияние на социально-экономическое развитие страны. В статье подчеркивается, что при внедрении основных принципов и механизмов рыночной экономики был использован международный опыт, в том числе опыт таких развитых стран, как США, Япония, Южная Корея. Также широко освещаются проводимые реформы в системе образования, в частности в сфере высшего образования, и их роль в развитии человеческого капитала. Речь идет о внесении изменений в систему подготовки специалистов и высших учебных заведений в соответствии с мировыми стандартами, мерах по борьбе с коррупцией, а также о целях, определенных стратегией “новый Узбекистан”. Были рассмотрены меры, направленные на устойчивый экономический рост страны, повышение уровня жизни населения и подготовку конкурентоспособных кадров на международном рынке труда путем перехода к рыночной экономике и повышения качества образования.

Ключевые слова: *рыночная экономика, институциональные реформы, новый Узбекистан, система образования, человеческий капитал, высшее образование, подготовка кадров, устойчивый экономический рост, инновации, глобализация.*

Annotation:

This article analyzes the institutional reforms implemented by the Republic of Uzbekistan in the process of transition to a market economy after independence, and their impact on the socio-economic development of the country. The article emphasizes that when implementing the basic principles and mechanisms of a market economy, international experience was used, including the experience of such developed countries as the United States, Japan, and South Korea. The ongoing reforms in the education system, in particular in the field of higher education, and their role in the development of human capital are also widely highlighted. We are talking about making changes to the system of training specialists and higher education institutions in accordance with international standards, measures to combat corruption, as well as the goals defined by the New Uzbekistan strategy. The measures aimed at sustainable economic growth of the country, improving the standard of living of the population and training competitive personnel in the international labor market through the transition to a market economy and improving the quality of education were considered.

Key words: *market economy, institutional reforms, new Uzbekistan, education system, human capital, higher education, personnel training, sustainable economic growth, innovation, globalization.*

Mamlakatimiz mustaqillika erishgandan hozirgi davrgacha bozor iqtisodiyotiga institutsional islohotlarni amalga oshirish orqali o‘tilmoqda. Butun jahon xo‘jaligida globallashuv chuqurlashayotgan sharoitda O‘zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o‘tishning O‘zbek modelining ishlab chiqilishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda institutsional islohotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bozor iqtisodiyotining tamoyillari, qonun-qoidalari va mexanizmlarini mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy saholariga tadbiq qilishda, jahon hamjamiyatida rivojlangan va tez rivojlanish yo‘lidan borayotgan AQSH, Kanada, Yaponiya, Xitoy, Singapur, Malayziya, Janubiy Koreya, Yevropa mamlakatlari tarjibalaridan foydalanib, an’ana va qadriyatlarimizni hisobga olib bozor munosabatlariga o‘tish shakllandi va rivojlanmoqda. Shuningdek, davlatning bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida institutsional islohotlarni amalga oshirishda boshchiligi, iqtisodiyotni mustahkamlash va siyosiy munosabatlarni olib borilishi, barcha saho va tarmoqlarni rivojlantirishdagi qonun ustivorligini ta’minlanganligi, mamlakatimiz kuchli ijtimoiy himoyalash

tizimini yaratilishi orqali bozorga bosqichma-bosqich o‘tilmoqda. Mamlakatimiz mustaqillini mustahkamlash, aholining farovon turmush madaniyatli hayot tarzini va kuchli demokratik ijtimoiy davlatchilikdan,kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishdek umummaqsadning amalga oshirilish jarayonlari ilmiy asoslangan, innovatsion fan-texnika yutuqlarini tadbiq etish, Yangi O‘zbekistonni shakllantirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishini ifodalamoqda. Buning uchun mamlakatda oliy va undan keyingi yuqori malakali mutahassislarni tayyorlash ta’lim tizimining tubdan isloh qilinishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada salmoqli institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Ta’lim to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sahosida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 sonli qarori ,“2022-2026-yillarga mO‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.02.2022 yildagi PF-60-sonli Farmonida, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojatnomasida belgilangan vazifalarga muvofiq aholining hayot darajasini yanada yuksaltirish, ta’lim sifatini ilg’or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish hamda kambag’allikni qisqartirish borasidagi islohotlarimizni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturini belgilangan vazifalarni, ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli Farmonida 5ta utuvor yonalish doirasida 100ta maqsadni amalga oshirishda: babqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish; aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish; aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish; xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish; mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash kabi g’oyalarni hamda 100ta maqsadni amalga osirishda ta’lim tizimini isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqishni taqoza etmoqda.

Institutsional islohotlar sharoitida iqtisodiyotning barcha sahova tarmoqlarida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash O‘zbekiston ijtimoiy va dunyoiy davlat maqomini olishiga, shu jumladan maktab ta’limida 175 ming yangi va maktabgacha ta’lim qamrovi qo‘shimcha 5500 o‘ringa, hamda 470 Nodavlat uumta’lim tashkilotlari ochilishi, oliy ta’lim muassasalari 220tadan, o‘rta mahsus ta’lim myassasalari 70taga ko‘payganligi, oliy ta’limdan keying yuqori mutahassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashda “korxona-oliygoh-ilmiy tashkilot” klaster tizimi tashkil qilindi. Ta’limga e’tibor kelajakga, fanga innovasiyon texnologiyalarni joriy etish kadrlar tayyorlash tizimining rivojlantirishga hamda inson kapitalining sifat ko‘rsatkichlari yuqori pog’anaga ko‘tarilishi va jahon hamjamiyatida kadlararo raqobatga kirisha oladigan salohiyatni shakllanishiga xizmat qiladi. Jahon va mamlakat mehnat bozori talablari yagona standartga keltirilishi oliy ta’limga kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish ma’suliyatini oshirmoqda. Shuningdek, oliy ta’lim va oliy ta’limdan keying yuqori mutahassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashda tizimi qabul kvotalarini soni bozor iqtisodiyoti talablariga moslab shakllatirilishi, qabul jarayonini tashkil qilish yagona interaqtiv davlat xizmatlari, my.gov.uz hukumat portal orqali raqamlashtirilgan tizimning joriy etilishi, qabul kvotalaridan tashqari har bir oliygoh imkoniyatlaridan kelib chiqib qo‘shimcha qabulning amalga oshilishida yo‘nalishlarning eng kam ballni olishi va shunga mos tabaqalashgan to‘lov-shatnoma summasi belgilanganligi korrupsiani batamom tizimdan tugatilishiga erishildi. Qabul kvotalari davlat buyurtmasi (granti) parametrlari: bakalavr kunduzgi ta’lim iakliga 34838 nafar, magistratura mutahassislarni tayyorlashga 9365 nafar qilib belgilandi. Prezident farmoyishi bilan tasdiqlangan joriy yilgi votalarning o‘tgan yillarga nisbatan bir qancha farqlarini ajratib ko‘rsatilgan: kvotalar OTMlar kesimida emas, yo‘nalishlar kesimida; kvotalar davlat granti uchun e’lon qilindi; kvotalar faqat kunduzgi ta’lim shakli uchun amal qilishi ajratib ko‘rsatilgan. Oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillikni bosqichma–

bosqich berilishi, oliy ta’lim tizimida institutsional islohotlarning yangi bosqichi davomiyligini, hamda oliy ta’limda xususiy mulkning shakllanishi raqobat muhitini yuzaga chiqardi. Shuningdek tizimdagi institutsional islohotlar izchilligi globallashuv chuqurlashish jarayonlarining yangi bosqichini ifodalamoqda. Kadlar tayyorlash jarayonlarining erkinlashishi, xo‘jalik moliyaviy mustaqilligini va jahon standartlari asosida oliy va oliy ta’limdan keyingi mutahassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash mexanizmlari va yo‘nalishlarini tubdan isloh qilinayotganligini ko‘rsatmoqda. Bu esa o‘z navbatida mamlakatimiz va jahon mehnat bozorida har tamonlama mustahkam bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan kadlarni salmoqini oshirishga xizmat qiladi. Oliy ta’limga rivojlangan mamlakatlarning ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan hemis ta’lim tizimining o‘rganilishi, qisqa davrda Yangi O‘zbekistonni shakllantirish va rivojlantirish davlat dasturlarini ishlab chiqilganligi, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qo‘llanilishi, oliy ta’limning davlat standartlarini, no‘rma va asosiy qoidalarini jahon sandartlariga moslashayotganligini belgilab bermoqa. Oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash jarayonida yangi interfaol usullar va pedagogik yondashuvlarning joriy qilinishi inson kapitalini rivojlantirishga, hamda bakalavriyat yonalishi va magist mutahassislarini ilmiy bilish, idrok etish, tasavvur etish, kreativlik va kasbiy ko‘nikma shakllangan shaxslar tayyorlanayotganligini ifoda etmoqda. Mamlakat mustaqilligining hozirgi davrida uchunchi renesans avlodlarini ta’lim va tarbiy uyg’uligini ta’minlagan holda milliy an’analar va kadriyatlarni e’tiborga olib, institutsional islohotlarni chuqurlashuvi institutsional muhitni yangi pog’onaga olib chiqmoqda. Bunday natijaga erishishda oliy ta’lim tizimida mustahkam bazis va ustqumaning bunyod etilganligini namoyon qilmoqda. Jumladan oliy ta’lim sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi qonun va qonun osti hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi tizimni yangi bosqichga olib chiqdi. Oliy ta’limda davlat, xususiy va davlat sherekchiligi asosida 220ga yaqin oliy ta’lim muassasalarining shakllanishi, sohada yangi yonalish va mutahassislarni tayyorlash imkoniyatini shakllantirdi. 1991 yilda mamlakatda bitta universitet va 25 taga yaqin institut bolib, 150 ta mutahassislik bo‘yicha 120 mingtagacha qabul kvotalari bajarilgan. 1992 yildan oliy ta’lim muassasalari 59 tani 200 ga yaqin mutaxassislikda 200 mingga yaqin talaba tahsil olgan bo‘lib, ularga 2,8 ming fan doktori, 16,1 ming fan namzodi ta’lim bergan, sohada 46 ming kishi band bo‘lgan. 2016 yilga kelib oliy talimda bakalavr va magistrlar tayyorlashning Evropa tizimi joriy etilib, 76 ta oliy ta’lim muassasalarida 850 yo‘nalish va mutaxassislik bo‘yicha 300 mingdan oshiq talaba tahsil olgan. Bundan tashqari, 14 ilmiy-tadqiqot laboratoriya tashkil qilingan, 296 tasi qayta jihozlangan bo‘lib, davlat buyudjetidan 277 milliyard so‘m sarflangan. Shuningdek, turdosh mutaxassislar qo‘shib yuborilgan, ijtimoiy sohada ehtiyoj qolmagan deb hisoblab, bakalavr yo‘nalishlari 228 tadan 165 taga, magistratura mutaxassislari 1200 tadan 500 taga kamaytirilgan. 2023 yilga kelib oliy ta’lm muassasalari 65 ta davlat, 50 ta davlat sherikchilik va qo‘shma dasturlari negizida, 10-15 ta horijiy, 100 taga yaqin NTMlari faoliyat yurgizib, bakalavr yo‘nalishlari soni 139 tadan 195 taga, magistratura mutaxassislari 1145 tadan 1395 tagacha ko‘payib, tahsil olayotgan talabalar 1mln. 300 mingtani tashkil qilib, ilmiy salohiyat 40%ga o‘sganligini namoyon qilmoqda. Mamlakatda oliy ta’lim tizimida amalga oshirilgan institutsional islohotlarning natijasi hisoblanadi. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti talablariga har tamonlama chuqur bilim va ko‘nikmaga ega, ilmiy salohiyatli jahon mehnat bozorida xorijiy davlatlaar kadlari bilan keskin raqobatlasha oladigan, xalqaro standatlar talablari darajasidagi ilmiy salohiyatga va amaliy tajribali kadlar tayyorlash tizimini ifodalamoqda. Shuning uchun global munosabatlar rivojlanayotgan sharoitda mamlakat oliy ta’lim tizimida sifat ko‘rsatkichlarini takomillashtirishni taqoza etmoqda. Buning uchun davlat va NTM oliy muassasalari moddiy texnika bazalarini xalqaro va milliy standartlarga mosligini doimiy monitoringgini olib borish;amalda joriy qilingan institutsional norma va asosiy qoidalar bajarilishini baholash;har bir o‘quv semestri yakunida talabalar bilim va ko‘nikmalarini baholashni avtomatlashtililgan boshqaruv tizimini tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda tayyorlanadigan yuqori malakali zamonaviy ilmiy bilim va amaliy ko‘nikmaga ega kadlarning ijtimoiy-iqtisodiy saholarda raqobat muhitini rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Oliy ta’limning sifati oshganligini,bu tovar ishlab chiqarish va

xizmatlarni sifat ko‘rsatkichlariga, eksport salohiyatini oshirib, YAIMni barqaror iqtisodiy o‘sishini davomiyligini ta’minlab, aholining jahondagi o‘rtacha yashash mayorlarga etkazilishiga xizmat qiladi. Institutsional islohotlarni davomiyligi mamlakat iqtisodiyotining barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlaganligi, aholi jon boshiga tushadigan daromadni 1992 yilga nisbatan hisoblaganda 2023 yilga kelib 20-25 barobarga o‘sganligini, ijtimoiy jihatdan mamlakat fuqarolarining farovon turmush madaniyatini shakllanganligidan dalolat bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. “2022-2026-yillarga mO‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tO‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.02.2022 yildagi PF-60-sonli Farmoni.Toshkent - 2022 y.https://nrm.uz

2. Mirziyoev SH.M. ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi tO‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli Farmoni.Toshkent- 2023 y. https://lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim,fan va innovatsiyalar sahosida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari tO‘g’risida”gi 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 sonli Qarori.Toshkent-2023y. https://lex.uz

Internet saytlari:

4. https://sputniknews.uz
5. https://opt.uz
6. hptts://gov.uz
7. hptts://advice.uz

JIZZAX VILOYATI MAHALLALARIDA IJTIMOIY-IQTISODIY MASALALAR: OLIY TA’LIM MUASSASALARI VA MAHALLA HAMKORLIK ALOQALARI

Qosimov Azimjon Sanaqul o‘g‘li
Maktab menejmenti kafedrasi o‘qituvchisi, Jizzax DPU

Annotatsiya:

Jizzax viloyati mahallalarida ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda oliy ta’lim muassasalari va mahalla hamkorlik aloqalarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Oliy ta’lim muassasalari va mahallalar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari mahallalardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni aniqlash, ularni samarali hal etish uchun kadrlar tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish orqali aholini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Maqolada mazkur hamkorlik aloqalarining turli yo‘nalishlari, amaliy natijalari va istiqbollari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ushbu hamkorlikni rivojlantirish orqali mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlash, aholi farovonligini oshirish hamda bandlikni ta’minlashga oid tavsiyalar beriladi. Maqolada oliy ta’lim muassasalari va mahalla fuqarolar yig‘inlari o‘rtasidagi hamkorlikning muhim jihatlari, xususan, ta’lim va tadqiqotlarni real hayotdagi amaliy muammolar bilan bog‘lash zarurati ta’kidlanadi.

Abstract:

This text discusses the role of cooperation between higher education institutions and communities in solving socio-economic issues in the Jizzakh region. It explores how the resources of higher education can help develop socio-economic support mechanisms in communities, including the preparation of personnel and the implementation of scientific products to support the population. The article also discusses various areas of cooperation and practical outcomes, providing recommendations for improving the welfare of the population, ensuring employment, and providing economic assistance to develop production. Additionally, it emphasizes the importance of linking education and supervision with practical issues in real life.

Kalit so‘zlar: Jizzax viloyati mahallalari, Oliy ta’lim muassasalari, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, hamkorlik aloqalari, kadrlar tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar, mahalliy iqtisodiyot, bandlik, aholi farovonligi.

Keywords: neighborhoods of Jizzakh region, higher education institutions, socio-economic problems, cooperation, personnel training, scientific research, local economy, employment, population welfare.

Jizzax viloyatida mahallalar uzoq vaqtdan buyon ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy markazlari bo‘lib kelmoqda. Mahalla institutining jamiyatdagi roli, aholining farovonligini oshirishda, madaniy va iqtisodiy masalalarni hal qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, oliy ta’lim muassasalari va mahallalar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari ijtimoiy masalalarni hal qilishda muhim omil bo‘lib, aholining turmush darajasini oshirishda ham o‘ziga xos o‘rin tutadi.[Karimov, I. A. 2015.]

Jizzax viloyati mahallalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalar va oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalari tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu hamkorlikning mahallalarda turmush sharoitlarini yaxshilash va mahalliy aholini o‘qitishdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Jizzax viloyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalar Jizzax viloyatidagi mahallalarning ijtimoiy-iqtisodiy holati ko‘plab omillarga bog‘liq. Bular orasida aholi bandligi, daromadlar darajasi, ta’lim va tibbiyot xizmatlarining sifati kabi ko‘rsatkichlar muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, qishloq joylarida aholi daromadlari asosan qishloq xo‘jaligiga bog‘liq bo‘lib, bu esa mavsumiy daromadlarning o‘zgaruvchanligiga olib keladi. Shu bilan birga, aholining ko‘plab qismi yetarlicha daromad topa olmaganligi sababli, kambag‘allik darajasi yuqoriligicha qolmoqda.

So‘nggi yillarda, Jizzax viloyatida sanoat va kichik biznes rivojlanmoqda, bu esa iqtisodiy holatni yaxshilashda ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, hukumat tomonidan qabul qilingan iqtisodiy islohotlar, xususan, mahallalarda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlari tufayli aholi turmush darajasi sekin-asta yaxshilanmoqda.

Mahallalarning rivojlanishidagi oliy ta’lim muassasalarining roli

Oliy ta’lim muassasalari jamiyatning har bir qatlamini, jumladan, mahallalar aholisini ham o‘z ichiga olgan bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. Jizzax viloyatidagi oliy ta’lim muassasalari, xususan Jizzax davlat pedagogika universiteti va Jizzax politexnika instituti, viloyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga yechim topishda faol ishtirok etmoqda.

Oliy ta’lim muassasalari o‘zining ilmiy salohiyati va tajribasidan foydalangan holda mahallalarda amalga oshiriladigan turli dasturlarda ishtirok etadi. Masalan, kasb-hunar va iqtisodiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv dasturlari orqali yoshlar va ishsiz aholiga bilim va tajriba beradi. Ushbu o‘quv dasturlari aholi uchun yangi ish o‘rinlari yaratish imkonini berib, mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga hissa qo‘shadi.[Yuldoshev, A 2019]

Mahalla va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

• Ta’lim dasturlarini amalga oshirish: Oliy ta’lim muassasalari mahallalardagi yoshlarni, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashda o‘quv kurslari tashkil qiladi. Bular tadbirkorlik, texnologiya, qishloq xo‘jaligi kabi yo‘nalishlardagi kurslar bo‘lishi mumkin.

• Ijtimoiy xizmatlar: Mahallalardagi ijtimoiy xizmatlar, xususan, sog‘liqni saqlash, ta’lim va sport sohalarida hamkorlik muhimdir. Oliy ta’lim muassasalari talabalari va o‘qituvchilari bu borada o‘zlarining bilim va ko‘nikmalaridan foydalanib, mahallalardagi ijtimoiy loyihalarda faol ishtirok etishlari mumkin.

• Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar: Jizzax oliy ta’lim muassasalari mahallalar bilan hamkorlikda ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar olib borib, mahalliy darajadagi muammolarni aniqlash va ularning yechimini topishga hissa qo‘shadi.

Bu tadqiqotlar orqali qishloq xo‘jaligi, ekologiya, ta’lim va madaniyat sohalaridagi muammolar yechimini topish mumkin.

Jizzax viloyatidagi oliy ta’lim muassasalari va mahallalar o‘rtasidagi hamkorlik ijobiy natijalar bermoqda. Birinchidan, aholi bilim va kasb-hunar ko‘nikmalarini oshirish orqali o‘z iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ikkinchidan, ijtimoiy xizmatlar sifati yaxshilanib, turmush darajasi ko‘tarilmoqda. Mahalla va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi bunday yaqin hamkorlik, ayniqsa, qishloq joylardagi aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.[Xolmurodov, S. 2020]

Jizzax viloyati mahallalarida ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda oliy ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hamkorlik nafaqat mahallalarning iqtisodiy holatini yaxshilashga, balki jamiyatda barqaror ijtimoiy rivojlanishni ta’minlashga ham xizmat qiladi. Oliy ta’lim muassasalari va mahallalar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash orqali Jizzax viloyati aholisining farovonligini oshirish va ularning turmush sharoitlarini yaxshilash mumkin.

Jizzax viloyati statistika jamg‘armasi ma’lumotlariga ko‘ra bugungi kunda Jizzax viloyati hududida Oliy ta’lim tashkilotlari va ularning faoliyat yo‘nalishlari quyidagicha etib belgilangan.

Xususan: Hozirgi kunda yangi bilimlarni amalda qo‘llay oladigan, muayyan kasb sohasidagi innovatsion imkoniyatlar ko‘lamini tushunadigan kadrlarga talab yuqori. Bular nafaqat joriy xo‘jalik va ishlab chiqarish masalalarini malakali hal qiladigan, balki to‘g‘ri qaror qabul qiladigan tahliliy qobiliyatga ega, yuqori darajali mutaxassislar bo‘lishi lozim. Oliy ta’lim tizimi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta’minlaydi. Oliy ta’lim ikki bosqichga: bakalavriat bosqichi–mutaxassisliklar yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta’lim muddati kamida to‘rt yil davom etadigan tayanch oliy ta’limdir. Magistratura bosqichi–aniq mutaxassislik bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta’lim muddati kamida ikki yildavom etadigan oliy ta’limdir.[stat.uz 2019-20]

Jizzax viloyatida oliy ta’lim tizimida 3 ta oliy ta’lim muassasalari mavjud bo‘lib, ularning tarkibida 1 ta universitet filiali faoliyat olib bormoqda.

Oliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirish ta’lim sifatini oshirish tizimiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish maqsadida davlatimiz tomonidan oliy ta’lim tizimining huquqiy bazasi yanada takomillashtirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ2909-son qarori qabul qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida oliylim tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga tarish maqsadida, Respublika Prezidentining 2019-yil 8-avgustdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni tasdiqlandi.[PF-5847].

Mamlakatimizning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ta’limning barcha bo‘g‘ini, ayniqsa, oliy ta’lim tizimida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bu jihatlar ta’lim sifatini tubdan takomillashtirish, oliy ta’lim muassasalarida yoshlarning qamrovini tobora oshirish kabilarda o‘zining yorqin ifodasini topmoqda. Jizzax viloyati bo‘yicha 3 ta oliy ta’lim muassasalarida jami 18,0 ming nafar talabadan 14,3 ming nafari (79,2 %) kunduzgi ta’lim shaklida, 3,7 ming nafari (20,8 %) sirtqi ta’lim shakli bo‘yicha tahsil olmoqda.

2019-2020-o‘quv yili boshida Jizzax viloyatida oliy ta’lim muassasalarida ta’limning barcha turlari bo‘yicha bakalavriat bosqichiga jami abuturentlar tomonidan 55845 ta ariza topshirilgan bo‘lib, Jizzax viloyati bo‘yicha 100 o‘ringa 970 nafar kishini tashkil etgan.[stat.uz]

Viloyatimizda oliy ta’lim muassasalarida jami 970 nafar professor-o‘qituvchilar faoliyat yuritayotgan bo‘lib, fan doktori ilmiy darajasiga ega 28 nafarni, fan nomzodlari 166 nafarni hamda falsafa doktori 31 nafarni tashkil etmoqda. Shuningdek ilmiy unvoni bo‘yicha professorlar 17 nafarni, dotsentlar 136 nafarni tashkil etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T:. 2023.04.30
2. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev 2020.03.02
3. Karimov, I. A. (2015). O‘zbekistonning iqtisodiy siyosati va ijtimoiy rivojlanishi. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi.
4. Yuldoshev, A. (2019). "Jizzax viloyatidagi ta’lim tizimining rivojlanish yo‘nalishlari." Ilmiy jurnali, 3(2), 45-58.
5. Xolmurodov, S. (2020). Mahalla institutining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti.
6. Bekmurodov, O. (2022). "Oliy ta’lim va mahalla: hamkorlikni rivojlantirish yo‘llari." Mahalliy boshqaruv va ta’lim 7(1), 19-34.
7. www.stat.uz
8. www.ziyonet.uz
9. www.uza.uz

BOSHQARUV TIZIMIDA AYOLLARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISH

Mavlanova Nargiza Eshquzievna
Ijtimoiy himoya milliy agentligining
Jizzax viloyati boshqarmasi boshlig‘i, tadqiqotchi.
nargizamavlanova@mail.ru

Annotatsiya:
Mazkur maqolada mamlakatimizda boshqaruv tizimida ayollarning intellektual faoliyati, ularning boshqaruv tizimlaridagi mehnatini tashkil etishning o‘ziga xosligi, ayollarning boshqaruvdagi ishtirokining o‘ziga xos farqli xususiyatlari o‘rganilgan va amaliy tavsiyalar taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: *ayollar mehnati, intellektual salohiyat, demografi, , gender tengligi, turmush sifati, mehnat talablari.*

Annotatsiya:
Mazkur maqolada mamlakatimizda boshqaruv tizimida ayollarning intellektual faoliyati, ularning boshqaruv tizimlaridagi mehnatini tashkil etishning o‘ziga xosligi, jumladan, ayollarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ish bilan bandligini ta’minlashda gender munosabatlari bo‘yicha muvofiqlashtirilgan ishlarni amalga oshirish, ayollarning boshqaruvdagi ishtirokining o‘ziga xos farqli xususiyatlari o‘rganilgan va amaliy tavsiyalar taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: *boshqaruv, ayollarning ijtimoiy mehnati, boshqaruvda ishtirok, gender tengligi, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar, ayollarning mavqeini oshirish, mehnat talablari.*

Jahonda barcha darajadagi boshqaruv tizimida xotin-qizlar faolligini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini ta’minlashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari masalalari hozirgi innovatsion, raqamli texnologiyalar davrida eng muhim dolzarb muammolardan biriga aylandi. Xotin-qizlarning ish bilan bandligi darajasi global miqyosda kamayish tendensiyasiga ega. Jahon miqyosida ayollarning mehnat bozoriga kirish imkoniyatlari erkaklarnikidan 27 foizga past. Ayollar erkaklarga nisbatan ko‘proq ishsiz bo‘lib, global ishsizlik erkaklar uchun 5,5 foizga, ayollar uchun 6,2 foizga teng [http://www.oecd.org].

Yangi O‘zbekistonda ayollarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularning bandligini ta’minlash bo‘yicha muvofiqlashtirilgan ishlarni amalga oshirish, ayollar mehnatini tashkil etishda gender tengligi konsepsiyasiga asoslanib bandlik dasturlarini ishlab chiqishga zamonaviy yondashuvlarni kengaytirish kabi masalalarga alohida e’tibor berilmoqda. Mehnat resurslarining salmoqli qismini tashkil qilgan, ko‘p qirrali kasbiy tajribasi va ma’lumot darajasi yuqori, uy xo‘jaligini yuritish

bo‘yicha malakaga ega, oila va bolalar tarbiyasiga mas’ul bo‘lgan ayollar iqtisodiyot, ta’lim va madaniyat rivojiga muhim hissa qo‘shadilar.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollarning boshqaruvdagi ishtiroki, boshqaruv blogi, haq to‘lanmaydigan va norasmiy mehnat bilan bandlik, oila va farzandlar tarbiyasidagi o‘rni, mehnat munosabatlarida gender tengligi, ularni ijtimoiy himoyalash, moddiy yordamlar hamda ishga joylashishdagi o‘zaro bog‘liqlik boshqaruvdagi o‘ziga xoslik borasidagi tizimini tashkil qilish mazkur muammoni o‘rganishning dolzarbligini yanada oshiradi.

“2022-2026-yillarga muljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan taraqqiyot strategiyasining 69-maqsadida belgilab berilganidek, “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash” vazifasi belgilangan bo‘lib, quyidagilarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan: jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, gender tenglikni ta’minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish, xotin-qizlarning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish [“2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60 Farmon].

Iqtisodchi olimalardan professor D.N.Raximovaning fikricha “Mehnat bozorida iqtisodiy faol ayollarning bandlik darajasini hisoblash, asosiy ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni yanada to‘liqroq va tabaqalashgan holda tahlil etish, mehnat salohiyatidan foydalanishni tartibga solish imkoniyatini beradi” [D.N.Raximova, 2000: 143]. J.X.Bobanazarova esa “Mehnat bozori tartibga solish ayol ishchi kuchining ijtimoiy-ruhiy, iqtisodiy-moliyaviy, tashkiliy, demografik tavsiyalarini hisobga oluvchi faoliyat sohalariga yo‘naltirish bilan belgilanadi. Mazkur vazifalar oilaviy yumushlar, farzandlar tarbiyasi, kasbiy malaka darajasi, ijtimoiy inrfratuzilma sohalarining rivojlanishi va demografik o‘ziga xoslik natijasida kelib chiquvchi bir qator muammolar, ularning yechimi bevosita ayollar mehnat bozorini tartibga solish ustuvorliklari, boshqaruv, tashkiliy, moddiy rag‘batlantirishlar har tomonlama islohotlarni amalga oshirishga tayanadi” deb hisoblaydi [J.X.Bobanazarova, 2019: 30].

Shu o‘rinda intellektual mehnat ongli, maqsadga yo‘naltirilgan foydali, kreativlik, ijodkorlik elementlari bilan boyitilgan, insonning rivojlanishiga va tabiat resurslarini moddiy va nomoddiy boyliklarga aylantiradigan, axborotlarni yaratish, qayta ishlash va o‘zgartirish bilan bog‘liq insonni ijtimoiy foydali faoliyati hisoblanadi.

Ma’lumki, innovatsion iqtisodiyotda salohiyatni faol turdagi takror ishlab chiqarish manbasiga aylantirish imkonini belgilaydigan omillardan biri mehnatga layoqatli ayollarni ish bilan ta’minlashning yangi zamonaviy shakllariga yo‘naltirish va tartibga solish alohida o‘rin egallaydi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ayollarning intellektual mehnatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar mehnat talablari mohiyatiga qarab quyidagicha guruhlandi (1- rasm).

Ayollar mehnatining ijtimoiy talablari

1.Oilaviy yumushlari va farzandlar tarbiyasi bilan birgalikda qo‘shib olib borish.

2.Oila a’zolarining nisbatan kamroq qo‘llab-quvvatlanishi va ish vaqti chegaralanmasligi.

3.Bajariladigan kasblarning murakkabligi, innovatsiyalarning qo‘llanishi.

4.Ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni imtiyozli uy-joylar bilan ta’minlash.

5.Kasbiy malaka darajasini oshirib borishga talab va yuqori intensivlik.

Mehnat resurslarining iqtisodiy talablari

1.Yangi ish joylarini yaratish va o‘z-o‘zini band qilishning ko‘payishi.

2.Xotin-qizlarga yangi ish o‘rinlarini tashkil etish uchun kafolatli mahalliy va xorijiy investitsiyalarni joriy qilish.

3.Kasbiy malaka va ma’lumot darajasini olish uchun imkoniyatlarning yaratilganligi.

4.Mehnat bozori talablari bo‘yicha mutaxassislarning taqsimlanishi.

5.Ichki va tashqi mobillikning yuqori darajasi.

Demografik talablari

1. Ayollar orasida reproduktiv yoshdagilar va tug‘ilish darajasining yuqoriligi.
2.Oilaviy ahvol, mehnat qilishga xohishning yo‘qligi.
3.Ayollarning ijtimoiy holati va oilaviy majburiyatlar.
4.Karerani rivojlantirishda ayollarga yaratilgan imkoniyatlar.
5.Yangi shakldagi ish bilan bandlikning kengayishi va mehnatning intellektuallashishi.

Ayollar mehnatining ijtimoiy talablari	1.Oilaviy yumushlari va farzandlar tarbiyasi bilan birgalikda qo‘shib olib borish. 2.Oila a’zolarining nisbatan kamroq qo‘llab-quvvatlanishi va ish vaqti chegaralanmasligi. 3.Bajariladigan kasblarning murakkabligi, innovatsiyalarning qo‘llanishi. 4.Ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni imtiyozli uy-joylar bilan ta’minlash. 5.Kasbiy malaka darajasini oshirib borishga talab va yuqori intensivlik.
Mehnat resurslarining iqtisodiy talablari	1.Yangi ish joylarini yaratish va o‘z-o‘zini band qilishning ko‘payishi. 2.Xotin-qizlarga yangi ish o‘rinlarini tashkil etish uchun kafolatli mahalliy va xorijiy investitsiyalarni joriy qilish. 3.Kasbiy malaka va ma’lumot darajasini olish uchun imkoniyatlarning yaratilganligi. 4.Mehnat bozori talablari bo‘yicha mutaxassislarning taqsimlanishi. 5.Ichki va tashqi mobillikning yuqori darajasi.
Demografik talablari	1. Ayollar orasida reproduktiv yoshdagilar va tug‘ilish darajasining yuqoriligi. 2.Oilaviy ahvol, mehnat qilishga xohishning yo‘qligi. 3.Ayollarning ijtimoiy holati va oilaviy majburiyatlar. 4.Karerani rivojlantirishda ayollarga yaratilgan imkoniyatlar. 5.Yangi shakldagi ish bilan bandlikning kengayishi va mehnatning intellektuallashishi.

1-rasm. Ayollarni ish bilan ta’minlashga ta’sir ko‘rsatuvchi mehnat talablari

Olib borilgan tadqiqotlarga asosan, ayollarni ish bilan ta’minlashga ta’sir ko‘rsatuvchi mehnat talablari munosib ish bilan bandlik tizimini shakllantirish, mehnatni tashkil etishning yangicha yondashuvlari asosida ularning turmush sifatini oshirish, ularning mehnatini tashkil etish strategiyasini ishlab chiqish zarur, bu muayyan standart va ko‘rsatkichlar asosida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-islohotlarni amalga oshirishning aniq mexanizmlarini qo‘llashga asos bo‘ladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Bobanazarova J.X.Qishloq joylarida ayollar ish bilan bandligini oshirishning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari. Fuqarolik jamiyati. –T.: 2019. №;4 (60), - 30 b.

2.Raximova D.N.Upravlenie protsessami razvitiya trudovogo potensiala Uzbekistana v usloviyax osuщestvleniya radikalnых rынochnых reform. Dissertatsiya dok. ekon. nauk. – T.: 2000. -143 s.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga muljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60 Farmoni. https:// lex.uz/docs/5841063

4.http://www.oecd.org

O‘QITUVCHILARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING ILMIY KASBIY ASOSLARI

Kushbakov Qahramon Safar o‘g‘li
Registrator ofisi 1-sektor bosh mutaxassisi, Jizzax DPU

Annotatsiya:
Maqolada kadrlar salohiyati mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun mutaxassislarning kasbiy shakllanishini va ularning kamolotini ta’minlash jamiyat oldidagi eng asosiy muammolardan biri sanaladi. Shu bois Respublikamiz hukumati mustaqillik yillarida mamlakat ravnaqi va kelajagi uchun ta’lim sohasini isloh etishga alohida e’tibor qaratdi. Shu munosabar bilan maqolada o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlantirishning ilmiy kasbiy asoslari haqida ma’lumotlar joy olgan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim, kadrlar salohiyati, kasbiy rivojlanish, xalq ta’limi xodimlari, uzluksizlik, uzviylik*

Zamonaviy sharoitlarda xalq ta’limi tizimida pedagoglarning intellektual salohiyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish, uni amalga oshirishning infratuzilmasini ishlab chiqish davr talabiga aylandi. Bugungi kunda dunyo miqyosida xalq ta’limi xodimlarini intellektual jihatdan rivojlantirishning insonparvarlikka asoslangan ko‘p parametrli konsepsiyalari ilgari surilmoqda.

Binobarin, bu jarayon amaliyotda o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish, innovatsion jarayonlarni kengaytirish, ta’lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, sifat menejmentini joriy qilish, kasbiy ehtiyojlarga asoslanish, individual faoliyatni modellashtirish, loyihalashtirish, uzluksizlik, uzviylikni ta’minlovchi ko‘p komponentli yondashuvlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Texnologiyalarni tanlash prinsiplari, ularga qo‘yiladigan talablarga doir dissertatsiya tadqiqotlari va turli ilmiy adabiyotlar tahlili (V.I.Zagvyazinskiy, M.M.Levina, E.S.Polat) hamda boshqa nuqtai nazarlarni o‘rganish natijasida tadqiqotimiz doirasida o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirishga doir texnologiyalarga qo‘yiladigan talablarni umumlashtirdik: [43]

- ta’limning intensivligi;
- kasbiy faoliyatni modellashtirish imkoniyati;
- mustaqil ravishda qaror qabul qilish imkoniyati;
- o‘quv materialining yuqori nazariy darajasi;
- o‘qitish sifatini ta’minlash;
- ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi
- o‘quv muammolarini har tomonlama hal etish;
- shaxsiy yo‘nalish;
- kognitiv rivojlanishda taraqqiyotni ta’minlash;
- o‘qituvchining kasbiy faoliyati bilan bog‘lash va uning ehtiyojlari, individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini inobatga olish;
- kasbiy faoliyatga va kasbiy rivojlanishga bo‘lgan qiziqishni oshirish;
- amaliy yo‘nalish;
- o‘quv materialining muammoli mohiyati; rivojlantiruvchi xarakterga egaligi;
- kasbiy bilimlarni rivojlantirish; texnologiyalarning bir-biri bilan muvofiqligi.

Insonning tobora o‘sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish, o‘z shaxsini rivojlantirish muammosi ham juda dolzarbdir, kattalar ta’limi esa o‘z shaxsini takomillashtirish va o‘zligini namoyon qilishga yordam beradi. O‘z-o‘zini rivojlantirish shaxsning o‘zida kasbiy tajriba, malaka va

[43] Есенкова Т.Ф. Педагогические технологии в образовании взрослых: методология, содержание, эффективность //Фундаментальные исследования. –2015. –No 2-7.–С. 1483-1488; [электронный ресурс]. URL: https://fundamental research.ru/ru/article/view?id=37178 (дата обращения: 19.03.2022).

mahoratni takomillashtirish yo‘lida aniq maqsad va puxta o‘ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi hisoblanadi.

Kasbiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishi –kasbiy tayyorgarlik, kasbni egallash va kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida shaxsni rivojlantirish hisoblanadi.[44] Shaxsni kasbiy shakllantirish jarayoni individual ravishda o‘ziga xosdir, kasbiy faoliyat insonga o‘zini anglash, o‘zini o‘zi rivojlantirish imkoniyatlarini beradi, shaxsning kasbiy hayotining individual trayektoriyasi normativ va normativ bo‘lmagan hodisalar bilan belgilanadi, kasbiy rivojlanishning psixologik xususiyatlarini bilish insonga o‘z kasbiy biografiyasini ongli ravishda loyihalashtirish, qurish, o‘z tarixini yaratishga imkon beradi.

Tinglovchi-o‘qituvchilar kasbiy-pedagogik faoliyatining yuqori darajada bo‘lishi uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida o‘quv mashg‘ulotlarining nechog‘li samarali tashkil etilishiga bog‘liq. O‘quv mashg‘ulotlarining natijaviyligini ta’minlashda esa mashg‘ulotni tashkil etish uchun maqsadli tanlangan texnologiya va metodlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida yuzaga keladigan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o‘zida kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlarni tarkib toptirishga undaydi.

O‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayoni ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda bir necha asosiy jihatlar mavjud:

- **Malaka oshirish kurslari:** O‘qituvchilar muntazam ravishda malaka oshirish kurslarida ishtirok etishlari lozim. Bu, ularga yangi pedagogik texnologiyalar va metodlarni o‘rganishga yordam beradi

- **Tajriba almashinuvi:** O‘qituvchilar o‘zaro tajriba almashishlari, seminarlar va ma’ruzalar orqali bilim va ko‘nikmalarini oshirishlari zarur.

- **Izlanish va innovatsiya:** O‘qituvchilarning o‘z sohalaridagi yangi ilmiy tadqiqotlarni kuzatib borishi, innovatsion g‘oyalarni joriy etishi muhimdir.

- **Mentorlik:** Tajribali o‘qituvchilar yangi boshlovchilarni qo‘llab-quvvatlashlari, ularning professional o‘sishiga yordam berishlari kerak.

- Onlayn platformalar: Internet va zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘qituvchilar turli onlayn treninglar va resurslardan foydalanishlari mumkin.

O‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi ta’lim tizimining asosiy yo‘nalishidir, chunki bu o‘quvchilarga sifatli ta’lim berish imkonini yaratadi.

Malaka oshirish kurslarining ahamiyati juda katta bo‘lib, chunki ular o‘qituvchilarni yangi o‘quv metodlari va texnologiyalarini o‘rganish, o‘quv jarayonini yaxshi tashkil etish va o‘quvchilarni yaxshi ta’lim berishda yordam beradi. Quyidagi sabablarga ko‘ra, **malaka oshirish kurslarining ahamiyatliligi haqida fikr yuritamiz[45]:**

Yangi o‘quv usullarini o‘rganish: Malaka oshirish kurslari, o‘qituvchilarga yangi o‘quv usullarini o‘rganishga imkon beradi. Bu usullar interaktiv darsliklar, onlayn platformalar, virtual taqdimotlar, amaliymashg‘ulotlar, tajriba almashishlar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Bu usullar o‘quvchilarni qatnashishga rag‘batlantirish, ularning tafakkur qilish va muhokama qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

Texnologiyalardan foydalanishni o‘rganish: Malaka oshirish kurslari texnologiyalardan qanday foydalanishni o‘rganishga yordam beradi. O‘qituvchilar online platformalarda, darslik dasturlarida, videolarda va boshqa resurslarda ishlashni o‘rganadilar. Bu, ularning o‘z vaqtida ma’lumot olish, o‘rganish va ta’lim berishni o‘rganishiga yordam beradi.

Kreativ va o‘zlashtiruvchi o‘qitishning rivojlanishi: Malaka oshirish kurslarining ahamiyatliligi o‘quvchilarni kreativ o‘qitish va o‘zlashtiruvchi o‘qitish usullarini rivojlantirishga

[44] Shodiyeva M.J. Boshlang„ich sinf o„qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari // Zamonaviy ta‟lim jurnali. 2021. No 4 (101), 58-63

[45] Dooly, M.A. (2010). Shopping across the (EU) Market: Teacher Trainees Look for Experience Abroad. UK: Routledge

yordam berishi sababli ham ko‘p. Bu kurslar o‘qituvchilarni fikrlarini bajarishga, o‘z fikrlarini amaliyotga o‘tkazishga va o‘quvchilarni o‘z o‘qitish usullari orqali o‘zlashtirishga rag‘batlantirishga yordam beradi.

O‘qituvchi-boshqaruvni yanada yaxshi boshqarish: Malaka oshirish kurslari o‘qituvchi-boshqaruvni yanada yaxshi boshqarish va o‘quvchilarni boshqarishga imkon beradi. Bu kurslar o‘qituvchilarga qanday efektiv tadbirlarni o‘tkazishni, o‘quvchilarni qanday yaxshi o‘zlashtirishni va qanday yaxshi natijalarni qanday olishni o‘rganishda yordam beradi.

O‘qituvchilarni ta’limga rag‘batlantirish: Malaka oshirish kurslari o‘qituvchilarni ta’limga rag‘batlantirishga yordam beradi, chunki ular o‘quvchilarni ta’limga qiziqtirish, yangi ma’lumotlar olish va o‘zlarini yanada rivojlantirishga rag‘batlantirishga yordam beradi. Bu esa o‘quvchilarni motivatsiyalantirish va ularni ta’limda yuqori natijalarga yo‘l qo‘yishda yordam beradi.

Ta’lim tizimini rivojlantirish: Malaka oshirish kurslari ta’lim tizimini yanada rivojlantirishga yordam beradi. O‘qituvchilar o‘z malakalarini oshirish orqali ta’limni sifatliroq, samaraliroq va texnologik ravishda tashkil etishga imkon beradi. Bu esa o‘quvchilarga yaxshi ta’lim olishga olib keladi.

So‘nggi ma’lumotlarga ega bo‘lish: Malaka oshirish kurslari, zamoniy o‘qituvchilarni so‘nggi pedagogik yangiliklar, texnologiyalar, metodologiyalar va boshqa muhim o‘qitishning yangi yondashuvlariga ega qiladi. Bu, ularning o‘quvchilar bilan qadriyatli va innovatsion darslarni o‘tkazishini ta’minlaydi.

Texnologik rivojlanishni o‘rganish: Zamoniy o‘qituvchilar uchun texnologik rivojlanishni o‘rganish juda muhimdir. Malaka oshirish kurslari o‘qituvchilarga interaktiv darsliklar, onlayn platformalar, veb-saytlar, ilovalar va boshqa texnologiyalarni qanday foydalanishni o‘rganishga yordam beradi.

Innovatsion o‘qitish usullarini rivojlantirish: Malaka oshirish kurslari o‘qituvchilarni innovatsion o‘qitish usullarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu usullar o‘quvchilarning aktiv ishtirokini rag‘batlantirish, taqdimot san’atini yaxshilash, ta’limning interaktiv va amaliy asoslarini rivojlantirishga yordam beradi.

Shaxsiy rivojlanish va o‘zlashtirish: Malaka oshirish kurslari o‘qituvchilarni shaxsiy rivojlanishga yondashadi. Ular yangi metodologiyalar va usullarni o‘rganish, o‘z fikrlarini bajarish, boshqa o‘qituvchilar bilan tajriba almashish va ta’lim sohasida malaka va ixtisosliklarini yanada oshirish imkonini beradi.

O‘quvchilarni qoniqtirish: Zamoniy o‘qituvchilar malaka oshirish kurslari orqali o‘quvchilarni qoniqtirish va ularga motivatsiya oshirish uchun yangi usullar o‘rganishlari mumkin. Bu, o‘quvchilarni o‘qitish jarayonlariga qiziqishlarini oshirish va ta’limning qiziqishlarni oshirish qobiliyatini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Tuzilish va boshqaruvni yaxshilash: Malaka oshirish kurslari o‘qituvchilarga o‘zlarining darslarni tashkil etish va boshqarishni yaxshi tuzilishga yordam beradi. Ular darslarini yaxshi tashkil etish, tizimli ish yuritish, baho berish va baholash usullarini o‘rganishda yordam beradi.

Hamkorlik va almashish: Malaka oshirish kurslari o‘qituvchilarning boshqa o‘qituvchilar bilan hamkorlikni oshirish va tajriba almashish imkonini beradi. Ular o‘quvchilar bilan hamkorlik qilish, o‘z fikrlarini ularga taqdim etish va ta’lim sohasida bir-biriga yordam berishni o‘rganishga yordam beradi.Zamoniy o‘qituvchi imidjini yaratish va uni o‘zgartirish kurslarining ahamiyati hozirgi zamonaviy ta’limning muhim qismi bo‘lib chiqadi. Bu kurslar, o‘qituvchilarga yangi metodiologiyalar, texnologiyalar, va pedagogik usullar bilan tanishtirish va ularga malaka oshirish imkoniyatini beradi. Ammo, bu kurslarning ahamiyati aniqdir:

Yangi o‘qitish metodiologiyalarini o‘rganish: Zamonaviy ta’limning talablariga javob bera olish uchun o‘qituvchilar o‘zlarini yangilashlari zarur. Malaka oshirish kurslari o‘qituvchilarga yangi metodiologiyalar, o‘qitish usullari va ta’limning yangi texnologiyalarini o‘rganish imkoniyatini beradi.

Texnologiyalardan foydalanish o‘rganish: Zamonaviy o‘qitishda texnologiyalardan foydalanish zarur bo‘lgani sababli, o‘qituvchilarni bu sohada tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘lish kerak.

Malaka oshirish kurslari, o‘qituvchilarga kompyuter darsliklari, onlayn platformalar, va boshqa texnologiyalardan foydalanishni o‘rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Dooly, M.A. (2010). Shopping across the (EU) Market: Teacher Trainees Look for Experience Abroad. UK: Routledge.

2. Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: "Innovasiya ziyo". 2021 y. O‘quv qo‘llanma.

3. O‘.M.Asqarova, M.S.Nishonov, Z.B.Kurbanova, D.A.Muminova Pedagogik va psixologik fanlarni o‘qitish metodikasi. Toshkent –2019

4. Shodiyeva M.J. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari // Zamonaviy ta’lim jurnali. 2021. No 4 (101), 58-63

OLIY TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Kushbakov Qahramon Safar o‘g‘li
Registrator ofisi 1-sektor bosh mutaxassisi, Jizzax DPU
Ismatov Bekzod
Maktab menejmenti yo‘nalishi 4-bosqich talabasi, Jizzax DPU

Annotatsiya:
Ushbu maqolada ta’lim tizimi boshqaruv jarayonining mohiyati va qonuniyatlarini aniqlash, bu jarayonda sodir bo‘ladigan munosabatlarni ochib berish, baholash va boshqaruv sub’ektining asosiy tamoyillarni ishlab chiqish ta’limni boshqarish jarayonida muhim ahamiyati haqida ma’lumotlar joy olgan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, rivojlanish tendensiyalar, qonun-qonuniyat, boshqaruv.*

O‘zbekistonda ta’lim tizimi davlat tomonidan to‘g‘risidagi qonunlar, qarorlar va tadqiqotlar asosida amalga oshiriladi. Ta’lim tizimining nazariy qismi, oliy o‘quv yurtlari, xususiy o‘quv yurtlari, xalq ta’limi, maktab ta’limi va oliy o‘quv yurtlari bo‘yicha tartibga solingan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ta’limning bepul va har hafta 5 kun davomida olib borilishi zarurati bilan shaxsiy ta’limni ta’minlashni ta’minlaydi. Konstitutsiyada shuningdek, qiynaluvchan talabalarning o‘qishiga yordam berishga mo‘ljallangan qonunchilik, o‘qish uchun ma’yus uchun majburiyat stavkalari va xalqaro mazkur majburiyatni yozish inson huquqlarini himoya qilishni talab qiladi.

Ta’limning tamoyillarini tashkil etish asosida, qonunchilik boshqa bir qator qonunlari, farmonlar, qarorlar va institutlar moda modern fanlar va metodikalar, tajarbat va faol innovatsiyalar, elektron ta’lim asoslari va dizayn, o‘quv, iste’molchi o‘sish yillari va shuningdek cheklangan. Ular hisoblanadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimini mustaqil ijtimoiy faoliyatning eng muqim jizzalaridan biri deb qo‘llab-quvvatlaydigan yoshlarning kasbiy yutuqlarini ta’minlashga yo‘naladi. Ular ilg‘or bir fikr muomsizligini, yoshlarning fikr to‘pxonalari va xayoliy va fanlarga engil deb qaror qilish hamda odamlar uchun jihozlangan sharoitlarda mustaqil fuqarolar sifatida yashashi uchun zarur bo‘lgan bilimlarni o‘z ichiga oladi.

Jahon iqtisodiyotining intensiv rivojlanishi va raqobatning tobora kuchayib borishi sharoitida ta’lim sohasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi strategik sohalardan biri sifatidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda.“Hozirga kelib, ta’lim xizmatlari xalqaro bozorining hajmi 100 mlrd. AQSh dollarni tashkil etmoqda. «Inson kapitali» dunyo milliy boyligining 64 foizini tashkil etadi. Bu

ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 70 foiz, o‘rta daromadli mamlakatlarda 58 foiz, quyi daromadli mamlakatlarda 41 foizni tashkil etmoqda”[46]. Bugungi kunda oliy ta’limning innovatsion taraqqiyotning yetakchi omiliga aylanib borishi sharoitida ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirishga muhim vosita sifatida qaralmoqda.

Boshqaruv faoliyatining mohiyati to‘g‘risida g‘oyalar, tushunchalar, mulohazalar, uni madaniy tarzda amalga oshirish tamoyillari, shakllari va usullari haqida tizim mavjuddir. Insoniyat tomonidan fan-texnika, iqtisodiyot va ijtimoiy muvaffaqiyatlar tobora oshirilib borishiga ko‘ra boshqaruv faoliyatining ilmga bo‘lgan talabi ham to‘xtovsiz o‘sib boradi. Bir tomondan, ta’lim boshqaruv faoliyatini konseptual boyitishdan manfaatdor bo‘lsa, ikkinchi tomondan amaliyotchi boshqaruvchilar o‘z faoliyatini ilmiy idrok etish, uni nazariy asoslashga intiladilar.

Shu o‘rinda ta’lim faoliyatining jamiyat rivojlanishining muhim komponenti ekanligini ta’kidlab bu borada olimlarning qarashlariga e’tibor qaratamiz. Akademik S.S.G‘ulomovning e’tirof etishicha[47] “Ta’lim shunchaki jamiyat hayotining tomonlaridan birigina emas, balki umuman jamiyat rivojlanishining yetakchi, tizim hosil iluvchi omili bo‘lmoqda”.

Bu fikrni davom ettirgan iqtisochi olim Sh.R.Xolmuminov[48], “Zamonaviy sharoitlarda o‘zbek ta’lim siyosatining asosiy vazifasi – ta’limning zamonaviy xususiyatlarini uning asosliligi va davlat, jamiyat va shaxsning faol va istiqbolli ehtiyojlariga muvofiqligi asosida ta’minlash. Shunday qilib, ta’limni modernizatsiyalash - bu faqat mamlakat ta’lim majmuini rivojlantirishning muammolari majmui emas, balki ham siyosiy, ham umummilliy masaladir; u biror idoraga mansub loyiha bo‘lishi mumkin emas. Respublika fuqarolari, davlat organlari institutlari, mahalliy o‘zini boshqarish organlari, professional-pedagogik jamoatchilik, ilmiy, madaniy, tijorat va ijtimoiy institutlar ta’lim siyosatining faol sub’ektlari bo‘lishlari lozim”.

Hozirgi zamonda rivojlanish tendensiyalarini tushunish, ta’lim tizimini harakatlantiruvchi kuchlarni va omillarni tushunib yetish uchun ba’zi bir umumiy sharoitlarni va qonuniyatlarni o‘rganib chiqish kerak. Bunday qonuniyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Ilm talab ishlab chiqarish tarmoqlarining tobora rivojlanib, kengayib boryotganligi. Bunday tarmoqlar uchun xodimlarning 50 foiz va undan ortiq qismini oliy yoki o‘rta-maxsus maxlumotli kishilar tashkil etishi zarur. Bu o‘z navbatida oliy ta’lim rivojlanishini talab qiladi.

- Ilmiy va texnik ma’lumotlarning intensiv o‘sishi, bu o‘z navbatida bunday ma’lumotlarning o‘rtacha har 7-10 yilda 2 karra ortishiga olib keladi. Bu soha mutaxassislari uzuluksiz ta’lim tizimiga qo‘shilgan holda o‘z-o‘zini takomillashtirib, malakasini oshirib borishni taqoza etadi.

- Texnikaning tez-tez almashinib turishi, ishlab chiqarish quvvatlarining har 8-10 yilda ma’nan eskirishiga olib kelmoqda, bu o‘z navbatida mutaxassislardan yaxshi fundamental tayyorgarlikni hamda tor mutaxassisliklarga xos bo‘lgan tarzda yangi texnologiyalarni tezda samarali o‘zlashtirib olishni ko‘nikmalarini talab qiladi.

- Turli yo‘nalishlardagi fanlar (biofizika, molekular genetika, nanoximiya va h.k.) tutashligini olib boriluvchi ilmiy tadqiqotlarning birinchi darajaga chiqib olishi. Bunday yo‘nalishalarda yutuqqa faqat keng qamrovli va fundamental bilimlarga ega bo‘lgan holda jamoa bilan ishlash qobiliyati ila erishish mumkin.

- O‘ta kuchli ilmiy qobiliyatli tashqi muhitning mavjudligi nafaqat insonning jismoniy mehnatini, balkim hatto uning aqliy faoliyatini ham avtomatlashtirishga olib kelmoqda. Natijada ijodiy, algoritmlanmaydigan faoliyat turlarining qadri oshdi hamda shu faoliyatni amalga oshira oladigan mutaxassislarga talab otmoqda.

---

[46] https://cyberleninka.ru/article/n/mirovoy-rynok-obrazovatelnyh-uslug-vysshey-shkoly; http://www.meconomy.ru/art.php?nArtId=3649

[47] Gulyamov S.S. Obrazovanie v Uzbekistane: den segodnyaщniy. M.// Alma mater. 2002. №7 8 S.

[48] Xolmuminov Sh.R. O konsepsii modernizatsii obrazovaniya // Obrazovanie i sotsialno–ekonomicheskoe razvitie v nachale tretego тыsyacheletiya. Tez. dokl. konf. «XIX-Mejdunarodnыe Plexanovskie chteniya», po-svyashennoy 10–letnemu yubileyu Filiala REA im. G.V. Plexanova v g. Tashkente. 2 fevralya 2006 goda. –T., 2006. – I. – S. 17-19

- Ilmiy va shunga o‘xshash qiyin yo‘nalishlardagi faoliyatga ko‘plab kishilarning jalb qilinishing ortib borishi ayrim tadqiqotchilar tomonidan olimlarning o‘rtacha evristik salohiyatining pasayishiga sabab bo‘lishi sifatida ko‘rsatilmoqda. Bunday pasayishni kompensatsiyalash uchun mutaxassislarni ilmiy va amaliy faoliyat metodologiyalari bilan qurollanirishni talab qiladi.

- Sanoat va qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligining ortib borishi moddiy ishlab chiqarishdagi insonlar sonini qisqartiradi hamda aholining ko‘proq madaniy, ma’rifiy va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi sohalarda bandligi miqdorini ortishiga olib keladi. Bu o‘z navbatida an’anaviy mutaxassisliklar o‘rniga yangi zamonaviy sohalar, ayniqsa postindustrializm sohasi mutaxassislariga talabni oshiradi.

- Aholining daromadlari ortib turmush tarzi yaxshilanib borishi oliy ta’liga talabning ortishiga sabab bo‘luvchi omillardan sanaladi. Vaqtning bunday talablarigi rivojlangan davlatlarning oliy ta’lim tizimi qanday javob qildi hamda shu orqali rivojlanib bordi. Shiddat bilan o‘zgarib borayotgan, ko‘p rejali jarayonlarda mutaxassislar jahon oliy ta’lim tizimining rivojlanishida quyidagi tendensiyalarni ajratib ko‘rsatmoqdalar.[49]

1. Oliy ta’limning demokratlashuvi. Bu tendensiya oliy ta’limning umumiy ochiqligi, ta’lim olish shakli, turi, muhiti va mutaxassisliklarni tanlashning erkinligi, ta’lim jarayonlarinin boshqarishda avtoritarizm va ma’muriybuyruqbozlik usullaridan kechilayotgani kabi xususiyatlarni namoyon bo‘layotganligi bilan xarakterlanadi.

2. Fan-ta’lim-ishlab chiqarish integratsiyasi va uning oqibatida ilmiy-o‘quv-ishlab chiqarish komplekslarining yaratilayotganligi. Mazkur integratsiyada markaziy o‘rinda, asosiy kuch sifatida ta’lim tizimi turibdi, uning bosh bo‘g‘ini esa universitetlardir. Universitetlar atrofida bu tizimda tayanch kollejlar, ixtisoslashgan maktablar, oliy ta’limdan keyingi ta’lim muassasalari birlashgan. Ilmiy tadqiqot markazlari ilmiy o‘sishga asos sifatida, kompleks ishlanmalar, fanlararo ishlanmalar bilan ham o‘qituvchilar ishtiroki ham talabalar ishtirokini ta’minlashni nazarda tutuvchi majmualar sifatidaishtirok etmoqda. Ishlab chiqarish sektori o‘zlaridagi vaziyatdan shakllangan muammolarni oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalariga yetkazish bilan ham o‘zlaridagi konstruktorlik bo‘limlari orqali ham yechishga ishtirok etib jarayonda qatnashishmoqda.

3. Oliy ta’limning fundamentallashuvi. Mutaxassisliklar doirasida umumiy va keng profilli, majburiy fanlar, yo‘nalishlarni qisqartirish evaziga, mutaxassislik fanlari, fundamental, ixtiyoriy fanlarni ko‘paytirish. Fundamentallashuvning o‘ta chuqurlashuvi ham ko‘pincha ta’limga bo‘lgan qiziqishning so‘nishiga olib keladi, tor ixtisoslik doirasida shakllanishni nazarda tutadi.

4. Ta’limning individuallashuvi. Bunda talabaning ta’lim olishi va mehnati individuallashuvi kuzatilmoqda. O‘qish shakllari va muddatlarini, usullarini tanlashda talabaning individual yondoshuvlari, uning tahsil olishdagi rejalari individual tuzilishi, tahsil olishda talabaning individal psixofiziologik xususiyatlarining inobatga olib kurslarning tashkil qilinishi kabilarni ko‘rsatish mumkin. Bu o‘z navbatida fakultati va elektiv kurslarni tashkil etish, kuproq mustaqil shug‘ullanish soatlari hisobidan shakllantirilmoqda. Bu o‘z navbatida auditoriya soatlarini kamaytirib, mustaqil ta’lim soatlarini oshirishga olib kelmoqda.

5. Ta’limning insonparvarlashuvi. Bunda tabiiy, texnik sohalardagi yo‘nalishlardan ko‘ra ijtimoiy, gumanitar, iqtisodiy yo‘nalishlardagi fanlarni tarmoqlari kengaymoqda. Bundaylarning ulushi eng yetakchi OTMlarda hozirda 30-40 foizga yetadi. Talabaning madaniy dunyoqarashini kengaytirish, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishni treninglar orqali kuchaytirish, turli diskussiyalar, rolli o‘yinlar va boshqalar orqali ijtimoiy, madaniy munosabatlarni yaxshilashga yo‘naltirish. Ta’limning insonparvarlashuvi o‘qituvchining va talabaning shaxs sifatida o‘z-o‘zini namoyon qilishga qulay imkoniyatlarni yaratadi, insonlar bilan muloqot qilishda insoniylik xususiyatlarini oshiradi, boshqalar fikrini hurmat qilish, jamiyat oldida mas’uliyatni oshirish bo‘yicha malakasini rivojlantiradi.

[49] Zaynutdinov Sh.N., Ochilov A.O. Oliy ta’lim muassasalarini boshqarish samaradorligini baholash // Iqtisodiyot va ta’lim. – 2010. – 2. – 83-87-b.;

6. Oliy ta’limning kompyuterlashuvi. Ayrim yetakchi OTMlarda personal kompyuterlar soni talabalar sonidan oshib ketgan. Bunday ta’lim muassasalarida butun jarayonlar avtomatlashtirilgan. Ulardan avtomatlashgan ta’lim resurslari sifatida ham axborot manbasi sifatida ham, texnik vositalar sifatida ham foydalaniladi. Ta’limni kompyuterlashtirilishi kasbiy faoliyatning xususiyatlarini o‘zgartiradi. Bunda yangi kasbiy ko‘nikmalar shakllanib boradi.

7. Oliy ta’limning ommaviylashuvi. Buni eng asosiy ikkita yo‘nalishda yaqqol kuzatish mumkin, birinchisi, oliy ta’limga sarflanayotgan moliyaviy resusrlarning oshib borayotganidan ko‘rsak, ikkinchisi, talabalar sonining ortib borishida ko‘rishmiz mumkin. 2009 yilda butun dunyo bo‘yicha 153 mln. Talaba bo‘lgan bo‘lsa, 2016 yilda bu raqam 516,7 mln. kishini tashkil qildi. 2016 yilda oliy ta’lim jahon yalpi mahsulotida 1198,3 mlrd. AQSH dollariga teng miqdorni tashkil qildi.[50] Bu miqdor 2015 yilga nisbatan 1 foiz ortganini ko‘rish mumkin. YUNESKOning Ta’limni rejalashtirsh Xalqaro instituti tayyorlagan “Har kimni oliy ta’lim bilan ta’minlashning olti usuli” yangi dokladi oliy ta’limni yanada ommaviy va moliyaviy jihatdan hammabop bo‘lishiga olib kelishini nazarda tutadi. Bu dokladda talabalarning oylik o‘qish summasi ularning oyltk daromadining 15 foizidan oshirmaslikni belgilab qo‘yishgan. O‘zbekistonda ham oliy ta’limning qamrovi so‘nggi 3 yilda avvalgi 9 foizdan hozirda 12 foizga yetganini ko‘ramiz. Bu raqam 2020 yilda 20 foiz, 2025 yilda 35 foiz, 2030 yilda 70 foizdan ortiqni tashkil etishi rejalashtirilgan.

8. OTMlarning mustaqilligining ortishi. Rivojlangan mamlakatlarda OTMlarning mustaqilligi so‘nggi yillarda ortib bormoqda. Ular akademik, moliyaviy, siyosiy jihatdan mustaqilligini oshirib borishmoqda. Yevropa davlatlarida oliy ta’lim muassasalari avtonomlashuvi kuchayib bormoqda. Ular ma’muriy va moliyaviy o‘z o‘zini boshqarish, rahbarlarni o‘zlari saylash kabi yo‘nalishlarda mustaqil hisoblanishadi. Respublikamizda ham yangi O‘zbekiston sharoitida oliy ta’lim muassaslarining mustaqilligi oshirib borish rejalashtirilgan. 2020 yildan dastlab 10 ta OTM moliyaviy jihatdan mustaqil bo‘lib o‘z resurslarini mustaqil idora qilishadi.

9. Professional o‘qituvchiga talab ortishi. Jahon ta’lim va ilmiy sohasidagi qo‘nggi yillar rivoji OTMlarda nafaqat o‘qituvchini. Balki o‘z kasbining professional darajadagi ustasi, mukammal soha vakilini talab qilmoqda. O‘qituvchi ham ilmiy xodim, ham tadbirkor bo‘lib ishlashi talab etilmoqda. Shuningdek, pedagogika va psixologiyaning o‘rni ortib bormoqda, bunga sabab ta’lim jarayonlarining o‘zgarishlaridagi xususiyatlar. Bundan tashqari professoro‘qituvchilar mahalliy ijtimoiy muhitda ziyoli qatlam sifatida ijtimoiy faolligi ortishi ham tendensiya bo‘lib bormoqda.

10. Oliy ta’lim tizimi faoliyatining jamoatchilik tomonidan doimiy baholanishi. Oliy ta’lim tizimi faoliyati raqobat jihatidan rivojlanib borar ekan, ular atrofdagilar tomonidan muntazam baholanib borishadi. Hozirda jahon OTMlari xalqaro agentiliklar tomonidan turli ko‘rsatkichlar asosida reyting baholanib bormoqda. Dunyoning yetakchi reyting agentliklari QS, THE, ARWU va boshqalar xalqaro oliy ta’limni ma’lum indikatorlar orqali baholab, ularning reytingini yuritishmoqda. Bu reyting o‘z navbatida OTMlarni raqobatga chorlab, rivojlanishiga motivatsiya bermoqda. Bundan tashqari OTMlar jamoatchilikning boshqa institutlari tomonidan ham doimiy baholab, kuzatib boriladi.

11. OTMlarnig xalqarolashuvi. Dunyoning yetakchi OTmlari talabalarni o‘zlariga jalb qilish bo‘yicha turli yo‘nalishlarda ishlarni olib borishadi. Bu bilan ular o‘zlarinng asosiy faoliyatiga resurs yig‘ishi bilan birga, dunyoning eng sara aqllarini yig‘ib olishga harakat qiladi. Xorijda ta’lim olishning ortib borishi munosabati bilan mobil talabalarning ham soni ortib bormoqda. 2000 yilda xorijda tahsil olgan talabalarning soni 2 mln. bo‘lgan bo‘lsa, 2012 yilda ular 4 mln., 2018 yilda esa 7 mln. ni tashkil etdi. Bu raqamlar dunyo talabalari sonining o‘rtacha 2-3 foizini tashkil etmoqda.[51]

---

[50] Aleks Muur. Ta’lim berish va ta’lim olish: pedagogika, ta’lim dasturi va tarbiya. - Rutledj. Ikkinchi nashr. 2012. 202-bet.

[51] Saito, Y. (2008). Yaponiyada universitet-sanoat kooperativ tadqiqot dasturi: hozirgi holat va muammolar. Asia Pacific Journal of Cooperative Education, 9(2), 115-129.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yildagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775 sonli qarori qabul qilinishi bilan O‘zbekistoda tahsil olishni xoxlovchi xorijiy fuqarolardan konsullik yig‘imlari undirish bekor qilindi, talabalarning o‘zaro kelishuvlarga asosan qo‘shma dasturlarda tahsil olishi hamda ularga O‘zbekiston OTMlari hamda xorijiy ta’lim muassasalari o‘rtasida o‘zaro ikki tomonlama tan olinuvchi diplomlarni berish bo‘yicha maqsadli ishlar boshlandi.

Oliy ta’limning yuqorida sanab o‘tilgan xalqaro va mintaqaviy tendensiyalari albatta O‘zbekistonda ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Mamlakat OTMlari bu tendensiyalardan kelib chiqib, O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojantirish konsepsiyasiga asosan o‘z strategiyalarini ishlab chiqqanlar.[52]

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini yaqin kelajakdagi istiqboli bugungi kunda oliy ta’lim tizimida malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masala bo‘lib hisoblanadi. Oliy ta’lim tizimida mutaxassislarni tayyorlash jarayonida o‘quv tarbiya faoliyatini tashkil etishning yangicha yondashuvlarini joriy etish, kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta’lim tizimi davlat va nodavlat ta’lim muassasalarining rivojlanish dinamikasi va tarkibiy o‘zgarishlarini davlat tomonidan tartibga solinishi amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son).

2. Aleks Muur. Ta’lim berish va ta’lim olish: pedagogika, ta’lim dasturi va tarbiya. - Rutledj. Ikkinchi nashr. 2012. 202-bet.

3. LAP LAMBERT Academic Publishig RU, 2018. -C. 49; Расулев А.Ф. Алимов Р. Стимулирование инновационной активности в экономике //.

4. “Ta’lim muassasalarida boshqaruv jarayoni va o’quv sifatini takomillashtirish muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari to‘plami (2022-yil 6-dekabr)

5. Saito, Y. (2008). Yaponiyada universitet-sanoat kooperativ tadqiqot dasturi: hozirgi holat va muammolar. Asia Pacific Journal of Cooperative Education, 9(2), 115-129.

6. Zaynutdinov Sh.N., Ochilov A.O. Oliy ta’lim muassasalarini boshqarish samaradorligini baholash // Iqtisodiyot va ta’lim. – 2010. – 2. – 83-87-b.;

ТАЛАБАЛАРНИ МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР АСОСИДА ТАРБИЯЛАШ МАСАЛАСИНИНГ ЭКСПЕРИМЕНТАЛ ТАДҚИҚИ

Ержанова Венера Кууанышбаевна
Қорақалпоқ давлат университети
“Педагогика ва психология” кафедраси ўқитувчиси

Аннотация:

Мақолада талабаларни миллий қадриятлар асосида тарбиялашнинг мазмуни, технологияси, методлари ва методологиясига янгича ёндашув ҳақида сўз юритилиб, шахснинг юксак қадриятини шакллантиришга қаратилган тарбиянинг назарий ва амалий асослари кўрсатилган.

Таянч тушунчалар: *таълим, тарбия, қадрият, ахлоқ, маданият, нафосат, психология, ўз-ўзини тарбиялаш, ўзлигини англаш, комил инсон, шахс.*

[52] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’li tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasin tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.

Аннотация: *в статье рассматривается о новом подходе к содержанию, технологии, методам и методике воспитания школьников на основе национальных ценностей, показаны теоретические и практические основы воспитания, направленного на формирование высокой ценности личности.*

Ключевые слова: *образование, воспитание, ценность, нравственность, культура, психология, самовоспитание, эстетика, личность, самопознание.*

Abstract:

The article discusses a new approach to the content, technology, methods and methodology of educating schoolchildren on the basis of national values, shows the theoretical and practical foundations of education aimed at forming a high value of the individual.

Key-words: *education, upbringing, value, morality, culture, psychology, self-education, aesthetics, personality, self-knowledge.*

Қадриятли инсон, қадриятли талаба, миллий қадриятларимиз онгига сингдирилиб тарбияланган баркамол авлодни шакллантириш жараёнига ҳар бир олим, ҳар бир ўқитувчи масъулдир. Биз илмий фаолиятимиз давомида ушбу мавзуга оид бўлган, фойдаланишга тавсия этиладиган “Талабаларда миллий қадриятларга нисбатан масъулиятли муносабатни шакллантириш” махсус курсини ишлаб чиққанмиз ва унинг тарбиявий потенциалини (имкониятларини) амалга оширишнинг самарадорлигини ошириш мақсадида қўйидаги тавсияларни келтирдик:

I. Талабалар учун миллий қадриятга йуналтирилган ахлоқий ва эстетик ўзини ўзи такомиллаштиришга алоҳида урғу бердик.

1-вариант: миллий қадриятга йуналтирилган ахлоқий ва эстетик тарбиянинг моҳиятини билиш; ушбу ўз-ўзини тарбиялашни режалаштириш: асосий мақсад, асосий вазифалар; қандай когнитив ахлоқий ва эстетик материал бўйича; ушбу материални қандай тартибда ўрганиш керак? қандай асосий мақсадни белгилаш, қандай аниқ муаммоларни ҳал қилиш билан; қандай қиймат ва шахсий йўналиш билан; қайси фаолият турларига (шу жумладан интеллектуал, ижодий ва ижтимоий ва коммуникатив) устуворлик билан.

2-вариант: “миллий қадриятга асосланган ахлоқий ва эстетик тарбия” тушунчасини ўзлаштириш ва тушуниш (ривожланиш, такомиллаштириш); "Мен", "ўз "мен" ни ўрганиш; эстетик кўринишингизни (маънавий-эстетик дунё), ахлоқий қиёфангизни (инсоний-ахлоқий тушунчалар, тамойиллар, муносабатлар, мулоқот) ҳисобга олинг; ўзида шаклланаётган ахлоқий ва эстетик фазилатларни асосий қадрият йўриқномаси билан аниқлаш; эстетика, этика, адабиёт, санъатга оид керакли адабиётларни танлаш; зарур луғатлар, маълумотномалар, энциклопедик нашрларни тайёрлаш; ўз-ўзини ахлоқий ва эстетик такомиллаштириш бўйича ўз режангизни тузинг, унга биринчи навбатда қуйидаги позицияларни киритинг: мақсад, вазифалар; манбалар, улар билан ишлаш тури; янги билимларни интеллектуал ва ижодий "маҳсулотлар"га рўйхатдан ўтказиш; унинг кутилган ва ҳақиқий ижтимоийлашуви; бу ижтимоийлашувнинг ўзини ўзи қадрлаши, ўзининг яхшиланган ахлоқий ва эстетик қиёфасини ўз-ўзини тавсифлаш.

II. Дарснинг амалий қисми – талабаларнинг ахлоқий ва эстетик ўз-ўзини такомиллаштиришни режалаштириш бўйича иши (ўқитувчининг маслаҳат ёрдами билан):

қуйидаги технологиядан фойдаланиш лозим:

талабаларнинг ушбу ўзининг моҳияти, зарурлиги ва аҳамиятини англаши; қандай ахлоқий ва эстетик қадриятларга, қайси энг муҳим йўналиш билан; мақсад ва вазифаларни, шахснинг ўзига ва келгуси ишига бўлган муносабати ва талабларини аниқлаш; ўзининг ахлоқий ва эстетик қиёфасини башорат қилиш;

- ўзига хос ахлоқий ва эстетик хусусиятлар, фазилатлар, хусусиятлар ва қобилиятлар (албатта коммуникатив, айниқса шахслараро): ўз устида мустақил мақсадли иш усуллари, услублари ва воситаларини аниқлаш: ўзини ўзи фаоллаштириш, ўзини ўзи бошқариш, ўз-ўзини таҳлил қилиш, ўз-ўзидан ҳисобот бериш, ўз-ўзини ҳурмат қилиш;

- бошқаларни кузатиш: ўқиш (бадиий адабиёт, илмий-оммабоп ва бошқа адабиётлар - кўчирмалар, тезислар, хулосалар, ўз фикри); луғат ва концептуал иш; доимий, фаол ўз-ўзини такомиллаштириш; ўз-ўзини идрок этиш - кузатиш

- ўрганиш - хусусиятлар - танқид – баҳолаш: ўзининг ахлоқий ва эстетик тамойиллари, меъёрлари ва қоидаларини шакллантириш; ҳаётдаги раҳбарлик учун шиорларингиз; ижтимоий муҳитда ўзининг ахлоқий ва эстетик ютуғини (мулоқот, ишлаш, ҳар қандай тадбирда иштирок этиш) ўз-ўзини ҳурмат қилиш билан амалга ошириш.

Ушбу ўз-ўзини такомиллаштириш жараёнида асосий нарса талабалар шахсиятининг умумий қадрият йўналиши - инсонпарварлик, эзгулик ва гўзаллик, ахлоқ ва эстетика асосларида мавжуд.

Талабалар билан шахсни қадриятлар асосида ривождантириш буйича назарий ва амалий дарс маълум ижобий натижа берди:

Талабаларнинг 32,33 фоизида бундай ўзини-ўзи такомиллаштиришнинг ижтимоий ва шахсий аҳамияти ва аҳамиятига қатъий ишонч пайдо бўлди; 84% бу фаолиятга қизиқиш билдирган; талабаларнинг 76,66% миллий қадриятга йуналтирилган ахлоқий ва эстетик ўзини-ўзи такомиллаштиришни режалаштирган ва амалга оширган; 20% бу мустақил ишга содиқ; қолганлари (уларнинг бир нечтаси) нафақат шахсий, балки ижтимоий аҳамиятини ҳам тушунчалар ҳам ҳали бундай фаолиятни амалга оширишга қарор қилишмаган.

Умуман олганда, талабаларни миллий-ахлоқий ва эстетик тарбиялашнинг ушбу йўналишида жуда яхши натижаларга эришилди. Экспериментал ишнинг ушбу босқичида мавзуни кўриб чиқиш натижасида “Шахс. Қандай қилиб қадриятли шахс бўлиш керак?” мавзусида талабаларнинг сифатли миллий-ахлоқий-эстетик хусусиятларини ўрганиш ва таҳлил қилиш, топшириқлар ва интеллектуал-ижодий ишларни таҳлил қилиш, мавзуни ўрганиш жараёнида талабаларни кузатиш, янада объектив натижаларга эришиш, турли диагностика усуллари қўлланилади - сўровномалар , тест, якуний сўров.

"Қадриятли инсон" цикли бўйича экспериментал тадқиқот натижалари. Мавзулар бўйича: "Қадриятли шахс: моҳияти, тузилиши, блоклари, фазилатлари (ахлоқий ва эстетик), мезонлар, идеал шахс", "Шахснинг ривожланиши (ўзини ўзи ривожлантириш, ўз-ўзини такомиллаштириш) - ахлоқий ва эстетик: мақсад, мазмун, шартлар, омиллар, режалаштириш, схема, тавсиялар, жараён - технология, ўзини ўзи англаш, ўз-ўзини ҳурмат қилиш.

Экспериментал гуруҳларда талабаларни миллий- ахлоқий ва эстетик тарбиялаш мезонлари натижалари аввалгиларига қараганда сезиларли даражада юқори: 66,11%; талабалар ўзларининг "мен" ни фаол равишда ўз-ўзини билишни давом эттирадилар ва ўз хоҳишларига кўра, асосан ўз шахсиятини, унинг ахлоқий ва эстетик қиёфасини билиш бўйича вазифаларни бажаришда давом этади; 53,9% - инсоннинг жисмоний гўзаллигини "тадқиқ этишни" давом этмокда, лекин ички - маънавий гўзаллик (ахлоқий ва эстетик) билан мажбурий бирликда; ташқи кўринишга эътиборни кучайтириш - хусусиятлар, фазилатлар, хусусиятлар ва қобилиятлар; 42% барқарор ва чуқур тушуниш ва ижтимоий ва шахсий аҳамияти ва хабардорлик бор ахлоқий ва эстетик ривожлантириш, такомиллаштириш (ва ўзини), шахснинг аниқ белгиланган қадрият йўналиши билан, биринчи навбатда, гуманистик; инсоннинг моҳиятига алоҳида эътибор қаратилади, шахслар; 32,66% - табиатнинг энг гўзал ижоди, шахс сифатида инсонга нисбатан инсоний-ахлоқий-қадриятли муносабатни фаоллаштириш, бу, қоида тариқасида, тўғри эстетик асосда содир бўлади - асосий мавзулар бўйича интеллектуал ва ижодий ишларни танланади.

Эслатма: Юқорида тажриба ва назорат гуруҳларида сифат натижалари таҳлили келтирилган. Экспериментал гуруҳлардаги эмпирик тадқиқотларнинг ушбу босқичида талабалар миллий ахлоқий ва эстетик тарбия, замонавий шахсни ривожлантириш, такомиллаштириш зарурати, аҳамияти ва долзарблигининг ижтимоий ва шахсий мотивларини яхши билишади.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. Азимова З. Э. Тарбиявий ишлар тизимини интеграл диагностик асосда такомиллаштириш (Олий таълим мисолида). Дисс.автореферати – Н.2018. Б.-13-16

2. Асаматдинова Ж., Абдимуратова Н. Нравственно-эстетическое воспитание учащихся на внеучебных занятиях «Познай человека, Себя стань личностью!» Учебное пособье. Нукус, 2014. – С. 100.

3. Асаматдинова Ж. Технологии формирования ценностной ориентации учащихся на основе их нравственно-эстетического воспитания. Монография. – Ташкент: «Fan va texnologiya», 2016. – 168 с.

4. Мусурмонова О. Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б.97.

5. Ержанова Венера Кууанышбаевна. Талабаларни миллий қадриятлар асосида тарбиялашнинг сиёсий, илмий-педагогик аспектлари. 1356-36 International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» VOLUME 2 / ISSUE 10 / UIF:8.2 /

6. Erjanova V. Talabalarni milliy qadriyatlar asosida. Tarbiyalashga yunaltirilgan pedagogik jarayonni tashkil etish mexanizmlari. 180-182 b «Zamanagóy sharayatta joqarí maǵlíwmatlí qánigelerdi tayarlawdíń aktual mashqalalarí» Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya materialları toplamı. 26-27-may 2023-yil.

STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Matkarimova Nilufar Boqijon qizi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada STEAM texnologiyasidan foydalanishning anzariy asoslari bayon etilgan bo‘lib, bunda STEAM texnologiyasining ta’lim jarayoniga tatbiq etish tarixi hamda sohada tadqiqotlar olib borgan olimlar faoliyat natijalariga to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek maqolada STEAMga asoslangan ta’limning o‘ziga xos hususiyatlari hamda an’anaviy ta’lim texnologiyalaridan farqli tomonlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *STEAM ta’lim, STEAM yondashuv, STEAM metod, individual ta’lim usullari, tabaqalashtirilgan ta’lim vositalari, SMART-o‘qitish modeli, qobiliyat, ijod maktablari, innovatsion texnologiya*

Аннотация:

В данной статье описаны основные принципы использования технологии STEAM, история применения технологии STEAM в образовательном процессе, а также результаты ученых, проводивших исследования в этой области. Также в статье описаны уникальные особенности образования на основе STEAM и его отличия от традиционных образовательных технологий.

Ключевые слова: *STEAM-образование, STEAM-подход, STEAM-метод, индивидуальные методы обучения, дифференцированные образовательные инструменты, модель SMART-обучения, способности, школы творчества, инновационные технологии.*

Abstract:

This article describes the basic principles of using STEAM technology, the history of using STEAM technology in the educational process, as well as the results of scientists who conducted research in this area. The article also describes the unique features of STEAM-based education and its differences from traditional educational technologies.

Keywords: *STEAM education, STEAM approach, STEAM method, individual teaching methods, differentiated educational tools, SMART learning model, abilities, schools of creativity, innovative technologies.*

So‘nggi o‘n yil ichida butun jahon bo‘ylab ijodiy yoki intellektual ish bilan bog‘liq bo‘lgan sohalarda katta ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab yangiliklar paydo bo‘lmoqda. Dunyoning ko‘plab

mamlakatlarida davlat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy omillaridan bo‘lgan uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ijodkorlik tarmoqlari o‘zgarmoqda. Bu esa o‘z navbatida ushbu faoliyat sohasi bilan bog‘liq mehnat lavozimlarini egallashga bo‘lgan xohish istaklari yuqori bo‘lgan yoshlar soni ortib borishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa o‘z navbatida tabiiy tendentsiyalar ta’lim tizimining rivojlanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunga birgina misol sifatida – ilgari rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari matematika va muhandislik sohalari bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, endilikda ta’lim dasturiga badiiy va ijodiy fanlarni kiritish kerakligi zaruriyatga aylanmoqda.

Hozirgi vaqtda STEAM eng ko‘p talab qilinadigan sohalar qatoriga kirdi. STEAM texnologiyasi – texnika va tabiiy fanlar, muhandislik, matematika va san’atni bog‘laydigan innovatsion o‘qitish usuli hisoblanadi.

Birinchi marta AQShda STEAM texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etilganda ba’zi maktablarda bitiruvchilarining ijodkorlik qobiliyatiga asoslangan kasbiy yo‘nalishlarini tanlash bo‘yicha so‘rovnomalar o‘tkazilgan. Avval mazkur yo‘nalish tabiiy, matematika, texnologiya fanlari va muhandislik fanlarini birlashtirish asosida tashkil etilib, uni STEM ta’lim tizimi sifatida amaliyotgan joriy etishgan. Keyinchalik mazkur tizimga yana bir yo‘nalish qo‘shilib, “Art” (san’at) – ya’ni yangi STEAM texnologiyalari paydo bo‘ldi.

Amerika maktablaridagi mazkur texnologiyalar o‘qituvchilarning STEAM fanlar bo‘yicha yetarlicha bilim, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lishiga, shuningdek o‘quvchilarga professional mutaxassis bo‘lishga yordam berishiga ishoniladi. Shu sababdan ham o‘quvchilar STEAM ta’lim jarayonidagi yangi ma’lumotlarni olishga, bilimlarni mustahkamlashga intildilar. Ta’lim muassasalalarida o‘quvchilar egallangan bilimlari asosida tajriba-sinov ishlari, amaliyot jarayonlarini parallel ravishda olib borilib, egallangan bilimlar bo‘yicha ko‘nikmalarni mustahkamlanishiga imkoniyat yaratiladi.

Bugungi kunda ko‘pgina mamlakatlarda STEAM texnologiyalarini ta’lim jarayonida qo‘llashga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Buning sababi, tez orada jahon mamlakalatlarining yuqori texnologiyali sohalarida mutaxassislarning keskin tanqisligi yuzaga kelishi prognoz qilinayotganligi bilan bog‘liq. Hozirgi vaqtda tabiiy fanlar, texnologiya va muhandislik sohalari o‘rtasida integratsiya amalga oshirilishi natijasida, ushbu fanlar integratsiyalashuvida qo‘llaniladigan yangi mutaxassisliklar paydo bo‘lmoqda. Bunga bionika hamda nanotexnologiyalar sohasidagi mutaxassislar, yirik ma’lumotlar muhandislari, dasturchilar faoliyatining yuzaga kelyotganligi yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu kasblar zamonaviy mutaxassislarga zarur bo‘lgan har tomonlama tayyorgarlik va bilimlarni olish imkonini beradi.[53]

Hozirgi vaqtda yosh avlod uchun qo‘shimcha ta’limning juda ko‘p yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ularga dasturlash, robototexnika va modellashtirish to‘garaklarini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Olimlardan T.I.Anisimova, F.M.Sobirova, O.V.Shatunovalar texnika fanlarini boshqa fan sohalari bilan o‘zaro aloqadorlikda qo‘llash zarur deb hisoblaydilar. STEAM texnologiyalari esa ta’lim jarayonida qo‘llanilganda turli mavzularni birlashtirish imkonini beradi.[54]

An’anaviy maktab ta’limining asosiy maqsadi bilimlarni o‘rgatish va uni tafakkur va ijodiy jarayonda qo‘llashga qaratilgan. STEAM ta’limi esa olingan bilimlarni haqiqiy ko‘nikmalar bilan birlashtirish yondashuvini o‘z ichiga oladi. Bunda o‘quvchilarning g‘oyalari nafaqat shakllantirilishi balki, g‘oyani relizatsiya qilishga erishiladi. Amalda sinovdan o‘tgan bilim esa eng qimmatli natija sifatida belgilanadi.

Rivojlangan jamiyatda o‘quvchilar XXI – asr malakalari deb ataladigan bir qator kompetensiyalarga ega bo‘lishlari kerak. Bunda o‘tgan davrning savodxonlik darajasini aks

[53] Иманова А.Н. STEAM - технологии: инновации в естественно-научном образовании / А.Н.Иманова, Р.Т.Самуратова // достижения науки и образования. - 2018. - с.35 - 37.

[54] Анисимова Т.И. Подготовка педагогов для STEAM-образования / Т.И.Анисимова, Ф.М.Сабирова, О.В.Шатунова // высшее образование сегодня. - 2019. - с. 31 - 35

ettiruvchi asosiy tushunchalar – yozish, o‘qish va arifmetika hisoblangan bo‘lsa, bugungi kunda inson tanqidiy fikrlashi, kreativ dunyoqarashi, faoliyatga ijodiy yondashishida namoyon bo‘lmoqda.

XXI – asrning kompetentsiyalarini ijodkorlik, jamoaviy faoliyat, muloqot, tanqidiy fikrlash tashkil etmoqda. Biroq, bu kompitensiyalarni laboratoriya sharoitida yoki matematik algoritmlardan foydalanib olish mumkin emas. Shuning uchun zamonaviy mutaxassislar STEAM texnologiyalarini o‘zlashtirishga tobora ko‘proq e’tiborli bo‘lish kerakligini ta’kidlanmoqda.

Tarixga nazar tashlar ekanmiz Leonardo da Vinchi san’at va fanning fanlararo integratsiyasi zaruriy omil deb hisoblaganini ko‘rishimiz mumkin. Bu pozitsiyani evropalik faylasuflar va psixoanalitiklar, hususan Karl Yung ham qo‘llab-quvvatlagan[55].

Inson fiziologiyasi nuqtai nazaridan ta’lim tizimida ilmiy-texnika va san’at yo‘nalishlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni yaxlit bir butun sifatida tushuntirish mumkin. Chunki inson miyasining chap yarim shari mantiqning rivojlanishiga javob beruvchi sensor markazlar kerakli ma’lumotlarni yodlash va mantiqiy xulosalar chiqarish imkonini bersa, inson miyasining o‘ng yarim shari bevosita idrok orqali fikrlash bilan bog‘liq masalalar bilan shug‘ullanadi. Shuning natijasida, ijodkorlik mantiqiy va intuitiv fikrlash shakllanishi natijasida paydo bo‘ladi[56].

Ta’lim jarayonida STEAM texnologiyasidan foydalanish inson miyasining ikkala yarim sharidan bir vaqtning o‘zida foydalanish imkonini beradi. Nyu-York davlat universitetining fiziologiya professori Robert Root-Bernshteyn 1990-yillar boshida Lui Pasterdan tortib Albert Eynshteyngacha bo‘lgan turli asrlardagi 150 nafar mashhur olimlarning biografik ma’lumotlarini o‘rganib chiqdi. U miyaning chap va o‘ng yarim sharlari faoliyatini o‘rgangan. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ularning har biri ilmiy faoliyat bilan bir qatorda ijod bilan ham shug‘ullangan, har biri yo rassom, yo musiqachi, yo shoir va yozuvchidir.

Masalan, Albert Eynshteyn skripka chalishni yaxshi ko‘rardi, Galileo Galiley o‘z davrining mashhur adabiyotshunosi, Samuel Morze portret rassomi edi. Olim Robert Root-Bernshteyn esa ko‘plab olimlarni o‘z muvaffaqiyatlariga ijodiy fikrlash yordamida erishgan degan xulosaga keldi. Uni rag‘batlantirish miyaning o‘ng yarim sharining ishi bilan bog‘liq fanlar bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni o‘zlashtirish hamda amaliyotda qo‘llay olishi orqali amalga oshiriladi degan xulosalarni bildirgan.

2009-yilda Jons Xopkins universiteti tomonidan nevrologik tadqiqot o‘tkazildi. Tadqiqot natijalari san’at bilan shug‘ullanish – o‘quvchilarning bilim qobiliyatini oshirishi, xotira va diqqat rivojlanishini ko‘rsatdi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim jarayoniga ijobiy ta’sir qilishi aniqlandi. Bunda tadqiqot ishtirokchilarining nafaqat akademik bilimlari, balki hayotiy ko‘nikmalari darajasini ham oshirishga hizmat qilgani aniqlandi.

STEAM texnologiyalari Osiyoning bir qator davlatlarida ham ta’lim jarayonida faol qo‘llanilmoqda. Albatta, bu o‘quvchilarning ota-onalari fikri bilan bog‘liq. Jumladan, Xitoyda voyaga etmagan o‘quvchilari bo‘lgan fuqarolar o‘rtasida sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, xitoylik ota-onalar amerikaliklardan farqli o‘laroq, san’at bilan bog‘liq texnologiyalarni o‘z farzandlari ta’limida innovatsion komponentni rivojlantirishda juda dolzarb masala sifatida muhim zaruriyat deb bilishlari aniqlangan.

Shuningdek, xitoylik oilalarda matematika va kompyuter fanlarining ahamiyatliligi – 9(%) foizni tashkil etgan bo‘lsa, AQShda respondentlarning 52(%) foizi matematika va kompyuter fanlarining ahamiyatli deb hisoblaydi. Innovatsion muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvlarning ahamiyati xitoylik respondentlar tomonidan 45(%) foizni tashkil etgan bo‘lsa, AQShda 18(%) foiz respondentlar uchun ijodiy yondashuvlarning ahamiyati dolzarb deb belgilangan. Xitoyda so‘rovda qatnashgan ota-onalarning 23(%) foizi uchun farzandining

[55] Анисимова, Т.И. STEAM-образование как инновационная технология для Индустрии 4.0 / Т.И.Анисимова, О.В.Шатунова, Ф.М.Сабирова // Научный диалог. - 2018. - № 11. - С. 322-332.

[56] STEAM-обучение: от практики к теории [Сайт]. - URL: http://edurobots.ru/2019/04/steam-edu/ (дата обращения: 14.11.2021)

tadbirkorlik va biznes ko‘nikmalarini o‘rganishi muhim hisoblangan bo‘lsa, AQShda bu ko‘rsatkich atigi 16(%)foizni tashkil qiladi. Jahon madaniyatlari haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha so‘rovda qatnashgan xitoyliklarning 18(%) foizi, amerikalik respondentlarning esa 4(%) foizi ijobiy fikr bildirgan.

Shundan xulosa qilib aytish mumkinki, Xitoy ta’lim tizimi AQSh maktablaridan farqli o‘laroq, STEAM texnologiyalaridan ancha faol foydalanmoqda[57].

STEAM texnologiyalaridan foydalanish ko‘rsatkichlari Singapurda ancha yuqori natijalarda namoyon bo‘lmoqda. Yigirma yil avval Singapurni o‘zgartirish tashabbusi dasturi ishga tushirilgan edi. Uning asosiy maqsadi davlatni global ijodkorlik, innovatsiyalar va dizayn markaziga aylantirish edi. Singapurning davlat boshqaruv tizimi ta’lim tizimini har bir o‘quvchida o‘zining ijodiy fazilatlarini rivojlantirishi uchun o‘zgartirishga qaratilgan. Shunday qilib, innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega yosh iqtidorli mutaxassislarga ijodiy komponent yordamida iqtisodiy siyosatni isloh qilish imkoniyati beriladi.

Rossiya ta’lim tizimida esa bugungi kunda STEAM texnologiyalaridan foydalanishga yo‘naltirilgan tobora ko‘proq ta’lim loyihalari paydo bo‘lmoqda. Masalan, “Точка роста” o‘quvchilar markazlari tarmog‘i, uch yoshdan boshlab o‘quvchilarga muhandislik kasbi bilan tanishish, innovatsion texnologiyalar haqida tushunchaga ega bo‘lish, tajriba o‘tkazish va yangi kashfiyotlar qilish imkoniyatini berilmoqda. Mazkur jarayonlar natijasida o‘quvchilarda tadqiqot o‘tkazish uchun rag‘bat paydo bo‘ladi. Ularning xato qilish qo‘rquvi yo‘qoladi. Guruhlarda ish olib borilganda muloqot qobiliyatlari ham rivojlanadi[58].

T.V.Volosovets – STEAM texnologiyalaridan foydalanish juda erta yoshdan boshlanishi kerak, deb hisoblaydi. Ushbu o‘rganish usuli tufayli ular atrof muhitiga sodir bo‘layotgan hodisalarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishlari mumkin bo‘ladi. STEAM texnologiya qobiliyatni rivojlantirish, guruhda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga zamin yaratib, o‘quvchilar rivojlanishining mutlaqo yangi darajasiga erishishga yordam beradi[59].

STEAM yondashuvi tufayli o‘quvchilar hozirgi hodisalarning mantig‘ini o‘rganishlari, ularning o‘zaro bog‘liqligini tushunishlari, dunyoni muntazam ravishda o‘rganishlari va shu bilan texnik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishi bilan ahamiyatli bo‘lib qolmoqda.

Dunyoning turli mamlakatlarida STEAM texnologiyalaridan foydalanish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, amaliy mashg‘ulotlarni qo‘llash nazariy darslarni o‘zlashtirish singari muhim va dolzarblik kasb etadi. Sinfdagi an’anaviy ta’lim jarayoni, tezlik bilan rivojlanayotgan, modernizatsiyalashayotgan innovatsion jamiyat o‘quvchilariga tezlik bilan moslasha olmaydi. Shu sababli, ushbu texnologiyalarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, o‘quvchilar nafaqat aqliy qobiliyatlari, balki sensamotorikasi bilan ham ko‘plab fanlarni o‘rganish dunyosiga sho‘ng‘ishadi. Ular bu bilimlarni o‘zlarining faoliyat natijasida o‘rganadilar va amalda qo‘llash ko‘nikmasini egallaydilar.

Metodologik darajada, nazariy ko‘nikmalarga ega bo‘lish va texnologik masalalarni hal qilishdan tashqari, STEAM texnologiyalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– o‘quvchilarning guruhda ishlash ko‘nikmalarini egallashi;

– konstruktiv tanqid qilish va o‘z fikrini himoya qilishni o‘rganish;

---

[57] О.А.Ревякина, Интуитивная Арт-терапия как средство реализации творческих потребностей и возможностей дошкольников в условиях STEAM-центра / О.А.Ревякина // Сборник материалов Ежегодной международной научно-практической конференции «Воспитание и обучение детей младшего возраста». 2020. - С. 424 - 425.

[58] Ведущие вузы объединили усилия по созданию инновационной образовательной площадки «STEAM Академии 2030» [Сайт]. - URL: https://pikabu.ru (дата обращения: 15.11.2021)

[59] Т.В.Волосовец, STEM-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. Парциальная модульная программа развития интеллектуальных способностей в процессе познавательной деятельности и вовлечения в научно-техническое творчество: учебная программа / Т.В.Волосовец, В.А.Маркова, С.А.Аверин. - М.: Бином. Лаборатория знаний, 2019. - 112 с.

– taqdimot ko‘nikmalarini egallash;

– noaniqlik sharoitda g‘oyalar yaratishni o‘rganish;

– amaliy faoliyat natijasi bilan ijod na’munasini yaratish va ilgari surish uchun dizayn va marketing tamoyillarini qo‘llash;

– faoliyatning turli sohalarida texnologiyalardan foydalanishning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish.[60]

Xulosa o‘rnida aytish mumkinkmi, an’anaviy ta’lim tizimi bilan taqqoslaganda, STEAM yondashuvi eksperimentlar o‘tkazish, modellarni qurish, mustaqil ravishda ijodiy ishlarni yaratish va o‘z g‘oyalarini haqiqatga aylantirishga qaratilgan.

Ushbu ta’lim yondashuvi o‘quvchilarga nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirishni va tegishli yo‘nalish bo‘yicha yetarlicha bilimga ega bo‘lish imkoniyatini berish bilan birgalikda ilmiy izlanish o‘qitishda STEAM texnologiyasidan foydalanish bugungi kunda o‘qitishning asosiy yondashuvi sifatida ta’limda yangi natijalarga muvaffaqiyatli erishish imkoniyatini beradi. Bunda o‘quvchilarga yangi bilimlarni kashf qilishda to‘g‘ri qadamlar tashlash, ijodiy qobiliyatlaridan foydalanish imkoniyati yaratiladi. STEAM texnologiyasi asosida ilmiy izlanishlar natijadorligini oshirish, yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatoliklarni oldini olish, vaqtdan samarali foydalanish imkoni yuzaga keladi. Shuningdek, texnologiya bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni, doimiy takrorlash – mashq qilishga moslashgan bo‘lib, bunda o‘quvchilarga ma’lumotlarni sintez qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Иманова А.Н. STEAM - технологии: инновации в естественно-научном образовании / А.Н.Иманова, Р.Т.Самуратова // достижения науки и образования. - 2018. - с.35 - 37.

2. Анисимова Т.И. Подготовка педагогов для STEAM-образования / Т.И.Анисимова, Ф.М.Сабирова, О.В.Шатунова // высшее образование сегодня. - 2019. - с. 31 - 35

3. Анисимова, Т.И. STEAM-образование как инновационная технология для Индустрии 4.0 / Т.И.Анисимова, О.В.Шатунова, Ф.М.Сабирова // Научный диалог. - 2018. - № 11. - С. 322-332.

4. STEAM-обучение: от практики к теории [Сайт]. - URL: http://edurobots.ru/2019/04/steam-edu/ (дата обращения: 14.11.2021)

5. О.А.Ревякина, Интуитивная Арт-терапия как средство реализации творческих потребностей и возможностей дошкольников в условиях STEAM-центра / О.А.Ревякина // Сборник материалов Ежегодной международной научно-практической конференции «Воспитание и обучение детей младшего возраста». 2020. - С. 424 - 425.

6. Ведущие вузы объединили усилия по созданию инновационной образовательной площадки «STEAM Академии 2030» [Сайт]. - URL: https://pikabu.ru (дата обращения: 15.11.2021)

7. Т.В.Волосовец, STEM-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. Парциальная модульная программа развития интеллектуальных способностей в процессе познавательной деятельности и вовлечения в научно-техническое творчество: учебная программа / Т.В.Волосовец, В.А.Маркова, С.А.Аверин. - М.: Бином. Лаборатория знаний, 2019. - 112 с.

8. О.В.Морозова, STEAM-технологии в дополнительном образовании детей / О.В.Морозова, Е.С.Духанина // Баландинские чтения. - 2018. - С. 553 -556.

[60] О.В.Морозова, STEAM-технологии в дополнительном образовании детей / О.В.Морозова, Е.С.Духанина // Баландинские чтения. - 2018. - С. 553 -556.

TEXNIK OLIY O‘QUV YURTI TALABALAR BILIMINI AI YORDAMIDA BAHOLASHNI AVTOMATLASHTIRISH VA TA’LIMDA FOYDALANISHNING NAZARIY TAHLILI

D.A. Zaripova, M.Sh Salixova

Annotatsiya

Avtomatlashtirilgan baholash va qayta aloqa tizimlari zamonaviy ta’lim tizimida jadallik bilan rivojlanib kelmoqda. Ushbu maqolada ushbu tizimlar orqali baholashning samaradorligini qanday oshirish mumkinligi va baholash sifati qanday saqlab qolinayotgani tahlil qilinadi. Avtomatlashtirilgan tizimlar o‘qituvchilarga vaqtni tejash, obyektivlikni oshirish va talabalarga tezkor qayta aloqa berish orqali ta’limning sifatini yaxshilaydi. Qayta aloqa jarayoni orqali talabalarning o‘qish natijalari tez va samarali ravishda baholanadi. Maqolada avtomatlashtirilgan baholash va qayta aloqa tizimlarining afzalliklari va ularning ta’limdagi roli muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: *avtomatlashtirilgan baholash, qayta aloqa, baholash sifati, samaradorlik, ta’lim texnologiyalari.*

Abstract

Automated assessment and feedback systems are rapidly developing in the modern education system. This article analyzes how these systems can improve the efficiency of evaluation and how the quality of evaluation is maintained. Automated systems improve the quality of education by saving teachers time, increasing objectivity, and providing instant feedback to students. Through the feedback process, students’ learning outcomes are evaluated quickly and efficiently. The article discusses the advantages of automated assessment and feedback systems and their role in education.

Key words: *automated assessment, feedback, assessment quality, efficiency, educational technologies.*

Axborot doimiy ravishda yangilanib turadigan va katta hajmlarda mavjud bo‘lgan bugungi dunyoda baholashning samaradorligi va sifati muvaffaqiyatning asosiy omillariga aylanadi. Qo‘l mehnatiga asoslangan an’anaviy baholash usullari ko‘pincha ko‘p mehnat talab qiladi, ko‘p vaqt talab qiladi va sub’ektiv xatolarga yo‘l qo‘yadi. Avtomatlashtirilgan baholash va fikr-mulohazalar baholash jarayonini soddalashtirish, vaqt va resurslarni qisqartirish, natijalarning ob’ektivligi va aniqligini oshirish orqali ushbu muammolarni hal qilishni taklif qiladi. So‘nggi yillarda ta’lim texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan birga, avtomatlashtirilgan baholash va qayta aloqa tizimlari oliy ta’limda va boshqa ta’lim muassasalarida keng qo‘llanilmoqda. Bu tizimlar nafaqat ta’lim jarayonini optimallashtiradi, balki o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ham mustahkamlaydi. Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari javoblarni tezkor va aniq baholash imkonini beradi, bu esa inson omillarini kamaytiradi va baholash jarayonini standartlashtiradi (Johnson, 2021). Bu maqolada avtomatlashtirilgan baholash va qayta aloqa tizimlarining samaradorlikka ta’siri va baholash sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlil qilinadi.

Baholash jarayonining tezkorligi avtomatlashtirilgan baholash tizimlari o‘qituvchilar va ta’lim muassasalari uchun vaqtni sezilarli darajada tejash imkonini beradi. Talabalarning test savollariga javoblarini tezkor baholash avtomatlashtirilgan algoritmlar orqali amalga oshiriladi, bu esa qo‘l mehnatiga qaraganda tezroq va samaralidir. Masalan, ko‘p tanlovli savollar (MCQ) tizimlari talabalarning javoblarini bir necha soniyada tekshirishi mumkin (Smith et al., 2020).

Obyektivlik va aniqlikni oshirish inson orqali bajarilgan baholash jarayonida subyektivlik va xato qilish ehtimoli yuqori. Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari esa belgilangan me’yorlarga asoslangan bo‘lib, barcha talabalarning ishini bir xil mezonlar asosida baholaydi. Bu esa baholash jarayonining obyektivligini ta’minlaydi va natijalarning aniqligini oshiradi (Miller, 2019).

Baholash natijalarida standartlashuv Turli o‘qituvchilar baholashni turli yo‘sinda amalga oshirishlari mumkin. Avtomatlashtirilgan tizimlar barcha javoblarni standart baholash mezonlariga

asoslanib tekshiradi, bu esa natijalarning barqarorligini ta’minlaydi. Shu tariqa baholash natijalaridagi standartlikni saqlab qolish mumkin (Brown & Davis, 2018).

Ta’limda qayta aloqa tizimlari va ularning ta’lim jarayoniga ta’siri ham mavjud bo‘lib ular quydagilardan iborat bo‘lishi mumkin.

Talabalarga tezkor va aniq qayta aloqa talabalarning o‘z natijalarini tezkor olishi ta’lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari talabalarga baholarini darhol yetkazib, ularga o‘z xatolarini tezda tahlil qilish va o‘z bilimlarini kuchaytirish imkonini beradi (Lee et al., 2020). Bu tizimlar qaysi sohalarda talabaning muvaffaqiyatsiz bo‘lganini ko‘rsatib beradi va bu orqali ularga qaysi yo‘nalishlarda kuchliroq tayyorgarlik ko‘rish kerakligini tushuntirib beradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda qayta aloqa tizimlari har bir talabani yo‘naltirishga yordam beradi. Ushbu tizimlar orqali talabalarning muvaffaqiyatsizliklarini tahlil qilib, ularga maxsus o‘quv rejalarini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi (Williams, 2021). Bu usul talabalarga o‘z bilimlarini mustahkamlash va zaif tomonlarini yaxshilashga yordam beradi, shu bilan birga o‘qituvchilarga talabalarning muvaffaqiyatini kuzatishda yordam beradi.

Avtomatlashtirilgan baholash tizimlarining ta’lim samaradorligini oshirishda roli. Vaqtni tejash katta hajmdagi talabalarning ishini tez baholash avtomatlashtirilgan tizimlarning asosiy afzalliklaridan biridir. Odatda, o‘qituvchilar qo‘lda baholash jarayoniga ko‘p vaqt sarflaydi, lekin avtomatlashtirilgan baholash tizimlari bir vaqtning o‘zida ko‘plab javoblarni tahlil qilishi va baholashi mumkin (Parker, 2019). Bu esa o‘qituvchilarga o‘quv jarayoniga ko‘proq vaqt ajratishga imkon yaratadi.

Ta’lim sifatiga ta’sir avtomatlashtirilgan baholash tizimlari ta’lim sifatini oshirishda ham muhim o‘rin tutadi. Talabalarga o‘z natijalarini tezkor ko‘rish va qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini beradi, bu esa ularga o‘z bilimlarini tezkor tarzda yaxshilashga yordam beradi. Shu bilan birga, qayta aloqa tizimlari orqali talabalarga tavsiyalar berilgani sababli ular o‘zlari uchun zarur bo‘lgan bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi (Simpson & Harris, 2020). Avtomatlashtirilgan baholash tizimlarining chegaralari

Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari ko‘p afzalliklarga ega bo‘lsa-da, ularning ba’zi cheklovlari ham mavjud. Masalan, bu tizimlar inson mulohazasini talab qiladigan savollar, masalan esselar yoki ijodiy ishlar bilan ishlashda yetarlicha samarali bo‘lmasligi mumkin. Bunday hollarda inson o‘qituvchilarining ishtirokini talab qiladigan tuzatish jarayonlari paydo bo‘lishi mumkin. (Roberts, 2021).

Avtomatlashtirilgan baholash va qayta aloqa tizimlari ta’lim tizimida baholash jarayonini tubdan o‘zgartirdi. Ushbu tizimlar baholashning tezkorligi, aniqligi va obyektivligini ta’minlaydi, shuningdek, talabalarga tezkor va samarali qayta aloqa berish orqali ularning ta’lim jarayonini yaxshilaydi. Garchi avtomatlashtirilgan baholash tizimlari barcha turdagi savollar uchun to‘liq mos kelmasligi mumkin bo‘lsa-da, ularning ta’lim sifatini oshirish va samaradorlikni yaxshilashdagi ahamiyatini inkor qilib bo‘lmaydi. Kelgusida bu tizimlarni yanada takomillashtirish va inson mulohazasi bilan uyg‘unlashtirish ta’lim sifatini yanada yaxshilashi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Johnson, R. (2020). Automated Assessment Systems in Education. Educational Technology Review, 12(3), 45-56.

2. Smith, A., & Lee, J. (2021). Multiple Choice Question Systems: A Review of Automated Testing. Journal of Assessment Studies, 7(4), 89-102.

3. Miller, T. (2019). The Impact of Automated Grading on Educational Efficiency. Learning Innovations Journal, 9(2), 110-125.

4. Brown, S., & Davis, P. (2018). Ensuring Objectivity in Automated Assessment. Assessment & Evaluation in Higher Education, 14(1), 34-49.

5. Lee, J., Parker, M., & Simpson, H. (2020). Feedback and Student Engagement in Online Learning Environments. Journal of Digital Learning, 15(3), 78-91.

6. Williams, K. (2021). Personalized Feedback Systems in Modern Education. Technology and Learning, 22(5), 99-117.

7. Simpson, H., & Harris, L. (2020). The Role of Feedback in Academic Success. Journal of Educational Studies, 18(1), 56-73.

8. Roberts, T. (2021). Challenges of Automated Essay Scoring Systems. Journal of Pedagogical Research, 5(2), 142-159.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION TA’LIM METODLARI VA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Tursunov Diyor Sunnatovich

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, Jizzax DPU

Ataxanov Izzatbek Ergash o‘g‘li

Norbo‘tayev Abror Jahongir o‘g‘li

Maktab menejmenti yo‘nalishi 4-kurs talabalari, Jizzax DPU

Annotatsiya. *Maqolada Respublikamiz prezidentining talim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning zarurati haqida fikrlari va Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion ta’lim metodlari va mobil texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati shu bilan birga samarali foydalanish evaziga erishilishi mumkin bo‘lgan yutuqlar haqida keltilgan.*

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim, innovatsiya, mobil texnologiya,mobil ta’lim, interfaol metod, pedagog, virtual labaratoriya, klaster.*

Kirish

Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyarning kundalik hayotimizning asosiy qismini egallab borayotgan ushbu davrida ta’lim va tarbiyaning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Shuningdek mamlakatimizdagi ta’lim dargohlari xususan oliy ta’lim tashkilotlarida o‘quv dasturlarini, darsliklarini yangilash, o‘qituvchi pedagoglar malakasini muntazam oshirib borish zamon talabi darajasiga ko‘tarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 30-sentabr kunida “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” ga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida quyidagicha ta’kidlaydi: “Oliy ta’lim tizimining vazifasi faqat talabalarga dars berishdan iborat emas. Universitet va institutlarimiz ilm-fan sohasida ham faol ishlashi, yoshlarni ilmiy ishlarga, katta-katta loyihalarga jalb etishi kerak. Ushbu muassasalarda ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish maqsadida ilmiy-texnik dasturlar doirasida amalga oshiriladigan loyihalar ko‘lamini 3 barobar kengaytirish, doktoranturaga qabul kvotalarini 4 marta ko‘paytirish zarur.

Bugun «raqamli iqtisodiyot» degan tushuncha dunyoda eng dolzarb masalaga aylanganini barchamiz ko‘rib turibmiz. Ayni paytda axborot texnologiyalari sohasida chuqur bilim va malakaga ega bo‘lgan, ulardan unumli foydalana oladigan zamonaviy mutaxassislar milliy iqtisodiyotimiz uchun nihoyatda zarur. Barchamiz bu masalani chuqur anglagan holda, shu maqsadga erishish uchun jiddiy harakat qilishimiz shart. Bu ishga bugun kirishmasak, ertaga kech bo‘ladi”[61].

Bugungi kunda O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan sharoitda Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion ta’lim metodlari va texnologiyalarini samarali qo‘llash orqali ta’lim jabhasida raqobatni shakllantirish va yuqori darajali sifatga erishish imkoniyati yaratildi.

Statistik ma’lumotlarga nazar soladigan bo‘lsak Respublikamizda Oliy ta’lim muassasalari soni 210 tani tashkil qilib, ulardan 114 tasi davlat oliygohlari, 67 tasi nodavlat oliygohlari, 29 tasi esa xorijiy oliy ta’lim muassasalari hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor o‘qituvchilar soni 44 250 nafarni, talabalar soni esa 1 473 452 nafarni tashkil qiladi. Bular

[61] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 30-sentabr kunida “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” ga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.

shunchaki oddiy raqamlar sifatida namoyon bo‘lishi mumkin, ammo bu raqamlarning mamlakatimiz kelajagiga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda.

Oliy ta’lim tizimida an’anaviy ta’lim metodlaridan yetarlicha va ortig‘i bilan foydalandik. Talabalar tayyor bilimlarni egallashga va yod olishga o‘rgatib kelindi. Afsuski ayrim joylarda bunday metodlar asoratlari hanuz saqlanib qolgan. Bu tarzdagi o‘qitish metodlari talabalardagi mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish va tashabbuskorlikni so‘ndiradi. Oliy ta’lim muassasalarida eski an’anaviy uslubdagi darslar yoshlarning ilm olishga bo‘lga ehtiyojini qondirmaydi, bunday darslarni tinglagisi kelmaydi. Chunki, fikrlash va tafakkur boshqa, aynan biror fan bo‘yicha bilimga ega bo‘lish boshqa. Fikrlash va tafakkur tabiiy aql mahsuli, bilim olish esa -bu ta’lim muassasi, o‘qituvchi-pedagog faoliyati mahsuli. Agar pedagog yoshlar bilan hamnafas fikrlamasa, zamon yangiliklariga va talablariga yoshlardanda tezkor bo‘lmasa, uning ta’lim-tarbiya sohasidagi faoliyati samarasiz bo‘lib qoladi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bu metodlar talabalarning dars jarayonida faol ishtirok etishlarini ta’minlaydi. Masalan, guruhli muhokamalar, rolli o‘yinlar va loyihalar orqali talabalar o‘z bilimlarini mustahkamlashadi. Innovatsion klaster usulida ta’lim jarayonida turli xil innovatsion texnologiyalar birgalikda qo‘llaniladi. Misol tariqasida rivojlangan mamlakatlardan biri Yaponiyaning ta’lim tizimida foydalanadigan virtual labaratoriya texnologiyalarini keltirishimiz mumkin. Bu usul ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi, talabalar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytiradi va texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar talabalar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

Ta’limning bugungi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot — ta’lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko‘rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash va axborot oqimini filtrdan o‘tkaza olish, undan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iborat[62]. So‘nggi yillarda ta’lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnalogiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta’lim beruvchi tomonidan o‘zlashtirilib va qo‘llanib borilishi ta’lim mazmunini tubdan o‘zgartirib yubordi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’limni samarali tashkil qilish uchun xozirda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining turli vositalaridan foydalanish mumkin. Jumladan, elektron kurslar, elektron ta’lim tizimlari, video ma’ruzalar, vebseminarlar, elektron testlar va boshqalar. Bu vositalardan tashqari, hozirgi vaqtda zamonaviy va ixcham mobil texnologiyalar xam mavjud.

Talabalarning aksariyati ta’limda mobil texnologiyalardan foydalanishga texnik va psixologik jihatdan tayyor bo‘lib, mobil qurilmalar va texnologiyalarning imkoniyatidan yanada samarali foydalanish uchun yangi imkoniyatlar yaratish zarur. Buning uchun mutaxassis o‘qituvchilar tomonidan tashkiliy ishlar, talabalarni ta’limda mobil ta’limdan foydalanishning imkoniyatlari, shakllari va usullarini joriy etish bo‘yicha ilmiy va uslubiy ishlarini ishlab chiqish talab qilinadi. Oliy ta’lim muassasalarida mobil qurilmalardan foydalanishning bir qator usullari mavjud:

- multimediali o‘qitish veb-resurslari (audio fayllar, videofilmlar, podkastlar, grafikalar, xaritalar, rasmlar) ishlab chiqish uchun;
- o‘quv saytlari, resurslar, kataloglar, lug‘atlarga tezkor kirishni ta’minlash;
- haqiqiy ta’lim vositasi sifatida mobil aloqa platformalari uchun moslashtirilgan o‘quv materiallarini ishlab chiqishni ta’minlash (SMS-testlar, o‘quv qo‘llanmalari va mobil ilovalarga asoslangan yo‘riqnomalar).

[62] Karimjanova Madina. Ta’lim jarayonida yangi metod va usullardan foydalanish

Bugungi kunda mobil ta’lim talabalarga yangi aloqa va hamkorlik vositalarini taqdim etmoqda. Pedagogik nuqtai nazardan, bilimlarni o‘zlashtirishda talabalar o‘z-o‘zini o‘qitish vositasi sifatida mobil ta’limdan foydalanadilar. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalarida mobil ta’limni rivojlantirish uchun bir qator qadamlar qo‘yilishi kerak. Bular quyidagicha:

- ta’limni noan’anaviy tarzda tashkil etish, norasmiy yoki kundalik muhitda mobil o‘quv vositalaridan foydalanib o‘quvchilar o‘zini o‘zi anglashga intilishlarini rag‘batlantirish;
- talabalar bilim va tajriba almashishlari uchun mobil texnologiyalardan foydalanish;
- mobil ta’limni joriy etish uchun ta’lim muassasalari bilan birga ma’muriy va huquqiy standartlarni yaratish;
- shaxsiy mobil qurilmalar bilan o‘z o‘quv uslublarini muntazam takomillashtiradigan o‘qituvchilarni rag‘batlantirish;

Mobil ta’limdan foydalanish uchun o‘quvchilarning mustaqil faoliyati uchun motivatsiyasini oshirish kerak.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki innovatsion ta’lim metodlari va texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonlarini takomillashtirish va talabalarning bilim darajasini oshirishimiz, ta’lim sifatini yanada takomillashtirish va talabalarni zamonaviy bilimlar bilan ta’minlash, zamonaviy va erkin fikrlashga o‘rgatish, nafaqat ichi balki tashqi raqobatni ham shakllantirish evaziga mamlakatimizdagi ta’lim nufuzini oshirishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Angelin Victor, Lina Dias, Teaching and Learning with Mobile Devices in the 21st Century Digital World: Benefits and Challenges. // European Journal of Multidisciplinary Studies. - 2017. Volume 2, Issue 5.P-339-344.

2. Barahona, Jose Retos, Oportunidades de la tecnolog^a movil en la education fisica. Challenges and opportunities of mobile technology in physical education. Retos: nuevas tendencias en education fisica, deporte y recreation. (2020). [Electronic resourse] www.researchgate.net/publication/334625774

3. David Parsons. The Future of Mobile Learning and Implications for Education and Training, Chapter: 16. Publisher: 217-229 pp. (2014) [Electronic resourse] www.researchgate.net/publication/270741082.

4. Montrieux H, Vanderlinde R, Schellens T, De Marez L (2015) Teaching and Learning with Mobile Technology: A Qualitative Explorative Study about the Introduction of Tablet Devices in Secondary Education. PLoS ONE 10(12): e0144008. [Electronic resourse] doi:10.1371/journal.pone.0144008.

5. Peter Aubusson, Sandy Schuck & Kevin Burden Mobile learning for teacher professional learning: benefits, obstacles and issues, ALT-J, 2009.-P.233-247. [Electronic resourse] https://doi.org/10.1080/09687760903247641.

6. Горюнова Л. В. Мобилность как принцип модернизации высшего педагогического образования // Известия Южного федерального университета. Педагогические науки. - 2013. - № 6. - С. 31-36.

Internet saytlari:

1. www.xabar.uz
2. www.e-library.sammu.uz
3. www.edu-time.ru
4. www.stat.edu.uz

BOSHQARUV AMALIYOTIDA HR-MENEJMENT: MUHIM AHAMIYATI VA ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

Ablyakimova Refide Izmerovna
Maktab menejmenti kafedrasi katta o‘qituvchisi, Jizzax DPU
Abduxoliqova Marjona Ixtiyor qizi
Toshpulatova Ismigul Asqarovna
Maktab menejmenti yo‘nalishi 3-kurs talabalari, Jizzax DPU

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshqaruv amaliyotidagi dolzarb muammolar, xususan, hozirgi globallashuv kontekstida muhim o‘rin egallagan HR-menejmentning xususiyatlari, boshqaruv matritsasidagi zamonaviy yo‘nalishlari va ahamiyati atroflicha tahlil qilinadi. Hamda eksponensial taraqqiyot, siyosiy-ijtimoiy tendensiyalar, keng miqyosdagi integratsiya, barcha sohalarda amalga oshirilayotgan yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, innovatsiyalarni joriy qilish xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *menejment, boshqaruv san’ati, kompetensiya, matritsa, HR menejment, moslashuv, jamoa, sog‘lom muhit, timbilding, kontekst.*

Аннотация

В данной статье подробно анализируются актуальные проблемы в практике управления, в частности, особенности HR-менеджмента, который занимает важное место в условиях современной глобализации, современные тенденции и значение в матрице управления. Также обсуждаются экспоненциальное развитие, политические и социальные тенденции, масштабная интеграция, освоение новых технологий во всех сферах, внедрение инноваций.

Ключевое слово: *менеджмент, искусство управления, компетентность, матрица, управление персоналом, адаптация, команда, здоровая среда, командообразование, контекст.*

Abstract

In this article, current problems in management practice, in particular, the characteristics of HR-management, which occupies an important place in the context of current globalization, modern trends and importance in the management matrix are analyzed in detail. Exponential development, political and social trends, large-scale integration, assimilation of new technologies in all areas, introduction of innovations are also discussed.

Key word: *management, art of management, competence, matrix, HR management, adaptation, team, healthy environment, team building, context.*

Kirish.

Hozirgi taraqqiylashuv davrida keng miqyosda yangilanayotgan asosiy jabhalardan biri bo‘lgan boshqaruv san’ati shaxslar, ijtimoiy guruhlar, mehnat jamoasining maqsad-vazifalarini samarali bajarishga oid faoliyatning izchilligini ta’minlash, belgilangan muayyan maqsadni amalga oshirilishida ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatdir. Xususan, mazkur kontekstda innovatsion tafakkurga ega, tashabbuskor, lider, o‘z ishining ustasi va xarizmatik rahbarlarni tayyorlash tizimini yaratish yangilanayotgan O‘zbekistonning istiqbolli strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Va barcha sohalardagi kabi yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilish – zamonaviy menejment – ijtimoiy boshqaruv tizimi oldiga ham yangi talab va shartlarni qo‘ymoqda. Aynan, mana shundey jarayonlarning asosida barcha uchun yanglikka aylanib ulgurgan HR-menejment yotadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

HR menejment *(inglizchadan olingan so‘zlar qisqartmasi bo‘lib, Human Resource - inson resurslarini boshqarish ma’nosini anglatadi)* – bu muayyan jamoaning kadrlar siyosatini shakllantirish, kadrlarni to‘g‘ri tanlash, joy-joyiga qo‘yish, ular bilan ishlash tizimi. Xususan,

samarali boshqaruvning muhim omillaridan biri barcha tomonidan qabul qilingan aniq maqsadlar qo‘yish va uni amalga oshirishni rejalashtirish hisoblanib, bunda HR-menejment juda muhim rol o‘ynaydi. Chunki foydali mijozlar, foydali bitimlar olib keladigan va osmono‘par binolar quradigan - bu xodimlardir. HR-menejent boshqaruvning muhim obekti bo‘lgan xodimlarni qanday topish va saqlab qolish, umuman olganda, xodimning kompaniyada qolishini imkon qadar qulay va samarali qilishdir. Kichik mehnat jamoalarida bu ishlarni menerlar ham eplay olishadi, ammo katta mehnat jamoalarida ularning ishlari chalkashib ketadi va HR bo‘yicha mutaxassislarga ehtiyoj seziladi.Hamda bu kasblarga bo‘lgan talab yildan-yilga ortib bormoqda.

Zamonaviy HR quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- tashkilotning kadrlar siyosatini shakllantirish;
- rekrutment, head-hunting – kerakli kadrlarni izlab topish, tanlash va joy-joyiga qo‘yish;
- jamoada sog‘lom psixologik muhitni saqlash;
- xodimlar mehnatini tashkil etish;
- kadrlar samaradorligini ta’minlash;
- xodimlarni ish jarayoniga moslashtirish;
- xodimlarni kasbiy kompetensiya va zarur ko‘nikmalarga o‘rgatish;
- motivatsiya, kompensatsiya, imtiyozlar tizimini ishlab chiqish;
- kadrlar zaxirasini yaratish;
- kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish;
- xodimlarning malakasini oshirish, professional qo‘llab-quvvatlash;
- onbording;
- xodimlarni rag‘batlantirish.

Nazariy asoslari.

Bu holatda ifodalangan onbording – yangi xodimni tashkilotga va uning madaniyatiga qo‘shilish jarayoni, xodimlar adaptatsiyasi, kasbiy sotsializatsiya. Onbording yangi xodimning tashkilotning samarali a’zosi va insayderiga aylanishi uchun zarur bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga ega bo‘lishi, sohaga oid korporativ o‘qish, timbilding, kadrlar malakasini oshirish faoliyatini yo‘lga qo‘yishni nazarda tutadi. Aynan, HR-menejerlarga katta mas’uliyat yuklangan bo‘lib, ular maqsadlarga maksimal ravishda erishish uchun xodimlarni olg‘a safarbar etadi va boshqalar.

HR menejerning umumiy mas’uliyatiga quyidagilar kiradi:

- Xodimlarning motivatsiyasi,
- Kadrlar moslashuvi,
- Korporativ tadbirlarni tashkil etish,
- Xodimlarni jalb qilish.

Muhokama.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida boshqaruv sohasining takomillashuvida HR-menejment asosiy rolni egallaydi va bu xodimlar bilan ishlashda juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Ammo, O‘zbekistonda aksincha bo‘lib, ko‘plab kichik boshqaruv sohalarida HR-menejer faoliyatini, xodimlar bilan bog‘liq barcha jarayonlarni menejer bajaradi va o‘z navbatida unga katta yuklama yuklatiladi. Vaholanki, har tomonlama salohiyatli menejerlar buni uddalashi mumkin, biroq vaqt o‘tkach unda katta zo‘riqish vujudga keladi va psixologik-fiziologik jihatdan imkoniyatlari chegaralanib qoladi. Xususan, shunday vaziyatni to‘g‘ri pragnozlashtirgan rahbarlar HR-menejerga bo‘lgan ehtiyojni imkon qadar qondirmoqdalar.

Endi esa, boshqaruv matritsasidagi HR-menejmentning zamonaviy faoliyat yo‘nalishlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, ular quyidagicha:

1. Ishga qabul qiluvchi. Avvalo, ular ish resurslari bo‘yicha rezyumeva suhbatlarni kuzatib boradi, intervyular va testlar o‘tkazgach, kompleks yondashgan holda tanlaydi. Bu yerda aynan ishga qabul qiluvchining yelkasida katta mas’uliyat yotadi, chunki u nomzodni keyingi o‘rinlarda tavsiya qilish yoki bermaslik to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Xususan, ular ko‘plab kasblarning mohiyatini o‘rganadilar, marketologlar, menejerlar yoki bosh direktorlarning ko‘plab vakolatlarini tushunadilar.

2. Tadqiqotchi. Shu o‘rinda ular nafaqat xodimni ishga qabul qilish jarayonida, balki keyingi etaplarda ham har tomonlama o‘rganadilar va tahlil etadilar.

3. Kadrlar bo‘limi inspektori. Bo‘sh ish o‘rniga munosib xodim topildi va ishga olindi, keyingisi nima? Birinchi ish kunimi? Albatta, bu holatda xodim ro‘yxatga olinishi kerak va kadrlar hisobi bilan shug‘ullanadigan va kadrlar yozuvlarini yurituvchi mutaxassis bu yerda aynan kadrlar bo‘limi inspektiridir. Shuningdek, ular ishga olish, ishdan bo‘shatish, xodimlarni bir bo‘limdan boshqasiga o‘tkazish, kasallik ta’tillari va ta’tillar bilan ham shug‘ullanishadi.

4. C&B mutaxassisi (kompensatsiya va imtiyozlar menejeri). Bevosita xodimlarni baholaydi. Xodimlarda rivojlanish va kompaniyada ishlash uchun qo‘shimcha motivatsiya borligiga ishonch hosil qiladi va buning tegishli choralarini ko‘radi.

5. T&D menejeri (trening va rivojlantirish). Tashqi masalalar bilan shug‘ullanadi va ichki xodimlarni rivojlantirish va qayta tayyorlash masalalarini rejalashtiradi. U kelajakdagi potentsial rahbarlarni aniqlaydi, ulardagi etishmayotgan kompetentsiyalarni shakllantiradi va ularni rivojlantiradi. Uning mas’uliyat sohasi barcha xodimlarning o‘z kasbidagi so‘nggi o‘zgarishlarni bilishini ta’minlashdan iborat.

6. Ish beruvchi brend menejeri. Bu erda HR, SMM, PR va umuman marketing bo‘yicha bilimlar muhim ahamiyatga ega.

7. Karyera maslahatchisi. Xodimlarga kasbiy salohiyatini kashf qilishdagi asosiy yordamchi. Bu jarayonda xodimga ko‘tarilish yoki yangi lavozimga o‘tish uchun qanday vakolatlarga ega bo‘lmasligini aniqlashga yordam beradi va individual rivojlanish xaritasini tuzadi va muayyan hududga moyilligini aniqlashga yordam beradi.

8. HR xodimlari bo‘yicha hamkor. U barcha xodimlarning yaqin do‘sti hisoblanadi va ularga har tomonlama o‘z ko‘mak qo‘llarini uzatadi.

9. HR biznes hamkori. Ko‘p tarmoqli yirik boshqaruv sohalarida ko‘proq tarqalgan bo‘lib, kadrlar bo‘limi va rahbariyat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatadi. Shuningdek, jarayonlarni avtomatlashtirish va optimallashtirish bilan shug‘ullanadi. Xodimlar va menejer o‘rtasidagi ziddiyatli vaziyatlarda vositachi sifatida ishlaydi va ularga oqilona yechim taklif etadi.

Xulosa.

Yuqorida aytib o‘tilgan zamonaviy boshqaruvning muhim yo‘nalishlaridan biri HR-menejment faoliyatini samarali tashkil etishning ba’zi jihatlariga to‘xtaldik. Ularni to‘g‘ri anglash, qabul qilish, boshqaruv amliyotiga ularni tatbiq etish boshqaruvda ijobiy yutuqlarni qo‘lga kiritishga asos bo‘ladi. Va bu borada rahbarlardan talab qilinadigan shartlar: yuqori malakali HR-menejerni toppish, aksincha hollarda, mavjud menejerlarni HR sohasi bo‘yicha qayta tayyorlash, o‘qitish va kerakli salohiyatlarni shakllantirish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rogojin M. Yu. Xodimlarni boshqarish. Zamonaviy kadrlar ishidagi eng dolzarb masalalar bo‘yicha 100 ta savol va javoblar: amaliy qo‘llanma / M.Yu. Rogojin - Berlin: Direct-Media, 2014. - 176 p.

2. Tsyrenova A. Menejment: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Ulan-Ude: VSTU nashriyoti, 2006. – B. 114.

3. "Human Resources Manager". CNN Money. 2006. Retrieved 23 December 2011.

4. https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/korhonaga_tajribali_hr-menejer_kerak_bulsa

5. https://prof.maktab.uz/professions/29

6. https://smart-hr.uz/

OLIY TA’LIMDA MARKETING FAOLIYATINI STRATEGIK REJALASHTIRISH

Akmalova Mohinur
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya:
Ushbu maqolada oliy ta’limda marketing faoliyatining strategik rejalashtirish jarayoni va asosiy yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *boshqaruv kompetensiya, ta’lim tizimi, bilim, sifatli ta’lim xizmatlari, innovatsiyalar va texnologiyalar*

Abstract:
This article examines the strategic planning process and main directions of marketing activities in higher education.

Key words: *management competence, educational system, knowledge, quality educational services, innovations and technologies*

Абстрактный:
В данной статье рассматриваются процесс стратегического планирования и основные направления маркетинговой деятельности в сфере высшего образования.

Ключевые слова: *управленческая компетентность, система образования, знания, качество образовательных услуг, инновации и технологии.*

Oliy ta’lim muassasalari bugungi kunda tezkor o‘zgarishlar va raqobat sharoitida faoliyat yuritmoqda. Talabalar uchun eng yaxshi ta’lim muassasasini tanlash jarayoni esa murakkab va ko‘p jihatdan shaxsiy xususiyatlarga bog‘liq. Shu sababli, oliy ta’limda marketing faoliyatini strategik rejalashtirish, nafaqat talabalarni jalb qilish, balki ularning qoniqishini ta’minlash uchun ham zarurdir. Ushbu maqolada oliy ta’limda marketing faoliyatining strategik rejalashtirish jarayoni va asosiy yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi.

Zamonaviy oliy o‘quv yurtlari (OTM) butun dunyo bo‘ylab minglab talabalar uchun qiziqarli, ijodiy dasturlarni taklif etadi. Oliy ta’lim sanoati ijodkorlikni rivojlantirish, o‘qitish va malaka va darajalar uchun ishga joylashish bilan belgilanadi. Raqobatbardosh marketing strategiyalaridan foydalanmasdan, talaba ro‘yxatga olish raqamlari ko‘pincha kutganlarni qondirish va undan oshib ketish uchun kurashadi. Aynan shuning uchun ilg‘or ta’lim tashkilotlari o‘zlarining asoslarini saqlab qolish va o‘qishni alohida va jozibador qilish uchun ijodiy marketing bo‘yicha mutaxassislarni jalb qilmoqdalar. Universitetlar jurnal va varaqalar kabi an’anaviy usullardan o‘tmoqda. Ular, aksincha, aktivlarni doimo rivojlanib borayotgan kompyuterlashtirilgan reklama sahnasi bilan gaplashishga undamoqda. U yerda ular o‘z dasturlarini tushunishni tezda kengaytirishda yanada keng qamrovli va e’tiborga loyiq salohiyatga ega bo‘lishlari mumkin. Bugungi kunda oliy ma’lumotli marketologlar duch keladigan o‘ziga xos muammolar mavjud, masalan, cheklangan marketing resurslari, ommaviy axborot vositalarining haddan tashqari yuklanishi, oldingi ma’lumotlarga asoslangan tasvir va boshqalar. Bundan tashqari, har yili universitetga abituriyentlar yangi hayot siklini boshlaydilar. Binobarin, oliy ta’lim bozori mutaxassislari yangi maqsadli auditoriyaga duch kelishlari kerak. Shu sababli, universitet to‘g‘ri auditoriyaga to‘g‘ri xabarni yuborishini ta’minlash uchun asoslarni qayta ko‘rib chiqish bilan birga, eng so‘nggi marketing strategiyalari va tendentsiyalarini aniqlash muhimdir. Bunday sharoitda oliy ta’lim muassasasi uchun raqobatbardosh bozor mavqeini yaratish uchun u marketing kontseptsiyasi va falsafasini o‘zlashtirib olishi hamda bozor ko‘rsatkichlari nuqtai nazaridan o‘z strategiyasi va faoliyatini yaratishi zarur. Maqolaning maqsadi mijozlarga asoslangan ta’lim kun tartibida oliy ta’lim muassasasida qo‘llanilishi kerak bo‘lgan ba’zi marketing strategiyalarini o‘rganishdir.

Bugungi raqobat muhitida talabalar o‘zlarining noyob ehtiyojlari va intilishlarini qondiradigan muassasalarni izlaydilar. Marketingda shaxsiylashtirish moslashtirilgan aloqa va tajribalarni o‘z ichiga oladi. Kollejlar va universitetlar bo‘lajak talabalarni yaxshiroq tushunish

uchun ma’lumotlar tahlilidan foydalanmoqda, bu ularga moslashtirilgan marketing xabarlarini yaratish va tushuntirish ishlarini olib borish imkonini beradi.

Misol: Talabalarning o‘zaro munosabatlarini kuzatish uchun CRM tizimlaridan foydalangan holda, muassasalar talabaning qiziqishlari va martaba maqsadlariga mos keladigan dasturlarni ta’kidlaydigan maqsadli elektron pochta xabarlarini yuborishi mumkin.

Raqamli marketingdan foydalanish

Ijtimoiy media va raqamli platformalarning ko‘tarilishi bilan oliy ta’lim marketingi onlayn rejimga o‘tdi. Institutlar raqamli marketing strategiyalariga sarmoya kiritmoqda, jumladan: Ijtimoiy media kampaniyalari: Instagram, TikTok va LinkedIn kabi platformalar orqali bo‘lajak talabalar bilan hamkorlik qilish jamiyatni yaratishga va kampus hayotini namoyish etishga yordam beradi.SEO va kontent marketingi: Bloglar va videolar kabi qimmatli tarkibni yaratish institutlarga qidiruv ko‘rinishini yaxshilashga va organik trafikni jalb qilishga yordam beradi.

Brend identifikatorini oshirish.

Kuchli, taniqli brend talabalarni gavjum bozorga jalb qilish uchun juda muhimdir. Oliy ta’lim muassasalari o‘zlarining qadriyatlari, missiyasi va noyob takliflarini aks ettirish uchun o‘zlarining brending strategiyalarini qayta ko‘rib chiqmoqdalar.

Misol: Maktablar logotiplarni qayta loyihalashtirmoqda, veb-saytlarni yangilamoqda va maqsadli auditoriya bilan rezonanslashadigan, xilma-xillik, innovatsiyalar va jamiyatga ta’sir ko‘rsatadigan yaxlit xabar almashishni rivojlantirmoqda.

Natijalar va ROIga e’tibor qaratish

Bo‘lajak talabalar institutlarni ish bilan ta’minlash darajasi va bitiruvchilarning muvaffaqiyati kabi natijalarga qarab baholaydilar. Investitsiyalar rentabelligini (ROI) ta’kidlash uchun institutlar o‘zlarining marketing strategiyalarini isloh qilmoqdalar.Ma’lumotlarning shaffofligi: Bitiruv stavkalari, bandlik statistikasi va ish haqi natijalari to‘g‘risida aniq ma’lumotlarni taqdim etish ishonchni oshirishi va o‘z ta’limida qiymat izlayotgan talabalarni jalb qilishi mumkin.

Jamiyat ishtirokini kuchaytirish

Mahalliy hamjamiyat va korxonalar bilan aloqalarni o‘rnatish muassasaning ko‘rinishi va jozibadorligini oshirishi mumkin. Marketing islohotlari endilikda jamoatchilik bilan aloqalar, hamkorlik va hamkorlik strategiyalarini o‘z ichiga oladi.Hamkorlik dasturlari: Institutlar talabalar muvaffaqiyati va mahalliy iqtisodiy rivojlanishga sodiqligini ko‘rsatib, amaliyot va ish o‘rinlarini yaratish uchun mahalliy korxonalar bilan hamkorlikni rivojlantirmoqda.

Oliy ta’lim landshafti rivojlanishda davom etar ekan, marketing islohotlari institutlar uchun raqobatbardosh va dolzarb bo‘lib qolishi uchun zarurdir. Shaxsiylashtirishni qo‘llash, raqamli vositalardan foydalanish, natijalarni ta’kidlash va jamoalar, kollejlar va universitetlar bilan hamkorlik qilish orqali talabalarni samarali jalb qilish va saqlab qolish mumkin. Ushbu o‘zgarishlarga moslashish nafaqat muassasalarga foyda keltiradi, balki umumiy ta’lim tajribasini oshiradi, natijada talabalarni kelajakdagi martabalarida muvaffaqiyatga tayyorlaydi.

Oliy ta’lim muassasalari o‘zlarining joriy marketing strategiyalarini baholashlari va bo‘lajak talabalar bilan yaxshiroq aloqa qilish uchun ushbu islohotlarni amalga oshirishni ko‘rib chiqishlari kerak. Innovatsion marketing yondashuvlariga ustunlik berish orqali maktablar yanada dinamik va sezgir ta’lim muhitini yaratishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sharipov Sh.S. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. – T.: TDPU, 2005. – 70 b
2. G.Abduraxmonova Inson resurslarini boshqarish. 2021 – yil
3. Shin, J. (2015). Strategies for Higher Education Marketing. Journal of Marketing for Higher Education.
4. S.G‘ulomov va G‘.Qosimov. Strategik va innovatsion menejment. Darslik. 2013

КАСБИЙ ЙЎНАЛИШНИ АНИҚЛАШ КАСБ ТАНЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА

Мажидов Н.М.
Ўзбекистон Миллий Университети доценти

Аннотация:
Мақолада ўрта умумий таълим мактабида касбий йўналишни аниқлаш муаммолари, ота-оналар ва педагогик жамоанинг касб танловидаги роли ҳамда уларнинг салоҳиятини ривожлантириш масалалари кўриб чиқилган. Касбий йўналишнинг асосий тушунчалари ўрганилган, касб танлашдаги мавжуд муаммолар ва психолог-педагог томонидан ўқувчиларга ўзини ўзи аниқлаш, касбий кўникмаларни ривожлантириш ва келажакдаги касбий фаолиятни танлашда кўмак беришдаги ёрдами таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: *мактаб, ўзини ўзи аниқлаш, келажак, карьера, касбий йўналиш, таълим, муаммолар, қобилиятлар, касбий фаолият.*

Ҳозирги жамиятда ўқувчилар дуч келадиган муаммолардан бири келажакдаги касб танлашдаги ноаниқлик ва ўз мақсадларини аниқлашдир. Кўпгина ўқувчилар ким бўлишни хоҳлашларини яхши тушунмайдилар. Уларни касбий йўналишни аниқлаш масалаларини ҳал қилишга кўмаклашувчи қатор йўналишлар ажратиш мумкин. Улар қуйидагиларни ўз ичига олади: касбий йўналиш тизими, ўқувчиларга касблар дунёсида йўналиш олиш учун зарур бўлган билимларни бериш, ўз шахсий хусусиятларини объектив баҳолаш кўникмалари ва индивидуал ёрдам кўрсатиш учун шахсиятни диагностик тадқиқ қилиш методикалари.

Касб танлови инсон ҳаётидаги энг муҳим қарорлардан биридир, чунки ҳамма иш ўз қизиқишларига ва қобилиятларига мос бўлиши, қувонч келтириши ва яхши ҳақ тўланишини хоҳлайди. Касб танловига кўплаб омиллар таъсир қилади – булар шахсий қизиқишлар, қобилиятлар, дўстлар ва ота-оналарнинг фикри. Касб танлашдаги энг жиддий тўсиқлардан бири турли мутахассисликлар ва ўқув муассасалари тўғрисидаги маълумотларнинг етишмаслигидир.

Кўпгина ота-оналар ўз фарзандининг келажаги ҳақида ўйлар экан, унинг қизиқишлари ва қобилиятларини ҳисобга олмайдилар, аксарият ҳолларда касбнинг нуфузи ва даромадлилигига кўпроқ эътибор қаратадилар. Ўқувчилар эса кўпинча мода ёки дўстлар ва кумирлар таъсирида йўналишни нотўғри танлайдилар.

Шунингдек, ота-оналар ва ўқувчиларнинг касблар тўғрисидаги маълумотларининг етишмаслиги ҳам муаммолардан биридир. Улар айрим мутахассисликларга эътибор қаратмайдилар, чунки бу мутахассислар нималар билан шуғулланишларини билмайдилар.

Ўрта мактаб ўқувчилари учун касб танлаш - бу ўз тақдирини ўзи белгилаш, ўз манфаатларини, қобилиятини ва ҳаётий устуворликларини таҳлил қилиш билан боғлиқ бўлган мураккаб психологик жараён. Психологларнинг таъкидлашича, бу ёшда ўсмирлар кўпинча ота-оналар, тенгдошлар ёки ижтимоий муҳитнинг босими туфайли юзага келиши мумкин бўлган ички низоларга дуч келишади.

Касб танлашда ноаниқлик ҳам кўпинча хато қилиш ва нотўғри мутахассисликни танлаш қўрқуви билан бирга келади. Психологлар ва педагогик психологлар талабаларни ушбу йўлда қўллаб-қувватлашда, уларнинг кучли ва мойилликларини яхшироқ тушунишда муҳим рол ўйнайди. Бу нафақат уларнинг қобилиятларини баҳолаш, балки турли мартаба йўлларининг мумкин бўлган хавфлари ва истиқболларини муҳокама қилиш учун ҳам муҳимдир.

Жорий шароитларда касбий йўналишни аниқлаш ўз мақсадларига етиша олмаётганлиги ва ҳануз долзарб тадқиқот мавзуси эканлиги аниқланди. Касбий йўналишни аниқлашнинг асосий мақсадлари ўқувчиларнинг касбий ўзини ўзи аниқлашларини шакллантириш, уларнинг шахсий хусусиятларига мос равишда йўналтириш ва жамият эҳтиёжларига мос кадрларни тайёрлаш ҳисобланади.

Ҳисоботларга кўра, сўровда қатнашганларнинг тахминан 75% келажакдаги касбини танлашда тенгдошларининг танловига ёки ота-оналар ва ўқитувчиларнинг маслаҳатларига қулоқ солган ҳолда қарор қабул қиладилар ёки барча масъулиятни ДТМ натижаларига юклайдилар. Баъзилар олий ўқув юртини уйларига яқин масофада танлайдилар. Шунингдек, 50% ўқувчилар ўз касбининг моҳияти ва унинг мақсади тўғрисида тушунчага эга эмаслар. Яна 60% ёш мутахассислар ишнинг биринчи йилидан сўнг касбий фаолиятини ўзгартиришни хоҳлайдилар. Фақат 17% ўқувчилар мактаб давридаёқ ўз касбини танлайдилар. Бу фактлар мактабнинг касбий йўналишни аниқлашдаги муҳим ролини тасдиқлайди.

Ўқувчиларнинг касбга йўналтириш натижалари уларнинг қобилиятлари орқали амалга ошириладиган имкониятларни очиб беради. Бу нафақат ўқувчининг натижаларига, балки уларга эришиш йўлларига ҳам тегишлидир. Юқори сифатли касбий йўналиш – бу ўқувчининг келажакдаги касбий ўсиши, ижтимоий аҳамиятга эга касбни танлаш, ва қўшимча таълим олиш имкониятидир.

Мактаб фаолиятида касбий йўналиш бўйича ишлар муҳим ўрин тутади, чунки у таълим тизимини мамлакатнинг иқтисодий тизими билан боғлайди, ўқувчиларнинг эҳтиёжларини келажаклари билан боғлайди. Педагогик ва психологик жиҳатлар касбий йўналишнинг асосий тадқиқот мавзулари бўлиб, уларни Жеребин В.М., Синявский В.В., ва Климов Е.А. каби олимлар ўрганган.

Ҳозирги кунда интернетда ўқувчиларнинг касбий йўналишини аниқлаш учун турли тестлар таклиф қиладиган веб-сайтлар жуда кўп, лекин кўпинча нотўғри талқин қилинади. Келажакда мактабда касбий йўналишни аниқлаш янада юқори даражага кўтарилиши ва ўқувчилар нафақат келажакдаги касбнинг тавсифини ўқиш, балки иш жараёнини "ички томондан" кўриш ва ушбу соҳадаги тажрибали мутахассислар билан мулоқот қилиш имконига эга бўлишини умид қиламиз.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Н.Мажидов. Факторы, влияющие на креативный выбор профессии учителя./ Педагогическое образование и наука. Научно-методический журнал № 6, 2021. Ст. 103-107

2. Н.Мажидов. Самостоятельные изучения профессии учащихся. Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в xxi веке». Выпуск №20 (том 2) (ноябрь, 2021). Дата выхода в свет: 30.11.2021. Ст. 877-882

3. Н.Мажидов. Роль профессиографической беседы в выборе профессии. “O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar” jurnali «Best publication» ilm-ma’rifat markazi © materiallari to‘plami 10-oktyabr, 2021-yil 2-son, 2-qism. ст. 165-168

ZAMONAVIY OLIY TA’LIM TIZIMIDAGI TARAQQIYOT ODIMLARI

Maxmudova Sitora Olimjonovna
Adaxamova Munavvara O‘ktam qizi
Maktab menejmenti yo‘nalishi 4-kurs talabasi, Jizzax DPU

Annotatsiya:

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va yangicha yondashuvlar haqida fikr yuritiladi. Yurtimizni taraqqiyotning yangi bosqichiga olib chiqish, barcha kuch-g‘ayratni birlashtirish va fidokorona mehnat qilish orqali Yangi O‘zbekistonni, pirovardida, Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish. Bundan tashqari, xalqaro miqyosda ham ta’lim sohasida yetakchi o‘rinlarni egallash maqsadida ko‘plab tanlovlarda oliy ta’lim muassasalarining faol ishtirokini ta’minlash kabilar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *Oliy ta’lim, yoshlar, vazirlik, islohot, ta’lim qonunlari, renessans, ta’lim kredit, tyutor.*

Annotation:

This article reflects on the reforms and new approaches in the field of development of the education system in the Republic of Uzbekistan. By bringing our country to a new stage of development, by combining all efforts and selfless work, we will create New Uzbekistan, ultimately, Building the foundations of the Third Renaissance. In addition, in order to take leading positions in the field of education at the international level, it will be covered such as ensuring the active participation of higher education institutions in many competitions.

Key words: *Higher education, youth, ministry, reform, education laws, renaissance, education credit, tutor.*

Kirish

So‘nggi yillarda ta’lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, oliy ta’lim tizimida islohotlar va amaliy chora-tadbirlar judayam keng ko‘lamli amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovich O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda ta’kidlaganlaridek: “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq”[63]. Har qanday maqsad va islohotlar natijadorligiga ilm-fan bilan yetib boriladi. U qayerda rivojlanmasin, paydo bo‘lmasin, jahon taraqqiyotiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Buni rivojlangan davlatlar yuksalishida ilm-fan asosiy omil vazifasini o‘tayotganidan ham ko‘rish mumkin. Mamlakatimizda yoshlarning oliy ta’lim olishiga katta sharoitlar yaratib berilyotgani tufayli oliy ta’lim muassasalari soni 2,5 barobarga ortib, 200 taga yetdi. Qamrov darajasi esa 9 foizdan 38 foizga oshdi. Eng muhimi, oliy ta’lim olish uchun imtiyozli kreditlash tizimi, ayollarga foizsiz kredit ajratish amaliyoti joriy qilindi. 2017-yilga qadar oliy ta’lim muassasalarida grant o‘rinlari soni faqat qisqarib kelgan bo‘lsa, so‘nggi olti yilda grantlarni ko‘paytirish yo‘lidan borildi. Xususan, o‘tgan davrda oliy ta’limga ajratilgan davlat grantlari soni 75 foizga, ehtiyojmand oilalar farzandi bo‘lgan xotin-qizlar uchun davlat grantlari soni ikki baravarga oshirildi.

2020-yilda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning yangilangan tahriri qabul qilingani davlatimizning shu boradagi maqsadlarini aniq ifodalab berdi, desak mubolag‘a emas. Ushbu hujjatda ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta’lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo‘yildi.

Masalan, qonunning 5-moddasida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanishi belgilab qo‘yildi. [64] Bu nima degani? Bu har bir yosh o‘zi istagan oliy ta’lim dargohida o‘qiydi, ta’lim oladi, degani. Hujjatning 11-moddasidan esa oliy ta’lim bo‘yicha alohida qoidalar o‘rin olgan. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham oliy ta’lim sohasida davlat xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish belgilangan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 51-moddasida “Fuqarolar davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olishga haqliligi, oliy ta’lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqiga ega”ligi belgilab qo‘yildi.[65] Bu esa mamlakatimizda yoshlar siyosati ustuvor ekanligiga zo‘r ishoradir. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad iqtidorli yoshlar uchun davlat granti asosida bakalavriat va magistratura bosqichida ta’lim olish orqali hayotda o‘zlarini to‘laqonli namoyon etish imkoniyatini kengaytirishdir. Albatta, ta’lim sohasiga bu darajada katta e’tibor qaratilayotgani

[63] Sh.M. Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan.
[64] “Ta'lim to'g'risida”gi qonun, 2020 yil, 23-sentabr.
[65] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

bejiz emas. Yurtimizdagi 28 ta oliy o‘quv yurti TOP–1000 talik reytingga kirish uchun da’vogar sifatida qayd etildi. Ushbu reytingda universitetlarning 4 ta yo‘nalishdagi samaradorlik ko‘rsatkichlari baholandi. Tanlovda belgilangan ushbu mezonlardan ham ko‘rinib turibdiki, oliy o‘quv yurtlaridagi o‘quv va tashkiliy samaradorlik sezilarli o‘sib bormoqda.

Rivojlangan mamlakatlarni nodavlat ta’lim xizmatlari, jumladan Yevropa davlatlaridan Germaniya, Buyuk Britaniya va Osiyo mamlakatlaridan Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya tizimi turlicha tashkil etilgan bo‘lsa-da, ulardagi o‘quv, o‘quv uslubiy ishlari tashkil etilishi ham ijobiy tomonlari bilan ajralib turadi. Ushbu xalqaro kuzatuvlar natijasida mamlakatimiz oliy ta’lim tizimini ham yangi bosqichga olib chiqish davri keldi. Chunki biz zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallagan avlodni kamol toptirishimiz lozim. Birinchi vazifa esa aholining oliy ta’lim bilan qamrab olinganlik darajasini muttasil oshirib borishdan iborat bo‘ladi. Keyingi yillarda oliy ta’lim tizimiga nodavlat va xususiy sektorning, ko‘plab xorijiy oliy o‘quv yurtlari va filiallarining kirib kelishi ijobiy holat bo‘ldi.

Barchamizga ma’lumki, bugungi kunda oliy ta’limga kirish uchun yoshlarmizga 20 ga yaqin imtiyoz berilgan bo‘lib, ularning asosiy qismi davlat granti asosida qabul qilinadi. Shu bilan birga talabalarga ham turli imtiyoz va imkoniyatlar yaratilib kelinmoqda. Jumladan, 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun to‘lov-kontrakt miqdorini o‘quv yili davomida teng ulushlarda to‘rtga bo‘lib to‘lash huquqi berildi. 2021-2022-o‘quv yilida mulkchilik shaklidan qat’iy nazar barcha oliy ta’lim muassasalarida koronavirus infeksiyasiga qarshi ixtiyoriy ravishda emlangan talabalarga – belgilangan to‘lov-kontrakt miqdorlariga nisbatan 10 foiz chegirma bonusi berildi.

2021-yil 1-maydan boshlab yotoqxona bilan qamrab olinmagan, ijara huquqi asosida yashaydigan davlat oliy ta’lim muassasalari talabalarining 60 foiziga ular tomonidan to‘lanadigan oylik ijara to‘lovining 50 foizi Davlat byudjeti hisobidan qoplab berilishi belgilandi. Bunda ijara to‘lovining qoplab beriladigan qismi Toshkent shahrida – bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari qolgan hududlarda – bazaviy hisoblash miqdorining 0,5 baravaridan oshmasligi, ijara to‘lovining qoplab beriladigan qismi birinchi navbatda ehtiyojmand oila farzandlariga, o‘rnak ko‘rsatgan va faol talabalar uchun qoplab berilishi, oliy ta’lim muassasalari tomonidan ularning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan ijara huquqi asosida yashaydigan boshqa talabalarga ham oylik ijara to‘lovining bir qismi qoplab berilishi mumkin.

2021-2022-o‘quv yilidan boshlab respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan barcha oliy ta’lim tashkilotlari (davlat, nodavlat, xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari va ularning filiallari)da va qo‘shma ta’lim dasturlari bo‘yicha bakalavriatning kunduzgi ta’lim shaklida hamda magistratura bosqichida to‘lov-kontrakt asosida tahsil olish uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga tijorat banklari tomonidan imtiyozli ta’lim kreditlari ajratishning yangi tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bunda kredit foizini hisoblash va to‘lash oliy ta’lim muassasasiga mablag‘lar o‘tkazilgan sanadan boshlab, kreditning asosiy qarzini qaytarish esa o‘qishning rasmiy belgilangan muddati tugatganidan so‘ng yettinchi oydan boshlab 7 yil davomida to‘lanadi.

Tyutorlar faoliyatining joriy etilishiga katta e’tibor qaratilmoqda. 2021 yil 1-sentyabrdan talabalar bilan ishlash bo‘yicha “guruh murabbiyi” instituti bekor qilindi hamda o‘rniga 1–3-kurs talabalari uchun muammolarni bartaraf etishda yaqindan yordam ko‘rsatuvchi tyutorlarni biriktirish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.2021-2022-o‘quv yilida 97 ta OTMda kunduzgi va kechki ta’lim shakllarida tahsil olayotgan 1-3-kurs 402 ming 602 nafar talabalar uchun 2 ming 806 ta shtat birligida “Tyutor” lavozimi joriy etilib, barchasiga oliy ma’lumotli mutaxassislar ishga qabul qilindi. Natijada talaba bilan ishlash samarasi 2 barobarga ortgan holda har bir oliy ta’lim muassasasida talabalarning axloqiy tarbiyasi bilan doimiy ishlaydigan vakil paydo bo‘ldi. Oliy ta’lim muassasalarida “Karyera markazlari” faoliyati yo‘lga qo‘yilib, uning tarkibida “Kovorking ofis”lari tashkil etildi.

Darhaqiqat, balandparvozliklardan holi bo‘lgan bu ko‘rsatkichlarda yoshlarning samarali oliy ta’lim olishi uchun keng imkoniyatlar mujassam bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M. Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2-bob.
3. https://www.unicef.org
4. https://daryo.uz
5. https://my.edu.uz
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
7. “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun” 2020-yil, 23-sentabr

THE IMPACT OF MODERN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT PRACTICES ON FACULTY RETENTION AND ENGAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abdurasulov Xudoyshukur
4th year student of School Management
Jizzakh State Pedagogical University and
The winner of Navai Stipendium and “Millat Umidi”
Scientific supervisor: Usmanov Azamat Joraboyevich
Senior teacher of the Department of School Management, Jizzakh SPU

Abstract:

The article explores modern HRM practices in higher education, focusing on strategies for enhancing faculty engagement and retention. It discusses how institutions attract diverse candidates through strategic hiring and inclusive job descriptions. Professional development programs like workshops, mentorship, and performance evaluations are highlighted as key to faculty growth and motivation.

The article also emphasizes the importance of promoting work-life balance through flexible scheduling and support services, which enhance faculty satisfaction. It identifies four critical factors influencing retention: job satisfaction, institutional support, career advancement opportunities, and a collaborative work environment.

Overall, the article shows that effective HRM practices are essential for improving faculty engagement and ensuring institutional success.

Key words: *faculty engagement, human resource management (HRM), higher education, faculty retention, professional development, diversity and inclusion, performance management, work-life balance, institutional support, job satisfaction, career advancement, mentorship programs, collaborative work environment*

Introduction

The higher education landscape is evolving, necessitating a shift in HRM practices to retain faculty and enhance their engagement. Faculty engagement is crucial for institutional success, influencing student outcomes and institutional reputation. Higher education institutions employ strategic hiring practices to attract a diverse pool of candidates. This includes targeted outreach efforts and the creation of inclusive job descriptions that reflect the institution’s values. A rigorous selection process, often involving comprehensive interviews and assessments, helps ensure candidates are a good fit for both the role and the institutional culture. To enhance faculty skills and knowledge, institutions offer ongoing professional development programs. These may include workshops, conferences, and seminars. Additionally, mentorship programs are often established, pairing new faculty with experienced mentors to support their professional growth and integration into the academic community. Effective performance management systems are crucial for faculty development. Institutions implement regular performance evaluations that provide constructive

feedback and identify areas for improvement. Goal-setting initiatives encourage faculty to align their personal and professional objectives with the institution's mission, fostering accountability and motivation. Promoting work-life balance is essential for faculty satisfaction and retention. Institutions often offer flexible scheduling options, allowing faculty to adjust their hours or work remotely. Supportive policies, such as childcare assistance, wellness programs, and mental health resources, help faculty manage personal commitments while maintaining their professional responsibilities. Faculty retention is crucial for the stability and success of educational institutions. High turnover rates can disrupt student learning, hinder institutional growth, and negatively impact campus culture. Understanding the factors that contribute to faculty retention is essential for creating an environment where educators feel valued and motivated to stay. Four key factors significantly influence faculty retention: job satisfaction, institutional support, career advancement opportunities, and work environment.

Job satisfaction plays a fundamental role in faculty retention. It encompasses various elements, including workload, recognition, and personal fulfillment in teaching and research. Faculty members who find joy in their work and feel that their contributions are acknowledged are more likely to remain at their institutions. Factors such as fair evaluation processes, positive student interactions, and meaningful engagement in academic pursuits contribute to higher job satisfaction. Institutions that actively seek faculty feedback and implement changes based on that input can enhance satisfaction levels, thus promoting retention. Institutional support is another critical factor in faculty retention. This includes access to resources such as research funding, administrative assistance, and professional development opportunities. Faculty who feel supported by their administration are more likely to stay long-term. Effective leadership and clear communication from the administration foster a sense of belonging and investment in the institution. Moreover, mentorship programs can provide new faculty with guidance and resources, helping them navigate their roles more effectively. Career advancement opportunities are vital for faculty members seeking to grow professionally. Institutions that offer clear pathways for promotions, tenure, and professional development tend to retain more faculty. These opportunities can include workshops, conferences, and programs that facilitate skill enhancement. When faculty members see a future within the institution, they are more likely to commit to their roles and invest in their students and colleagues. The work environment significantly affects faculty retention. A collaborative, inclusive, and respectful atmosphere encourages faculty to remain at their institutions. Facilities that promote interaction and teamwork, along with a culture that values diversity and equity, can lead to a more satisfied faculty body. Additionally, adequate resources, such as updated technology and research facilities, contribute to a positive work environment. Institutions that prioritize a healthy work-life balance also see higher retention rates, as faculty appreciate flexibility and support for their personal well-being.

Engagement metrics are essential for assessing how faculty members connect with their institution and colleagues. High engagement levels are linked to better retention rates, enhanced job satisfaction, and improved student outcomes. Key engagement metrics include commitment to the institution, participation in institutional activities, and collaboration and collegiality. Commitment to the institution is a fundamental metric of faculty engagement. This reflects faculty members' emotional and professional attachment to their institution, which can influence their willingness to contribute beyond their teaching duties. Engaged faculty are more likely to align with the institution's mission and values, advocate for its goals, and remain long-term. Measuring this commitment can involve surveys assessing faculty perceptions of institutional goals, leadership effectiveness, and alignment with personal values. Participation in institutional activities is another critical engagement metric. This includes involvement in committees, governance, professional development workshops, and campus events. Active participation not only fosters a sense of belonging but also enhances faculty visibility within the institution. Metrics can be gathered through tracking attendance at events, committee involvement, and contributions to institutional initiatives.

Higher participation levels often correlate with greater faculty satisfaction and investment in the institution's success. Collaboration and collegiality are vital for creating a supportive academic environment. Engaged faculty members actively collaborate with colleagues on research, teaching, and community outreach. This collaboration fosters innovation and enhances the overall academic experience. Measuring collegiality can involve assessing faculty perceptions of teamwork, opportunities for interdisciplinary projects, and social interactions within departments. Strong collegial relationships contribute to a positive work environment and are a significant factor in faculty retention.

In the evolving landscape of higher education, faculty engagement has become a key priority for institutions striving for excellence. Engagement, often characterized by motivation, commitment, and active participation, plays a crucial role in the overall success and effectiveness of academic institutions. One significant way to enhance faculty engagement is through professional development. Providing faculty with opportunities for growth and learning not only equips them with the necessary skills to succeed but also fosters a sense of belonging, motivation, and dedication. This essay explores how professional development initiatives can significantly increase faculty engagement and why they are essential for the sustainability and success of higher education institutions.

Professional development programs offer faculty members opportunities to enhance their skills, stay current with the latest developments in their fields, and develop leadership and teaching abilities. These programs often include workshops, seminars, mentorship programs, research grants, and leadership training. When faculty members have access to continuous learning opportunities, they are more likely to remain motivated, engaged, and committed to their work. They feel valued by their institutions, knowing that their growth is being supported and that their contributions are recognized. This not only improves their performance but also fosters a positive work environment that encourages collaboration and innovation. Professional development has a direct impact on faculty engagement in several ways. First, it offers faculty members the chance to advance their careers, which can be a powerful motivator. When they see clear pathways for growth and development, they are more likely to stay committed to their roles and institutions. For example, universities that offer support for research projects or provide grants for faculty to pursue their studies encourage a culture of continuous improvement and achievement. Such initiatives not only boost the confidence of faculty members but also promote their active participation in academic and institutional activities. Second, professional development programs create a sense of community among faculty. Collaborative workshops, training sessions, and mentorship programs foster a shared learning experience that brings faculty members together. This sense of community strengthens relationships, enhances collaboration, and ultimately increases engagement. When faculty members feel that they are part of a supportive network, they are more likely to engage in institutional initiatives and contribute positively to the academic environment. Several universities have successfully implemented professional development programs that significantly enhance faculty engagement. For example, institutions that provide targeted teaching workshops focusing on innovative methods and technology integration have reported improved faculty satisfaction and student outcomes. Such programs not only help faculty members adapt to new teaching methods but also empower them to explore creative and effective ways of engaging students in their courses. Additionally, institutions that offer sabbatical programs or research grants often see increased faculty retention and satisfaction. These programs provide faculty with time and resources to pursue their research interests, which helps them achieve professional goals and fosters a sense of accomplishment and engagement with their work. By prioritizing the development of their faculty, these institutions create an environment where faculty feel valued, supported, and motivated to contribute their best efforts.

Despite the clear benefits of professional development, higher education institutions face several challenges in implementing these programs effectively. Budget constraints, time limitations,

and balancing faculty workload with development opportunities are common barriers. Many institutions struggle to allocate sufficient resources for professional development, making it difficult to offer high-quality programs or support all faculty members equally. Additionally, faculty may face challenges in finding time to participate in these programs while managing teaching, research, and administrative responsibilities. To overcome thesese challenges, institutions must prioritize professional development as a strategic investment rather than a secondary initiative. This may involve seeking external funding, forming partnerships with other institutions, or implementing online programs that offer flexibility for faculty with demanding schedules. By finding innovative solutions to these challenges, higher education institutions can ensure that their professional development programs are accessible, effective, and impactful.

In conclusion, professional development is a powerful tool for enhancing faculty engagement in higher education. By providing opportunities for growth and learning, institutions can foster a motivated and committed faculty, which is essential for maintaining high academic standards and achieving institutional goals. Despite the challenges in implementing professional development programs, the benefits they provide such as improved faculty performance, satisfaction, and retention ake them a critical component of any institution's strategy for success. As higher education continues to evolve, investing in faculty development will remain a key factor in building a vibrant, engaged, and effective academic community.

References:

1. Books on Human Resource Management in Higher Education:

- Human Resource Management in Higher Education: Contemporary Challenges and Practices by various authors.

- The Essentials of Managing Human Resources in Higher Education by various scholars and educators.

2. Academic Journals:

- Articles from journals such as Higher Education Management and Policy, Journal of Human Resources, The Journal of Higher Education, and Research in Higher Education.

- Specific articles as:

- "Impact of Professional Development on Faculty Engagement" in The Journal of Higher Education.

- "The Role of Institutional Support in Faculty Retention" in Research in Higher Education.

3. Institutional Reports and Case Studies:

- Reports published by organizations such as the American Council on Education (ACE), Association of American Colleges and Universities (AAC&U), or The Chronicle of Higher Education.

- Case studies on successful HR practices in specific universities or colleges.

4. Government and Educational Organization Publications:

- Reports from the National Center for Education Statistics (NCES) on faculty retention and engagement.

5. The Chronicle of Higher Education

- https://www.chronicle.com

- The Chronicle provides up-to-date articles, research, and insights on higher education, including HR practices, faculty engagement, and professional development initiatives.

6. Inside Higher Ed

- https://www.insidehighered.com

- This site offers news, opinion pieces, and resources related to higher education management, faculty retention, and HR strategies.

7. Society for Human Resource Management (SHRM)

- https://www.shrm.org

- SHRM includes a variety of resources on HR practices that can be applied in higher education, including professional development, performance management, and employee engagement strategies.

8. American Council on Education (ACE)

- https://www.acenet.edu

- ACE provides reports and research focused on leadership, professional development, and HRM strategies in higher education institutions.

9. Association of American Colleges and Universities (AAC&U)

- https://www.aacu.org

- This organization offers resources, publications, and data related to faculty development, diversity and inclusion, and strategic HR practices in higher education.

10. National Center for Education Statistics (NCES)

- https://nces.ed.gov

- The NCES provides statistical data and reports on faculty demographics, retention rates, and other HR-related topics within higher education.

11. EduCause

- https://www.educause.edu

- EduCause offers insights into how technology and innovation impact HR practices and faculty engagement in higher education.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION TA’LIM METODLARI VA TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI O‘QUV JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Qandaxarov Bobomurod Do‘stmaxmat o‘g‘li
Abduxoliqova Malika Juman qizi
Rashidova Noila Bosimovna
Maktab menejmenti yo‘nalishi 4-bosqich talabalari

Anotatsiya:
Maqolada oliy ta’lim muassasalarining darslarida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishning afzalliklari yoritilgan. Zamonaviy ta’limni olib borishda axborot texnologiyalarining o‘rni haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *axborot texnologiyalari, tarbiya, taqdimot, multimedia, videolavha.*

Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari va ularni qo‘llash masalalari, innovatsion o‘zgarish va yondashuvlar, tizimga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o‘qituvchi faoliyatini yangilash va o‘zgartirish orqali amalga oshirilishi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu faoliyat – uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo‘lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391- son qaroriga muvofiq oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish, ta’lim jarayonini o‘quv-metodik ta’minlash hamda oliy ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida oliy ta’lim muassasalari faoliyatida ilg‘or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o‘qitish usullaridan keng foydalanish asosida o‘quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish, shuningdek, ta’lim jarayoni sifatini izchil oshirib borish, o‘qitishning samarali shakllari va usullari hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha bugungi kunda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda[66].

Innovatsion texnologiyalar asosida mantiqiy fikrlash uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonida ma’lum

[66] Sh. Mirziyoyev. 2019-yil 11-iyuldagi PF-5763-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

o‘zgarishlarga, ta’lim mazmuni, sifati boyishiga va samarali tashkil etilishiga sabab bo‘ladigan turli tashabbus va yangiliklarning yaxlit tizimida namoyon bo‘ladi. Ilm, fan va texnikaning jadal rivojlanishi, yangi texnika va texnologiyalarning jamiyatning barcha qatlamlariga kirib borishi, axborot texnologiyasi vositalarining barcha davlat va nodavlat muassasalarida qo‘llanilishi o‘qituvchilardan uzluksiz bilim olishni talab qilmoqda. O‘qituvchilarning faoliyati ko‘p qirrali bo‘lib, ular boshqaruvchi, muloqot qiluvchi, yo‘naltiruvchi, tashkil etuvchi va baholovchi rollarini amalga oshirishlari kerak bo‘ladi.Ta’lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetish, amaliyotda ta’lim muassasalarini innovatsion jarayonlarga qo‘shilishini taqozo etmoqda, o‘zini yaratish imkoni mavjud innovatsion maydonda ko‘rish va eng muhimi aniq yangiliklarni o‘zlashtirishdan iborat.

Ta’lim sohasi – mamlakatimizda birinchilardan bo‘lib faol innovatsion harakatni boshladi. Ma’lum bosqichda XX asr oxirlarida bunday harakatlar yo‘lga qo‘yilgan edi. Masalan, A.G.Rivin va V.K.Dyachenko tomonidan o‘qitishni jamoaviy o‘qitish, D.B.Elkonin, V.V.Davidov, L.V.Zankovlar tomonidan ilgari surilgan rivojlantiruvchi innovatsion ta’lim to‘g‘risidagi qarashlar o‘z vaqtida ma’lum ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga boshqa innovatsion ta’lim texnologiyalari: dialektik o‘qitish usullari (A.I.Goncharuk, V.L.Zarina), o‘qitishning individual yo‘nalishli usuli (A.A.Yarulov), “Ekologiya va dialektika” (L.V.Tarasov), evristik o‘qitish (A.V.Xutorskoy) dialog madaniyati (V.S.Bibler, S.Yu.Kurganov), loyihali o‘z-o‘zini refleksiya (G.P.Shedrovitskaya) va b.q.larni keltirish mumkin[67]. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, har tomonlama rivojlangan innovatsion tizimga ega mamlakatlardagina innovatsiya jarayonlari samarali amalga oshirilib, texnologiyalar va boshqa ilmtalab mahsulotlar tijoratlashtirilmoqda. Bu jarayonda davlatning ishtiroki, iqtisodiyotning real sektori va yetakchi kompaniyalarning innovatsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga egadir. Zero, ilm-fan davlatning texnik taraqqiyoti va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlaydigan ushbu integratsiya mexanizmining asosini tashkil qiladi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo‘llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Bunday metodlarni qo‘llash ta’lim samaradorligi va ta’sirchanligini oshiradi, o‘quvchilarning o‘qish motivlarini o‘stiradi.Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik yaratish, yangilikdir. Demak an’anaviy ta’limdagi kabi bir xil shablonlar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta’lim jarayonining ta’sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya demakdir. Ta’limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o‘quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interaktiv metodlardan foydalanish ta’lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Ayni paytda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars o‘tishning yangicha usullari ta’lim jarayonida ulkan yutuqlar olib kelmoqda. Ta’lim sohasida bugungi kunda keng qo‘llanilayotgan texnologiyalar talabalar, o‘quvchilar tomonidan mavzular bo‘yicha materiallarni mustaqil o‘rganib topish, taxlil qilish, xatto xulosalar chiqarishga ham o‘rgatmoqda. Hozirgi davrda ta’limda interfaol usullardan foydalangan holda dars mashg‘ulotlari tashkil etib kelinmoqda. Interfaol usuldan foydalanishda har bir o‘qituvchi mavjud vositalar va o‘z imkoniyatidan kelib chiqqan holda amalga oshiradi. Shundan kelib chiqqan holda talabalar ham o‘zmotivlari va intellectual salohiyatlaridan kelib chiqqan holda darslarni turli darajada o‘zlashtirishadi. Interfaol mashg‘ulotlarni amalda qo‘llash bo‘yicha dunyo tajribalarini o‘rganish asosida darsning sifat va samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi bir necha omillarni sanab o‘tamiz. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy-metodik hamda o‘qituvchiga, o‘quvchilarga, ta’lim vositalariga bog‘liq omillar deb atash mumkin. Ular o‘z mohiyatiga ko‘ra ijobiy va salbit ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tashkiliy pedagogik omillarga quyidagilar kiradi:

- o‘qituvchilardan interfaol mashg‘ulot olib boruvchi mutaxassisklar jamoasini tayyorlash;
- o‘qituvchilarga interfaol usullarni o‘rgatishni tashkil etish;

[67] S.Qo‘chqorova, A.Norbekov “Masofaviy ta’lim texnologiyasi”, ma’ruza matni, Navoiy, 2020.

- o‘quv xonasini zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash;
- o‘qituvchining ish joyi qulay bo‘lishini ta’minlash;
- sanitariya-gigiena qoidalariga amal qilish
- davomat va intizomni saqlash

Ilmiy-metodik omillarga quyidagilar kiradi:

- DTS talablarining bajarilishini hamda darsdan ko‘zda tutilgan maqsadga to‘liq erishishni ta’minlash uchun maqsadga muvofiq bo‘lgan interfaol usullarni to‘g‘ri tanlash;
- interfaol mashg‘ulotning har bir elementi o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq bo‘lishini ta’minlash;
- mashg‘ulotlar mavzusi va mazmunini so‘nggi ilmiy-nazariy ma’lumotlar asosida belgilash;
- o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini oldindan aniqlash va shunga mos darajadagi interfaol mashg‘ulotlarni o‘tkazish;

Dars loyihasini tuzishda o‘qituvchi o‘zining ish shakllari va o‘quvchilarning ko‘nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o‘qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega. Metod tanlashda ko‘proq interaktiv metodlarga e’tiborni qaratish ta’lim samaradorligini oshiradi. (Interaktiv so‘zi inglizcha interaction, ya’ni, inter – aro, o‘zaro, act – harakat ma’nosini anglatadi.) Interaktiv usullar – bu o‘zaro harakat, ya’ni hamkorlik asosida o‘qitish demakdir. Interaktiv usullarning 4 asosiy turi mavjud. Bular: - kognitiv usullar; - o‘yinlar, eksperimental faoliyat; - ishbilarmonlik o‘yinlari, modellashtirish; - amaliyot orqali o‘qitish, bevosita faoliyat. Interaktiv usullarning barchasida ham o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati o‘rtasidagi hamkorlik, o‘quvchining ta’lim jarayonidagi faol harakati ko‘zda tutiladi. Masalan, biror bir mavzuni o‘rgatishda uni modellashtirish qismida o‘qituvchi o‘quvchilarga modelni namoyish qilish oldida “Aqliy hujum” metodidan foydalanishi mumkin. Ya’ni o‘quvchilar qo‘yilgan muammoni qanday tushunishlari va ko‘nikmani qanday egallashlari mumkinligi ulardan so‘ralib, ularning fikrlari umumlashtiriladi.

Bunda o‘quvchilar fikri mutlaqo tanqid qilinmaydi. Amaliy boshqaruv qismida o‘qituvchi “Hamrohingga o‘rgat” metodidan foydalanishi mumkin. Bu metod darsni optimal tashkil etishga imkoniyat yaratib, o‘quvchilarning o‘z faoliyatini tanqidiy nazorat qilish va xatolarni bartaraf etishga o‘rgatadi.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan isloxotlar tufayli oliy ta’lim tizimida ta’limning yangi bosqichga olib chiqdi. Ta’lim sohasi shu qadar rivojlandiki yashash joyidan turib, o‘qish imkoniyati chekka qishloqlarda yashovchilarda katta shaxarlarga borib, o‘qishga kirib o‘qish imkoniyati har doim xam bo‘lavermaydi. Masofaviy ta’lim texnologiyalari ularga o‘z shaxridan ketmasdan turib, o‘qish imkoniyatini yaratib berdi.

O‘qish va ishni birga qo‘shib olib borish- o‘quvchilar ishdan ajralmagan holda ta’lim olish imkoniga ega bo‘ladilar, bu ayniqsa malaka oshirish yoki ikkinchi oliy ma’lumot oluvchilarga juda qo‘l keladi Sifatli texnologiyalar va o‘quv mazmunini egallash, talabalarni sifatli o‘quv materiallari yordamida o‘qitilishi, o‘qituvchilar bilan muloqot qilishi va o‘z individual o‘quv rejasini tuzishi mumkin.

Baxolashning xolisligi-masofaviy ta’lim texnologiyalari bilim sifatining doimiy nazorat, natijalarning baxolanishi, inson omilidan xoli bo‘lgan xolis avtomatlashtirilgan baholash joylarida moddiy manfaatdorlikni yo‘qotishni ko‘zda tutadi.Xulosa qiladigan bo‘lsak o‘quv jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalar roli kun sayin ortib bormoqda. Masofaviy texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta’limning imkoniyatlarni yanada kengaytirdi. Bugungi kunda yer kurrasining istalgan joydan turib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) imkoniyatlaridan foydalanilgan holda ta’lim olish mumkin[68].

Zero an’anaviy talim o‘z mavqeini saqlab tursa xam, keying paytlarda masofaviy o‘qitish texnologiyalari kundan-kun ommaviylashib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda yangi jahon axborot ta’lim muhitiga integrallashishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimini barpo etilmoqda. Bu

[68] N.Duseinov, B.Ahmedov, “Masofaviy ta’limtizimi” ilmiy maqola, researchgate.net, 2021.

ta’lim jarayonini tashkil eitishda zamonaviy texnik imkoniyatlarga javob beradigan sezilarli o‘zgarishlar bilan kuzatilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim sohasiga kirib kelishi ta’lim usullari va o‘qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o‘zgartirish imkonini bermoqda. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim tizimini modernizatsiyalashtirish jarayonining eng muhim qismi bo‘lib kelmoqda.

Mamlakatimizda 2019 yilning oktabrida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi qabul qilindi. Unda oliy ta’lim muassasalarida oquv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish ahamiyatli yangilik boldi. Pandemiya sharoitida 2030 yilgacha Rivojlanish kontsepsiyasida kozda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish kutilmagan va ko‘p jihatdan majburiy tezlashuvni qamrab oldi. Muammolarga yetarlicha javob berish uchun butun ta’lim tizimini, shu jumladan, nafaqat oliy ma’lumotni, balki o‘rta maktabni va hatto maktabgacha ta’limni zudlik bilan qayta tashkil etish kerak edi.

Qisqa vaqt ichida O‘zbekistonning to‘liq ta’lim tizimi raqamli va masofaviy ta’lim tamoyillari asosida qayta qurildi va ishga tushirildi[69].

Xulosa. Hozirgi zamon talabidan kelib chiqqan holda, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda, o‘qitishning pedagogik va axborot texnologiyalari asosida amalga oshirilishi ta’lim sifati va samarodorligini oshirishda muhim o‘rin egallaydi. Ularqo‘yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o‘quv jarayoni rejalashtiradi va amalga oshiradi. O‘quvchilarga vizual materiallar orqali hissiy ta’sir ko‘rsatadi. Zero, mashg‘ulotlarning muvaffaqiyatli o‘tishining 80 foizi ta’lim jarayonini to‘g‘ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog‘liqdir. Interfaollikning ta’minlanishi axborotlarni taqdim etishning boshqa vositalari bilan taqqoslaganda raqamli multimedianing muhim yutuqlaridan hisoblanadi. Interfaollik ta’lim oluvchining ehtiyojlariga mos ravishda tegishli axborotlarni taqdim etishni nazarda tutadi. Interfaollik ma’lum bir darajada axborotlarni taqdim etishni boshqarish imkonini beradi: ta’lim oluvchilar dasturda belgilangan sozlovlarni individual tarzda o‘zgartirishi, natijalarini o‘rganishi, foydalanuvchining muayyan xohishi haqidagi dastur so‘roviga javob berishi, materiallarni taqdim etish tezligini hamda takrorlashlar sonini belgilashi mumkin.

Lekin multimediadan foydalanishda bir qator jihatlarni e’tiborga olish muhim. Multimediada taqdim etilayotgan o‘quv materiallari tushunish uchun qulay bo‘lishi, zamonaviy axborotlar va qulay vositalar orqali taqdim etilishi talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PD-3775-sonli “Oliy ta’limmuassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. Sh. Mirziyoyev. 2019-yil 11-iyuldagi PF-5763-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

3. S.Qo‘chqorova, A.Norbekov “Masofaviy ta’lim texnologiyasi”, ma’ruza matni, Navoiy, 2020.

4. N.Duseinov, B.Ahmedov, “Masofaviy ta’limtizimi” ilmiy maqola, researchgate.net, 2021.

Internet saytlari:

1. lex.uz
2. kun.uz

[69] O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PD-3775-sonli “Oliy ta’limmuassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko`lamli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi Farmoni.

YANGI O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM MUASSASALARINI TIZIMLI RIVOJLANTIRISH VA TASHKILIY BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Davlatova Nafosat
Anvarova Mahliyo
Jo‘raqulova Shaxnoza
Maktab menejmenti yo‘nalishi 4-kurs talabalari, Jizzax DPU

Annotatsiya.
Mazkur maqolada ta’lim sifatini boshqarish muammosining dolzarbligi jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar, davlatning ta’lim siyosatidagi o‘zgarishlar bilan ham bog‘liqligi haqida fikr yuritiladi. Ta’lim sifatini falsafiy va ijtimoiy-iqtisodiy tahlil qilishning muammoli va ko‘p qirrali ta’lim tizimini o‘rganishni, mas’ul sub’ektlarni - oliy ta’limning manfaatdor tomonlarini aniqlashni, ularning qoniqish darajasini va ushbu ta’rifga asoslanib, universitet faoliyatining strategiyasini nazarda tutadi.

Kalit so‘zlar: *Menejer, inson kapitali, Ta’lim muassasalari, xalqaro reyting, ta’lim sifati, tizimli yondashuv, ta’lim qonunchiligi, oliy ta’lim, ta’lim to‘g‘risidagi qonun.*

Kirish

Mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini ta’minlash malakali ta’lim menejerlariga bevosita bog‘liq. O‘zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning mazmun-mohiyati, birinchi navbatda, iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlarini jadal suratlar bilan izchil rivojlantirishdan iborat. Bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishda tarmoqlar uchun chuqur bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega salohiyatli yosh kadrlarni tayyorlash alohida o‘rin egallaydi.

Asosiy qism

Ushbu maqsad - inson kapitalini yuksaltirish O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining eng muhim, uzviy qismlaridan biridir. Bu yo‘lda oliy ta’lim tizimini har tomonlama rivojlantirish, uni malakali va amaliy tajribaga ega bo‘lgan shijoatkor mutaxassislar bilan ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan tizimli chora - tadbirlar natijasida oliy ta’lim mmuassasalarining moddiy-texnik bazasi, huquqiy-me’yoriy, metodik ta’minoti bosqichma-bosqich mustahkamlanib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasida” davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish kabi yo‘nalishlar belgilangan bo‘lib, bu o‘z navbatida, mazkur jarayonni tadqiq etish va tahliliy yo‘nalishga ega bo‘lgan pedagogik tizim sifatida ko‘rib chiqishda oliy ta’lim muassasalarida boshqarish strategiyasini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaroriga asosan oliy ta’lim tashkilotlari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish, ta’lim sifatini yanada yuqori bosqichga olib chiqish va ularni xalqaro reytinglarga kirishiga har tomonlama ko‘maklashish maqsadida Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan so‘nggi uch yilda oliy ta’lim muassasalarining Milliy reytingi e’lon qilinib borilmoqda. Oliy ta’lim standartlarimiz ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirilmoqda. Har yili OTMning reytingi o‘rganilib chiqib, OAV shaffoflik va oshkorolik bilan xalqqa taqdim etilmoqda. Bu oliygohlar o‘rtasida raqobot muhitining shakllanishiga sabab bo‘ldi.

Ta’lim muassasalari sharoitida boshqaruvning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

- sub’ekt va ob’ekt o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xosligi: boshqarish ob’ekti va sub’ekt bir vaqtning o‘zida;
- Oliy ta’lim muassasasi nisbati normalangan va normalanmagan ishchi soat;
- Oliy ta’lim muassasasi mehnat xususiyati, rag‘batlantirish;

- Oliy ta’lim muassasasining ichki va tashqi muhitining dinamikasi.

Oliy ta’lim muassasasi boshqaruviga tizimli yondashuvidagi asosiy tushuncha «tizim» atamasidir. Tizimni bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan hodisa, jarayon yoki ob’ektsifatida ko‘rib chiqish mumkinligini ta’kidlash o‘rinli ko‘rinadi. Tadqiqotchilarning ishlarini tahlil qilish kelajakdagi ishlarda hisobga olinadigan tizimlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlaydigan quyidagilarni aniqlashga imkon berdi:

- tizim o‘zaro bog‘liq va o‘zaro bog‘liq qismlar to‘plamidir. Tizimni tarkibiy qismlar, ularning aloqalarini o‘rnatish asosida tavsiflash mumkin. Tizimning xatti-harakati uning elementlarining xatti-harakatlari va xususiyatlari bilan belgilanadi;

- tizimlar paydo bo‘ladigan, ajralmas bo‘lib, butun xususiyatlarining ularning tarkibiy elementlari xususiyatlarining yig‘indisiga qisqartirilmasligi, shuningdek, integratsiyaning so‘nggi fazilatlarining paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi;

- tizim elementlari xilma-xilligi bilan ajralib turadi, har bir element o‘z funksiyalari va tuzilishiga ega bo‘lsa, tizim ham bo‘lishi mumkin;

- tizimlar tashqi omillar ta’ siriga munosabat bildirganda sifatli aniqlik va xususiyatlarni saqlab qoladi, bu uning barqarorligini ta’minlashga imkon beradi;

- tizimni alohida ko‘rib chiqishda tashqi muhit ta’siridan cheklash mumkin bo‘lsa, uni izolyatsiya qilingan ob’ekt sifatida ham ko‘rib chiqish mum-kin;

- tizim ma’lum bir muhitda mavjud bo‘lgan va rivojlanayotgan, atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatadigan ob’ektiv haqiqatning bir qismi sifatida ishlaydi;

- tizim ierarxiya bilan tavsiflanadi, chunki u tizimostining tarkibiy qismidir;

- tizimlar rivojlanish darajasida farq qiladi;

- tizimlar ichki tashkil etilgan hodisadir;

- tizimlar barqaror.

Yangi O‘zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida to‘lqinlanib so‘zlamaslikning iloji yo‘q. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llabquvvatlaydi”. Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.cBugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta’lim muassasalari ilm-fanning yirik o‘choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas.

Hozirda yangi-yangi oliy o‘quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so‘nggi 5 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta’lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o‘quv yurtlarining soni 125 taga etdi. Axborot texnologiyalar asri deb nom olgan XXI asrda hayotning barcha jabhalarida – sanoat, qurilish, kimyo, qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, mashinasozlik va boshqa sohalarda yuksak taraqqiyotni yuzaga keltirish uchun ilm-fanni rivojlantirish, bu borada yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bu jarayon endilikda dunyoda taraqqiyot yo‘lini tutgan barcha mamlakatlarda e’tirof etilmoqda. Respublikamizda ham ana shu jarayonga alohida e’tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda —

Konsepsiya) oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan. Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi. Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat: ta’lim ustuvorligining tan olinishi;

- ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;
- ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi;
- ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;
- ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;
- ta’limning uzluksizligi va izchilligi;
- o‘n bir yillik ta’limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashning majburiyligi;
- davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- o‘quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi;
- jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag‘batlantirilishi;
- ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg‘unligi;
- ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

Xulosa

Hozirgi kunda oliy ta’lim muasasalarini boshqarish sohasida har bir rahbar xodimlar va professor-o‘qituvchilar normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan o‘z huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini bilishi lozim. Ayni paytda ta’lim tizimining oliy ta’lim turini amalga oshiruvchi oliy ta’lim muassasasi mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi, iqtisodiyotning real tarmoqlari uchun yuqori malakali mutaxassis-kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyotini hisobga olib, yuksak ma’naviy-ma’rifiy sifatlarga, mustaqil fikrlash qobiliyatiga hamda jamiyatning ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojini ta’minlashga qodir barkamol avlod, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash borasida oliy ta’lim muassasalari zimmasiga katta mas’uliyat yuklanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Узбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 2 мартдаги "2017 - 2021 йилларда Узбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йуналиши буйича Ҳаракатлар стратегиясини «Илм, маърифат ва ракамли иктисодиётни ривожлантириш йили»да амалга оширишга ПФ-5953-сон Фармони. https://lex.uz//

2. Узбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тугрисида"ги карори, Узбекистон Республикаси конун хужжатлари туплами, ПК - 2909 -сонли, 18-сон, 313-модда , 2017 йил 20 апрель.

3. https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimi-va-yangicha-yondashuvlar

TALABA-YOSHLARDA VATANPARVARLIK FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIY-AXLOQIY TUSHUNCHALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY JIHATLARI

Jumanazarova Dilnoza Umirzaqovna
p.f.n., dotsent.

Annotasiya.
Ushbu maqolada talaba-yoshlarda vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishda ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid bo'lgan asosiy tushunchalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari to'g'risidagi fikrlar tahlilga tortilgan. Shuningdek, ma'naviy-axloqiy fazilatlarning ijtimoiy-tarixiy va pedagogik-psixologik asoslari xususida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: *vatanparvarlik fazilati, ma'naviy-axloqiy tushunchalar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, shaxs, millat, milliy tarbiya, ma'naviyat, axloq, odob, pedagogik tarbiya.*

Abstract.
This article analyzes the theoretical and practical aspects of the use of the main concepts related to spiritual and moral education in the formation of patriotic qualities in students. Also, the social-historical and pedagogical-psychological foundations of spiritual and moral qualities were discussed.

Key words: *the virtue of patriotism, spiritual and moral concepts, spiritual and moral education, personality, nation, national education, spirituality, morality, manners, pedagogical education.*

Tarixdan ma'lumki, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, yangilanishlar, islohotlar sari intilayotgan har bir jamiyatda, birinchi galda shu yurt istiqbolini mustahkamlash, muhim strategik taraqqiyotini belgilash bilan bir qatorda, yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Bugungi yangidan rivojlanayotgan davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri ham aynan milliy-ma'naviy tarbiya usullarini ishlab chiqish va zamonaviy jamiyatda milliy o'zlikni anglash tendensiyalarini joriy etish hisoblanadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya yuksak ma'naviyatning asosi, yuksak ma'naviyat esa har qanday davlatning negizi ekanligini hisobga olsak, hozirgi yangi O'zbekistonda milliy qadriyatlarimizni yanada yuksaltirish, yoshlarda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani ham bejiz emas albatta. Darhaqiqat prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, - "...jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi - ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz" [Mirziyoyev, 2001:4].

Shu nuqtai nazardan yosh avlodni globallashuv jarayonlariga raqobatbardosh shaxslar etib tarbiyalashda milliy dunyoqarash va mentalitetga xos belgilar muhim o'rin tutadi. Shaxs ma'naviyati va uning ta'lim-tarbiyadagi o'rni haqida gap ketar ekan, insonning his-tuyg'ularida ifodalanadigan, o'zligini ko'rsatadigan Vatan, Shaxs, Millat, Adolat kabi ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan bog'liq, yuksak ma'naviyatli inson tarbiyasi va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga daxldor tayanch tushunchalar ham borki, bularsiz yoshlarda vatanparvarlik fazilatlarini singdirish mushkul. Bu tushunchalarning shaxs ma'naviyatida qaydarajada o'rin egallaganligi haqida so'z yuritganda, eng avvalo, insonning o'zi shu tushunchalarga qaydarajada munosabatda bo'lishini ham hisobga olish zarur, busiz shaxs ma'naviyatining mazmun-mohiyati to'lig'icha ochilmay qoladi.

Vatan nihoyatda keng qamrovli tushuncha[O'zbek tilining izohli lo'g'ati, 1981: 156-157] bo'lib, u milliy ma'naviyatimizga xos eng oliy ma'naviy qadriyat sifatida har xil ma'nolarda qo'llanadim [Imomnazarov B, 2007: 173-175]. Agarda ana shu talqinlarning hammasi hisobga olinmasa, qiyosiy tahlildan o'tkazilmasa va yaxlit bir xulosaga kelinmasa, vatan tushunchasining ilmiy, islomiy va xalq talqinlardagi ma'nolarini endigina o'sib kelayotgan yosh avlod ongiga, shuuriga singdirib bo'lmaydi. Biz masalaning ana shu jihatlariga e'tiborimizni qaratdik va natijada,

Vatan tushunchasining keng qamrovli ma’nolari haqidagi kuzatishlarimiz bizga insonning moddiy makonga nisbatan ma’naviy munosabatiga ko‘ra, vatanni anglash bosqichlarini ma’lum bir tartibda belgilash imkoniyat berdi.

Shaxs ma’naviyatining mazmun-mohiyatining ifodalaydigan, yuksak ma’naviyatli inson tarbiyasi va ma’naviy-axloqiy fazilatlari bilan bevosita bog‘liq Shaxs, Millat, Adolat kabi tushunchalar ham bor. Ularning anglatgan ma’nolari ham bir-biri bilan uzviy va chambarchas bog‘liq. Shaxs va millat tushunchalarining ma’nolariga e’tibor berilganda inson tushunchasini ham nazardan qochirmaslik zarur.

Inson – ma’naviy kamolot imkoniyatiga ega bo‘lgan moddiy (biologik) mavjudot. Aslida insonning ijtimoiy mavjudot ekanligi ham “ma’naviy kamolot imkoniyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi”[Imomnazarov B, 2007: 23-244]. Shaxsni esa “o‘z ma’naviy kamolot imkoniyatlarini yuzaga chiqara boshlagan, ya’ni o‘zligini anglay olgan inson”[Imomnazarov B, 2007: 244] deb atash mumkin. Shaxs ma’naviyatida inson (shaxs) bilan millat tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq: aslida shaxslarsiz millatni yoki uning aksi, millatni shaxslarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Har bir shaxs, biror elat yoki millatga mansub bo‘lmay iloji yo‘q, hech bir inson eldan butkul ajralib yashay olmaydi. Prezidentimizning so‘zi bilan aytganda, har bir inson “o‘zini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o‘ylab, mehnat qilib, yashagandagina ma’naviyat bilan tutashadi [Karimov I, 1996: 81]. Bundan kelib chiqadigan yakuniy xulosa shuki, shaxs (inson) ma’naviyatini millat ma’naviyatidan hech qachon ajratish mumkin emas.

M.Imomnazarovning to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek, inson ma’naviyati ming bir sifat, behisob jihat va qirralar bilan jilovlanadi: hayo va andisha, vafo va sadoqat, o‘ktamlik va tashabbuskorlik, himmat va sahovat, jur’at va shijoat, oriyat va hokisorlik, bosiqlik va hilim, farosat va zakovat, balog‘at va fasohat, mardonalik va ma’suliyat va hokazo... Xullas, jam’i insoniy fazilatlar ma’naviyat darakchilaridir. Ularning har biri orqali inson botiniy dunyosi haqida muayyan tasavvur hosil qilish mumkin. Ma’naviyatning o‘zak tomiri esa Haqiqat ishqi, meyor va uyg‘unlikda ifodalanadi [Imomnazarov B, 2007: 253-254].

Milliy ma’naviyat tushunchasi muayyan elat, millatga, uning ajdodlariga xos bo‘lgan bag‘oyat qimmatli ma’naviy boyliklarini ifodalaydi. Aslida, milliy ma’naviyat boshqa millat ma’naviyatidan tubdan farq qiladigan ma’naviyat degani emas. Chunki bizdagi milliy ma’naviyat boshqa xalqlarda ham muayyan tarzda mavjud. Ammo, milliy ma’naviyatda boshqa xalqlarning ma’naviyati aynan takrorlanmaydi. Milliy ma’naviyat avvalo tarixiy xodisa ekanligi bilan ajralib turadi: bir kunda, bir yilda yoki o‘n yilda mukammal shakllanmaydi, balki uning takomillashuvi millat tarixi bilan chambarchas bog‘liq hodisadir. M.Imomnazarov milliy ma’naviyatimizning tarixiy takomilini shartli ravishda uch yirik davrga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etgan. Ular: “1. Islomgacha milliy ma’naviyatimiz taraqqiyoti. 2. Islom mintaqa madaniyati doirasida milliy ma’naviyatimiz takomili. 3. Yangi davrda milliy ma’naviyatimiz ahvoli. Bu davrlar o‘z qamrab olgan muddatlariga ko‘ra o‘zaro teng emas. Birinchi davr necha ming yilni qamrasa, ikkinchi davr 8-9 asrni o‘z ichiga oladi, uchinchi davr esa bizning o‘lkamiz – Turkiston uchun 5 asr chamasi davom etib, oxirgi 200 yili ko‘proq fojialarga to‘liq bo‘ldi. Bu davrlar o‘z navbatida yana bir qator bosqichlarga bo‘linadi” [Imomnazarov B, 2007: 309-310]. Albatta, ushbu fikrlarni qo‘llab-quvvatlaymiz va ayni paytda, milliy ma’naviyatimizning yangi bir davri mavjudligini ham alohida ta’kidlaymiz: bu - mustaqillik davridagi millat ma’naviyatidir.

Xalqimiz uchun umuminsoniy ma’naviyat bilan birga milliy ma’naviyat va uning boyliklari ham g‘oyat qadrliki, ular bevosita mumtoz milliy ma’naviyatimizning bevosita davomi sanaladi. Ularga do‘stlik, o‘rtoqlik, mehmondo‘stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, tadbirkorlik, saxiylik, xushmuomilalik, jamoa ichida o‘zini tuta bilishlik, xayolilik, hurmat bilan muomila qilish, ozodalik, xushchaqchaklik, xushfe’llik, mardlik, samimiylik, lutfu karamlilik, oilaparvarlik, shirinso‘zlik, tashabbuskorlik, ona-yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostguylik, halollik, or-nomuslilik, to‘g‘rilik, poklik, sabr-andishalilik, vazminlik, hojatbarorlik, mehnatsevarlik, o‘tmishga hurmat, insoflilik, iymonlilik, milliy g‘urur, mustaqillikni

qadrlash, vatanparvarlik, millatparvarlik va boshqalar milliy ma’naviy-axloqiy fazilatlar, insoniy xislatlar va sifatlar kiradi.

Ko‘ramizki, milliy ma’naviyat millatimizga bevosita aloqador hisoblanuvchi o‘tmish ajdodlar, bugungi zamondoshlar va qolaversa, kelajakdagi yangi avlodlar ma’naviyatining majmuidan iborat. U aslida millatimizning ma’naviy takomil jarayonida tarixan tashkil topgan, o‘zining shonli tarixiga ega bo‘lgan va bugungi kunda ham mavjudligini saqlab turgan ko‘p o‘lchamli kundalik voqelik bo‘lib, ajdodlarimiz yaratgan ma’naviy-axloqiy merosida o‘z ifodasini topmoqda.

Milliy tarbiya – millatni, elatni tashkil qiluvchi kishilarning milliy madaniyatni, merosni, qadriyatlarni, urf-odatlarni, an’analarni o‘zlashtirishdagi faoliyatini rivojlantiruvchi pedagogik jarayon hisoblanadi. Bugungi kunda milliy tarbiya eng dolzarb muammo sifatida davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Mamlakatimiz fuqorolarida millatparvarlikni, xalqparvarlikni, mehnatsevarlikni, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish; meros, urf-odat va qadriyatlarni, fan texnika, texnologiyalarni o‘zlashtirishga intilishni takomillashtirish; milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini tushunib yetish va unga amal qilish ruhiyatini shakllantirish kabi milliy tarbiyaning asosiy yo‘nalishlari bugungi kunda alohida e’tibor berilayapti. Bu muammo boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham maxsus o‘rganilganligini [Hamdamova M, 2007: 50] qayd etish lozim bo‘ladi.

Umuman olganda xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ilmiy, dunyoviy, falsafiy, ma’rifiy, pedagogik, ruhiy va kundalik hayotda keng qo‘llaniladigan tayanch tushunchalari juda ko‘p. Tarixiy va hozirgi hayotda yuzlab insoniy xislatlar va sifatlar tarkibi mavjudki, ularning hammasi milliy tarbiyamizning, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarning asosini tashkil etadi. Bular ham biz nazarda tutayotgan tarbiyaning tayanch tushunchalari majmuiga mansubki, ularning hammasi faqat bitta o‘q ildizga – inson faoliyatiga borib taqaladi. Ularning eng muhimi va asosiysi – ma’naviy-axloqiy tarbiyaning tayanch tushunchalarini, mazmun-mohiyatini har bir fuqoro ongiga va faoliyatiga singdirish, ta’lim bosqichlaridagi har bir o‘quvchi-talabaga o‘rgatish, shu sohada, maxsus bilim, malaka va ko‘nikma hosil qildirishdir.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
2. Мирзиёев Ш.М. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик - миллий ғоямизнинг пойдеворидир. «Tasvir» нашриёт уйи. - Тошкент – 2021.
3. Имомназаров М. Миллий тараққиётнинг маънавий-ахлоқий асослари. Ўқув-услубий комплекс. - Т., 2007.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томлик. – М.: Русский язык, 1981. I том.
5. Ҳамдамова М. Узлуксиз таълим тизимида баркамол шахсни тарбиялаш технологияси. - Т., 2007.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘Z **3**

1-ShO‘BA. PEDAGOGIK OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA NAZARIYA VA AMALIYOT UYG‘UNLIGIGA ASOSLANGAN TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI **4**

Qodirov G'ayrat O'roqboyevich – **KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRUVCHI EVRISTIK TOPSHIRIQLAR VA ULARNING AHAMIYATI** **4**

Ablyakimova Refide Izmerovna – **BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA BOSHQARUVCHANLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ASPEKTI** **5**

Косимов Азимжон Санакулович – **РАБОТА С КАДРАМИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ: СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ** **8**

Rohila Atamurodova – **O‘QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA BADIIY ASARLARDAN FOYDALANISH** **11**

Мамаджонова Дильдорахон Абдурахмоновна – **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И НАУЧНЫЕ РЕШЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА В ТВОРЧЕСТВЕ ЖЕНЩИН-ПЕВИЦ, ОСНОВАННОГО НА ИНТЕГРАЦИИ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ** **13**

Alimbetova Mekhriban Muratbayevna – **THE ROLE OF AUTHENTIC TEXTS IN DEVELOPING LEXICAL COMPETENCE** **17**

Akmalova Mohinur, Asqarova Fayyoza – **BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING BOSHQARUV BILIM VA KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH HOLATINI TAHLIL QILISH** **19**

Mirzakarimov Ergashboy Mirzaboyevich, Fayzullayev Jamshid Ismoiljonovich – **NAZARIYA VA AMALIYOT UYG‘UNLIGIGA ASOSLANGAN TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA KOMPETENTLI YONDOSHUVNING AHAMIYATI** **21**

Akmalova Mohinur, Yoqubjonova Muxlisa – **NODAVLAT TA’LIM MUASSASALARIDA O‘QUV JARAYONINI TASHKIL QILISH ZARURATI** **25**

Shohruh Abdujalol o‘g‘li Qayumov – **TALABALARDA SPORT VA SALOMATLIK IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI** **27**

Botirov Shonazar, Qurbonova Durdona, Achilova Shoxsanam – **PEDAGOGIK OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHNING DOLZARB MUOMMOLARI VA YECHIMLARI** **30**

Шерматова Хуршида Каримовна, Имямин Киргизов – **ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ ЗНАНИЙ БУДУЩИХ МУЗЫКАЛЬНЫХ ПЕДАГОГОВ** **33**

Kavilova Tamara – **TEACHING LEGAL FRENCH IN THE FLE (FRENCH AS A FOREIGN LANGUAGE) CLASSROOM** **37**

Kavilova Laura – **TEACHING FRENCH LANGUAGE TO SPORTS STUDENTS: CHALLENGES AND STRATEGIES** **40**

Valieva Nargizakhon Zamir kizi – **THE INTEGRATION OF TECHNOLOGY IN SCIENCE EDUCATION** **43**

Yuldoshev Samad Tojiyevich – **PHONETIC AND GRAMMATICAL ASSIMILATION OF BORROWED WORDS** **47**

M.Ya.Kosimova – **MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING AT HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS** **49**

Оразымбетова Шахсанем Амирбековна – **АНАЛИЗ ИСТОРИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ ЦВЕТОБОЗНАЧАЮЩИХ ЛЕКСЕМ** **52**

Refide Ablyakimova Izmerovna, Tohirova Dildora Botir qizi, Lapasova Dilrabo – **TA'LIM IQTISODIYOTINING ZAMONAVIY KO'RINISHI** **55**

Jabborova Dilshoda Normuradovna – **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI** **58**

Kamolova Shirinoy Usarovna – **OILADA BOLALAR XULQ-ATVORI VA HISSIYOTINING SHAKLLANISHIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING AHAMIYATI** **62**

2-ShO'BA. OLIY TA'LIM MUASSASALARINING MILLIY VA XORIJIY TASHKILOTLAR BILAN TA'LIM, FAN VA INNOVATSION YO'NALISHLARDA O'ZARO HAMKORLIK ALOQALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI **66**

Azamat Usmonov – **TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALARINING O'RNI** **66**

Ablyakimova Refide Izmerovna, Abduxoliqova Marjona Ixtiyor qizi – **UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI XALQARO BAHOLASH DASTURLARIGA TAYYORLASHNING YUTUQ VA KAMCHILIKLARI** **71**

Tursunova Lola Aminjonovna – **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA ZAMONAVIY DIDAKTIKADAN FOYDALANGAN HOLDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH** **74**

Abdullayev Jahongir Ro'zmatovich, Ismatova Sevara Bo'riboy qizi, Qosimov Azimjon – **OLIY TA'LIMDA BAYNALMINALLASHTIRISH: MAVJUD MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR** **77**

Botirov Shonazar, Anorboyeva Farangiz, Sulxanova Feruza – **INNOVATSION TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISH** **81**

Xayitgul Muzaffarova, Lapasova Ra'no Anvar qizi – **MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONIGA RAQMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH** **84**

Tursunov Diyor Sunnatovich, Yoqubjonova Muxlisa – **NODAVLAT TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV JARAYONINI TASHKIL QILISH (XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA)** **87**

Suyunova Laylo Abdumo'min qizi, Nazarov Toshpo'lat Boshbek o'g'li – **OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA AMALIYOTGA ASOSLANGAN TA'LIM TAJRIBALARINI O'RGANISH VA ULARNI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA TATBIQ ETISH** **89**

Bo'riboyeva Aziza Sindor qizi, Eshmonova Sevinch Ikrom qizi, Qosimov Azimjon – **TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO ALOQALAR** **91**

Akramov Kozimjon Ibragimjon o'g'li – **G'ARBDA URBANIZATSION TARAQQIYOT VA SHAHARSOZLIKDAGI UMUMINSONIY JIHATLAR** **93**

Hasanov Suhrob Shavkat o'g'li – **ИСИГУРО КАДЗУРОНИНГ ПОЕТИК ОЛАМИ** **95**

3-ShO'BA. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION TA'LIM METODLARI VA TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI O'QUV JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH **103**

Букова Анна Александровна – **СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ ЗНАНИЯМИ** **103**

Nazarov Toshpo‘lat Boshbek o‘g‘li – **TA’LIM JARAYONIDA “MUNOZARA” VA “GURUH BILAN ISHLASH” TEXNOLOGIYALARIDAN MAQSADLI FOYDALANISH** **105**

Эгамбердиев Рустам Нарзуллаевич – **ФИЗИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ КАК ПРОПОГАНДА ДЛЯ УЧАЩЕЙСЯ МОЛОДЁЖИ** **107**

Хакбердиева Сайёра Фармоновна – **ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СЕМЬЯ» ЧЕРЕЗ ПОСЛОВИЧНО-ПОГОВОРНЫЙ ФОНД РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ** **112**

Хазратова Камола, Касымова Феруза Суннатовна – **ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ КАК МЕХАНИЗМ НОВЫХ СПОСОБОВ И СРЕДСТВ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ** **115**

Касымова Феруза Суннатовна – **СПОСОБ ОРГАНИЗАЦИИ ПАРНОЙ РАБОТЫ В СРЕДНИХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ (ПО МЕТОДИКЕ А.Г.РИВИНА)** **118**

Temurova Gulchehra Xudaykulovna, Jo‘rayeva Mehribonu Muhitdin qizi – **KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI RINOLALIYALI O‘QUVCHILARNING SO‘Z BOYLIGINI OSHIRISH VA SHAKLLANTIRISHDA LINGVISTIK VA PSIXOLOGIK TAHLIL NATIJALARI** **121**

Rajabova Laylo O‘tkir qizi – **TALABALAR UCHUN KOMPYUTER GRAFIKASI VOSITALARI ORQALI INTERFAOL O‘QUV MATERIALLARIDAN FOYDALANISH** **125**

Nutfullayev Muxtor Ne’matovich – **TASVIRIY SAN’AT VOSITASIDA YOSHLARDAGI INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI BOYITISH** **128**

Марасулова Иззат Мухаматсултановна – **ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДА ШКОЛЫ «УСТОЗ-ШОГИРД» В РАЗВИТИИ РЕМЕСЛА** **131**

Imomatova Umida Mirpulatovna – **TASVIRIY SAN’AT VOSITASIDA YOSHLARNING KASBIY-IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI** **134**

Bozorov Farxod Toyir o‘g‘li – **LOYIHALAR METODI ORQALI TASVIRIY SAN’AT YO‘NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH** **136**

Abduxamidov Quvonchbek Yangiboy o‘g‘li – **TASVIRIY SAN’AT YO‘NALISHIDAGI TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA YO‘NALTIRISH USULLARI** **139**

Zokirov Javohir G‘aybullo o‘g‘li – **ONA TILI DARSLARIDA QO‘LLANILADIGAN TA’LIM METODLARI TASNIFI** **142**

Qahhorova Sojida Bahodir qizi – **O‘QUVCHILARGA O‘QISH SAVODXONLIGI FANINI O‘ZLASHTIRISHIDA TA’LIM TEXNOLOGIYALAR ROLI** **145**

Muhayyo Umarova Turg‘unboy qizi – **VIZUAL VOSITALARNING METODLARDAGI KO‘RINISHI** **147**

Хуррамов Мусурмон Келдиёрович – **ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ФАОЛИЯТИГА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ** **150**

Jo‘raboyev Sirojiddin Olim o‘g‘li, Abdurashidov Hasan Doniyor o‘g‘li, Nazarov Toshpo‘lat – **SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING MAZMUNI** **155**

Anorboyeva Xulkar O‘ktam qizi, Boyto‘rayeva Nasiba – **PEDAGOGIKA FANLARINI O‘QITISHDA TA’LIMIY METODLARDAN FOYDALANISH** **158**

Tursunov Diyor Sunnatovich, Asqarova Fayyoza – **BOSHQARUV BILIM VA KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI** **161**

Yagyayeva Elvina Baxtiyarovna – **APPLICATION OF THE INDIVIDUALLY DIFFERENTIATED METHOD IN ORGANIZING INDEPENDENT WORK OF STUDENTS IN TEACHING ENGLISH IN TECHNICAL INSTITUTIONS** **164**

Boymatov Abdujabbor Eshqobilovich, Farsaxonova Sabohat Anvar qizi – **NEMIS TILINII O‘QITISHDA PEDAGOGIK USLUBLARNING AHAMIYATI** **167**

Bakhieva Palzada Bakhitbaevna – **THE EFFECTIVE TECHNIQUES FOR RAISIING LEARNERS' LANGUAGE AWARENESS** **169**

Baxrom Orziqulov – **YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TALABALARDA ZIYORAT TURIZMIGA OID BILIMLARNI O‘STIRISHNING AYRIM JIHATLARI** **171**

Asamatdinova Zulfiya – **DAVLAT TILINI (O‘ZBEK TILI) O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH** **174**

Nuratdinova Jupargul Satbayevna – **QISHLOQ XO‘JALIGI SOHALARIDA KASBIY MULOQOTGA O‘RGATISHDA INTERFAOL YONDASHUVNING O‘ZIGA XOSLIGI** **176**

Yusupova Nafisa Xursanaliyevna – **OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNING TA’LIM SIFATIGA TA’SIRI** **179**

G‘ayratov Otabek Baxtiyor o‘g‘li, Abduvohidov Sultonbek G‘ayrat o‘g‘li, Qo‘chqorov Isroil Anvar o‘g‘li – **OLIY TA’LIMDA NAZARIY BILIMLARNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISHNING AHAMIYATI** **182**

Севара Шермаматова – **ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ОБРАЗ В ЛИТЕРАТУРЕ** **186**

Maxmudova Nasiba Abdujabborovna – **TRANSPORT MASALASINI MATHCAD DASTURIDA OPTIMAL YECHIMINI TOPISH** **188**

Sattorov Abdusalom Mutalipovich – **TRANSPORT MASALASINI YECHISHDA MS EXCEL DASTURIDAN FOYDALANISH** **190**

4-ShO‘BA. YANGI O‘ZBEKISTONDA ZAMONAVIY OLIY TA’LIM TIZIMIDAGI MUHIM O‘ZGARISHLAR VA YANGICHA YONDASHUVLAR **194**

Tursunov Diyor Sunnatovich – **OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING IMIJINI YARATISH IMKONIYATLARINI OCHIB BERISH** **194**

Alibekov Davron Abdurakibovich – **YANGI O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM TIZIMIGA INNOVATSION YONDASHUVNING STRATEGIK AHAMIYATI** **197**

Джураев Акбар Салимович – **ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ЎҚУВ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНЛАРИНИ АДАПТИВ БОШҚАРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ПЕДАГОГИК ТИЗИМИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯ ҚИЛИШ УСТУВОР ОМИЛ СИФАТИДА** **199**

Асадов Элёрбек Кандиярович – **ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ** **203**

Азамат Усмонов – **ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА БОШҚАРУВНИНГ ИҚТИСОДИЙ ФУНКЦИОНАЛЛИГИ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ ИНДИКАТОРЛАРИ** **205**

Буранова Шохноза Абдуразаковна – **ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ГОТОВНОСТЬ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ** **217**

Буранова Шохноза Абдуразаковна – **ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ДОО И ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРЫ РОДИТЕЛЕЙ** **221**

Jabbarova Zaynab, Primqulova Zarina – **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA’LIM TIZIMIDAGI MUHIM O‘ZGARISHLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR** **224**

Usmon S. To‘pchiyev – **YOSHLAR TARBIYASIDA AJDODLAR MA’NAVIY MEROSINING O‘RNI** **227**

O‘ralova Odina Ravshanovna – **ABU NASR FOROBIY TABIIY, ILMIY VA IJTIMOIY BILIMLARNING ORNI HAQIDA** **230**

O‘ralova Odina Ravshanovna – **ABU NASR FOROBIYNING INSON BAXT- SAODATGA ERISHUVI HAQIDA** **233**

Radjapov Kamoladdin Erkayevich, Bekberganova Rayxon G‘ayrat qizi – **GLOBALLASHUV SHAROITIDA YANGI O‘ZBEKISTONNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA’LIM TIZIMINING O‘RNI VA ROLI** **236**

Qosimov Azimjon Sanaqul o‘g‘li – **JIZZAX VILOYATI MAHALLALARIDA IJTIMOIY-IQTISODIY MASALALAR: OLIY TA’LIM MUASSASALARI VA MAHALLA HAMKORLIK ALOQALARI** **240**

Mavlanova Nargiza Eshquzievna – **BOSHQARUV TIZIMIDA AYOLLARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISH** **243**

Kushbakov Qahramon Safar o‘g‘li – **O‘QITUVCHILARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING ILMIY KASBIY ASOSLARI** **246**

Kushbakov Qahramon Safar o‘g‘li, Ismatov Bekzod – **OLIY TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR** **249**

Ержанова Венера Кууанышбаевна – **ТАЛАБАЛАРНИ МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР АСОСИДА ТАРБИЯЛАШ МАСАЛАСИНИНГ ЭКСПЕРИМЕНТАЛ ТАДҚИҚИ** **253**

Matkarimova Nilufar Boqijon qizi – **STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI** **256**

D.A. Zaripova, M.Sh Salixova – **TEXNIK OLIY O‘QUV YURTI TALABALAR BILIMINI AI YORDAMIDA BAHOLASHNI AVTOMATLASHTIRISH VA TA’LIMDA FOYDALANISHNING NAZARIY TAHLILI** **261**

Tursunov Diyor Sunnatovich, Ataxanov Izzatbek Ergash o‘g‘li, Norbo‘tayev Abror Jahongir o‘g‘li – **OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION TA’LIM METODLARI VA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI** **263**

Ablyakimova Refide Izmerovna, Abduxoliqova Marjona Ixtiyor qizi, Toshpulatova Ismigul Asqarovna – **BOSHQARUV AMALIYOTIDA HR-MENEJMENT: MUHIM AHAMIYATI VA ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI** **266**

Akmalova Mohinur – **OLIY TA’LIMDA MARKETING FAOLIYATINI STRATEGIK REJALASHTIRISH** ... **269**

Мажидов Н.М.– **КАСБИЙ ЙЎНАЛИШНИ АНИҚЛАШ КАСБ ТАНЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА** **271**

Maxmudova Sitora Olimjonovna, Adaxamova Munavvara O‘ktam qizi – **ZAMONAVIY OLIY TA’LIM TIZIMIDAGI TARAQQIYOT ODIMLARI** **272**

Abdurasulov Xudoyshukur, Usmanov Azamat Joraboyevich – **THE IMPACT OF MODERN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT PRACTICES ON FACULTY RETENTION AND ENGAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS** **275**

Qandaxarov Bobomurod Do‘stmaxmat o‘g‘li, Abduxoliqova Malika Juman qizi, Rashidova Noila Bosimovna – **OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION TA’LIM METODLARI VA TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI O‘QUV JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH** **279**

Davlatova Nafosat, Anvarova Mahliyo, Jo‘raqulova Shaxnoza – **YANGI O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM MUASSASALARINI TIZIMLI RIVOJLANTIRISH VA TASHKILIY BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI** **283**

Jumanazarova Dilnoza Umirzaqovna – **TALABA-YOSHLARDA VATANPARVARLIK FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA MA’NAVIY-AXLOQIY TUSHUNCHALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY JIHATLARI** **283**

PEDAGOGIK OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA AMALIYOT BILAN UZVIYLIGINI TA’MINLASH MASALALARI
Respublika miqyosida ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya
2024-yil, 15-oktabr

Republic-wide scientific and scientific-technical conference
ISSUES OF ENSURING INTEGRATION WITH PRACTICE IN ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN INSTITUTIONS OF PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION
October 15, 2024

Республиканскую научно-техническую конференцию на тему
«РОЛЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА ВЗАИМОСВЯЗИ С ПРАКТИКОЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ»,
которая состоится 15 октября 2024 года

Muharrir: M.Jo‘raboyev
Musahhih: G.Kadirova
Sahifalovchi: S.Normuhammedov

Guvohnoma № 14-0003, 30.04.2020
Ofset qog‘ozi. Bosishga ruhsat etildi 19.12.2022
Format A4. Garnitura «Times New Roman».
Shartli bosma taboq 32
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 36

JDPU tahririy-nashriyot bo‘limida chop etildi.
130100, Sh.Rashidov shox ko‘chasi, 4-uy
Tel./faks: (+99872) 226-02-93
(+99893) 305-85-00